

SARIMSOKOV ABDILATIP ABDIRAXIMOVICH,
DEXKANOV NARIMON BURXONJONOVICH



JAHON TARIXI

(OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARINING
O'RTA ASRLAR TARIXI)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**SARIMSOKOV ABDILATIP ABDIRAXIMOVICH,
DEXKANOV NARIMON BURXONJONOVICH**

JAHON TARIXI

(Osiyo va Afrika mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi)

*Oliy o‘quv yurtlarining 5120300 – «Tarix (jahon mamlakatlari
bo‘yicha)» ta‘lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT
«O‘ZKITOB SAVDO NASHRIYOT
MATBAA IJODIY UYI»

2021

UO·K 94(100)(075.3)

KBK 63.3(0)

S 32

Sarimsokov A.A., Dexkanov N.B

Jahon tarixi (Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlar tarixi) [Matn]: oʻquv qoʻllanma / A.A.Sarimsokov, N.B.Dexkanov. – Toshkent: “OʻZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI”, 2021. – 304 b.

Masʼul muharrir:

Isoqov Baxtiyor Robiddinovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Rasulov Abdulla Nuritdinovich – tarix fanlari doktori, professor;

Ashirov Adxamjon Azimbayevich – tarix fanlari doktori, professor;


Madrahimov Zoxidjon Sharopovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur oʻquv qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy taʼlim muassasalari da taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha choratadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-3775-sonli hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy taʼlim muassasalarini oʻquv adabiyotlari bilan taʼminlash toʻgʻrisida»gi 816-sonli Qarori ijrosini taʼminlash maqsadida tayyorlangan. Oʻquv qoʻllanma oliy oʻquv yurtlari 5120300 – tarix (jahon mamlakatlari tarixi) taʼlim yoʻnalishida oʻqitiladigan «Jahon tarixi» fanining «Jahon tarixi III–IV qismlari (Oʻrta asrlar tarixi)» boʻyicha tayyorlangan. Unda jahon tarixining ajralmas qismi – Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlar tarixiga doir maʼlumotlar yoritilgan.

«Jahon tarixi» fanining mazkur qismi boʻyicha maxsus adabiyotlar yoki oʻquv qoʻllanmalar mavjud boʻlmaganligi sababli ushbu oʻquv qoʻllanma Osiyo va Afrikaning oʻrta asrlardagi davlatlari, ulardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bogʻliq masalalarni chuqurroq oʻzlashtirishda oliy oʻquv yurtlari tarixchi talabalariga amaliy koʻmak berishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020-yil 28 dekabrda 676-sonli buyrugʻiga asosan chop etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-7250-6-5



KIRISH

Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlar tarixi jahon tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Insoniyat oʻrta asrlar bosqichidan ancha uzoqlashib ketgan boʻlsa-da, uni oʻrganishning ahamiyati hanuzgacha susaygan emas. Feodal munosabatlar dunyoning barcha mamlakatlarida asrlar davomida rivojlanib, hukmron tuzumga aylangan. Mazkur tuzum Osiyo va Afrikada Yevropaga nisbatan ancha mustahkamroq boʻlgan hamda uzoqroq davom etgan. Feodal formatsiyaning umumiy qonuniyatlari har bir mamlakatda turli shakl va oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu munosabatlar alohida xalqlar oʻrtasida turli davrlarda va har xil sharoitlarda vujudga kelgan, rivojlangan va ayrim hollarda rivojlanish surʼatlari notekis kechganligi bilan ajralib turadi. Lekin, shunga qaramay oʻrta asr xronologiyasi shartli ravishda jahon miqyosida olingan: ilk oʻrta asrlar (III–IX), rivojlangan oʻrta asrlar (IX–XV), soʻnggi oʻrta asrlar (XV–XVII birinchi yarmi).

Oʻrta asrlarning davriy chegarasi shartli ravishda belgilangan va bu masalada hanuzgacha bahslar davom etmoqda. Ayniqsa, oʻrta asrlar va yangi davr chegarasi masalasi keskin tortishuvlarga sabab boʻlmoqda. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga koʻra mazkur davriy chegara, Sharqda oʻrta asrlar Buyuk fransuz inqilobi davrida (1789-y.), yana boshqalarning fikrlariga koʻra, esa oʻrta asrlar yakuni Konstantinopolning qulashi (1453-y.) va Buyuk geografik kashfiyotlar (1492-y.) bilan bogʻliq.

Osiyo va Afrikaning daryo vodiylari va dengiz sohillari qadimdan yuqori darajada rivojlangan ziroatchilik hududlari hisoblangan. Inson kuchi bilan katta va kichik sugʻorish tarmoqlari, suv ombor va toʻgʻonlar barpo etilib, sunʼiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik taraqqiy etgan. Qadimgi jamiyat metallsozlikda yuqori mahoratga erishgan. Masalan, Uzoq Sharq mamlakatlari ipak toʻqish bilan mashhur boʻlgan boʻlsa, Yaqin va Oʻrta Sharqda esa sifatli paxta matolari tayyorlanib, teriga yuqori darajada ishlov berilgan.

Osiyo va Afrika mamlakatlarida meʼmorchilik sohasi mukammal darajada taraqqiy etgan. Qadimgi dunyo ilmiy bilim va sanʼat sohasidagi katta yutuqlarni meros tariqasida qoldirgan. Matematika, astronomiya va tibbiyotda koʻplab kashfiyotlar qilingan, muhim

geografik va tarixiy ma'lumotlar to'plangan. Adabiy obidalar, qadimiy ibodatxonalar qoldiqlari hamda ulardagi haykaltaroshlik va hashamatli bezaklar qadimiy madaniyatdan dalolat beradi. Biroq, Osiyo va Afrika qit'alarining ayrim ulkan hududlari aholisiz qolib, xo'jalik maqsadlarida foyladanilmagan. Ushbu bepoyon dashtliklarda ko'chmanchi qabilalar yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanishgan.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda Sharq ilmiy bilim sohasida G'arbdan ancha oldinda bo'lgan. Yangi eraning dastlabki asrlarida Sharqda Xan imperiyasi, Sosoniylar davlati, Vizantiya, Kushon imperiyasi kabi yirik davlatlar mavjud bo'lishi bilan birga, ko'plab Osiyo va Afrika xalqlarining ajdodlari bu davrda ibtidoiy tuzum darajasida bo'lganlar.

Sharq mamlakatlarida feodal munosabatlarning vujudga kelishi muammosi tarixchilar tomonidan nisbatan kam o'rganilgan. Mintaqalardagi feodal munosabatlarning genezisi muddatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Xitoy tarixiga doir munozara bunga yaqqol misol bo'ladi. Aksariyat yevropalik tarixchilarning fikriga ko'ra, feodal munosabatlarning shakllanishi Xitoyda milodiy III asr bilan bog'lansa, xitoy tarixchilari esa miloddan avvalgi V va hatto XI asrlarga to'g'ri keladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Yana bir guruh tarixchilarning fikriga ko'ra, Sharqning ayrim mamlakatlarida o'rta asrlarga xos bo'lgan munosabatlarning shakllanishi g'arb davlatlariga nisbatan xronologik jihatdan oldinroq sodir bo'lgan. Bu esa Osiyo va Afrikaning boshqa mamlakatlarida feodal munosabatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi sezilarli darajada farq qilishini istisno etmaydi.

Feodal munosabatlarning ayrim ko'rinishlari quldorlik davrida ham uchraydi. Eron va Xitoydagi quldorlik tizimida yangi yo'nalish paydo bo'lib, u iqtisodiy va siyosiy hayotda uzoq davom etgan inqirozni keltirib chiqargan. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning ko'plab hududlarida tabaqalashuv gacha bo'lgan munosabatlar hukmron edi. Hindistonda quldorlikning yuqori darajada rivojlangan yirik markazlari vujudga kelgan, ammo aholining katta qismi tabaqalashuv gacha bo'lgan jamiyatda yoki patriarxal qullik sharoitida yashagan. Arabiston, Koreya, Yaponiya va Hindixitoy yarim orolida feodal munosabatlar o'troq dehqonlar va chorvador qabilalarda vujudga kelgan.

Sharq katta yer egaligining oʻziga xos xususiyatlaridan biri – uning koʻp tartiblilik, patriarxalligi va qulchilik koʻrinishlarining uzoq saqlanganligida namoyon boʻladi. Qulchilik Xitoyda imperator farmoni bilan 1911, Efiopiyada 1942, Saudiya Arabistonida 1962-yilda rasman tugatilgan. Bu holat ham bahslarga sabab boʻlmoqda. Inoue Kiyoshi, Xani Goro kabi yapon tarixchilari VII–IX asrlarda yapon jamiyatida qul mehnatidan foydalanilgan deb hisoblaydilar. Xalifalikning shakllanishi davrida arab jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimining mohiyati borasida olimlarning qarashlari bir xil emas. Janubiy Saharada yashovchi qabilalar va xalqlar tarixida qullar mehnatining oʻrni kam oʻrganilgan.

Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixida oʻtroq va koʻchmanchi qabilalar oʻrtasidagi munosabatlar masalasi juda muhim. Chunki, ushbu mamlakatlardagi qadimiy koʻchmanchilar xoʻjaligi asrlar davomida oʻzgarmagan holda saqlanib kelgan. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, agar dehqonlar va chorvadorlar oʻrtasidagi almashinuv jamiyatning rivojlanishiga turtki bergan boʻlsa, oʻtroq aholi hududlariga uyushtirilgan koʻchmanchilarning harbiy yurishlari ishlab chiqaruvchi kuchlarning qirilib ketishi hamda aholining maʼlum bir qismini halokatiga olib kelgan. Koʻchmanchi qabilalarning IV asrda Shimoliy Xitoy, V asrda Hindiston shimolidagi eftallar istilosi qishloq xoʻjaligini vayron qilish, qadimiy shaharlardagi koʻplab maktab va kutubxonalarni vayron boʻlishiga olib kelgan. Urush paytida minglab dehqonlar halok boʻlgan yoki qulga aylantirilgan.

Qishloq xoʻjaligi oʻrta asrlar iqtisodiyotining asosi boʻlganligi sababli ilk oʻrta asrlarda yer-mulk va unda ishlovchi dehqonlarga egalik qilish uchun shiddatli kurash boʻlgan. Sharq mamlakatlarining aksariyatida ushbu mulk davlat shaklida boʻlgan.

Yirik feodal mulk turli yoʻllar bilan shakllangan. II–V asrlardagi Hindiston huquqiy hujjatlariga koʻra, yerdan 20 yil foydalangan kishi uning egasiga aylangan boʻlsa, Arabistonda oʻlik yerlarni tutiltirib, unga uch yil ishlov bergan kishi yerning egasiga aylangan. Xitoy, Yaponiya, Hindistonda dindorlar qoʻlida ham koʻplab yerlar boʻlgan.

Ilk oʻrta asrlarda jamoalar parchalanib, dehqonlar yerga bogʻlanib qolgan. Feodallar dehqonlarni vaqtincha boʻlsa ham, oʻz egalariga qaram sifatida qoʻshib berilishini istagan. Biroq, dehqonlar xoʻjalik

faoliyatida ma'lum erkinliklarni saqlab qolgan.

Feodal munosabatlarning dastlabki davrida ekspluatatsiyaning asosiy shakli ishlab chiqaruvchilardan olinadigan soliq bo'lgan. Soliqlar ko'pincha mahsulot ko'rinishida, ba'zan esa pul ko'rinishida olingan. Soliqlardan tashqari dehqonlar yilning ma'lum davrida davlat, feodal va ibodatxonalar foydasiga tekinga ishlab berishga majbur bo'lgan. Qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga asoslangan hududlarda dehqonlar kanallar, suv omborlar va to'g'onlar barpo etishda majburiy ravishda ishlab berishgan. Ba'zan esa ular yo'llarni ta'mirlab, qal'a, saroy va ibodatxonalar qurganlar, og'ir yuklarni tashib, kema va qayiqlarni yasaganlar. Ayrim mamlakatlarda dehqonlarning ishlab berishi majbur bo'lgan kunlar qonun bilan belgilangan.

Qullarni soliq to'lovchi dehqonlarga yoki yarim qullarga hamda qaram dehqonlarga aylantirish ilk o'rta asrlarda amalga oshirilgan. Bu davrga oid tarixiy yilnomalarda qullarning yerga egalik qilishi, dehqonlar bilan bir qatorda ularga soliqlarning to'lanishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Qullarning dehqonlar tabaqasiga o'tishiga doir ma'lumotlar V–VII asrlardagi Xitoy tarixiy manbalarida aks etgan.

Uzoq Sharqdagi dehqonlar orasida soliq to'laydigan dehqonlar («yaxshi odamlar») alohida toifa sifatida ajratilgan. Arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarda turli millatlarga mansub bo'lgan dehqonlar va cho'ponlar o'rtasidagi diniy tafovut soliqlarning miqdoriga ham ta'sir ko'rsatgan. Aksincha, ayrim mamlakatlardagi soliq to'lovchilar esa yuqori tabaqaga ko'tarilishlari mumkin bo'lgan.

Shunday bo'lsa-da, Sharq mamlakatlarida ekspluatatsiya qilinadigan aholining aksariyati soliq to'laydigan dehqonlar bo'lib, ular shaxsan erkin, lekin yerga bog'langan edilar. Ilk o'rta asrlarda davlat yerlari (Xitoy, Koreya, Yaponiya), jamoa yerlari (Hindiston) va feodallar (Eron va Xitoy)ning yerlariga qaram dehqonlar birlashtirilgan. Ko'pgina manbalarda qochoqlarni qo'lga olish, bir joydan ikkinchi joyga o'tishini taqiqlash, aholini qat'iy ro'yxatga olish va tug'ilgan joyida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Sharq mamlakatlari uchun jamiyatning feodallashuvi davlat darajasida bo'lganligi o'ziga xosdir. Bunga misol tariqasida Arab xalifaligi, Xitoy imperiyalari, Koreyadagi Silla kabi davlatlarni keltirish mumkin. Shu bilan birga Hindiston va Indoneziya, Afrikaning bir

qator mintaqalaridagi ilk oʻrta asrlar davlatlari beqaror va qisqa vaqt mavjud boʻlib, feodal munosabatlarning shakllanishi asosan shaxsiy mulkchilik yoki knyazliklar doirasida boʻlgan.

Gʻoyaviy taʼsir quroli sifatida din muhim rol oʻynagan va feodal munosabatlarning mustahkamlanishiga yordam bergan. VII–VIII asrlarda Yaqin va Oʻrta Sharqda, Shimoliy Afrikada islom dini tez tarqalgan. Uzoq Sharq, janubi-sharqiy Osiyoda hind missionerlari olib kelgan buddaviylik asosiy dinga aylangan. Shu bilan birgalikda eski animistik dinlar – hinduiylik, sintonizm, totemizm, fetishizm ham saqlanib qolishda davom etgan.

Jamoa yoki mayda mulkdorlarning yerlarini tortib olinib, yirik mulkdorlarning yerlariga qoʻshilishi, ulardan soliq yoki yigʻimlar undirilishi, jamoaning parchalanib, maʼmuriy tashkilotga aylanishi, quldorlikni qayta tiklashga boʻlgan urinishlar xalq harakatlarini keltirib chiqargan. Koʻpincha feodallar jabrdiydalarga turli imtiyozlar berishga majbur boʻlgan. Ilk oʻrta asrlardagi xalq harakatlari keyingi davrlardagi singari uzoq va ommaviy boʻlgan.

Dehqonlarga yer ajratib berish va qul mehnatidan foydalanishning keskin qisqarishi qishloq xoʻjaligining taraqqiy etishiga sabab boʻlgan. Aholi sonining ortishi, yangi yerlarning oʻzlashtirilishi turmush tarzi va madaniyatning sezilarli darajada koʻtarilishiga sharoit yaratgan. Yovvoyi qabilalar yoki yosh davlatlar qoʻshinlarining istilolari qadimiy madaniyatlarni yoʻqotib yubora olmagan.

Feodal munosabatlar rivojlangan davrda sugʻorish tarmoqlari sezilarli darajada kengayib, suvchiqargichlar ixtiro qilingan, dalalarga ishlov berish usullari takomillashtirilgan va hosildorlik ortgan. Yangi qishloq xoʻjaligi madaniyati yaratilgan. Pillachilik bilan Xitoydan tashqari Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham shupʻullar boshlangan. Sabzavot yetishtirishning ayrim turlari Oʻrta Osiyodan Uzoq Sharqqa koʻchirilgan.

Hunarmandchilik markazlari boʻlgan shaharlarda meʼmorchilik sezilarli darajada yaxshilangan. Damashq, Bagʻdod, Chanʼan, Nara kabi shaharlar oʻsha davrning eng yirik shaharlari boʻlgan. Ajoyib va mulqasham musulmon masjidlari, koʻp qavatli buddaviylik ibodatxonalari, feodallarning ulugʻvor saroylari barpo etilgan. VIII asr boshlarida Xitoyda shlyuz tizimiga ega boʻlgan Buyuk kanal qurilishi tugallangan. Keyinchalik astronomiya, matematika,

kimyo, tibbiyot, ayniqsa, geografiya va tarix kabi fanlar rivojlangan. She'riyat gullab yashnagan.

O'sha davrda Osiyo mamlakatlarida savodxonlik kengaygan. VII asrda G'arbiy Yevropada ruhoniylarni hisobga olmaganda, ko'pchilik feodallar o'qish va yozishni mutlaqo bilmagan, Uzoq Sharqda esa feodal va amaldorlarning barchasi savodli bo'lgan. Dehqonlarning turmush darajasi ham qoniqarli darajada bo'lgan. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyot va madaniyat rivojiga turtki bergan.

Umuman olganda Osiyo katta yer egaligi Yevropadan oldin boshlangan, Sharq va G'arb turmush tarzidagi o'ziga xosliklar, Sharq davlatlarining ko'pchilik aholisi ko'chmanchi chorvador, sharqda doimiy migratsiyalar taraqqiyotga halal berib, ba'zan uni orqaga ham surib yuborgan, Sharq ijtimoiy tizimida harbiy demokratiya va quldorlik elementlari uzoq saqlangan.

O'quv qo'llanma asosan, oliy o'quv yurtlarining tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. U uch qismdan iborat bo'lib, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda quldorlik tuzumi o'rnida feodal munosabatlarning vujudga kelishi, ikkinchi bosqichda esa katta yer egaligining taraqqiyoti va uchinchi bosqichda esa mazkur tuzumning tanazzulga uchrashi jarayoni bo'lib o'tgan.

O'quv qo'llanmada o'rta asrlarda Osiyo va Afrikada mavjud bo'lgan asosiy davlatlar hamda jamiyatlarni qamrab olishga harakat qilindi. Biroq, ko'rsatilgan davr tarixidagi muammolarni bir xil darajada, batafsil va yetarli darajada yoritish anchagina murakkab vazifa bo'lib, mazkur o'quv qo'llanma bu boradagi chuqurroq va kengroq mazmundagi zamonaviy adabiyotlarni yaratish jarayonini boshlab beradi, degan umiddamiz.

I BO‘LIM. FEODAL MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI DAVRI

I BOB. ILK O‘RTA ASRLARDA XITOIY

III asrda Xitoy jamiyati. Xitoyda feodal munosabatlar Xan imperiyasi va shimoldagi qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumi zaiflashuvi asosida tarkib topa boshlagan.

Xan davlati Buyuk Xitoy devoridan Janubiy Xitoy dengizigacha bo‘lgan hududda joylashgan bo‘lib, 50 milliondan ortiq aholi yashagan. Qadimiy poytaxtlari Chan’an (Sian) va Loyan shaharlari edi. Xalq nomi *xanlar* bo‘lgan. Ipakchilik, kulolchilik, qurolsozlik, qog‘oz ishlab chiqarish rivojlangan.

O‘zaro urushlar va 184-yildagi «Sariq peshonabog‘lilar» qo‘zg‘olonlari mamlakatning zaiflashuviga sabab bo‘lgan. Natijada, imperiya uch lashkarboshi tomonidan bo‘lib olinib, «Uch podsholik davri» boshlangan.

Birinchi podsholik mamlakat shimoli va poytaxt tumanlarida vujudga kelib, unda qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri Sao-Sao hukmronlik qilgan. Ikkinchi podsholik U deb nomlanib, janubi-sharqda hozirgi Nankin tumani hududida bo‘lgan. Uchinchi esa mamlakat g‘arbidagi Shu davlati edi.

265-yilda Vey lashkarboshisi Sima Yan Sao-Sao avlodini tugatib Szin sulolasiga asos solgan. Shimolliklar dastlab Shu, 280-yilda esa U davlatini egallaganlar va imperator Sima Yan hukmronligi o‘rnatilgan.

280-yil Sima Yan tomonidan chiqarilgan qishloq xo‘jaligi tizimi to‘g‘risidagi farmonga binoan, xazina foydasiga ma‘lum shartlarni bajargan, mehnatga layoqatli 16–60 yoshli erkak va ayollar yer olishga huquqli bo‘lgan. 13–15 va 61–65 yoshlilar esa belgilangan yerning yarmini olishlari mumkin bo‘lgan. Yosh bolalar bilan qariyalarning yer olish uchun huquqlari bo‘lmagan, shuningdek, ular soliq ham to‘lamaganlar. Yer olganlar hosilning beshdan ikki qismini soliq sifatida to‘laganlar. Har bir hovlidan, agar boshliq erkak bo‘lsa, uch dona shoyi matosi va 3 o‘lchov birligida ipak olingan. Agar oila boshlig‘i ayol, o‘smir yoki qariya bo‘lsa, u holda belgilangan soliqning yarmi to‘langan. Davlat ishlarida yildaga o‘ttiz

kun ishlab berish majburiyati bo'lgan. Uzoq va chegara tumanlarida mazkur majburiyat muddati qisqaroq bo'lgan.

Bu tizim keyingi asrlardagi agrar tadbirlarning ham asosi bo'lib xizmat qilgan. Davlat xizmatidagi boyroq odamlarni jalb qilish maqsadida egallagan lavozimi va darajasiga qarab yer berilgan.

Oliy darajadagi amaldor mulkidagi davlat solig'idan ozod bo'lganlar soni 50 hovlidan oshmasligi shart bo'lgan. Islohot yuqori tabaqa manfaatlariga mos bo'lib, yerga davlat va xususiy egalik birlashib ketgan. Shuning uchun o'zaro raqobat zaif bo'lgan.

289-yil Sima Yan o'limidan so'ng taxt uchun kurash boshlanib, unga ko'chmanchi syanbi, uxuan va xunnlar aralashgan.

Ko'chmanchilar hujumi. III–IV asrlarda Xitoy shimolidan Rimga qadar bo'lgan hududda xalqlarning «buyuk ko'chishi» jarayoni davom etgan. Janubiy xunnlar (nan syunni), syanbi, di, syan, sze va boshqa qabilalar shimoldan O'rta Xitoy tekisligiga ko'chganlar. Qadimiy xanlar etnik beshigi shimoldagi xunnlar ittifoqi yemirilgach, janubiy guruh shimoliy Shansi va ichki Mo'g'uliston tumanlarida yashab qolgan. Ularning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Besh Xunn qabilasi vakillari boshliq – *Shanyuy* (Tangri quli)ni saylaganlar, keyinchalik u merosga aylangan.

Shanyuylar qadimdan imperator oilasidan qiz kelin olib kelganlar, ularning katta o'g'illari esa Xan saroyida faxriy garovda va Besh aymoq boshlig'i saroylarida yashab faoliyat ko'rsatganlar. Xunnlar ba'zan imperatorga yordam berib turganlar. Keyinroq, xunnlar imperiyasi zaiflashuvi oqibatida shanyuylar Xitoy taxtiga davogarlik qila boshlaganlar. Szin imperiyasi qo'shini markaziy tumanlarda joylashgan xunnlarga yetarli darajada qarshilik ko'rsata olmagan. 311-yilda Loyan, 316-yilda Chan'an qulagan. Xunnlar orqasidan imperiyaning quruqlik chegaralaridagi ko'plab qabilalar harakatga kelgan. Ularning ba'zilarida urug' tuzumi hukmron bo'lib, boshliqlar saylanar, ayollar katta huquqlarga ega bo'lgan. Ayrimlarida esa zodagonlar toifasi ajralib chiqq boshlagan.

Shimoli-sharqda eng kuchli qabila syanbi qabila ittifoqi bo'lib, Xitoy elchilari ulardan xunnlarga qarshi foydalanishga uringanlar. III asrda syanbilar bir necha ittifoqqa bo'lingan. *Muyunlar* janubiy Manjuriyada, *tobalar* ichki Mo'g'ulistonda hukmron bo'lganlar. Muyunlar xitoyliklar ko'magida hukmron Yan podsholigini o'rnatganlar.

Oʻrta podsholik yerlariga gʻarbdan Tibet guruhi qabilalari kelib Gansu, Shensi, Ninsya yerlarini egallab Sin davlatini barpo etganlar. Ular dastlab muyunlar soʻngra xanlar bilan toʻqnash kelganlar. Lekin, koʻchmanchilar podsholigi parchalanib tashlangan. Shimoliy Xitoyda tashkil etilgan podsholiklar mustahkam boʻlmay, odatda tez parchalanib ketardi. Qadimgi Xitoyning madaniyat oʻchogʻi boʻlgan shimol yuz yillar mobaynida jang maydoniga aylanib qolgan.

IV asr oxiriga kelib gʻarbiy syanbilarning toba qabilasi oʻzaro janglarga chek qoʻygan. Shimoliy Xitoy egallanib, ularning yetakchisi Toba Guy imperator deb eʼlon qilingan. Davlat tuzumida xitoy tajribasidan foydalanilgan. 367-yilda ular Xitoyning oʻziga bostirib kirganlar va Toba Guyning nabirasi shimoliy Xitoyda shimoliy Veylar sulolasi hukmronligini oʻrnatgan.

Janubiy va shimoliy davlatlar. Shimoliy Xitoyga koʻchmanchilarning bostirib kirishi anʼanaviy tarixshunoslikda janubiy va shimoliy sulolalar davri deb nomlangan bosqichni boshlab bergan. Qadimgi Xitoyda III–VI asrlardagi kabi shimol va janub oʻrtasidagi qarama-qarshilik boʻlmagan. Shimoldan millionlab aholi janubga qochib oʻtgan.

317-yilda Szyanda (Nankin tumanida) toʻplangan saroy ahli *Asima* xonadoni vakillaridan birini imperator deb eʼlon qilgan. Rasmiy yilnomachilar 317–419-yillarni sharqiy Szin sulolasi hukmronligi deb hisoblaydilar. Imperator hokimiyati zaif, yirik siyosiy mansablar shimoliy zodagonlar qoʻlida boʻlgan.

IV asr oxiri – V asr boshlaridagi dehqonlar qoʻzgʻoloni, hukmron tabaqa oʻrtasidagi ziddiyatlar sharqiy Szin hokimiyatining qulashiga olib kelgan. Shundan soʻng toʻrt sulola almashgan. Imperator hokimiyati poytaxt tumanidan tashqarida tan olinmagan. Alohida lashkarboshi tomonidan shimolga qilingan yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagan.

Tobi hukmronligi davrida Shimoliy Vey davlati ham inqirozga uchray boshlagan. Yerlar esa «kuchli xonadonlar» qoʻliga oʻta boshlagan. Hunarmandchilik deyarli toʻxtagan. 485-yilda yirik yer egaligini cheklashga qaratilgan imperator farmoni eʼlon qilingan. Tarixshunoslikda u «chek yer tizimi» deb nom olgan. U III asrdagi Szin davlati oʻtkazgan agrar islohotlarni davomi hisoblangan.

Qonunga koʻra, barcha dehqonlarga feodalga bogʻliq boʻlmagan

yerga egalik qilish huquqi berilgan. 15–17 yoshli erkak va ayollar haydaladigan yerga egalik qila olganlar. Erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq yer olgan. Yerda donli ekinlar yetishtirish majburiy hisoblangan. Qarilik yoshi, mehnatga layoqatsizlik, o'lim tufayligina yer boshqa kishi qo'liga o'tgan. Yerni sotish va ijaraga berish taqiqlangan. Chek yerning ikkinchi qismida kanop, sabzavot va tut daraxti yetishtirilgan. Yerning mazkur qismi amalda merosiy hisoblanar, uni ba'zi hollarda sotish mumkin bo'lgan. Chek yer uchun xazinaga don, ipak, kanop matosi hamda xomashyosi to'langan. Bundan tashqari, chek yer egasi ma'lum muddat davlat foydasiga ishlab bergan.

O'sha davrdagi boshqaruv tizimiga ko'ra, qishloqda besh hovli «*lin*» deb nomlangan jamoaga birlashgan. Besh «*lin*» o'rtacha jamoa – «*li*», 125 hovli bo'lsa, qishloq tashkiloti «*dan*»ni tashkil etgan. Bu birlashmalar qishloq oqsoqollari tomonidan boshqarilgan. Ba'zi yer egalari va oqsoqollar mukofot tariqasida soliqlardan ozod etilgan. Hovli (*xu*) hisob-kitob asosi bo'lib xizmat qilolmagan, chunki uning tarkibiga odatda bir necha qarindosh oila ham kirgan.

Tobi zodagonlari, «kuchli xonadon»lar, budda ibodatxonalari yerlarida qul va yarim qul (*butsyuy* – yerga bog'langan) hamda boshqa yerdan kelganlar (*kexu* – kelgindi) ishlagan. Bu tadbir ilk feodal markazlashgan imperiya kuchayishiga imkoniyat yaratgan. Boshqaruv tizimida qadimgi Xitoy shaklidan foydalanilgan.

Ushbu davrda tobilar orasida Xitoylashuv jarayoni boshlanib, Vey hukmronligi davrida xanlarning bilim va tajribalaridan keng foydalanganlar. Davlat idoralarida Xan amaldorlari yetakchilik qila boshlaganlar. Tobilar Xitoy etiketi, kiyimi, urf-odatlarini qabul qilib, shomonlikdan voz kechganlar va buddaviylikni qabul qilganlar. VI asrda Shimoliy Vey davlatida ellik mingga yaqin ibodatxona bo'lgan. Keyinroq, imperiya g'arbiy va sharqiy davlatlarga bo'lingan. VI asr o'rtalariga kelib hokimiyat xanlar qo'liga o'tgan.

Suy va Tan ilk feodal imperiyalarining tashkil topishi. VI asrning ikkinchi yarmida shimol va janub munosabatlari yumshagan. Ko'chmanchilar xanlar orasiga singib ketgan. Jangovar tobilar vujudga kelgan kuchini yo'qotgan. Buning ustiga Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ko'chmanchilarning Turk xoqonligi hujumi xavfi paydo bo'lgan. Bunday sharoitda shimol butun mamlakatni

birlashtirish tarafdori bo'lgan.

Shimoldagi davlatlardan biri Chjou birlashuv markaziga aylangan.

581-yilda shimol lashkarboshisi Yan Szyan Suy sulolasining imperatori deb e'lon qilingan (581–618). Siyosiy va iqtisodiy vaziyat ulkan mamlakatni harbiy yo'l bilan birlashtirishni taqozo qilgan.

Yangi sulolaning tashkil topishi Xitoy tarixi oqimini keskin burib yuborgan. To'rt asrlik qarama-qarshilik tugab, birlik va markazlashuv davri, iqtisodiy va madaniy rivojlanish boshlangan.

Yangi hokimiyat soliqlarni ozaytirib, tartibga solgan, tuz va vino monopoliyasini bekor qilgan, yangi tanga zarb ettirib, o'lchov birliklarini bir shaklga solgan.

Konfutsiylik ta'limoti tarafidan imperator olimlarni davlat xizmatiga taklif etgan, amaldorlar imtihon topshiradigan bo'lgan. Suy saroyi Xan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zlashtirgan. Madaniyatda shimol va janub aralashuvi ro'y bergan.

Yan Szyan 604-yilda o'z o'g'li Yan Guan tomonidan o'ldirilgan. Yan Guan iqtisodiy va siyosiy markazlashuv tizimini davom ettirib, poytaxtni va o'n ming boy oilani Loyanga ko'chirgan.

Aloqani kuchaytirish maqsadida Xuanxe, Yanszi, dengiz suv yo'li vujudga keltirilgan. Buyuk Kanal shimol va janub iqtisodini o'zaro bog'lagan.

Buyuk Xitoy devori mustahkamlanib, qo'shimchalar qurilgan. Aholi ro'yxatga olingan. Soliqlar ko'paytirilib, davlatga ishlab berish muddati uzaytirilgan. Buning natijasida 610-yilda xalq qo'zg'oloni ko'tarilgan.

Qo'zg'olonchilar Dou Szyaneni hukmdor deb e'lon qilganlar. Bunday norozi bo'lgan yirik feodallar isyon ko'tarishgan. Bu vaqtda Koreyaga qilingan yurish ham muvaffaqiyatsiz chiqqan. Janubga qochgan Yan Guan o'ldirilib, mamlakatda tartibsizlik boshlangan. Shansi hukmdori Li Yuan Chan'anni egallab, imperatorga aylangan va yangi Tan sulolasiga asos solgan (618–907).

Eski qarzar bekor qilinib, davlatga ishlab berish muddati qisqartirilgan, qullikka sotilgan dehqonlar ozod etilib, feodallarning dehqonlarni o'ldirishi taqiqlangan. Ochlarga yordam berilib, suv toshqiniga qarshi kurashilgan. Savdogarlarning faoliyatiga homiylik qilingan. Qo'zg'olonchilar afv etilgan bo'lsa-da, qo'zg'olon mar-

kazlari yo'qotilib, Dou Szyande qatl etilgan.

Li Yuanning o'g'li Li Shimin (627–649) davrida Tan imperiyasi mustahkamlanib, mamlakat hududi kengaygan.

VI–VII asrlarda agrar munosabatlar. Yan Szyan urushlari davrida feodal va amaldorlarning yerlari davlatniki bo'lib qolgan. Chek yer tizimi butun mamlakatga tarqalgan. Mamlakatda yagona hokimiyatning o'rnatilishi yana qishloq tashkilotlarining tuzilishi va dehqonlarni qaram qilish imkoniyatini yaratgan. Yan Szyan davrida avval hisobga kirmay qolgan 1,5 million dehqon aniqlangan. Rasmiy jihatdan chek yer qisqartirilib, don solig'i oshgan, barshchina 30 kunga yetkazilgan. Mehnat majburiyatlari ortgan. Yan Guan davrida davlat barshchinasini cheklanmagan edi. Loyan shahri qurilishiga ikki million, Buyuk Kanal va Buyuk devor uchun bir million, Koreyaga harbiy yurishga bir million kishi jalb etilgan.

Tan sulolasi davrida feodallashuv jarayoni tugagan. Barcha ishlab chiqaruvchilar davlat va katta yer egalari qo'lida bo'lgan. Jamoa yerga bo'lgan va o'z tarkibidagi xo'jaliklarga nisbatan avvalgi huquqini yo'qotgan. Jamoa fuqarolar yig'ini davlat idorasi qo'shimchasiga aylantirilgan. U ma'lum joylarda saqlanib, asosan davlat topshiriqlarini bajargan.

Shaharlar, hunarmandchilik va savdo. IV–V asrlardagi urush va hujumlar davrida Xitoyning deyarli barcha shaharlari talangan va yondirilgan. Qadimiy poytaxtlar – Chan'an va Loyan xarobazorga aylantirilgan. Xitoy janubidagi shahar hayoti qishloqnikidan farq qilmagan. VI asrga kelibgina shahar hayoti va shaharsozlik qayta tiklangan. Shaharlar chegara qasrlari, savdo-hunar markazlari sifatida xomashyo bor joylarda, daryo bo'ylari, dengiz qirg'oqlarida paydo bo'lgan.

O'rta asr dunyosining yirik shahri Chan'an rejali qurilganligi bilan ajralib turgan. Uning sharqiy qismida imperator saroyi va zodagonlarning xonadonlari joylashgan. VIII asr boshlarida dao-siylik, buddaviylik, nestorian, zardushtiylik, mazdakiylik va moniylik ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Shuningdek, bir necha bozor faoliyat ko'rsatgan.

XII asr boshlarida dengiz qirg'og'i va Buyuk Kanal bo'yicha Xanchjou qurilgan. Chendu, Chengjou, Suchjou shaharlari yirik savdo-hunar markazlariga aylangan. Guanjou, Syuanjou, Uchan

kabi port shaharlar kengaytirilgan.

Shaharlar harbiy-mudofaa, ma'muriy, iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajargan. Uch yuqori darajadagi amaldorlardan tashqari kishilarning kechasi ko'chalarda yurishi taqiqlangan. Ilk o'rta asr huquqida shaharliklar uchun alohida tartiblar bo'lmagan.

Suy va Tan imperiyalari davrida tog' sanoati va metall eritish sanoati vujudga kelgan. Szyansida sopol va chinni, Yanchjouda esa kemasozlik markazi shakllangan. Chendu shoyilari Buyuk Ipak yo'li orqali dunyoga tarqalgan.

Hunarmand buyurtmaga qarab ishlar, ortiqchasini bozorda sotar edi. Ibodatxonalar huzurida ham ustaxonalar bo'lgan. Bir soha hunarmandlari bir ko'cha yoki mahallalarda yashagan. Bozorda bir joyda alohida qator rastalarda mahsulotlar sotilgan. VI asrda uning asosida savdo-hunar birlashmalari tarkib topgan. *Tuan* va *xan* – sexlarga ba'zan 400 tagacha oila kirgan. VI–VII asrlarda yozilgan nizomlari ham bo'lmagan. Xanni oqsoqollar boshqargan. Xanlar shogird qabuli, ish vaqtini belgilaganlar, kasb sirini saqlaganlar. Biroq, xazina nazoratida bo'lib, mahsulot bahosini belgilay olmaganlar.

VII–VIII asrlarda davlat hunarmandchiligi ham ancha taraqqiy etgan. Konlar, ustaxonalar, malaka talab qiladigan hunarlar merosiy bo'lgan. Katta shaharlardagi bozorlar amaldorlar nazoratida bo'lib, kun botishi bilan berkitilgan. VII asrda choy uchun alohida soliq solingan, kontrabanda choyini sotgan savdogar uchinchi marta qo'lga tushsa, o'ldirilgan.

Ijtimoiy va davlat tuzumi. Feodallashuv sharoitida Xitoyda qadimgi mustabid shakldagi davlat tashkiloti vujudga keldi. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi esa murakkab iyerarxiya (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi)ni tug'dirgan. Har bir tabaqa o'z urf-odatlarini etiketi, kiyimi, bezaklari va uyga ega bo'lgan. Ba'zan eng yuqori zodagonlar tarkibiga xizmatiga qarab zodagon bo'lmaganlar ham kiritilgan.

Xitoyda *mayorat* (merosning katta o'g'ilga qolishi) hukm surmagan, shu sababli yer tobora parchalanib ketavergan, u oliy tabaqadagilar o'zaro janjallariga sabab bo'lgan.

Davlat boshqaruvining muhim funksiyalaridan biri uch bosqichda imtihonlarni tashkil etilishi bo'lgan. Sinovni mahalliy ma'muriyat

boshliqlari boshlab berganlar. Poytaxtdagi imtihonlar imperator saroyida o'tkazilgan. Oqibatda barcha xizmatchilar savodliligi ta'minlangan. Oliy darajadagi olimlik belgisi dastlabki uch darajadagi mansabni egallash huquqini bergan.

Imtihon tizimi amaldorlarning dunyoqarashi va sadoqatini aniqlash imkonini ham bergan. Uning nazariy asosi imperatorga barcha huquqlarni bergan konfutsiylik hisoblanadi.

Saroy va «Samo o'g'li»ga qarshi kichkinagina harakat ham qattiq jazoga duchor bo'lgan.

Amaldorlar gunoh qilsa, kaltak yeyishni xohlamasa, darajasi pasaytirilgan. Amaldorlar bilan qarindoshlik ba'zi imtiyozlarni bergan.

Dehqonlar harbiy xizmatga chaqirilgan va o'qitilgan. Har bir viloyat va okrug ma'lum sondagi kishilarni qo'shinga bergan. Saroy va poytaxt imperator tansoqchilari tomonidan qo'riqlangan. Chegara qo'shinlari xizmat bilan birgalikda ziroatchilik bilan ham mashg'ul bo'lgan. Ko'chmanchi otliqlardan keng foydalanilgan. Zobitlar fuqaro amaldorlardan pastroq darajada bo'lganlar.

Tashqi siyosat va munosabatlar. Hukmron tabaqa tashqi markazlashuvini mamlakatda ichki vaziyatni mustahkamlash manbai deb hisoblagan. Diplomatiya ham shu maqsad uchun xizmat qilgan: qabilalarni bir-biriga qarshi gij-gijlash, qabila ichida janjal chiqarish, qabila yetakchilariga unvon va mukofotlar berish, sulolaviy nikoh, hukmron urug'lar o'g'illarini faxriy garovda tutish kabilar.

Ushbu usullar Turk xoqonligi bilan munosabatlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Dastlabki Tan imperatorlari xoqonlikka o'lpon to'lab turganlar. 628–630-yillarda turklarga qarshi harbiy yurish uyushtirilgan, undan so'ng uyg'urlarga qarshi ko'p yillik urush boshlangan. 657-yilda ular yordamida, 679-yilda bo'lsa, Sharqiy xoqonlik ko'magida G'arbiy Turk xoqonligiga hal qiluvchi zarba berilgan.

Xan garnizonlari Buyuk ipak yo'li bo'ylab Urumchi shahrigacha joylashgan edi. Shu yo'l orqali karvonlar va elchilar kelar edi. Masalan, xuddi shu yo'l orqali 648-yilda qirg'iz elchilari kelgan. Xanlarning Markaziy (O'rta) Osiyoga kirib borishiga Sosoniylar imperiyasining parchalanishi yaxshi imkoniyat yaratgan. So'nggi Sosoniylar shohi Yoزدigar II Xitoydan ko'mak so'ragan.

Suy imperiyasining maqsadlaridan biri Koreya yarim oroli shimoli va janubi-gʻarbiy qismidagi Koguryo va Pekche davlatlarini egallash boʻlgan. Bu ishda xanlar tarafida koreyslarning Silla davlati turgan.

612–614-yillarda xanlarning Koreyaga qilgan uchta harbiy yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Bu narsa Suy imperiyasi qulashiga turtki bergan sabablardan biri boʻlgan.

Tanlar davrida ham Koreyaga harbiy yurishlar toʻxtamagan. 645-yilda Pxyenanni olishga harakat qilingan. 650-yilda 130 ming kishilik Tan qoʻshini Pekcheni bosib olgan. 663-yilda xanlar Silla davlati bilan ittifoqda Pekchega koʻmakka kelgan Yapon flotini yengib, harbiy harakatlarga soʻnggi nuqta qoʻyganlar.

Koguryo va Pekche hududi toʻqqiz guberniyaga boʻlinib, rasmiy jihatdan Xitoyga qoʻshib olingan. Shundan soʻng koreys xalqi Silla davlati boshchiligida ozodlik harakatini boshlagan, xanlar esa chekinishga majbur boʻlgan.

Aynan shunday tadbir *kidan* va *moxel*arga nisbatan qoʻllangan. 698-yilda yangi *Boxay* davlati eʼlon qilingach, xan diplomatlari uni Koreyaga qarshi gij-gijlaganlar. 705 va 713-yillarda Boxay va Tan oʻrtasida savdo aloqalari oʻrnatilgan.

607-yilda Yaponiya bilan rasmiy munosabatlar oʻrnatilgan. Xitoy floti Tayvan va Ryukyu orollariga yurish qilgan. Bu orollarga keyinroq elchilar yuborilgan.

VII asr boshlarida *syانبilar* qarindoshi *togon* qabilasi magʻlub etilib, ularning yerlari qoʻshib olingan. 634-yilda Chanʼanga Tibetdan elchilar kelgan. Togonlar masalasida bir necha yil Xitoy va Tibet oʻrtasida urush boʻlgan. 647-yilda sulh tuzilgan. *Sronzagalebo* Xitoy malikasi *ven Chenga* uylangan. Laxasaga koʻplab xan va amaldorlar, harbiylar, savdogarlar koʻchib kelgan.

Hindiston va Xitoy oʻrtasidagi munosabatlar boshlanuvi VII asrga toʻgʻri keladi. 641-yilda Chanʼanga Xarsha davlati elchilari kelgan. Oʻzaro elchi ayriboshlash Xarsha davlati parchalanuvidan keyin toʻxtagan. Xitoy elchilari Van Yuyuanse va Szyan Shijen 645-yilda Lxasadan Hindistonga qarab yoʻlga chiqqanlar. Yoʻlda ularga hujum boʻlgan. Van Syuznse Tibetga qochishga muvaffaq boʻlgan. U yerdan keyin Gang vodiysiga yurish qilgan. VII–VIII asrlarda Xitoyga Kashmir, Magadxa, Gandxar, Shri Lanka elchilari

kelganlar.

Xitoyning bosqinchilik yurishlari janubga ham qaratilgan. 602–603-yillarda shimoliy Vetnam va Tyamoa davlatiga yurishlar uyushtirilgan. 679-yilda shimoliy Vetnamda Xitoyga tobe Annan yeri tashkil etilgan.

Xitoy siyosiy elitalarining buyuk davlatchilik qarashlariga ko'ra, Xitoy dunyoning asosiy bosh davlati hisoblanib, butun dunyo imperatorga bo'ysunishi lozim bo'lgan. Elchilar sovg'asi «o'lpon» deb hisoblanib, elchi jo'natgan davlat esa Xitoy «vassali» deb e'lon qilingan. Lekin, u davlatlar o'zlarini Xitoy bilan teng huquqli deb hisoblaganlar.

Xitoyga kelgan elchilarga xitoycha kiyim berilgan bo'lib, uni kiyish bo'ysunish ramzi hisoblangan. Vizantiya imperatori va arab xalifasi ham Xitoyga o'z elchilarini jo'natganlar. Ipak yo'li va dengiz yo'li (Guanchjou –Bag'dod) orqali musulmonlik (*dunganlarda*) va xristianlik kirib kelgan.

Din va mafkura. O'rta asrlar Xitoy mafkurasining muhim belgisi sinkretizm, ya'ni «*Uch ilm*» (konfutsiylik, daosiylik, buddaviylik) sintezi bo'lgan. Qadimda hukmron bo'lgan axloqiy-siyosiy ta'limot – konfutsiylik o'rta asrlarda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Ushbu soha olimlari davlat, axloqiy, ijtimoiy tartib-qoidalar qo'riqchilari va o'qituvchilari, huquqiy normalar va ta'lim tizimi yaratuvchilari bo'lib qolaverganlar. O'rta asr huquqi asosini konfutsiylik ta'limoti tashkil etgan. Umuman olganda, mamlakatni boshqarishga doir barcha masalalarda konfutsiylik ta'siri sezilib turgan. Falsafiy daosiylik asosida diniy daosiylik vujudga kelgan. Narigi dunyo jannat va do'zax sifatida namoyon qilingan.

Daosiylik jamiyatning barcha tabaqalarini «mangu hayot» ta'limoti orqali o'ziga jalb etgan. Mangu hayot tizimiga birinchi navbatda «ruhiy oziqlanish» orqali erishilgan. Inson tanasi daoslar tomonidan ruhlar (yaxshi, yomon, yovuz ruhlar) makoni sifatida talqin etiladi.

Mangulikning shartlaridan biri –parhez, nafas olish gimnastikasi bo'lgan. Daoslar duo, tumor va jismoniy mashqlarga qattiq ishonganlar.

Daosiylikda ikki xalq va zodagon oqimlarining ta'siri sezilib turgan. Sehrgarlik va fizionomistika bilan bog'liq daosiylik keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan. Lekin, uning bu tomoni davlat

tomonidan isyonlar ramzi sifatida ta'qib qilingan. G'arbiy jannat haqidagi ta'limotga ko'ra, u yerda *Sivanmu* ma'budasi yashaydi, u biron tomonidan tug'ilmagan ona, u «barcha onalarning onasi» hisoblangan. «*Hammaning onasi bir*» degan g'oya orqali ijtimoiy tenglik targ'ib qilingan. Bu g'oyani asosan tabib va folbinlar targ'ib qilganlar. Zodagonlar daosiylikning falsafiy tomoni xususan, qadimgi oddiylik va tabiiylik kultini o'zida mujassam etgan. Ular manguликка erishish maqsadida alximiya, nafas olish mashqlari, meditatsiya bilan mashg'ul bo'lganlar.

Ibtidoiy dialektika elementlarini saqlab qolgan daoslar mafkurasi alximiya va tibbiyot taraqqiyotiga ta'sir qilgan. Afsonaviy va diniy kitoblarda juda ko'p dorilar retsepti, metall va minerallar xossalari tasvirlangan.

Daosiylik panteoni sinkretizmning yaqqol kamayishidir. Daoslar xudolar tarkibiga afsonaviy imperator va qahramonlarni, donolarni (birinchi navbatda Xuan-di, Lao-szi) kiritganlar. Panteon iyerarxiyaga ega. Xudolar insoniy xususiyatlarga ega, insonga yaqin, shu sababli bu din tez tarqalgan. Daosiylik panteoniga konfutsiylik asoschilari, tarixiy arboblar, «sakkiz o'lmas dono» (odam va sehrgar) kirgan. Daosiylikni davlat diniga aylantirishga harakat qilingan. «Yaxshi odam fazilatlar kodeksi» ishlab chiqilgan. Eng og'ir jazo davlatga xiyonat va isyon hisoblangan. Tan imperatorlari o'z shaharasini Lao-szidan keltirib chiqarishga harakat qilib, ilohiylashtirganlar. Uzoq Sharqqa Hindistondan kirib kelgan buddaviylik o'rta asr Xitoy hayotining barcha jabhalariga ulkan ta'sir o'tkazgan. O'rta Osiyodan kelgan monax va missionerlar dastlab Gansu, Shensi va Xenan viloyatlarida o'rtnashganlar. V asrda janubiy podshohlik hududiga ko'zga ko'ringan din targ'ibotchilari Birma orqali kelib, avroqda ancha imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Uzoq Sharqda «*Maxayana*» («Xalos bo'lishning keng yo'li») nomi bilan tarqalgan buddaviylik qadimgisidan dindorlarga nisbatan yanada talablar bilan ajralib turgan. Jiddiy zohidlik faqat monaxlardan talab qilingan. Dunyoviy aholi 10 talabdan 5 tasini bajarsa kitoya bo'lgan.

Diniy oliy ta'limot sifatida buddaviylik dunyoning asosida nomoddiy ko'rib bo'lmaydigan qismchalar – *dxarm* harakati yotadi deb hisoblaydilar. Birlashib yoki ajralib ular hayot tug'diradi yoki

to'xtatadi. dxarm hayot davomiyligini zanjirlarini tashkil etadi (odam–sigir–daraxt–odam–tosh) degan ta'limot mavjud bo'lgan. Shuningdek, fazilatli ruh keyingi hayotda yanada mukammalroq shaklga kirib, hayotda yanada balandroq darajani egallaydi. Gunohkor esa aksincha, inson borliqning quyiroq vakili past darajadagi hayvonga aylanadi deyilgan.

Bu ta'limot asoschisi Buddha – Sidxarxta Gautama (Shakya Muni) ning fikricha azob-uqubatlarni hayotdan ajratib bo'lmaydi. Undan qayta tug'ilishi jarayonini to'xtatish bilan qutulish mumkin. Buddha «8 tarmoqli yo'l» ko'rsatgan. Unga ko'ra, fazilatli hayot kechirish qayta tug'ilishni to'xtatadi va ruh *nirvanada* erib ketadi.

Buddaviylik tenglik g'oyasini targ'ib etgan, shu bilan birga mavjud tizim saqlanuviga yordam bergan.

III–IV asrlardagi tanazzul, o'zaro urushlar, turmush qiyinchiliklari buddaviylikning kuchayishiga ko'maklashgan. III–VI asrlarda Loyan va Chan'an atrofida 18 budda monastiri, V asr oxirida Sharqiy Szin davlatida 1800 monastir, 24 ming monax bo'lgan.

Yangi din vaziyatga tez moslashib, mahalliy tartibni o'ziga singdirgan, ajdodlar ruhiga sig'inishni tan olgan, avliyolar panteoniga qadimgi afsonaviy Xitoy donolari va qahramonlari kiritilgan.

Buddaviylik ancha xitoylashgan va dastlab daosiylik sektalaridan biri deb hisoblangan. IV asrda Xitoy buddistlari Buddha Dao prinsiplarining mujassamligi deb isbotlashga uringan.

Umuman olganda, daosiylik Xanlar madaniy o'z-o'zini anglash davomiyligini ta'minlab, chet el ta'limotlarini o'zlashtirib olishga yordam bergan. buddaviylik esa xalq e'tiqodlari o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan. Shu sababli ham muhim Hind – budda tushunchalarini anglatish dastlab hammaga tanish diniy daosiylik belgilari ishlatilgan.

Dastlab chet el ta'limoti sifatida buddaviylikka yomon ko'z bilan qaralgan. Konfutsiylik nuqtai-nazaridan anglab bo'lmas, tasavvur etib bo'lmas: dunyodan qochish budda axloqi va Xitoy ma'naviyati an'analari to'la mos keluvchi moddiy borliqdan qochish zaruriyatini tug'dirgan.

Vaqt o'tishi bilan hind targ'ibotchilari o'rnini xanlar egallaganlar 402-yilda Chan'anga kelgan monax Kumarajiva budda ta'limotini xitoychaga tarjima qilgan. Kumarajivaning shogirdi Dao-Shen

(434-yilda o'lgan) *maxayana* oqimidan *nirvana-sutraga* asoslanib, har qanday tirik jonzoddagi Buddha tabiatini tasvirlab, har bir kishi uchun to'satdan yorug'lik kelishi va xalos bo'lish fikrini yoqlagan.

Buddaviylikning xitoylashuviga birinchi Xitoy ruhoniysi va dastlabki sutralar tarjimoni Dao An (312–384) katta hissa qo'shgan. U Xubeda monastir tashkil etib, namunali monastir nizomi ishlab chiqqan yagona sulolaviy belgi Shini (Shakya urug'idan undan budda kelib chiqqan) kiritgan. Buddaviylik falsafasini rivojlantirgan, kelajak buddasi – *Maytreya* kultiga asos solgan. *Maytreya* uzoq sharqdagi eng mashhur ma'budlardan biri hisoblangan.

Katta qorindor yuzida biroz tentaknamoroq tabassumli *Maytreya* obrazi ma'lum vaqtgacha o'zida dono Buddani yashirib turadi (u verga qaytgach, umumfarovon davr boshlanadi).

Juda ko'p dehqon qo'zg'olonlari rahbarlari o'zlarini qayta tug'ilgan *Maytreya* deb e'lon qilganlar. Kultning qayta tug'ilgan maxfiy jamiyatlar mafkurasida markaziy o'rin tutadi.

Ikkinchi Xitoy patriarxi va ajoyib targ'ibotchisi Xuey Yuan (337–417) bo'lgan. U budda kultini G'arbiy Jannat hukmdori *Amitabadan* keltirib chiqargan. *Amitaba* jannatmakon «*Sof yer*» podsholigi va nurli kelajak bilan bog'liq Szyansida monastir tashkil etib, Xuey janubiy Xitoy «*Amidizma*»ga asos solgan. *Amitabani* duo qilib uning nomini yodga olish jannatda qayta tug'ilish imkonini beradi. *Amidizm* tarafdorlari «*Sof yer*» sektasining a'zolari edi. Ular g'oyalari ko'plab maxfiy jamiyat va qo'zg'olonlarga ilhom bergan.

Buddaviylik mafkurasida taraqqiyoti ayniqsa VI asr o'rtalaridan VIII asrgacha davrda samarali bo'lgan.

Budda cherkovi dunyoviy hokimiyat mustahkamlashuviga ko'maklashib, o'zi doim ham unga bo'ysunavermagan, oqibatda to'qashuvlar bo'lib turgan. Masalan, VI asrda Toba Toa monastirlar va monaxlarga qarshi yurish uyushtirgan Yae Szyan konfutsiylikni davlat dimga aylantirishga uringan.

Monastirlar ichki hayoti bilan maxsus ma'muriy organlar shug'ullangan. Ba'azt monastirlar mol-mulki konfiskatsiya qilinardi. Vaqtlar o'tishi bilan hukmdorlar monastirlarga turli intiyozlar va katta yerlar berishgan. Maqsad birligi ularni birlashuvga majbur etgan.

Madaniyat. Ijtimoiy tengsizliklar va ko'manchilar hujumi

madaniyatning biroz zaiflashuviga olib kelgan. Lekin, qadimiy uzviylikni buza olmagan. Poytaxtdagi o'quv yurtlari, boy kutubxonalar talon-taroj qilingan, ko'chmanchilar qadimgi asarlar yozilgan shoyi matolardan kiyimlar, xurjunlar tikkanlar. Harbiy sharoitga qaramay, intellektual faoliyat davom etavergan.

Sharqiy Szin poytaxti Szyankanda mashhur olim va yozuvchilar yashagan. Szu Chunchji matematika sohasida mashhur bo'lgan. Faylasuf Fan Chjen idealizm va mistikani tanqid qilgan. U 507-yilda yozgan «ruhning o'lishi» traktida ruhning o'lmasligi to'g'risidagi tezisini rad etgan.

Tarixiy hujjatlar asosida yilnomalar yozib borilgan. Ushbu sohaning ko'zga ko'ringan vakili «Xanning keyingi davr tarixi»ni tuzgan Fan Yo edi.

Shoir va tanqidchilar o'z nomlarini qoldirganlar. Ular orasida talantli «Shaftoli bulog'i» utopiyasi muallifi Tao Yuan Min (365–427) ajralib turgan. Janubiy davlat Xindixitoy va Hindiston bilan keng aloqada bo'lgan. Buddha missiyalari bilan birga savdogarlar kelar, budda sajdagohlariga (Hindiston) Xitoy monaxlari borganlar. Tashqi aloqalar kemasozlik va dengizchilikka ijobiy ta'sir qilgan. V asrga kelib mamlakatda metall eritish kashf etilgan.

Mamlakat birlashuvi oqibatida ilmiy bilimlar, san'at, adabiyot rivoji tezlashgan. Alximiklar mangulik eleksirini qidirib, ko'pgina metall va minerallar xossalarini aniqlaganlar. Tabiblar ham sehrgarlik, giyoh, tibbiyot sintezida katta yutuqlarga erishganlar. Muhandis va matematiklar shaharlar, kanallar va qasrlar qurilishida o'z ilmlarini namoyish etganlar.

Munajjimlar yulduzlar jadvalini tuzib, kelajak to'g'risida bashorat qilganlar. Buddha monaxi I Xan (VIII asr) astronomiya rivojiga o'z hissasini qo'shgan.

Geografik bilimlar rivoji budda sajdagohlariga borish bilan bog'liq bo'lgan. 399–415-yillarda Hindistonga sayohat qilgan Xitoy rohibi Fa San «*Budda podsholiklari haqida nomalar*» tuzgan.

VII asrda rohib Syuan Sizan O'rta Osiyo va Hindqushi orqali Hindistonga borgan va ko'rganlari asosida «*Buyuk Tan sulolasi davrida G'arb mamlakatlari haqida nomalar*» asarini yozgan. Muallif dunyoviy mansab va imtiyozlardan voz kechib, monastirda sanskritcha hujjatlar tarjimai bilan mashg'ul bo'lgan.

Rohib I Sizn «*Ichki qonunlar va Janubiy dengizlardagi sayohat haqida*» kitobida Guanchjou, Sumatra, Bengaliya, Hindistonga sayohatini tasvirlagan. VII asrda tarixshunoslik keng rivojlangan. Li Shimin davrida tarix yozish bo'yicha davlat monopoliyasi o'rnatilgan. Amaldor tarixchilar «*Sima Syan tarixiy nomalari*»ga taqlidan o'tgan davrlar tarixini tayyorlaganlar. I–VI asrlarni o'ziga jamlagan 13 kitob tayyorlagan. Tarixchi-arxivshunoslar o'z davrida davlat arboblari haqida ma'lumotlar (imperator farmonlari, boshqarmalari, hisobotlar, joylardan xatlar) yozganlar. Ular tuzgan to'plamlar sulola hukmronligi oxirigacha saqlangan. Yangi sulola uni qayta ishlab, o'ziga moslashtirgan. Tarixiy kitoblarda iqtisodiyot, boshqaruv, madaniyat, taqvim, etika, urush, qo'zg'olon, tabiiy falokat, samoviy hodisalar, qo'shinlar, uzoq mamlakatlar haqida yozilgan. Masalan, tarixiy kitoblarning birinchi tanqidchisi Lyu Chjitszi 710-yilda «*Tarixga kirish*» kitobini yozgan.

Qadimiy kitoblar ta'mirlangan. Kalligrafiya san'ati taraqqiy etgan. Bu sohada Van Sichji juda mohir bo'lgan. O'quvchilarni imtihonlarga tayyorlash maqsadida qadimiy konfutsiylik ta'limoti asosida «*Chor kitob*» umumiy nomi ostida to'plamlar tayyorlangan. VIII asrda imperator saroyida olimlarning oliy majlisi tashkil etilgan bo'lib, u keyinroq Xanlin akademiyasi nomini olgan.

O'ziga xos hukumat xabarlarini nashr etib turilgan. Olim Du Yu (755–812) «*Tundyan*» nomli ensiklopedik qomusiy to'plam muallifi bo'lgan.

She'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Ajoyib talantlar yetishib chiqqan. Tao Yuanmin an'analarini buyuk shoirlar Li Bo (699–762), Du Fu (712–770) davom ettirganlar.

Van Vey rassomchilikda o'ziga xos maktab yaratgan. Ipak va qo'g'ozga surat chizish keng tarqalgan. San'at va arxitekturada buddaviylik ta'siri kuchli bo'lgan. Ko'p qavatli toshdan qurilgan ibodatxonalar, budda haykallari, ibodatxonalardagi suratlar madaniyati ham kirib kelgan. San'atda, bilimlarda O'rta Osiyo, Hindiston ta'siri sezilib turgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Tan sulolasini tashqi siyosati qanday edi?
2. Min sulolasiga qarshi qanday qo'zg'olonlar ko'tarilgan? Xitoyda ilk o'rta asrlarda Min sulolasi bo'lganmi?
3. Xitoy nima uchun mo'g'ullarga oson taslim bo'ldi?
4. Ilk o'rta asrlarda Xitoyning uch podsholikka parchalanib ketishining asosiy sabablari nimalarda edi?
5. Nima sababdan bu davrda Xitoyning shimoliy hududlari ko'chmanchi qabilalarning hujumi maydoniga aylanib qoldi?
6. Xitoy tarixshunosligidagi Shimoliy va Janubiy sulolalar tushunchasi nimani anglatadi?
7. Ushbu davrda Xitoyda mavjud bo'lgan «chek yer tizimiga» ta'rif bering.
8. Ilk o'rta asrlarda Xitoyda qulchilikka munosabatda qay holatda edi?
9. Xitoy madaniy hayotida «uch ilm»ning o'rni qanday bo'lgan?

II BOB. ILK O'RTA ASRLARDA HINDISTON

Guptalar davlati. IV asrning boshlarida Hindiston bir necha o'nlab mayda va yirikroq davlatlardan iborat bo'lib, bu davlatlar kichik podshohlar – *rojalar* tomonidan boshqarilgan. Ular hukmron tabaqalar – *brahman* (kohinlar) va *kshatriylar* (harbiy zodagonlar)ga suyanganlar. 320-yilda shimoliy Hindistonning shunday rojalaridan biri Chandra Gupta I (320–340) atrofidagi rojalarni bo'ysundirib, Gang daryosi havzasida VI asr boshlarigacha yashagan Guptalar davlatini tuzgan. Chandra Gupta I ning vorislari, ayniqsa Samudra Gupta (340–380) va Chandra Gupta II (380–414) o'zlarining istilochilik yurishlari bilan mashhur bo'lgan. Guptalar davlati Gang daryosining dengizga quyiladigan joyigacha, shuningdek, Dekan yassi tog'larining bir qismidan to Narbat daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Davlat poytaxti Pataliputra shahri bo'lgan.

Guptalar hukmdorlari sosoniylar Eroni bilan savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarni olib borgan. Ularning yordamida Hindistonning shimoliy chegaralarini O'rta Osiyodan kelgan qabilalar hujumi xavfidan uzoq vaqtgacha himoya qilganlar. Guptalar davrida Hindiston iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. Hozirgi Hindistonda eng keng tarqalgan hinduiylik dinining vujudga kelishi ham o'sha davr bilan bog'liq.

Guptalar davrida Hindistonning ijtimoiy tuzumi. Guptalar davrida Hindistonda qullar mehnatidan turli sug'orish inshootlari va qurilish ishlari, qishloq xo'jaligi hamda uy-ro'zg'or ishlarida keng foydalanilgan. Qullar asosan Osiyo va Afrikadan keltirilgan. Hind jamiyatida quldorlikka xos alomatlarining mavjudligi aholining kastalarga (tabaqalarga) bo'linishida ham namoyon bo'ladi. Ushbu bo'linish tizimi Guptalar davriga kelib yanada rivojlangan. Qadimiy kastalarning to'rtta asosiy turi – *braxmanlar* (kohinlar), *kshatriylar* (jangchilar), *vayshiyalar* (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) va *shudralar* (sobiq qullarning va har toifadagi qaram kishilarning eng past tabaqasi) qadim zamonlarda tarkib topgan Hind jamiyati ijtimoiy tuzilmasining turli bosqichlarini ifoda etgan. O'rta asr boshlarida hind kastalari birmuncha rivojlanib, brahmanlar va kshatriylar kohin va harbiy tabaqalarga aylanib ketgan. Davlat hokimiyati ularning qo'lida bo'lgan va shu bilan birga ular juda ko'p qullari bo'lgan

eng yirik yer egalari ham edilar. O'rtacha va past darajadagi kastalar vaqt o'tishi bilan maydalashib borgan. Guptalar davrida kastalarning miqdori anchagina ortgan. Jamiyatning shudraga oid eng tuban kastasi «*hazarli kishilar*» deb atalgan bo'lib, ular oliy kasta vakillariga yaqinlashsa, go'yo bu oliy zotlarni ham harom qiladi, deb hisoblaganlar.

Eng past kastalarning haq-huquqsizligi, xo'rlanishi, quldorlik tuzumi mafkurasining eng yorqin ifodasi bo'lgan. Quldorlik tuzumi davrida kishilar birtomondan, to'la huquqli erkin quldor hukmronlarga, ikkinchi tomondan, butunlay haq-huquqsiz, xo'rlangan, zadalangan qullarga yoki shularga o'xshab ketadigan kishilarga bo'lingan.

Ammo, Hindistondagi quldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shunda ediki, rivojlangan quldorchilik va ekspluatatsiyaning quldorlik tizimi bilan bir qatorda g'oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa dehqonchiligi ham doim mavjud bo'lib, hamon yashab kelayotgan edi. Qishloq jamoasi quldorlik tuzumi davrida ham, feodal munosabatlar davrida ham hind jamiyatining quyi ijtimoiy-iqtisodiy bo'lagi bo'lib xizmat qilgan. Mazkur jamiyat shu bo'lak ustiga qurilgan. Hindiston ijtimoiy hayotida qishloq jamoalarining ahamiyatini kichik markazlar tashkil qilib, shu markazlar sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi xonaki aloqa asosida yashagan. Har bir qishloqning ma'lum miqdorda ekinzor yeri va yaylovi bo'lgan. Har bir qishloq oqsoqol va bir necha mansabdorlar tomonidan boshqarilgan. Qishloq jamoasi bir necha yoki bir necha yuz oiladan iborat bo'lib, hunarmandchilikning qishloq xo'jaligi bilan qo'shilishiga asoslangan boshlang'ich ishlab chiqarish guruhini tashkil qilgan. Bu oilada jamoalar xonaki sanoatga asoslangan bo'lib, unda qo'lda to'qish, qo'lda yigirish, qo'l kuchi bilan yerga ishlov berish usulidan foydalanilgan. Guptalar hukmdorlarining iqtisodiy qudrati birinchi navbatda xuddi ana shu behisob dehqon jamoalari mehnatidan foydalanishga asoslangan.

Biroq, Guptalar davri quldorlik tizimining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. G'arbiy Yevropa va Arab xalifaligi mamlakatlarida ko'rganimizdek, feodal jamiyatning negizi bo'lgan juda ko'p sonli jamoa dehqonchiligining mavjudligi hind jamiyatida quldorlik tuzumidan feodal tuzumiga o'tishni yengillashtirdi. Guptalar davrida qulchilik tugatilib, katta yer egaligi tug'ila boshlaganligini

bir qancha dalillarda ko'rish mumkin. Qullar tez-tez erkin qo'yib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni o'tash sharti bilan ularga uncha katta bo'lmagan yerlar ajratib beriladigan bo'lgan. Podsho xo'jaligidagi yerlarning hammasida ham qullar ishlamagan, bu yerlarning ko'pgina qismi hosilning bir qismini podsho xo'jaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilgan. Mayda ijarachilikka o'tilishiga sabab manbalarda ko'rsatilishicha, qullarning yetishmasligi bo'lgan. Shu bilan bir vaqtda qishloq jamoalarining o'z ichida muhim jarayonlar yuz bergan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashishi natijasida kichikroq oilaning kuchi bilan ham xo'jalik yuritish mumkin bo'lib qolgan. Katta oilalar mayda oilalarga bo'linib, katta oilaga qarashli chek yerlar ham parchalanib ketgan. Bunda to'ng'ich o'g'ilga ukalariga qaraganda yer ko'proq ajratib berilgan. Oddiy jamoachilarning bir qismi xonavayron bo'lib, jamoaning ancha boyroq a'zolariga qaram holga tushib qolgan. Bularning juda ko'p mol hayvonlari va mehnat qurollari bo'lib, xonavayron bo'lgan jamoachilarni shafqatsizlarcha ishlatishgan. Natijada feodal qaramligi munosabatlari o'rnatilgan.

Madaniyatning ravnaq topishi. Guptalar davlati davrida madaniyat avvalo, klassik monumental me'morchilikning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda juda ko'p ibodatxona va saroylar qurilgan. Guptalar davrida qurilgan binolarning ko'pi keyinchalik xorijiy istilochilarning Hindistonga qilgan hujumlari natijasida vayron qilingan. Shunday bo'lsa-da, o'sha davrdan saqlanib qolgan ayrim binolarga qarab, ularni juda mohirlik bilan qurilganligi to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, bahaybat yaxlit toshlarning ichini g'or qilib o'yib ishlangan Ellara va Ajanta ibodatxonalar ichida qadimiy hind va budda afsonalaridan olib ishlangan haykallar benihoya ko'p bo'lib, bularda kishilarning g'aydalari ifodalangan. Bu tasvirlar o'zining go'zalligi va ulug'vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibodatxona devorlari xilma xil suratlar bilan bezatilgan. Guptalar davridagi rassomlar va ustalar metallga pardozi berishda yuksak san'at cho'qqilarini egallaganlar. Miloddan avvalgi IV asr oxiri – V asr boshlarida quyma temirdan ishlangan ustun hozirga qadar Dehlida saqlanib kelmoqda. Qariyb bir yarim ming yil davomida ochiqlikda – jazirama quyosh va yomg'irlar ostida qolib ketganligiga qaramay, uni hatto zang ham bosmagan.

Guptalar davrida hind fani katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Bir qancha hind astronomlarining nomi Hindistondan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Bular orasida V–VI asrlarda yashagan, yunon fani va astronomiyasi bilan tanish bo'lgan Aryabxata, Varaxamixira va BraxmaGuptalar ajralib turgan. Hindistonda bu davrda tibbiyot, ayniqsa o't-giyohlar bilan davolash juda rivojlangan.

Adabiyot, she'riyat va drama sohasida Guptalar davri o'zidan keyingi ko'pgina avlodlar uchun taklif bo'lib xizmat qiladigan juda yuksak namunalarni qoldirgan. IV asr oxiri va V asr birinchi yarmida o'tgan iste'dodli hind shoiri Kalidasaning asarlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kalidasa qahramonlik mavzularida bir nechta doston hamda mifologik va tarixiy mavzularda ko'plab dramalar yozgan. Ayniqsa, «*Olqishlangan Shakuntala*» dramasi mashhur bo'lib, bu asarda nihoyatda nazokatli va shu bilan bir vaqtda o'z yo'lida juda og'ir mashaqqatli to'siqlarni yenga olgan jo'shqin jasoratli oddiy hind ayolining ajoyib obrazi berilgan. Ushbu asar G'arbiy Yevropaga 1789-yilda ma'lum bo'lishi bilanoq qadimiy hind adabiyotiga juda katta qiziqish uyg'otgan. Kalidasa o'z qahramonlarini qisman klassik kitob tilida – sanskritda, qisman turli mahalliy lahjalarda gapirtirgan, bu esa o'sha davrdagi Hindiston aholisining etnik jihatidan xilma-xil bo'lganligini ko'rsatadi. Kalidasaning asarlari hozirgi vaqtda dunyodagi asosiy tillarga tarjima qilingan.

Hindistonda ilk o'rta asrlarda diniy taraqqiyot. Guptalar zamonida hindlarning hukmron dini *braxmanlik* bo'lib, bu din ta'limotiga ko'ra, uchta asosiy xudo – *Braxma*, *Vishnu* va *Shiva* bilan birga ko'plab boshqa xudolar ham bo'lgan. Bu xudolar tabiat kuchlarining turli-tuman ko'rinishlarining ifodasi bo'lib, odamlar, hayvon, o'simlik, har xil jonsiz narsalar – sanamlarni ilohiylashtirganlar. Braxmanlikning dabdabali marosimlari va kuchli kohinlari bo'lib, bu kohinlar nasldan naslga o'tadigan alohida bir tabaqa bo'lgan. Biroq, braxmanlik bilan bir qatorda uning o'z ichida boshqa bir din – *buddaviylik* ham paydo bo'lib, o'ziga ko'p tarafdor orttirgan (bu din eramizdan oldingi V asrdayoq paydo bo'lgan). Bir vaqtlar buddaviylik eng qadimgi hind dini bo'lmish braxmanlik dinini hatto siqib chiqarayotgandek bo'lib ham ko'ringan. Guptalar hukmdorlarining ko'pchiligi buddaviylikka homiylik qilgan. Biroq,

braxmanlik yengib chiqqan, Lekin, shu bilan birga u yangicha koʻrinish – *hinduiylik* tusini olgan. VI va VII asrlarda uzil-kesil tashkil topgan hinduiylik oʻzining koʻpdan-koʻp eski majusiy xudolarini batamom saqlab qolgan. Shu bilan birga u, buddaviylik falsafasining ayrim qismlarini, uning yomonlikka qarshilik qilmaslik, tarki dunyo qilish, kishi oʻlgandan keyin jonning boshqa narsaga oʻtishiga ishonish kabilar toʻgʻrisidagi taʼlimotini ham oʻziga singdirgan. Buddaviylik dini Hindiston tashqarisida – Xitoy, Hindi-xitoyda, Indoneziya, shuningdek Moʻgʻuliston, Tibet va qisman Oʻrta Osiyoda tarqalgan. Hindistonning oʻzida buddaviylarning soni ozchilikni tashkil etgan.

Guptalar davlatining qulashi va Xarsha davlatining vujudga kelishi. Guptalar davlati VI asrning boshlariga kelib qulagan. U V asrdayoq tushkunlikka uchray boshlagan boʻlib, buning asosiy sababi, mehnatkash omma ahvolining ogʻirligida boʻlgan. Hukmronlar haddan tashqari zeb-ziynat ichida yashaganlar, dehqonlarga ogʻir soliqlar solingan, ular oʻzlari yetishtirgan hosilning koʻp qismini soliq uchun toʻlashga majbur boʻlgan. Aholi davlat foydasiga uzluksiz ravishda turli ishlarni bajarishga majbur qilingan. Mana shu kabi omillar hind dehqonlarining ahvolini ogʻirlashtirgan. Mehnatkashlar oʻrtasida norozilik tugʻilganligi alomatlari Guptalar zamonidan qolgan adabiy yodgorliklarda koʻp uchraydi. Guptalar podsholigiga uzil-kesil zarba bergan narsa koʻchmanchi eftaliylar, yaʼni oq xunnlarning bostirib kirishi boʻlgan. Ular V asr oxiri – VI asr boshlarida Shimoliy chegarani buzib oʻtib, Shimoliy Hindistonning koʻpgina shahar va qishloqlarini vayron qilganlar. 530-yilda oq xunlar Guptalarning vassali roja Yasodharma tomonidan magʻlub qilingan.

Xunnlarni magʻlubiyatga uchratganidan soʻng Yasodxarma guptalar sulolasiga itoat qilishdan bosh tortib, oʻzi *maxaroja* unvonini olgan. Lekin, unga Guptalar davlati hududining faqat bir qismigina boʻysungan.

VII asrning boshlarida Xarsha (606–647) davlati birmuncha vaqtgacha yuksalib borgan. Xarsha Kanauja viloyatining rojasi boʻlib, keyinchalik u butun Shimoliy Hindistonni oʻziga boʻysundirgan. Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi boʻylab Sharqiy Panjobdan to Bengaliya qoʻltigʻigacha boʻlgan hududni oʻz ichiga olgan. Markaziy Hindistonning 40 tacha rojasi Xarshaga vassal boʻlgan. Xarsha

imperiyasi uzoq umr koʻrmagan. Uning hokimiyati feodallashev jarayonining kuchayishi, oʻz vassallari – rojalar qudratining tobora ortib borishi natijasida zaiflashgan. Natijada rojalar butunlay mustaqil boʻlib, markazga itoat qilmay qoʻyganlar. Xarsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketib, uzoq vaqtgacha Hindiston chet el bosqinchilariga qarshilik koʻrsata olmaydigan tarqoq bir mamlakat boʻlib kelgan. Kanauja shahri VIII–X asrlarda ham Shimoliy Hindistonning poytaxti boʻlgan. Ammo, uning maxarajalari mana shu yuz yilliklar davomida Hindistonga doimiy ravishda hujum qilib kelayotgan tashqi dushmanlarning shimolda yashovchi turli xildagi qabilalarning bosqinini qaytarish oʻrniga, koʻproq Hindiston ichidagi oʻz raqobatchilariga qarshi kurash olib borish bilan ovora boʻlganlar.

Feodal munosabatlarning yanada rivojlanishi. VI–VII asrlarda Hindistonda katta yer egaligi munosabatlari yanada rivojlangan. Katta yer egaligi jarayonining tezlashuvi natijasida Shimoliy Hindiston (Guptalar davlati qulagandan va ikkinchi marta Xarsha davlati tugagandan keyin) siyosiy jihatdan parchalanib ketib, oʻnlab mayda viloyatlar vujudga kelgan. Ularning rojalari yirik yer egalari boʻlib, ular qishloq jamoalarini oʻzlariga boʻysundirganlar. Rojalar maharajalarga vassal boʻlgan. Rojalarning maxsus jangchilari boʻlib, ularga harbiy xizmat oʻtganliklari uchun yerlar inʼom qilingan. Jamna bilan Gang daryolari oʻrtasida bu xildagi hind harbiy zodagonlari koʻp boʻlgan. Shimoldan hujum qilib bostirib kirish xavfi bu yerda ancha kuchli boʻlgan. Bu yerlarda vujudga kelgan juda koʻp sonli harbiylar tabaqasi *rajputlar (shoh farzandlari)* degan nom olganlar. Keyinchalik rajputlar qadimiy harbiy tabaqa boʻlgan kshatriylardan ajralib ketgan.

Katta yer egaligining rivojlanishida hind ibodatxonalari katta ahamiyatga ega boʻlgan. Hind kohinlari juda katta yerlarga ega boʻlganlar, Ularning qoʻllab-quvvatlashiga muhtoj boʻlgan rojalar juda koʻplab yer ulashib berganligi uchun bu yerlar keyingi yuz yilliklarda yanada koʻpayib borgan. Baʼzi ibodatxonalarining 1000, hatto 1500 tagacha qishlogʻi boʻlgan. Jamoachi dehqonlar hosilning katta qismini ibodatxonalarga toʻlganlar va ibodatxona ularni sud qilish huquqiga ega boʻlgan.

Dehli sultonligining tashkil topishi. Arablar VII asr oxirida Eron

va Afg'onistonni bosib olganlaridan so'ng bevosita Hindistonga qo'shni bo'lib qolgan. Bundan tashqari, Hindistonga arablar dengiz bilan, ya'ni Fors qo'ltig'i orqali borib Hind okeanidan ham hujum qila olar edi. 712-yilda Ummaviylarning sarkardalaridan biri Muhammad ibn Qosim Basradan suzib borib, Hindistondagi Sind mamlakatini bosib olgan. Lekin, oradan bir necha o'n yil o'tgach, arablar Hindistondan butunlay siqib chiqarilgan. Islom dinining targ'ib qilinishiga hindlar dushmanlik nazari bilan qaragan, chunki islom dinini ular chet ellik bosqinchi va talonchilar dini deb hisoblaganlar, hinduiylik esa islom diniga qarshi «milliy» din bo'lgan.

Musulmonlar hujumi faqat XI asrning ikkinchi yarmidagina qaytadan boshlangan. Bu safargi hujum ilgari hujumlardan qattiq bo'lgan. Kuchli G'aznaviylar davlatining vujudga kelishi yangi hujumlar uchun zamin tug'dirib bergan. Sulton Mahmud G'aznaviy (998–1030) sharqiy Eron va Afg'oniston yerlarini, 1017-yildan e'tiboran esa Amudaryoning shimolidagi yerlarni, ya'ni Buxoroni ham o'z qo'l ostiga kiritib olgan.

Podsholik davri mobaynida u shimoliy Hindistonga 17 marta yurish qilgan. Hindiston shaharlari musulmonlar tomonidan qattiq talangan. Mahmud G'aznaviy bu yurishlardan shimolga o'n minglab erkak va ayollarni asir qilib haydab ketgan, mamlakatni, ayniqsa hind ibodatxonalarini talab, oltin, kumush, qimmatbaho toshlarni olib ketgan. G'azna shahri muhtasham binolar bilan bezalgan, bu binolarning ko'pini Hindiston me'morlari barpo etishgan. 1030-yilda Mahmud G'aznaviy o'lgan vaqtda uning davlati Amudaryo qirg'oqlaridan tortib, to Ganga daryosigacha borgan, butun Hind daryosi havzasini ham o'z ichiga olgan edi. Lekin, uning poytaxti Hindistondan tashqarida bo'lgan. Hindiston Mahmud G'aznaviy uchun bo'ysundirilgan bir viloyat hisoblangan. Shunday bo'lsa-da, Hindistonning shimoliga juda ko'p musulmonlar – xurosonliklar, turk va afg'onlar borib o'rnamashgan. Shimoli-sharqiy Hindiston (hoz. Pokiston) aholisining bir qismi islom dinini qabul qilib, keyinchalik istilochilar bilan aralashib ketgan.

XII asr oxirlarida Hindistonga G'azna istilochilari ikkinchi marta hujum qilgan. 1175-yilda G'azna hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom

ettirgan. 1190-yillarda u Jamna bilan Gang daryolari o'rtasidagi butun yerlarni, so'ngra esa Bengaliyani bosib olgan. Guriy vafotidan (1206-yildan) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek G'aznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (Dehlini markaz qilib) mustaqil davlat tuzgan. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritilgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Gupta davlatida madaniy ahvol qanday bo'lgan?
2. Gupta davlatini parchalanish sabablari?
3. Mahmud G'aznaviy istilosining oqibatlari nimalardan iborat?
4. Guptalar davlatining Sosoniylar davlati bilan olib borgan diplomatik aloqalaridan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat edi?
5. Bu davrda Hindistonda yer egaligining asosiy turlari qaysilar edi?
6. Gupta davlatining me'moriy obidalarining yo'q bo'lib ketishini nimalar bilan izohlash mumkin?
7. Ilk o'rta asrlarda Hindistondan yetishib chiqqan allomlardan kimlarni bilasiz?
8. Guptalar davlatining inqirozga uchrashining asosiy sabablarini keltiring.
9. «Rajputlar» haqida nimalarni bilib oldingiz?

III BOB. ILK O'RTA ASRLARDA YAPONIYA

V–VII asrlarda Yaponiya. Yaponiyaning eng qadimiy aholisi *aynlarning* ajdodi *Ebisu* hisoblangan. Era boshlarida ular Xonsyu orolining shimoli sharqida yashaganlar. Ularning etnik kelib chiqishi uzil-kesil aniqlanmagan, baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, ular Malayya, Hindi-xitoy va Indoneziya bilan bogʻliq.

Yapon orollariga bir necha bor koreyslar, xanlar va turli manjur tungus qabilalari kirib kelib, ebisularni shimolga surib chiqarganlar. Natijada etnik aralashuv jarayoni yuz bergan. Qabilalar ichida eng kuchlisi boʻlgan Yamato III asri oxiri – IV asr boshlarida qoʻshnilarini boʻysundirib, Xonsyu oroli markaziy qismida Yamato qabilalar ittifoqini tuzgan.

Yaponlarning ajdodlari dehqonchilik uchun qulay joylarga oʻr-nashganlar. III–VI asrlarda asosiy qishloq xoʻjalik mahsuloti sholi boʻlgan. Sugʻorish tarmoqlari qurilgan. Qabila sardorlari bu ishlarga majburiyat sifatida barchani jalb etganlar. V asrdan boshlab pillachilik rivojlana boshlagan. III asrdan koʻchib kela boshlagan xitoy va koreyslar mohir hunarmandlar hisoblangan.

V asrda Xitoyning gʻarbiy tumanlari koʻchmanchilar hujumiga duchor boʻlgach, koreys-xitoylarning koʻchib kelishi odatiy holga aylangan. Koʻchib kelganlar aholining «*be*» deb atalgan qismi tarkibiga kirgan. *Be* tarkibiga magʻlub etilgan jamoa boshliqlari avlodi, ruhoniylar, «maʼlumotlilar», qoʻriqchilar ham kirgan.

«*Be*» toifasi keyinroq tabaqalasha boshlagan. Uning asosiy qismi qadimgi Rim kolonlari ahvoriga tushgan. Ular yer va hunar-pa biriktirilgan (podsho yoki feodal mulkida) boʻlib, ularni sotib, oʻldirib boʻlmagan. Faqat uy xoʻjaligida qoʻl mehnatidan foydalanilgan. Mahsulot ishlab chiqarishning rivoji oqibatida V asr boshlarida bozorlar paydo boʻlgan. Ularning dastlabkisi Xonsyu markazida Osaka shahridagi «Xitoy bozori» boʻlgan. Savdo asosan kuzda hosil yigʻilgandan soʻng boʻlgan. Yapon qoʻrgʻonlaridan xitoy tangalarining topilishi xitoylar bilan savdo aloqalarining mavjudligini isbotlaydi.

IV–VI asrlarda qabila ittifoqi boshligʻi amalda hukmdor vazifasini bajara boshlagan. Zodagonlar davlat va saroy amaldorligi lavozimlarini egallaganlar. Quyi amaldorlarning yuqori amaldorlarga

bo'ysunishi yuzaga kelgan. 598-yilda o'zaro kurashayotgan aslzoda guruhlaridan biri Soga boshchiligida podshoh o'ldirilgan. Soga gruppasi o'z ta'sirini koreys va xanlar olib kelgan buddaviylik orqali mustahkamlashi natijasida yaponlarning qadimiy, milliy dini *sintoiylik* (xudolar yo'li – tabiiy kuchlarga ajdodlar ruhiga sig'inish) ta'siri kamaygan. Buddaviylik yangi tashkil topayotgan davlatning mafkuraviy quroliga aylangan.

Ag'darilgan podshoh oilasi vakili Syotoku Taysi hokimiyat uchun kurashda xitoy madaniyatini ma'qul ko'radigan saroy ahliga tayangan. Ular Yapon tuzimiga koreys va xitoy elementlarini kiritish tarafdorlari bo'lganlar. Syotoku Taysi faoliyati 604-yilda e'lon qilingan «*O'n yetti moddali qonun*»da ko'rinadi. Hozir bu qonunlar to'plami VIII asrda to'ldirilgan degan fikrlar ham bildirilmoqda.

Bu qonunda buddaviylik va konfutsiylik ta'siri kuchliligi seziladi. Lekin, qonun kuchga kirmagan, chunki mavjud hokimiyat – Soga guruhi qo'lida bo'lgan «qonun» podsho hokimiyati kuchayishi uchun sharoit tayyorlagan.

Syotoku Taysi chet eldan siyosiy ko'mak qidirib, 607-yilda Xitoyga elchilar jo'natgan. Uning davrida ko'p zodagonlar bolalarini Xitoyga o'qishga yuborganlar.

Koreya davlatlari bilan munosabatlar o'zgargan. VI asrga qadar yaponlar koreyslarning o'zaro urushlarga aralashganlar. Silla kuchayuvi oqibatida bu aralashuv zaiflashgan. Ikkala taraf elchilari ayriboshlangan. Yaponiyaga koreys rohiblari, me'morlari, haykaltaroshlari kelgan.

645-yilda koreys elchilarini qabul marosimida Soga vakillari qirib tashlangan va saroy yondirilgan. Natijada avvalgi podshoh avlodi taxtga chiqqan. Bu davr «*Buyuk o'zgarishlar davri*» («Tayka») deb nomlangan. 645-yilgi fitna bo'lsa «Tayka to'ntarishi» nomi bilan tarixda qolgan. Shu vaqtdan Yaponiyada xitoycha har bir imperator hukmdorligini alohida belgilash tizimi qabul qilingan. Jumladan, xitoycha chek yer tizimi ham kirib kelgan.

Agrar munosabatlar. Ilk o'rta asrlarda yer egaligi ikki shaklda rivojlangan: davlat chek yer tizimi va merosiy yirik yer egaligi (*syoen*).

702-yilgi Yapon qonunlari to'plami «*Tayxoryo*» kodeksi bundan dalolat beradi. Unga binoan barcha yer davlatniki deb e'lon qilingan.

Har bir dehqon xo'jaligi oila soniga qarab (6 yoshdan hisoblangan) vaqtincha foydalanish uchun haydaladigan yer olgan. Erkak kishi ikki tan (1 tan – 12 sotix), ayol kishi esa erkak olgan yerning 2/3 qismi miqdorida yer olgan. Har olti yilda oila a'zolari soni o'zgarishiga qarab yer miqdori ham o'zgarib turgan. Uy qurilgan yer va bog' dehqon mulki hisoblangan.

Davlatga don, hunarmandchilik mahsulotlari, asosan mahsulot bilan soliq to'langan. Ishlab berish majburiyati yuz va undan ortiq kun davom etgan. Dehqonning chek yerdan bosh tortishi yoki undan ketib qolishi qattiq jazolangan.

«Tayxoryo» kodeksiga binoan, zodagonlar yeri ularning unvoni va mansabiga bog'liq bo'lgan – «imtiyozli yerlar», «davlat oldidagi xizmat uchun», chek yer (Tayka to'ntarishidagi ishtiroki uchun), imperator tomonidan sovg'a qilingan yerlar...

In'om qilingan yer umrbodlikka berilgan. Xizmati uchun berilgan yer bir, ikki, uch avlod davri yoki mangulikka berilgan, va'ni xususiy yerga aylangan. Deyarli barcha yer shakllari rasmiy ravishda qandaydir muddatga berilgan. Lekin, zodagonlar doimiy ravishda davlat xizmatida bo'lganligi sababli uni xususiylashtirish qiyin bo'lmagan.

Zodagonlarning chek yerlariga dehqon xo'jaliklari birlashtirilgan. Rang bo'yicha 100 dan 800 gacha, mansab bo'yicha esa 300 dan 3000 gacha dehqon xo'jaligi birlashtirilgan. Davlat oldidagi xizmat uchun birlashtirilgan dehqon xo'jaligi miqdori belgilanmagan. Birlashtirilgan dehqonlar soliqning yarmini davlatga, yarmini feodalga berganlar.

Dastlab mansablar merosiy, 645-yildan esa imperator nomidan tayinlanadigan bo'lgan. Merosiylik ham ma'lum ma'noda saqlangan.

Feodal merosiy yer egaligi *syoen* ham chek yer tizimi bilan bu davrda shakllangan. Dastlabki *syoenlar* yangi yer ochish, botqoqliklarni qurtish natijasida paydo bo'lgan. 859-yilda hujjatlarda yangi yer ochib, uni o'rab olishga nisbatan birinchi marta «*tato*» atamasi ishlatila boshlangan. *Tato* hozirgi yozuvda ham shuni isbotlaydi (so'zning birinchi qismi sholipoyani, ikkinchi qismi esa devorni anglatgan)

Keyinroq manbalarda *tato* atamasi o'ralgan yerda ishlovchi dehqonni anglatara boshlagan. O'rab olingan yerda ishlashning eng tarqalgan shakli pudrat bo'lib, u odatda bir yilga berilgan. Keyinroq

tato xususiy pudratchiga, yer uning shaxsiy yeriga, yer egasi esa uning shaxsiy xo'jayiniga aylangan. VIII asr mobaynida chek yer tuzilishi zaiflashib, dehqonlar ham tabaqalashgan.

Ish kuchi va mehnat quroli ko'p oilalar boyigan. Kambag'allashgani unikida ishlagan yoki boshqa viloyatga qochib ketgan. Sudxo'rlik keng tarqalgan. Davlatga to'langandan keyin qolgan donlardan viloyat va tuman boshqarmalari don zaxiralarini tashkil qilgan. Davlat bu donlardan dehqonga qarz berishga ijozat bergan. 30–50 % mahalliy ma'murlar norasmiy ravishda qarz berib, foydani o'zlashtira boshlaganlar. Ular kerak, nokerak dehqonlarga qarz bera boshlaganlar, buning ustiga rasmiy foizni oshirganlar.

Xonavayron bo'lgan dehqonlar yerni tashlab tog' va o'rmonlarga qochganlar, guruhlar tuzganlar. Yilnomalarda ular «qaroqchilar to'dasi» sifatida tilga olingan. IX asrda yirik qo'zg'olonlar ko'tarilgan. IX asr o'rtalarida Kyusyu oroli gubernatori o'ldirilib, hukumat idoralari talon-taroj qilingan.

Davlatga qarshi kurashning yangi shakli vujudga kelgan. Dehqonlar maxfiy ravishda xususiy merosiy yerlarga qochib o'ta boshlaganlar. Feodallar ularni himoya qilgan. Bu holat dehqonni davlatdan xalos qilib katta yer egalari qo'liga topshirgan.

Ijtimoiy va davlat tuzumi. Tayka to'ntarishidan so'ng huquqiy jihatdan yangi feodallar hukmronligi o'rnatilgan. Ular asosan boy oilalar avlodi bo'lgan. Deyarli barcha iqtisodiy va siyosiy imtiyozlar ularga tekkan.

To'ntarish davlat tomonidan dehqonlarni qaram qilish imkonini bergan. Ilgarigi «be» yerga bog'langan dehqonga aylangan. Endi «be» deb saroyda xizmat qiladigan hunarmandlar aytilgan. «Tayxoryo»ga binoan chek yer egasi «yaxshi odam», qullar esa «past odam» bo'lgan. Qonun qulchilikni tan olgan.

Qulga egalik qilish qo'shimcha yer olish imkonini bergan. Har bir davlat quli uchun erkin odam oladigan yer, shaxsiy qul uchun 1/3 qismiga belgilangan. Qullarni ko'paytirishga intilish kuchli bo'lgan. Urush yo'qligi sababli dehqonlarni o'g'irlash, bolalarni, ayniqsa eng kichigini sotib olish keng tarqalgan. Jinoyat va qarzni to'lamanganlik uchun ham qulga aylantirish holatlari ko'paygan. O'z-o'zini qullikka sotish hollari ham bo'lgan. Lekin, bu cheklangan bo'lib, ommaviy tus olmagan. VII asrda Yaponiya aholisi – 6 million bo'lib, ularning

10-15 % ni qullar tashkil qilgan. Qul mehnatidan asosan qurilishda foydalanilgan. Qul kuchi yordamida bunyod etilgan Nara shahri, Buddaning ulkan haykali kabilar bularga yaqqol misol bo'la oladi. IX asr o'rtalarida qul mehnatidan juda kam foydalanilgan, dehqonchilikda esa umuman to'xtagan.

Uzoq vaqt mobaynida hukm surgan ma'muriy tartib «Tayxoryo»da huquqiy lashtirilgan. Davlat hukmdoriga imperator (*Tenno* – osmon o'g'li) unvoni berilgan, uning ilohiyligi haqida afsonalar yaratilgan. Imperator huzuridagi oliy hukumat tashkiloti – Davlat kengashi bo'lgan.

Markaziy hukumat tarkibida saroy, madaniyat, ombor va moliya, umum davlat ishlari, fuqarolik ma'muriyati, marosimlar va mansablar, harbiy, jamoat ishlari kabi sakkizta vazirlik bo'lgan.

Mamlakat viloyat va tumanlarga bo'lingan. Ma'muriy-siyosiy, humarmandchilik, savdo va diniy markazlar paydo bo'lgan. 320-yilda koreys-xitoy muhojirlari Naniva (hoz. Osaka) shahriga asos solganlar. 593-yilda paydo bo'lgan Asuka shahri Koguryo (koreys) madaniyati ta'sirida bo'lgan. Keyingi davrlardagi shaharsozlikda Xitoy ta'sirini sezish mumkin. 710–784-yil Nara, 792–1192 Xeyan mamlakat poytaxt bo'lgan.

Poytaxtlar rejasi Chanan(Sian)niki kabi bo'lgan. Bu shaharlarning darvozalari janubga qaragan. Nara shahrining markazida Xeyan shahrining shimolida ulkan saroy mahallasi bo'lgan. Saroy ayvonlari janubga qaragan (buddaviylikka ko'ra, Buddha janubda yashaydi, uning nuri keladi). Saroy kvartalining bir necha darvozasi bo'lgan. Uning markazda «*Qizil qush darvozasi*» (Xitoy mifologiyasiga ko'ra, dunyo to'rt tomoni xudolaridan biri) joylashgan. Bu darvozadan shahar bo'ylab janubgacha «*Qizil qush shoh ko'chasi*» o'tgan. Uning oxirida shaharga kiriladigan bosh darvoza bo'lgan.

Regentlar va kanslerlar boshqaruvi. Ilk feodal Yaponiyasining o'ziga xos belgilaridan biri ichki siyosiy vaziyatning mustahkam emashipi edi. Yuqori va quyi amaldorlar o'rtasidagi kurash unga sabab bo'lgan.

Hukmron tabaqaning uch guruhi vujudga kelgan: 1) poytaxt, saroy amaldorlari; 2) viloyat amaldorlari; 3) viloyatdagi quyi zodagonlar (doimiy yashaydiganlar).

Saroy zodagonlari orasida qadimdan sintoiylik bilan bog'liq katta

ta'sirga ega Nakatomi guruhi birinchi o'rinda turgan. Guruh boshlig'i Kamatari Tayka to'ntarishida ishtirok etgan, mamlakatdagi eng ta'sirli obro'li shaxs bo'lgan. 669-yilda unga Fudzivara nomi berilgan. Uning avlodlari barcha ta'sirli mansablarni egallaganlar. 729-yilga kelib Fudzivaralar imperatorlarga faqat ular oilasidan uylanish majburiyatini yuklaganlar. Imperator xonadonini zaiflashtirish maqsadida ular imperator tansoqchilarini yengib, uni shimoldagi Yamasiro viloyatiga olib ketganlar. 784-yilda bu yerda yangi «*Tinchlik va osoyishtalik poytaxti*» – Xeyan qurilishi boshlangan.

858-yilda Fudzivaralar yosh imperator *regenti* (otaliq), 887-yil esa ulg'aygan imperator huzurida esa *kansler* (hukumat boshlig'i) ga aylanganlar.

Regent va kanslerlar boshqaruvi – *Sekkan* o'rnatilgan dastlabki 40-yil imperator nisbatan mustaqil siyosat yuritgan, chunki Fudzivaralar mansab orqasidan quvib, masalani iqtisodiy tomoniga uncha e'tibor bermaganlar. Ular ko'proq syoen emas, chek yer tizimiga tayangan edilar.

Idora usulining siyosiy va iqtisodiy zaifligi munosabati bilan 895-yilda Yaponiyaning Xitoy va Koreya bilan aloqalari uzilgan. Mamlakatga kirish va undan chiqish faqat o'lim bilan jazolanadigan bo'lgan.

Madaniyat. «Tayxoryo»ning tuzilishi yaponlar ongiga mavjud tuzumning qonuniyligi g'oyasini singdirgan.

Imperator hokimiyati mustahkamlanuviga dastlabki yilnomalar yordam bergan. Masalan, 712-yil yozilgan «*Kodziki*» («*Qadimgi ishlar haqida yozuvlar*»), 720-yil yozilgan «*Nixongi*» («*Yaponiya annallari*») singari qadimgi afsonalar, rivoyatlar hamda xronologik yozuvlar.

Yilnomalarda imperator qush ma'budasi *Amaterasu* (sintoiylik panteonidagi bosh xudo) avlodi sifatida tasvirlangan. Imperator sulolasining tarixiy ildizi mil.avv. 660-yilgacha chuqurlashtirilgan. Bunday shajara uchun yetarli dalillar bo'lmaganligi sababli, yilnomachilar xitoyliklardan ancha dalil va afsonalarni o'zlashtirganlar. V–VII asrlarga oid yilnomalarda ko'proq saroy hayoti tasvirlangan dalillar mavjud.

VIII asr boshida viloyatlar to'g'risida to'la ma'lumot beradigan «*Fudoki*» («*Urf-odat va yerlar to'g'risida nomalar*») paydo bo'lgan.

Unda ma'muriy bo'linish, geografik nomlar, iqtisodiy, flora, fauna, mahalliy rivoyat va afsonalar, diqqatga sazovor joylar bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydi.

VIII asr ikkinchi yarmida birinchi Yapon she'riy to'plami tuzilgan. «*Man'yusyu*» kabi asarlarda tabiat, inson, ijtimoiy masalalar, askarlik xizmati og'irliklari, oila nikoh munosabatlari keltirilgan.

Sintoiylik va buddaviylik bayramlarida sehrigarlik marosimlariga o'xshash muqaddas raqslar ijro etilgan. Bularda raqqosa ag'darilgan tog'ora ustida bambuk shohi va nayza ushlagan holda raqsga tushgan. Shuningdek, raqslarda Amaterasuning samoviy g'orga kirib kelishi va yana paydo bo'lishi kabilarni ko'rsatishga harakat qilingan. Saroy soqchilari qilich bilan harbiy raqsga tushganlar. Sayyor maxkarabozlar faoliyatini kuzatish mumkin.

Buddaviylik kuchaytirilgan. 624-yilda 46 ibodatxona va 1385 rohib bo'lgan. Rohiblar eng ma'lumotli tabaqa hisoblanib, boshqa mamlakatlarga (masalan Xitoy) borib kelganlar.

Dastlabki shaharlar monastirlar atrofida vujudga kelgan. Nara shahrida yettita budda monastiri bo'lgan. Ularning eng asosiysi 608-yil Yaponiyada birinchi tashkil etilgan «*Xoryudzi*» («Qonun g'alabasi ibodatxonasi») bo'lgan. Monastir yapon milliy san'ati namunasiga aylangan.

Yana bir ibodatxona «*Todaydzi*» («Shaharning ulug' ibodatxonasi») qurilishi 759-yilda tugallangan. Ibodatxona asoschilari uni buddaviylikning sharqdagi tayanchiga aylantirmoqchi bo'lganlar. Shu sababli monastirning asosiy ibodatxonasi buddaviylik panteonidagi muhim xudolardan biri – *Vayrochanga* (Budda – dunyoni nurga to'ldiruvchi) bag'ishlangan bu ibodatxonada hozirgacha bronzadan ishlangan, oltin suvi yuritilgan Vayrochanning o'tirgan holdagi haykali saqlangan.

Bu haykalning balandligi 16 metr, supasi bilan birga 23 metr (bosh balandligi 3,1 metr, kengligi 2,87 metr) bo'lib, o'sha davr haykal quyish texnikasining mo'jizasi hisoblanadi. Uning muallifi Davbatsu haykalni ikki yil davomida quygan.

Ilk yapon buddaviyligining asosiy qoidasi «davlatga xizmat» bo'lgan. Uni shartli ravishda «saroy buddaviyligi» deb atash mumkin. Saroy siyosiy ta'siriy zaiflashgan sari buddaviylikning bu tarafi zamon talabiga javob bermay qo'ygan. Natijada islohot zaruriyati

tugʻilgan. Yangi mazhablar paydo boʻlgan. Ularning maqsadi eʼtiqodga xizmat qilish boʻlgan. Bu mazhablardan keyinroq vujudga kelayotgan ijtimoiy qarama-qarshiliklar kurashida foydalanilgan.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:

1. Aynlar va ebisular kimlar?
2. Nima uchun V asrdan boshlab Yaponiyaga Xitoy va Koreyadan koʻchib keluvchilar soni koʻpayib ketdi?
3. «Buyuk oʻzgarishlar davri: Tayka» haqida nimalar bilasiz?
4. Yaponiyadagi «Fudzivaralar» faoliyatini qanday baholayiz?
5. Yapon milliy dini sintoizm qay tariqa vujudga keldi?

IV BOB. ILK O'RTA ASRLARDA KOREYA

Ilk Koreys davlatlarining vujudga kelishi. Tarixiy yozma manbalarda yarim orolda yashagan turli qabilalar haqida ma'lumotlar mavjud. Shimolda *koguryo*, *yemek*, *okcho* qabilalari, Xangan daryosidan janubroqda *xan* qabilasi yashagan. U uchta shohcha – *maxan (xan)*, *chinxan*, *pyonxanga* bo'lingan. Aholi chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Lekin, asosiy mashg'ulotlari dehqonchilik bo'lgan. Asosan «*besh non*» deb atalgan ekinlar ekilgan. Kiyim bo'z va shoyidan tayyorlangan. Tabaqaviy munosabatlar shimolda *Amnokan* daryosi havzasida yashovchi *koguryo* qabilasida avvalroq boshlangan. Dastlab harbiy demokratiya bo'lgan. *Okcho* va *yemek* qabilalari *koguryoga* bo'ysundirilgan. Don, mato, baliq, kanizaklar bilan o'lpon to'langan. Janubda tabaqalar tashkil topish jarayoni kechroq boshlangan. Xan qabilasi 78 urug'ga bo'lingan. Mazkur urug'lar Xitoy manbalarida «davlat» nomi bilan tilga olingan. Koguryolarda harbiy sardor *Van* (qirol) unvonini olgan. Zodagonlar harbiy amaldorlarga aylangan. Amaldorlar o'n ikki darajaga bo'lingan. Koreya yilnomalarida xususiy mulkni himoya qilish maqsadida qonunlar yaratilganligi haqida yozilgan: o'g'ri o'g'irlangan molni o'n ikki baravari darajasida to'lagan, birov hayvoniga zarar yetkazgan kishi hatto qulga aylantirilgan.

Koguryo davlati qachon paydo bo'lganligi xususida tarixchilarda yagona fikr yo'q. Lekin, u IV asr oxiri – V asr boshlarida yarim orol shimoli hamda qo'shni Lyaodun yarim oroli hududini egallagan kuchli davlat bo'lgan. Yarim orol janubida davlat paydo bo'lish jarayoni *pekche*, *saro*, *kaya* qabilalari tomonidan zaifroq qo'shnilarni bo'ysindirish orqali yuz bergan. Bo'ysundirilgan yerlar zodagonlari tabiiy ravishda bosqinchi zodagonlar bilan qo'shilib ketgan. Pekche jamoasi III–IV asrlarda qo'shni jamoa va qabilalarni bo'ysundirgan. Koreya janubiy g'arbida Xangan va Kimgan dayorlari havzalarida ancha kuchli Pekche davlati paydo bo'lgan. V–VI asrlarda yarim orolning janubiy sharqiy qismida Silla davlati vujudga kelgan. Uning yadrosini *saro (sobol)* qabilasi tashkil etgan. Yangi davlatda ma'muriy bo'linishning hududiy qoidasiga asoslangan. Turli darajadagi maxsus amaldorlar boshqarmasi vujudga kelgan. Silla davlati eng janubidagi *kaya* qabilalar ittifoqi va uzoq Usam orolini

o'ziga qo'shib olgan. Shunday qilib, VI asrga kelib Koreya yarim oroli hukmronlik uchun o'zaro kurashayotgan Koguryo, Pekche va Silla davlatlari bo'lgan. Bu davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasi koreys tarixshunosligida uzoq vaqt munozara va bahslarga sabab bo'lib kelgan. Ayrim tarixchilar bu quldorlik davlatlari edi, deb hisoblasalar-da, ular feodal xususiyatga ega bo'lgan. Dehqon jamoalari davlat fuqarolari sifatida soliq to'laganlar, saroy, yo'l, qal'alar qurilishi kabi turli majburiyatlarni o'taganlar. Yerning oliy egasi davlat bo'lgan. Feodallar ham davlatdan yer olganlar. Koguryo va Silla davlatlarida ilk feodalizm uchun xususiyatli tizim keng tarqalgan. Qullar ishlab chiqarishda katta rol o'ynamagan bo'lsalar kerak. Bu davrda ularning huquqiy ahvoli o'zgargan. Masalan: VI asr boshida Silla davlatida *van* o'lganda an'anaviy odat, ya'ni o'nta qulni o'ldirib, qo'shib ko'mish odati taqiqlangan.

558-yilda lashkarboshi *Sadaxam* tomonidan *kaya* qabilasi bo'ysundirilgandan keyin mukofotga olgan 200 asirni qul qilmay, erkin dehqonlarga aylantirilishi uni aholi o'rtasidagi obro'sini oshirgan. Xitoydan davlat boshqaruvi tizimi bilan birga mafkura ham o'zlashtirib olingan. Koreys davlati hukmdorlariga konfutsiylik ko'proq yoqqan. Davlat xizmati uchun amaldorlar maxsus konfutsiylik maktablarida tayyorlangan.

Feodal tuzum shaklanuvida muhim rol o'ynagan buddaviylik ham Xitoydan kirib kelgan. Koguryoda dastlabki budda rohiblari 372-yilda paydo bo'lganlar. Pxenyani yaqinida ikkita budda monastri qurilgan. 384-yilda Pekje vani iltimosiga binoan janubiy xitoydan rohiblar kelishgan. Ularga katta yerlar in'om etilgan. Silla davlatiga Koguryodan kirib kelgan buddaviylik VI asr birinchi yarmida keng tarqalgan. Sillada ham ma'muriy bo'linish Xitoydagi kabi bo'lgan. Boshliqlar poytaxtdan tayinlangan. Davlat poytaxti Kimson yirik shaharga aylangan. Katta yo'llar va suv orqali doimiy pochta xizmati mavjud bo'lgan.

Koreys davlatlari o'rtasidagi kurash, ularning Xitoy va Yaponiya bilan munosabatlari, urushlari. Koguryo bir necha marta Xitoy hujumiga duchor bo'lgan. 245-yilda Xitoyda Uch podsholik davrida Shimoliy Vey qo'shinlari Koguryo poytaxtini egallaganlar. Hukmdor o'ziga tobe *okcho* qabilasi yeriga qochib ketgan. Ularning yordamida xanlar mamlakatdan quvilgan. IV

asrda Koguryoga shimoliy Xitoyda Yan davlatini tuzgan *syانبilar* hujum qilgan. 342-yilda poytaxt egallangach van Kogukvon qochib ketgan. Syانبilar hukmdori Muyun Xvan van oilasini asirga olgan, hatto qarshilikni sindirish maqsadida otasi hokini ham qabrdan olib ketgan. Muyun Xvan xazinani talab, poytaxt Xvandoni buzgan va 50 ming asirni olib qaytgan. Shundan soʻng Kogukvon oʻzini vassal deb tan olgan. Keyinroq oʻzini tiklagan Koguryo syانبilardan xalos boʻlgan. IV asr oxiri V asr boshlarida Van Kvangetxo davrida Koguryo hududi Pekche davlati hududi hisobiga kengaygan. Pxenyan shahri poytaxtga aylantirilgan.

Koreys davlatlari va Xitoy oʻrtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar ham rivojlangan shimoliy sulolalarga qarshi kurashayotgan Koreys davlatlari koʻproq janubiy sulola bilan aloqa qilganlar. Diniy va siyosiy gʻoyalar ham janubdan olingan.

Koreyada xitoy adabiyoti va yozuvi tarqalgan. Xitoy iyegrofligida koreys tilida yozilgan. Koreys davlatlarining Yaponlar bilan munosabatlari turlicha boʻlgan. Dastlab yaponlar bilan Naktongan daryosi havzasidagi *kayask* davlatlari (yoki *pyonxan* qabilalari) savdo munosabatlarini oʻrnatganlar. Ular yaponlarga temir, oltin, kumush, don mahsulotlarini sotganlar. Ularning yerlarida yapon qarorgohlari vujudga kelgan boʻlib, yaponlar u yerdan turib, talonchilik qilganlar *kayasklar* boʻlsa, ulardan Silla davlatiga qarshi foydalanmoqchi boʻlganlar. VI asr ikkinchi yarmida Silla va Koguryo davlatlari yaponlarni quvib chiqarib, *kayasklar* yerini qoʻshib olganlar. Kurash davomida Silla hukmdorlari talonchilikning oldini olish maqsadida yaponlar bilan sulh tuzib, ularga garov tariqasida oʻz odamlari va sovgʻalarni yuborganlar. Pekche hukmdorlari qoʻshnilariga qarshi kurashda Yapon guruhlaridan foydalanganlar V asrda Koguryo yarim orolning shimoliy qismini egallab, Pekcheni qisa boshlagach, u VI asrdan kuchaygan Silla bilan yaqinlashgan. 551-yilda Pekche va Silla Koguryoni Xingan daryosi havzasidan siqib chiqarganlar. Qaytarilgan yerni Pekchedan Silla olib qoʻygan. ittifoq buzilgan. Shundan soʻng Pekche Koguryo va Yaponiya bilan ittifoq tuzgan. Bunga javoban Silla–Xitoy ittifoqi vujudga kelgan.

VI asr oxirida Suy sulolasi asoschisi Yan Szyan Koguryoga qarshi katta qoʻshin va flot joʻnatgan. 612-yilda ham Suy imperatori Yan Guan katta qoʻshin joʻnatgan. Koguryo lashkarboshisi Ilchi

Mundok Xitoy qo'shinini mag'lubiyatga uchratgan. 613 va 614-yillardagi hujumlar ham g'alaba keltirmagan. Shundan so'ng Koguryo Pekche bilan ittifoqda yangi Tan sulolasi ittifoqchisi (Koreya ishlariga aralashayotgan) Sillaga qarshi urush boshlaganlar. 645-yilda Tan qo'shinlari Koguryoga kirib kelgan. Lyaodundagi Anshi qal'asi va Pxenyang atrofida koreyslar g'olib chiqan. 660-yilda Pekchega Sillaning 50 ming kishilik, Tanlarning 130 ming kishilik qo'shini hujum qilgan. Natijada saroy va van taslim bo'lib, poytaxt Sabi egallangan hamda Pekche hududi Tan viloyatiga aylangan. 663-yilda xitoylarga qarshi qo'zg'olon bostirilgan. Shundan so'ng Tan va Silla ittifoqi tomonidan asosiy zarba Koguryoga berilgan. Natijada Koguryo og'ir ahvolda qolgan. Davlatning amaldagi hukmdori (Bosh vazir – *Maknidji*) Yon Kyosomun o'limidan so'ng feodallarning o'zaro kurashi yanada kuchaygan. Uning xafa bo'lgan o'g'illardan biri tanlar tomoniga qochib o'tgan. 668-yilda Koguryo poytaxti Pxenyang egallangan hamda hudud tanlar qo'liga o'tgan.

Mamlakatning Silla boshchiligida birlashgandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Ajnabiylar hukmronligi tez orada xalq qo'zg'olonlarini keltirib chiqargan. Tanlar Koguryo va Pekcheda mustahkam o'rnatishga olmaganlar. Bu yerdagi qo'zg'olonlar Silla davlati tomonidan qo'llab quvvatlangan. Bu narsa o'z navbatida Tan Silla nizosiga olib kelgan va natijada 670–676-yillardagi janglardan so'ng Tedangan daryosidan janubidagi Koreya yarim orolining barcha hududi Silla tarkibiga kiritilgan. Tan sulolasi uni tan olishga majbur bo'lganlar. Silla boshchiligida mamlakatning birlashuvi Koreyada feodal munosabatlar qaror topishida muhim bosqich bo'lgan. O'zaro urushlarning to'xtashi qo'shnlilar bilan tinch munosabatlar o'rnatilishi mamlakat ishlab chiqarish kuchlari rivojiga ijobiy ta'sir qilgan. 681-yilda Silla vani Munmu o'z vasiyatnomasida shunday yozgan: *«...oddiy xalqqa tinchlik berdim, askar nayzalarini dehqonchilik quroliga aylantirdim, soliq va majburiyatlarni qisqartirdim, yengillashtirdim, mamlakatda tartib o'rnatdim, tog' kabi g'alla zaxiralari yaratdim...»*. Bu yerda o'zini maqtash elementlari bilan birga mavjud dalillar ham tilga olingan. Davlat tomonidan sug'orish tizimi qurilishi natijasida hosildorlik ortib, xazina boyigan. Feodal munosabatlar rivoji yerga davlat mulkchiligi asosida yuz bergan. Yer fondining asosiy qismi dehqonlar qo'lidagi kichik chek yerlar

«askar dalalari» boʻlgan.

722-yilda rasmiy ravishda barcha yer davlatniki deb eʼlon qilingan. Chek yer tizimi dehqonni yerga bogʻlab qoʻygan va u markazlashgan davlat dehqoni boʻlgan. Buddaviylik mavjud davrda dehqon yerining feodallar tomonidan tortib olish imkoniyatini yoʻqotgan. Feodal amaldorlarning yerga egaligi kuchaytirilgan. Asosiy yer Silla zodagonlari va budda ruhoniylari qoʻliga oʻtgan. Bir necha marta taqiqlanishiga qaramay, bu jarayon tezlashib, markaziy hokimiyatni zaiflashtirgan. Xizmat uchun berilgan yerlar amalda xususiy mulkka aylantirilgan.

VIII asrda davlat mulkchiligi kuchli boʻlgan. Asr oʻrtalariga kelib hudud maʼmuriy jihatdan toʻqqiz viloyatga boʻlingan (Sillada, Koguryo va Pekche hududlarida uchtdan). U oʻz navbatida yana hududiy birliklarga boʻlingan. Amaldorlar tayyorlash maqsadida oliy davlat maktabi tashkil etilgan. Davlat imtihonidan oʻtganlar mansablarini egallagan. Davlat poytaxtida 170 mingta hovli mavjud boʻlgan. Boylarning cherepitsali uylari tomi ham oltin bilan bezatilgan. Hunarmandchilikning davlat shakli kuchaygan. Silla hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar Xitoy va Yaponiyaga eksport qilingan.

Madaniy hayot. Uchchala davlat davrida oʻrta asr umumkoreys madaniyatiga asos solingan. Bu davr mafkurasida ibtidoiy eʼtiqod va tasavvurlar saqlanib qolgan. Konfutsiylik va buddaviylikning rasmiy din va mafkura sifatida kirib kelgan. Madaniyatga xitoy adabiyoti va yozuvi taʼsir qilgan. Dastlabki tarixiy asarlar xitoy tilida yozilgan. Shimoliy Koreyada saqlanib qolgan maqbaralar meʼmorchilik va tasviriy sanʼat rivojidan dalolat beradi. Tasviriy sanʼatning freska turi bilan (boʻrtma surat) maqbara devori va shiftlarini bezaganlar (ruhlar, xayoliy hayvon va qushlar tasvirlangan). Kyondju tumanidagi arxeologik yodgorliklar Silla davlati hunarmandchiligi yuksak boʻlganligidan dalolat beradi. «Oltin toj qoʻrgʻoni»dan (V asr) sof oltindan ishlangan toj, uzuk, bilaguzuk, sirgʻa va turli qurollar topilgan.

VII asr oʻrtalarida Kyondjuda rasadxona qurilgan. Umumxalq tili shakllangan VII asr oxirida olim Solchxon xitoy iyerogliflari asosida koreys tili fonetikasi va grammatik tuzilishiga mos yozuv tizimini yaratgan. Konfutsiylik buddaviylik asosidagi oʻrta asr mafkurasi

birligi Koreyaning tan sulolasi bilan mustahkam madaniy aloqada bo'lishiga yordam bergan. Ko'pchiligi Chan'anda (Xitoy) o'qib kelgan Ular orasida budda rohibi Xe Chxo (VIII asr) ham bo'lgan. Uning Xitoydan Hindiston va O'rta Osiyoga qilgan sayohati natijasida yaratilgan «*Hindiston podshohlilari haqida hikoyalar*» nomli manba hozirga qadar mavjud. Xitoyda ta'lim olganlardan biri olim va yozuvchi Chxve Chxuvan (858–951 yy.) she'riyat va hikoya janrlari rivojiga katta hissa qo'shgan.

Sokkuram sun'iy g'oridagi ajoyib Buddha haykali, Pulguks ibodatxonasi va Pandoks ibodatxonasidagi relief suratli bronza qo'ng'iroqlar koreys madaniyatining qay darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Mavzuga doir savollar:

1. Ilk o'rta asrlarda koreys davlatlari orasidagi murakkab vaziyatni shakllantirgan asosiy omillarni ayting.
2. Bu davrda koreys davlatlari va Xitoy orasidagi munosabatlar qanday kechdi?
3. Ilk o'rta asrlarda Koreya yarim orolidagi iqtisodiy hayot haqida nimalar bilasiz?
4. Bu davrdagi Koreya xalqlari madaniyatiga qanday baho berasiz?
5. Buddizmning Koreya xalqlari hayotidagi o'rni qanday bo'lgan?

V BOB. ILK O'RTA ASRLARDA ERON

Sosoniylar hukmdorligi va uning ijtimoiy tuzilishi. Milodiy III asrda (226 y.) parchalangan Parfiya imperiyasi o'rnida Sosoniylar davlati vujudga kelgan. Uning tarkibiga Eronning bepoyon hududlari, Mesopotamiya, Hindiston, sharqiy yassi tog' tumanlari kirgan. Aholi tarkibi ham ancha quroq bo'lgan. Ilgari jamoa bo'lib, bu davrda alohida mulk bo'lgan hududlar soni 240 ta bo'lgan. Faqat Forsda qarindosh qabilalar bir elat bo'lib birlashgan.

Sosoniylar imperiyasining aholisining asosiy qismi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Tog'li tumanlarda ko'chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan. Shaharlarning asosiy qismi mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan. Ularning eng kattasi poytaxt Ktesifon bo'lgan. Sosoniy shaharlari o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan.

Qul mehnatidan asosan sug'orish tizimi va ziroat ishlarida foydalanilgan. Keyinchalik qishloq xo'jaligida ulardan foydalanish asta-sekin kamayib borgan.

Manbalarda mulkning «*dastkard*» degan shakli ko'p bora tilga olingan. Ularda qul yerga birlashtirilgan bo'lib, qul yersiz sotilmagan. Dastkardlar yirik, o'rtacha mulkdor va jamoalarga tegishli bo'lgan. Eng yirik yer egalari – shahanshoh, zodagonlar, ruhoniylar bo'lgan. Yuqori tabaqa «qisman ozodlikka chiqarish» tizimini qo'llay boshlagan. Ishlab chiqaruvchilar uchun u eng og'ir, azob-uqubatli ozodlik yo'nalishi bo'lgan.

Mehnat umumdorligining o'sishi bilan davlat boshqarmasiga suyangan yuqori hukmron tabaqa dehqonlar soliqlari va majburiyatlarini oshira boshlaganlar. Erkin jamoa a'zolari ham asta-sekin majburiyat o'tovchi tabaqaga aylantirilgan.

III-V asrda Eron zodagonlari asta-sekin o'z jamoalari bilan aloqalarini uza boshlaganlar. Bu vazifani amalga oshirish ancha mushkul bo'lgan. Bu vaqtga qadar uzoq vaqt mobaynida jamoa a'zolari an'anaviy patriarxal majburiyatlarnigina o'taganlar.

V asrning ikkinchi yarmiga kelib yuqori tabaqa har tomonlama soliqlar tizimini ishga solgan: *xarag* (eron dehqonlari yetishtiriladigan mahsulotdan olinadigan soliq) va *gezit* (jon boshiga solinadigan soliq, o'lpon). Ular bilan bir vaqtda eski soliq va majburiyatlar

saqlanib qolavergan. Soliqlar, asosan mahsulot tarzida olingan.

Jamoani ezish kuchaya borganiga qaramay, Eron dehqonlari shaxsan ozod deb hisoblanavergan. Qishloqlarda oila, urug' hali muhim rol o'ynagan. Lekin, qishloqning o'ziga xos belgisi endi qo'shni jamoa bo'lib, oilaviy jamoa parchalanuvi davom etavergan. Mazkur jarayon bilan bog'liq ravishda «*katxudo*» atamasining mazmuni o'zgargan. U dastlab ko'p oilali jamoa boshlig'ini, keyinroq oqsoqolni anglatgan. Oqsoqol ma'muriy va moliyaviy vazifalarni bajarib, sun'iy sug'orish tizimi va yangi yerlar ochishga javobgar bo'lgan. Oqsoqol asta-sekin jamoa qullariga egalik huquqini ham qo'lga olgan. Eronning ayrim qoloq tumanlarida katta oilaviy jamoalar VII asrdan keyin ham mavjud bo'lgan.

IV–V asrlarda jamoa a'zolari orasida mulkiy tabaqalanish jarayoni ancha chuqurlashgan, lekin, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilmagan. *Ozod* so'zi jamoaning erkin a'zosiga nisbatan qo'llangan. Endi ko'proq o'ziga to'q. urushga shaxsiy otini minib kira oladigan kishini ang'lata boshlagan. V asrga kelib bu atama *katxudo* va *dehqonga* nisbatan ham qo'llangan. Dehqon to'la huquqli yer egasi, ozod erkin jangchini anglatgan. Dehqonlar yerda oila a'zolari va qullar bilan ishlaganlar. Eron jamoachiligiga nisbatan eronlik bo'lmaganlar og'irroq holatda yashaganlar.

Aholining uncha ko'p bo'lmagan qismini hunarmandlar tashkil etgan. Ularda mehnat taqsimoti ancha takomillashgan. Manbalarda hunarmandlar tashkiloti haqida ko'p ma'lumotlar mavjud.

Shuni qayd etish lozimki, Sosoniylar davlatida hunarmandlar hazar qilinadigan darajada turgan. Bu soha jamiyatning erkin a'zosi uchun nomunosib hisoblangan. Hunarmandchilikning barcha mahsuloti davlat ixtiyoriga o'tgan. Sosoniylar davlati shaharlardagi hunarmand va savdogarlarning asosiy qismi eronlik bo'lgan. IV–V asrlarda jamoaning xonavayron bo'lishi oqibatida ular tarkibidagi eronliklar ko'paygan.

Podshohlikning barcha aholisi dastlab uch, keyinroq to'rt tabaqaga bo'lingan. Dastlabki uch tabaqa hukmronlar – *jangchi*, *ruhoni*, *kotib* (*amaldor*)lardan, keyingi to'rtinchi tabaqa esa *dehqon*, *hunarmand*, *savdogarlardan* iborat bo'lgan. Quyi tabaqadan yuqorisiga o'tish amalda mumkin bo'lmagan.

III–V asrlarda mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy hukmronlik

eski zodagonlar – aʼyonlar qoʻlida boʻlgan. Mamlakat iqtisodiyoti asosini yirik yer egaligi va bosib olingan yerlarni talash tashkil etgan.

Davlat tashkiloti. III asr boshlarida mashhur sosoniylar urugʻi vakili Ardasher butun Fors, markaziy Eron, Fors gʻarbidagi Xuzistonni oʻz hukmronligi ostiga olgan. 226-yilda u davlat boshligʻi deb eʼlon qilingan. Sosoniylar sulolasiga asos solgan Ardasher 241-yilga qadar hukmronlik qilgan. Dastlabki sosoniylar eski Parfiya zodagonlariga qarshi uzoq kurash olib borganlar. Ardasher yangi maʼmuriy boʻlinishga asos solgan, oqibatda urugʻ va jamoalar chegaralari buzilib ketgan. Zodagonlarning oʻz jamoalari bilan aloqalari uzib tashlangan. Oʻz jamoasi bilan aloqasi zaifroq boʻlgan zodagonlar Ardasherni qoʻllab, sosoniylar gʻalabasiga koʻmaklashgan.

Davlat boshligʻi shahanshoh boʻlgan. Merosiylilikning qatʼiy tartibi mavjud boʻlmagan. Lekin, hukmdor albatta sosoniylar urugʻidan boʻlishi shart boʻlgan. U hayotlik chogʻidayoq unga maʼqul shahzodani merosxoʻr sifatida tayinlashga harakat qilingan. Koʻpincha saylov turli guruhlar oʻrtasidagi nizolarni vujudga keltirgan.

Maʼmuriy boshqarma boshligʻi *vazurg – framador* (buyuk boshqaruvchi) boʻlgan. Uning majburiyatlari doirasi hali aniq belgilanmagan. chunki keng tarmoqli boshqaruv tizimi vujudga kelmagan edi.

Markaziy hukumatning koʻproq diqqat eʼtibori moliya, qoʻshin va sugʻorish tizimiga qaratilgan. Moliya boshqarmasi soliq yigʻish va jamoalar bilan mashgʻul boʻlgan.

Viloyatlarni boshqarish sosoniylarga boʻysungan mahalliy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular maʼlum darajadagi mustaqillikni saqlab qolganlar. Davlatning asosiy hududi boʻlsa, shahanshoh tomonidan qoʻyilgan vakillar tomonidan tasarruf etilgan. Oʻta muhim, ayniqsa Markaziy Osiyo bilan chegaradosh viloyatlar gubernatori shahanshoh urugʻidan boʻlgan.

IV asrga qadar sosoniylar qoʻshini faqat xalq lashkarlari va ittifoqdosh qabilalar yordamchi guruhlaridan iborat boʻlib, ularning asosiy qismini otliq chavandozlar tashkil qilgan. Piyodalardan qoʻshimcha qism sifatida foydalanilgan. Harbiy zodagonlar vakillari qoʻshinga boshchilik qilganlar va alohida, oʻta muhim harbiylar guruhlarini tashkil etganlar.

Zardushtiylik – davlat dini. Sosoniylar imperiyasini mustahkamlashda davlat dini bo'lgan *zardushtiylik* o'ziga xos o'rin tutgan. Faqat sosoniylar davriga kelibgina zardushtiylik din sifatida to'la shakllangan. Sosoniylar davri zardushtiyligi asosida dualistik g'oya, qorong'ulik va yorug'lik kuchlari o'rtasidagi kurash masalasi yotgan. Tabiat kuchlari (quyosh, olov, yulduzlar)ga sig'inish juda ko'p sonli ruhoniylar – *xarbad* va *moadlar* tomonidan amalga oshirilgan. O'chmas olov yonib turgan yuzlab ibodatxonalarda ibodat qilingan, qo'shiq aytilgan, muqaddas yozuvlardagi matnlar o'qilgan.

Zardushtiylik ibodatxonalari, xarbad va moadlar asosan qullar tomonidan ishlanadigan katta yer-mulklarga ega bo'lganlar. Ularga katta in'omlar kelgan, bundan tashqari, aholidan bajarilgan marosim uchun haq olingan. Din qoidalarini bajarmaslik ko'pdan-ko'p jarimalarga sabab bo'lgan.

Zardushtiy kohinlarning yuqori qatlami siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. Ular qo'lida ta'lim tizimi va sud bo'lib, xalqning butun hayoti qat'iy nazorat ostiga olingan. Shu sababli ham o'sha davrdagi ijtimoiy norizolik dahriylik libosi ostida bo'lgan. Ular orasida eng muhimlari – *moniylik* va *mazdakiylikdir*.

Moniylik dini va uning ijtimoiy mohiyati. Ushbu ta'limot asoschisi Moniy 215-yilda Bobilda tug'ilgan va o'z targ'ibotini 242-yilda Ktesifonda boshlagan. Moniylikning asosiy g'oyasi zardushtiylikdagi kabi dualistik g'oya bo'lib, ikki ibtido: yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlik mavjudligini tan olgan. Zardushtiy kohinlar sosoniylar imperiyasidagi tartib qoidalarini yorug'lik tashkil etish timsoli sifatida targ'ib qilganlar. Moniy ta'limoti bo'yicha dunyoviy hayot va unda yashovchi kishilar yovuzlik timsolidir, yovuzlikdan xalos bo'lishning asosiy yo'li inson ruhining barcha moddiy, dunyoviylikdan ozod qilishdir. Yorug'likni ozod etishning, qorong'ulikni bartaraf qilishning yagona yo'li – bu dunyo halokatidir. Inson o'z hayoti, yurish-turishi bilan atrofdagi olamda mavjud yorug'lik zarrachalarini ozod qilmog'i lozim. Shunday hayot bilan u yorug'likka qarshi kurashadi. Shu sababli inson go'sht yemasligi kerak, axloqan pok hayot kechirishi lozim. «Tanlanganlar» bo'lsa, nikohga kirmasligi, go'sht yemasligi, o'simliklarni uzmasligi darkor. Moniy fikri bo'yicha yangi ta'limot universal din bo'lishi kerak bo'lgan. Shu sababli u o'ziga ma'lum

dinlardagi urf-odatlarining tashqi shakllarini o'zlashtirib olavergan.

Moniychilar zohidlikni boylik, ayshu-ishratga, zulmga qarshi qo'yanlar. Mavjud dunyoga bo'lgan salbiy munosabat jamiyatni o'zgartirishi uchun biror-bir talab bilan chiqish imkonini bermagan. Turk kishilarning xo'rlanishi, quldorlik tizimi qoldiqlari, barcha ijtimoiy tafovutlarning keskinlashuvi bu ta'limotga umidsizlik, chorasizlik, umidsizlik ruhini singdirgan.

Dastlab sosoniylar moniylik tarqalishiga uncha e'tibor bermaganlar. Ular ta'limotining davlatga, dinga qarshi ruhi sezilgach, unga qarshi qattiq targ'ib boshlangan. Moniy zindonga solingan, 276-yilda qatl etilgan. Uning tarafdorlari yashirinishga majbur bo'lib, ko'proq Vizantiyaga ketganlar, u yerda moniylik tarqalgan, boshqa shakllarga kirib, xristianlikka o'z ta'sirini o'tkazgan.

Moniylik ta'siri o'rta asrda kuchayib, ko'plab mazhablarga surib ketgan. Sug'd shaharlarida keng tarqalgan moniylik Sharqiy Turkiston va Xitoyga ham kirib borgan.

Eronda moniylik yashirin tarzda yashab, hayotning barcha jabhalariga ta'sir o'tkazgan. Shunga qaramay, u ezilganlarning kurash bayrog'iga aylana olmagan. Chunki, u yangi qullar (quldorlik o'rniga kelgan) talabiga javob bera olmagan.

III-IV asrlarda Eron hukmdorlari Rim orqasida ittifoqchilarga ega bo'lish maqsadida xristianlarga boshpana beraverganlar. Xristianlik dushman Rimning davlat diniga aylangach, (imperator Konstantin davrida) ular Eronda ta'qib etila boshlagan.

III-IV asrlarda Sosoniylar davlatining tashqi siyosati. Dastlabki asrlarda davlat tashqi siyosati ko'proq quldor zodagonlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan. Quldorlikka asoslangan xo'jaliklarni ushlab turishning asosiy sharti urush va ko'proq qulga ega bo'lish edi.

Ardasher dastlab Parfiya qo'lida bo'lgan barcha viloyatlarni qo'lga kiritgan, qo'shinlari Rim Mesopotamiyasi, Suriya va Kichik Osiyoga kirib borgan. Qudratli Kushon imperiyasi zaiflashib borayotgan shartda, sosoniylar Xuroson va Marv vohasida mustahkamlanib olib qolganlar. Forslar Mesopotamiya va Armaniston uchun Rim bilan shiddatli kurashda yaqqol ustunlikka ega bo'lganlar.

Shopur I (242-272) davrida bu kurash 260-yilda rimliklar mag'lubiyati bilan yakunlangan. Imperator Valerian bilan birgalikda

asirga olingan Rim zodagonlari qullikka solingan. Ularning kuchi bilan Karun daryosi bo'yida Eronda «Bandi Qaysar (Sezar dambasi)» nomi bilan mashhur ulkan suv inshootlari qurilgan.

Bundan tashqari, Shopur I Kavkazortida ham o'z pozitsiyasini ancha mustahkamlagan. XX asrning 30-yillarida topilgan yozuvlarda qayd etilishicha, O'rta Osiyoda yurgan Shopur I Chochga qadar yetib borgan. III va V asrda sosoniylarning sharqdagi sarhadlari Marv vohasi, Hirot va Sakiston sharqidagi tog'li tumanlargacha bo'lgan.

Shopur II (310–379) rimliklarning mudofaasi asosi bo'lgan qator qal'alarni egallagan. 363-yilda Rim legionerlari Eron hududiga kirib kelib, dastlab kichik yutuqlarga erishgan, keyinchalik esa mag'lubiyatga uchragan.

371-yilda yana Rim bilan 5 yil davom etgan urush boshlangan. IV asr oxirida ikkala imperiya Armanistonni bo'lib olgan, uning taxminan 4/5 qismi sosoniylarga, qolgan qismi sharqiy Rim imperiyasi Vizantiyaga o'tgan.

Ikki imperiya o'rtasidagi urushning to'xtashi ularda ikki siyosatdagi qiyinchiliklar, ularga varvarlar hujumi, qo'zg'olonlar bilan bog'liq bo'lgan. IV asrda Eron jamiyatida yuz bergan ijtimoiy kurash sosoniylar tashqi siyosatida ham aks etgan.

V asr oxiridagi siyosiy vaziyat. Xalq ommasini haddan tashqari ezilishi jamoachilar xo'jaligida og'ir iz qoldirgan. Bahrom V Gur (421–439) davrida Eronda juda ko'p dehqonlarning ish hayvonlari, qurollari, urug'lari yo'q bo'lgan. Xonavayron bo'lgan jamoa a'zolari yerlarni tashlab ketib, hazar qilinadigan hunarmandchilik va boshqa kasblar bilan mashg'ul bo'lgan va aksariyat hollarda daydilarga aylangan. Viloyatlar hukmdorlari Bahrom V ga juda ko'p arznomalar yozganlar. Qishloqlar huvillab qolgan, hayvonlar egasiz qolgan, dalalarni esa o't-o'lanlar bosib ketgan. Dehqon xo'jaligining bir qismi xonavayron bo'lishi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti zaiflashgan, sug'orish tizimi ancha buzilgan, tez-tez ocharchiliklar yuz berib turgan.

Feruz (459–484) hukmdorligi davrida yetti yil mobaynida hosil yaxshi bo'lmagan, daryolar qurib, hayvonlar oriqlagan, mamlakat aholisi turli g'am-tashvishlarga botgan. Ziroatda ishlab chiqarish kuchlari rivoji zaiflashgan. Oqibatda IV asr oxiri – V asrda keng ko'lamda xalq harakatlari yuz bergan. Ular orasida *mazdakiylar*

harakati ijobiy xususiyatga ega bo'lgan.

Dehqonlargina emas, ushbu holatdan ozodlar ham norozi bo'lib, ular vuqori fuqaro va harbiy mansablarga erisha olmaganlar. Shu sababli V asrda ozodlar dehqonlar bilan birga bosh ko'tara boshlagan. Aynan ozodlar quldorlarga qarshi siyosiy hukmronlik uchun kurash boshlagan. Shahanshohlar ko'proq ozodlar va dehqonlarga tayana boshlagan, ular feodalizm vakillari bo'lgan.

Ardashe II (379–383) Eron dehqonlarini (mehnatkash) o'n yilga soliqlardan ozod qilish to'g'risida farmon chiqarganda, zodagonlar un taxtdan ag'darib tashlaganlar.

Yozdigard I (399–420) ma'lum darajada a'yonlar va ruhoniylar siyosiy ta'sirini cheklashga erishib, qatag'onlar orqali ular kuchini ancha sindirgan. Forsdagi isyonni shafqatsizlik bilan bostirgan. Lekin, u ham o'zi olib borgan siyosat qurboni bo'lgan. Uning o'g'li Bahrom V taxtga o'tirish marosimida otasi siyosatini ta'qib qilgan, u butunlay mashhur zodagonlar ta'sirida bo'lgan.

Sosoniylar imperiyasi zaiflashgan sari uning hududiga Kavkazorti va Markaziy Osiyodan hujumlar kuchaygan. Vaqti-vaqti bilan sosoniylar bu hujumlarni qaytarib, hatto qarshi hujumga o'tib turgan. Lekin, V asrning ikkinchi yarmida vaziyat keskin o'zgargan. Ichki vaziyat va turli hujumlar mamlakatni qaqshatgan. Shahanshoh Feruz mag'lubiyatga uchragan. Birinchi martasida u Eftaliylarga katta tovon to'lashga, to'lov tugaguncha ular qo'lida o'g'li Qubodni garov tariqasida qoldirishga majbur bo'lgan,

Ikkinchi martasida lashkarlari to'la mag'lub bo'lgan, Feruzning o'zi o'ldirilgan. Eftaliylar – «oq xunlar» turmush tarzida harbiy qabilachilik demokratiyasi an'analari kuchli bo'lgan. Eftaliylarning boshliqlari o'zlarini «birgalikda o'ladiganlar» deb atalgan kishilar bilan qurshab olganlar. Bu kishilar ularni taomi, turmushi va jangdagi sherik o'rtoqlari bo'lib, boshliqlari o'lganda ular bilan birga natiqi dunyoga ketardilar. Eftaliylar 427-yildan 487-yilgacha O'rta Osiyo davlatlarini qulatgan. Vaxshunvor boshchiligida 457-yilda Badaxshon va Balxni egallagan. Eronga birinchi zarba 479-yilda berilgan va 484-yilgi jangda Feruz o'ldirilgan shu davrdan e'tiboran Eron eftaliylarga o'lpon to'lashga majbur etilgan.

Harbiy jihatdan mag'lub etilgan, aholisi och mamlakatda xalq qo'zg'olonlari boshlangan. Mamlakatning shimoli-g'arbida

483–484-yillarda qoʻzgʻolon zoʻrgʻa bostirilgan. Hukmronlar uchun eng xavflisi oʻsha davr Gʻarbiy Osiyosi tarixida muhim iz qoldirgan mazdakiylar harakati boʻlgan.

Mazdakiylar harakati. Mazdakiylikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xonavayron boʻlgan jamoatchi dehqonlar hamda eroniy hunarmandlar edi. Harakatga unga vaqtincha qoʻshilgan ozodlar va dehqonlar ham katta yordam berganlar. Oʻtkir ijtimoiy kurash Eron tarkibiga kiritilgan xalq va qabilalarni ham harakatga keltirgan.

488-yilda Mazdak tomonidan ilgari surilgan diniy-falsafiy taʼlimot moniylik va zardushtiylik bilan mustahkam aloqada edi. Mazdakiylikning moniylikdan farqi yorugʻlikning qorongʻulik, yaxshilikning yomonlik ustidan gʻolib chiqishiga boʻlgan qatʼiy ishonch boʻlgan. Bu gʻalaba narigi dunyoda emas, bu dunyoda sodir boʻladi. Yorugʻlik kuchlari ongli ravishda, yomonlik kuchlari ongsiz, tartibsiz ravishda gʻalabasiga koʻmaklashuvi kerak. Yerdan yomonlik ildizini quritish mumkin. Yaxshilik va yomonlik timsoli mulkiy tengsizlikda yaqqol koʻrinib turibdi. Aynan u birinchi navbatda yoʻq qilinmogʻi darkor, degan tasavvurlar mavjud boʻlgan.

Mazdakiylik talabi: mulkni qayta taqsimlash, bu sohada tenglik oʻrnatish, huquqiy tenglik... Toʻrt «Z» – «zamin», «zar», «zoʻr», «zan» hammada teng boʻlishi kerak.

Dasturdan: *«agar kimdadir ortiqcha mulk, xotin, qul boʻlsa, biz uni tortib olib, hammaga teng taqsimlaymiz, hech kimning boshqalardan ortiq mulkga daʼvogarlik qilishga haqqi yoʻq»*. Mazdakiylar dasturni oshira borib, zodagonlarning yer-mulklarini tortib olib, oʻzaro boʻlishgan. Tortib olingan yer jamoa mulkiga qoʻshib olingan. Qullar, ish qurollari, ish hayvonlari, don zaxiralari jamoa aʼzolari oʻrtasida taqsimlangan.

Bu harakatdan yuqori tabaqa vakillari, hatto shahanshoh Qubod I foydalanib qolishga harakat qilgan. Qubod bu yoʻl bilan zodagonlar qudratini sindirishga uringan. U qoʻshinning asosini tashkil etgan ozodlar va dehqonlar kayfiyati bilan ham hisoblashishga majbur boʻlgan.

496-yilda zodagonlar Qubodni qoʻlga olib, zindonga solgan, uch yildan soʻnggina u eftaliylar yordamida ozodlikka chiqib, taxtga oʻtirgan.

Shundan soʻng Mazdakiylar shoh yordamida orzularini amalga

oshirgan. Harakat rahbarlaridan anchasi muhim davlat mansablarini egallagan. Mazdak davlatdagi eng muhim shaxslardan biriga aylangan. Aynan shu davrda Eron Vizantiyaga qarshi muvaffaqiyatli urush olib borgan, ko'chmanchilar hujumi qaytarilgan, qator yangi shaharlar qurilib, kanallar qazilgan.

Eroniylar «*haqiqiy e'tiqod qiluvchilar*» (mazdakiylar) va uning dushmanlari tabaqalarga bo'lingan. Ular ta'limoti bo'yicha qon to'kish mutlaqo mumkin bo'lmagan. Shunga qaramay, Mazdak raqiblar qarshilik ko'rsatgudek bo'lsa, ularni o'ldirishga ruxsat bergan. Quldor zodagonlarning katta qismi qirib tashlangan. Ularning iqtisodiy qudratiga zarba berilgan, kastaviy – tabaqaviy imtiyozlar bekor qilingan.

Mazdakiylar harakati birinchi navbatda, yirik zodagonlarga qarshi qaratilgan. Harakatdan keladigan asosiy foyda ozodlar va dehqonlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Biroq, harakat davomida ijtimoiy kurash jamoa ichida ham rivojlanib ketgan. Barcha jamoa a'zolarining teng huquqliligi ozodlar g'azabini qo'zg'agan. Shu sababli ham ulardan iborat qo'shin harakat dushmanlari tomonga o'ta boshlagan. Shu bilan birga Qubod ham ruhoniylar va zodagonlar bilan kelishuv yo'lga o'tgan.

Harakatdan ozodlar va dehqonlarning chiqib ketishi uni ancha zaiflashtirib qo'ygan. Dehqonlar guruhleri biroz g'alabadan keyin qo'uy-uylariga tarqalib ketgan. Harakat muvaffaqiyatsizlikka uchray boshlagan.

Qubod vaziyatdan foydalanib mazdakiylar bilan bog'liq amaldor va maslahatchilarni lavozimlaridan chetlatgan, keyinroq ular quvg'in ostiga olingan. Bu ishga zardushtiylar va mazdakiylar boshlig'i o'rtasidagi bahs sabab bo'lgan (u ataylab shahanshohning o'zi tomonidan uyushtirilgan).

529-yilda bu harakat mag'lub etilgan. Lekin, Mazdakiylar shiortlari xalq orasida uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Masalan, VIII asr boshida Xorazmda Xurzod harakati, VIII asr oxiri O'rta Osiyoda Muqanna harakati, IX asr Ozarbayjon, Eronda Bobek harakatlarida mazdakiylik g'oyalari yaqqol namoyon bo'lgan.

Xusrav I islohotlari. Xalq harakati hukmronlarga eski boshqaruv usulini saqlab qolish mumkin emasligini ko'rsatgan. Shu sababli ham «*O'lmas*» nomini olgan yangi sosoniy shahanshohi

Xusrav I Anushervon (531–579) feodal munosabatlar rivoji va mustahkamlanishiga turtki bergan islohotlarni o‘tkazishga majbur etilgan.

Mazdakiylarni mag‘lubiyatga uchratgani uchun unga hukmron tabaqalar «O‘lmas» laqabini berganlar. Xusravning o‘zi ham mazdakiylar harakatidan bir muncha saboq olgan. Soliq tizimidagi o‘ta ketgan adolatsizlikni yo‘qotish maqsadida uni ko‘rib chiqish zarurligini tushungan.

Uning buyrug‘i bilan hamma yerlar yangitdan ro‘yxatga olingan. Bunda tuproqning sifati, sug‘orish, qanday ekinlar ekish, daraxtlar va ish kuchining miqdori aniq hisobga olingan. Moliya amaldorlari: mirzalar, yerlardan olinadigan hosilni tubdan tekshirib chiqib, har yilda hosilga qarab soliq miqdorini belgilaydigan bo‘lgan. Jon solig‘i ham yiliga bir marta, muayyan miqdorda olina boshlangan. Ruhoniylar, amaldorlar va askarlar jon solig‘idan butunlay ozod qilingan. Lekin, ular ma‘lum miqdorda yer solig‘i to‘lab turgan.

Xusrav I savdogar va sudxo‘rlarni davlat moliya bo‘limiga bajonidil xizmatga olib, ularning pul muomalasi sohasidagi amaliy tajribasidan foydalangan. Xusrav I zamonasida kanal, damba to‘g‘onlar va boshqa xil inshootlari qurilishi avj olgan. Ktesifonda u muhtasham bir saroy qurdirgan. U turli olimlarga, hatto Yustinian tomonidan Vizantiyadan haydalgan neoplatonchi faylasuflarga ham homiylik qilgan.

Uning buyrug‘i bilan eng rasmiy voqealar saroyda rasmiy sur‘atda yilma-yil yozib borilgan. Yunon, suriya va hind tilidagi adabiy asarlar tarjima qilingan. «*Ming ertak*» nomli asar ham Xusrav zamonida paydo bo‘lgan deb faraz qilinadi. Bu to‘plam keyinroq arabcha «*Ming bir kecha*»ga asos bo‘lgan.

Xusrav I ning tashqi siyosati. Xusrav I podshohlik qilgan butun davr qo‘shni xalqlarga qarshi urush olib borish bilan o‘tgan. U o‘z podshohligining dastlabki davrida Yustinian I bilan «abadiy tinchlik» to‘g‘risida ahdnoma tuzgan (532). Lekin, vaziyatning kuchayib ketishidan qo‘rqib, 540-yilda ahdnomani buzib, Suriya va Antioxiyani bosib olgan. Antioxiya aholisini asir olib ketib, Ktesifon («Xusrav Antioxiyasi») atrofiga joylashtirgan. So‘ngra urush Mesopotamiya va Kavkazortida davom etgan. U to‘xtab-to‘xtab 562-yilgacha cho‘zilgan, nihoyat holdan ketgan ikkala

taraf 50 yillik sulh tuzgan, ikkala taraf o'z joy chegaralarini saqlab qolgan. Biroq, 570-yilda Xusrav Yamanni bosib olgan. Ushbu holat Eron va Vizantiya o'rtasida yana urush chiqishiga sabab bo'lgan. Mazkur urush 20 yil davom etib, Xusrav o'lgandan keyin uning o'g'li zamonida tugagan.

Sharqda Xusrav I O'rta Osiyo hududida Amudaryo va Sirdaryo o'rtasida yashovchi turk qabilalariga qarshi urush olib borgan.

Sosoniylar davlatining arablar tomonidan istilo etilishi. Xusrav o'lgandan so'ng hokimiyat tushkunlikka yuz tuta boshlagan. Feodallashayotgan zodagonlar markazga yaxshi itoat qilmagan. Viloyatlarning katta hokimlari sosoniylarga qarshi uzluksiz qo'zg'olon ko'tarib turgan. 590-yilda Bahrom Cho'bin boshchiligidagi feodallar qo'zg'oloni ularning eng kattasi bo'lgan. Qo'zg'olon natijasida sosoniylarning ag'darilishiga sal qolgan.

Shoh Xusrav II (610–628) Vizantiya imperatoridan yordam so'rab, uning qo'shini yordamida taxtni tiklab olgan. 591-yilgi Eron va Vizantiya sulhiga binoan Kavkazortidagi chegara chizig'i Vizantiyaga o'tgan.

Bu davrda xonavayron bo'lgan dehqonlar harbiy xizmatni ham tuzukroq ado etmaydigan bo'lib qolgan.

Sosoniylar va feodallar ichki ziddiyatlarni tashqi urushlar yo'li bilan hal qilishga uringan. 600-yilda Vizantiya bilan yana urush boshlangan, 613–620-yillarda Xusrav II Suriya, Falastin va Misrni zabt etgan. Biroq, 623-yildan boshlab Vizantiya imperatori Irakliyning o'zi hujumga o'tgan. 628-yilda ular qo'shni sosoniylar poytaxti Ktesifonni bosib olish xavfini tug'dirgan. Mamlakatda shohdan norozilik kuchaya boshlagan. Bundan foydalanib, zodagonlar Xusrav II ga qarshi fitna uyushtirgan. Ular tomonidan shoh qilib ko'tarilgan Xusrav II o'g'li Qubod II otasi bilan urushib uni asir olgan va qatl etishni buyurgan. Vizantiya bilan sulh tuzilgan, unga ko'ra, vizantiyaliklar qo'ldan ketgan yerlarini qaytarib olganlar.

VII asr o'rtalarida Eronga qarashli yerlar juda ko'p bo'lgan. Shunga qaramay, u Vizantiya urushlari natijasida holdan toygan. Mamlakatda feodallarning boshboshdoqligi mavjud bo'lgan.

Oxirgi Sosoniy Yozdigar III (632–652)ning mamlakatdagi obro'si tushib ketgan. Bir nechta viloyatlar unga nomigagina bo'ysungan. Bu vaqtda kuchli harbiy davlat bo'lib birlashib olgan arablar Eronga

hujum boshlab qarshiliksiz 642-yilda bosib olgan. Yozdigar III sharqiy chekka o'lkalarga qochib ketgan. 652-yilda Marvga yaqin joyda o'zi yordam so'rab borgan turk qabilalari sardori tomonidan o'ldirilgan. Eron uzoq vaqtgacha ko'p millatli juda katta Arab xalifaligi tarkibida qolgan.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:

1. Sosoniylar davlatining qulash sabablari?
2. Isfaxon qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?
3. Sosoniylar davlatida mavjud bo'lgan yerga egalik qilish munosabatlari haqida ma'lumot bering.
4. Sosoniylar davlatining diniy hayotini tasvirlab bering.
5. Sosoniylar davlati olib borgan tashqi siyosat masalalari haqida ma'lumot bering.
6. Sosoniylar davlatida yuz bergan qo'zg'olonlarning umumiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
7. Xusrav I tomonidan o'tkazilgan islohotlar qay darajada samarali bo'lgan?

VI BOB. ARAB MUSULMON DAVLATLARINING VUJUDGA KELISHI VA YUKSALISHI

VII asrgacha bo'lgan muddatda Arabiston. Arablar tarixi odatda uch davrga: Makka – Madina – Islom dini paydo bo'lmagan ilgarigi Arabiston va Islom dinining paydo bo'lish davriga (VI–VII asrlar); Damashq (Suriya) – Ummaviylar sulolasining idora qilish davriga (661–750); Bag'dod (Eron–Mesopotamiya) davriga bo'lingan. Abbosiylar sulolasining idora qilish davri xalifaliklarning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugagan.

Arab xalifaligining turli siyosiy markazlari bilan bog'liq bo'lgan bu uchta xronologik davrga arab feodalizmining rivojlanishi ham muvofiq keladi. Birinchi davrda arab jamiyatida feodalizmning shu jarayoni endi boshlanayotganligi namoyon bo'ladi. Ikkinchi va xususan, uchinchi davrda Yevropa feodalizmidan jiddiy farq qiluvchi bir qancha tomonlari bo'lgan arab feodalizmining o'ziga xos xususiyatlari tarkib topgan.

Hudud jihatidan Yevropaning to'rtidan bir qismiga teng keladigan juda katta maydonni egallagan Arabiston yarim orolining ko'p qismi suvsiz cho'l va sahrolardan iborat bo'lgan. Ammo, dehqonchilik qilish mumkin bo'lgan yerlar oz. Shuning uchun Arabiston aholisining ozchilik qismigina o'troq hayot kechirar va dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Og'ir iqlim sharoiti va ishlab chiqarish kuchlari zaif rivojlanganligi tufayli Arabiston yarim orolida yashagan ko'pchilik qabilalar taraqqiyot jihatidan Misr, Vizantiya, Eron, Mesopotamiya kabi qadimiy madaniyat markazlariga nisbatan ancha orqada qolib ketgan edi. Arablarning ko'pchiligi esa ko'chmanchi – *badaviylardan* iborat bo'lib, qo'y, echki va biya boqish bilan shug'ullangan. Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay bo'lgan o'lkasi janubi-g'arbiy viloyat Yaman yoki «*Baxtli Arabiston*» bo'lib, bu yerda qadim zamonlardayoq mutassil ravishda birining o'rnini ikkinchisi olib kelgan, bir necha yirik quldorlik davlati bo'lgan. Yarim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va Hijoz deb nom olgan viloyat bu davrda iqtisodiy jihatdan bir muncha rivojlangan edi. Buning sababi, suvli vohalarda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lganligida va janubdan shimolga qadimiy karvon yo'li o'tganligida edi. VI asr

oʻrtalarida bu karvon yoʻli janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston bilan, shimolda Suriya orqali Misr, Vazantiya va Eron bilan bogʻlangan edi. Yarim orolning eng katta qismi – Najid sugʻoriladigan yerlari juda kam boʻlgan, gʻoyat katta yassi togʻlikdan iborat bir joy boʻlib, faqat chorvachilik uchungina yaroqli edi.

VI asr oxiri – VII asr boshlarida arablar qattiq iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchragan. Yarim orol aholisi koʻpayib yer yetishmay qolgan. Oddiy arablar uchun ham katta madad boʻlib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchragan. VI asrda forslar bilan habashlar oʻrtasida boʻlgan va uzoq vaqt davom etgan urushlar natijasida Yaman deyarli butunlay vayron boʻlgan. Shimoldan janubga va janubdan shimolga mahsulot olib borish juda ham kamayib ketgan.

Eroniyar Hindistonga boradigan oʻzlari uchun foydali boʻlgan boshqa bir yoʻlga, yaʼni Tigr (Dajla) va Yefrat (Frot) daryolari boʻylab Fors qoʻltigʻiga boradigan yoʻlga homiylik qilgan.

Oʻz davri uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan Hijozdagi ayrim aholi punktlari, shaharlar, xususan, yoʻl ustida joylashgan Yasrib, Toif shahri VI asrda ancha kengaygan va gavjum savdo markazlariga aylangan edi.

Makka savdo markazi sifatida katta ahamiyatga ega boʻlib, atrofdagi qabilalarga boshqa shaharlarga nisbatan kuchliroq taʼsir koʻrsatar edi. Arab qabilalari oʻrtasida Makkaning diniy markaz sifatidagi roli ham ancha oshgan edi. Makkada Kaba ibodatxonasi, turli Arab qabilalarining 360 xudosi sanamlari mavjud boʻlgani tufayli bu shahar oʻz atrofida yashovchi koʻp qabilalar uchun eʼtiqod markaziga aylangan edi.

Kaʼba – islomda eng muqaddas hisoblangan va Allohning uyi – Baytulloh deb nom olgan ibodatxonadir. Ushbu ibodatxona oʻsha yerda mavjud boʻlgan va suvsiz sahroda arablar uchun najot manbasi sifatida muqaddaslashtirilgan Zam-zam bulogʻini, ato etgani uchun Allohga shukronalik va ibodat qilish, shu yerda qurbonlik qilish arablar oʻrtasida qadimdan rasm boʻlgan va bu hodisa Quronning «Al Kavsar» deb nomlangan 108- surasida oʻz ifodasini topgan. V–VI asrlarda Makkada arablarning *Quraysh* qabilasi hukmron boʻlib, qurayshiylarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq avj olishi natijasida ancha boyib ketgan, pul muomalasi, sudxoʻrlik rivojlangan, shuningdek qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalanish ham

ancha kengaygan.

Yaman Sosoniylar hukmronligiga o'tgan davrlarda (572–628-yy.) Eron ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan yo'l tez rivojlana boshlagan va shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan karvon yo'li inqirozga uchragan.

Savdodan keladigan daromad kamayib ketishi natijasida Quraysh zodagonlari o'rtasida sudxo'rlik avjiga chiqqan. Qul va kambag'allar kuchidan foydalanish odat tusiga aylangan. Shu tufayli Makka va Hijozning boshqa shaharlarida ijtimoiy tabaqalar o'rtasida qarama-qarshiliklar keskinlashgan. Bir tomondan, qul egalari bilan qullar o'rtasida, ikkinchi tomondan oddiy mehnatkashlar va zodagonlar o'rtasida ziddiyatlar avj olgan. Qabilalarning yuqori tabaqalari, ayniqsa, Makka zodagonlari qo'shni mamlakatlarni bosib olib, katta boylik va o'ljani qo'lga kiritish va shu orqali hokimiyatni mustahkamlash, natijada inqirozdan qutulish haqida tez-tez o'ylay boshlashgan.

Islom dinining paydo bo'lishi. Arab xalq ommasining ijtimoiy noroziligi mafkuraviy tarzda, ya'ni din – islom dinining vujudga kelishi bilan ifodalangan.

Arab dunyosida VI asr oxiri – VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida arab qabilalarining ijtimoiy hayot taqozosi bilan vujudga kelgan markazlashishga intilishi yotar edi. Islom ayni shu intilishni o'zida aks ettirgan mafkura sifatida yuzaga kelgan, markazlashgan arab davlatining vujudga kelishi, qo'shni mamlakatlarning bosib olinishi, arab xalifaligining kengayishi jarayonida kuchli g'oyaviy qurol sifatida xizmat qilgan. Islom dini shakllanishida payg'ambar Muhammad (s.a.v.) 609–610-yillarda Makkada, yakka xudoga e'tiqod qilish to'g'risida targ'ibot ishlarini boshlagan. Dastlabki yillarda juda oz kishi uning izidan borgan. Ayni vaqtda qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar bu targ'ibotga jiddiy qarshilik ko'rsatgan. Keyinroq, Makkada ahvol keskinlashgach, Muhammad (s.a.v.) ma'lum davrlardan buyon Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Madinadagi *Ans* va *Xazraj* qabilalarining vakillari bilan muzokaralar olib borgan va ularning yordami bilan Madinaga ko'chib ketgan. 622-yilda yuz bergan bu ko'chishdan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlangan.

Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «*muhojirlar*», islomni qabul qilgan madinalik qabilalar esa «*ansorlar*» (yordamchilar) degan nom olgan.

Hijratning ikkinchi yilda jihod farz qilindi. Muhammad (s.a.v.) ishtirok qilgan janglar g'azot, lashkar yuborgan janglari «*surayya*» deb nomlangan. Shundan so'ng musulmon qo'shinlari Madina davlati atrofidagi arab qabilalariga qarshi yurishlar qilib, ularning ko'plarini o'ziga bo'ysundirgan. Mazkur janglarning mashhurlari Badr, Uxud, Handaq g'azotlari, Xudoybiyah sulhi, Hibor jangi, Makkaning olinishi, Hunayn, Tabuq g'azotlaridir. Musulmonlarning mavqei Makkaga nisbatan jiddiy kuchayib borishi natijasida Makka zodagonlari Muhammad (s.a.v.) bilan kelishish yo'lini izlay boshlagan.

630-yil bahorida Madina qo'shinlari Makkaga yaqinlashib, hech qanday qarshiliksiz shaharni bosib olgan edi. Shu vaqtdan boshlab Muhammad (s.a.v.) bilan Makka hukmronlari o'rtasida raqobat va qarama-qarshilik ham tugagan. Ular Muhammad(s.a.v.)ning yaqin yordamchilarga aylanib, musulmonlar davlatida yuksak lavozimlarni egallagan.

Muhammad (s.a.v.) 632-yilda iyun oyida Madinada vafot etgan. Bu davrga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrosigacha cho'zilgan hududni o'z ichiga olgan edi. Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin uning o'rinbosarlari yoki noiblari (arabcha – «xalifatun») davlatni boshqara boshlaganlar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan.

Dastlabki xalifalar zamonida arablarning istilolari. Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin vorislari, ya'ni xalifalar arab harbiy jamoasining saylab qo'yiladigan boshliqlari bo'lib, ular diniy, harbiy fuqaro hokimiyatini o'z qo'llariga olganlar. Ularning qarorgohi Madina shahri bo'lgan.

Dastlab Muhammad (s.a.v.)ning ilk safdoshlaridan biri (qaynotasi) bo'lgan Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan (632–634 yy.). Shu vaqtda bir qancha arab qabilalari o'rtasida Madinaga qarshi o'z mustaqilliklari uchun harakatlar ham bo'lgan. Lekin, bu norozilik harakatlari uzoqqa bormay, tezda bostirilgan. Keyingi davrlar, ya'ni

634–661-yillar davrida birin-ketin Umar, Usmon va Alilar xalifalikni idora qilgan. Xalifa Umar (634–644 yy.)ning hukmronlik yillari juda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Uning davriga kelib Arabistondagi barcha qabilalarni boʻysundirish, ularni Madina hokimiyati qoʻl ostida birlashtirish ishlari oxirigacha yetkazilgan. Iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlanib olgan arab xalifaligining qoʻshni mamlakatlarini bosib olish uchun qilgan harbiy yurishlari aynan xalifa Umar davrida boshlangan edi.

Abu Bakr davridayoq shimoliy hududlarga hujum boshlangan. Vizantiyaning kuchsiz qoʻshinlari jiddiy qarshilik koʻrsatishga oʻz boʻlgan. Xalifa Umar davrida 638-yilda Damashq, 640-yilda Quddus (Iyerusalim) egallanib, Falastin va Suriya yerlari toʻla ravishda xalifalik ixtiyoriga oʻtgan. Shu vaqtning oʻzida Mesopotamiya va Eronga ham yurishlar boshlangan.

637-yilda arab qoʻshinlari sasoniylar poytaxti – *Ktesifonga* bostirib kirib, 644–645-yillarda Hindiston chegaralariga yaqinlashgan. Shimol va shimoli-sharq tomonga yurish boshlagan arab qoʻshinlari Armanistonni (640-y.) bosib olgan. 639-yilda Misrga hujum boshlanib, 647-yilgacha arablar Tunisgacha boʻlgan shimoliy Afrika sohillarini egallagan edi.

Koʻchmanchi badaviylar birinchi darajali yengil suvoriylar bilan dong chiqargan boʻlib, ular oʻzlarining shiddatliliigi bilan dushmanning piyoda askarlarini dahshatga solgan.

VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida Makka va Yasrib (Madina) kabi shahar davlatlar boshqalarga nisbatan muayyan ustunlikka ega boʻlgan. Shahar-davlatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshlagan. Hijoz (Makka, Yasrib, Xaybor, Dumat, al-Jandal, Tayma) va umuman Arabistonni birlashtirib, xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini taʼminlashga qodir harbiy kuchga ega boʻlgan yagona mamlakatga aylantirish, hokimiyatni mustahkamlash, inqirozdan qutulish davr talabi boʻlgan. Markazlashgan davlat tuzish bilan bir qatorda Arabiston yarim orolidagi qabilalarining etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, ogʻzaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida oʻzgarish jarayonlari kechayotgan edi. Mazkur davrda amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar faqat ilohiylashtirish bilan

asoslanishi zarur bo'lgan. Bu vazifani o'sha davrda mavjud bo'lgan diniy ta'limotlar amalga oshirishdan o'ziga bo'lgan, chunki sahroyi arablar – *badaviylar* orasida ibtidoiy davrga xos bo'lgan politeistik diniy tasavvurlar hukmron bo'lgan. V–VI asrlarda bu qabilalar dini animizm, fetishizm va boshqa diniy-mistik qarashlar qorishig'idan iborat bo'lgan. Ayrim qabilalar toshlar, qoyalarga e'tiqod qilar. ezgulik ruhlari, yovuz kuchlar va iblis-shaytonlar haqidagi tasavvurlar keng tarqalgan edi. Ayniqsa, butparastlik avj olgan. Har bir qabila o'z sanam – xudolariga sig'ingan. Bunday e'tiqod islom dinida «*shirk*» deb nomlangan.

Arablar orasida yahudiylar, xristianlar, otashparast va sobiylar (osmon yoritgichlariga sig'inuvchilar) ham yashagan. Arablarda osmon yoritgichlariga sig'inish qadimiy Bobildan o'tgan.

Yahudiylik Yaman arablari orasida keng tarqalgan. Mazkur din VI asr boshlarida *Ximvariylar* podshohligida davlat dini vazifasini bajargan. Ushbu dinga e'tiqod qiluvchi arab qabilalari markaziy va G'arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham yashagan. Yahudiylikga e'tiqod qiluvchi arablar – *koptlar* hozir ham mavjud.

Arabiston yarim orolining shimoliy qismi – Suriya, Falastin, Mesopotamiya hududida yashaydigan qabilalar orasida xristianlik tarqalgan. Bu yerlar ilgari Vizantiya tazyiqi ostida bo'lgan. Sharqshunos olimlar fikricha, xristianlik *G'assoniylar* va *Lahmiylar* davlati orqali kirib kelgan.

Mazkur davrda Arabistonda o'ziga xos uyg'onish davri boshlangan. Yamanliklarning habashlar hukmidan xalos bo'lishi, arab badaviylari Eronning muntazam armiyasi ustidan erishgan g'alabasi muhim voqea bo'lgan. Shuningdek, asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan *vasaniya* (butparastlik) dinidan voz kechib, mukammal falsafiy dinga yetishish uchun intilishning ramzi sifatida *hanifchilik* (iahannuf) harakati yuzaga keldi. Haniflar ochiqdan-ochiq sanamlarni masxara qilar, jamiyatda keng tarqalgan ichkilikbozlik, qimor o'ynalari va boshqa zararli illatlarga qarshi kurashga da'vat etar edilar. Haniflar – haqqa moyil, yakka xudolikka e'tiqod qiluvchi taqvodor kishilardan iborat bo'lgan. Musulmonlar rivoyatiga ko'ra, islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig'inishni rad etgan, zohid, yakkaxudolikka astoydil ishongan, xristianlik hamda yahudiylikka ham qo'shilmagan, Ibrohim (a.s.) dinida bo'lgan

odamlarni *haniflar* deb ataganlar.

VII–IX asrlardan boshlab haniflar musulmon, islom dini esa haniflik dini ma'nosida ishlatilgan. Muhammad (s.a.v.) Ibrohim (a.s.)ning chinakam yakkaxudolikka asoslangan dinini tiklagan.

Arablar istilo qilgan mamlakatlarida mahalliy aholiga aralashmay, alohida harbiy shaharchalarga bo'linib yashagan. Ularning hayotida harbiy-patriarxal soddalik birmuncha vaqtgacha saqlanib qolgan.

Mesopotamiyadagi Kufa, Basra, shuningdek, Misrdagi Fustat (Qohira) arablar tomonidan bunyod etilgan harbiy manzilgohlarning eng yiriklaridan bo'lgan.

Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatidan eng taraqqiy topgan qismida yashagan arab zodagonlari oradan ko'p vaqt o'tmay mahalliy zodagonlar ta'siriga berilib ketgan. Bu ta'sir savdo rivoj topgan boy mamlakat bo'lmish Suriyada ayniqsa kuchli bo'lgan. Arablarning harbiy boshliqlari bu yerda yashab turib, Suriyadagi yuqori tabaqaning zeb-ziynatli hayotini tez o'zlashtirib olgan. Suriyadagi eng katta yer egalaridan va quldorlardan o'rnak olib, ularning o'zi ham yerlarni batamom xususiy mulk qilib tortib ola boshlagan, qullar asrab, bog'-rog'lar, saroylar qura boshlaganlar. Bunday arablar uchun «Madina qarilari»ning oddiy hayoti maroqsiz va eskirib qolganday ko'ringan.

Ummaviylar xalifaligi. Damashaq xalifaligi 90-yilcha (661–750) davom etgan. Shu vaqt ichida xalifalik o'z yerlarini nihoyat darajada kengaytirgan. VIII asrning boshlarida Shimoliy Afrikaning butun qirg'og'i bosib olingan. 711–714-yillarda arablar Pireneya yarim orolini istilo qilgan. Muoviyani o'zi Konstantinopolga ikki marta, 669 va 680-yillarda yurish qilgan. 717–718-yillarda arablar uchinchi marta Konstantinopol ostonasiga kelib, uni bir yil mobaynida qamal qilib turgan. Arab-musulmon qo'shinlarining Sharqdagi g'olibona yurishlari natijasida Movarounnahr va Xuroson hududlari ham bosib olingan. Afg'oniston va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini to Hind daryosiga qadar bo'lgan yerlar ham istilo qilingan. Armaniston bilan Gruziya ham Ummaviylar xalifaligi tarkibiga kirgan. Xalifalikning chegaralari g'arbda Atlantika okeanigacha, sharqda Xitoy bilan Hindiston chegaralarigacha borib yetgan.

Damashq xalifaligining xarakterli xususiyati Makka–Madina davridagi hali harbiy demokratiyaning ayrim xislatlarini saqlab

turgan teokratik davlatdan chiqib, meros bo'lib o'tadigan sharqona monarxiyaga aylanishida namoyon bo'ladi. Xalifa Muoviya ummaviylar sulolasiga asos solgan. Ushbu sulola xalifalari juda katta zeb-ziynat ichida yashagan. Ularga ko'p yerlari va qullari bo'lgan saroy ahli ham ergashgan. Xalifa ilgari gidek, islom dinining boshlig'i bo'lib qolavergan. Biroq, xalifa hokimiyatining diniy alomatlari batamom ikkinchi o'ringa surilib, birinchi o'rinni sharqqa xos bo'lgan odatdagi yakkahukmronlik alomatlari egallagan.

Ummaviylar zamonida boshqaruv ancha murakkablashgan. Alohida yer va jon solig'i oladigan juda keng tarmoqli, moliya amaldorlari boshqarmasi tashkil qilingan. Keyinchalik faqat «kofirlar» emas, balki musulmonlar ham soliq to'laydigan bo'lgan. Uch xil soliq asosiy soliq hisoblangan: *xiroj* – yer solig'i; *juzya* – jon boshi solig'i; *zakot* – majburiy to'lanadigan ushr. Ushbu soliq ham bevosita xalifaning xazinasiga kelib tushgan. Xiroj bilan juz'ya xalq uchun og'ir soliqlardan bo'lgan.

Sud va boshqa ma'muriy ishlar arab tilida olib borilgan. Arab qonunlari kodeksi – shariat vujudga kelgan. Shariatga islom dinining muqaddas kitobi Qur'on asos qilib olingan. Dastlab arablarning hammasi ham yangi tartiblarni tan olmagan. Mo'min-musulmonlar olami Ummaviylar zamonida bir-biriga dushman bo'lgan bir nechta qismga bo'lingan. Xalifa homiylik qilgan oqim musulmonlikda rasmiy hukmron oqim deb hisoblandi. Ushbu sodiq musulmonlar sunniylar deb atalgan, sunniylar degan so'z «sunnat» so'zidan olingan. Lekin arablarning bir qismi Sunnatni tan olmagan. Bunday musulmonlar shialar, ya'ni «maslagidan qaytganlar», «nifoqchilar» deb atalgan. Shialar Misr, Eron va Mesopotamiyada ko'p bo'lgan. Bularga o'ldirilgan Alining urug'-aymoqlari homiylik qilgan.

Nihoyat, demokratik xarakterdagi yana bir mazhab – xorijiyalar bo'lib, bular sunniylarni ham, shialarni ham, ummaviylarni ham, Alilarni (Ali avlodlarini) ham tan olmagan. Xorijiyalar yerni baravar taqsimlashni talab qilganlar. Keyinchalik xorijiylik ham kichik mazhablarga bo'linib ketgan.

Hukmron guruhlarining manfaatlari nuqtai nazaridan olib qaraganda ham ummaviylarning ijtimoiy bazasi mukammal bo'lmagan. Asosan, Suriya-Arab zodagonlari bilan bog'langan ummaviylarning manfaatlari sharqiy viloyatlarga yot bo'lgan. Mesopotamiya arablari

Damashqqa nisbatan qarshi kayfiyatda bo'lgan. Eronlik feodallarning ham ummaviylarga bo'ysunishi oson kechmagan. 747-yilda sharqiy Eron yoki Xuroson dehqonlari harakatiga Abu-Muslim boshchilik qilgan bo'lib, u yerli jamoatchi dehqonlarning ahvolini yaxshilash maqsadida ummaviylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Qo'zg'olon keng tus olgan. Natijada Eron va Mesopotamiya feodallari birlashib, 750-yilda ummaviylarni taxtdan ag'dargan. Mazkur jarayonda ular Abu-Muslim boshchiligidagi qo'zg'olondan foydalangan. Xalifalik taxtini Abul-Abbos egallagan. Mesopotamiyadagi harbiy arab oilasiga mansub bo'lgan ushbu xalifa Muhammad (s.a.v.) ga qarindoshman, deb da'vo qilgan. Abbasning buyrug'i bilan Ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan barcha shahzodalar qirib tashlangan. Mazkur shahzodalardan Abdurahmon ismli bittasigina o'limdan qutulib qolgan. U Ispaniyaga qochib borib, u yerda oradan ko'p vaqt o'tmay, ya'ni 756-yilda o'zini mustaqil amir, deb e'lon qilgan. Xalifa Abbas Abu-Muslimni ham qo'lga tushirib, zindonga tashlagan va bir necha yildan keyin u halok bo'lgan.

Xalifa Abbas xalifalikni 750-yildan 1055-yilgacha idora qilgan Abbosiylar sulolasiga asos solgan. Xalifalikning poytaxti Abbasdan keyingi xalifa Mansur davrida – 762-yilda qurilgan Bag'dod shahri bo'lgan. Shunday qilib, arablar siyosiy hayotining markazi Suriyadan Mesopotamiyaga ko'chirilgan.

Abbosiylar xalifaligi. Hukmron tabaqalarning manfaatlari nuqtai nazaridan olib qaraganda ham ummaviylarning ijtimoiy bazasi ancha mukammal bo'lmagan. Asosan, Suriya-Arab zodagonlari bilan bog'langan ummaviylarning manfaatlari sharqiy viloyatlarga yot bo'lgan. Mesopotamiya arablari Damashqqa qarshi kayfiyatda bo'lgan. 747-yilda Sharqiy Eron va Xuroson dehqonlari harakatiga Abu-Muslim boshchilik qilgan. U yerli jamoatchi dehqonlarning ahvolini yaxshilash maqsadida ummaviylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Qo'zg'olon keng tus olib, kattagina siyosiy oqibatlarga olib kelgan. Eron va Mesopotamiya feodallari birlashib, 750-yilda ummaviylarni taxtdan ag'dargan. Bunda ular Abu-Muslim boshliq xalq, dehqon harakatlaridan foydalangan. Xalifalik taxtini Abul-Abbos egallagan. Shahzodalardan Abdurahmongina o'limdan qutulib qolgan. U uzoq Ispaniyaga qochib borib, 756-yilda o'zini mustaqil amir, deb e'lon qilgan.

Abbos Abu-Muslimni ham qo'lg'a tushirib, turmaga tashlagan, bir necha yildan keyin u halok bo'lgan.

Abbosiylar zamonida xalifalik ancha taraqqiy etgan. Bag'dod xalifaligi VIII–IX asrlarda ayniqsa kuchli bo'lgan. Bu vaqtda – Bag'dodni barpo etgan Mansur (754–775) Karl Buyukka zamondosh bo'lib, u bilan do'stona diplomatik aloqalar o'rnatgan. Xorun ar-Rashid (786–809) va arab ilm-faniga homiylik qilgan Al-Ma'mun (813–833) kabi qudratli xalifalar hukmronlik qilgan. Abbosiylarning «*Oltin davri*» xalifa Mutadid zamonida (892–902) tugagan. Xalifalik ana shu vaqtdan boshlab tushkunlikka yuz tuta boshlagan. Abbosiylar davlatida Eronning ta'siri kuchli bo'lgan. Bu ta'sir vazirlik (buyuk vazir – xalifaning birinchi vaziri) unvonining joriy qilinishida ham, soliq solishda Eron usullarining o'zlashtirilishida (yer kadastrlarining forslardagiga o'xshab tuzilishida) ham, xalifalik ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'linib, ularga amirlar boshliq qilib qo'yilganida ham namoyon bo'ldi (ushbu amirlar to'la hokimiyatga ega bo'lishlari bilan qadimgi Eron va ilk o'rta asrlardagi sosoniylarning satraplarini eslatadi).

Eronning yirik zodagonlari xalifalikni idora qilishda faol ishtirok etgan. Buyuk vazirlik lavozimiga odatda eroniylardan tayinlanar edi va bu lavozim nasldan-naslga o'tar edi (masalan, mashhur Barmakiylar). Xalifaning juda ko'p (160 mingga yaqin) doimiy qo'shini bo'lib, ushbu qo'shinning ko'pchiligi turli varvar guruhlaridan iborat edi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa asosan turk jangovor guruhlaridan iborat bo'lgan. Xalifaning gvardiyasi katta siyosiy ahamiyatga ega edi, ushbu gvardiya harbiy ishga yoshligidan boshlab o'rgatilgan qullardan tuzilgan edi.

Xalifalik xo'jalik ishlarining turli sohalariga ham katta e'tibor bergan. Bu borada Eron va Mesopotamiya an'alaridan foydalanilgan. Chunonchi, maxsus pochta mahkamasi bo'lib, ushbu mahkama pochta ishlari, katta yo'llarni tartibga solish bilan shug'ullangan. Yo'llar tekislanib, suv bilan ta'minlangan, unda har bir muayyan masofada maxsus musofirxona, karvon saroylar tashkil qilingan. Abbosiylar zamonida dalalarni sun'iy sug'orish tizimi g'oyat avj olgan. Buning uchun turli katta-kichiklikdagi yer osti va yer usti kanallari qurilgan. Irrigatsiya qurilishlari to'xtovsiz davom etgan bo'lib, ushbu ish bilan hukumatning maxsus mahkamasi

shugʻullangan.

Abbosiylarning poytaxti hisoblangan Bagʻdod katta shahar boʻlib, unda xalifa va uning yaqin odamlariga qarashli juda koʻp saroy hamda bogʻlar boʻlgan. Shahar doira shaklida boʻlib, uning atrofi ikki qator devor bilan oʻralgan. Bu shahar zodagonlar shahri, xalifaning qarorgohi va uning maʼmuriy poytaxti boʻlishi bilan birga hunarmandchilik va savdo markazi ham edi. Bagʻdod bozorlarida vizantiyaliklar, xitoylar, hindlar, malayyaliklar, shimoliy, gʻarbiy va hatto Markaziy Afrikada yashovchi kishilarni ham uchratish mumkin boʻlgan.

Xalifalikning iqtisodiy yuksalishi. Abbosiylar davrida Old va Oʻrta Osiyoning, shuningdek, Shimoliy Afrikaning juda keng hududida maʼlum vaqtgacha tinchlik va xavfsizlik qaror topishi natijasida xalifalik iqtisodiy jihatdan gʻoyat taraqqiy topgan. Markaziy hukumat irrigatsiya tizimiga muttasil eʼtibor berishi natijasida, dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Keng tarqalgan qishloq xoʻjalik ekinlari – sholi, paxta va koʻknori... Bogʻdorchilik va gulchilik sanoat ahamiyatiga ega boʻlgan. Yirik atirgul plantatsiyalari parfyumeriya (atir, upa-eliklar) uchun maxsus modda berar edi. Arablar qimmatbaho nasldor ot va qoʻylar urchitish bilan ham shugʻullangan. Arablarning hunarmandchilik buyumlari ham katta shuhrat qozongan. Bu yerda yung, ipak va ip gazlamalar, yaxshi navli poʻlat va qurol (mashhur Damashq poʻlati), shisha va oynadan yasalgan buyumlar, zargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqarilgan. IX–X asrlarda xalifalikning iqtisodiyotida keng koʻlam olgan ichki savdo va ayniqsa, tashqi xalqaro savdo katta oʻrin tutgan. Arab savdogarlari uzoq shimol – yuqori Volga va hatto Baltika dengizi qirgʻoqlarigacha borib savdo qilganlar. Uzoq Sharqda ular Xitoy, Hindiston va Indoneziya bilan doimiy surʼatda savdo aloqalarini olib borgan. Arablar Yaqin Sharqda – Levantda (Yaqin Sharqni yevropaliklar keyingi vaqtlarda Levant deb yurita boshlagan), ayniqsa qizgʻin savdo olib borgan. Suriya, Misr, Kichik Osiyo arablar savdosining asosiy hududlari boʻlib, arablar bu yerlarda Vizantiya savdogarlari bilan raqobat qilgan va mahsulotlarini shu yerlar orqali Gʻarbiy Yevropaga yuborganlar. Arablar savdosida qul savdosi katta oʻrin tutgan, bu qullar asosan, osiyolik, afrikalik va bir qismi yevropaliklardan iborat boʻlgan.

Arab katta yer egaligi va xalq qo'zg'olonlari. Bag'dod xalifaligi davrida arablarda feodal munosabatlar uzil-kesil qaror topgan. Xalifalikka qarashli mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinuvchi asosiy sinf jamoatchi dehqonlar bo'lgan. Biroq, arablarda katta yer egaligi o'ziga xos bo'lgan. Jamoachi dehqonlarning ko'pchiligi xalifa yerlarida yashab, feodal rentani bevosita davlatning o'ziga to'lagan. Arab qonunlariga muvofiq, butun yer xalifaga qarashli bo'lib, xalifa bu yerlarning biror qismini o'z xizmatkorlariga vaqtinchaga ijaraga bergan. Shu tufayli xalifalikda katta yer egaligining nasldan-naslga o'tishi o'rta asr Yevropasidagi kabi qat'iy bo'lmagan. Biror a'yon o'lgandan keyin, uning mol-mulki odatda xalifa xazinasiga o'tgan. Bu mol-mulknini o'lganning vorisiga (yoki vorislariga) berish-bermaslik xalifaning xohish va iltifotigagina bog'liq bo'lgan. Ikkinchi tomondan, odatda, xalifada ham, uning zodagonlarida ham feodal Yevropasida bo'lgani singari, barshchinali, ya'ni ishlab beradigan rentali pomest'yelari yo'q edi. Bunda zodagon xo'jaligidagi ish kuchini odatda, qullar tashkil etgan. Qaram dehqonlar esa barshchinada ishlamasdan, faqat mahsulot yoki pul bilan renta to'lagan.

Shunga qaramasdan, Bag'dod xalifaligidagi feodal mulkchiligi sezilarli darajada rivojlangan. *Iqto* – harbiy xizmat o'taganligi uchun beriladigan chek yer bo'lib, G'arbiy Yevropa benefitsiyalariga o'xshab ketadi, *mulk* – in'om qilingan va asta-sekin nasldan-naslga meros bo'lib qoladigan yer-mulklar, *hissa* va boshqa imtiyozli yerlar g'aznaga soliq to'lashdan ozod qilingan bo'lib, bular o'sib kelayotgan feodal xususiy yer egaligining ko'rinishlari bo'lgan. Yerlarning ma'lum qismi – *vaqf yerlar* – masjid va madrasalarga berilgan. Xalifaning davlat feodal mulkchiligini qisqartirish hisobidan yirik va o'rta darajadagi xususiy yer egaligining o'sishi arab feodalizmi rivojlanishining xarakterli hodisalaridan biri bo'lib, bu hol xalifalikka qarashli juda katta hududni tashkil etgan turli xil mamlakat va o'lkalardagi yerli feodallarning ajralib chiqish va ayirmachilik kayfiyatlarining tobora avj olishida ancha katta rol o'ynagan.

Arab feodal munosabatlarining yana bir xususiyati – qulchilik elementlarining ancha saqlanib qolganligi edi. Arablarda Bag'dod xalifaligi davrida ham qullar juda ko'p bo'lgan. Qullar eng og'ir

ishlarda: irrigatsiya inshootlari qurishda, tosh va ruda konlarida, paxta dalalarida juda ko'plab ishlatilgan. Afrikadan keltirilgan qora tanli qullar, ayniqsa ko'p bo'lib, ular *zanjilar* deb atalgan. «Zanji» degan so'z Zanzibar orolining nomidan olingan. Oq tanli qullardan esa juda ko'plab uy xizmatkorlari, haram kanizaklari, raqqos va raqqosa, ashulachi, akrobat sifatida foydalanilgan. Xalifalarning saroy soqchilari ham oq tanli qullardan tashkil etilgan.

Xalq qo'zg'olonlari. Arablar hukmronligining ilk davrlarida ancha yengil tortgan xalifalik mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og'irlasha boshlagan. Dehqonlar qisman natura shaklida (mahsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar to'lagan. Natijada dehqon yoki hunarmandlarning iqtisodiy ahvoli og'irlashgan. Amaldorlarning o'zboshimchaligi va jabr-zulmi, dehqonlarning huquqsizligi va himoyasizligi, ularni haqiqatda yarim qul holiga solib qo'ygan. Xalifalikda qullarning ahvoli esa nihoyat darajada og'ir bo'lib, ularni haddan tashqari, vahshiyona sur'atda ekspluatatsiya qilganlar. Mehnatkashlar ommasining, ya'ni dehqonlar, shahar kambag'allari va qullarning qattiq ekspluatatsiya qilinishiga javoban feodallarga va ularning manfaatini himoya qiluvchi xalifaga qarshi bir necha marta qo'zg'olon ko'tarilgan.

Bag'dod xalifaligi davridagi xalq qo'zg'olonlari ba'zan butun viloyatlar bo'ylab tarqalgan. Ushbu qo'zg'olonlar odatdan tashqari uzoq davom etgan. Chunonchi, xalifa Mansur vafotidan so'ng, oradan ko'p vaqt o'tmay, O'rta Osiyoda dehqonlarning katta qo'zg'oloni ko'tarilgan. U 776-yilda boshlanib, 783-yilda bostirilgan. Mazkur qo'zg'olonga Marv shahri atrofidan chiqqan Muqanna («chodir yopingan odam») laqabli Hoshim ibn Hakim boshchilik qilgan. Ushbu qo'zg'olonda mazdakchilar mazhabining ta'siri aks etgan. Mazdakchilar to'rtta «Z» – *zamin* (yer), *zar* (boylik), *zo'r* (hokimiyat), va *zan* (ayol)ning o'rtada bo'lishini va hayotning noz-ne'matlaridan foydalanishda hamma teng bo'lishini talab qilgan. IX asrning boshida, ya'ni 815-yilda Ozarbayjonda ham dehqonlarning ikkinchi bir katta qo'zg'oloni ko'tarilib, Eron va Kavkazortining ayrim hududlariga ham tarqalgan. Bu qo'zg'olonga Bobek ismli kishi bosh bo'lib, u ham erkin jamoa tartiblarining tiklanishini talab qilgan. Bu qo'zg'olon 20 yildan ortiqroq davom etgan.

IX asr oxiri – X asr boshlarida xalifalikning janubida dehqonlar

harakati ko'tarilgan. Bu harakatga Karmat degan odam bosh bo'lib, u o'zini «payg'ambar» deb e'lon qilgan. Uning atrofiga juda ko'plab qochoq dehqon va qullar kelib to'plangan. Qo'zg'olonchilar katta qal'a qurgan bo'lib, bu qal'ani xalifa qo'shinlari egallay olmagan.

Oxir natijada karmatiylar Fors qo'ltig'i qirg'oqlarida o'ziga xos bir dehqonlar davlatini tuzishga muvaffaq bo'lgan. Respublika ko'rinishidagi ushbu davlat X asrning oxirigacha mavjud bo'lgan.

Karmatiylar harakati bilan bir vaqtda Basra atrofida qul zanjilarning juda katta qo'zg'oloni bo'lib, ushbu qo'zg'olon 14 yil (869–883) davom etgan. Zanjilarga shia Ali ibn Muhammad bosh bo'lib, u o'zini xalifa deb e'lon qilgan. Zanjilar qo'zg'olonini bostirish uchun hukumat ularga qarshi juda katta qo'shin yuborishga majbur bo'lgan.

Xalifalikning parchalanib ketishi. Keng ko'lam olgan xalq harakatlari xalifalikni larzaga keltirib, ko'p vaqtgacha uning birligiga putur yetkazgan. Biroq xalifalikning parchalanishiga boshqa sabablar ham ta'sir qilgan. Xalifalik turli mamlakatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, turli-tuman xalqlarning murakkab aralashmasidan iborat ediki, bulardan ba'zilari o'tmishda o'zining yorqin tarixiga ega bo'lgan. Shuning uchun ham bu xalqlar o'z mustaqilligini tiklashga intilgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida mahalliy aloqalar mustahkamlanib borgan sari bu intilish kuchaygan. Shu bilan birga xalifalik hokimiyati tobora zaiflasha boshlagan. Feodallashuv jarayoni Sharqda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, feodal munosabatlar taraqqiyotining ilk davrida G'arbda qanday natijalarga olib kelgan bo'lsa, bu yerda ham xuddi shunday natijalarga olib kelgan. Mahalliy zamindor zodagonlar markaziy hukumat zarariga kuchayib borgan va ajralishiga intilgan. Amirlar, ya'ni viloyatlarning gubernatorlari mahalliy yer egalari suyanib, o'zlarining mahalliy sulolalarini vujudga keltira boshlaganlar. Xalifalik amaldorlari tomonidan markazlashtirilgan yer rentasi solig'ining to'planishiga qarshi ko'tarilgan dehqon qo'zg'olonlaridan mahalliy zodagonlar o'zlarining ayirmachilik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalangan.

Xalifalik haqiqatda VIII asrdayoq parchalana boshlagan. 756-yilda Qurdoba amirligi ajralib chiqqandan keyin (929-yildan boshlab u xalifalikka aylangan) VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida

Marokash bilan Tunis ajralib chiqqan, IX asrning o'rtalarida Misr mustaqil bo'lib qolgan (bu yerda avvaliga tulunlar, keyinchalik X asrda Alining avlodlari – Fotimiylar idora qila boshlab, ular 969-yildan e'tiboran Misrni mustaqil Qohira xalifaligiga aylantirgan), IX–X asrlarda Eron ajralib chiqib, avval Sharqiy Eron (Xuroson), keyin esa G'arbiy Eron ham mustaqil bo'lgan. Amudaryoning bu tomonidagi Movarounnahr deb atalgan joyda Somoniylar davlati tuzilib, uning markazi Buxoro shahri bo'lgan. Mazkur davlat X asrning boshidan qariyb oxirigacha yashagan. Frotida mustaqil bir davlat – Mosul sultonligi tuzilgan. X asr o'rtalarida Sharqiy Eron yerlari va Afg'onistonning bir qismi qo'shilib, eron-turklardan iborat kuchli G'aznaviylar davlati vujudga kelgan, bu davlatning poytaxti G'azna shahri edi. X asrning o'rtalariga kelib xalifaning qo'l ostida Arabiston va Mesopotamiyaning Bag'dod atrofidagi bir qismigina qolgan. 945-yilda Erondagi shia feodal xonadonlaridan biri bo'lgan Buvayxiylar xonadoni Bag'dodni bosib olib, xalifalikning qolgan yerlarini uzoq vaqtgacha idora qilgan.

1055-yilda Bag'dodni saljuqiy-turklar bosib olib, turklarning boshlig'i To'g'rubek sulton deb e'lon qilingan. Shundan keyin xalifalar qo'lida faqat diniy hokimiyatgina qolgan. Mana shunday o'ziga xos «Sharq papalari» sifatida xalifalar Bag'dodda uzoq vaqt. mo'g'ullar istilosigacha, ya'ni 1258-yilgacha yashagan.

Arab madaniyati. Xalifalikning arab tilidagi madaniyat o'z zamonasi uchun juda yuksak madaniyat bo'lib, G'arbiy Yevropa o'rta asrlar jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Arab tilida olib borilgani va vujudga keltirilishida arablar katta rol o'ynaganligi sababli «*Arab madaniyati*» deb atalgan bu madaniyatning ancha qismi xalifalik tarkibidagi ko'p xalqlarga tegishli bo'lgan. Arab taraqqiyotining turli sohalarida Yunoniston–Suriya (Vizantiya), Eron (Fors), Kavkazorti (Ozarbayjon), O'rta Osiyo (Xorazm, Tojikiston), Hindistonning ta'siri bo'lgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, vizantiyaliklar singari, arablar ham antik an'analarni davom ettirgan, yunon klassiklarining asarlarini qunt bilan o'rganib, arab tiliga tarjima qilgan. Aristotel, Gippokrat, Ptolomey asarlarini arab olimlari yaxshi bilgan. Yevropaliklar Aristotelning asarlari bilan dastlab arabchadan lotin tiliga tarjima qilingan nusxalar orqali tanishgan. Turli xalifaliklarning poytaxtlarida

– Bagʻdod, Qurdoba va Qohirada oʻrta asr Yevropasidagi universitetlarga oʻxshagan oliy maktablar boʻlib, bularda Qurʻon va musulmonlarning diniy kitoblaridan tashqari dunyoviy ilmlar ham qunt bilan oʻrgatilgan. Yuz minglab kitoblarni oʻz ichiga olgan katta-katta kutubxonalar (Qurdoba, Qohira va boshqa joylardagi kutubxonalar) gʻoyat katta bilim xazinasini boʻlgan. Bagʻdod, Damashq va Samarqandda katta-katta rasadxonalar boʻlgan. Arab astronomlari juda koʻp yangi yulduzlarni topganlar va yulduzlar osmonining juda qimmatli xaritasini tuzganlar.

Arab madaniyatining oʻziga xos xususiyati shundaki, unda aniq fanlar taraqqiy topgan. Arablar tibbiyot sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ular tirik organizmni tilish yoʻli bilan tekshirib, odam tanasining anatomiyasini juda yaxshi bilib olgan. Arab tibbiyot darsliklari Gʻarbiy Yevropada butun oʻrta asr davomida oʻqitilgan. Faqat Sharqdagina emas, balki butun Yevropaga dongʻi ketgan mashhur tabib va fiziolog Abu Ali ibn Sino (930–1037) tibbiyot, fizika va falsafaga oid 100 ga yaqin kitob yozgan. Uning eng asosiy asari «*Tib qonuni*» lotin tiliga tarjima qilingan. Ushbu kitob oʻrta asr Yevropasi vrachlari uchun qariyb XVI asrga qadar dasturilamal boʻlib xizmat qilgan.

Matematika sohasida arablar geometriya va trigonometriyani rivojlantirgan. Ular algebrani rivojlantirish borasida koʻp ishlarni qilgan va hind raqam tizimini mukammallashtirib, unga «0» (nol) alomatini qoʻshdilar, buning natijasida raqamlar bilan har qanday sonni ham ifodalashga imkon tugʻilgan.

Arablar juda yaxshi sayyoh ham boʻlgan. Eng koʻzga koʻringan arab sayyohi, geografi va tarixchisi Masʻudiy boʻlib (956-yilda vafot etgan), u xalifalikning hamma viloyatlarini aylanib chiqqan. Eron, Suriya, shuningdek, Hindiston bilan Xitoyga ham borgan. U oʻz sayohatlarining natijasini «*Oltin boʻstonlar*» degan umumiy bir nom bilan chiqqan kitoblarida bayon qilgan. Koʻpgina arab sayyohlari – ibn Dast, ibn Fadlan va boshqalar slavyan mamlakatlariga borgan va slavyanlar toʻgʻrisida, xususan IX va X asrlardagi sharqiy rus slavyanlari toʻgʻrisida qiziq maʼlumotlar yozib qoldirganlar.

IX asrning oxiri – X asrning boshlarida yashagan arab tarixchilari orasida mashhuri Tabariy boʻlib (923-yilda vafot etgan) u «*Paygʻambarlar va podsholar tarixi*»ni, yaʼni xalifalar tarixini

yozgan. Bu tarix 915-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

Arablar nafis adabiyot sohasida mashhur asarlar yaratgan. «*Ming bir kecha*» nomli mashhur kitob XII asrda uzil-kesil vujudga kelgan. Bu asar arab-musulmonlar olamidagi turli xalqlar yaratgan g'oyat ko'p ertak va qissalar yig'indisidan iborat bo'lib, bu ertak va qissalarning manbalari qisman qadimgi dunyo xalqlarining folklori (O'rta podsholik davridagi Misr ertaklariga va boshqalarga)ga borib taqaladi. Lekin, «*Ming bir kecha*»ning vujudga kelishida VI asrdayoq to'plangan Eron ertaklari katta rol o'ynagan.

Eron-arab eposining eng yirik yodgorliklaridan biri shoir Abul-Qosim Firdavsiyning (935–1020) qahramonlik dostoni «*Shohnoma*» bo'lib, u chamasi 1000-yillarda yozilgan. Doston arab tilida emas, balki fors tilida yozilgan. Unda 60 ming she'r bo'lib, buni yozish uchun Firdavsiy juda boy xalq og'zaki ertaklaridan foydalangan, bu ertaklarga adabiy jihatdan juda nozik sayqal bergan.

Arab san'ati. Arab san'atida asosiy o'rinni arxitektura egallagan. Arablar monumental binolar, machitlar, saroylar, maqbaralar, hammomlar va boshqa jamoat binolarini qurganlar. Arab me'morchiligining eng qadimgi yodgorliklaridan biri Quddusdagi Umar machiti deb atalgan machit bo'lib, u ummaviylar davrida 688-yilda qurilgan. Bu machit qubbalari juda baland, nihoyatda salmoqdor sakkiz burchakli qilib ishlangan. Unda Vizantiyaning monumental uslubi aks etgan. Ammo arablar odatda, yengil, xushbichim binolarni ko'proq qurganlar. Bu binolarning xarakterli tomoni shu ediki, ularning minora va minorachalari ko'rkam, xushbichim, ustunlari ingichkadan kelgan, toqi ravoqlarining naqshi ancha jo'n bo'lgan. Arab binolarini yanada ko'rkam qilib bezab turgan narsa uning devorlariga juda mohirlik bilan rang-barang qilib o'simliklar, qisman hayvonlar olamiga oid motivlardagi g'alati naqshlar, har xil geometrik chiziq va figuralardir. Haddan tashqari sipo, ammo o'zining nihoyatda nozik san'atkorona ishlanganligi bilan kishini hayratda qoldiradigan juda ziynatli naqsh solish – arab rassomchiligining xarakterli xususiyatlaridan. Qo'lyozmalar, kitob muqovalari mana shu xildagi rasmlar bilan bezatilgan. Hayotdan olingan xilma-xil mavzudagi ajoyib miniatyuralar ham qo'lyozmalarga bezak bo'lib xizmat qilgan. Arablarda katta hajmli sur'at bosish unchalik rivojlanmagan. Buning sabablaridan biri shu

ediki, Qur'on musulmonlarning ko'p xudolikka («butparastlik»)ka qaytishidan qo'rqib kishilar va hayvonlarning suratlarini solishni taqiqlagan edi.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:

1. Arablarni istilolari sabablari?
2. Arab xalifaligini parchalanish sabablari?
3. Arab xalifaligidagi qo'zg'olonlar va ularning oqibatlari?
4. Islom dini vujudga keilishi arfasida Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
5. Islom dinining vujudga kelishi Arabiston yarim oroli xalqlari hayotida qanday aks sado berdi?
6. Koptlar haqida ma'lumot bering.
7. Ummaviylar tomonidan olib borilgan harbiy yurishlarni tarixiy-geografik jihatdan tavsiflang.
8. Islom me'morchiligi deganda nimani tushunasiz?
9. Abbosiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi Arab xalifaligining ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday o'zgarishlar yasadi?

VII BOB. ILK OʻRTA ASRLARDA JANUBI-SHARQIY OSIYO

Ilk oʻrta asrlarda Vetnam. Ilk oʻrta asrlarda Vetnam davlati shimolda Xitoy, shimoli-gʻarbda Tay davlati, gʻarbda laos qabilalari, janubi-gʻarbda va janubda kxmerlarning Kambujadesha imperiyasi va Tyampa davlati bilan chegaradosh boʻlgan.

Vetnamliklar qadimiy ziroatkor xalq boʻlib, asosan sholi, sabzavot yetishtirgan, buyvol, hoʻkiz boqib, ipakchilik bilan shugʻullangan, marvarid eksport qilingan. Eksport qilinadigan turli ziravorlar, dori-vor oʻsimliklar, kamyob qushlarning patlari Xitoyda juda qadrlangan.

Shimoliy Vetnam togʻlarida mis, temir, ruh, oltin qazilgan. Fil suyagi, karkidon shoxi katta foyda keltirgan. Poholdan toʻqilgan buyumlar Uzoq Sharqda mashhur boʻlgan. Vetnam Hindiston, Xitoy va hatto Oʻrta dengiz davlatlari bilan savdo qilgan. Laungben, Tonglin kabi shaharlar yirik madaniy markazlar hisoblangan.

Bu davrda qoʻl mehnatidan uncha keng foydalanilmagan. Hukmron tabaqa merosiy zodagonlar va feodal (*kuan*)lardan iborat boʻlgan.

VI asr boshlarida Vetnam Xitoyga tobe boʻlgan. Xitoyning oʻz hokimiyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan harakati ochiqdan ochiq kurashga turki bergan.

541-yildagi umumxalq qoʻzgʻoloni oqibatida mamlakat mustaqilligi eʼlon qilingan. Qoʻzgʻolon yoʻlboshchisi, yirik amaldor Li Bon imperator deb eʼlon qilingan. U Ilk Li sulolasiga asos solgan (541–603 yy). Vetnam xalqining barcha tabaqalari ishtirok etgan urush uzoq davom etgan. Shimolda Xitoyga, janubda Tyampa davlatiga qarshi kurash olib borilgan. Tashqi siyosiy vaziyat mustahkamlanigach, Li Bon mamlakat ichki ahvoli bilan mashgʻul boʻlgan.

544-yilda davlat «*Vansuan imperiyasi*» (*Oʻn ming bahor imperiyasi*), deb nomlangan. Davlat boshqaruviga Li Bon safdoshlari kiritilgan. Mahalliy maʼmuriy boshqarmaga asosan yerli aholi vakillari olingan.

545-yilda harbiy harakatlar qayta boshlanib, magʻlub boʻlgan Li Bon laos qabilalaridan yordam olish umidida kichik bir harbiy guruh bilan shimoliy gʻarbga qochgan. U 546-yilda mamlakat markazida jang boshlashga uringan, magʻlub boʻlgach, toqqa chekingan.

546–547-yillarda xitoyliklarga qarshi lashkarboshi Chieu Kuang Fuk harakat qilib, 548-yilda Li Bon o'limidan so'ng amalda hukmdorga aylangan. 551-yilda mag'lub bo'lgan Xitoy qo'shini Vetnamni tark etgan.

Tashqi urush tugagach, imperator va qo'shin qo'mondonlari o'rtasida boshlangan ichki urush, 559-yilda mamlakatning vaqtincha ikkiga bo'linishiga olib kelgan.

G'arbda Ozyuyen shahrini poytaxt qilib olgan Chieu Kuang Fuk, sharqda qirol oilasi vakili Li Fat Ti hukmronlik qilgan. U rasman butun mamlakat imperatori hisoblangan, Li urug' a'zolari davlatda asosiy mansablarni egallagan.

602-yilda Xitoy feodallari Vetnamga qarshi yana urush boshlab, janubga katta qo'shin jo'natgan. Vetnam yana Xitoy vassaliga aylangan. Li Fat Ti asir sifatida Xitoyga olib ketilgan. Ilk Li sulolasi tugagach, Vetnamda Xitoy ma'muriy tizimi tiklangan. 622-yildan Vetnam Xitoy manbalarida «*Annam*» (*Annan* – Bo'ysundirilgan janub) deb atala boshlagan. Muhim strategik nuqtalarda Xitoy garnizonlari turgan. Lekin, amalda mamlakatni vetnamliklar boshqargan.

IX asr o'rtalarida Vetnam shimoliga Nanchjaodan *tay* qabilalari ko'chib kelgan. Xitoy hokimiyati bunga qarshilik qilgan va 865-yilda Xitoy qo'shinni ko'chib kelganlarni qirib tashlagan. Mazkur g'alaba Tan imperiyasiga Vetnamda o'z o'rinlarini mustahkamlab olish imkonini bergan. Xitoy vakili Gao Byan ma'muriy boshqaruvni tartibga solish maqsadida ayrim tadbirlarni amalga oshirgan. Soliqlar qisqartirilgan, soliqning yagona tizimi ishlab chiqilgan. Xitoy qo'shini markazda emas, chegara tumanlarida o'rnashgan. Poytaxt Latxan mustahkamlangan. Ma'muriyat va garnizon joylashgan qal'a ikki qavatli devor bilan o'rab olingan, aholi undan tashqarida yashagan.

Yo'llar qurilgan, daryo va kanallar tozalangan. Gao Byan faoliyati Xitoy-Vetnam munosabatlarini yumshata olmagan. Vetnamning mustaqillik uchun kurashi to'xtamagan. X asrda unga harbiy xizmatdagi feodallar yo'lboshchilik qilgan.

Xitoydagi dehqonlar qo'zg'oloni, Xuan Chaoning janubga yurishi, Xitoy feodal imperiyasi zaiflashuvi Vetnamga qo'l kelgan va u 906-yilda yana mustaqil davlat deb e'lon qilingan.

Boy amaldor Kxuk Txua Za qirol, ya'ni *vua* deb e'lon qilingan.

Feodal Vetnam tarixshunosligi uning sulolasini tan olmagan. Kxuk Txua Za Xitoy imperatori tomonidan gubernator lavozimiga tayinlangan.

908–917-yillarda qator islohotlar oʻtkazilgan: soliq va mehnat majburiyatlari tizimi tartibga solingan, qishloqdagi Xitoy tizimi yoʻqotilgan, yuqoridan quyigacha maʼmuriy boshqaruv almashirilgan. Mamlakat viloyat, tuman va jamoalarga boʻlib boshqarilgan.

931-yilda chegarada baʼzi toʻqnashuvlar boʻlib tursa-da, xitoyliklar Vetnamdan butunlay quvilgan. 939-yilda Batjyanga daryosi quyilishida Xitoy floti ustidan gʻalaba qozonilgan.

Yangi Vetnam sulolasi asoschisi Ngo Kyuyen mamlakat poytaxtini mil. avv. III asrdayoq poytaxt boʻlgan qadimiy shahar Koloaga koʻchirgan. Yangi maʼmuriy boshqarma faqat Vetnam amaldorlaridan iborat boʻlgan. Qadimiy Vetnam anʼanalarini tiklashga saroyda ham eʼtibor berilgan.

Mazkur davrda aholi soni oʻsib, yer maydoni kengaygan, yirik irrigatsiya ishlari amalga oshirilgan. Hosil oshgan, qishloq tashkilotining quyi koʻrinishi jamoa boʻlgan. Yer, oʻtloq va oʻrmonlar jamoaga tegishli boʻlgan.

Feodallasuv jarayonida Vetnam jamoasi ichida tabaqalashuv yuz bergan. Yerning oliy egasi davlat boʻlib, hukmron tabaqa merosiy zodagon va amaldorlarga boʻlingan. Amaldorlar xizmat evaziga jamoalardan soliq olish huquqiga ega boʻlgan.

Daryo havzalari, dengiz qirgʻoqlarida yangi shaharlar paydo boʻlgan. Metallga ishlov berish va kulolchilik yuqori darajaga chiqqan. Metall buyumlarining hammasi Vetnamning oʻzida ishlangan. Meʼmorlar gʻisht va yogʻochdan koʻp qavatli bino va qalʼalar qurgan.

Meʼmorchilik va sanʼatda mahalliy anʼana kuchli boʻlgan. VIII asr oxirida «*Dayla uslubi*» nomli uslub vujudga kelgan. Unga koʻra, binolar, ibodatxonalar, minoralarning birinchi qavati uncha baland boʻlmagan. Har bir qavatda maxsus mehrobda Buddha haykali boʻlib, bino tomining qirgʻoqlari bukilgan. Meʼmorchilikda maʼlum darajada Hindiston taʼsiri sezilib turgan.

Oʻymakorlik yuksak darajada boʻlgan. Oʻsha davrda turli taqinchoqlar orasida fleyta (surnay) chalayotgan ruh tasvirlangan barelyef urf boʻlgan.

Dayla uslubidagi kulolchilik ham ajoyib bo'lgan. G'ishtlar, cherepitsa, idishlar relyefli bezaklar bilan qoplangan. Mahalliy naqshlarda esa hind yoki xitoy elementlari mavjud bo'lgan.

Vetnam feodallari markaziy hokimiyat kuchayuvini istamay, ko'pincha o'z qo'shinlari bilan qiroлга qarshi chiqqanlar. Amaldorlar bo'lsa, markaziy hokimiyat tomonida turgan. X asr o'rtalarida o'zaro jiddiy urushlar bo'lib turgan. Mamlakat xonavayron bo'lib, o'n ikkita mustaqil feodallik tashkil topgan.

O'zaro urushlar dehqonlarni ham xarob qilgan. Natijada xalq qo'zg'olonlari boshlangan. Yana Xitoy hujumi xavfi paydo bo'lgan. Bu sharoitda mashhur amaldor va lashkarboshi Din Bo Lin mamlakatni birlashtirish uchun kurash boshlagan. G'alabalar uni amalda hukmdorga aylantirgan. U 968-yilda imperator deb e'lon qilingan. Din sulolasi boshchiligidagi davlat Daykovet («*Ulug' qadimiy Vetnam*») deb nomlangan.

Yangi ma'muriy islohotlar tarqoqlikni tugatishga qaratilgan. Yangi ma'muriy birliklar chegarasi merosiy chegaralar bilan mos tushmasdan yangi sulola Vualar bu sohadagi ishda o'z iqtisodiy qudratlariga tayangan.

Daykovetning yangi poytaxti Xoali devor va xandaq bilan o'rab olingan. Davlat va harbiy boshqaruv isloh qilinib, unga asosan Din tarafdorilari qabul qilingan.

Ichki siyosat bilan bemaol shug'ullanish uchun Xitoy bilan chegarada sokinlik kerak bo'lgan. Shu maqsadda Din 971-yilda Sun saroyiga elchilar jo'natgan. 972-yilda Xitoy vassalligini tan olib, biroz o'lpon to'laydigan bo'lgan. Bu majburiyat natijasida tashqi xavfdan cho'chimay, ichki ishlar bilan shug'ullanilgan, bo'ysunmagan feodallarga qarshi kurash kuchaytirilgan. Vua o'nta korpus – *zaodan* iborat muntazam qo'shin tashkil etgan. Barcha raqiblar mag'lub etilib, asirga olinganlar qizigan yog'da qovurilgan yoki vua bog'idagi yirtqichlarga yedirilgan.

Biroq, feodallar saroy to'ntarilishini amalga oshirganlar. Din va Lin o'limidan so'ng boshlanib ketgan o'zaro urushlardan xitoyliklar foydalanishga uringanlar. Bu xavf qattiqqo'llikni talab etgan. Zodagonlarning bir qismi bosh qo'mondon Le Xoanni vua deb e'lon qilishga harakat qilganlar.

981-yilda yangi vua Le Day Xan ikki guruh qo'shin bilan bostirib

kelib, xitoy qo'shinini mag'lubiyatga uchratgan.

IIk I.e sulolasi hukmronligi davrida (981–1009) buddaviylik yordamida davlat mustahkamlana boshlagan. Buddaviylik VI asrdayoq hukmron dinga aylangan. Uning maktablaridan biri – «*Vien*» («*dx yana*» meditatsiya so'zidan olingan) Vetnamda raqib-siz hukmron bo'lgan. Uning asosiy ta'limoti: «*inson o'z yuragi bilan Budda yuragini angelaydi*», ya'ni inson tabiatdan sof anglash-movchilik va xatolardan xalos. Buddaviylik davlatning doimiy homiyligida bo'lgan.

IIk o'rta asrlarda Indoneziya. Bu hududda dastlabki davlatlar etamiz chegarasida vujudga kelgan. Mahalliy ziroatkor qabilalar sholikorlik, bronza quyish, temir eritish bilan mashg'ul bo'lganlar. Aqdodlar va turli ruhlarga sig'inilgan. Malaylar va avstroneziya til oilasiga kiruvchi halqlar qadimdan mohir dengizchilar bo'lishgan.

Mallakka bo'g'izi va qadimgi Kusantara (Uzoq orollar) suvlari orqali jahon savdo yo'li o'tgan. Tropik mussonlar doimiy harakat (suzish)ga yordam bergan. Mazkur hudud Yaqin, Uzoq Sharq, Hindiston, Xitoy savdo va madaniy aloqalari zanjirining muhim halqasi bo'lgan.

Katta Zond orollari daryo vodiylari va Shimoliy Malayyada vujudga kelgan sinfiy jamiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar hind, antik, xitoy manbalarida uchraydi. Hindistonning yozuvi, adabiyoti, mitologiyasi, buddaviylik va hinduiylik normalarining qabul qilinishi davlatchilik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Qadimda va o'rta asr boshlarida (I–IV asrlar) G'arbiy Indoneziya va «*Oltin yarim orol*» (yunonlar Malayyani shunday ataganlar) hududlarida o'nlab shahar davlatlar mavjud bo'lgan. Ular xususiy va xalqaro savdo, sholikorlik, tog'lik vassallar hisobiga yashagan. Eng qadimgi davlatlar tarkibiga Langkasuka, Tambralinga, Takkola kabilar kirgan. Ular o'z geografik holatidan foydalanib, ba'zan ittifoqlarga birlashib xalqaro savdo aloqalarini nazorat qilganlar.

III V asrlarda ularning ko'pchiligi vassal knyazlik sifatida Bapnom kxmer imperiyasi tarkibiga kirgan. U parchalangandan so'ng Xitoy bilan faol diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatganlar. Ular orasida eng yirigi va kuchlisi Langkasuka bo'lib, asosiy din buddaviylik bo'lgan.

Indoneziya hududidagi qadimgi millat tamaddunining muhim

tumanlari sharqiy va janubiy Sumatra, ayniqsa Djambi va Palembanga port va daryo vodiylari edi. Bu yerda III asr boshlarida Gein davlati. VI asrda Malayya kabi davlati bo'lgan. Ular Hindiston, Eron, Xitoy bilan savdo qilganlar.

Yava orolida iqtisodiy va siyosiy vaziyat qator davlatlarni vujudga keltirgan. G'arbiy Yavada Taruma davlati vujudga kelgan. Taruma hududidan topilgan V asrga doir sanskrit yozuvlarida roja Turnavarman ko'klarga ko'tarilgan. U qo'shni knyazliklarni bo'y-sundirgan. uning buyrug'iga binoan ko'p kilometrli sug'orish kanali qazilgan. U hayot himoyachisi – asrovchi xudo Vishnuga tenglashtirilgan.

V–VII asrlardagi Xitoy yilnomalariga ko'ra Yavada 30 ga yaqin davlat birlashmalari bo'lgan. Qo'shnilari bilan urushlar jarayonida ular yiriklashib borgan. Unga Yava xalqining g'oyaviy jihatdan birlashuvi. buddaviylik va hinduiylikning tarqalishi yordam bergan.

VII asrning 40–70-yillarida Kalinga podsholigi kengaygan. Sumatra, Kalimantan ichki hududlari va Sharqiy Indoneziyada u vaqtda ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan.

Bapnom dengiz imperiyasi parchalangach, VI–VII asrlarda Sharqiy Sumatrada ta'sirchan davlat birlashmalari shakllana boshlagan. Mallakka bo'g'izi zonasida bir necha hudud mustaqillikka erishgan.

Bu vaqtda Janubiy dengizlar orqali bo'ladigan xalqaro savdo sezilarli darajada o'sgan. Hind, fors, arab savdogarlarini kumush, oltin, rangli tosh, marvarid, qimmatbaho yog'och, ziravor, dorivorlar kabi mahsulotlar ko'proq qiziqtirgan.

Malayya portlarining ahamiyati ortgan. Sharq savdosidagi deyarli barcha mahsulotlar shu yerdan o'tgan. Xalqaro savdodan katta foyda olingan. Savdo va harbiy flot imkoniyatlari oshirilgan. Indoneziya davlatlari Hind va Tinch okeanini birlashtiruvchi muhim nuqtalarni nazorat qilgan.

Shunday sharoitda Sharqiy Sumatradagi knyazlik Shrividjaya kuchaygan. Qadimgi malay tilidagi yozuvlarga qaraganda, 682–685-yillarda Jayanash hukmronligi davrida bu davlat Malayya va boshqa qo'shnilar hisobiga kengaygan.

Ilk Shrividjaya hukmdorlari – *xadji*larning asosiy maqsadi Mallakka va Zond bo'g'izlarini nazorat qilib, savdo monopoliyasini o'rnatish bo'lgan. VII–VIII asrlarda bu davlat Xitoy bilan doimiy

diplomatik va savo aloqalarida bo'lib turgan. Shaylendr sulolasi davrida hukmdorlar o'zlarini *maxaraja* deb atay boshlagan. Ko'pgina mahalliy hukmdor – *datular* bo'ysundirilgan.

Chenli kxmer yerlari, Tyam mulklari va Xitoyga tobe Shimoliy Vetnam hududi Shrividjaya harbiy ekspansiyasi obyektiga aylangan. VIII–IX asrlarda u janubi-sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqdagi kuchli dengiz imperiyasiga aylangan.

Bu davlat antik davrdagi singari vositachilik, boj, o'lpon va talonchilik hisobiga yashagan.

IX–X asrlardagi arab geograflari «*Saboh davlati*»ning iqtisodiy va siyosiy pullab-yashnaganligi to'g'risida yozgan. 943-yilda Ma'sudi «*Maharajalar imperiyasi*» armiyasi va boyliklaridan hayratlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Davlat mafkurasi buddaviylikning «*Keng yo'l*» – Mahayana oqimi bo'lgan. Mahayana ma'budalari va uning mistik marosimlaridan hukmdorning ilohiy hokimiyati g'oyasini singdirish maqsadida foydalanilgan.

Sharqiy Hindiston, Shri Lanka, Xitoy bilan qadimiy aloqalar tufayli Shrividjaya budda ilmining dunyo markaziga aylangan. IX asr o'rtalarida maxaraja Balaputra (Shaylendr sulolasi) Hindistonning Nalandr shahri budda universiteti yaqinida monastir qurdirgan.

VIII asr boshlarida Markaziy Yavadagi ziroatkor tumanlar orasida eng boyi Mataram bo'lgan. Uning hukmdori – *ratu Sanjayya* mahalliy knyazlar – *rakalar* orasidan yetishib chiqqan. U hinduizmlarning Shiva kultiga homiylik qilgan. Sanjayya Matarama sulolasini boshlab bergan. U Yava, Malayya va hatto Kxmerlar hududlarini ham bo'ysundirgan. VII asrning 70–90-yillarida Shrividjayada bir necha yil yashab, sanskrit testlarini tarjima qilib, asarlar yozgan xitoylik buddaviy ruhoniysi I Szingar yozib qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra ushbu davlat Shrividjaya bilan raqobatlashgan bo'lib, har ikki davlat Zond bo'g'zi sharqidagi yerlarga (Qadimgi Latuma yerlari) da'vogarlik qilgan.

Yavaliklarda markazlashgan davlatning shakllanishi jarayoni ancha qiyin kechgan. Viloyat rakalarining har biri o'zaro urushlar natijasida maxaraja unvonini olishdan umidvor bo'lgan. Matarama hukmdorlari o'z siyosiy niyatlarini yirik ibodatxona majmualari qurish bilan mustahkamlashga harakat qilgan. Bu qurilishlar juda

ko'p mablag' va ishchi kuchini talab qilgan. Mataram Bali orolini egallashga ham harakat qilgan.

X asr o'rtalarida podsho oilasi boshqaruvida zulm elementlari kuchaygan, ma'muriy-hududiy tizim murakkablashib, markazlashgan. Okruglarni oliy amaldorlar, hukmdorning yaqin qarindoshlari boshqargan.

X asr oxiri – XI asr boshlarida qonunlar to'plami yaratilgan. Shrividjayyaga qarshi harbiy yurishlar uyushtirilgan. Yavaliklar Sumatraga o'tib, Palembangni majaqlab, talaganlar va bir necha yil imperiyaga xavf solib turgan.

Ushbu sharoitda Shrividjayya Janubiy Hindistonning Cholov davlatidan ko'mak so'ragan. O'z vassallariga tayangan Shrividjayya qarshi hujumga o'tgan. 1016-yilda Mataram to'satdan hujumga duchor bo'lgan. Hukmdor o'ldirilib, davlat qator mayda mulklarga parchalangan. 20 yildan ortiq davom etgan feodal tarqoqlik, o'zaro janglar boshlangan.

Feodal yer egaligining uzoq davom etgan evolyutsiyasi Yava jamiyatining xarakterli belgisidir. VIII asrdan yirik feodallarning ahamiyati pasaygan, monarx va yarim feodal elementlar kuchaygan.

Ko'rilayotgan davrda yer asosan yirik dunyoviy feodallar – *raka* va *rakaryanlar* tomonidan sovg'a qilingan. Asosiy oluvchilar esa ibodatxonalar bo'lgan. Yer berish bo'yicha monarx va uning qarindoshlari ikkinchi o'rinda turgan. Yirik yer egalari bir vaqtning o'zida yer va imtiyoz in'om etganlar.

IX asrdan asosiy yer beruvchilar monarxlar bo'lgan. Soliq to'lamaydiganlar (odatda ibodatxonalar) yerni dehqonlarsiz olganlar, ularga imtiyoz ham berilgan. Imtiyoz olmaganlar yer uchastkalarini dehqonlar bilan birga olganlar.

X asrda Mataramda hunarmandchilik ham rivojlangan. Mashhur xanjar – *kris* kabi sovuq qurollar, yog'och va g'arovdan ishlangan buyumlar, ziravorlar eksport qilingan.

Shrividjayya Mataram ustidan g'alaba qozongach, o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan. Sumatra-Malay imperiyasi Nusantra dengizlarida to'la hukmronlik qilgan. Uning buddizmning jahon markazi sifatiga obro'si ham ortgan.

Lekin XI asr boshlarida Shrividjayya va Cholov imperiya manfaatlari dengizlarda to'qnashib qolgan. Natijada sulolaviy va

diniy aloqalar raqobat bilan almashgan. 1025-yilda Rajendra Chola yirik flot bilan hujum qilishi tufayli Shrivadjayya savdo va dengiz qudratiga tuzatib bo'lmaz zarar yetkazilgan.

Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari ma'naviy taraqqiyotga Indoneziya sinfiy jamiyati ilk o'rta asrlarda o'zining qaytarilmas tajribasini qo'shgan. Qadimgi Yavan va malay adabiy yozuvlari, tillari shakllangan. U avval rasmiy va din tili bo'lgan sanskritning o'ziga xos elementlarini qayta ishlash jarayonida yuz bergan. Mahalliy til va yozuv tizimi keng tarqalgan.

IX-X asrlarda Mataramda adabiyot gullab-yashnagan. *Kavi* (qadimgi yavan tili) tilida epik, mifologik, kult, falsafiy asarlar yozilgan. *Poema-kakavinlar* (qadimgi yavan «Ramayana»si), *naryan* («Maxabxorat»ning prozalik qayta ishlangan ko'rinishi), *tuturhan* (diniy-mifologik adabiyot va nasihatlar), buddaviylikka doir asarlarning tarjimalari mashhur bo'lgan. Mataram maxarajalari saroyida shoirlar, aktyorlar, musiqachilar yashagan.

Ijodning turli janrlarini o'zida jamlagan mashhur qo'g'irchoqsoya teatri – *vayang* tomoshalari ko'rsatilgan.

VIII-X asrlarda klassik arxitektura va tasviriy san'at shakllangan. Borobodur va Loro Janggarang singari janubi-sharqiy Osiyodagi eng yirik buddaviylik va hinduiylik me'moriy ansambllari bunyod etilgan. Mahalliy me'morchilik ko'rinishi – *chandi* taraqqiy etgan.

Yava va malay ustalari bronza skulptutura quyish texnikasi, tosh, metall, yog'ochga ornamentli o'ymakorlik sirlarini oliy darajada bilganlar.

VI-VIII asrlarda Kampuchiya. O'rta asr boshlarida *kxmerlar* aholi yetishtirishning yuksak madaniyatiga erishganlar. Qadimgi shahar hayoti va xalqaro savdo hayoti vorislari Mekong daryosi quyi va o'rta oqimlari, uning irmoqlari havzalari, katta ko'l atroflarida yashagan.

Ilk sinfiy imperiya Bapnom (funan)ning so'nggi o'n yilliklari bir necha siyosiy markazning siyosiy hokimiyat uchun o'zaro urushlari bilan to'la bo'lgan.

Markazlarning biri shimolda Mun daryosi quyilishida, boshqasi imperiya markazida, uchinchisi janubda yuzaga kelgan. Oqibatda Mun daryosi havzasida (hoz. Sharqiy Tailand hududi) Kambudja (Chenla) eng yirik markazga aylangan. VI asr oxirida imperiya

parchalanuvi voqelikka aylangan. VII asr boshlarida Kambudjada hokimiyat Chitrasen (600–615) qoʻliga oʻtib, u markaziy Bapnom hududini qoʻshib olgan. VI–VII asrlarda Bapnom imperiyasi parchalangan Kxmer jamiyatida yangi davlatlar paydo boʻlgan, ijtimoiy, iqtisodiy oʻzgarishlar yuz bergan. Oʻzgarishlar birinchi navbatda feodallashuv jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan.

Cherkov va dunyoviy katta yer egalari tez oʻsgan. Cherkovga odam va yer sovgʻa qilish ommalashgan. Jamiyatda quldorlik va feodalizm elementlari aralashib ketgan. Qishloq jamoalarining erkin aʼzolari davlatga mahsulot koʻrinishida oʻlpon toʻlaganlar, ishlab berish majburiyatini oʻtaganlar, armiyada xizmat qilganlar. Jamoa aʼzolari olgan yerlar baʼzan davlat tomonidan feodallarga cheklangan holda sovgʻa qilingan. Yangi yerni feodalga berish uchun qoʻshni qishloq *anaklarining* roziligi kerak boʻlgan. Bu masala boʻyicha *anaklar* ibodatxona bilan ham sudlashuvga haqli boʻlgan. Dunyoviy katta yer egalari *knomlardan* foydalangan, ular ahvoli krepostnoylarnikiga yaqinlashib qolgan. *Knomlar* uylanishga haqli boʻlib, VII–VIII asrlarda knomlar alohida yoki oilasi bilan sotilishi, sovgʻa qilinishi mumkin boʻlgan. Knomlar majburiyati oldindan belgilanmagan va cheklanmagan.

Ijtimoiy piramidaning eng yuqori pogʻonasida «*Muqaddas davlat odami*» unvoniga ega boʻlganlar turgan. Bu yerda ilohiylik va dunyoviy birlik VII asrdayoq xudo-podsho kultiga asos solinganligidan dalolat beradi.

Vishnu, Shiva ibodatxonalari, Buddha monastirlari ham katta yerga egalik qilgan. Baʼzan dunyoviy feodal oʻzi qurgan ibodatxonaga yer sovgʻa qilgan yoki birgalikda ega boʻlgan. Yirik feodallar oʻzlari xoʻjalik yuritmaganlar. Ular ishlanadigan yerlarni sovgʻa qilganlar, sotganlar, pudratchiga bergan.

Yer bilan bogʻliq barcha jarayonlar monarxlar tomonidan tasdiqlangan. Monarx yer egalariга imtiyozlar bergan. Bundan tashqari, mamlakat markazida ilgari oʻzlashtirilgan yerni sotish uchun shahar hokimlarining roziligi kerak boʻlgan. Yangi ega davlat oldida avvalgi ega olgan majburiyatlarni bajarishga qasam ichgan. Feodal yer egaligining bir necha shakli boʻlgan.

Parigraxlar – toʻla imtiyozga ega boʻlib, bu yerlar merosiy boʻlgan. Merosiy boʻlmagan mulk – *kshatra* egalari soliqning

ma'lum qismini davlatga bergan. Merosiy *punya* egalari daromadning ma'lum qismini monarx yoki ibodatxonaga bergan.

Feodal egalik obyekti qishloq emas, sholi maydoni bo'lgan. Kxmer feodali turli qishloqlardagi sholipoyalarga egalik qilgan. Qishloq jamoa tuzilmasini saqlab qolgan. Anaklarning majburiyatlari va soliqlar hosilga emas, yer maydoniga bog'liq bo'lgan. Shu sababli yerni kengaytirish emas, hosildorlikni oshirishga harakat qilingan.

VII asrda Kambudja hududi ancha kengayib, kxmerlar yerlari ma'lum vaqt birlashtirilgan. 630-yilda davlat tarkibiga Mekong deltasi va Kxmer dengizi (Siam qo'ltig'i) sohillari kirgan. Keyinroq Jayavarman (655–681) davrida Kambudjaning isloh qilingan, kuchaytirilgan armiyasi Ventyan va Luangxabanga tumanlariga hujum qilib, kxmerlarga qarindosh aholini bo'ysundirgan. Markaziy hukumatni mustahkamlash uchun amaldorlar ko'paytirilgan. Monarx ilohiylashtirilgan, yarim diniy saroy marosimlari o'tkazilgan. Monarx hokimiyati kuchaygan sari Kxmer jamiyati Shiva kultiga yaqinlashib borgan. Lekin, Shiva-Vshinu (Xarixari) kultidan to'la voz kechilmagan. Davlat devonini 5 ta vazir boshqargan. Mamlakat 30 viloyatga bo'lingan. Ba'zi zodagon oilalar merosiy yerlarini saqlab qolgan. VII asr oxirida sobiq Bapnomda ekish mumkin bo'lgan barcha yerlar o'zlashtirib bo'lingan. Bo'lajak poytaxt Yashodxarapura (Kambudja shimoli-g'arbiy) tumani o'zlashtirishga kirishilgan.

Ilk o'rta asrlarda kxmer yerlarining birlashuvi mustahkam bo'lib chiqmagan. VII asrning 80-yillarida ikki markaz – markaziy va janubiy hududlar kurashuvi boshlangan. VIII asr boshlarida mamlakat yana parchalangan. Ular asosida ikkita davlat birlashmasi paydo bo'lgan: *Yer Kambudjasi* va *Suv Kambudjasi*.

Ikkala davlat ham kxmer yerlarini birlashtiruv markazi bo'la olmagan. Yer Kambudjasi hudud-katta umumiy sug'orish tizimini yaratishning amalda imkoniyati bo'lmagan, oqibatda iqtisodiy asos yaratilmagan.

Suv Kambudjasi bir necha knyazlikdan iborat bo'lib, amalda hech qachon yagona davlat bo'lmagan. Shuning uchun ham o'zi birlashtiruvchilik rofini o'ynay olmagan.

VII–VIII asrlardagi o'zgarishlar madaniyat rivojiga katta ta'sir qilgan. Aynan shu davrdan me'morchilikda o'ziga xoslik boshlagan.

Kxmer yozuvi keng tarqalgan. Diniy hayotdagi qorishuv Shiva-Vishnu kultining ommalashuviga olib kelgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Vansuan imperiyasi haqida ma'lumot bering.
2. Me'morchilikning «dayla» uslubi haqida nimalar bilib oldingiz?
3. «Oltin yarim orol» haqida nimalar bilasiz?
4. Ilk o'rta asrlarda Yava orolida qanday davlatlar mavjud edi?
5. Shrivdijayya rojaligining qudrati oshishiga qanday omillar sabab bo'lgan edi?
6. Ilk o'rta asrlarda janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida buddizmning o'rni qanday edi?

II BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR DAVRIDA

VIII BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA XITOIY

Xitoy mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida. Tan imperiyasi o'rmini olgan Sun imperiyasi XI asrda vujudga kelgan. XII asr boshlarida shimoldan hujum kuchayganligi tufayli 1126-yilda poytaxt janubdagi Xanchaoga ko'chirilgan. 1127-yildan Sun sulolasi qo'lida faqat janubiy Xitoy qolgan, xolos. Shimoliy Xitoy *manchjurtungus* qabilalaridan biri *jurjanlar* tuzgan va Szin deb atalgan yangi davlat tarkibiga kirgan. Bu davlat ilgarigi *Kidanlar* davlatini o'ziga singdirib olgan. XIII asrda shimoliy Xitoyni mo'g'ullar bosib olgan. Janubiy Xitoydagi Sun imperiyasi 1279-yilgacha Chingizxonning nevarasi Xubilay bosib olguniga qadar yashagan. Xubilay Xitoyda Yuan deb atalgan yangi mo'g'ul sulolasiga asos solgan.

Xitoy mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida. Dastlab Xubilay zamonida (1259–1294) Xitoyning shimolida o'rnatilgan mo'g'ullar hukmronligi asta-sekin janubiy Xitoyga ham yoyilgan. 1278-yilgi Sun sulolasining poytaxti Xanchjaou shahri ham egallangan. 1279-yilda janubiy Xitoy tamomila istilo etilgan. Mo'g'ullar istilosi Osiyo va Yevropa kabi Xitoy uchun ham dahshatli bo'lgan. Chingizxondan boshlangan yurishlar davomida Xitoy behisob qurbonlar bergan. Xitoyliklar ekin yerlarining bir qismini yaylovlarga aylantirilgan. Yangi soliqlar paydo bo'lgan. Mo'g'ullar olib boriladigan urushlar munosabati bilan ularning talabiga muvofiq, har xil yuklarni tashib berish tarzidagi yillik soliq Xitoy dehqonlari zimmasiga tushgan og'ir yuklardan biri bo'lgan. Oqibatda qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazilgan. Yuan sulolasi davrida asosiy kuch mo'g'ullarning o'zidan iborat bo'lsa ham, qo'shinga yuk tashish, yer qazish kabi ishlarni bajarish uchun xitoylar keng ko'lamda jalb qilingan. Qonun bo'yicha, bunday ishlarga har o'n kishidan birini olish kerak bo'lgan. Xitoy shahar aholisi ham og'ir ahvolga solingan.

Katta devorlarni teshishga mo'ljallangan tosh otuvchi qurollar ishlab chiqarish uchun xitoy hunarmandlari janglarga olib ketilgan. Sun sulolasi davrida yerga xususiy mulkchilik dehqonlar qaramligini yanada kuchaytirgan. Bu jarayon mo'g'ullar davrida ham davom

etgan. Dehqonlar sotiladigan va sotib olinadigan mahsulotga aylangan. Soliqlar va boshqa to'lovlar endi tamomila feodallarga bog'liq bo'lgan. Shahar sexlari mo'g'ullar xazinasiga katta pul to'lagan. Hunarmandchilik mahsulotlarining katta qismi mo'g'ul davlatiga bepul topshirilgan.

Marko Polo ma'lumotlariga ko'ra, Yuan sulolasi dastlabki paytlarda Xitoy sharq kurashini tomosha qilib, ulardan «*Nega mo'g'ullarga qarshi kurashmaysizlar, sizlar ulardan kuchlisizku!*» deganda, ulardan biri «*mo'g'ullarni biz o'zimizga singdirib yuboramiz*», degan edi. XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridayoq mo'g'ullar xitoyliklarning kuchli ta'siri ostiga tushib qolgan. Ular xitoy tilida gapiradigan bo'lganlar, xitoy yozuvini o'zlashtirganlar va xitoyliklarning ilgarigi idora usulini qabul qilgan.

Ikkinchi tomondan, Xitoyning mo'g'ul davlatlari tizimiga kiritilishi tufayli endilikda Xitoy ilgarigi Tan va Sun «milliy» sulolalari zamonidagidan ham ko'proq darajada savdo-sotiq ishlarida ishtirok qiladigan bo'lgan. Xitoyda Eron, Arab, O'rta Osiyo va Hind savdogarlarining savdo rastalari paydo bo'lgan. Xitoyda XIII asrda bambukdan yasalgan trubkaga o'xshash multiqlar, XIV asrda esa tosh va temir o'q solib otiladigan metall zambaraklar ixtiro qilingan.

Xubilay zamonida Xitoyga borgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo «*Xitoy ipagi, chinnisi, temiri, misi dunyoning hamma burchagiga chiqarilardi*», deb yozgan. Savdoning asosiy samarasini mo'g'ullar, turk va fors savdogarlari ko'rgan. XIV asrda mo'g'ul imperatoriga qarshi bir necha bor saroyda fitna uyushtirilgan. Aholining kengroq doiralari o'rtasida o'z oldiga mamlakatni ozod qilishni maqsad qilgan milliy tashkilotlar tuzilgan. 1351-yilda Xenan va Shandun viloyatlarida «*Oq nilufar*» nomli ittifoq tomonidan tayyorlangan «*Qizil peshonabog'lilar*» qo'zg'oloni bo'lgan. Dehqonlarga shaharliklar ham qo'shilgan. Ushbu qo'zg'olon ozodlik urushiga aylanib ketgan. U qariyb 20 yil davom etgan. 1356-yilda «*Qizil peshonabog'lilar*» ulug' xon poytaxti Yanszin shahrini xavf ostida qoldirgan. XIV asr 60-yillarida Xitoy viloyatlarining ko'pchiligida mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonlar bo'lgan. Qo'zg'olonchi dehqon qo'shinining rahbarlaridan Chju Yuan Chjan 1369-yilda imperator deb e'lon qilingan va u ta'sis etgan sulola Min deb ataladigan bo'ldi.

Min sulolasining idora qilishi. Bu sulola Xitoyning 1368-yildan

to 1644-yilga qadar idora qilgan. Uning poytaxti dastlab Nankin shahri bo'lgan. Lekin, ko'p o'tmay, poytaxt yana Yanszin shahriga ko'chirilgan. U endi Pekin degan yangi rasmiy nom olgan. Xalq orasidan chiqqan yangi sulola dastlab mehnatkashlar manfaatini birinchi o'ringa qo'ygan holda siyosat yuritgan. Masalan, soliqlarni tengroq taqsim qilish maqsadida, soliq ro'yxatlari qaytadan ko'rib chiqilgan. Mo'g'ul zodagonlarining yerlari biroz ko'paygan. XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida irrigatsiya sohasida katta ishlar qilingan. Shaharlardagi hunarmandlar to'laydigan soliqlar ham dastlabki paytlarda bir qadar kamaytirilgan. Lekin, shu bilan birga, «dehqonlar imperatori» biror-bir ijtimoiy inqilob qilishni o'ylamagan.

Katta yer egalari dastlab sal cheklab qo'yilgan bo'lsa-da, umuman saqlanib qolgan. Bu holat o'sishda va mustahkamlanishda davom etgan. Chjou Yuan Chjangga hokimiyatni qo'lga olishga yordamlashgan lashkarboshilar va yangi sulolaning faol tarafdorlari ko'pgina yer-mulklarini olganlar. Sulola merosiy yerlar sifatida ekinzorlar va yaylovlarning juda katta qismini o'z qo'llariga kiritgan. Bu yerlardan olingan daromad imperator saroyi va shahzodalarning xarajatini ham qoplagan. Chjou Yuan Chjanning 20 dan ortiq o'g'li bo'lib, ularning hammasi yuqori ma'muriy lavozimlarni egallagan va ayni vaqtda yirik yer egalari bo'lgan. Ammo, imperator xonadoniga taalluqli bo'lmagan oliy ma'muriy shaxslar ham katta yer-mulklar egasiga aylangan.

Shaharlarning rivojlanishi, ilk shahar kurtaklari. XIV–XVI asrlarda Xitoyda sanoat ancha tez sur'atlar bilan rivojlangan. Sholi va ipak tayyorlash, gazlamalarga pardo berish, qog'ozga shisha, chinni tayyorlash, turli xildagi kon sanoati tez rivojlangan. Pekin, Nankin va boshqa shaharlarda saroylar, ibodatxonalar, bezakli minoralar, ko'priklar, arklar, turli qal'a inshootlari qurilgan. Min sulolasi davrida ham sanoat, asosan hunarmandchilikdan iborat bo'lib qolgan. Biroq, sanoatning ayrim tarmoqlari, asosan katta ishlash sanoatida manufaktura shaklidagi yirik ustaxonalar bo'lgan. Qullar va qaram dehqonlar mehnatidan foydalanadigan ko'pgina davlat manufakturalari (chinni ishlab chiqarish) mavjud bo'lgan. Kon ruda qazib chiqarish sanoatida majburiy mehnat tanomila hukmronlik qilgan. O'z ichki ahvolini mustahkamlab olgan sulola yangi yerlarni

bosib olish hamda Xitoyning tashqi bozorlarini kengaytirish maqsadida keng istilochilik yurishlarini uyushtirgan. Chjou Yuan Chji zamonidayoq Koreya bilan Tibet Xitoy imperatori hukmronligi ostida bo'lgan. Uning vorislari Indoneziya, Hindixitoy mamlakatlariga harbiy ekspeditsiyalar yuborgan. Bu mamlakatlardagi kichikroq hokimlarning bir qismi Xitoy imperatorining oliy hokimiyatini tan olgan. Xitoyliklar Indoneziya bilan Hindixitoyga ko'plab ko'chib bora boshlagan. Min hukumati Hindixitoy, Indoneziya, Hindiston va hatto Sharqiy Afrika qirg'oqlariga tinimsiz tarzda harbiy dengiz ekspeditsiyalarini yuborib turgan. Admiral Chjen Xe boshchiligida 1403–1433-yillar mobaynida turli mamlakatlarga yetti marta dengiz yurishlari uyushtirilgan. XVI asrda Min imperiyasi boshqalarga hujum qilish emas, balki bundan keyin o'z mamlakati chegaralarini mudofaa qilishlariga to'g'ri kelgan. G'arb tomondan unga mo'g'ullar xavf solib turgan. 1550-yilda mo'g'ullar qo'shini Pekinga bostirib kirib, uning chegaralariga o't qo'ygan.

Xitoyda yevropaliklarning paydo bo'lishi. XVI asrning ikkinchi yarmida Xitoy yaponlar tajovuziga qarshi og'ir kurash olib borishga majbur bo'lgan. Shunday kurashlar oqibatida Min sulolasi samuraylar hujumlarini qaytarib, shu asrning oxirida ularni qit'adan haydab chiqargan. XVI asr boshlarida Xitoyga yevropaliklar kirib kela boshlagan. 1516-yilda birinchi bo'lib portugal kemalari kelgan. XVI asrning 40-yillarida portugallar Xitoy qirg'oqlarida bir necha mustamlaka hudud barpo qilgan. Lekin, portugallarning ta'magirliklari va o'zboshimchaligidan bezor bo'lgan xitoylar 50-yillarning boshida ularning hammasini yakson qilgan. 1557-yilda bosib olingan Makao (Kanton) janubida portugallar ancha mustahkamlanib olishga muvaffaq bo'lgan. XVI asrning ikkinchi yarmi XVII asrning boshlarida Xitoyda ispan, golland, ingliz va fransuzlar paydo bo'lgan. Ammo, Min hukumati chet elliklarni bir oz bo'lsa ham Xitoyning ichkarisiga suqilib kirishga yo'l qo'ymagan. XVI asr Yevropa savdogarlarining Hindiston va Indoneziya bilan savdolariga nisbatan Xitoy bilan bo'lgan savdo aylanmalari juda oz bo'lgan. Xitoy ruslar bilan birinchi marta XVI asrning birinchi yarmidan aloqa qila boshlagan.

XV–XVI asrlarda Xitoyda ziddiyatlarning keskinlashuvi. XV–XVI asrlarda Xitoyda tabaqaviy ziddiyatlar keskinlashgan.

Sudxo'rlikning yoyilishi, soliqlarning ortib borishi, xalqning noroziligini keltirib chiqargan. 1448–1449-yillarda Futszyan viloyatida Den Maotsi boshchiligida dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan. Uning atrofiga o'zi singari o'n minglab mayda ijarachi dehqonlar to'plangan. Bu ijarachilar aslida qaram holatiga tushgan dehqonlardan iborat bo'lgan. Qo'zg'olonchilar eski odatdagi rentani talab qilib oshirilgan ijara haqini to'lashdan bosh tortgan.

XVI asrning boshlarida bunday qo'zg'olonlar deyarli barcha viloyatlarda bo'lib o'tgan. Ayni vaqtda XV–XVI asrlarda Xitoyda hukmron tabaqaning o'z ichida turli guruhlar kurashi davom etayotgan edi. Min imperatorlariga yaqin bo'lgan amaldorlar yuqori va daromadli lavozimlarni egallagan. Ularga feodallarning kengroq doirasi, xususan, *shenshiy* deb nomlangan olimlar tabaqasi qarshi chiqqan.

1506-yilda amaldorlar markaziy boshqaruvni butunlay qo'lga olib uni 1521-yilgacha saqlagan. Keyin ikkinchi guruh g'olib chiqib, qolgan amaldorlarning mollari talangan, o'ldirilgan. Lekin, XVI asrdan so'ng XVII asrning 20-yillarida yana amaldorlar g'olib chiqqan.

Mavzuga doir savollar:

1. Mo'g'ullar tomonidan Xitoyning bosib olinishi necha bosqichda kechdi?
2. Marko Polo sayohatlarining Xitoy tarixini yoritishdagi manbaviy ahamiyatini qanday baholaysiz?
3. «Qizil peshanabog'lilar» qo'zg'olonini asosiy harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering.
4. Chjan Xe sayohatlaridan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat edi?
5. XVI asr Xitoydagi tabaqaviy ziddiyatlarning ildizi sifatida nimalarni e'tirof etish mumkin?

IX BOB. RIVOJLANGAN OʻRTA ASRLARDA HINDISTON

Dehli sultonligi. 1206-yilda Gʻazna sultonligidan mustaqil boʻlib olgan Dehli sultonligi XIII – XIV asrlar davomida ancha katta davlat sifatida yashagan.

Dehli sultonligi XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida kengaygan boʻlib, bu vaqtda uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari, Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yassi togʻligidagi koʻpchilik davlatlar kirgan. Dekan 1306–1310-yillarda sulton Alovuddin Xiljiy tomonidan bosib olingan. Navbatdagi sultonlardan biri Muhammad Tugʻlaq (1325–1351) deyarli butun Hindistonni boʻysundirib, hatto Eron bilan Xitoyni ham zabt etishni orzu qilgan. Ammo, sultonlikning kengayishi mustahkam xarakterga ega boʻlmagan. XIV asr oʻrtalariga kelib Dekan ajralib chiqqan va koʻp oʻtmay Dehlidan shimoldagi koʻpgina viloyatlar, shu jumladan, Bengaliya ham ajralib ketgan. Dehli sultonligi tarkibiga kirgan viloyatlarning ayrimlari XIV asrning ikkinchi yarmida mustaqil davlatlarga aylana boshlagan. Sulton Dehlining oʻzida mustahkam hokimiyatga ega boʻlmagan, chunki u yerda feodallarning turli guruhlar oʻrtasida hokimiyat uchun uzluksiz kurashlar boʻlib turgan.

Dehli sultonligi davrida feodal tuzumining oʻziga xos xususiyatlari. XIII–XVI asrlarda Hindistonda feodal tuzumi oʻziga xos tarzda rivojlangan. Bir tomondan, Hindistonda musulmon yer egaligi tizimi qaror topib, butun yerlar davlat boshligʻi sultonning mulki deb qaralgan. Kelgindi musulmon feodallari sultonning harbiy xizmatchisi boʻlib, undan *iqto* – vaqtincha va umrbod foydalanish uchun yer olganlar. Ular aholidan (dehqonlardan) renta undirib olish huquqiga ega boʻlgan. Ikkinchi tomondan, mamlakatda mahalliy feodallar knyazlar – *rojalar* oʻz viloyatlarini amalda mustaqil ravishda boshqarib, sultonga muayyan miqdordagi bojni toʻlaganlar. Oʻrta va mayda hind feodallari *rojaputlar* va boshqalar qisman meros boʻlib qolgan feodal mulkchiligi huquqi asosida, qisman harbiy xizmatni oʻtab turgan paytda vaqtincha beriladigan inʼom tariqasida yerga egalik qilardilar. Vaqt oʻtishi bilan kelgindi iqtadorlar ham yerning merosxoʻr egalariga aylanib bordilar, ammo bu jarayon XIV asrning oxirigacha ham tugallanmagan. Yerlarning katta qismi har ikkala din mahalliy, hind dini (eski ibodatxona yer egaligi)

hamda yangi, musulmon (vaqf yerlari) dinidagi ruhoniylarning qo'lida bo'lgan. Bu davrda Hindistondagi feodal tuzumining yana bir xususiyati jamoatchi dehqon xo'jaliklarining ilgarigidek ustun bo'lib qolganligidir. Mahalliy hind va kelgindi turk-musulmon feodallarining o'zlari odatda xo'jalik bilan shug'ullanmas, balki qaram dehqonlardan oziq-ovqat rentasi, qisman pul rentasini undirib olganlar. Barshchina ishlari mavjud bo'lgan joylarda asosan qullar va past tabaqa dehqonlar mehnatidan foydalanilgan.

XIII–XIV asrlarda Hindiston feodal tuzumining xarakterli xususiyati – shahar hayotining ancha intensiv rivojlanishidir. Qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan shaharlar qatoriga sultonlar va ularning nabiralari feodallarining qarorgohi sifatida vujudga kelgan ko'pgina yangi shaharlar qo'shilgan. Dehli shahrining o'zi ana shunday feodal-poytaxt shahri uchun misol bo'la oladi. Bu yerda juda ko'plab saroy ahli va xizmatchilari, askarlar, amaldorlar va shu singarilardan tashqari, ko'pgina hunarmandlar va savdogarlar yashab, ular sulton saroyi hamda poytaxtdagi boshqa feodallarining iqtisodiy ehtiyojlarini qondirganlar.

Ana shunday «shahar-qarorgohlar»dan tashqari, Hindistonda XIII–XIV asrlarda Bengaliya qo'ltig'i bilan Arab dengizi sohilida joylashgan hamda xalqaro savdo-sotiq bilan bog'langan ko'pgina dengizbo'yi shaharlari muvaffaqiyatli rivojlangan. Bular orasida, xususan, Malabar sohilida Goa va Kalikut, Kambay qo'ltig'i sohilida Kambay ajralib turgan. Shimoliy Hindistonda karvon savdosi bilan bog'liq bir qancha shaharlar orasida Agra, Laxor, Mo'ltan eng muhimlaridir. Hind hunarmandlarining mahsuloti bo'lgan juda ko'plab buyumlar (avvalo yuqori sifatli hind gazlamalari), shuningdek, turli ziravorlar Yevropaga va Shimoliy Afrikaga muntazam yuborib turilgan. Hindistonga esa asosan yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pul va shu singarilar tashib keltirilgan.

Hindistonga Amir Temurning hujumi. XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feodal mamlakat bo'lib, ko'plab musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzluksiz kurash olib borgan. 50–60-yillarda sultonning vassal rojalar bilan olib borgan urushlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa va Gujarat g'oyat xonavayron bo'lgan. 1366-yilda Gujaratdagi qo'zg'olon bostirilgan, sulton Feruz qo'zg'olonining asosiy o'choqlarida hindlarni batamom qirib

tashlash haqida buyruq bergan. Shafqatsiz feodal zulmi va to'xtovsiz ichki feodal urushlari Dehli sultonligi tanazzulining asosiy sabablari bo'lgan. XIV asrning 70–80-yillarida Dehli sultoni o'z qo'lida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga ham qodir emasdi. Markaziy hokimiyatning bu zaifligi yomon oqibatlarga olib kelgan, Hindistonni yangi chet el hujumlariga qarshi qarshilik ko'rsata olmaydigan qilib qo'ygan. XIII asr oxiri – XIV asr boshlaridayoq mo'g'ullarning ayrim harbiy qismlari Shimoliy Hindiston yerlariga bostirib kirib, hatto Lohur va Dehli kabi katta shaharlarning darvozalarigacha kela boshlagan. Ko'chmanchilarning hujumlari, qiyinchilik bilan bo'lsada, qaytarilgan. Biroq, shimoliy o'lkalarning vayron qilinishi, aholining talanishi va buning natijasida qishloq xo'jaligi, sanoat va savdoning tushkunlikka yuz tutib ketishi Hindistonning iqtisodiy ahvoriga tobora yomon ta'sir qilgan. XIV asr oxirlarida Hindiston Amir Temurning qo'shinlari tomonidan yana ham dahshatliroq xarob va xonavayron qilingan. 1398-yilning kuzida Amir Temur 120 ming askari bilan Hindistonga bostirib kirgan. Dehli sultoni shu qadar katta armiyaning hujumini to'xtata olmagan. Amir Temur Hind daryosidan o'tib, Panjobdagi shaharlarni birin-ketin ishg'ol qilib, hamma yoqni talagan va kuydirgan.

Keyinchalik Kichik Osiyodagi Usmon turklariga qarshi yurish bilan band bo'lgan Amir Temur Hindistonni o'z holiga tashlab qo'ygan. Temurning vafotidan keyin Hindiston o'zining baquvvat, mustaqil davlatini tuzish imkoni vujudga kelgan. Ammo XV asrda Hindistonni birlashtirish yana ham qiyinlashgan. Doimo birlashtirish markazi bo'lgan Shimoliy Hindiston Temur hujumi tufayli necha o'n yillar davomida qattiq iqtisodiy inqirozni boshidan kechirgan. Ammo Temur hujumining boshqa bir oqibati ham bo'lgan. Temur hujumidan keyin musulmon feodallari bilan hind feodallari o'rtasidagi o'zaro kurash yana ham kuchaygan. Ilgari vaqtlarda katta ta'sirga ega bo'lgan shimoliy musulmon knyazlari endi zaiflashib, avvalgi gegemonliklarini qo'lda saqlay olmay qolgan. Janubdagi hind rojalari, garchi bir qadar kuchaygan bo'lsalarda, o'z kuchlari bilan birlashtirish darajasida yetarli qudratga ega emasdi. Ikki guruh hind feodallarining kurashi Hindistonning shimoli bilan janubidagi milliy va ijtimoiy-iqtisodiy farqni aks ettirib, bir-biriga qattiq dushman bo'lgan ikki xil diniy (islom va hindu) mafkuraviy kurashga

aylangan hamda samarasiz tarzda cho'zilib ketib, mamlakatni yana chet el istilosi xavfi ostida qoldirgan.

Janubiy Hindiston davlati – Baxmani va Vijayanagar. XIV–XV asrlarda Hindistonning janubida ancha yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Ulardan biri Baxmani davlati G'arbiy Dekan hududida joylashgan bo'lib, uning poytaxti yirik shahar Bidar bo'lgan. Bu davlat 1347-yilda Dehlidan ajralib, tashkil topgan. U 1482-yilgacha mavjud bo'lib, keyinchalik bir necha knyazlikka bo'linib ketgan. Rus savdogari, sayyoh Afanasiy Nikitin xuddi shu davlatda 1469–1472-yillarda (u eng gullagan paytda) bo'lib, Hindistonning bu qismidagi feodallar va oddiy xalq turmushini yorqin tarzda bayon qilgan.

Baxmanidan janubda joylashgan yana bir davlat – Vijayanagar davlati edi. Bu davlatga taxminan 1336-yilda asos solinib, 1486-yilgacha yashagan. Uning tarixi qo'shni Baxmani bilan deyarli to'xtovsiz urush olib borish bilan o'tgan. Bu urushlar har ikkala davlatni zaiflashtirib, ularning yanada maydaroq knyazliklarga bo'linib ketishini tezlashtirgan. Vijayanagarga qaraydigan Malabar sohili G'arbiy Yevropa mustamlakachilari kirib kelgan dastlabki hudud bo'lgan. Baxmani bilan Vijayanagar o'rtasidagi o'zaro urushlar, shuningdek, XV asr oxirlarida kuchaygan feodallar o'rtasidagi o'zaro nizolar G'arbiy Yevropa mustamlakachilariga Malabar sohilidagi bir qancha tayanch nuqtalarini deyarli to'siqsiz ishg'ol qilish imkonini bergan. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan mazkur nuqtalar yevropaliklarning keyinchalik Janubiy va Sharqiy Osiyoda mustamlakalarni qo'lga kiritishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Hindistonda yevropaliklarning paydo bo'lishi. 1498-yilda Vasko da Gama eskadrasi Malabar qirg'og'ida paydo bo'lib, Kalikut shahriga tushgan. Portugallar XVI asr boshlaridayoq Hindistonning g'arbiy va janubiy qirg'oqlarida bir qancha joylarni egallagan. Portugallar Hind okeani, Fors qo'ltig'i va Qizil dengizda hukmron bo'lib olgan. Ular keng suratda dengiz qaroqchiligi bilan shug'ullanib, hind kemalariga hujum qilganlar va ularni talagan. Ular bosib olgan hudud, ya'ni Goa shahri, Seylon oroli va yana boshqa bir necha joydangina iborat bo'lsada, talonchilik ekspeditsiyalari mamlakatning ancha ichkarisigacha kirib borgan. Yevropaliklar

ichida birinchi bo'lib portugallar Hindistonda mustamlakachilik siyosatini amalga oshirgan. Keyinchalik, XVI asr oxiri –XVII asr boshlarida ularga golland va inglizlar kelib qo'shilgan.

Dehli sultonligining tushkunlikka uchrashi. XV asr mobaynida Dehli sultonligi buyuk davlat bo'lmay qolgan. Dehli shahri va uning atrofidagi yerlar hukmroni «Dehlining buyuk sultoni» degan dabdabali unvonga ega bo'lsa ham, u Shimoliy Hindistondagi oddiy davlatlardan biri bo'lgan. Eng yirik qo'shni davlat Bengaliya knyazligi ham loaqal Shimoliy Hindiston uchun gegemonlik rolini o'z zimmasiga olmagan. Feodal tarqoqlik, qo'shni knyazliklarning raqobati va o'zaro urushlari, ayrim xususiy feodallar ham, ko'pdan-ko'p mayda hukumatlar ham undirib oladigan soliqlarning o'sishi sharoitida mamlakat mehnatkash aholisini ekspluatatsiya qilish yanada kuchaygan. Dehqonlar soliq va renta to'lashdan bosh tortar, o'rmonlarga qochib, davlat soliqlarini yig'uvchilardan va o'z feodallarining zo'ravonligidan yashinar edi. Ba'zan qahatchilik va ocharchilik natijasida dehqonlarning tartibsiz g'alayonlari bo'lib turgan.

Tarqoq, tabaqalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, musulmon va hind feodallaridan iborat bir-biriga dushman ikki guruhga bo'lingan Hindiston mo'g'ul-turklarning yangi hamlasi oldida tamomila himoyasiz bo'lib qolgan edi.

Mavzuga doir adabiyotlar:

1. Ko'rsatilgan davrdagi Hindiston feodal tuzumining xarakterli xususiyatlari qanday bo'lgan?
2. Hindistonning eng yirik shaharlari va ularning tuzulishi qanday edi?
3. Afanasiy Nikitinning Hindistonga sayohati haqida.
4. Hindistonga portugallarning kirib kelishi qanday oqibatlarga olib kelgan?
5. Qanday omillar Dehli sultonligining davlat sifatidagi inqirozini keltirib chiqargan?

X BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA YAPONIYA

Majburiy mehnatning inqirozga uchrashi va feodal Yaponiyadagi ijtimoiy o'zgarishlar. Yaponiyada X–XIV asrlarda qishloq xo'jaligining taraqqiyot davri davom etgan. Ishlov beriladigan yerlar sezilarli ko'paymagan bo'lsa-da (umuman olganda million *tyo* atrofida), yerga ishlov berish tizimi rivojlangan, yangi kanallar barpo etilib, tabiiy mahsulotlar ko'paygan. Hududlarning madaniyatiga qarab ixtisoslashuv ro'y bera boshlagan, chorvachilik taraqqiy etgan. Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida (shuningdek, janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan) Yaponiyada yangi qishloq xo'jaligi madaniyati vujudga kelgan: paxta, bo'yoq olinadigan daraxt, shakarqamish yetishtiriladigan bo'lgan. Dehqonlar ipak yetishtirish, mato tayyorlash, ko'k bo'yoq beruvchi indigo mahsulotini yetishtirish bilan shug'ullangan. Mamlakatning janubiy hududlarida yiliga ikki marta hosil olingan.

IX–X asrlarda davlat tasarrufidagi yerlarni katta yer egalari *syoenlar* qo'lga o'tishi kuchayib borgan. Davlat yerlarini o'zlashtirishni yengillashtiradigan sabablardan biri ba'zi yangi o'zlashtirilayotgan yerlarni, masalan, cho'l yerlarni o'zlashtirilgani hisobiga o'sha odamga mulk qilib berilgan. Feodallar bu huquqlardan keng foydalangan. VIII asrdan boshlab Yaponiyada feodallar uch guruhga bo'lina boshlagan:

1. Poytaxt va saroy atrofidagi feodallar.
2. Viloyatlardagi hokimiyat boshqaruvidagi feodallar, ularni poytaxtdan yuborilgan va shu yerda imkon qadar mustahkam o'rnatib olgan.
3. Quyi feodallar, viloyatlardan hech qachon tashqariga chiqmagan.

Birinchi guruhga taalluqli bo'lgan, asosan VII asrda yuz bergan ichki kurashda g'olib chiqqan Sumeragi xonadoni va ularni qo'llab-quvvatlovchilar edi. Ushbu o'rinda birinchi o'rinda Nakatomi turgan bo'lib, diniy tomondan mamlakatda katta ta'sirga ega bo'lgan. Nakatomi xonadoni tepasida o'sha vaqtlar (VIII asr o'rtalari)da mamlakatda katta siyosiy nufuzga ega bo'lgan Kamatari turgan. Uning ajdodlari Fudzivara nomi bilan mashhur bo'lgan va asta-sekin hokimiyatdagi muhim mansablarni egallay boshlagan.

Poytaxt zodagonlari yer egaligida katta huquqlarga ega bo'lgan. Yer egalari asosan uch xil – in'om etilgan yerlar, lavozimiga ko'ra berilgan yerlar hamda davlat oldidagi xizmatlari evaziga berilgan yerlardan foydalangan. Bunday daromadlardan tashqari davlat xazinasidan mavsumiy mablag'lar ham berilgan.

Ikkinchi guruh feodallariga mahalliy boshqaruv tizimidagilar kirgan bo'lib, ular viloyatlarni gubernator va ularning yordamchilari sifatida boshqargan. Dastlab bu guruh ikkinchi guruhga izchil bog'langan bo'lib, poytaxtda hukmronlik qilayotgan feodallarning qarindoshlari edi. Viloyatlardagi boshqaruvchilarning o'sayotgan obro'sini pasaytirish uchun har uch yilda ularning boshqarayotgan hududi o'zgartirib turilgan. Lekin vaqtlar o'tishi bilan gubernatorlar o'sha hududlarda ko'proq shakllanib qola boshlagan. Ular bor kuchlarini o'z viloyatlarida mustahkam o'rnatishga, hududini o'z avlodlariga meros sifatida qoldirishga juda qattiq harakat qilganlar. Viloyatlarni boshqarish feodallarga sezilarli foyda keltirgan. Ular o'zlarining yerlaridan tashqari ortiqcha yerlar hadya etilmaydigan yerlar, ya'ni tog'li, tog' oldi, dasht yerlar hisobiga boyib borgan. Bu yerlarda ishlagan ijarachi dehqonlar feodal va davlatga soliq to'lagan, ocharchilik holati uchun alohida to'lov belgilangan. Chekka hududlarni feodallar osonlik bilan egallaganlar. O'rmonlar, qishloqlar hisobiga ularning xazinalari to'lgan.

Uchinchi guruh feodallari hokimiyat uchun kechgan kurashlarga aralashmagan, betaraf sulolalardan iborat bo'lgan. Ular o'zlarining oldingi mavqelari va yer-mulklarini saqlab qolib, tuman boshlig'i lavozimlarini egallagan.

Vaqtlar o'tishi bilan ikkinchi va uchinchi guruh feodallari aralashib ketib, feodallar ikki guruhga bo'linib qolgan. Bularning birinchisi – saroy va markaziy hokimiyat a'zolari. Ikkinchisi – tobora viloyatlardagi hokimiyatni o'z qo'llariga olib, mustaqillikka intilayotgan mahalliy feodallar edi.

Imperator xonadani hokimiyatdan deyarli chetlatib qo'yilgan. Poytaxtni 794-yilda Xeyyan (hoz. Kioto)ga ko'chirilishi imperator xonadoniga yaqin sulola Fudzivaralarning yuqori boshqaruvni o'z qo'llariga olish uchun uyushtirilgan harakat edi. Dastlab Fudzivaralar o'rnatgan tartibga ko'ra, imperator faqat Fudzivara xonadoni vakillariga uylanishi kerak edi. Keyinchalik, 858-yilda Fudzivara

vovaga yetgan imperator tomonidan oliy *kansler* etib tayinlangan. Iez orada Fudzivara xonadoni nafaqat markaziy boshqaruvni, balki butun oliy hokimiyatni egallab olgan.

Barcha feodallar o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini mustahkamlab borqanlar, ya'ni yangi yerlarni egallab, dehqonlar mehnatidan ko'proq foydalanish hisobiga boyliklari ko'paygan. Yangi yerlarning o'zlashtirilib, feodallarning mulkiga aylangan va barcha soliqlardan ozod bo'lgan. Yangi yerlar saroy a'yonlari, mahalliy feodallar va ibodatxonalar tomonidan o'zlashtirgan. Aholi kam eng chekka hududlarda o'zlashtirish uchun kurash avjiga chiqqan. Mahalliy zodagonlar soliqlardan ozod bo'lish uchun eski yerlarni berib, yangi yerlarni o'zlashtirgan. X asr o'rtalariga kelib xususiy yer-mulklar – *svoenlar* asosiy yerlar bo'lgan.

Xususiy yer-mulklarning ko'payishi natijasida davlat daromadlari kamaygan. Shu davrda saroy zodagonlarining chiqimlari tobora ko'paygan. Iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lgan Tan imperiyasiga taqlidan ko'p sonli saroy a'yonlarini ta'minlash davlatni boshi berk ko'chaga olib kirgan. Markaziy zodagonlarning barcha turdagi oladigan to'lovlari ham ularning ehtiyojlarini qondira olmagan. Bundan tashqari, davlat yerlaridan keladigan daromad boshqa mulklardan keladigan foydadan kam bo'lgan. Feodallarning kuchi o'zlashtirilgan yerlar hisobiga kuchaya borgan. X–XI asrlarda ularning mulklari nafaqat to'lovlardan ozod etilgan, shuningdek, ularning yerlariga mahalliy hokimiyat vakillarining kirishi ham man etilgan. Imperator xazinasi shu tariqa sovurilavergan. Uni to'ldirish uchun davlat yerlarida ishlovchi dehqonlarni xonavayron qiluvchi to'lovlar ko'paytirilgan.

Dehqonlar ahvolining og'irlashuvi va IX–XI asrlardagi qo'zg'olonlar. Dehqonlar davlatning og'ir soliqlarini to'lashdan tashqari mansabdorlar tomonidan ekspluatatsiya qilingan. Oxirida ular dehqonlarning qonuniy yerlarini tortib olib, o'z mulklariga aylantirishga uringan yoki ulardan iloji boricha ko'proq to'lov undirgan holatda poytaxtga boyigan tarzda qaytishga harakat qilgan. Juda og'ir to'lovlardan biri soliqlardan keyingi qo'shimcha soliqdir. Buning sababi, guberniya yoki tuman boshqaruvida asosiy don xirmonlarini poytaxtga to'langan dondan tashqari to'ldirish lozim bo'lgan. Hukumat favqulodda vaziyat bahonasida bu xirmonlarga

qoʻshimcha don yigʻish huquqini bergan. Mahalliy rasmiylar qaramogʻidagi xirmonlarni qonuniy-noqonuniy tarzda sharoit taqozo qilmasa ham undirgan va oʻzlashtirgan. Ushbu toʻlovlarning ulushi juda ulkan boʻlib, hosilning 30% dan 50% gacha miqdorni tashkil etgan.

Davlat yerlarini ijaraga olganlar borgan sari xonavayron boʻlgan. Xonavayron boʻlgan dehqonlar yerlarni tashlab, oʻrmon va togʻlarga ketib, oʻsha vaqt yozuvchilari qayd etganidek, «qaroqchilar toʻdasi» quruqlikda va dengizda qaroqchilik qilgan. Mazkur guruhlar baʼzida koʻpchilikni tashkil qilib hukumat va mahalliy feodallarga katta tashvish tugʻdirgan.

Dastlabki yirik qoʻzgʻolonlar IX–XI asrlarda yuz bergan. IX asrning ikkinchi yarmida Kyusyu orolida dehqonlar gʻalayoni boshlanib, qoʻzgʻolonchilar gubernatorni oʻldirgan va viloyat binolarini yakson qilgan. X asrda Kanto tumanida gʻalayonlar yuz bergan. X–XI asr boshlarida barcha hududlarda, hatto shimoliy hududlarda ham qoʻzgʻolonlar boshlangan. Mamlakat markazida qoʻzgʻolonlar shunday tus olganki, ular toʻgʻridan-toʻgʻri poytaxtga ham tahdid solgan. Qoʻzgʻolonchilar hukumat binolariga hujum qilib, mahbuslarni ozod qilgan. Hukumat qoʻzgʻolonni bostira olmay, yirik feodallar va monaxlardan harbiy koʻmak soʻragan.

Dehqonlarning hukumatga qarshi gʻalayon qilish, qochib ketishdan tashqari yashirin tarzda xususiy mulk egalari – *syoenlar* tasarrufiga oʻtib, ularning «himoyasidan» panoh topish holatlari ham mavjud boʻlgan. Dastlab faqat feodallar soliq toʻlagan boʻlsa, keyinchalik soliqlardan tashqari feodallarning yerlarida ham majburiy mehnat koʻrinishida ishlab berilishi talab qilingan.

IX–XI asrlarda qullar haq-huquqi boʻyicha oʻz erkini yoʻqotgan dehqonlarga tenglashib olgan. Kyusyu, Sikoku va Xonsyu kabi asosiy orollarga arzon ishchi kuchi – «kulbali qullar»ni joylashtirgandan soʻng, ularga maʼlum yengilliklar berilgan. Qishloq xoʻjaligining yuqori surʼatlar bilan rivojlanishi qulga foyda keltirmagani uchun ular loqayd edilar. Ular feodal va davlat yerlarida ishlaganlar. Keyinroq qulni oʻziga yer berilgan, shundan soʻng qul va dehqon orasidagi farq qolmagan. Qulni bir feodaldan ikkinchisiga qochib ketishi mumkin edi. Chunki, ular qullarni yolgʻon yoʻllar bilan oʻziga ogʻdirgan. Qulga ozodlikni faqat feodallargina bera olgan. Shuning

uchun ham XI asrda Yaponiya feodalizmi xususiy mulkdorlar – feodallar va erkini yoʻqotgan dehqonlardan iborat boʻlgan. X asr boshlarida quldorlik rasman taqiqlangan, faqat ayrim hollardagina uchrab turgan.

Harbiylarning kichik mulkli xoʻjaliklarining vujudga kelishi. Feodallarning kuchayib borishi bilan ularning shaxsiy qurolli harbiy burchlari paydo boʻlgan. Ilgari faqat hukumatda harbiy qoʻshin boʻlib, ular dehqonlardan tuzilgan va shaharlarga garnizon boʻlib joylashtirilgan. Har bir askar oʻz hisobidan qurollangan, xizmatning oxirigacha oilasi uni taʼminlagan. Dehqonlar harbiy xizmatdan har qanaqasiga boʻyin tovlagan, qochib ketishgacha borgan, armiyaga olganlar esa oʻzini-oʻzi boqishi majbur boʻlgan. Koʻp hollarda ular feodallarni yeriga yollanib ishlagan va shu tariqa dehqonga aylangan. Sinflar orasidagi kurash va qochoq dehqonlarning koʻpayishi natijasida feodallar va ularning mulklariga hujumlar koʻpaygan. Dehqonlarga qarshi kurashish uchun feodallar hukumat qoʻshinlariga umid qilmasdan qochqin dehqonlar yoki sobiq askarlardan tuzilgan harbiy guruhlar tashkil etgan. Feodallar koʻp hollarda qochoq dehqonlardan qoʻshin tuzgan. Oʻzaro tuzilgan shartnomaga koʻra askarlar «iymon» va «eʼtiqodi» bilan oʻz xoʻjayinlariga xizmat qilishga «qornini oʻylamasdan va oʻzini ayamasdan» fidokor boʻlishga soʻz bergan. Xoʻjayinlar esa ularni boqishi, kiyintirishi va uy bilan taʼminlashi lozim boʻlgan.

XI XII asrlarda mulklar soni va oʻlchami koʻpaygan. Bunday hollarda kichik mulklar xavf ostida boʻlgan. Ularni mahalliy hokumiyat siquvga olar edi. Natijada ular yirik mulkdorlarning oʻlhasiga aylangan. Mayda mulkdorlar koʻpincha qochoq dehqonlar hujumiga uchragan. Ular noilojlikdan yirik feodallardan himoya soʻralgan va buning evaziga mayda mulkdorlar oʻzining mulkidan bir qismini yirik feodalga berib, uning himoyasiga oʻtgan. Shu tariqa yapon viloyatlarida yirik yer egasi – xomiy va mayda mulk egasi oʻrtasida munosabat shaklining yangi turi vujudga kelgan, va uning himoya soʻralgan va evaziga majburiy harbiy xizmat oʻtalgan.

Yerda egalik munosabatlaridagi oʻzgarishlar siyosiy hayotga ham taʼsir oʻtkazgan. XI asr oʻrtalaridan Fudzivara xonadoni hukmronligi susayib, sulolaning oʻzida mansablar uchun kurash avj olgan. Ubu otada Fudzivara va imperator xonadoni oʻrtasida ziddiyatlar

kuchayib, imperator regentlik va maslahatchilikni yo'q qilishga uringan.

Fudzivaraga qarshi kurashda imperatorlar buddaviylik cherkovidan foydalangan. Ba'zi imperatorlar hokimiyatdan voz kechib, monastirga ketgan. Monastir yerlari barcha soliqlardan ozod bo'lib, ularning yerlari va ishlovchilari soni ortib borgan. Monastirlar iqtisodiy markazlarga aylanib, uning atrofida aholi joylasha boshlagan. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan monastirlar ta'siri favqulotda ortib ketgan. Imperatorlar buddaviylik peshvolari bilan ittifoqda Fudzivara hokimiyatini zaiflashtirishga erishgan. Bu urush 1069–1167-yillar oralig'ida yuz yilcha davom etgan bo'lib, urushlar tarixida «*sobiq imperatorlar – monaxlar hukmronligi*» nomi bilan kirgan. Markazdagi bu urush viloyatdagi feodallarning mulklarini ko'payishi va nufuzining ortib ketishiga xizmat qilgan.

XI–XII asrlarda ikkita yirik mulk-qo'rg'onlar vujudga kelgan: biri sharq va shimoliy Yaponiyada, ikkinchisi – markaz va mamlakatning janubi g'arbida paydo bo'lgan. Birinchisi, markazdan to'liq ajralib qolgan va yerga egalik shakllari tez rivojlangani uchun, kichik mulklarning yirik mulklar bilan yaqinlashuvi hamda harbiy guruhlarining vujudga kelishi natijasida ikkinchisi ham vujudga kelgan. Bundan tashqari, askarlar harbiylikdan tashqari o'z xo'jayini tomonidan kichik mulklar ham olgan. Natijada shimoli-sharqda mayda mulkchilik ko'payib borgan va yangi xizmat ko'rsatuvchi sinf – samuraylar qudratli xonadonlarning vassal xizmatchisiga aylangan. Boy va kuchli bo'la boshlagan sulolalardan biri XII asr boshlarida mamlakat shimoli-sharqidagi Minamoto feodallari edi.

Yaponiyaning janubi-g'arbida esa teskari holat, yirik yer egaligi saqlanib qolgan. Markaz va janubi-g'arbdagi feodallar dengiz qaroqchilaridan saqlanish uchun kichik harbiy guruhlar tuzgan. Chunki, ularga Yapon dengizi, Kyusyu yoki Sikoku atroflarida himoyalaniş uchun askarlar zarur bo'lgan.

1156–1192-yillardagi sulolalar urushi. Yaponiyaning janubi-g'arbidagi Kansayda yirik harbiy kuchga ega bo'lgan *Tayra xonadoni* katta mulklarga egalik qilgan. 1156-yilda Tayra mamlakatni siyosiy hokimiyatini egallab olgan. Imperator nomidan hokimiyatni boshqarayotgan Tayra o'z raqiblari – shimoli-sharqni idora etayotgan Minamoto feodallariga qarshi kurashgan. Bu kurash

uzoq yillar sulolalar urushiga olib kelgan. G'olib nafaqat kuchli harbiy kuchga ega tomon, shuningdek kuchli feodal uyushma tuzgan tomon – Minamotolar bo'lgan. Minamoto tarafdorlari hosildor Kansayni egallashga harakat qilgan. 1185-yilda Dannourdag (hoz. Simonoseki) jangda ular dushmanlarini mag'lub etgan. Qo'mondon Yoritomo Minamoto 1192-yilda *syogun* – harbiy boshliq unvoni bilan mamlakatni oliy hukmdori etib e'lon qilingan. Siyosiy markaz Xonsyu orolidagi Kamakura shahriga ko'chirilgan va poytaxtga aylangan.

G'alabadan so'ng Minamoto poytaxt zodagonlariga, imperator xonadoni va Fudzivaralarga qarshi kurash boshlagan. Bu kurashda Minamoto dehqonlar harakatiga tayangan. Chunki, Xeyyan zodagonlarining ulkan yerlarida bunday harakatlar juda avjida bo'lgan. 1185–1192-yillarda Minamoto imperator va Xeyyan zodagonlarini siyosiy hokimiyatdan butkul mahrum eta olgan bo'lsa-da, ularning avvalgi unvonlari va yerlarining bir qismini o'zlarida qolishiga ruxsat bergan. Zodagonlarning 1221-yilda hokimiyatini qayta tiklash uchun uyushtirgan harbiy to'ntarishi tezda bostirilib, uzoq yillar syogunlar va Minamoto sulolasi hukmronligi davom etgan.

Harbiylar hukmronligining o'rnatilishi. Tayraning mag'lubiyatidan so'ng g'oliblar ularning yerlarini egallab, o'zaro bo'lib olishgan. O'shanda Tayraning mulki 600 dan ortiq bo'lgan. Guberniya boshqaruvlariga va feodallar mulklariga agar ular Minamotoga tegishli bo'lmasa maxsus komissarlar yuborilib, hokimiyat uchun har qanday chiqishlarning oldi olingan.

Tez orada yuborilgan vakillarning obro'si ortib ketgan. Ular feodallarning mulklarini boqqan va hosilning 1/20 qismini harbiy soliq niqobi ostida olib qo'ygan. Bu esa yangi to'qnashuvlarning vujudga kelishi uchun jiddiy sabab bo'lgan.

1221-yildagi harbiylar isyoni bostirilgach, g'olib tomon yana uch mingga yaqin yer-mulklarni egallab, o'zaro taqsimlab olgan. Gubernator va vitse-gubernatorlar avvaliga hokimlarni chetlatib nafaqat viloyat boshlig'i, shuningdek, ulkan yer-mulklar sohibi – *daymega* aylangan.

XVIII asr o'rtalarida asosiy yer-mulklar Minamotoning safdoshlari va syogunning asosiy vassali – Xodzyo xonadoniga tegishli bo'lgan. Ularning mulklari unchalik katta bo'lmasada, bir qismi len tarzida,

qolganlari vaqtinchalikka berilgan.

Bundan tashqari, monastir yerlari ham keng tarqalgan bo'lib, imperator xonadoni yerlari va saroy oldi a'yonlarining imperator qarorgohi joylashgan Kioto shahridagi yerlari sezilarli darajada kamaygan.

Hukmronlik qilayotgan feodallar, ya'ni harbiy mulkdorlar – *busilar* mamlakatdagi asosiy yerlarga egalik qilib, dehqonlarni ekspluatatsiya va o'zlarining davlat boshqaruv tizimini tashkil qilgan. Ularga nisbatan dindorroq bo'lgan zodagonlar guruhini *samuraylar* tashkil etib, ular bevosita o'z xo'jayini – syogunga bo'ysungan. Ular Minamoto hokimiyatni egallagan vaqtda unga yordam berganlarning avlodlari edi.

Syogun asosiy harbiy qo'mondon va samuraylarning yetakchisi bo'lgan. Lekin Minamoto Yoritomonning 1199-yilda vafot etishi bilan hokimiyat hukmdor unvonini olgan Xodzo Tokimasaning qo'liga o'tgan. Shu tariqa Xodzyu sulolasiga hokimiyat meros bo'lib o'tish boshlangan.

Samuraylarning etika kodeksi. Samuraylarning etika kodeksi har doim va har joyda birinchi bo'lishni, ayniqsa jang maydonida birinchi bo'lishni talab etgan. Dastlab jangchilar faqat jang uchun tayyorlangan. Jangda ularning maqsadi shuhrat qozonish, undan keyin o'ljaga ega bo'lish, hech bo'lmaganida o'z xo'jayinidan taqdirlanishni maqsad qilgan. Birinchi o'rinda qahramonlarning alohida jasratlari turgan, bu tushuncha yapon ritsarlarining xayolidan ketmagan. O'sha vaqtlarda samuray uchun raqibsiz qolish juda sharmandalik holat hisoblangan. U o'zining raqibi ulug'vorroq bo'lishini xohlagan, masalan qo'mondonlar bilan jang qilishni orzu qilgan. Bunday raqib ustidan qozonilgan g'alaba yanada ko'proq shuhrat keltirgan. Jangda samuraylar, albatta o'zlarini tanishtirgan. O'z ismini aytishi, o'zining kelib chiqishini, mahorati, ruhiy va jismoniy xulqini ko'rsatish, ajdodlarning xizmatlarini eslatib qo'ygan. Qolaversa, o'zining xizmatlarini aytish bilan birga bularga qo'shimcha – quroli, nishoni, gerbini ham namoyish etgan. O'z nomining tarixda qolishi va uni hurmat bilan eshlashlari samurayni jasur, qahramon bo'lishga chorlagan. Shuningdek, o'lsa ham yupanch vazifasini o'tab bergan. Agar nomini g'alaba bilan shuhrat qozontira olmasa, matonat bilan o'limni qarshi olsa ham qahramon bo'lgan.

Shu bilan samuray cheklanib qolmagan. To'g'ri, g'alaba qozonsa, qahramon bo'lgan, lekin undan ham ko'proq jasorat ko'rsata olishi, ya'ni o'z qo'li bilan o'zini o'ldirishi mumkin bo'lgan. O'z-o'zini o'ldirish – *xarakiri* haqiqiy jasorat, shaxsiy qahramonlikni namoyish etish, o'zini boshqara olishini, ichki xotirjamlik va mukammaligini ko'rsatishning oliy namunasi hisoblangan. Samuray yoshlikdan qadimgi Xitoyda vujudga kelgan «*Hayot – oqqush paytidan ham yengilroqdir*» degan g'oya asosida tarbiyalangan. Bu g'oyani singdirishda buddaviylik va mafkuradan foydalanilgan.

Yapon feodalizmning dastlabki davrida jangchilarni harakatini sog'lom va aqlli hayot, tug'ma sezgirlik boshqargan. Keyinroq o'zaro urushlar avj olgach, samuraylarga o'z joniga qasd qilishning etika va estetikasi qunt bilan o'rgatilgan. XIV asrga kelib yaponlarning milliy o'z joniga qasd qilish uslubi – *xarakiri* (*seppuki*) to'liq shakllangan. Shunday bo'lsada, *xarakiri* samuray uchun yagona jasorat manbai, matonatni namoyon etish bo'lib qolmasdan, yaponlargagina xos o'z xo'jayiniga, hayot qoidalariga – sadoqat asosiy o'rinda turgan.

Sadoqat ta'limoti – samurayning butun hayoti mazmuni bo'lgan. O'sha vaqtlarda ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa yo'lboshchilar munosabati oddiy samuray bilan ham sadoqat asosida qurilgan, ya'ni samuray o'z xo'jayiniga so'zsiz sadoqat ko'rsatgan. Buning uchun oliy feodallar ko'p sa'y-harakatlar olib borgan. Sadoqatni shakllantirish uchun barcha usullar – moddiy, g'oyaviy, sovg'a-salomlardan tortib Konfutsiy g'oyalarigacha qo'llanilgan.

O'z xo'jayiniga sadoqat unga doimiy xizmat qilishdangina emas, shuningdek uning uchun har qanday vaqtda o'limga tayyor turishdan ham iborat. XIV asrda joniga qasd qilish juda ko'p qo'llanilgan. Xo'jayiniga itoat etish kamtarlik xususiyatini ham shakllantirgan.

Samuraylarning mukamal ko'rinishi qattiqqo'l, yovvoyi jasoratdangina emas, yapon ritsari nafaqat «kuchli va qo'rqmas» balki «ta'sirchan va shafqatli» bo'lishi ham lozim edi. Samuray, ayniqsa o'z o'g'lining tarbiyasiga katta e'tibor bergan – vorisi va otasining shuhratini davom ettiradigan davomchi juda muhim o'rin tutgan.

Samuraylar o'zlarini ma'budlarning ixtiyoriga to'liq topshirgan. Jangchi taqdiri, omad yoki omadsizlik, hayot yoki o'limi jang jarayoniga bog'liq bo'lgan. Beqarorlik yaratish uchun insonlarning

taqdirini xudolar belgilaydi, muvaffaqiyat yoki magʻlubiyat ularning xohishiga bogʻliq degan tushunchani shakllantirgan. Samuraylar, ayniqsa «sulolalar homiysi» – maʼbud *Udzigamiga* katta ixlos qoʻygan. Ularning fikricha, *Udzigami* eng avvalo, oʻz sulolasini himoya qiladi. Shuning uchun biror ish qilishdan oldin samuraylar *Udzigamiga* murojaat qilganlar. Aslida ritsarlar xudolarni farqiga bormagan. Agar ish yordam soʻrashga kelsa, sintoiylik xudolari kamlik qilganday buddaviylik xudolarini ham yordamga chaqirish mumkin boʻlgan. Buddaviylik tarkidunyochilikni, quvonch va shodliklardan voz kechish toʻgʻrisida gʻoya yuritadi. Buddaviylik tarixi shuni koʻrsatdiki, u yuqori darajada oʻzgaruvchanlik va u yoki bu davlatning sharoitlariga moslashuvchanligi, u yoki bu jamiyatga oʻzgarishi mumkinligini koʻrsatgan. Shu tariqa afsungarlikka ishonch, yapon samuraylarining turli tumorlarni taqib yurgan.

Samuraylar nafaqat xudolarga, qolaversa, shaytonlarga, turli ruhlarga, ayniqsa halok boʻlgan jangchilar ruhlariga ishongan. Aynan mana shu ruhlar eng yovuzlari hisoblangan. «Oʻldirilgan jangchi oʻz qotilidan qabrdan turib qasos olishi mumkin», deb oʻylagan. Ularning laʼnati dushmanni yoʻq qilib yuborishi mumkin edi. Buddaviylikda qotillik taqiqlangan, tirik jonzotga ozor berish gunoh boʻlgan. Lekin feodal hayot buning teskarisini talab etgan. Shuning uchun ham tiriklardan emas, oʻliklardan qoʻrqqan. Bunday holatdan buddaviylik mutasaddilari oson chiqqan, ularning maslahatiga koʻra cherkovlar qurish, monastirlarga qurbonliklar qilish, shuningdek ilohiylikka murojaat qilish zarur boʻlgan.

Moʻgʻullar hujumiga qarshi mudofa tashkil etilishi va oʻzaro urushlarning boshlanishi. 1260–1285-yillarda moʻgʻullarning hujum qilish xavfi Yaponiyani bosim ostida ushlab turgan va hukumatni katta kuch safarbar qilishga undagan. Kyusyu qirgʻoqlari va Xonsyuning janubi-gʻarbida ulkan qoʻshin toʻplagan, bu jangchilarni dehqonlardan tashkil qilgan.

Moʻgʻullar boʻysunishni talab qilgan, lekin Yaponiya hukmdori Xodzyo Tokimune Xubilay hokimiyatini tan olmagan va uning elchilarini qatl etgan. Yaponiya boyliklari moʻgʻullarni bu davlatni egallashga undagan. Moʻgʻullar yaponlarga qarshi jang uchun Xitoy va koreyslardan tuzilgan ulkan qoʻshin va flotdan foydalanib, ikki marta, yaʼni 1274 va 1281-yillarda Yaponiyaga hujum qilgan. Son

phatdan ustun bo'lgan mo'g'ullar Kyusyu qirg'oqlarini egallashga muvaffaq bo'lgan. Oxir-oqibat, yaponlarning qattiq qarshilik ko'rsatishi, mo'g'ullarning dengizda jang qilishni bilmasligi, ko'plab askarlarning floti bilan birgalikda halokatga yo'liqishi natijasiga yaponlar o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Lekin 1281-yildagi hujumdan keyin ham mo'g'ullar Yapniyani uzoq vaqt sarosimada ushlab turgan.

Bu davrda yerga egalik munosabatlari zaiflashgan. Yerlarni sotish va ijaraga berish avj olgan. Natijada hukumat 1297-yilda maxsus qarori asosida bu masalani bekor qilgan. Shunday bo'lsada, mayda yer egaligi va samuraylar xo'jaligi zaiflashgan. Bu esa syogun Xodzyo – Minamoto hokimiyatini kuchsizlantirgan. Ulkan manbalar va odamlarni mo'g'ullarga qarshi turish uchun mamlakat g'arbida to'planishi janubi-g'arbiy hududda yirik yer egaligining kuchayishiga olib kelgan. Tashqi savdo ham g'arbiy hududda o'sgan. Yirik feodallarning g'arbiy hududlarda kuchayishi hukmron tabaqaga bosh ko'tarishga olib kelgan, ular Xodzyoning yakka hukmronligiga barham berish maqsadida qarshilik ko'rsatgan.

1333-yilda janubi-g'arbdagi feodallar Asikaga bilan birlashib, Kanto tumani feodallarini o'ziga ergashtirgandan so'ng Xodzyoga qarshi chiqib, uning qo'shinlarini mag'lub etgan va Kamakurani yoqib yuborgan. Hokimiyat vaqtincha mana shu feodallar qo'llagan imperator Godaygoga o'tgan. Lekin Xodzyoning sobiq vassali

Asikaga tez orada imperatorga qarshi chiqib, janubi-g'arbiy hukumatdan ajralib chiqqan. U Kiotoni egallab, Godaygoni Yosino viloyatiga ko'chib o'tishga majbur qilgan va hokimiyatga o'z vakilini qo'ygan, o'zi esa 1335-yilda syogun unvonini olgan.

Shu tariqa 1335-yilga kelganda shimolda va janubda ikkita poytaxt mavjud bo'lgan, qo'shhokimiyatchilik bo'lib, feodallarning o'zaro kurashlari avjiga chiqqan. Bu o'zaro urushlar va «qo'shhokimiyatchilik» 1336-yilgacha, ya'ni butun mamlakat syogun Asikaga egallaguncha davom etgan.

Shaharlar, yer egaligi va savdo-sotiqning rivojlanishi. Yapon shaharlari XII–XIV asrlarda kuchaygan. Feodal jamiyatning dastlabki davrida rivojlangan shaharlar sirasiga faqatgina Nara kirgan bo'lsa, 794-yildan esa uning o'rniga poytaxtga aylangan Kioto ham kirgan. Yangi poytaxt ham eskisi kabi qurilgan, faqat maydoni kattaroq

bo'lgan.

Nara shahri kabi Kioto ham avvalo, ma'muriy, siyosiy va xo'jalik markazi bo'lgan. U yerda ko'plab qasrlar, cherkovlar, a'yonlarning uylari bo'lgan. Taraqqiyot darajasi XIV asr uchun yuksak bo'lgan. Poytaxt Nara shahridan Kiotoga ko'chgach tushkunlikka uchragan. Keyinroq bu yerda feodal jamiyat uchun odatiy bo'lgan Todaydzi va Kofukudzi deya nomlangan budda monastirlari qo'rg'onlari va Kasugadzindzya sintoiylik cherkov binosi qurilgan. Shaharlarda mahsulot monopoliyalari ham vujudga kelgan. 1343-yilda Gion cherkovi hududida bir necha birlashgan uyushmalar, baliq, qush, turli don mahsulotlari yetkazib beruvchi uyushmalar vujudga kelgan. Zamonaviy Yaponiyaning Nagano, Narita, Yamada, Ise, Isiyama, Yamasina singari ko'plab yirik shaharlari o'z qiyofalarini aynan monastirlar qo'rg'onlaridan olgan.

Ayni shu XIII asrda yirik feodallar qarorgohlari atrofida ham shaharchalar vujudga kelgan. Bu shaharlarning aholisi – jangchilar, ayni shu feodallarning odamlari bo'lgan.

XV–XVI asrda eng qudratli viloyat hukmdorlari o'z saroylarini haqiqiy qasrlarga, qo'rg'onga aylantirgan. Uning atrofida shahar aholisi tez sur'atda ko'paygan. Unda yashagan jangchilar va ularning oilasi xo'jaliklar, savdogarlar, monaxlar va qishloqlardan ish izlab kelganlar hisobiga ko'paygan. Zamonaviy Yaponiyaning Nagoya, Xirosima, Kanadzava, Vakayama, Ximedzi va boshqa shaharlari aynan shunday qal'alar atrofida vujudga kelgan. Aynan uchinchi tipdagi shaharlar ko'paya boshlagan.

Minamoto syogunligi o'rnatilgandan so'ng savdogar va mulk egalarini birlashtirgan xo'jaliklar – *dza* faoliyati keng quloch yozgan. Ayniqsa, XIII asrda Xeyyan va Narada dzalar faoliyati rivojlana boshlagan. Ular ma'lum bir hududda ma'lum bir mahsulotni yetkazib berish huquqiga ega bo'lgan.

Poytaxt va viloyatlarda bozorlar tashkil etilgan. Dastlab xalq bayramlarida savdo qilishgan bo'lsa, keyinroq har kuni savdo-sotiq amalga oshirilgan.

Yaponiyada mahsulotlar yetkazib beradigan tashkilotlar uyushmasi vujudga kelgan. Ular monastirlar, feodallar mulklarida uyushib, u yoki bu mahsulotni yetkazib berish yoki sotish huquqini olib, ma'lum bir hududda faoliyat yuritgan.

Asikaga hukmron doiralari bu tashkilotlarga qarshi kurash olib borgan. Chunki, bu uyushmalar ta'siriga nafaqat dehqonlar, balki hukmron sulola vakillari ham tushib qolgan. Ularning barcha mulklari bekor qilingan. Masalan, syogun Yosimasa davrida bir oyda 9 marta ularning huquqlari va mulklari cheklab qo'yilgan. Shunday bo'lsada, ularning boyligi ortib borgan.

Tashqi savdo XIV–XV asrda rivojlangan, bu jarayonda qaroqchilar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ular XI–XII asrlarda paydo bo'lgan. O'sha vaqtda ular Yapon dengizining ichkarisida, Xonsyu, Kyusyu, Sikoku orollari oralig'ida faoliyat yuritgan. Ichki urushlar vaqtida qaroqchilar xizmatidan foydalangan. Keyinroq ular Xitoy va Koreya qirg'oqlarigacha bo'lgan hududda qaroqchilik qilgan. Ushbu hududlardan tashqari ular Malakka yarim oroli, Filippin, Dayvetta, Kxmerlar hududi va Siamda ham namoyon bo'lgan. Xitoy bilan savdo alohida o'rin tutgan, uni yapon hukumati va feodallar olib borgan, elchilar yordamida 10–15 ta kemada mahsulotlar ayriboshlagan. Syogun bu ishni buddaviylik monastiriga topshirgan, evaziga monastirga foiz to'lab turgan.

Yaponiyadan Xitoyga yetkaziladigan tovarlar orasida qurollar, ayniqsa, qilichlar qadrlangan. Xitoydan asosan ipak, mato, mis tangalar olib kelingan. Mis va oltin Xitoyda besh barobar arzon turgan, paxta esa Yaponiyada ikki barobar qimmat bo'lgan, ipak matodan ham katta foyda olingan. Xitoy bilan savdoga janubdagi feodallar ham syogun bilan birgalikda faol aralashishga intilgan. Bu savdoda Kamakura emas, mamlakatning janubi-g'arbidagi viloyatlar, Xitoy va Koreyaga yaqin hududlar alohida o'rin tutgan. XIII asr oxiri – XIV asrda Yaponiyaning g'arbidagi Suruga, Xakata va Osakada yirik portlar paydo bo'lgan.

Savdodan tushgan foyda natijasida Sakai, Xakata kabi shaharlar o'z-o'zlarini boshqaruvchi o'z harbiy askarlariga ega alohida kichik davlatlarga aylangan. Yirik feodallar tog'lardan kovlab olinayotgan oltin va kumush konlari mavjud bo'lgan Sado va Kyusyu, oltin olinadigan Koy va Sinmo viloyati konlarga homiy bo'lib olgan.

Feodal zulmining kuchayishi va dehqonlar qo'zg'olonlari. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va sulolalar urushining kuchayishi XIV asrda yirik feodallarning hududlarini yanada kengayishiga olib kelgan. Kichik yer egaligi qisqarib borgan,

chunki samuraylar iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishi natijasida ular kattaroq feodaldan siyosiy va iqtisodiy homiylik soʻragan. Yirik feodallar oʻz hududlarida boʻlgan samuraylarning yerlarini turli yoʻllar bilan egallab olib, dehqonlarni ekspluatatsiya qilishni kuchaytirgan. Feodallar oʻz qasriga yoki unga yaqin mulklariga samuraylarini joylashtirgan, bu qoʻshin bilan u xohlagan vaqtda qoʻshni feodal mulklarini egallab olishi mumkin edi. Oʻzaro urushlar samuraylarni xoʻjayinlaridan ancha vaqt uzoqlashtirib qoʻygan.

Feodallar dehqonlarga qattiq zulm oʻtkazgan. Dehqon feodal yoki samurayga rentani mahsulot bilan toʻlagan. Yer egaligi mustahkamlanishi bilan ishlab berish majburiyati oʻz ahamiyatini yoʻqota boshlagan. Barshchina majburiyati feodal yeridagi yoʻllar qurilishi va sugʻorish inshootlarini qurishga jalb etilishi bilan almasha boshlagan. Rentaning miqdori XVI asrga kelib dehqon olgan hosilning yarmidan koʻpiga, yaʼni 50–60%ga yetgan.

XV asrning ikkinchi yarmiga kelib yer egaligi munosabatlari keskinlashgan. Feodallarning oʻzaro urushlari dehqonlar yerlarida olib borilganligi dehqonlarning doimiy mashgʻulotidan ancha uzoqlashishiga sabab boʻlgan. Hosil olinishi keskin kamaygan. Ishlov berilgan yerlar 50 ming gektarga yaqin kamaygan, bu esa barcha yerlarning 5% dan ortigʻini tashkil qilgan. Dehqonlar oʻz yerlarini tashlab, oʻrmonlarga, katta savdo yoʻllariga, shaharlarga talonchilik orqali pul ishlash uchun ketib qolgan. Xonavayron boʻlgan dehqonlar oʻz farzandlarini oʻldirish yoki ularni sotish, qizlarni fohishalik uylariga, oʻgʻil bolalarni monastirlarga sotgan, dehqonlar qarshiliklarining asosiy turi – qoʻzgʻolonlar boʻlgan. XV asrning birinchi yarmidan oʻrtalarigacha tinimsiz ravishda shunday qoʻzgʻolonlar boʻlib, ular dehqonlar urushiga aylangan. Koʻpgina hollarda qoʻzgʻolonchilar qarzlarni bekor qilishni talab qilgan. Bunga misol qilib 1428-yilda Kioto va Naradagi gʻalayonlarni keltirish mumkin. Lekin baʼzida qoʻzgʻolonchilar feodallarning oʻzlariga qarshi chiqqan. Bunday qarshilik 1428-yilda janubi-gʻarbiy viloyatlarda Xarima, Ise, Tamba, Sudu, Iga hududlarida ham boʻlib oʻtgan. Qoʻzgʻolonchilarning shiori «Mamlakatda samuraylar qolmasligi kerak» ostida boʻlgan. Koʻplab qarshiliklar shahar kambagʻallari, shuningdek, kambagʻal samuraylar boshchiligida boʻlib, ulardan biri 1441-yilda daydilar deb atalgan samuraylar –

ronmlar boshchiligida boʻlib oʻtgan. Qoʻzgʻolonchilar cherkovlarda mustahkamlanib olib, bandargohlarni yopib, Kiotoga mahsulot yetkazib berishga chek qoʻygan. Baʼzida qoʻzgʻolonchilar shunday kuchli va keng koʻlamda boʻlganki, ularga qarshi yuborgan qoʻshinni yengib, uzoq vaqtgacha qarshilik koʻrsatgan. Shundaylardan biri 1485-yilda poytaxt yaqinidagi Yamasiro viloyatida boʻlib oʻtgan va 7 yil davomida samuray hamda dehqonlar qoʻlida mustaqil boʻlgan. Yamasiro iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan hudud boʻlib, guruch, choy, ipak yetishtirish yuqori boʻlgan. Bu mahsulotlar bilan Kioto va Nara kabi shaharlar taʼminlab turilgan. Aynan shu hudud orqali mahsulotlar tranzit tarzda oʻtgan.

Boshqa hududlar kabi Yamasiroda ham XV asr davomida feodallar oʻrtasidagi yer-mulklar uchun oʻzaro urushlar kuchaygan. Mazkur holat dehqonlarning busiz ham ogʻir ahvoliga jiddiy zarba bergan. Natijada dehqonlar birlashib, Nodol guruhlariga qarshilik koʻrsatgan, baʼzi hollarda jiddiy zarbalar ham bergan. 1485-yilning oxirida dehqonlarning mamlakat boʻylab yigʻilishi natijasida feodallardan darhol urushni toʻxtatish, qoʻshinlarni olib chiqib ketish va tortib olingan hududlarni egalariga qaytarishni talab qilgan.

Qoʻzgʻolonning birinchi bosqichida 1485–1487-yillarda dehqonlarning barcha qatlami, mulkdorlar, mayda savdogarlar, nochor samuraylar qatnashgan. Qoʻzgʻolonchilarning maxsus ijro etuvchi idorasi – «xalq yigʻilishi» 36 kishidan iborat boʻlib, muhim ishlarni hal qiladigan yigʻin boʻlgan. Ular soliqlarni tartibga solgan. Davlatni xalq tuzgan, tartibga rioya etmaganlar esa qattiq jazolangan. Qoʻzgʻolonchilar qudratidan qoʻrqqan feodallar oʻz qoʻshinlarini viloyatdan olib chiqib ketishga majbur boʻlgan. Shundaydek, Yamasirodan syogun mansabdorlari ham ketib qolgan. Qoʻzgʻolonning ikkinchi bosqichida 1488-yildan boshlab dehqonlarning hukmron boʻlib olgan qismi oʻz mansabidan foydalanib qolgan, yaʼni soliqlar yana oshirilib, chegara nazorati oʻrnatilgan. Boʻlib oʻtgan qoʻzgʻolonida oʻzining ishtirokini berkitish uchun feodallar bilan kelishuv rejasini tuzishadi, lekin «qaysi feodal bilan muzokara olib borish kerak?», degan savolga javob yoʻq edi.

«Xalq yigʻilishi» qoʻzgʻolonchilarni oʻziga qarshi chiqa boshlagan va ularni tan olmasdan 1493-yilda deyarli tarqalib ketgan. Bu vaqtga kelib unga qarshi kuchlar yigʻilayotgan edi. 1494-yilga kelib

qo'zg'olonchilarning oxirgi qismi yo'q qilingan. Yetarli darajada uyushmaganlik, kurashning aniq maqsadlarining yo'qligi, ayniqsa siyosiy jihatdan bilimlarning yo'qligi – qo'zg'olonning o'ziga xos qismidir. Unda dehqonlarning tartibsiz chiqishlari yaqqol namoyon bo'lgan.

Feodal madaniyatning rivojlanishi. X–XI asrlarda Yaponiya madaniyati ma'lum darajada rivojlangan. XI asrda ularning o'z yozuvlari ustun xat – *kanani*, vaqtinchalik Xitoy iyerogliflariga almashtirgan. Undan hozirgacha Yapon matnlarini fonetik tahlil qilishda qo'llaniladi. Milliy yozuvning vujudga kelishi badiiy adabiyotning keng ko'lamli rivojlanishiga, lirik she'riyatning qaror topishiga, proza, povest va romanlarning yaratilishiga xizmat qilgan. 925-yilda «*Kokinewu*» – she'rlarning yirik to'plamlaridan iborat IX asr oxiri – X asr boshlarida yashagan shoirlar tomonidan shu nomdagi antologiya yaratilgan she'riyatda obrazlarni keng ko'lamda qo'llab o'zlarining maxsus badiiy usullarini yaratgan. Shoirlarning ko'pchiligi zodagonlar tabaqasiga mansub bo'lgan, lekin ba'zilar xalq qashshoqligiga hamdard bo'lgan. Lekin ularning she'rlarida muhabbat rishtalari, tabiat xohishi, taassurot ko'proq o'rin egallagan. Shoirlar xalq dardiga hamdardligini *tanka* usulidagi 31 baytdan iborat kichik she'rlarida ifodalagan.

Proza – yapon adabiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ular xalq afsona va ertaklarini qo'llagan, lekin asosiy e'tibor saroy ahliga qaratilgan. X asr oxiri – XI asr boshlarida «*Genzi – mongateri*» (Genzi haqida hikoya) romani imperator xotinning ishonchli maslahatchisi Murosaki Sikibu tomonidan yozilgan. Ikkinchi yirik asar – «*Makuranososi*» (Yostiq ostidagi maktub) saroy a'yoni bo'lgan Sey Syanagoy tomonidan yozilgan. Bu ikki asar yapon adabiyatining klassikasiga aylangan. Lekin ushbu davr adabiyotining kamchiligi faqat yuqori qatlam vakillari ifodalanganligida edi. Xalqning o'z she'riy usuli bo'lgan. Bu og'zaki uslub bugungi kungacha yetib kelgan.

Mamlakatni ko'plab shaharlari, jumladan, poytaxtda Xeyyan saroyi va uyi bronzadan ishlangan badiiy san'at asarlari bilan jihozlangan. Arxitektura rivojlangan, uning namunalari bizga saroy va cherkov imoratlari namunasida yetib kelgan.

XII–XIV asr boshlarida siyosiy hokimiyatning harbiylar qo'liga

o'tishi va sulolalar urushi davrida madaniyatning yangi turlari vujudga kelgan. Ayniqsa, samuraylar jasorati haqidagi hikoyalar ko'paygan. Bunday hikoyalarning jamlanmasi «*Xeyke – monogatori*» (Tayra haqida rivoyat) deb nomlangan. Tayra va Minamotoning kuni. «*Taravki*» (Buyuk dunyo haqida rivoyat nomli) XIV asr burchi yammi haqida hikoya qiluvchi jamlanmadir. Bundan tashqari buddavaylar cherkovi diniy ishlarni amalga oshirishda o'z adabiy uulim yaratgan. Teatrning gullab yashnashi XV asrga borib taqaladi.

Mavzuga doir savollar:

1. Svoenlar haqida nimalar ma'lum?
2. X–XV asrlarda Yaponiyada yerga egalik qilishning qanday turlari kenp tarqalgan edi?
3. Bu davrda yuz bergan dehqonlar qo'zg'olonlarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar qaysilar?
4. Fudzivaralarga qarshi kurashda imperatorning tayanch sifatida buddizm va uning ruhoniylarini tanlashi qanchalik samarali bo'lgan?
5. Svoqunlar hokimiyatini shakllantirgan omillarning sabab va oqibatlari qanday bo'lgan?

XI BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA KOREYA

Koryo davlatining tashkil topishi. IX asr oxirida qadimgi Silla davlati federatsiyasi mustaqil feodal mulklariga bo'lingan. Davlat yerlarining amaldorlar va ruhoniylarga bo'lib berilishi va mustaqil feodal merosiy yer egaligi – *chanvon*larning tashkil topishi markaziy hokimiyatni zaiflashtirgan. Katta mulk egalari markaziy hokimiyatdan yanada mustahkam bo'la boshlagan. Katta yerlarni egallagan Budda monastirlari ham butkul mustaqillikdan foydalangan, yerlik feodal – *yonchjular*, xristianlar ustidan hukmronlik qilish huquqiga ega bo'lgan. Ularga shaxsiy ko'ngilli qo'shin yana o'zaro kurash olib borish uchun ham kerak bo'lgan. Dehqonlarning ahvoli Silla hukmdorlari qo'lida ham, feodallar qo'lida ham yomon bo'lgan.

819-yilda dehqonlar harakatlari keskin tus olgan. 896-yilda poytaxt Kyonchju devorlari ostida dehqonlar qo'zg'olon boshlagan. Harakatchilar zodagon va amaldorlarni bo'ysundirgan. Nisbatan yirik feodallar o'zlarini mustaqil deb e'lon qilgan. 900-yilda orolning janubi-g'arbiy qismida Xupekche davlati (So'ngi Pekche) tashkil topgan. Koreyaning markaziy qismida (hoz. Chxolvan tumani) Txebon davlati tashkil topgan Silla hokimiyati esa bir necha kichik tumanlardangina iborat bo'lib qolgan.

Dehqonlar harakatlari hukmron tabaqani qo'rquvga solgan va kuchliroq hukmdor topilib, xalqni boshqarishini istar edilar. Navbatdagi janglar natijasida katta yer egasi Van Gan keyinchalik u davlatni birlashtirgan va davlat hukmdori bo'lgan. 918-yilda bu davlatning nomi Koryoga almashtirilgan. Ko'p feodallar Van Ganga bo'ysungan. Chunki, u boshqalarga nisbatan kuchliroq bo'lgan. bo'ysunmaganlarni esa u kuch bilan itoatda tutgan. 936-yilda Van Gan So'ngi Pekcheni bo'ysundirib, butun Koreyaning hukmdori bo'lgan.

Yakka feodal davlatning vujudga kelishidagi muhim bir sabab, tashqi hujumlar bo'lgan. 926-yilda Boxay davlatini bosib olgan Kidoni shimoli-sharqiy Xitoy va Koreyaning ashaddiy dushmani bo'lib qolgan. Yangi tashkil topgan Koryo uchun shimoliy chegarani kuchaytirish asosiy masala bo'lgan. Butun shimoliy chegaraga himoya devori tashkil etilgan.

Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan sharqiy davlat tizimi

tashkil topgan. Sanjon (982–997) davrida davlat boshqaruvi shakllangan. Asosiy davlat boshqarmasi vujudga kelgan va 12 viloyat, 10 ma'muriy hududga bo'lingan. Mamlakat xavfsizligi va davlat bilan harbiylar qo'lida bo'lgan. Harbiylarning asosini esa davlatga bo'yunovchi dehqonlar tashkil qilgan va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lganlar harbiy xizmat qilishga majbur bo'lganlar. Qo'shindagi dehqonlarni hamqishloqlari moddiy tomondan qo'llab turgan. Odatda, 4-5 xonadondan bir askar olingan, boshqalar esa uni va oilasini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozim bo'lgan.

Biroq, mamlakatning markazlashishi tekis bo'lmagan. Keyinchalik ham katta yer egaligi va buddaviylikka e'tiqod qilgan. Markaziy davlatni tashkil topishi uchun tashqi dushmanlarning kurashi ham to'sqinlik qilgan. Asosiy xavfli dushmanlar – *kidanlar* Lao imperiyasini tuzib, Xitoy va Koreyani bosib olmoqchi bo'lgan. 993 yilda kidanlarning ko'pchilik qo'shini Amnokan daryosidan o'tib, Koryoga bostirib kirgan. Chxonchxongan daryosi yonida kidanlar qattiq qarshilikka uchrab, ortga qaytishga majbur bo'lgan. Lekin, bu bilan kidanlarning harakati to'xtamagan. Koryoning ichki kurashlaridan foydalanib, kidanlar 1010-yilda yana ko'p sonli qo'shin jo'natgan va Koryoning poytaxti Kegyoni bosib olib, u yerini talon-taroj qilgan. Biroq, shimoldagi Koreys jangchilarining harakatlari bosqinchilarni ortga chekinishga majbur qilgan. 1018 yilning qishida 200 minglik kidan qo'shini chegarani buzib o'tib, yana Koreya poytaxtiga bostirib kirgan. Ular qo'mondon Kan Gam Chxon tomonidan qattiq qarshilikka uchragan. Shimoliy tumandagi Koryo jangchilari 1019-yilda kidanlarga qattiq zarba bergan. Ular o'rtasida sulh tuzilib, Koryo hukmdori tomonidan Lyao kidan imperiyasi tan olingan.

Koryoning XI–XII asrlarda ijtimoiy ravnaqi va madaniy hayot. Mamlakatning birlashishi va kidanlar bilan ittifoq Koreya iqtisodini rivojlanishiga, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning pullab yashnashiga olib kelgan. Kidanlar tomonidan buzib tashlangan viloyatlar yana taraqqiy eta boshlagan. XII asr boshlarida Xitoy sayyohi Syuy Szin dehqonchilikning Koryo bo'yicha keng tarqalganligidan guvohlik beradi. Uning ma'lumotiga ko'ra, hatto top'li zonalarda ham sholi ekilgan.

Davlatning iqtisodiy asosini dehqonlarning mehnati tashkil

etgan. Dehqonlar yuridik holatiga qarab ikkiga bo'lingan. Uning katta qismi «yanin» – yaxshi odamlar hisoblangan. Ular oddiy ozod davlat yerlarida ishlovchi odamlar bo'lgan. Ikkinchi qismi esa «chxonin» – yomon yoki yaramas kishilarga bo'lingan. Ular ozod odam bo'lmay, bo'ssunuvchi dehqonlar hisoblangan.

Dehqonlar renta solig'ini to'lar, davlat ishlari va harbiy xizmatni o'tagan. Yer solig'i olingan hosilning 1/10 dan 1/11 gacha miqdorida to'langan. Ayrim hollarda uning hajmi ko'paygan. Dehqonlardan yana qo'shimcha soliqlar: donni poytaxtga olib borgani uchun, yo'lda himoya qilish uchun, to'y uchun, podsho oilasidan biror kishi o'lsa ko'mish uchun, xorijlik elchilari kelishi uchun soliqlar undirilgan. Shaxsiy yerlarda renta solig'i hajmini feodalning o'zi belgilagan.

XI–XII asrlarda shaxsiy yer egaligi o'sa boshlagan. Yirik feodallar va Budda monastirlari, podsho saroyi a'zolari davlat yerlarini dehqonlar bilan birga qo'shib ola boshlagan. Ba'zida feodal merosiy mulklari davlat yerlarida ishlovchi dehqonlarni katta va'dalar berib o'zlariga og'dira boshlagan. Lekin, bu va'dalarga ishongan dehqonlar tezda erkin dehqonlardan qaram dehqonlarga aylanib, qattiq ishlatilgan.

Davlat majburiyatlariga, nafaqat dehqon mahsulotlari, balki uyda tayyorlangan mahsulotlar, hayvon terilari, baliqlar ham to'langan. Bu barcha narsalar hukmron tabaqaning manfaatlarini qondirmagan. Kerakli qazishmalarni topish, tuz topish, metallni qayta ishlash, qurol, shisha ishlab chiqarish, har xil taqinchoqlar bularning barchasini maxsus hunarmandlar ishlab chiqargan. Poytaxt va yirik shaharlarda davlat hunarmandchilik ustaxonalari mavjud bo'lgan. Ustaxonalarda davlatga qarashli dehqonlar ishlagan. Hunarmandlarning kasb-hunari avlodlariga meros bo'lib o'tgan. Ichki savdo ham yaxshi rivojlangan. Poytaxt va yirik viloyat shaharlarida butun bir savdogar mahallalar bo'lgan. Ko'p joylarda bozorlar tashkil etilgan. Ushbu bozorlarda dehqonchilik tovarlari hunarmandchilik mahsulotlariga almashtirilgan. Savdo va hunarmandchilik tarmoqlari davlatning qattiq ta'qibi ostida bo'lgan.

Tashqi savdo hunarmandlar uchun yaxshi daromad manbai hisoblangan. Koryo Xitoy jurjanlari va Yaponiya bilan ancha kuchli savdo olib borgan. 1024 va 1040-yillarda Koryoga arab savdogarlari

kelib kelgan. Ular dorivorlar va boshqa narsalar olib kelgan hamda oltin, kumush, ipakka almashgan. Koryo Sun davlati bilan e'tiborga molik savdo olib borgan. U yerdan turli xil matolar, qimmatbaho qurum va boshqa narsalar olib kelingan. Koreya savdogarlari Xitoydan jenshen va kamyob dorilar, asal va kumush, qog'oz va hokazolar olib kelgan. Jorjanlardan koreyslar teri, ot, yung, o'q va kamonlar sotib olingan. Yaponiyadan asal olib kelib, hunarmandchilik mahsulotlarini ularga sotgan.

Ichki va tashqi savdoning qanchalik mujmalligiga qaramay, savdogarlar o'zaro ijtimoiy kuch hisoblanmagan. Ular feodal va Budda ibodatxonalarining vakili sifatida mavjud bo'lib, feodallar ularni qattiq nazorat qilgan.

Koreya davlatida, ayniqsa, XI asr ikkinchi yarmida feodal madaniyat asosiy o'rinni egallagan. 985-yilda amaldor mansabiga o'tish uchun davlat imtihonining xitoycha usuli ishlab chiqilgan. 992-yilda esa hukmdor amaldorlar uchun oliy konfutsiylik maktabi ochilgan. XI asrda saroy kutubxonasida juda ko'p konfutsiylik adabiyoti va bir necha ming Xitoy kitoblari mavjud bo'lgan. Konfutsiy olimlarining harakati bilan shaxsiy maktablar ham ochilgan. Ular ichida 1055-yilda tashkil etilgan maktab ancha mashhur bo'lgan.

Mazkur davrda buddaviylik roli ancha yuksalgan. Budda cherkovi a'zolari davlat ishlariga tez aralashgan. Podsho Munchjon (1047–1083) davrida 60 yil davom etgan «Techanchyon» budda adabiyoti maqomiga yetkazilgan. 1097-yilda Kegyon atrofida Xinvonsa Budda maqbarasi qurilishi nihoyasiga yetgan. Bu maqbarada mingta monax bo'lgan. Mo'g'ullar tomonidan Xinvanga buzib tashlangan va yoqib yuborilgan.

Budda adabiyotining yirik nashrlari kitob bosish ravnaqiga turtki bergan. XIII asr yozuvchisi Li Kyu Bo ma'lumotiga ko'ra, «Sanjon yomon» (Qadimgi va hozirgi boshqaruv xaqida kitob) kitobi 1234-yilda yozilgan. Bu kitobda Koreya davlati muassasalari haqida ma'lumot berilgan.

XII asrlardagi siyosiy va ijtimoiy kurash, dehqonlar harakati. XII asr boshlariga kelib Koreya davlati zaiflasha boshlagan. Buning asosiy sababi, feodallar, Budda monastirlari va yirik amaldorlar tomonidan davlat yerlari hamda dehqonlar davlatdan tortib olingan edi. Davlat yer fondining qisqarishi bilan XI asr ikkinchi yarmida

davlat turli majburiyatlardan voz kechishga majbur bo'lgan. Lekin, shunga qaramay, ba'zi bir xizmatlari uchun yer in'om etish to'xtamagan.

Yirik feodallar o'zlarining shaxsiy qurollangan guruhlarini tuzganlar. O'zaro kurashlar boshlanib ketgan. 1126-yilda harbiy kurash poytaxt Kechen ko'chalarida tarqalgan. Bu kurashga hokimiyatni egallash uchun feodal Li Cha Gyoma boshchilik qilgan. Bu kurash hatto tashqi jurjanlarning bosqini tufayli ham to'xtamagan. Jurjanlar bilan kurashda mamlakatning shimoli-g'arbiy qismidagi feodallar Monax Myoxonam boshchiligida podsho qarorgohini Sogyon (Pxenem)ga ko'chirishni talab qilganlar. Poytaxt zodagonlarining qarshiligiga uchragan feodallar ochiqchasiga shimoli-g'arbiy tumanda alohida davlat Pevichuk (Buyuk mo'jizalar davlati)ni tuzishlarini e'lon qilganlar. Feodallarning kurashi dehqonlar harakatiga turtki bergan. Feodal Kim Bu Sin boshchiligida dehqonlar harakatini to'xtashi bilan davlat bu barcha harakatlarga ham barham bergan.

1175-yilda Janubiy Koreyada Myonxvakso qishlog'ida davlatga qaram dehqonlar bosh ko'targan. Man boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Kyonchju shahrini egallagan. Poytaxtdan jo'natilgan uch ming kishilik guruh qattiq zarbaga uchragan. Shuning uchun bu guruh ularga yon bosib Menxvaksoda yashovchi aholini dehqonchilikdan ozod qilganlar. Podsho Man I bilan gaplashguncha hokimiyat qo'zg'olonchilarga qarshi yangi qurolli guruh tayyorlagan. Bundan xabar topgan Man I hukumat jangchilari bilan kurash boshlagan va poytaxtga xavf solgan. Bir vaqtning o'zida mamlakat janubi va shimolidan qolgan dehqonlar ham qo'zg'olon ko'targanlar. 1117-yilda Man I saroyga kelishuvga chaqirtirilib ushlangan va o'ldirilgan. Shimolda Kim Dana boshchiligidagi kurashlar ham to'xtagan.

1193–1194-yillarda Kim Sa Mi, Xe Sima va boshqalar boshchiligida dehqonlar qo'zg'olonlarining yangi to'liqini ko'tarilgan. Mazkur qo'zg'olonlar feodal hokimiyatni kuchsizlantirgan.

Feodal harbiylar bo'lgan Chxve Chxun Xan hokimiyatga kelgach, dehqonlarga qarshi kuchli harakat boshlangan. Natijada XIII asr boshlarida yangitdan dehqonlar qo'zg'olonlari ko'tarilgan.

Koreya xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi. Mo'g'ul istilochilari Koreyada birinchi marta 1218-yilda paydo

bo'lgan. Ular Koreya hukumatidan juda katta o'lpon talab qilganlar. 1225-yil Koreyadan qaytayotgan elchining o'ldirilishi mo'g'ul va koreys munosabatlarini keskinlashishiga sabab bo'lgan. 1231-yilning yozida mo'g'ullar Salitoy boshchiligida Koryoga bostirib kirgan va xalqning qattiq qarshiligiga uchragan. Kuchju (Kuson) himoyachilari 30 kun davomida mo'g'ul qo'shiniga qarshilik ko'rsatgan. Chxunchju shahri himoyachilari mo'g'ul jangchilarining mamlakat janubiga yurishlarini to'sib qo'ygan. Biroq, poytaxtga hujum arafasida hukmron tabaqa Chxve boshchiligida bosqinchilarga yon bosishgan va sulh tuzilgan. Unga ko'ra, koreyslar katta o'lpon, kiyim kechak, matolar to'lashlari kerak bo'lgan.

1232-yil mo'g'ul jangchilarining janubiy qismi katta o'lja – oltin va kumush bilan Mo'g'ulistonga qaytishgan. Koryoda ham mo'g'ul jangchilaridan bir guruhi qolgan. Mo'g'ullar koryoliklarga yangi poytaxt Kandoni qurdirganlar.

Mo'g'ullarning butun og'irligi xalq gardaniga tushgan. 1232-yil Kechyonda qaram dehqonlarning va davlatga qarashli dehqonlarning qo'zg'oloni boshlangan. Ular shaharda qolgan zodagonlarni yo'q qilib, ularning boyligini kambag'allarga bo'lib bergan va Kandoga vashiringan feodallarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan. Hukmron tabaqa bu harakatni to'xtatgan. Bu harakatlar keyingi yil Sochyon, Tongyoda (Kyonchju), Nanchjuda va boshqa joylarda bo'lib o'tgan. Lekin, bularning barchasi hukmron tabaqa tomonidan bostirilgan.

Mo'g'ullarning o'ldirilishi va feodallar Kandoga qochishiga javoban 1232-yil oxirida yana Mo'g'uliston jangchilari Koryoga yurishga majbur bo'lgan. Keyingi 20 yil davomida yana besh marta bosqinchilik, talon-taroj yurishlari sodir etilgan. 1253-yil bir amaldor podshohga aholining har o'n kishisidan faqat ikki kishigina tirik qolganini aytgan. 1254-yilda bosqini natijasida 207 ming kishi asirga olingan va olib ketilgan.

Oqibatda, hokimiyat Kechyonga qaytib mo'g'ullarni tan olishga majbur bo'lgan. Yana mamlakatda mo'g'ul jangchilari to'lib ketgan. Mamlakatning janubiy qismida esa mo'g'ullarning harbiy qishloqlari paydo bo'lgan. Feodallar mo'g'ullarning istaklarini so'zsiz bajo keltirgan.

Bunday holat mamlakatni oyoqqa turg'azgan. Shunda davlat

dehqonlari va dehqonlardan tashkil topgan «uch asosiy guruh» qo'zg'olon ko'targan. Ular mamlakatni Chxve sulolasidan chiqqan podsho boshqarishini talab qilishgan. Qo'zg'olonchilar hukmron sulolaning bir a'zosini podsho etib saylagan. Mingta mayda kemalarda ular Chindo (keyincha Chechjudo) oroliga suzib kelishgan. Qo'zg'olon uch yil davom etgan. Mo'g'ullarning yordami bilan hukumat Chechjudodagi qo'zg'olonni bostirgan. Natijada, hokimiyat mo'g'ullar qo'liga o'tgan.

Mo'g'ul imperatori Xubilayxon Koreyadan Yaponiyani bosib olishda tayanch nuqta sifatida foydalanmoqchi bo'lgan. 1274-yilgi yurishning o'zida sakkiz ming koreys jangchilari va olti ming yetti yuz dengizchi qatnashgan. Ikkinchi yurish paytida (1281) mo'g'ullar 900ta kema talab qilgan. Koreys xalqini tinch ushlab turish maqsadida mo'g'ullar o'q-yoy ishlab chiqarishni man etishgan. Ular Koryo davlatidan ikki: shimoli g'arbiy – Tonnyobu va shimoli sharqiy – Ssanson chxongvanbu viloyatlarni tortib olgan. Koreys feodallari keyinchalik mo'g'ul qizlariga uylangan va Yuan imperiyasi poytaxti Pekinda yashay boshlagan. Shu bilan mo'g'ullar ularni o'z iznlarida saqlab turishgan.

Li sulolasi paytida markaziy feodal davlatni mustahkamlash.

1392-yilda Koryoning oldingi hukmdorlaridan Li Son Ge o'zini imperator deb e'lon qilib, yangi sulolaga asos solgan. Uning davrida davlat Choson nomi bilan atala boshlagan. Poytaxt esa Seulga ko'chirilgan. Bu sulola Koreyada 1910-yilgacha hukmronlik qilgan. Yangi sulola hukmdorlarining siyosati markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan. Li hokimiyati bir necha bor (1392-, 1402-, 1424- yy.) Budda yerlari va dehqonlarga yirik musodaralar e'lon qilgan. Natijada ko'plab cherkov yerlari davlatga qaytarilgan.

Li Son Ge davrida markaziy davlat boshqaruvining tizimi ishlab chiqilgan va u keyinchalik XV asrning 60-yillarida «Kyongun Pechjon» nomini olgan. Mamlakatni boshqarish ko'p sonli hokimiyat tashkilotlari qo'lida bo'lgan. Ulardan asosiylari oliy boshqaruv kengash va olti bo'limdan iborat bo'lgan. Mamlakat sakkiz viloyat – «do»ga bo'lib boshqarilgan. Ularning har biri okrug va tumanlarga bo'lingan. Har bir volost bir nechta qishloqlardan iborat bo'lgan. Harbiy xizmatchilar aholining 16 dan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklaridan iborat bo'lgan. Mamlakatning tashqi holati

ham yaxshilangan. Min sulolasi bilan shartnoma tuzilgan. Shimolda jupanlar bilan ham yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilgan.

Yaponiya bilan munosabatda Li sulolasi Asinoga sulolasining voyunlari bilan yaxshi aloqa o'rnatgan. XV asrning birinchi yarmida poytaxt va «Uch jon viloyati»da 50 ta harbiy bandargoh tashkil etilgan. Koreyaning harbiy kuchlari mustahkamlangach yapon qaroqchilarining bosqinlari to'xtagan. Koreya Yaponiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ya boshlagan. 1443-yilgi shartnomaga asosan, Yapon savdogarlari janubiy uchta portga kiritilgan, xolos. Shu jumladan, Pusanga ham, lekin, kema va savdogarlar soni belgilab qo'yilgan.

XV asrning birinchi yarmida iqtisodiy o'sish va madaniyatning rivojlanishi. Mamlakatning mustahkamlanishi va yangi feodal tizimning tashkil topishi bilan Koreys madaniyati va ishlab chiqarish rivojlana boshlagan.

1429-yilda qishloq xo'jaligini boshqarish haqidagi kitob «Nanse chikso» yaratilgan. Bu kitob Chan Chxo va boshqalar tomonidan yaratilgan. Astronomik qarashlar uchun yangi asbob ishlab chiqilgan. Aniq vaqtni o'lchash uchun ham har xil asboblari o'ylab topishgan.

Hunarmandchilik ham rivojlangan. Ustaxonalarda qurollar tayyorlangan. Ustaxonalarning soni olti mingta bo'lgan. Poytaxt hunarmandlari ko'p ishlar bilan (temirni qayta ishlashning 130 xili, suyak, teri, daraxt mahsulotlariga ishlov berish) shug'ullanganlar.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozorlarga olib chiqilgan. Biroq, ko'p savdogarlar hukmron tabaqa manfaatiga xizmat qilganlar. Keyinchalik poytaxt Seulga ko'chishi bilan hokimiyat ko'p ko'chalarni (1399-yilda 800 savdo shahobchasi) savdo do'konlari uchun ochib bergan. Ular feodallar manfaatini qondirib, savdo huquqini qo'lga kiritgan.

Sechjon davrida (1419–1450) Saroy akademiyasi «Donishmandlar uyi» tashkil etilgan. Bu yerda asosan konfutsiylik ta'limotlariga asoslangan etika va huquqiy savollar muhokama qilingan. Saroy ziyolilari «Koryo tarixini» yaratishgan. Qattiq nazorat ostida juda ko'p bilimlar kengaygan. Olimlar tibbiyot, astronomiya, matematika, qishloq xo'jaligi, geografiya, fizika sohalarida ko'plab yangiliklarni qo'lga kiritganlar. Buyuk olimlar keyinchalik hokimiyatda ham yuqori o'rin egallay boshlashgan.

Kitob bosishda metall shriftlardan foydalanish kitob bosishdagi va madaniyat tizimidagi yangiliklardan biri bo'lgan. Bu davrda 28 harfdan iborat alfavit vujudga kelgan. 1443-yilda vujudga kelgan bu alfavit saroy ziyolilaridan bo'lgan Chan In Chji tomonidan «*Xunmin chonim*» (aholini o'rganish uchun haqiqiy ovozlari) deb nomlangan. Alfavit yaratilganiga qaramay, muhim hujjatlar va badiiy yozuv qo'lyozmalari koreys yoki iyeroglif yozuvida qolgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Koreyadagi dehqonlar harakatining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Koreya davlatlari va Lyao imperiyasi munosabatlari qay holda kechgan?
3. «Lnin» va «Chxolin» tushunchalari nimani anglatadi?
4. Mo'g'ullarning Koreya yarim oroliga kirib kelishi qanday oqibatlarga olib kelgan?

XII BOB. RIVOJLANGAN OʻRTA ASRLARDA ERON

Eron Bagʻdod xalifaligining qulashi davrida. Eronda Sosoniyar hukmronligi davrida boshlangan feodal munosabatlarning oʻrnatilishi jarayoni hudud arablar tomonidan fath etilgandan keyin ham davom etgan va tezlashgan. Arablar istilosi Erondagi quldorlik munosabatlari va tabaqalanishga zarba bergan. Tartibli va nisbatan markazlashgan boshqaruv tizimiga ega boʻlgan keng xalifalik davrida Osiyo, Afrika va Yevropaning alohida mintaqalari oʻrtasidagi savdo munosabatlari birmuncha jonlangan boʻlib, u keyinchalik Eron iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatgan.

Arab istilochilari Sosoniylar davridagi boshqaruv va soliq tizimini saqlab qolganlar. Biroq, arablarning Erondagi hukmronligining dastlabki oʻn yilliklarida mahalliy aholidan yigʻiladigan yer va jon soligʻi Sosoniylar davridagiga nisbatan yengilroq boʻlgan. Hududning aksariyat qismida ishlab chiqarishni oshirish uchun qatʼiy soliqlar belgilangan. Keyinchalik feodal munosabatlari rivojlanishi bilan Ummaviylar soliq miqdorini ortira boshlaganlar. VII asr oxiri

VIII asrning boshlarida aholi toʻlov qobiliyatiga koʻra soliqqa tortilgan, yaʼni soliq miqdori fuqarolarning mulkiy holatiga qarab belgilangan.

VIII–IX asrlarda qishloq xoʻjaligi rivojlanib, sugʻorish tizimi takomillashtirilgan, yerlarning meliorativ holati yaxshilangan va guruch, shakarqamish, sitrus mevalarni yetishtirish keng tarqalgan. Bugʻdoy, arpa, paxta va tut daraxtlarini yetishtirish kengaygan. Shu bilan birga, shahar aholisi koʻpaygan, shaharlarning qishloqlar va koʻchmanchi qabilalar bilan hunarmandchilik hamda savdo almashinuvlari rivojlangan. Oʻsha davr koʻchmanchi qabilalarida hali ham patriarxal munosabatlari mavjud boʻlib, ularning xoʻjaligi tabiiy xususiyatga ega boʻlgan. Feodal munosabatlarning rivojlanish surʼati qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanuvchi aholiga nisbatan sekinroq kechgan. Koʻchmanchi chorvadorlar oʻtroq aholini nafaqat goʻsht va sut mahsulotlarini, balki hunarmandchilik uchun xomashyo boʻlib xizmat qilgan jun va teri xomashyosi bilan ham taʼminlagan. Koʻchmanchilar xomashyoning bir qismini oʻzlari qayta ishlab – jundan mato va gilamlar, egar-jabduq kabilarni tayyorlagan.

Eron arablar tomonidan egallangach, mahalliy aholi uchun yangi

din – islom asta-sekin tarqala boshlagan. X asr oxiriga kelib, mahalliy aholining katta qismi islom diniga eʼtiqod qila boshlagan. Mahalliy feodallar aholining boshqa qatlamlariga qaraganda islom dinini tezroq qabul qilishgan. Chunki bu din ularning sinfiy manfaatlariga mos boʻlgan. Islomni qabul qilgan feodallar jamiyatdagi imtiyozli mavqeiini saqlab qolishni va kuchaytirishni xohlagan. Musulmon savdogarlar gʻayrimuslimlarga nisbatan soliqlarning yarmini toʻlaganlari uchun mahalliy savdogarlar ham islomni boshqalarga nisbatan tezroq qabul qilgan.

VII asr oxiridan boshlab butun xalifalik idoralarida, shu jumladan Eronda ham davlat idora ishlari arab tiliga tarjima qilinib, u umumiy tilga aylangan.

Arab feodallarining hukmronligi xalq noroziligini keltirib chiqargan. VIII asrda Eronda jamiyatning turli qatlamlari vakillari ishtirokida arablar hukmronligiga qarshi harakatlar boshlangan. 747-yilda Xurosonda arablarga qarshi kuchli xalq qoʻzgʻoloni boshlangan. U xalifalikdagi boshqa qoʻzgʻolonlar bilan birlashgan. Abu Muslim boshchiligidagi harakat natijasida Ummaviylar hukmronligi tugatilib, Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelishgan.

Abbosiylar oʻz hukmronliklarini oʻrnatish uchun xalqning ozodlik va feodallarga qarshi kayfiyatidan foydalanishgan. Biroq, ular qoʻzgʻolonni tayyorlash jarayonida xalqqa bergan vaʼdalarini bajarmagan. Abbosiylar fath qilingan xalqlarning yuqori tabaqa vakillariga, jumladan fors zodagonlariga nisbatan siyosatini oʻzgartirgan. Abbosiylarni qoʻllab, isyonga qoʻshilgan Eron va Oʻrta Osiyoning ayrim feodallari hukumat boshqaruvida qabul qilinib, xalifalik viloyatlari boshqaruvida katta lavozimlarni egallagan.

Abbosiylar xirojni kamaytirish va majburiy mehnatni bekor qilish haqidagi vaʼdalarini bajarmaganlar. Feodal zulmning ogʻirligi va uning yanada kuchayishi VIII–IX asrlarda dehqonlarning navbatdagi qoʻzgʻolonlarini vujudga kelishiga turtki boʻlgan.

Xalq harakatlari diniy tus ola boshlagan. Ayniqsa, islomdan oldingi mahalliy moniylik-mazdakiylik koʻrinishidagi diniy oqim – *xurramiylik* keng tarqalgan.

VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asrning birinchi yarmida xurramiylik dehqonlar harakatining asosiy mafkurasiga aylangan. Xurramiylarning taʼlimoti Abbosiylar xalifaligini, uning davlat

zulmi va ijtimoiy adolatsizligi, «qorong'u», ya'ni yovuzlikni yaratganligini e'lon qilib, xalqni unga qarshi kurashishga chaqirgan. Xurramiyalar umumbashariy tenglikni, shu jumladan, ayollarning tengligini, soliq va yig'implardan ozod qilinishni, moddiy boyliklarni teng taqsimlashni xohlagan. Ular odamlarda ilohiylikning mavjud bo'lishiga ishongan.

755-yilda xalifa buyrug'i asosida Abu Muslimning Damashqda hula-nayrang bilan o'ldirilishi haqidagi xabar xurramiyalar boshchiligidagi yangi xalq qo'zg'olonini keltirib chiqargan. Abu Muslim xurramiy bo'lmagan va umrining oxirigacha Abbosiylar sulolasini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa ham xurramiyalar uning o'limini o'zlarining qarashlariga ko'ra talqin qilishib, uning qiyofasini idaldashtirgan. 755-yilda sehrigar Sumbad boshchiligidagi Xurramiy qo'zg'oloni boshlanib, Shimoli-sharqiy Eronga tarqalgan. Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma» asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Sumbad «xalifa Abu Muslimni o'ldirmoqchi bo'lgan paytda oq kaptarga aylanib qochib ketib, uzoq va baland qal'ada yashagan, keyinchalik Mazdak bilan birgalikda adolat va baxtni o'rnatish uchun yerga qaytib kelishi»ni tasdiqlagan.

816–837-yillarda sodir bo'lgan Bobek boshchiligidagi isyon, 839-yilda Tabariston (Mozandaron)da Janubiy Ozarbayjon va G'arbiy Eronni qamrab olgan dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan. Ushbu qo'zg'olonlar, shuningdek, 776–783-yillardagi Muqanna isyoni O'rta Osiyoda xurramiylik diniy niqobi ostida o'tgan. Bu arab istilochilari va feodallar zulmiga qarshi dehqonlar harakati bo'lgan. Mahalliy feodallar va xalq harakati ishtirokchilarining xiyonati hamda xalifalik harbiy kuchlarining ustunligi xalifaga yordam bergan. Qo'zg'olonchilarning tayyorgarlik ko'rishdagi xatolari, ulardagi tartibsizlik va uyushmaganlik qo'zg'olonni mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lgan. Mag'lubiyatga qaramay, xalqning kurashi o'sib borgan hamda feodallar zulmini vaqtincha zaiflashtirgan.

Xurramiyalarning mag'lubiyatidan keyingi shafqatsiz qatag'onlar ularning ayrimlarini Erondan Vizantiya yoki O'rta Osiyo mintaqalariga va Sharqqa hijrat qilishlariga sabab bo'lgan. Ba'zilar Islomning shia oqimini qabul qilgan. Ta'qib qilingan va quvg'in qilingan shia oqimi ushbu «muhitda» yanada ko'proq sezilgan. O'z navbatida, mahalliy diniy falsafiy qarashlar shialikning yanada

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Feodallashuv jarayonining kuchayishi va arab istilochilarining zaiflashuvi mahalliy yirik feodal zodagonlari orasida ayirmachilikning vujudga kelishiga asos bo'lgan. 821-yilda Xurosonda Tohiriylarning merosxo'r amirligi tuzilgan (821–873). 861-yilda Seistonda Safforiylar amirligi tuzilgan (861–900). 873-yilda Safforiylar Tohiriylar mulklarini tortib olganlar. Xurosonning shimolida ularning davlati IX asrda shakllangan Somoniylar davlati bilan chegaradosh bo'lgan.

900-yilda Safforiylarning Amr ibn Lays boshchiligidagi qo'shini Ismoil Somoniy qo'shini tomonidan Balx yaqinida mag'lub etilgan. Bir necha yil o'tgach, Xuroson va butun Sharqiy Eron bir asr davomida markazi Buxoro bo'lgan Somoniylar davlatining tarkibida bo'lgan.

Kaspiybo'yi mintaqalarida, ayniqsa G'ilon (Daylamon)da bir nechta kichik davlatlar vujudga kelgan. 935-yilga kelib G'arbiy Eronda Buvayhiylar davlati tuzilgan (935–1055). 945-yilda Buvayhiylar Bag'dodni egallab olib, xalifalarni davlat ishlaridan chetlatib, siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritgan. Rasmiy ravishda ular musulmon dunyosini «amir ul-umaro» nomidan boshqarganlar. Ularga Arab Iroqi – Bag'dod, Basra, Xuziston, Fors, Kerman, Hamadon, Isfaxon, Ray tobe bo'lgan.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi va agrar munosabatlar. X–XI asrlarda Eronda iqtisodiy yuksalish va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi kuzatilgan. Mazkur davr Eron hududi uzoq vaqt xorijiy bosqinlarga duchor bo'lmagan, tinch taraqqiyot davri hisoblanadi. Kavkazorti va O'rta Osiyoda tashkil topgan davlatlar Eronni ko'chmanchilar xujumidan himoya qilgan. Ichki adovatlar halokatli darajada bo'lmagan. Soliq tushumining bir qismi sug'orish tizimini barpo etish va qishloq xo'jaligining o'sishiga yordam beradigan ishlov berilmaydigan yerlarni o'zlashtirishga sarflangan. Madaniy o'simliklarning yangi navlari yaratilgan.

Bug'doy, guruch, dukkakli o'simliklar, sabzavotlar va paxta ekinlarini yetishtirish kengaygan. Zig'ir Fors va boshqa joylarda yetishtirilgan. Shakar qamish Xuziston, Kermon va Forsda yetishtirilgan bo'lib, undan ko'p miqdorda shakar tayyorlangan. Bog'dorchilik va uzumchilik yanada rivojlangan. Kermon xurmo, Xuziston zaytun va limon, Isfaxon qovunlari bilan mashhur bo'lgan. Sheroz va Rayda

yuqori sifatli sharob va atirgul moyi, Kaspiybo'yi hududlarida ipak ishlab chiqarilgan. Ko'chmanchi chorvachilik taraqqiy etgan. Ko'chmanchi chorvachilik tog'li joylardagi yaylovlarda, dehqonchilik va bog'dorchilik esa vodiy hamda pasttekislik hududlarida rivojlangan.

Davlat barcha yerlarni nazoratga olgan bo'lib, dehqon jamoalari soliq to'lagan. Jamoa sun'iy sug'orish tarmoqlarini yaxshi saqlanishga javobgar bo'lgan. Ushbu holatlar va shariat jamoatchilik munosabatlarini saqlab qolishga yordam bergan va dehqonlarning qulligini sekinlashtirgan.

Yuqori hokimiyat xususiy mulkchilikni va hatto yerlarni sotishni ham istisno qilmagan. Davlat faqatgina yerlardan ijara-soliqning bir qismini undirish huquqini saqlab qolgan. Mulkka nisbatan xususiy mulkchilik qadimgi dehqon oilalari va arab istilochilari avlodlari orasida keng tarqalgan. Mulklar meros bo'lib o'tgan. Ularni o'sha vaqtda vayron qilingan kichik va o'rta feodallardan yangi egalari yirik feodallar va badavlat savdogarlar sotib olishlari mumkin bo'lgan. Ma'muriy va harbiy choralarni qo'llashda, mulklar xazina to'ldasiga musodara qilingan.

Boshqa musulmon davlatlari singari Buvayxiylar va Somoniylar davlatlari ham arab va eronliklar asilzodalar, harbiy amaldorlar, saroyda xizmat qilgan harbiy turk-g'ulomlariga iqto berishdan foydalanganlar. Buvayxiylarning xazinachisi va vaziri bo'lib xizmat qilgan Ibn Miskavayxning guvohlik berishicha (vafoti 1030-yilda), qtdodlar tezda mol-mulklarini vayron qilib, ularni xazinaga qaytarib berishgan va o'zlari xohlaganlariga almashtirib olganlar. Natijada, IX–X asrlarda ahamiyatli bo'lgan davlat yerlari maydoni qpto va sovp'a-salomlar tufayli kamaya boshlagan.

XI asrga kelib Eronda vaqf mulklari mavjud bo'lib, ulardan ke-ladigan daromad musulmon diniy muassasalari ixtiyorida bo'lgan. Bu yerlarga ham soliq belgilangan. Shunday qilib, yerning mayda merosxo'rlari feodal hokimiyatning o'zboshimchaliklaridan qo'r-qib, musulmon diniy muassasalariga ma'lum shartlar evaziga o'z yerlarni vaqf sifatida hadya qilganlar. Ba'zan mulk egalari o'z yerlarni oliyanob amaldorlarga in'om qilishgan.

Yuqorida qayd etilgan yirik dehqonlar qo'zg'olonlari natijasida IX asrning ikkinchi yarmi – X asr boshlarida feodallarga tobe bo'lgan

dehqonlarning mavqei biroz yaxshilangan. Mahalliy davlatlarning asoschilari ommaning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lganlar va ijara-soliq darajasini qat'iy belgilash va feodal vazifalarini cheklash siyosatini olib borishga majbur bo'lgan. Mahalliy hokimlar jamoat ishlari bo'limiga katta e'tibor bergan. Xurosonda Abdulloh ibn Tohir hukmronligi davrida sun'iy sug'orishda suvdan foydalanishga doir bir qator qoidalar ishlab chiqilgan.

Buvayxiylar davrida Kur daryosida Forsdagi eng katta to'g'on qurilgan. Dehqonlarning daromadlarini ta'minlash uchun markaziy hukumat xiroj yig'ish jarayonidagi noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurashgan. Ammo, X asr oxiriga kelib, ayniqsa iqto yerlarida feodallar zulmining kuchayishi natijasida dehqonlarning ahvoli yana yomonlashgan.

Feodal yerga egalik qilish shakllaridan qat'i nazar, ishlov beriladigan yerlarning katta qismi kichik maydonlarga ajratilib, hosilning yarmi, uchdan bir qismi va choragiga ijaraga berilgan. Ushbu parchalanishga sabab dehqonlarning mehnat qurollari ibtidoiy ko'rinishda bo'lganligi uchun katta yerlarga ishlov berishi qiyinligi edi.

Shaharlar, hunarmandchilik va savdo-sotiqning ahvoli. IX–X asrlarda mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga turtki bo'lgan. Xalqaro savdo yo'llarida joylashgan eski shaharlardan tashqari yangilari ham paydo bo'lgan. Ular mahalliy bozor vazifasini bajaruvchi hunarmandchilik markazlari sifatida vujudga kelgan. Nishopurda tohiriylar, Sheroz va Isfaxonda buvayxiylar, Zaranjda safforiylarning qarorgohlarini vujudga kelishi alohida shaharlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Hukmdorlar poytaxtlarda hashamatli binolar barpo etganlar, obodonlashtirish – ko'priklar qurish, yo'llarni tekislash uchun mablag'lar ajratilgan.

Ushbu shaharlardagi hunarmandchilikning o'sishi birinchi navbatda saroy, qo'shin, ma'muriyat, ruhoniylar va dunyoviy feodallar hamda ularning xizmatkorlariga xizmat ko'rsatish, shuningdek tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan. Hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari Erondan Rus yerlariga, Hindiston, Xitoy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilingan.

O'rganilayotgan davrda Eronda, ayniqsa zamonaviy hunar-

mandchilik rivojlangan. Qimmatbaho matolar, ipak, zig'ir, paxta va jun matolar, jun va ipak gilamlar ishlab chiqarilgan. Metall buyumlar qilich, xanjar kabi o'tkir tig'li qurollar, dubulg'alar, shuningdek bronza va kumush idishlar ishlab chiqarilgan. Aholi turli shakllardagi qopqol idishlardan keng foydalanishgan. Kulolchilik charxida naqshli va surlangan idishlar ko'plab tayyorlangan. Eron kulolchiligining eng katta yutug'i XII asrda qandillarning ixtiro qilinishi bo'lgan. Yulduzmaydigan kulolchilik buyumlari, idishlar va loy o'yinchoqlar hamma joyda, asosan ichki bozor uchun ishlab chiqarilgan. Teri mahsulotlari – charm tikish, poyabzal va ot jabduqlari ishlab chiqarish ham rivojlangan.

O'rta asrlardagi Eron shaharlari ko'plab shovqinli bozorlarga ega bo'lgan yirik aholi yashash markazlari hisoblanib, ular nafaqat savdo-sotiq joyi, balki hunarmandchilik markazlari ham bo'lgan. Hunarmand ustaxonasi odatda do'kon vazifasini ham bajargan. Bir tudagi hunarmandlar bozor rastalariga joylashgan.

Yirik feodallarning qal'alari atrofida vujudga kelgan shaharlar o'ziga xos rejaga ega bo'lgan. Ya'ni, mazkur shaharlar ark va unga yaqin joylashgan shahriston, shahar atroflari – rabodlardan iborat bo'lgan. Ayniqsa shahar atrofi – rabodlar tez o'sgan. Shaharning alohida qismlari darvozalar bilan ichki devorlarga bo'lingan. Shaharlar tashqi mudofaa devori bilan o'ralgan. Ma'lumotlarga ko'ra Isfaxon shahrining devori uzunligi 3,5 farsax (taxminan 21 km) bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'sha paytda Isfaxonda 100 minggacha aholi istiqomat qilgan. XI asrda ikkinchi darajali Aragan (Fors) shahrida 40 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan. Nishopurda 44 ta mahalla bo'lib, ularning ba'zilari, o'rta asr geograflarining ma'lumotiga ko'ra, Sherozning yarmiga teng edi va aholisi bir necha yuz ming kishi bo'lgan. Nishopur va Isfaxondan tashqari eng yirik shaharlari Ray va Sheroz bo'lgan.

Shaharlar o'zlarining kutubxonalari va madrasalari bilan ham mashhur bo'lgan. Madrasalarda talabalarga musulmon ilohiyoti, shuningdek tibbiyot, matematika, falsafa va tarix fanlaridan saboq berilgan. Odatda, shaharlar yarim agrar ko'rinishni saqlab qolgan, ya'ni markazda katta bog'lar, uzumzorlar orasida poliz ekinlari yetishtirilgan.

Shaharlardagi hokimiyat viloyat hokimi va ularda yashagan

mahalliy feodallariga tegishli bo'lib, ular feodal ijarasining bir qismini savdoga sarflaganlar. O'z navbatida, savdogar va sudxo'rlar xonavayron qilingan dehqonlarning yerlarini egallab olib, dehqonlarni feodallar singari ishlata boshlaganlar. Shularning asosida feodallar va yirik savdogarlarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarining umumiyligi yuzaga kelgan. Eron shaharlarida o'rta asr g'arbidan farqli o'laroq, yirik savdogarlar feodallar bilan raqobatlashmasdan, aksincha, shahar va qishloqlardagi xalq harakatlariga qarshi turganlar. Eron shaharlaridagi mahallalar, hunarmandchilik do'konlari va savdogarlar uyushmalarida o'z-o'zini boshqarish mavjud bo'lsada, butun shaharda o'zini idora etish mavjud bo'lmagan.

Sharqiy Eron G'aznaviylar hukmronligi ostida. Somoniylar boshqaruvining so'nggi yillari feodallarning markazdan qochishga intilishlariga qarshi kurashga to'la bo'lgan. Bu borada Somoniylarning turk g'ulomlariga suyanishga urinishi muvaffaqiyatsiz tugagan. O'rta Osiyo va Amudaryoning shimoli-sharqidagi yerlar qoraxoniylar tomonidan egallangan. Sharqiy Eron O'rta Osiyo va hozirgi Afg'onistonning bir qismi bilan birga G'aznaviylar davlatiga kiritilgan.

G'aznaviylar tarix sahnasiga milodiy 961-yilda kelishib, ropparosa 225-yil hukmronlik qilgan. Ulardan oldin Somoniylar sulolasi X asr oxirigacha hukmronlik qilgan, biroq bundan ancha ilgari uning inqirozidan darak berib, Kobulda yangi davlat vujudga kelgan edi. Unga somoniylarning sobiq turk quli Alptegin asos solgan. U somoniylar davlatidagi tansoqchilar guruhida yuksak mavqega erishgach, Xuroson hokimi etib tayinlangan. Ancha vaqtdan keyin nafratga uchrab, kichikroq qo'shin bilan sharqiy viloyatlarga, G'azna degan joyga bosh olib ketib, u yerda mo'jazzgina shahar-davlat barpo etgan. Uning vorisi va kuyovi Sabuqtegin ancha iste'dodli kishi bo'lgan.

Sabuqtegin 967–997-yillar oralig'ida mustaqillikka erishib, o'z yerlarini kengaytirgan. G'arbda somoniylar avlodining so'nggi vakilidan Xurosonni tortib olgan bo'lsa, sharqda hozirgi Pokiston va Afg'oniston hududida joylashgan Peshovarni egallagan. Hind daryosining g'arb tomonidagi yerlar g'aznaviylar ixtiyoriga o'tgan. G'aznaning 999–1030-yillardagi buyuk sultoni Mahmud Sabuqteginning o'g'li bo'lib, u g'aznaviylar shuhratini butun Osiyoga yoygan. Qat'iyatli sunniy bo'lgan Mahmud G'azna sultoni sifatida

o'tirilgan. Xalifa unga «Yamin ud-Davla» (Davlatning o'ng qo'li) unvonini bergan.

Mahmudning harbiy tayanchi g'ulom tansoqchilari bo'lib, bu uning urushlardagi muvaffaqiyatini ta'minlagan va feodal elitaning G'aznaviyalar davlatiga tobe xalqlar ustidan hukmronligini qo'llab-quvvatlagan. Harbiy yurishlar «kofirlarga qarshi muqaddas urush» shiori ostida tayyorlangan va o'tkazilgan. Ularda harbiy kuch sifatida qatnashish uchun shahar va qishloqning qashshoq qismlaridan ko'ngillilar – ko'p sonli *g'oziyalar* jalb qilingan.

Mahmud G'aznaviy qo'lida Shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Hazar (Kaspiy) dengizigacha cho'zilgan katta hudud birlashtirilgan. Keyinchalik bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston, Xorazm va G'arbiy Eron ham kiritilgan. Qoraxoniylar bilan ayrim urushlardan so'ng, Chag'oniyon, keyinchalik Xuttalon, Qabodiyon viloyatlari va Termiz, Amul (Chorjo'y)ni ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan. Mahmud G'aznaviy yirik harbiy yurishlar olib borish bilan birgalikda qo'shni davlatlar hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar va qarindoshlik munosabatlari o'rnatgan. Tarixchi Bayhaqiyning yozishicha, Xorazmdagi xalq g'alayonlari oqibatida 1016-yilda Abul Abbas Ma'mun qatl etilib, taxtga uning jiyani yosh va tajribasiz Muhammad ibn Ma'mun o'tirgan. Mahmud G'aznaviy bu xabarni eshitgach, qasos olish bahonasida katta qo'shin (100 ming askar, 500 fil) bilan kelib, 1017-yilda Xorazm davlati poytaxti Qiyotni egallagan va hojib Oltintoshni Xorazmda o'z noibi sifatida qoldirgan va Beruniy boshchiligidagi olimlar, shoirlar va san'atkorlarni, shuningdek, yosh xorazmshohni butun sulolasi bilan G'aznaga olib qaytgan.

Fors tarixchisi Gardiziyning «Zayn al-axbor» («Xabarlar ko'rki») asarida (1050–1052) yozilishicha, 1025-yilda Samarqandning janubida o'sha davrning ikki buyuk hukmdori: Mahmud G'aznaviy va qoraxoniylar tamg'achxoni Qodirxon o'rtasida tarixiy uchrashuv bo'lgan. Ikki o'rtada shartnoma tuzilib, unga ko'ra, qoraxoniylarning Samarqanddagi noibi Alitegindan Movarounnahr qaytarib olinib, Qodirxonning o'g'li Yiganteginga berilgan. Tazyiqqa uchragan 4 ming o'tovli o'g'uz xonadonlari (Saljuqning avlodlari) Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan o'sha yilda dastlab Nurota atrofidagi yerlarga, keyinchalik esa Xurosonga ko'chirilgan. Mahmud

Gʻaznaviy qoraxoniylar bilan oʻz mavqeini mustahkamlab, asosiy eʼtiborni Shimoliy Hindistonni oxirigacha zabt etishga qaratgan. U Panjob va Kashmir viloyatlariga 1002–1028-yillar mobaynida 17 marta harbiy yurishlar uyushtirgan. Mahalliy aholini islom diniga kiritgan. Uning harbiy safarlarida Beruniy hamrohlik qilgan. Beruniyning mashhur «Hindiston» (1030–31) asari ushbu safarlar natijasida vujudga kelgan. Mahmud Gʻaznaviy arab va pahlaviy (fors) tillarini puxta bilgan, turkiy tilda sheʼrlar bitgan. Oʻz davlatining poytaxti Gʻaznada nodir kitoblardan katta kutubxona toʻplagan. Bu davrda islom madaniyati rivojlanishi va islom dini tarqalishiga katta hissa qoʻshgan. Xususan, oʻz saroyida 400 dan ortiq olimlar, shoirlar va sanʼatkorlarni toʻplab, ularga xomiylik qilgan. Qudratli va jangovar harbiy qoʻshin hamda dengiz flotiga ega boʻlgan. Mahmud Gʻaznaviy Gʻaznada vafot etgan, qabriga maqbara oʻrnatilgan. Sharq allomalarining asarlarida Mahmud Gʻaznaviy adolatli va fuqaroparvar podsho, dushmanga nisbatan shafqatsiz sarkarda sifatida tasvirlangan.

Hukumat mazhablarni, xususan karmatiylarni shafqatsizlarcha taʼqib qilgan. Hunarmandlar va savdogarlar orasida, hatto gʻaznaviylarga qarshi boʻlgan ayrim feodallar orasida ham islomning yangi tasavvufiy harakati tarqalgan.

Eron saljuqiylar hukmronligi ostida. X asrda Oʻrta Osiyoning janubida yurgan oʻgʻuz qabilalari feodal jamiyatining shakllanish jarayonini boshdan kechirdilar. Koʻchmanchi zodagonlar oʻtroq aholi mehnatidan foydalanish, yaylovlar va harbiy oʻljalar maqsadida ziroatkor aholi istiqomat qilayotgan vohalarini zabt etishga intilishgan.

XI asrning 20-yillarida Xurosonda boshqa turkiy qabilalar tomonidan siqib chiqarilgan 4 ming turkman (oʻgʻuzlarning qiniq urugʻi) oilasi joylashgan. Sulton Mahmud ularga Shimoliy Xurosonda joylashib, harbiy xizmatni oʻtashga ruxsat bergan. Xurosonda turkmanlarning joylashishi Mahmud Gʻaznaviy vafotidan keyin kengaygan va 1038-yilda ular Nishopurni egallab olgan. Ularning rahbari Toʻgʻrulbek Saljuqiy turkmanlarning Gʻaznaviylar tarkibidan mustaqil ekanligini eʼlon qilgan. 1040-yilda Dandanakon jangida Gʻaznaviylar qoʻshini koʻchmanchi turkiylar tomonidan magʻlubiyatga uchratilgan. Gʻaznaviylar Xurosonni

yo qotgan bo'lsalarda, Afg'oniston va Panjobning ayrim qismlarida hokimiyatni saqlab qolganlar. G'aznaviylar davlati o'rnida yangi buyuk saljuqiylar davlati tashkil topgan. G'aznaviylardan tortib olingan yerlar saljuqiylar xonadonining ayrim a'zolariga hadya sifatida bo'lib berilgan. Masalan, To'g'rulbekka Eronning shimoliy va shimoli-g'arbiy viloyatlarining katta qismi, Chag'ribek Davudga Marv va Xurosonning katta qismi, Musa Yabg'uga, Tus, Hirot va Beyiston viloyatlari tekkan.

Saljuqiylar davlatining boshlig'i To'g'rulbek (1038–1063-yillar) bo'lib, u Iroq Ajami (Fors Iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston va Ko'histonni o'ziga bo'ysundirgan. 1055-yilda To'g'rulbek qo'shinlari bilan Har'rodga kirib kelgan va o'z nomini hutbaga qo'shib o'qitishga siltani ko'ndirgan. Diniy hokimiyat abbosiylar xalifasiga, dunyoviy hokimiyat *sulton* unvoni bilan To'g'rulbekka o'tgan. To'g'rulbek yangi davlatning poytaxti sifatida Ray shahrini tanlagan.

To'g'rulbekning vorislari harbiy yurishlarni davom ettirgan. Saljuqiylar Kichik Osiyo, Arabiston yarim oroli, Mesopotamiya, Kavkazorti, Eron va O'rta Osiyoda ulkan hududlarni bosib olganlar. Ularning davlati saljuqiylar tomonidan boshqarilgan viloyatlardan iborat bo'lgan.

Ulkan davlat ko'chmanchi-istilochilar tomonidan qurol kuchi yordamida ushlab turilgan. O'z navbatida mazkur qo'shinni ushlab turish uchun ko'chmanchi zodagonlarga iqto shaklidagi yer-mulklarni in'om etish tez tarqalgan. Iqto egalari o'zlarining foydasiga maxsus soliqlar – xiroj, o'lpon kabilarni muntazam yig'ib olganlar. Rasmiy ravishda ularning miqdori oldingidek bo'lgan. Iqtodorlar dehqonlarning mulklari va shaxsiy haq-huquqlariga daxl qila olmaganlar. Harbiy qo'shinning kuchi iqto sifatida berilgan yer-mulkdan keladigan daromadga bog'liq bo'lgan.

Viloyat, shahar va qishloqlarni saljuqiylar va harbiy sarkardalarga iqto sifatida in'om etilishi natijasida boshboshdoqliklar vujudga kela boshlagan. XI asr oxiriga kelib iqto yer-mulklarning keng tarqalishi «buyuk saljuqiylar» davlatining mustaqil «mulk yerlar» va «viloyatlar»ga bo'linib ketishiga olib kelgan. Iqtodor harbiylar markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalanib, ularni meros qilib qoldira boshlagan.

XI asr manbalarida dehqonlarning yerga qo'shib olinishi

to'g'risidagi xabarlarining yo'qligi, shariat qonunlari shaxsan ozod deb hisoblangan dehqonlarning qo'shilishini rasmiy ro'yxatdan o'tkazishga imkon bermagani bilan izohlanadi. Urushlar vaqtida qishloq xo'jaligiga juda katta zarar yetgan. Saljuqiylar hokimiyati o'rnatilgandan keyin hukumat iqtisodiyot va sug'orish inshootlariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirgan.

Saljuqiylar davrida ko'plab turk qabilalari Eron hududidan o'tib, ularning bir qismi Eronning chegara hududlari Xuroson va Ozarbayjonda joylashgan. Saljuqiylar istilosi davrida fors-doriy adabiy tili allaqachon shakllanib bo'lganligi sababli, u fors xalqining tili sifatida saqlanib qolgan. Fath qilingan xalqlarning boy madaniy merosi turkiy istilochilarga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Malikshoh va uning vaziri Nizom ul-Mulk o'sha paytlari islom dunyosiga qutqu solgan boshboshdoqliklarga qarshi juda qattiq kurash olib borganlar. Ular bir tomondan Nizomiya madrasasini ochib, u yerlarda sunniy islom e'tiqodini o'rgatgan, boshqa tomondan esa fisq-fasodchi botiniylarni ushlab, jazo bergan. Eronning barcha asosiy shaharlarida maktablar tashkil etilgan. Shuningdek, 1079-yil 15 martdan boshlab taniqli shoir va olim Umar Xayyom tomonidan tuzatilgan yangi taqvim joriy etilgan.

Nizom ul-Mulk «Siyosatnoma» asarini yozgan va unda Sosoniylar, Abbosiylar va G'aznaviylar tarixidan tartibli davlatning namunalari sifatida misollar keltirgan. Biroq, markazlashtirish siyosati muvaffaqiyatsiz bo'lgan, chunki u urush tizimining tarqalishiga zid bo'lgan. Malikshoh (1082–1092) hukmronligi davrida turk harbiy zodagonlariga berilgan iqto yerlar yanada kengaygan. Natijada, Malikshohning o'limidan ko'p vaqt o'tmay, uning davlati parchalanib ketgan.

XI asrda Eronning siyosiy tarixi ikki feodal guruhlar – turkiy oqsuyaklar va o'troq Eron zodagonlari o'rtasidagi kurashlar bilan ajralib turadi. Hokimiyat uchun bo'lgan kurashlar feodallar isyoni, ayirmachilik va nizolar ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Saljuqiylar davrida Ismoiliy shialarning faoliyati bir qadar jonlangan. XI asrning ikkinchi yarmida Ismoiliiylar o'ta mutaassib va siyosiy tavakkalchi Hasan as-Sabboh boshchiligida maxsus, jangari «hashshoshiylar» yoki giyohvandlar guruhini yaratgan. Ular Yevropa manbalarida «assasinlar» nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu yashirin

terrorchilik bilan shug'ullanuvchi yashirin guruh bo'lib, ular asosan, hokimiyat vakillari, o'z davrining qobiliyatli insonlarini giyohvand yoshlar yordamida yo'q qilgan. Ular xalifalik va saljuqiylarga qarshi kurashganligi uchun dastlab muvaffaqiyatga erishgan va zulmga uchragan omma, ayrim feodallar orasida ham o'z tarafdorlariga ega bo'lgan.

1090-yilda Ismoililar Eronning shimoli-g'arbidagi tog'lardagi Alamut qal'asini («Burgut uyasi») egallab, o'zlarining asosiy tayanchiga aylantirgan. Birozdan keyin ular Eron va Suriyaning (Elbrus va Ko'histon) bir qator tog'li hududlarida o'zlarining qal'alarini qurgan. Shunday qilib Ismoililarning diniy feodal davlati (1090–1566) vujudga kelgan. Uni Rashid ad-Din Sinon («tog'larning keksa odami», Shayx al-Jabal) boshqargan bo'lib, uning shaxsiyati muhafaza saqlangan. Mazkur firqa yetakchilari keyinchalik firqaning oddiy a'zolari – *fidoiylardan* foydalanuvchi yirik feodallarga aylangan.

Bu davlatning o'z armiyasi, o'z zo'ravonligi va fidoiylari («imon uchun o'zini qurbon qilganlar») bo'lgan. Shayx saljuqiy hukmdorlar va ularga xizmat qilgan Eron amaldorlari, umuman o'ziga yoqmagan odamlarga qarshi terrorchilik harakatlarini uyushtirgan. Fidoiylar kambag'allardan yollangan bo'lib, shayxning xohishini ko'rkona bajarib keltiruvchi mutaassiblarga aylanib ulg'aygan. Mazkur jarayonda giyohvand moddalardan foydalanilgan. Fidoiylarning ko'plab qurbonlari orasida vazir Nizom ul-Mulk va Sulton Malik Shoh ham bo'lgan. Ismoiliy-assasinlarning faoliyati Eron xalqi tarixidagi qayg'uli sahifalardan biri bo'lgan.

XI–XII asrlarda shaharlardagi ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi kurash avj olgan. U sunniylar va shialar, shuningdek, turli sunniy oqimlar o'rtasidagi diniy adovat sharoitida yetilgan. XII–XIII asrlarda feodallar o'rtasidagi adovatlar va qo'zg'olonlar kuchayib, oxir oqibat davlatga putur yetkazgan. Turli sultonliklar paydo bo'lgan: Xurosonda (1157-yilga qadar) «buyuk» saljuqiylar, Iroq (1113–1194), Kermonshohlar (1041–1187), ularning ichida kuchli vassallar – *otabeklar* rivojlangan.

Shu bilan birga, 1097-yildan beri o'zini mustaqil boshqarib kelayotgan Xorazmning siyosiy ahamiyati ortgan. Xorazmning karvon yo'llari kesishgan joyda hamda harbiy harakatlar bo'layotgan hududlardan uzoqda joylashganligi bu yerda sug'orma dehqonchilik

va hunarmandchilikning taraqqiyotiga imkon bergan.

Saljuqiylar davlatining qulashidan foydalangan Xorazm qoʻshini 1186-yilda Marv vohasi, 1187–1193-yillarda esa Xuroson va saljuqiylarning boshqa mulklarini egallab olgan. 1194-yilda Xorazmshoh Takash Xuzistondan tashqari butun Gʻarbiy Eronni zabt etgan. Ammo 1219-yilda moʻgʻullarning Oʻrta Osiyoga boshlangan hujumi Eronga ham xavf tugʻdirayotgan edi.

Eron moʻgʻullar hukmronligi ostida. Oʻrta Osiyoni bosib olgan Chingizxonning qoʻshinlari 1220-yildan Eron hududlariga bostirib kirgan. Jebe noʻyon va Subutoy bahodir qoʻmondonligi ostida ularning otliq qoʻshinlari Xuroson, Mozandaron va Gʻilondan oʻtib, Rayni egallagan. Moʻgʻullar oʻz kuchlarini Ismoiliy qalʼalarini qurshab olishga va Kaspiyboʻyidagi togʻli hududlarni egallashga sarflamaganlar va Janubiy Eronni (Fors, Xuziston) zabt eta olmaganlar. Moʻgʻullar Eronning shimoli orqali oʻtib Kavkazortini bosib olgan. Keyinchalik Kaspiy dengizini aylanib oʻtib, Chingizxonning Markaziy Osiyodagi asosiy kuchlariga qoʻshilgan.

Chingizxonning toʻrtinchi oʻgʻli Tulu boshchiligidagi yana bir moʻgʻul qoʻshinlari Xuroson shahrini zabt etgan. Zabt etilgan shaharlarning aksariyati vayron qilinib, yer bilan yakson qilingan. Eng katta shahar Nishopurni qamal bilan egallangan, barcha istehkomlar, uylar vayron qilinib, aholisi qatl etilgan. Nishopur shahrining oʻrni shudgorlanib, arpa sepilgan.

Chingizxon qoʻshinlari 1220–1224-yillardagi yurishlarida Gʻilon, Qazvin, Hamadon va boshqa joylarda qattiq qarshilikka duch kelishgan. Moʻgʻul istilochilari 1231-yilda Tabrizni, 1237-yilda esa Isfaxonni zabt etishgan.

Eron Chingizxonning nabirasi Xulagu xonning yurishi natijasida 1253–1256-yillarga kelibgina toʻliq bosib olingan. Buyuk xon Munke tomonidan yuborilgan Xulagu 1256-yildagi yurish vaqtida Alamutni egallab, Assassinar davlatini magʻlubiyatga uchratgan va 1258-yilda Bagʻdodni egallab olgan hamda Abbosiylar xalifaligini yoʻq qilgan. 1261-yilda Xulagu Ilhon unvoniga ega boʻlgan. Uning davlatining hududi keng boʻlib, Kichik Osiyoning Rum Sultonligi, Iroq Arabistoni, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Eron va Afgʻonistonni oʻz ichiga olgan.

Qadimgi dehqonchilik madaniyati, rivojlangan hunarmandchilik

va yirik shaharlari bo'lgan Eron ustidan mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi, mahalliy ishlab chiqarish kuchlarining inqiroziga sabab bo'lgan. Istilochi mo'g'ullar chorvador bo'lishgani uchun zabt etilgan dehqonchilik hududlarini yaylovga aylantirishgan. Ko'chmanchi aholi soni keskin o'sgan.

Mo'g'ullarning istilosi natijasida minglab hunarmand va dehqonlar qulga aylantirilgan. Hunarmandchilikda qul mehnatidan foydalanishning tiklanishi hunarmandchilikning tanazzuliga olib kelgan. Janubiy Eronning ayrim shaharlarida omon qolgan erkin hunarmandlar uyushmalari og'ir va qashshoqlashtiruvchi soliqlarni to'layganlar. O'nlab shaharlar aholi istiqomat qiluvchi mayda hududlarga aylangan.

Mo'g'ul istilosi natijasida Eronda ishlab chiqarish jarayoni tanazzulga yuz tutgan. Ko'plab odamlar ochlik va yuqumli kasalliklardan vafot etgan. Sug'orish tarmoqlari yo'q qilinib, uzoq vaqt davomida tiklanmagan. Tashlab ketilgan ekin maydonlar va sug'orish tarmoqlari asta-sekin qum bilan to'lgan. Eronlik tarixchi Rashid ad-Dinning (1247–1318) ma'lumotlariga ko'ra, XIII asr oxirida Eronning ko'plab hududlarida ilgari ekin ekilgan yerlarning atigi 10 foizigagina ishlov berilgan.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida dehqonlar shafqatsiz ravishda zulm qilingan. Mo'g'ullar soliq yig'imlarini kuchaytirib yuborgani natijasida soliqning vahshiyona tizimini joriy qilgan, hattoki dehqonlarning zarur mahsulotning katta qismi ham tortib olingan. Dehqonlar yer solig'i hamda ko'plab turli soliqlar to'lagan. Bundan tashqari, butun aholi, shu jumladan, musulmonlar, jon boshiga soliq qopchur to'lay boshlagan. Choparlari va «yom» xizmati tomonidan dehqonlarning oziq-ovqat, yem-xashak, ot va tuyalarining zo'ravonlik bilan tortib olinishi tufayli dehqonlar tobora qashshoqlashgan. Qishloqlar aholisi soliqchilar paydo bo'lganda qochib yashiringan.

Sudxo'rlikning keng tarqalishi va soliq yig'ishning zo'ravonlik tizimi tufayli aholining yashash tarzi yanada og'irlashdi. XIII asrning o'rtalarida soliqdan bo'lgan qarzdorligi tufayli ko'plab oilalarning qullikka sotib yuborilishi kuzatilgan.

Mo'g'ul bosqinchilari Eronga Chingizxonning «Yaso»da belgilangan huquqiy normalarini olib kelishgan. Ushbu qonunga binoan oddiy ko'chmanchi-jangchi o'zidan yuqori darajadagilarga qaramligi

belgilangan. Mo'g'ullar mazkur tartibni zabt etilgan o'troq xalqlar orasida keng tarqatgan. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Eron dehqonlari darhaqiqat mo'g'ul feodallariga qaram bo'lib qolganlar.

Mo'g'ul zodagonlari orasida feodallarning alohida imtiyozli qatlami – *tarxonlik*¹ imtiyoziga ega bo'lgan feodallar har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilingan, ulug' xon huzurida bo'lish huquqidan ham foydalangan. Bundan tashqari, tarxonlar jinoyat qilib qo'yganda ham, bunday jinoyat 9 marta sodir bo'lguncha javobgarlikka tortilmagan.

Mo'g'ullarga qo'shilib, istilochilik yurishlarida ishtirok etgan turkiy va kurd ko'chmanchi zodagonlar feodallarning yuqori tabaqasiga kirgan. Harbiy-feodal ko'chmanchi zodagonlarning siyosiy hukmronligi Eron qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligi taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Harbiy o'ljalar ko'chmanchi zodagonlarning doimiy daromad manbaiga aylangan. Ularning manfaatlari uchun cheksiz urushlar olib borilgan. Bu zodagonlarning harbiy guruhlarini oilalar, qullar va podalar bilan ko'chib yurish paytida nafaqat dushman hududi, balki o'z hududlari ham vayron bo'lgan.

Xulagu davlatida feodal yer egaligining bir necha turlari: *devoni* (davlat yerlari), *inju* (xon oilasi yerlari), *mulk*, *iqto*, *vaqf* kabilar mavjud bo'lgan. Istilolar jarayonida mo'g'ullar mahalliy feodallar va vaqflar yerlarining bir qismini egallab olgan. Keyinchalik, Xulagular musulmon ruhoniylarining obro'sidan hamda Eronning fuqarolik rasmiyatchiligiga tayangan. Mahalliy feodal zodagonlar katta yerlarni o'z qo'llariga to'plash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Vaqf mulklari, ekin yerlari, karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari va do'konlar ham ko'paygan.

Ko'chmanchiligidan qolgan bo'lsa-da, Xulagu qurilish ishlari bilan ham shug'ullangan. Aladagda u saroy qurdirgan, Xoyyad – budda ibodatxonasini barpo etgan. Ayniqsa 1259-yilda Marog'a shahrida buyuk fors matematigi va astronomi Nosiruddin Tusiy rahbarligida qurdirgan rasadxona ajoyib inshoot bo'lgan. Rasadxona qoshida katta kutubxona bo'lib, u yerda fors, arab, xitoy va

¹ Tarxon (mo'g'ulcha – temirechi, kosib, ozod kishi) – Chingizxon va uning vorislari tomonidan hukmron sinf vakillariga, oddiy xalq orasidan chiqib, hokimlarga alohida xizmat ko'rsatgan kishilarga berilgan unvon.

hind olimlari faoliyat yuritganlar. Xulaguxon olimlar va tabiblarni tapibatlantirib, ularga maosh tayinlagan. Bashoratchilar, munajjimlar va ruhoniylar uning maslahatchilari bo'lganlar. U o'z saroyida munajjim va kimyogarlarni to'plagan. Ular unga «falsafiy tamal toshni» topishga, sun'iy oltin tayyorlashni o'rgatishga va'da berishib, uning boyliklarini talaganlar. Rashid-ad-Dinning guvohlik berishicha, munajjim va kimyogarlalar turli tajriba o'tkazsalar-da, toydasi bo'lmagan. Urushlar paytida o'lja olingan xazinani Xulaguxon Urmiya ko'li yonidagi Shahi tog'idagi xazinaga joylashtirgan. U yer ostiga ko'milgan bo'lib, zilzila natijasida tog' qulab, xazina ko'lga g'arq bo'lgan.

Eron ma'murlari islomni kengaytirish orqali elxonlar hokimiyatini kuchaytirishga intilgan hamda mo'g'ul-turk ko'chmanchi zodagonlari bilan kurashgan. Ushbu asosiy feodal guruhlar o'rtasidagi kurash Xulagular davlati tarixi davomida olib borilgan.

XIII asr oxirida mamlakatdagi vayronagarchiliklar tufayli dehqonlar o'z yerlarini tashlab, tog'larga qocha boshlaganlar. Mamlakatda ozodlik uchun kurashuvchi va feodallarga qarshi kayfiyatdagi dehqonlarning qo'zg'olonchi guruhlari tashkil topgan. Davlat xazinasi bo'shab qolgan. XIII asr oxirida Elxon Geyxatu (1291–1295) muomaladagi oltin va kumush tangalarni qog'oz pullar bilan almashtirishga harakat qilgan.

G'azonxon islohotlari. Iqtisodiy inqiroz, xalq noroziligi va xalq kurashining kuchayishi natijasida hukmron tabaqa va elxonlar islohotlar zarurligini anglashgan. Islohot uchun urinishlar yettinchi elxon G'azonxon (1295–1304) va uning vaziri, qomusiy olim Rashid ad-Din faoliyati bilan bog'liq. G'azonxon va uning vaziri asosiy e'tiborni davlatni markazlashtirishga, soliq tizimini tartibga solishga qaratgan. Islohotlar markazlashtirish tarafdorlari va markazdan qochadigan kuchlar o'rtasidagi murosaga kelishga bo'lgan urinish edi.

G'azonxon islomni qabul qilgan, mavjud cherkov va yahudiylik ibodatxonalarini buzib tashlash to'g'risida farmon chiqargan. Islom yana davlat diniga aylangan. G'azonxon tomonidan islomni qabul qilinishi mahalliy feodallarning keng ijtimoiy qo'llab-quvvatlashiga sabab bo'lgan.

Aholini ishlatishni soddalashtirish va xazinaga doimiy daromad

tushumini ta'minlash uchun 1304-yilda qat'iy belgilangan soliqlarni joriy etish to'g'risidagi farmon chiqarilgan. Eski soliq tizimi va *beraob* (maosh va nafaqa berish to'g'risidagi hujjat) bekor qilingan. Har bir viloyat, shahar va qishloqlar uchun soliq ro'yxatlari tuzilib, ularda yetkazib berish miqdori va puli ko'rsatilgan. Dehqonlar turli harbiylar, amaldorlar va feodallarining choparlariga tunash uchun joy berish majburiyatidan ozod etilgan. Xon elchilarini ushlab turish bilan bog'liq yom – pochta bekatlaridagi barcha xarajatlarini davlat o'z zimmasiga olgan.

G'azonxon islohotlaridagi muhim qadam tashlab qo'yilgan yerlardan foydalanishni yo'lga qo'yilishida soliq imtiyozlari berilgan. Hunarmandlar va savdogarlar uchun soliqlarning pasaytirilishi va muayyan hududlarda (masalan, Xuzistonda) vaqtincha bekor qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xon 1303-yilda barcha mo'g'ul jangchilariga meros qoldiradigan yerlar – iqto taqsimlanishi to'g'risida farmon chiqargan. Bu kabi yerlar birinchi navbatda katta harbiy qismlarga – mingliklar, yuzlik, o'nlik va nihoyat oddiy askarlar o'rtasida qur'a tashlash orqali taqsimlangan. Iqtodori soliq imtiyozidan foydalangan va davlat xazinasiga sovg'a sifatida ozgina don qo'shgan. U harbiy xizmatni o'tashga va dehqonlar bilan birgalikda yerga ishlov berishga majbur bo'lgan.

1303-yildagi qarorga ko'ra, yerlar dehqonlari bilan birgalikda berilgan. Ushbu farmon va «*Yoso*»ga muvofiq, dehqonlarning boshqa mulklarga o'tkazilishi taqiqlangan. Qochqin dehqonlarni qidirish va qaytarish uchun 30-yil muddat belgilangan. Biroq, dehqon yer egasiga emas, balki ushbu joyning soliq solinadigan ro'yxatida qayd etilgan yerga bog'langan. Iqtodorga dehqonni qul deb hisoblash taqiqlangan.

G'azonxon davrida ustaxonalarda qullar mehnatidan foydalanish bekor qilingan. Hunarmandalarning davlat hisobiga ishlab berishi ular uchun yanada samarali bo'lgan. G'azonxon amalga oshirgan pul islohotiga ko'ra yagona kumush tanga (2,15 gramli dirxam) zarb qildirgan, o'lchov birliklari va tarozilar tizimini joriy qilgan. Sug'orish tarmoqlari qurilishiga juda katta mablag' sarflangan.

Amalga oshirilgan ishlarning barchasi vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va tiklash uchun sharoit yaratgan. Biroq islohotlar ozgina

qanda amalga oshirilgan; moliya amaldorlari buyruqlarni buzishgan va oddiy xalqni ezishgan. Yana «beraob»larni tarqatish boshlangan. Mo'g'ullar armiyasiga iqto yerlarning berilishi va berilgan yerlarning harbiy rahbarlarning xususiy mulkiga aylantirilishi markazdan qochish an'analarining kuchayishiga olib kelgan.

XIV asrning 30-yillaridan boshlab sultonlikda o'zaro urushlarning boshlanishi elxonlar davlatining qulashi hamda uning o'rnida bir necha mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Forsda Muzaffariylar (1333–1393) va Eronning janubidagi boshqa joylar, Jaloirilar (1336–1411) poytaxti Bag'dod bilan, Cho'poniylar (1344–1356) bilan poytaxt Tabrizda; Xurosonning sharqiy qismida 1353-yilgacha elxonlar hokimiyati mavjud bo'lgan.

1337-yilda Xurosonning g'arbiy qismida musulmon mazhablarining mafkuraviy shiorlari ostida mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Sabzavor yaqinidagi qishloqlardan birida mo'g'ul xabar-chisining zo'ravonligi tufayli qo'zg'olon o'z-o'zidan boshlangan. Bu shahar shia mazhabidagi «Darveshlar» guruhi faoliyatning markazi bo'lgan. Tasavvufning diniy niqobi ostida mo'g'ul hukumati va mahalliy yirik feodallarga qarshi qo'zg'olonlonga tayyorgarlik ko'rilgan. Maxfiy tashkilotni tuzishda hunarmandlar, shahar kambag'allari va dehqonlar orasida ko'plab izdoshlar bo'lgan va ular qurollarni oldindan tayyorlashgan. Qo'zg'olonchilar o'zlarini «sarbadorlar», ya'ni «boshini dorga tikkanlar» deb atalgan. Isyonchilar qarshiliksiz Sabzavor va G'arbiy Xurosonning boshqa shaharlarini o'z nazoratlariga olgan. Xuroson amirlarining jangarilari mag'lubiyatga uchragan.

Mahalliy mayda feodallar qo'zg'olonlonga rahbarlik qilishgan. Sarbadorlar rahbarlari xirojni hosilning 1/3 foizi miqdorida oladigan bo'lganlar (G'azonxon davrida ular kamida 60% bo'lgan), beraob va shariatga asoslanmagan barcha xayr-ehsonlarni bekor qilgan. Sarbadorlar oddiy, bir xil kiyinish va umumiy ovqatlanishni qabul qilgan. Manbalarning xabar berishicha 1381-yilgacha mavjud bo'lgan Sarbadorlar davlati gullab-yashnagan.

Shu turdagi isyonlar XIV asrning o'rtalarida Kaspiy mintaqalari va Kermonda bo'lib o'tgan. Mozandorandagi bu kabi qo'zg'olonlardan biri 1350–1393-yillarda mavjud bo'lgan Saidlar davlatining tashkil topishi bilan tugagan.

XIV asrning ikkinchi yarmida Eronning feodal bo'linishi O'rta Osiyo hukmdori Amir Temur (1360–1405) istilosi uchun qulay sharoit yaratgan. 1380–1393-yillarda Eronning barcha davlatlari Temur tomonidan birma-bir egallangan.

Feodal zulmning og'irligi va bosqinchilarning Eron aholisiga nisbatan shafqatsizligi navbatdagi qo'zg'olonlarga sabab bo'lgan. 1383-yilda Sabzavorda Sarbadorlar davlatini tiklash shiori ostida isyon ko'tarilgan. Kurash Sarbadorlarning mag'lubiyati bilan yakunlangan. Amir Temur qo'zg'oloni bostirgan.

Eronning parchalanishi va Safaviylar davlatining vujudga kelishi. XV asrning boshlariga kelib Eron o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan va Amir Temur davlati tarkibida bo'lgan. Temur vafotidan keyin uning avlodlari Eron va O'rta Osiyoda hokimiyat uchun kurashni boshlaganlar (1405–1409); feodal parchalanishi, ayirmachilik va fuqarolar urushi kuchayib, xalq qo'zg'oloni to'liqini ko'tarilgan.

Bunday vaziyatda, Temurning oldingi mulklarining shimoli-g'arbiy qismida, ko'chmanchi turkman qabilalarining Qora-qyunlu («qora qo'yililar») feodal zodagonlarining ahamiyati kuchaygan va 1410-yilda dastlab Temuriylarga bo'ysunuvchi Qora-qyunlu davlati paydo bo'lgan. Temuriylar mulki hisobiga boshqa mustaqil davlatlar ham tashkil topgan.

Eronda feodallarga qarshi xalq harakatlari avj olgan. Bu avvalgi harakatlar singari, diniy niqob ostida rivojlangan, lekin asosan shia mazhablari yetakchilik qilgan. Shialikning VII–XI asrlardagi taraqqiyoti xudo, dunyo va insoniyat taraqqiyoti to'g'risida o'ziga xos diniy va falsafiy ta'limotlarni yaratgan bir necha shunday mazhablarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Mutaassib shialar sunniylarning ko'plab qoida va marosimlarini inkor etgan. Agar mo'tadil shia-imomlar, sunniylar singari qat'iy yakka dinni qabul qilsalarda, Mutaassiblar xudoning takroriy tug'ilishiga ishonishgan (ular Muso, Iso, Muhammad, Ali va boshqalar singari). Xudo to'g'risidagi «mutaassiblar» tushunchalarida panteizmga nisbatan og'ishganlik, imomlarnikiga qaraganda ko'proq aniqlangan va oliy xudoning antropomorfizmini inkor etishgan.

Faylasuf va yozuvchi Fazlulloh Xurufiyning qatl etilishi temuriylarga nisbatan nafratning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu

harakat Yaqin va O'rta Sharqning ko'plab hududlaridagi hunarmandlar va dehqonlarni qamrab olgan va feodallarga qarshi yo'naltirildi bo'lgan. 1405-yilda Sabzavorda, 1406-yilda Tabrizda va Mozandaronida g'alayonlar bo'lib o'tgan.

1411 yilda Eronning janubi-g'arbiy qismida yana bir mutaassib mazhablar boshchiligida katta g'alayon ko'tarilgan. Qo'zg'olonchi dehqon va hunarmandlar zodagonlarini yo'q qilib, ularning yerlari va mulklarini taqsimlab olgan. Oqimning yetakchisi Muhammad Mushasha Iroqning Vasit shahrida tug'ilgan, yoshligida o'zini Mahdning peshqadami deb e'lon qilgan, umumiy tenglik va adolat qo'lloqini barpo etish haqida va'z qilgan. Muhammad Mushasha (1465-yilda vafot etgan) va uning vorislari 1508-yilgacha Xuzistonda mustaqil ravishda hukmronlik qilgan.

Qora-quyunlu hukmdorlaridan biri G'arbiy Eronning hududlarini Temuriylardan tortib olib, 1459-yilda Eron hududini Sefidrud daryosi bo'ylab bo'lish to'g'risida bitim tuzgan. 1468-yilda Qora-quyunlu davlati boshqa bir turkman ko'chmanchi qabilalarining birlashmasi Oq-quyunlu («Oq qo'yilar») qo'shinlari tomonidan map'lubiyatga uchratilgan. Oq-quyunlu davlati hududiga (1468–1502) Armanistonning bir qismi, Kurdiston, Ozarbayjonning Kura daryosigacha bo'lgan qismi, G'arbiy Eron Isfaxon, Fors va Kermon bilan birga kirgan. Xuzistonning janubi-g'arbiy qismida Mushasha davlati bo'lgan va Temuriylar kuchi faqat Sharqiy Eronda saqlanib qolgan. 1499-yilda Oq-quyunlu davlati Tabriz va Isfaxonda markazlari bo'lgan ikkita qismga va bir nechta kichik qo'rg'onlarga bo'lingan.

XV asrda feodallar o'rtasidagi nizolar va parchalanishlar davrida Eron iqtisodiy tanazzulga yuz tutgan. Mamlakatga tashrif buyurgan Venetsiya elchisi Barbaroning xabar berishicha, G'arbiy Eronning Qora-quyunlu qo'shinlari tomonidan bosib olinishi natijasida shaharlar vayron bo'lgan. XIV asrda Eronning eng yirik ipak savdo markazi bo'lgan Sultoniya aholisi atigi 7–8 ming kishidan iborat bo'lib, bu shahar qayta tiklanmagan. Isfaxonning aholisi 50 ming kishiga kamaygan va Xuziston ham xarobaga aylangan. Dehqonchilik va sug'orish tizimining umumiy inqirozi, ekin maydonlarining kamayishi, feodal yig'implarning ko'payishi natijasida ochlik va o'lning ko'payishi kuzatilgan. Hunarmandchilik va savdo mar-

kazi janubga – hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va savdosi ipak savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan shaharlarga (Yazd, Sheroz va Xo‘rmuz) ko‘chib o‘tgan. Afanasiy Nikitin Xo‘rmuzni Fors ko‘rfazidagi eng yirik savdo markazi deb atagan.

Xalq qo‘zg‘olonlarining kuchayishi Temuriylar sulolasining yuqori hukmdorlari tomonidan Qora-quyunlu va Oq-quyunluni vaqti-vaqti bilan feodal o‘lpon miqdorini belgilashga va feodal majburiyatlarni tartibga solishga majbur qilgan. Biroq, bu hukumatning choralariga qat‘iy qarshi bo‘lgan harbiy feodal zodagonlari manfaatlariga mos kelmagan. Feodallar katta yerlarni o‘z qo‘llariga to‘plab, katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Ushbu yuqori tabaqa feodallari orasida maxsus mukofot turi bo‘lgan «suyurg‘ol» yer egaligi keng tarqalgan. Bundan tashqari, ular «tarxon»larning maxsus huquqlaridan bahramand bo‘lgan, ya‘ni harbiy o‘ljalarni taqsimlashda, ularning ko‘pini olganlarida, to‘qqizta qonunbuzarlik uchun sud va jazodan ozod qilingan.

Suyurg‘ol harbiy xizmat sharti va meros tariqasida berilgan. Suyurg‘ol egalari dunyoviy va diniy zodagonlarning vakillari bo‘lishi mumkin edi. Mukofotlar hajmi har xil bo‘lishi mumkin – bitta qishloqdan tortib butun viloyatgacha. «Suyurg‘ol» egasi o‘z xojasiga harbiy xizmat uchun ma‘lum miqdordagi qurolli otliqlarni berishi kerak bo‘lgan. Butun viloyatni suyurg‘ol tariqasida qabul qilgan kishi, uni boshqa feodallarga, suyurg‘ol asosida tarqatish huquqiga ega bo‘lgan. Suyurg‘ol bilan iqto xalifalik va mo‘g‘ullar hukmronligi davri o‘rtasidagi farq shundan iborat ediki, suyurg‘olning egasi nafaqat soliq, balki ma‘muriy daxlsizlik huquqiga ham ega bo‘lgan. U bosh qo‘mondon va oliy qozi bo‘lgan. Suyurg‘ol hududidagi barcha amaldorlarni u tayinlagan va ular unga qaram bo‘lgan.

Feodallarning yer va suvga egalik qilishining boshqa turlari ham saqlanib qolgan, ammo suyurg‘ollar tufayli xazinaning yer fondi qisqartirilgan. Vaqf va mulk yerlari egalari ham soliq to‘lashda imtiyozga ega bo‘lgan. Bularning barchasi markaziy hokimiyatni sezilarli darajada zaiflashtirgan.

XV asrda Eron hududida paydo bo‘lgan davlat tuzilmalari ko‘chmanchi harbiy feodal zodagonlari hukmronlik qilgan mo‘rt va iqtisodiy jihatdan bir biri bilan bog‘liq bo‘lmagan birlashmalar edi.

XV asrning ikkinchi choragida janubiy Ozarbayjonning Ardabil

shahrida boy yer egalari bo'lgan Safaviylarning ta'siri kuchaygan. Ular o'zlarining kelib chiqishini Ardabildagi so'fiylar rahnamosi – Sefi ad-Dindan (1282–1334) hisoblagan. Ular o'zlarining kelib chiqishlarini ilohiy lashtirishi taxtga bo'lgan huquqlarini va xalqning jabrlangan qatlamlarini ushlab turishini osonlashtirgan. Ularga mahalliy aholining bir qismidan tashqari, turkiy ko'chmanchi qabilalar, asosan Kichik Osiyo, Arman tepaliklari va Suriyada mo'tadil shialikni tan olgan mintaqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ushbu qabilalar o'zlarining 12 imomlari soniga ko'ra 12 ta qizil tasma bilan o'ralgan ballam kiyib olganliklari uchun «qizilboshilar» deb nomlangan.

1499 yilda Ismoil Safaviy boshchiligidagi qizilboshlar Usmonli davlatining markaziy siyosatidan norozi bo'lib, Oq-quyunlning hokimiyatini tan olishni istamagan va isyon ko'targan. Shimoliy O'zarbajjonda Shirvonshoh mulkiga bostirib kirib, Shirvonni vayron qilgan. Keyin ular janubga qarab harakat qilib, Oq-quyunlarning asosiy kuchlarini mag'lub etgan. 1502-yilda Ismoil Safaviy Tabrizni egallab, o'zini Eronning «Shahanshohi» deb e'lon qilgan va Tabrizni poytaxt qilgan. Imomiylikning mo'tadil shia mazhabi davlat dini deb e'lon qilingan. Bu 1502–1736-yillarda hukmronlik qilgan Safaviylar davlatchiligining boshlanishi bo'lgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Nima uchun Arab xalifalari erondagi Sosoniylar davlati boshqaruv tizimini saqlab qolishdi?
2. Nima sababdan Eronda mahalliy feodallar orasida islom tez yoyila boshladi?
3. «Xurramiylar» harakati haqida ma'lumot bering.
4. Bu davrda Eronda yer egaligining qanday turlari keng tarqalgan edi?
5. «Hashshoshiy»lar haqida nimalarni bilib oldingiz?

XIII BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA TURKIYA (USMONIYLAR SALTANATINING VUJUDGA KELISHI)

Turk davlatining shakllanishi va uning ijtimoiy tizimi. Yevropa manbalarida «Turkiya» soʻzi birinchi marta 1190-yilda salibchilar yurishi davri yilnomachilaridan biri tomonidan Kichik Osiyodagi turkiy qabilalar bosib olgan yerlarga nisbatan qoʻllanilgan.

Ayrim turkiy koʻchmanchi qabilalar milodiy IV asrdan boshlab Vizantiya imperiyasining Kichik Osiyodagi viloyatlarida paydo boʻlganligi yozma manbalarda qayd qilingan boʻlsa-da, Saljuqiylar boshchiligidagi ogʻuz-turkman qabilalarining Old Osiyoda paydo boʻlishi va mustamlakalarga ega boʻlishi XI asrdan boshlangan. Qisqa vaqt ichida Vizantiyaga qoʻshni hududda Buyuk Saljuqiylar davlati vujudga kelgan. Yaqin va Oʻrta Sharq, qisman Movarounnahrda boʻlgan bu davlat 1038–1308-yillarda Saljuqiylar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Saljuqiylar davlatiga Saljuqning nevarasi Sulton Toʻgʻrulbek asos solgan. Saljuq turklari XI asrning 20-yillarida harbiy xizmatlari evaziga Xurosonda Mahmud Gʻaznaviydan koʻplab mulklar olganlar. Biroq keyinchalik gʻaznaviylar ularga qarshi lashkar joʻnatib, Arslon Isroil ibn Saljuqni asir olishgan va Hindistondagi harbiy qalʼada tutqunlikda saqlashgan (1032- y. u hibsda oʻlgan). Saljuqiylar gʻaznaviylarga qarshi olib borgan koʻplab muvaffaqiyatli janglaridan soʻng Nishopurni egallab, 1038-yilda oʻz rahbarlari Toʻgʻrulbekni sulton deb eʼlon qilganlar. Dandanakon jangidagi gʻalabadan soʻng, u Xuroson hukmdori deb eʼlon qilingan. Asta-sekin saljuqiylar Xuroson, Xorazm, Gʻarbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq (Bagʻdod bilan birga)ni oʻzlariga boʻysundirganlar. Bagʻdodda Toʻgʻrulbek nomiga xutba oʻqitilgan. Abbosiylar xalifasi al Qoim (1031–1075) hokimiyatni Toʻgʻrulbekka topshirib, uni sulton hamda «Sharq va Gʻarb podshohi» deb tan olishga majbur boʻlgan va qizini unga xotinlikka bergan. Toʻgʻrulbek Rayni, uning ukasi Chagʻribek Dovud (990–1060) Marvni oʻzlariga poytaxt qilishgan. 1050 yilda Toʻgʻrulbek poytaxtni Raydan Isfahonga koʻchirgan.

Alp Arslon va Malikshoh hukmronliklari davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam oʻrnashib olishgan. Ular 1071-yilda Vizantiya imperatori Roman IV Diogening 200 ming kishilik qoʻshinini yengib, butun Kichik Osiyoni (1071–

1081), keyinchalik Suriya va Falastinni zabt etishgan. Armaniston, Uzuziya, Shirvon ham bo'ysundirilgan. Shu davrda Movarounnahr ham saljuqiylar qo'l ostida birlashtirilgan.

Hatto Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularning ustunligini tan olishgan. Alp Arslon poytaxtni Isfahondan Marvga ko'chirgan. Saljuqiylar qo'shinlari Arabistondagi Yaman va Bahrayn yerlarini ham o'z tasarruflariga olishgan. Malikshoh hukmronligi davrida Saljuqiylar davlati harbiy-siyosiy jihatdan juda kuchli bo'lgan. Bu vaqtda poytaxt yana Isfahonga ko'chirilgan. XI asr oxirlarida Saljuqiylar davlati Sharqiy Turkistondan O'rta yer va Marmar dengizlarigacha bo'lgan katta hududni o'z ichiga olgan. Bu davlat Xitoy bilan Vizantiya o'rtasida joylashgan. Salibchilarning Sharqqa qilgan yurishlarini to'xtatishda saljuqiylarning xizmati katta bo'lgan.

Bu vaqtga kelib, Kichik Osiyoda, xususan Markaziy Onado'lida turkiy ko'chmanchilar mahalliy aholi bilan aralashib, o'troqlashganlar va dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Saljuqiylar davlatining g'arbiy hududlarida, shuningdek, Onado'lining janubi-sharqida yashagan qabilalar ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanishda davom etganlar. XII asrning oxirida Marko Polo ular haqida: «Turkmanlar (o'sha paytda Kichik Osiyo turklari shunday nomlangan.) Muhammadni hurmat qilganlar va uning qonunlariga to'ya qilganlar; odamlar sodda va ularning tili qo'pol. Ular tog'larda va tekisliklarda, chorvachilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan yaylovlari mavjud barcha joylarda yashaganlar»,— deb yozgan edi. Marko Poloning so'zlariga ko'ra, qishloq aholisining asosiy qismini «turkmanlar» tashkil etgan, yirik qishloqlar va shaharlarda esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi armanlar bilan yunonlar istiqomat qilishgan.

Chopara hududlarda yashovchi qabilalar o'ziga xos harbiy-ko'chmanchilik turmush tarzini rivojlantirganlar: ko'chmanchilarning bu qismi harbiy xizmatni o'tashgan bo'lsa, boshqalari esa chorva mollarni boqishib, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Qabilaning barcha a'zolari, hattoki ayollar va bolalar ham qurollanishgan. Chunki, qo'shinlar bilan bo'ladigan doimiy to'qnashuvlar, talon-taroj qilish va yangi yerlarni egallab olish maqsadida qilingan yurishlar ko'chmanchilarning kundalik hayotining ajralmas qismi bo'lgan.

Saljuqiylar davlati tepasida oliy hukmdor – sulton (sulton ul

A'zam) turgan. Uning nomidan xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o'tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, amaldorlar ishini nazorat qilish va boshqa sultonning vakolatlari doirasiga kirgan. Saljuqiylarning boshqaruv tizimi ikkiga: dargoh va devonlarga bo'lingan. Ulug' hojib, horis amiri (amiri horis), saloxdor, xos vakil, alamdor, jondor, tashtdor, sarhang, miroxur dargoxdagi asosiy lavozimlar sanalgan. Bosh vazir devoni a'lo – markaziy boshqaruv tepasida turgan. Devoni tug'ro, devoni istifo (moliya devoni), devoni ishraf (nazorat devoni), devoni arz (harbiy vazirlik) kabi rasmiy devonlar bo'lgan. Viloyat boshliqlari (voliylar) ham o'z devonlariga ega bo'lishgan. Voliylar sulton tomonidan tayinlangan bo'lib, ular viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralariga rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham deyarli shunday bo'lgan.

Saljuqiylar davlatida, ayniqsa, Buyuk saljuqiylardan To'g'rulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko'tarilish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy qilgan: to'qimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko'ncilik va gilam to'qish rivojlangan. Buyuk ipak yo'li ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali o'tgan. Sharqiy yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Malikshoh Sharq va G'arb o'rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj to'lovidan ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo'lgan.

Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo'lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod qilingan. Xususan, buyuk vazir Nizomulmulk 1067-yilda Bag'dodda qurdirgan Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo'lgan. Nizomulmulk davlatni boshqarish asoslari haqida «Siyosatnoma» asarini yaratgan. Munajjim va riyoziyotchi olim Umar Xayyom loyihasiga ko'ra, Isfahonda rasadxona qurilgan. U Malikshoh topshirig'iga ko'ra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib

buqan va sasoniylarning shamsiy taqvimini isloh etib, 1079-yilda Yangi taqvim («Malikshoh taqvimi») yoxud «Jalol erasi»ni tuzgan. Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Umar Navyon fors she'riyatining so'nmas durdonalarini yaratishgan. Muhammad G'azoliy, Farididdin Attor, Xoja Yusuf Hamadoniy kabi islom ulamolari va so'fiylar ijod qilishgan.

Saljuqiylar davlatida riyoziyot va ilmi nujum, tibbiyot va kimyo, tarix, adabiyot sohalariga oid ko'plab bebaho asarlar yaratilgan. Bu davrda Nishopur, Marv, Isfahon, Ray, Hamadon kabi poytaxt shaharlar, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Termizda ko'plab me'moriy yodgorliklar qurilgan. Marv gullab yashnagan, u «Marvi Shohijahon» «Shaharlar shohi» deb ulug'langan. Tarixchi va sayyoh Yoqut Hamaviy Marvda bo'lganida bu yerda 10 ta yirik kutubxona borligini ko'rgan va ulardan foydalangan.

Saljuqiylarning Ko'niya sultonligida ham madaniyat taraqqiy etgan. Kichik Osiyoning islomlashish jarayoni kuchayib, tasavvufning mavlaviylik, bektoshiya kabi tariqatlari shakllangan, axiylik (javonmardlik) va qalandarlik kuchaygan. Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro (1240–1320), Xoja Bektosh Vali (1248–1338), Sadridin Ko'nyoviy, Shahobiddin Suhravardiy singari mashhur mutasavviflar yetishib chiqqan. Ko'niya (Ikoniy), Sivas, Qaysariya, Nikeya shaharlari yirik madaniy markazlar hisoblangan.

XI asr oxirlaridan boshlab Saljuqiylar davlati parchalana boshlaydi. Chunki, 1096–1099-yillardagi birinchi salib yurishi natijasida Saljuqiylar davlati Gruziya, Shirvon hamda Kichik Osiyoning sohil bo'yi hududlaridan, Suriya va Falastinning bir qismidan ajralgan. Saljuqiylar davlati parchalanib ketgach, Kermon sultonligi (1041–1187), Suriya sultonligi (1074–1117), Ko'nya (Rum) sultonligi (Turkiya, 1077–1307) singari mustaqil beyliklar vujudga kelgan. Ammo kelajakdagi turk davlatining asosini bu kuchli va ulug'vor sultonliklar emas, balki Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy qismidagi eski shahar va Onado'li hududida Ko'niya sultonligiga tobe kichik bir beylikning birinchi hukmdori Erto'g'rul va uning o'g'li Usmonbey (1209–1326) nomi bilan tanilgan kichik bir beylik tashkil qilgan.

Saljuqiylar hukmdorlari o'z davlatlarining sharqiy va g'arbiy chegaralariga ko'chmanchilarni joylashtirib, ularga bu chegaralarni himoya qilish mas'uliyatini yuklaganlar. Usmonbey davrida, ya'ni

1299-yildan beklilik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli imperiyasi nomini olib, oʻrta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Usmon I va uning oʻgʻli Urxon bek (bey) unvonini qabul qilgan boʻlsa, Urxonning oʻgʻli Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan.

Usmon bekligi Kermon va Garmiyon kabi amirliklardan oʻz hududi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan ancha past boʻlgan. Ammo XIV asr boshlarida Kichik Osiyodagi geografik holat va siyosiy vaziyat Usmon davlatining jadal rivojlanishiga yordam bergan. Boʻlajak Turkiya imperiyasining asl yadrosiga aylangan ushbu hudud moʻgʻullar hukmronlik qiladigan hududlardan juda uzoqda boʻlgan, shuningdek oʻzlarini moʻgʻul xonlarining vassallari deb tan olgan beylik hukmdorlari erkin boʻlganlar. Usmonlilarning qoraxoniylarning kuchli davlati bilan umumiy chegarasi yoʻqligi ularning ilk muvaffaqiyatlariga xalaqit bermagan. Oʻsha davrda Garmiyon moʻgʻullar va Vizantiya bilan urush olib borgan. Usmoniylarning janubi-gʻarbida joylashgan boshqa beyliklar juda zaif boʻlgan.

Usmoniylarning oʻsishiga yordam beradigan muhim omil uning Vizantiyaga yaqinligi boʻlgan. Beylik hukmdorlarining zaiflashgan imperiyaga qarshi olib borgan urushlari ularning oʻz mulklarini sezilarli darajada kengayishiga imkon bergan va shu bilan birga Kichik Osiyoning boshqa barcha turkiy beyliklaridan kofirlarga qarshi «muqaddas urushda» qatnashish uchun kelgan koʻngillilar shaklida doimiy ravishda yangi kuchlarning kirib kelishini taʼminlagan.

Usmonning hayoti davomida olib borilgan bir qator yurishlar natijasida turklar mustahkam boʻlgan Bursa qalʼasi va uning atrofidagi hududni toʻliq egallab olganlar. Usmonning oʻgʻli Oʻrxon (1326–1359) uni yangi poytaxtga aylantirgan. Keyin Vizantiyaning Nikeya va Nikomediya (Izmir) kabi boshqa yirik shaharlari egallangan. XIV asrning 40-yillari boshida turklar Konstantinopolning qalʼa darvozalariga yaqinlashganlar. Oʻrxon armiyasi Vizantiya poytaxtini egallay olmagan, lekin qoʻshni knyazlikni zabt etib va Dardanelga borganlar. Yangi harbiy yurishlar natijasida Anqara qoʻlga kiritilgan. XIV asrning oʻrtalariga kelib Kichik Osiyoning Bursadan Tokatgacha boʻlgan muhim iqtisodiy mintaqasi Usmoniylar hukmronligi ostida

bo'lgan. Shu bilan birga Kermon va Germiyon amirliklari bilan chegara hududlar uchun bo'lgan urush oson bo'lmagan. Shu bois Hoston va Dardanell ortidagi yerlar istilochilarning asosiy obyekti bo'lgan.

Dastlab Usmoniylarning ichki boshqaruvi juda sodda bo'lgan. Dastlabki hukmdorlar qabila zodagonlarning kengashida bey etib tasdiqlangan. Bey birinchi navbatda harbiy boshliq sifatida harakat qilishi, qo'shnilarga qarshi istilochilik yurishlarni amalga oshirish uchun harbiy ishlarni tashkil qilish kerak bo'lgan. Beyning eng yaqin sheriklari uning qarindoshlari – o'g'illari, aka-ukalari bo'lib, u egallagan shahar va qal'alarining hukmdorlarini tayinlagan.

XIV asrning birinchi yarmida olib borilgan istilochilik yurishlari davrida Usmoniylar jamoasida feodallashuv jarayoni sezilarli darajada kuchaygan. O'z qo'llarida katta boyliklarni yer, qoramol va oltin shaklida jamlagan qabila zodagonlari asta-sekin feodallarga aylanishgan.

Feodal munosabatlarning rivojlanishini tezlashtirish uchun turkiy qabilalar turmush tarzi yuqori bo'lgan o'troq mahalliy aholi bilan asta-sekin qo'shilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida nafaqat ma'muriy, balki savdo, madaniy va hunarmandchilik markazlari bo'lgan Bursa, Iznik va Anqara shaharlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

XIV asrning 30-40-yillarida Kichik Osiyoga tashrif buyurgan arab sayohatchisi Ibn Battuta O'rxon haqida shunday deydi: «Bu sulton turkman hukmdorlarining eng qudratlisi bo'lib, boy xazinalari, shahar va askarlari ko'p bo'lgan. Uning yuzga yaqin istehkomli qal'alari bor, u doimo aylanib yuradi. U har bir qasrda bir necha kun ularning ahvoli va ta'mirlanishini kuzatadi». Amirlik hukmdorlarining kuchayishiga ularning mol-mulki Kichik Osiyoni kechib o'tadigan asosiy savdo yo'llarida joylashganligi sabab bo'lgan. Savdo to'lovlari Usmonli xazinasiga katta daromad keltirgan.

Feodal munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlat boshqaruvi murakkablashgan. O'rxon davrida ilk vazirlar paydo bo'lgan, mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi joriy qilinib, ular o'z tangalarini zarblash boshlagan. Qo'shin tashkil etish ham o'zgaragan. O'rxon hukmronligi davrida piyoda qo'shinlari (yayov yoki piyoda) va otliq askarlar (musallam)dan iborat doimiy qo'shin

tuzilgan. Urush paytida bu qismlarga qoʻshilgan askarlar kuniga 1 aqchadan¹ maosh olganlar. XIV asrning birinchi yarmida yaratilgan qoʻshin asosan feodallar va ularga qaram boʻlgan odamlardan emas, balki erkin jamiyat aʼzolaridan iborat boʻlgan.

XIV asrda Bolqonda turklar istilosi. Turk istilolariga qadar Bolqonda bir necha mustaqil davlatlar va knyazliklar mavjud boʻlgan. Ularning eng yirigi Vizantiya, Serbiya, Bolgariya, Bosniya edi. Janubi-Sharqiy Yevropaning feodal hukmdorlari doimo nizolashib yurganlar, bir-birlarining yerlari va shaharlarini egallab olishgan. Oʻzaro raqobat va ichki nizolar Bolqon davlatlarining kuchini sezilarli darajada zaiflashtirgan va ogʻir feodal zulmlari dehqonlar hamda shaharning quyi tabaqalari orasida keng norozilikni keltirib chiqargan. Davlatlararo va tabaqalar oʻrtasidagi kurashning keskinlashuvi sharoitida turk bosqinchilariga qarshi birlasha olmagan. Ommaviy harakatlardan qoʻrqish hukmron tabaqani har doim kichik boʻlgan yollanma ishchilarga tayanishga majbur qilgan.

1357-yildan turklar Bolqonga hujum qila boshlaganlar va 30 yil davomida yarim orolning muhim qismini egallaganlar. 1362-yilda turklar Adrianopolni (Edirne) egallab va oʻz davlatlarining poytaxtiga aylantirishgan. Konstantinopolni orqada qoldirib, ular Serbiyaga qarshi shimol tomon harakatlanishgan. Serbiya qiroli tomonidan serb va bosniyaliklardan iborat koʻngillilar qoʻshini 1389-yil Kosovodagi jangda magʻlubiyatga uchragan. Natijada serb davlati turk sultoniga vassal boʻlib qolgan.

Bolqon yarim orolining davlatlari mehnatkash aholisi, boy dalalari, chorvalari va yirik savdo shaharlari bilan turk bosqinchilari uchun oʻlja boʻlib xizmat qilgan. Mahalliy aholi, ayniqsa togʻli hududlarda turklarga qattiq qarshilik koʻrsatgan, ammo mahalliy feodallar oʻzlarining mulklari va imtiyozlarini saqlab qolishga harakat qilib, dushman tomoniga oʻtganlar va turklarning Bolqon yerlarini egallashiga yordam berganlar.

Turklar 1393-yildayoq Bolgariya poytaxti Timovoni egallab olishgan. 1396-yilda esa ularning qoʻshinlari Dunayning janubidagi Nikopol shahri devorlari ostida, vengerlar, valaxiyaliklar, bolgarlar

¹ Aqcha – turklarning ilk kumush tangasi. 1328- yilda Bursada zarblangan.

va g'arbiy yevropa ritsarlarining 60 minglik birlashgan qo'shinini map'lubiyatga uchratgan.

Bolqon yarim orolidagi fathlar ishlab chiqaruvchi kuchlarning yo'qolishiga va Bolqon mamlakatlarining iqtisodiy pasayishiga olib kelgan. O'n minglab odamlar nobud bo'lgan, ko'pchilik qul qilingan, aholi soni sezilarli darajada kamaygan. Shaharlar vayron, talon-taroj qilingan. Bosqinchilar mahalliy madaniy markazlarni vayron qilishib, xalqlarning iqtisodiy hayotiga, ularning ichki va tashqi savdosiga katta zarar yetkazganlar. Bolqonni qo'shni yevropa mamlakatlaridan sun'iy to'siq bilan ajratib olganlar. Aslida, Bolqonda Usmoniylar hukmronligining o'rnatilishi, qul bo'lgan xalqlarning taxiy rivojlanishida oldinga qo'yilgan muhim qadam hisoblangan.

Harbiy-mulk tizimining vujudga kelishi. Qisqa vaqt ichida kichik beylikni yirik davlatga aylantirgan istilolar Usmoniylar jamiyatining feodallashgan yuqori qatlami manfaati uchun amalga oshirilgan. Ushbu tutilishlar feodallashuvni tezlashishiga yordam bergan. Agar dastlab harbiy harakatlarning asosiy maqsadi talonchilik bo'lsa, XIV asrning o'rtalaridan boshlab bosib olingan xalqlardan soliq va boshqa majburiyatlarni yig'ish maqsadida yerlarni egallash muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Usmoniylarning Kichik Osiyo knyazliklari, Vizantiya va Bolqon davlatlari hisobiga kengayishi yer egaligining harbiy-mulk tizimining tarqalishiga yordam bergan. XIV asrning 70-yillaridan boshlab bosib olingan yerlarning bir qismini mol-mulk, ya'ni merosiy qilib berilgan. Suyurg'ol singrai bo'lgan ushbu mulklar birinchi navbatda daromad jihatidan farq qilgan. 3 mingdan 20 ming aqchagacha bo'lgan mol-mulk «Timar» deb nomlanib, ularning egalari – timariotlar bo'lgan. Bunday mulkning boshqa bir ko'rinishi – zeamat bo'lib, o'z egasiga 20 dan 100 ming aqchagacha daromad keltirgan. Va nihoyat, yirik yer-mulklar – xassalar bo'lib, ularning daromadlari 100 ming aqchadan ortgan. Timariotlar va zaymlarning asosiy vazifasi, harbiy yurishlarda ma'lum miqdordagi qurollangan odamlar bilan ishtirok etishi kerak bo'lgan. Xassalar xizmat paytida yuqori lavozimlarni egallagan shaxslarga berildi. Yerga egalik qilishning ushbu shaklining juda shartli va cheklanganligi, sipohiyarning davlatga juda bog'liq bo'lganligi Usmoniylar jamiyatida feodal munosabatlarining past darajada bo'lganligidan, mutlaqo alohida va iqtisodiy jihatdan

mustahkamlangan feodallarning yoʻqligidan dalolat beradi. Boshqa musulmon mamlakatlarida boʻlgani kabi vaqf yer va mulklar ham boʻlgan. Usmonlilar tomonidan yerga egalik qilishning shakllari qoʻshni xalqlar va davlatlarnikiga oʻxshash boʻlgan. XIV asrda vaqf mulklari juda keng tarqalgan. Hukmron tabaqaning muhim qismi Kichik Osiyodagi mahalliy feodal zodagonlar boʻlib, ular oʻz mulklarini saqlab qolish niyatida Usmoniylarning xizmatiga oʻtishgan.

Turkiya XV asrning birinchi yarmida. Bolqonning bosib olinishi Usmoniylarga juda katta boylik keltirib, siyosiy qudratini oshirgan. Pora olish, sulolaviy nikoh va toʻgʻridan-toʻgʻri harbiy fathlar orqali Murod I (1359–1389) va uning oʻgʻli Boyazid I (1389–1403) oʻz kuchlarini butun Kichik Osiyo yarim oroliga qadar Sivas, Qaysari va Furotning yuqori oqimlarigacha choʻzganlar.

Oʻlimidan biroz oldin Murod I oʻzini sulton deb eʼlon qilgan. Uning oʻgʻli Boyazid tezkor harbiy muvaffaqiyatlari uchun «Yildirim» laqabiga ega boʻlgan. U Konstantinopolga qarshi harbiy yurishlar uchun katta flot qurishga kirishgan. Boyazid yevropaliklarni koʻp bora magʻlubiyatga uchratib, Yunonistonni ham egallagan. Boyazid oʻzidan ustun Amir Temurga qarshi jang boshlab, 1402-yildagi Anqara jangida turk qoʻshini butunlay magʻlubiyatga uchragan, Boyazidning oʻzi va ikki oʻgʻli asir olingan. Temur otliq qoʻshinlari Kichik Osiyodan orqaga chekinayotgan turklarni taʼqib qilib, gʻarbiy qirgʻoqlarni, shu jumladan Izmir dengiz portini egallab olishgan. Yunonlar va geneoslar turk qoʻshinlarining qoldiqlarini Yevropa qirgʻoqlariga olib ketishgan, bu esa ularni oxirgi magʻlubiyatdan qutqargan.

Temur qoʻshinlari Kichik Osiyoni vayron qilgan. Siyosiy parchalanish kuchayib ketgan. Kichik mustaqil knyazliklar tiklanib, Temur Usmoniylarning keskin qisqartirilgan mulklarini Boyazidning oʻgʻillariga taqsimlab bergan. Boyazidning oʻgʻillari oʻrtasida shafqatsiz kurash boshlangan, ularning har biri asirlikda oʻlgan otasining taxtini olishga intilganlar. Bir necha yil oʻtgach, toʻrt aka-ukalardan faqat ikkitasi – Musa va Muhammad tirik qolgan. 1413 yilda Muso hal qiluvchi jangda magʻlubiyatga uchrab, asir olingan va boshidan judo qilingan. Muhammad (1413–1421) Yevropa va Kichik Osiyoda Usmoniylar mulkinga mustaqil xoʻjayiniga aylangan.

Muhammad eng avvalo Usmoniylar imperiyasida tartib oʻrnatgan. Oʻzlarini oʻnglab olgan bolqonliklar Boyazid avlodlarining oʻzaro talashuvlaridan foydalanib goh u yer, goh bu yerda bosh koʻtara boshlagan edilar. Muhammad sulton boʻlgach, ana shunday koʻtarilishlarga qattiqqoʻllik bilan chek qoʻydi. Lekin turklarga ashaddiy dushman boʻlib qolgan venetsiyaliklar shunga qadar Galliopolga hujum qilib, uni bosib olishga ulgurishgan edi. U qadar qudratli boʻlmagan harbiy-dengiz kuchlariga ega Muhammad Venetsiyaning dengiz kuchlariga qarshi tura olish maqsadida bu mamlakat bilan sulh bitimi tuzgan. Biroq shu paytda boshqa muammo kelib chiqqan: musulmonlarga mansub bir bidʼatchi oʻzini haloskor deb eʼlon qildi. Kichik Osiyodagi gʻarbiy sohil boʻylab harakat boshlagan bu kishi Badriddin Mahmud boʻlgan. Sulton Mahmud Badriddinga qarshi yuborgan qoʻshini magʻlubiyatga uchragan. U boshlagan boshqa bir yurish ham barbod boʻlgan. Nihoyat shahzoda Murod Boyazid Poshsho hamrohligida katta qoʻshinga bosh boʻlib borib, Badriddin kuchlarini tor-mor keltirgan va bidʼatchilikni ham tag-tomiri bilan tugatgan. Muhammad qazo qilgach, Murod taxtni egallagan. Ichki ahvolini mustahkamlagan Turk feodallari yana istilochilik yurishlarini boshlaganlar. 1421-yilda Murod II (1421–1451) qoʻshinlari Konstantinopolni qamal qilishgan, ammo bu safar turklar chekinishga majbur boʻlishgan. Keyingi yili sulton qoʻshini Albaniyaga bostirib kirgan. 1430-yilda Saloniki egallangan. Keyingi yillarda turk qoʻshinlari Yunoniston, Albaniya va Serbiyada yangi yurishlarni amalga oshirgan.

Turk istilochilarining shimoli-gʻarbiy tomonga yurishlariga isteʼdodli qoʻmondon Yanos Xunyadi boshchiligidagi vengerlar qatʼiy qarshilik qilganlar. Faqat 1448-yilda, mashhur Kosovo maydonidagi jangda turklar nihoyat kichik Vengriya armiyasini magʻlubiyatga uchratishgan. Ushbu magʻlubiyat, Janubi-sharqiy Yevropaning turklarga qarshi tura oladigan oxirgi davlatining harbiy kuchini sezilarli darajada zaiflashtirgan.

Turklarning harbiy yutuqlari uchun yanicharlar deb nomlangan muntazam piyodalar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Dastlabki yanicharlar guruhi Oʻrxon qoʻl ostidagi harbiy asirlardan tashkil topgan va ularning soni atigi ming kishidan iborat boʻlgan. Murad II davrida piyoda askarlarga boʻlgan ehtiyoj keskin oʻsgan va yanicharlarni yollash usuli oʻzgartirilgan. 1438-yilda nasroniy bola-

larini muntazam ravishda yollash yangi kelganlar uchun majburiy ajratish yoki «soliq solig'i» ko'rinishida yanicharlarni tayyorlashni boshlagan.

XV asrning o'rtalariga kelib, turk armiyasi o'zining tashkiliy va jangovorlik sifati jihatidan Yevropa qo'shinlari va yollanma qo'shinlariga nisbatan juda ko'p ustunlikka ega bo'lgan.

Shayx Badriddin Simoviy boshchiligidagi xalq harakatlari.

XIV asrda Usmoniylar tomonidan olib borilgan tajovuzkor urushlar aholining noroziligiga sabab bo'ldi. Feodallashayotgan tabaqa moddiy boyliklar va siyosiy imtiyozlarni to'plagan bir paytda, oddiy xalq hukmron tabaqa va davlat oldidagi burchlarini ko'paytirilib, ularning huquqlari yanada pasaytirilgan. Tabaqaviy zulmdan tashqari, turk bo'lmagan aholi milliy va diniy zulmdan ham ko'p aziyat chekkan. Temurning bostirib kirishi va Boyazid o'g'illarining hokimiyat uchun uzoq davom etgan kurashlari natijasida vujudga kelgan ommaning yashash sharoiti yomonlashib, qarama-qarshiliklar avj olgan.

Xalqaro urush davrida feodallarning o'zboshimchaliklari va zo'ravonligi Kichik Osiyo va Bolqonning 1416 ta muhim hududlarini qamrab olgan xalq qo'zg'oloniga bevosita turtki bo'lgan.

O'rta asrlarda quyi mehnatkash xalqlarning ko'plab chiqishlari singari, bu qo'zg'olon diniy-mistik qobiqqa ega bo'lgan. O'sha paytda shayx Badriddin Simoviyning ta'limoti xalq orasida keng tarqalgan. O'zining diniy qarashlariga ko'ra, shayx shialikka yaqin bo'lgan, ya'ni Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan sunniy ruhaniylari nuqtai nazariga ko'ra u dindan chiqqan edi. Badriddin, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, odamlarning birodarligini targ'ib qilgan, ijtimoiy tengsizlikni qoralagan, darveshona hayotni targ'ib qilgan. U bor mol-mulkini kambag'allarga topshirib, ixtiyoriy ravishda qashshoqlik ramzi bo'lgan qo'pol jun matodan kiyim kiygan. Shayxning turmush tarzi katta shuhrat keltirgan. 1405-yilda Badriddin Qohiradan qaytib kelganida Konya, Kutahiya, Aydin, Tir, Izmir, Bursa, Edirne va uning atrofidagi qishloqlarda u ko'plab muridlarga ega bo'lgan.

Mamlakatdagi keskin vaziyatni bilgan Badriddin Simoviy 1416-yil boshida harakat qilishga qaror qilgan va norozilik ayniqsa kuchli bo'lgan G'arbiy Kichik Osiyo mintaqalariga o'z talabalari, muridlarini yuborgan. O'sha yilning bahorida uning ikki shogirdi

dehqon Mustafo va shaharlik Torlaq Kamol Izmir va Manis tumanlarida isyon ko'tarishgan.

Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy dasturi umumbashariy tenglik shiori bilan ifodalangan. Mustafo dehqonlarga mehnat mahsuloti (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va boshqalar), shuningdek yer va chorva mollari umumiy foydalanish va egalik qilish g'oyalari ni targ'ib qilgan. Torlaq Kamol ilgari surgan dinlarning tenglari g'oyalari, ayniqsa musulmon bo'lmaganlar orasida juda muvaffaqiyatli bo'lgan.

Mustafo va Torlaq Kamol boshchiligidagi guruhlarining soni taxminan 10 ming kishini tashkil qilgan. O'z maqsadlari uchun qurolli kurashni boshlab, Sulton qo'shinlarini bir necha bor mag'lub qilganlar. Biroq, qo'zg'olon hududlarini kengaytirish va dehqonlarning yangi guruhlarini jalb qilish o'rniga, namoyish yetakchilari mudofaa taktikalariga rioya qilib, o'z joylarida qolishgan. Bu orada, Sulton Muhammad I muhim harbiy kuchlarni to'plagan va keyinchalik Mustafo, so'ng Torlaq Kamolning bo'linmalariga hujum qilgan. Asirlikka olingan dehqon rahbarlari va ularning barcha tarafdorlari qatl qilingan.

Qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchraganligini bilgan shayx Badriddin Valaxiyaga qochgan. Keyin Dunayni kechib o'tib, Dehli Orman o'rmonlariga yashiringan. Shayx bu yerdan, o'z tarafdorlarining oldiga Zagora shahriga (Edirne yaqinida) ko'chib o'tgan. Badriddin «Mahdi» (Masih) nomini olgan, bu Islom ta'limotiga ko'ra odamlarni azob-uqubatlardan xalos qilish uchun yer yuzida paydo bo'lishi kerak edi. Shayxning siyosati shogirdlarining harakatlaridan bir oz farq qilar edi. Ikkinchisi faqat oddiy odamlarni qo'llab-quvvatlashga da'vat qilar ekan, Badriddin feodallarning tarafdorlarini qidirib, ularga obro' va yuqori lavozimlarni va'da qilgan. Uning harakati ishtirokchilari orasida ilgari Musoni qo'llab-quvvatlagan va keyinchalik o'z yerlaridan va martabalaridan mahrum bo'lgan ko'plab odamlar bo'lgan.

Harakatning boshlanishi muvaffaqiyatsiz chiqqan. Kichik Osiyodagi qo'zg'olon allaqachon bostirilgan va sulton Bolqon yarim oroliga o'z qo'shinlarini topshirishga muvaffaq bo'lgan. Jang paytida Badriddin jamoasi mag'lubiyatga uchragan. Shayxning o'zi yangi nutqni tayyorlashga kirishish uchun Dehli Orman o'rmonlariga

qochgan, ammo xoinlar xiyonat qilganlar va 1416-yil dekabrda Edirna qatl etilgan.

1453-yilda Konstantinopolni egallanishi, Bolqon va Kichik Osiyoni istilo qilinishining tugashi. Yangi Sulton Muhammad II taxtiga o'tirish paytida (1451–1481) Bolqon yarim orolining katta qismi turklar qo'lida bo'lgan. Bolqon xalqlarini birlashtirib olish uchun Vizantiya poytaxti – Konstantinopolni olish kerak edi.

Endi toju taxt eng yirik turk sultonlaridan biriga – Muhammad alayhissalom dinining jonkuyari sifatida Fotih nomi bilan shuhrat qozongan Muhammad II ga tekkan. U amir Muoviya davridan beri ko'plab qamallarga bardosh berib, Islom kuchlariga taslim bo'lmagan Konstantinopolni bosib olishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan. Uning imperatori turklarga qaram bo'lib, soliq to'lab turgan, shahar barcha yevropaliklar uchun, ayniqsa, yuz ellik yil mobaynida turklar bilan jangu jadallar olib borgan Sharqiy Yevropa nasroniylari uchun ochiq edi. Ilgarigi sultonlar Bosforning Osiyo qismida, Konstantinopolga bevosita yaqin bo'lgan Onado'li Hissor deb nomlangan joyda qurdirgan qasrini u Rumeli Hissor, ya'ni Yevropa saroyi deb atagan. Qal'a qurib tugatilgach, Muhammad o'rta asrlar oxirida o'z nomi bilan bog'liq mashhur bo'lib qolgan qamallaridan birini amalga oshirishga kirishgan.

Bir necha asrlar davomida Konstantinopol eng yirik savdo va madaniy markaz bo'lgan. Ikki qit'aning chorrahasida va quruqlik va dengiz yo'llarining chorrahasida joylashgan shahar tranzit savdosidan katta miqdordagi foyda oldi. Biroq, XV asrda Konstantinopolning tijorat qiymati tushgan – asosiy savdo yo'llari o'zgartirilgan, xalqaro tranzit savdosi italyan savdogarlari qo'lga o'tgan. Konstantinopolning turkiyaliklar tomonidan doimiy ravishda qamal qilinishi Vizantiya poytaxti hayotiga juda salbiy ta'sir ko'rsatgan – minglab odamlar shahardan qochib ketishgan. Ammo shunga qaramay, o'sha paytlarda Konstantinopol quruqlikdan va dengizdan yaxshi himoyalangan birinchi qal'a bo'lib qolgan.

Istiloga tayyorgarlik ko'rayotgan turklar og'ir artilleriya yaratilishiga alohida e'tibor berganlar. Shu bilan birga, ular Vizantiya poytaxti taqdirini hal qiladigan katta flotni tayyorlashgan.

Turklar o'zlarining tanlangan qo'shinlarini jami 100 ming kishigacha jamlaganlarida, shahar himoyachilari deyarli o'n baravar kam bo'lgan. Qamal qilinganlar orasida shaharga yordam berish uchun

maxsus kelgan 4 mingga yaqin italiyaliklar ham boʻlgan. Son jihatdan ustunlikka qaramay, turklar ellik kun davomida shaharni qamal qilishlari kerak edi.

Konstantinopolning qulashi xiyonat tufayli tezlashgan. Poytaxtning chekkasida – Gala shahrida yashagan venetsiyaliklar va genoslarning yordami bilan turklar oʻzlarining yengil kemalarini Marmar dengizidan Oltin Shox koʻrfaziga sudrab, Konstantinopolni Galatadan ajratib olishgan. Koʻrfazdan shahar istehkomlari turklar foydalangan eng yaroqsiz boʻlgan portni egallab olgach, ular Oltin Shoxning yuqori qismida suzuvchi koʻprik qurganlar va bu tomondan harakat qilish imkoniyatiga ega boʻlganlar. 1453-yil 29- mayda Vizantiya poytaxti himoyachilar kuchlarini asosiy hujum soʻnalishi tomon soʻnaltirganlar. Imperator oʻldirilib, Muhammad II shaharni Istanbul deb oʻzgartirgan va oʻz qarorgohini bu yerga koʻchirgan.

Turklar shaharni egallab olgach, uni uch kun davomida talon-taroj qilganlar. Hozirga qadar Konstantinopolni bosib olish paytida yoʻq boʻlgan sanʼat yodgorliklari soni aniq belgilanmagan. Shaharning eng boy arxivlari ham yoʻq qilingan. Bosqinchilar 60 mingga yaqin odamni asirga olishgan. Bu qimmatbaho oʻlja edi.

Konstantinopolning qulashi haqidagi xabar butun Yevropani qattiq hayratda qoldirgan. Papa Kalititus III xristian hukmdorlariga «fosiqlar»ga qarshi salib yurishlarini talab qilib, elchilarni yuborgan. Germaniya imperatoriga yoʻllagan maktubida, papa «juda kuchli flot bilan turklarga qarshi hujumga oʻtishni» va Muhammad II ni yengishni soʻragan. Bunday murojaat hatto Efiopiya hukmdoriga ham yuborilgan.

Konstantinopolning qoʻlga olinishi Usmonli davlatining kuchini sezilarli darajada oshirib, oʻz mustaqilligini yoki baʼzi bir muxtoriyatini saqlab qolgan Bolqon xalqlarining ahvolini keskin yomonlashtirgan. 60-yillarning boshlariga kelib, turklar Vizantiya mulkining barcha qoldiqlarini yoʻq qilishgan. Serbiya, Bosniyaning navbati kelgan. Ilgari, serblar, Vizantiya, Venger va boshqa turklar tomonidan bosib olingan hududlar ularga mahalliy hukmdorlar tomonidan yigʻilgan soliqni toʻlashlari kerak edi va Usmonli bosqinchilari soliq solinadigan aholi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqaga kirishmagan. XV asrning ikkinchi yarmida bu hududlar oddiy viloyat sifatida Usmoniy davlati tarkibiga kiritilgan.

Turklar uzoq vaqt davomida Albaniyada o'z hukmronligini o'rnatganlar. Bu yerda mahalliy aholi taniqli sarkarda va tashkilotchi Jorj Kastrioti (Iskandarbek) boshchiligida chorak asr davomida bosqinchilarga qat'iy ravishda qarshilik ko'rsatgan. Faqat 70-yillarning oxiriga kelib, Iskandarbekning o'limidan 10 yil o'tgach, Muhammad II Albaniyani zabt etishga muvaffaq bo'lgan. Biroz oldinroq, turklar Moldova va Valaxiyani bosib olganlar; ammo, bu knyazliklar ba'zi ichki muxtoriyatni saqlab qolishgan.

Nihoyat Bolqonda paydo bo'lgan Muhammad II Kichik Osiyoda yangi istilolarni boshlab, Genuya va venetsiyaliklarni Qora dengizdan quvib chiqargan.

Avvalo, turklar XIII asr boshlarida paydo bo'lgan Yunoniston Trabzon imperiyasining markazi Trebizond (Trabzon)ni egallab olishgan. 28 kun davomida Trebizond aholisi sulton qo'shinlariga qarshi o'jarlik bilan o'zlarini himoya qilganlar, ammo keyin imperator David Komnin boshchiligidagi yunon zodagonlari xoinlik qilganlar. Muhammad II Trabzonning deyarli barcha aholisini Istanbulga ko'chirgan.

Kermon beyligi hukmdorlari 70 yil davomida o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Ammo Trabzon imperiyasi qulaganidan keyin ularning ahvoli o'ta og'irlashgan. XV asrning 50–60-yillarida bu davlat Armaniston, Ozarbayjon, Kurdiston, Iroq, shuningdek Eron va Sharqiy Kichik Osiyoning qator mintaqalarini o'z ichiga oldi. Uzun Xasan armiyasi 50 ming otliqdan iborat edi. Shunga qaramay, ko'chmanchi, kam qurollangan, jasur, ko'ngillilar uchun yaxshi artilleriya va harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan turk yanicharlariga qarshi kurashish juda qiyin edi. 1473-yilda Muhammad II Uzun Xasan va Kermon qo'shinlarini tor-mor qilgan. Kermon mustaqilligini yo'qotgan va ko'p o'tmay Kichik Osiyodagi Uzun Xasanning mulki Usmonli davlatining tarkibiga kirgan.

Bolqon va Kichik Osiyodagi janglar bilan bir qatorda, turklar Venetsiya va Genuyaga qarshi harbiy yurishlarni boshlaganlar. Ular Qora dengiz havzasida va O'rta yer dengizining sharqiy qismida o'zlarining hukmron mavqeyini himoya qilishga harakat qilganlar. XV asrning 60–70-yillarida Venetsiya va Turkiya o'rtasida quruqlik va dengizda keskin kurashlar bo'lgan. Katta floti 3 mingtagacha bo'lgan kema bilan Venetsiya Egey dengizidagi Arxipelag orollarini

ushlab tura olmagan. Faqatgina Krit va Ion orollarini saqlab qolingan. Ammo Genuya uchun eng nozik zarba Turkiyaning 1475-yilda Qumni bosib olishi va Qora dengiz sohilidagi mustamlakalarning asosan Kafa (Feodosiya)ning to'liq mag'lubiyati edi. Italiya respublikalarining kuch-qudratini butunlay yo'q qilish uchun, Muhammad II hattoki urushlarni Apennin yarim oroliga davom ettirishga urinib ko'rgan, u yerda turklar Otranto kichik shahrini egallab olishga muvaffaq bo'lishgan. Biroq, Sultonning o'limi bilan Italiyada harbiy yurishlar to'xtatilgan.

Muhammad II «Fotih» nomini olgan. Uning hukmronligining 40-yillarida Usmoniylar davlati o'z chegaralarini sezilarli darajada kengaytirib, barcha qo'shnilarda qo'rquvni uyg'otadigan kuchli imperiyaga aylangan.

XV asrning ikkinchi yarmidagi feodal munosabatlar va dehqonlarning holati. Turk tarixida Muhammad II nafaqat istilochi, balki mamlakatning ichki hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirgan yirik davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Turklarning muhim harbiy yutuqlari va Kichik Osiyo va Bolqonlarda ularning to'liq hukmronligi o'rnatilishi unga feodal tuzumini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng miqyosdagi faoliyatni amalga oshirishga imkon bergan.

XV asrning boshlarida harbiy yer-mulk tizimini rivojlantirish juda sekin davom etgan. O'sha paytda timariotlar va zaymlarga egalik umumiy yer fondining ahamiyatsiz qismini tashkil etgan. Ammo Muhammad II ning kelishi bilan Sipohiy tizimining tez tarqalishi va birlashishi davri boshlangan.

Murod I davridan buyon Usmoniy harbiy yetakchilariga fath qilingan yerlarda taniqli jangchilarni yer-mulk bilan mukofotlash imkoniyati berilgan. XV asrning birinchi yarmida harbiy tizimning jadal rivojlanishi feodallarning sezilarli darajada ko'payishiga va sulton hokimiyatining ijtimoiy bazasining kengayishiga olib kelgan. O'zlarini butunlay harbiy ishlarga bag'ishlagan sipohiyarning asosiy daromad manbai yer-mulkdan kelgan. Shuning uchun harbiy yer-mulk tizimining barpo etilishi turk istilolarining yanada kengayishiga xizmat qilgan.

Muhammad II davrida turk feodal huquqining birinchi qonunlari to'plami «Muhammad II Fotih kodeksi» nashr etilgan. Kodeks

(«Qonunnoma») Turkiyada agrar munosabatlarni tavsiflashda katta qiziqish uygʻotadi.

«Qonunnoma» toʻrt qismdan iborat. Dastlabki uchtasida shaxsiy huquqbuzarliklar roʻyxati (kaltaklash, haqorat qilish, oʻldirish, sharobni isteʼmol qilish va boshqalar) va ularga nisbatan qoʻllaniladigan jazo choralari, toʻrtinchi qismida esa dehqonlarning feodallar oldidagi majburiyatlari koʻrsatilgan.

Shunday qilib, turk hukmron tabaqasidagi harbiy tizimning tasdiqlanishi bilan ikkita asosiy guruh shakllangan. Harbiy mulkdor – timariotlarning asosiy ommasi feodal ijarasining ahamiyatsiz qismini va tayinlangan dehqonlarga nisbatan cheklangan huquqlarga ega boʻlgan hukmron tabaqaning quyi qatlamini ifodalagan. Katta feodallarning kichik bir guruhi kichik sipohiyarga qarshi chiqishgan, ammo ular oʻzlarining taʼsiri va boylıklarida kuchli edilar. Xususiyl mulkning asosiy qismi aynan oʻsha shaxslar boʻlgan.

Usmoniy hukmdorlari yerlarni harbiylar mulki, mulk yoki vaqflar shaklida taqsimlay boshlaganlarida, qishloq aholisi yangi yer egalariга – turk harbiy feodal zodagonlariga qaram boʻlib qolishgan.

Gʻarbiy Yevropa va Rossiyadan farqli oʻlaroq, Turkiyada katta yer egalari fermalari mavjud boʻlmagan. Harbiylar mulklari yerlardan iqtisodiy foydalanish bilan shugʻullanmaganlar va dehqonchilik texnikasini takomillashtirish yoki hosilni oshirish haqida oʻylamaganlar, faqat oʻz vaqtida ijaraga olish haqida oʻylaganlar. Butun yer dehqonlar tomonidan yetishtirilib, ular oʻz hosillari uchun maʼlum bir qismini oʻz feodallariga berganlar. Turkiyadagi qaram dehqonga raiyat deyilgan.

Muhammad II kodeksining moddalari dehqonning sipohiyarga nisbatan majburiyatlarini belgilab bergan. Ikkinchisi yer soligʻini toʻliq ajratilgan yerdan 3 foiz va qoʻshimcha ravishda har qanday hosildan 10 foizini undirishga haqli edi. Shuningdek, dehqonlar yer egalariга tegirmon soligʻi, chorva mollari soligʻi, nikoh soligʻi, yer soligʻi (tapu) va har xil turdagi jarimalarni toʻlashgan. Bundan tashqari, ular turli vazifalarni bajarishlari kerak edi, qalʼalar, yoʻllar, koʻpriklar qurganlar va taʼmirlaganlar. Musulmon boʻlmaganlarning – yunonlar, armanlar, bolgarlar, serblar va boshqalarning ahvoli yanada ogʻirlashgan, chunki ularga qoʻshimcha harbiy xizmatdan ozod etilganlik uchun toʻlov sifatida koʻrsatilgan qoʻshimcha juzya berganlar.

XV asrning ikkinchi yarmida Turkiyada feodal to'lovlarining barcha uch turi – oziq-ovqat, rivojlanish va pul mavjud bo'lgan.

Lotih Qonunomasiga binoan, dehqon o'z yerini qayta ishlamagan taqdudagina yo'qotishi mumkin. Dehqonlarning yerlari meros orqali otadan o'g'ilga o'tgan.

Muayyan davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda XV asrda turk sultonlari shartsiz yerga egalikning kengayishiga yo'l qo'yishga majbur bo'lganlar. Shunday qilib, Rumeliyada mulk va vaqflarning tarqalishi fath qilingan yerlarni tezda iqtisodiy tiklash zaruriyati va Bolqon yarim orolining turk mustamlakasiga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan.

Feodallar o'rtasidagi ayirmachilik an'analarining kuchayishi savb va Usmoniylar qo'shinini ushlab turish uchun daromadlarni domiy ravishda ko'paytirish zaruriyati Muhammad II ni mulklar va vaql egaligiga qarshi choralar ko'rishga majbur qilgan.

Muhammad II ning islohoti Kichik Osiyodagi qo'zg'olonchi hukmdorlarning qudratiga putur yetkazgan, ammo feodal tabaqani kuchaytirish jarayonini to'xtata olmagan. Sulton Boyazid II (1481–1512) hukmronlik qilgan xususiy yerlarning egalari islohotlardan oldin mavjud bo'lgan mulk va vaqfni tiklashga erishganlar. Bundan tashqari, xususiy yerga egalik qilish yanada keng tarqalgan.

Mavzuga doir savollar:

1 Usmoniylar saltanati vujudga kelishi arafasida Kichik Osiyoda siyosiy vaziyat qanday bo'lgan edi?

2 XIV asrda Bolqonda turklar istilosiga qarshi mahalliy aholi qarshiligi qay darajada bo'lgan?

3 Usmoniylar saltanatida yer egaligining qanday ko'rinishlari bo'lgan?

4 XV asrning birinchi yarmida Usmoniylar sulolasi vakillarining o'zaro munosabatlari qanday ko'rinishda bo'lgan?

5 Shayx Badriddin Simoviy boshchiligidagi xalq harakatlari qanday natija bilan tugagan?

6 Turklar tomonidan Konstantinopolni egallanishi o'sha davr siyosiy jarayonlariga qanday ta'sir etgan?

7 XV asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar saltanatidagi feodal munosabatlar va dehqonlarning holati qanday edi?

XIV BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA MO'G'ULLAR IMPERIYASI

Mo'g'ul qabilalarining hayot tarzi va ijtimoiy tuzumi. XII asrda hozirgi Mo'g'uliston, Manchjuriya hududida va Sharqiy Sibirning Janubiy qismida mo'g'ullarning ko'p sonli qabilalari istiqomat qilgan. Mo'g'ullarning ko'pchilik qismi dasht va cho'llarda yashab, chorvachilik, yilqi, qoramol va qo'y-echki boqish bilan shug'ullanishgan. Mo'g'ullarning bir qismi o'rmonlarda yashab, mo'ynali hayvonlar ovlar va baliqchilik qilgan. Dasht mo'g'ullari ko'pchilikni tashkil qilib, qolganlarga nisbatan rivojlangan. Ular o'rmonlarda yashovchi mo'g'ullar ustidan hukmronlik qilib, ulardan majburiy suratda mo'yna solig'i olganlar.

XII asrdagi mo'g'ullarning ijtimoiy tuzumida urug'chilik tuzumining xususiyatlari mavjud bo'lgan. Ko'chmanchi mo'g'ullar urug'-urug' bo'lib yashaganlar. Ko'chmanchi mo'g'ullarning manzillari *kuren* (qo'shxona)dan, ya'ni urug' boshlig'i – oqsoqol o'tovi tevaragida guruh-guruh bo'lib joylashgan bir necha o'nlab yoki hatto yuzlab o'tovlar yig'indisidan iborat bo'lgan. Urug'chilik qasosi mo'g'ullar hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning dinida ajdodlar ruhiga sig'inish katta o'rin tutgan. Har bir urug'ning izzat-hurmat qiladigan o'z xudolari – eng shuhrat qozongan urug'doshlari orasidan chiqqan ajdodlari bo'lgan.

Biroq, XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida mo'g'ullarning ijtimoiy tuzumida urug'chilik munosabatlari sezilarli darajada yemirila boshlangan. Ko'chmanchilarning urug'chilik kureni o'rniga yakka-yakka holdagi ko'chmanchi xo'jalik – *ail* (*ovul*)lar tobora ko'paygan. Odatda, *ail* o'zining qo'y-echki podasi va yilqisiga ega bo'lgan katta patriarxal oiladan iborat bo'lgan. Urug'chilik yemirilishi natijasida boylar, ya'ni *noyonlar* va *bag'aturlarning* dongdor oilalari ajralib chiqqan. Noyonlarda ma'lum miqdorda qul – *xarachulari* bo'lgan. Noyonlar tevaragida navkarlari bo'lgan. Noyonlar bilan bag'aturlar *o'rdaga* – urug'lar ittifoqiga boshchilik qilganlar. O'rdalar o'z navbatida ancha yirik qabila ittifoqlariga uyushgan. Bu yirik qabila ittifoqlari tepasida xonlar turgan. Xonlar va ularning tevaragida harbiy qabila zodagonlari bo'ysundirilgan qabilalardan xiroj olganlar. Mo'g'ullarda davlatning varvarlik

ko'rinishi ana shu tariqa vujudga kelgan. Bu davlat boshda «harbiy demokratiya» xususiyatlariga ega bo'lib, bu o'ziga xos mo'g'ul feodal munosabatlarni («ko'chmanchi feodalizm») yanada rivojlana borishi bilan harbiy demokratiya asta-sekin buzilib, ahamiyatini yo'qota boshlagan. Ittifoqchi qabilalarning zodagonlari vaqt-vaqti bilan alohida qurultoyga yig'ilganlar. Qurultoyda xonlarni saylangan, dushman qabilalar va xalqlar bilan urushish va yarashish masalalari hal qilingan. Ba'zan gunohkor deb topilgan ayrim noyonlar va hatto xonlarning o'zlarini sud qilgan.

Chingizxonning mo'g'ul-tatar qabilalarni birlashtirishi va uning istilolari. XIII asr boshlarida Amur daryosining yuqori qismlari bilan Xitoyning shimoliy chegarasi o'rtasidagi hududida yashagan mo'g'ul qabilasi xonlaridan biri Timuchin (1155–1227-yv) mo'g'ullarning turli qabilalari va ko'p sonli tatarlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. 1206-yilda Onon daryosi vodiysida to'plangan qurultoyda Timuchin «ulug' xon» deb e'lon qilinib, Chingizxon nomini olgan. Mo'g'ullar katta harbiy ittifoqining vujudga keltirilishi eng yirik istilolarni keltirib chiqargan. Buning uchun ko'pgina shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Timuchin kuchli mo'g'ul harbiy-qabila zodagonlariga boshchilik qilgan. Bu harbiy-qabila zodagonlari bungacha harbiy o'ljani qo'msagan o'z ko'ngilli qo'shinlaridan iborat tajribali harbiy kuchga ega bo'lgan. Mo'g'ul qabilalari oddiy jangchilarning katta zaxiralari ega edi. Mo'g'ullarning ko'chmanchi tarzda hayot kechirishi ularda a'lo darajadagi otliq askarlarni shakllanishiga sabab bo'lgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar ushbu otliq askarlar bilan to'qnashishga oqizlik qilgan. Mo'g'ullar Xitoy bilan qo'shnichilikda yashab va u bilan ko'pincha urushlar qilish bilan bir vaqtda, harbiy-texnikada ko'pgina narsalarni shu xitoylardan qabul qilib olgan. Jumladan, mo'g'ullar alohida devor teshadigan va o't sochadigan qurollar yordamida shaharlar olish san'atini batamom egallagan.

Eng yaqin yillar ichida Chingizxon Janubiy Sibirda yashagan ko'pgina xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan. Ular orasida buriyalar, yoqutlar, qirg'izlar va boshqa xalqlar ham bo'lgan. 1211-yilda Chingizxon Shimoliy Xitoyni istilo qilishni boshlab, uni umrining so'nggi yillari tugallagan. Ammo Xitoyni uzil-kesil istilo qilishdan avval, Chingizxon O'rta Osiyoda keng istilochilik ishlarini boshlab

yuborgan. 1218–1223-yillarda o‘sha davrdagi katta davlatlardan bo‘lgan Xorazmshohlar davlatini istilo qilgan. Unga Xorazmdan tashqari Sharqiy Eron, Buxoro, Afg‘oniston davlatlari ham kirgan. Chingizxon istilo qilgan mamlakatlar va ulardagi shaharlarni vayron qilgan. Chingizxonga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va boshqa shaharlardagi aholining ko‘pchilik qismi qirib tashlangan. Mohir hunarmandlar esa mo‘g‘ullarning qullariga aylantirilgan. Yengilganlarning barcha mol-mulki mo‘g‘ul o‘rdalarining o‘ljasiga aylangan.

Mo‘g‘ullar O‘rta Osiyodagi irrigatsiya tizimini yakson qilgan. Jumladan, Marv yaqinidagi mashhur Murg‘ob to‘g‘onini buzib tashlagan. Chingizxonning eng yaqin noyonlar boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlarining bir qismi Kaspiy dengizining janubiy sohili bo‘ylab Kavkazortiga o‘tib kirib, so‘ng Kavkaz (Darband darasi) orqali Donga, Qipchoq cho‘liga chiqqan. Bu yerda, Kalka daryosi bo‘yida, mo‘g‘ullar 1223-yilda birinchi marta ruslar bilan to‘qnashgan. Ruslar qipchoq (polovets)larning ittifoqchisi sifatida ularga yordam bermoqchi bo‘lgan edilar. Rus knyazlari bilan qipchoq knyazlarining bir-birlari bilan kelishmasdan harakat qilishi oqibatida ittifoqchilar mag‘lubiyatga uchragan.

Chingizxon davlatining idora uslubi va ijtimoiy xarakteri. Chingizxon vafotidan so‘ng 1227-yilda mo‘g‘ul davlati juda ulkan, ya‘ni sharqda hozirgi Oxota dengizi sohillaridan tortib g‘arbda Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlarigacha cho‘zilib ketgan hududni egallagan. Mo‘g‘ulistondan tashqari unga Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyoning katta bir qismi, Janubiy Sibir, Kavkazning bir qismi ham kirgan. 1235-yildan boshlab mo‘g‘ullarning rasmiy poytaxti O‘rxon daryosi bo‘yidagi Qoraqurum shahri bo‘lib, u tom ma‘nodagi shahardan ko‘ra ko‘proq harbiy manzilni eslatgan. Yangi davlat ochiqdan-ochiq harbiy xarakterdagi davlat bo‘lgan. Chingizxon va uning eng yaqin yordamchilari ko‘plab qo‘shin tashkil etish, tobe etilgan aholidan xiroj yig‘ish, bo‘ysundirilgan xalqlarni bostirish kabilar bilan band bo‘lgan. Qo‘shinlar tanlab olish tajribasiga asoslanib, mo‘g‘ul hukumati istilo qilingan mamlakatlarni harbiy belgiga ko‘ra ma‘muriy jihatdan bo‘lish usulini joriy qilgan. Mamlakatlar tumanlarga bo‘lingan, bu tegishli hududdan xiroj yig‘adigan qo‘shinning aynan «o‘n ming kishilik guruhi», «ming

kishilik guruhi» va «yuz ming kishilik guruhi» degan ma'noni bildirardi. Ma'muriy viloyat va tumanlarning boshliqlari ham *tumanboshi, mingboshi, yuzboshi* deb atalgan.

Istilo qilingan mamlakatlarni idora qilishda boshqa yovvoyilarga xos xususiyatlar ham namoyon bo'lgan. Chingizxon o'zining oila a'zolariga *uluslar* ajratib bergan. Mo'g'ul davlatining barcha bepoyon mulklari Chingizxon oilasining meros mulki deb oddiygina qaraladigan bo'lgan.

Qisqa fursatda, Chingizxon hali hayotlik paytida, xususan, uning vafotidan keyin esa tumanlar, mingboshilar va boshqa harbiy boshliqlar tobe etilgan dehqon aholisini ekspluatatsiya qilgan yirik zamindorlarga aylana boshlagan. Istilolardan oldingi davrda mo'g'ullarda mavjud bo'lgan «ko'chmanchi feodal munosabatlar» o'rni o'troq dehqonchilik madaniyati mavjud bo'lgan mamlakatlarda yangi feodal munosabatlarga o'tilgan. Ushbu jarayonda mahalliy katta yer egaligining taraqqiy etganligi bosqinchilarning yangi feodal munosabatlarga o'tishini bir muncha yengillashtirgan. Xorazm va boshqa mahalliy feodallarning anchagina qismi mo'g'ullarga ixtiyoriy ravishda bo'ysunib, tezda mo'g'ul zodagonlari bilan qo'shilishib ketgan.

Mo'g'ullarning Chingizxon vafotidan keyingi istilochilik yurishlari. 1227-yilda Chingizxon Mo'g'ul davlatini o'zining to'rtta o'g'li o'rtasida taqsimlagan: *Ulug'xon* unvonini, markaz Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyni Chingizxonning uchinchi o'g'li O'qtoy olgan. Chig'atoy nomli ikkinchi o'g'li Amudaryoning sharqidagi O'rta Osiyo yerlarini olgan. O'rta Osiyoning g'arbiy qismi, shu jumladan, Sharqiy Eron va Shimoliy Hindiston Chingizxonning to'rtinchi o'g'li Tuluga tekkan. Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji mamlakatlar taqsimoti vaqtida qazo qilgan. Jo'jixonning o'g'li Botuxonga Irtish daryosidan tortib Ural tog'larigacha cho'zilib ketgan G'arbiy Sibir, so'ngra Shimoldan Kaspiy va Orol dengizlariga tutashgan hudud, shu jumladan, Janubiy Ural tog'i etaklari berilgan.

Chingizxonning vorislari uning istilolarini davom ettirganlar. 1235-1242-yillarda Botuxon Sharqiy Yevropada juda katta istilolar qilgan. U Rus, Volga bilan Don daryolari etaklaridagi Kama bolgarlarini, qipchoqlar va boshqa xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan. Mo'g'ullar Vengriya, Chexiya (Moraviya) va Polshaga bostirib kirgan. Ularning qo'shinlari qisman Serbiya va Bolgariya hududi orqali o'tgan. O'rta

Osiyoni istilo qilgan vaqtdagi singari, mo'g'ul-tatarlar Yevropada ham o'zlaridan keyin hamma joyni dahshatli vayrona va xarobazorga aylantirgan. Yuz minglab kishilar halok bo'lgan, gullab-yashnab turgan shaharlar vayronaga aylantirilgan. Aholining kattagina qismi o'rmonlarga qochib jon saqlagan bo'lsa, ba'zilariga og'ir xiroj solingan.

Ruslarning qahramonona qarshilik ko'rsatishi mo'g'ullarni holdan toydirgan va G'arbiy Yevropani vayrongarchilikdan qutqarib qolgan. Sharqiy Yevropadagi boshqa xalqlardan cheklar bilan polyaklar mo'g'ul-tatarlarga qarshi kurashda faollik ko'rsatgan. 1241-yil 9 aprelda Sileziyaga bostirib kirgan mo'g'ullar Legnits shahriga yaqin joyda birlashgan polyak va nemis ritsarlarini yanchib tashlagan. Mo'g'ullar Moraviya hududiga kirgan. Biroq chex-moraviya ritsarlari Olomouts shahari yaqinida 1241-yilning iyunida Botuxon qo'shinlarining bir qismini mag'lub etgan. Ana shunday tahlika ostida qolgan paytda german imperatori Fridrix II Shtaufen sustkashlik qilgan. Agar german imperatori mo'g'ullar hujumiga qarshi kurashda Vengriya qiroliga yordam berguday bo'lsa, venger qiroli Germaniya imperiyasiga *lennik*, ya'ni vassal bo'lishga ham roziman deyishiga qaramay, Fridrix II Shtaufen vengerlarga ham, polyaklarga ham hech qanday yordam ko'rsatmagan. Imperator Yevropaga qo'rquv solgan mo'g'ul xavf-xatariga qarshi yordam ko'rsatishning biror-bir amaliy tadbirlarini ko'rish o'rniga Yevropaning xristian qirollariga va german knyazlariga «sirkulyarlar yozish» bilangina cheklangan. 30 va 40-yillarda mo'g'ullar butun Kavkazortini – Gruzniya, Armeniya va Ozarbayjonni istilo qilgan.

O'rta Osiyoda mo'g'ullarning istilolarini Chingizxonning boshqa nevarasi – Tuluning o'g'li Xulagu davom ettirgan. Xulagu 50–60-yillarda Eron, Mesopotamiya va Suriyani bosib olgan. 1258-yilning boshlarida Xulagu Bag'dodni egallagan. Bu vaqtga kelib Bag'dodning siyosiy ahamiyati ko'pdan tushib ketgan. Ammo bu shahar eng katta savdo-sanoat va madaniyat markazi bo'lib qolavergan. Bag'dodda ko'pdan-ko'p muhtasham binolar bo'lgan. Arab va boshqa sharq, adabiyotining qimmatbaho to'plamlari saqlanadigan katta-katta kutubxonalar, shuningdek, «badiiy hunarmandchilik asarlarining eng boy kolleksiyalari Bag'dod shahriga haqiqiy shuhrat bag'ishlagan edi. Xalifalik poytaxti bir hamla bilan bosib olingan. Mo'g'ullar uch haftadan ko'proq shaharni vahshiyona tarzda

talaganlar. Bagʻdod shahriga oʻt qoʻyilib, shahar va undagi barcha qimmatbaho badiiy boyliklar batamom yoʻq qilib tashlangan. Abbosiylar avlodidan boʻlib, bu vaqtda musulmonlar olamiga diniy jihatdangina hokimiyat yurgizib kelayotgan xalifa Mustasim asirga olinib, Xulaguning buyrugʻiga binoan boʻgʻib oʻldirilgan.

Shu vaqtda moʻgʻullar Xitoyning janubiy viloyatlarini egallash uchun Xitoyga qarshi kurashayotgan edilar. Oʻqtoy vorislarining oʻrnini olgan Xubilayxon (Xulaguning ukasi) 1279-yilda Pekin shahrini oʻziga poytaxt qilib, butun Xitoyga imperator boʻlgan. Xubilayxon asos solgan moʻgʻul-xitoy sulolasi Yuan sulolasi deb nomlangan.

Moʻgʻul istilolarining Yevropa va Osiyo uchun ahamiyati. Moʻgʻullarning XIII asrdagi istilolari Yevropa va Osiyo tarixida juda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Bu istilolar Yevropa tarixida avvalo, Rossiyaning ahvoliga taʼsir qilgan. Moʻgʻul-tatarlar hujumi natijasida Rossiyaning taraqqiyoti toʻxtab qolgan, ammo uning son-sanoqsiz qurbonlari evaziga Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarining osoyishta rivojlanishi taʼminlangan. Biroq, moʻgʻullar istilosi natijasida Rus davlatining iqtisodiy va madaniy hayotida tushkunlik yuz bergan. Ruslar moʻgʻullar istibdodini agʻdargan.

Moʻgʻul-tatarlarga qarshi kurashda rus xalqining mustahkam markazi – Moskva shahriga asos solingan. Ammo ushbu kurash xalq ommasidan juda koʻp qurbonlar talab qilgan. Moʻgʻullar hukmronlik qilgan davrda Rusning qadimgi madaniy markazlar – Vizantiya va janubiy slavyanlar bilan aloqasi uzilib qolgan. Holbuki, Rus koʻp asrlar davomida Vizantiya va janubiy slavyanlar bilan aloqa qilib kelar edi. Shu bilan bir vaqtda, moʻgʻullar hukmronlik qilgan davrda Rus Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari bilan ham iqtisodiy va boshqa munosabatlarni rivojlantira olmagan. Oʻrta asrlarning soʻnggi davrlarida Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari oʻz ishlab chiqaruvchi kuchlarini birmuncha tez rivojlantirayotgan edi.

Moʻgʻul-tatarlar hujumi Vengriya va Polshaning rivojlanishiga ham yomon taʼsir qilgan. Bu mamlakatlar moʻgʻullarning hujumidan Rusga qaraganda beqiyos darajada kam zarar koʻrgan boʻlsa-da, lekin ular ham zaiflashgan edi. Buning natijasida Vengriya bilan Polsha german feodallariga qaram boʻlib qolgan. Natijada german feodallari Vengriya bilan Polshaning milliy davlat boʻlib yashashiga jiddiy xavf solgan.

Mo'g'ullar istilosi Osiyo mamlakatlari boshiga ham haddan tashqari og'ir musibatlar solgan. Qadimgi iqtisodiy va madaniy markazlar vayron qilinib, sug'orish tizimi buzilib, yaroqsiz holga keltirilgan. Juda katta mo'g'ullar imperiyasi vujudga keltirilgan bo'lsa ham qadimiy savdo yo'llari huvillab qolgan. Holbuki, bunday davlatning paydo bo'lishi Osiyodagi «birlashgan» mamlakatlar orasida savdo-sotiq ishlarining yanada qizib ketishini ta'minlashi lozim edi. Bunday bo'lishi mumkin emas edi, chunki, bir tomondan, mo'g'ul istilolari mahalliy aholi hayotining tub negizi – irrigatsiyaga batamom putur yetkazgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mo'g'ullar «imperiyasi»ning o'zi ham tez vaqt ichida parchalanib ketgan.

Chingizxon vorislari bir sulolaga mansub bo'lsa ham, ular birbirlariga qarshi shiddatli urushlar olib borgan. Chingizxonning o'g'li O'qtoy avlodlarini Xulagular batamom qirib tashlagan.

Feodal munosabatlar tobora avj olishi munosabati bilan O'rta Osiyoning o'zida tamomila feodal tarqoqlik vujudga kelgan. Boshda Chingizxonning o'g'illari va nevaralari boshchilik qilgan ulus-davlatlar XIII asrning ikkinchi yarmida bir necha o'nlab uluslarga (bekliklarga) bo'linib ketgan. Bu uluslarning tepasida qisman Chig'atoy va Xulagu sulolasidan bo'lgan, qisman boshqa joylardan ko'chib kelgan mo'g'ul feodallari hamda mahalliy turk zodagonlarining urug' va avlodlaridan bo'lgan bek va amirlar turgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Mo'g'ullarni birlashish sabablari?
2. Chingizxonni kuchi nimada edi?
3. Mo'g'ullarning istilolari qanday oqibatlarga olib kelgan?
5. Temuchin qay tariqa mo'g'ul xoniga aylandi?
6. Mo'g'ullarning markaziy Yevropaga amalga oshirgan harbiy yurishlari qanday to'xtatildi?
7. Mo'g'ullar tomonidan Bag'dodni egallanishi jarayoni qanday kechgan?
8. Mo'g'ullar tomonidan mamlakatlarni zabt etish jarayonida misli ko'rilmagan shavfqatsizlik ko'rsatilishidan ko'zlangan maqsadlarni qanday izohlash mumkin?
9. Mo'g'ullarning Rus yerlari va Sharqiy Yevropaga uyushtirgan yurishlari ushbu hudud xalqlari hayotida qanday aks-sado bergan?

XV BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA JANUBI-SHARQIY OSIYO

XI asrda Vetnamning markazlashtirilgan davlatga aylanish jarayoni. XI–XV asrlarda Vetnam davlatining markazlashgan davlatga aylanishida juda katta o'zgarishlar amalga oshirilgan. XI–XV asrlarda Vetnamda feodal munosabatlar yuqori darajaga erishgan. Shaharlar, savdo, pul muomalasi, temir mahsulotlari, tuz, qora mol, püruch va boshqa mahsulotlar bilan ichki savdo rivojlangan. Bundan tashqari, Vetnam xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi, kichik feodallarning yer egalariga qarshi kurashi, XI–XIII asrlardagi Dayvet urushlari XV asrda Vetnamning iqtisodiy rivoji salohiyatining o'sib borishi natijasida yirik markazlashgan Vetnam davlatiga asos solingan. Mustahkam feodal davlatning shakllantirishda Li sulolasi markazlashgan siyosatni olib borib, yirik feodal va tog'liq xalqlarni qarshiligini yengib davlatni harbiy va ma'muriy tomondan kuchaytirgan. Dayvet urushlari XI asrda himoya urushi deb atalgan. Bular shimoldan Xitoy bosqinchilariga qarshi janubda Tyampa davlatiga qarshi urush olib borgan.

XI asrda Vetnam markazlashtirilgan davlatga aylangan. Feodal munosabatlar yuqori darajaga erishgan. Yerlar boshqaruvchisi esa yer tarqatuvchi feodal davlatlar hisoblanib, u yerlarni podshoh taqsimlagan. Vua (podshoh)da yer boshqaruvchiligidan tashqari, o'z ixtiyojlarini qondirish uchun bir qancha yer maydonlariga ega bo'lganlar. Qolgan yerlarning ayrim qismi vaqtinchalik kichik va o'rta feodal amaldorlarga, tuqaro va harbiy xizmat paytida soliq olib foydalanib turish uchun berilgan. Bu yerlar avloddan-avlodga meros sifatida o'tkazilmagan. Shu feodal yer boshqaruvchilik tuzumi XVII asr oxiriga kelib davlat xizmatchilariga yer maydonlari ajratilgan, keyinchalik feodal-amaldorlar o'rniga xususiy merosxo'rlar kelib chiqqan.

Vua (podshoh) va davlat xizmatchilari yer maydonlaridan tashqari mansabdor zodagonlar vua qarindosh-urug'lari asosiy o'rin egallagan. Bu yer boshqaruvchiligi turi Vetnam katta yer egaligining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. XIV asr o'rtalariga kelib markaziy hokimiyatning sustlashganligi va davlat yer maydonlari qisqarganligi sababli zodagonlarning yerlari umumiy yer maydonining 1/6 qismini tashkil etgan. Xususiy yer egalarga yangi yerlarni o'zlashtirish uchun

huquq berilgan. O'zlashtirilmagan yerlar, asosan bosib olingan va botqoqlarni quritilishi hisobiga kengaytirilgan. Chuang zienlar – yirik mansabdor zodagonlar shu tariqa rivojlanib borgan.

XI–XII asrlarda janubi-sharqiy Osiyoda rivoj topgan Budda monastirlari yirik yer egalari hisoblangan. Monastirlar katta yer maydonlariga va butun jamoalarga egalik qilgan. Monastirlarga qarashli yerlar davlat soliqlaridan ozod bo'lgan. Dehqonlar harbiy xizmatga ham chaqirilgan. XV asr oxiriga kelib markaziy hokimiyat kuchaygandan so'ng ko'pchilik monastirlarga qarashli yer maydonlari xazina hisobiga qaytarilgan. Jamoada mehnat qilayotgan 20–60 yoshgacha bo'lgan dehqonlar jon hisobi va yer hisobiga soliq to'lganlar, majburiy harbiy xizmat o'taganlar.

Jamoada iqtisodiy yuridik hamda diniy masalalar umumiy yig'ilishda hal etilgan. Jamoachilar aholining asosiy qismini tashkil etgan. Ulardan olingan soliq hisobiga hamma toifadagi feodallar ta'minlangan. XI–XV asrlarda hukmronlik qilgan sulolalar (Chan, Le) dehqonlarni ishlatish qulay bo'lganligi uchun jamoalarni saqlab qolishga harakat qilgan.

Jamoalar o'rta asrlardagi Dayvetning eng past xo'jalik va ma'muriy ish yurituvchilari bo'lib XVIII asrgacha saqlanib qolgan. Jamoa kuchlari bilan katta irigatsion va shahar qurilishlariga doir ishlar amalga oshirilgan.

Davlat yerlaridagi jamoa dehqonlari davlat xazinasiga soliq to'lashgan va yuridik jihatdan ozod bo'lgan. Mansabdor zodagonlar yerlaridagi jamoa dehqonlari to'la ozodlik huquqlariga ega bo'lmagan. Ular yer egalariга tobe bo'lgan.

XI–XV asrlarda shaharlar va savdo. Vetnamning yirik shaharlari va savdo ma'muriy markazlaridan Txanguang, harbiy ma'muriy markaz Xoata va tashqi savdo markazi Vandon bo'lgan.

XIII–XV asrlarda temir, tuz, qora mol, guruch va to'qilgan mahsulotlar bilan ichki savdo rivojlanganligi sababli shaharlar jadal o'sa boshlagan. Tashqi savdo Vetnamning o'zida ishlab chiqarilgan (lak, temir, chinni) mahsulotlari bilan Vetnam portlari orqali amalga oshirilgan. Hindistondan sharqqa faqat Vetnam portlari orqali yo'l olingan.

XV asrdagi Dayvet savdo shaharlarida arab, hind va boshqa mamlakatlardan ham savdogarlar bo'lgan.

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida chorak asr davomida qog‘ozli pul muomalaga kiritilib, yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tarilgan, Lekin, XV asrning ikkinchi choragida feodal hukumati qog‘ozli pulni muomaladan chiqargan.

XI XV asrlarda savdogarlar tashkiloti mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etmagan.

Markazlashgan feodal davlatni shakllantirish jarayoni. Li sulolasi markazlashgan siyosat olib borib, davlat sholi yetishtirishga ixtisoslashgan hududda, ya‘ni savdo va daryo yoqasida joylashgan Ixaniluang shahriga ko‘chirilgan. Bu Vua sulolasi yirik feodal va tog‘li xalqlar qarshiligini yengib, davlatni harbiy va ma‘muriy tomonidan kuchaytirgan. Davlat boshqaruvi qat‘iy nazorat ostiga olingan, mansabdor shaxslar Vuaga qasam ichganlar. Shu yillarda Vua shaxsiy gvardiyasi tashkil topgan.

Mamlakat 26 viloyatga bo‘linib, har bir viloyatga vua qarindoshlaridan yoki yaqin kishilaridan boshchilik qilgan. O‘z o‘rnida viloyatlar kichik bo‘linmalarga bo‘linib, eng past ma‘muriy tashkilot jamoalar bo‘lgan. Boshqaruv tizimini qayta tashkillashtirish bilan birga intizomiy qo‘shin tashkil etilgan. Bu qo‘shin, asosan feodallar yollagan guruhleri o‘rniga jamoadan chiqqan dehqonlardan tuzilgan.

Li sulolasini qayta qurish Li Txien Tong (1054–1072) boshchiligidagi harbiy qayta qurish bilan yakun topgan va harbiy soliq kiritilgan.

XI–XII asrlardagi Dayvet urushlari. Dayvet XI asrda birdaniga janub va shimolda ikki tomonlama urush olib borgan. Bu urushlar himoya urushi bo‘lib, shimolda xitoy bosqinchilariga qarshi va janubda Tyampa davlatiga qarshi urush olib borgan. XI–XII asrlarga kelib, Dayvet janubiga tinimsiz hujum qilishga o‘tgan va Vetnam dehqonlari asta-sekin markaziy va keyinchalik janubiy Vetnam yerlariga ko‘chib o‘tishgan. Vetnam dehqonlarining ko‘chib o‘tishlari Dayvetning janubiga qarshi urushni yengillashtirgan. Tyampa floti muntazam ravishda Dayvet mamlakatini janubiy tumanlarini talon-taroj qilgan. Lekin, ichki mag‘lubiyatga uchragan Tyampa feodallari o‘z qo‘shinlari bilan Dayvet mamlakatiga o‘tib ketishgan. Bularning asosini Tyampa amaldor va taxtga nomzod amaldorlar tashkil qilgan. XI asr o‘rtalariga kelib ichki nizolar ko‘payganligi sababli Tyampa mamlakati hukumati susayganidan 1034–1044-yillarda Dayvet hu-

jumga o'tib, Tyampa qirolini mag'lub etib, Tyampa poytaxtini egal-
lab olgan.

1075-yilda Sun imperiyasi va Dayvet chegarasidagi qabilalar qo'zg'olonidan foydalanib, Vetnam feodallari shimoliy qo'shnilariga qarshi juda katta harbiy yurish qilgan. Buyuk sarkarda Li Txiong Kieta boshchiligidagi qo'shin ikkiga bo'linib, shimoliy qo'shinlarni tor-mor etgan va raqib qo'shinlari qoldiqlari ikki katta shahar Guanchjou va Inchjouga berkinib olgan. Tez orada Inchjou shahri umumiy hujum bilan bosib olingan. Xatarli holatda qolgan Sunlar janubga katta qo'shin yuborganlar, shunda Li Txion Kiet chekinishni boshlagan. Dayvet qo'shinini o'z yurtida taxqirlash omadsizlarcha yakun topdi va sun sarkardalari Dayvetdan chiqib ketishga majbur bo'lanlar. Urushlar yakunida Dayvet (Kaobang) butun bir viloyatni qo'lga kiritgan. Janubda bir necha tumanlarni bosib olgan.

XII asr oxirlariga kelib markaziy hukumatni sustlashganligi va yirik feodallarning kuchayganligini kuzatish mumkin. Yirik qurilishlar boshlanganligi, soliq siyosati kuchayganligi oqibatida iqtisodiy qiyinchiliklar kelib chiqqan. Mamlakatda dehqonlar qo'zg'olon ko'targan. Shu bilan birga Dayvet tashqi siyosiy holati ham yomonlashgan. Bu sharoitda kichik va o'rta feodallarni birlashtirish Chan Txu Do boshchiligidagi bo'lib o'tdi. Chen Txu Do Li sulolasidan kelib chiqqan bo'lib, 1225-yil hukumat Chan sulolalariga o'tgan (1225–1400-yillar).

Vetnam xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi. Dayvet 1257-yilda mo'g'ul bosqinchilariga duch kelishgan. Vetnam feodallari mo'g'ul siyosatini yaxshi bilgan, ular harbiy bosqinchilik niyatlarini his etgan. Mo'g'ullar avval Sun mamlakatiga o'tkazib yuborishini so'ragan. Davlat hukumati ertami, kechmi o'z hukumatiga hujum qilishini bilib, rad javobini bergan.

Vetnam xalqi juda qattiq qarshilik ko'rsatgan, partizan guruhlari tashkil etilib, qaqshatgich zarba berish boshlagan. Tinimsiz janglar va tropik iqlimga chidamagan mo'g'ul qo'shini chekinib, mamlakat hududini tark etishga majbur bo'lgan.

1282-yilda davlat yana mo'g'ul hujumini qaytargan, ular taxtga o'z odamini qo'ymoqchi bo'lgan va bu safar Tyampa mamlakatiga urush uchun o'tib ketishni so'ragan.

1284-yil mo'g'ullar Dayvetga urush e'lon qilib 500 minglik

qo'shin yuborgan, Lekin, 200 minglik Dayvet qo'shini va ko'p minglab partizan guruhlari qarshiligiga duch kelgan. Buyuk sarkarda Chang Dao milliy qahramon bo'lgan. Qo'shin asosiy zarbalar uchun saqlab qolinib, partizan guruhlari bilan urush olib borilgan. Partizan guruhlari shaxsan, Chang Xang Dao tomonidan boshqarilgan. Shunday qilib, mo'g'ullarga qarshi urush umumxalq urushiga aylanib ketgan va aholining fidoiyligi g'alabaga erishishda muhim rol o'ynagan.

Chang Xang Dao asosiy o'rinda qo'shinni saqlab qolishga harakat qilgan va poytaxtni tog'li tumanlarga ko'chirib, shaharni qarshilik ko'rsatmay tashlab ketgan. Shaharni bosib olgan mo'g'ul qo'shini kul bo'lgan vayronalarga kirib borgan. Mo'g'ul qo'shinlari bir-birlari bilan aloqa tiklashi juda qiyin kechgan, qurol-aslaha va kiyim-kechak Xitoydan arang yetkazib berilgan. Bosqinchilar Dayvetning janubiy viloyatlariga yetib bora olmaganlar va Sagatu qo'shini qoldiqlari bilan qo'shilisha olmagan. Dayvet qo'shini ham juda katta zarar ko'rib, flot butunlay barbod bo'lgan. Shu sharoitda ko'p mansabdor zodagonlar va Vua qarindoshlari mo'g'ullar tarafiga o'tib ketgan edilar va shu sotqinlar Dayvet hukumati deb e'lon qilingan. Mo'g'ul qo'shini Tyampa mamlakatida kemalarga o'tirib, dengiz orqali qaytayotganda Qizil daryo (Xong xa) yaqinida Dayvet qo'shini hujumiga duch kelishgan va to'la mag'lubiyatga uchragan. Bu jangda minglab harbiy asirlar olingan. 1285-yil iyunda mamlakat to'la mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etilgan.

Mo'g'ul hukumati Yaponiyaga yurishini to'xtatib, uchinchi bor 300 minglik qo'shin bilan yana janubga Dayvet mamlakatiga yurish qilgan. Vetnam sarkardalari dengiz orqali ketayotgan kemalarga hujum qilib, avvalo oziq-ovqat zaxirasi yuklangan kemalarni cho'k-tirib yuborgan. Mo'g'ul jangchilari tinimsiz janglar va oziq-ovqat-larsiz qiyin ahvolda qolib turli kasallarga duchor bo'lgan. Maxsus qurilgan to'siqlarda qolgan mo'g'ul floti (400ga yaqin harbiy kemalar) to'la barbod bo'lgan. Quruqlikdagi qurolli kuchlar chegara top'li tumanlarda to'la yakson qilingan. Mo'g'ul davlatining uch marta janubga yurishi omadsiz kechgani uchun 1289-yilda tinchlik bitimi tuzilgan. Tez orada Mo'g'ul asirlari o'z vataniga qo'yib yuborilgan, sotqinlar esa qattiq jazolangan.

Vetnam madaniyati. XI–XIII asrlar Vetnamda milliy san'at va adabiyotning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu asrlarda «Bir

ustun ibodatxonasi» me'moriy yodgorligi, Butxan ibodatxonasi va boshqa ko'plab milliy me'morchilik yodgorliklari yaratilgan. Ko'plab adabiy asarlar yozilgan, milliy yozuvlar shakllangan. XIV asr oxiriga kelib buddaviylik «txien» davlat dini xizmatini o'tashdan to'xtalgan. Budda monastirlari Vetnamda shimoliy buddaviylik – maxayana kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Le Txang Tong (1460–1497) vualarni eng o'qimishlilaridan bo'lib, fan va san'atga oid o'quv maskanlari qurilishiga va ta'limga juda katta mablag' sarflagan. Le Txang Tong davrida «Yigirma sakkiz yulduzlar akademiyasi» tashkil etilgan.

Kichik feodallarni yirik yer egalariga qarshi kurashi (Xo Kyu Li islohoti). Uzoq davr davom etgan urushlar natijasida ko'p dehqonlar nobud bo'lgan, qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimini qayta tiklash zarur bo'lgan. 1290-yilda mamlakatda ocharchilik boshlanib dehqonlar o'z yerlarini tashlab yoki xususiy yer egalariga sotib yuborishgan. Zaxiradagi nonlarni tarqatish ham yordam bermagan. Shunga qaramasdan, vua Chan An Tong davlatning janubiy chegaralarini kengaytirish maqsadida kurash olib borgan.

Bu urushlar Dayvet mamlakatini iqtisodi va markaziy hukumatini susaytirib yuborgan. Urush davrida yerlarni dehqonlarga yerlarni sotib yuborgan yirik mansabdor zodagonlar, ya'ni markaziy hukumatni boshqarish uchun harakat qilar edi. Qo'zg'olon ko'targan tog'li aholini qo'llagani laosliklar Dayvet mamlakatining janubiy viloyatlarga hujum qilib, Dayvet sarkardalarini yenggan.

Soliq to'lovchi dehqonlar kambag'allashib ketishini oldini olish maqsadida hukumat soliqlarini qaytarish bilan birga davlat zaxirasida bo'lgan mablag'lardan dehqonlarga qarz berish boshlangan. Markaziy hukumatni susayib borgani sababli yirik feodallar davlatga bo'ysunmay qo'ygan.

Tyampa mamlakati o'ziga qarashli viloyatlarni qaytarish uchun urush boshlaydi. Tyampa qiroli Te Bong Iga bir necha marta Dayvetning janubiy viloyatlarini talon-taroj qiladilar va mamlakat poytaxti Txaniluanga yetib borgan. 1369-yilda mamlakat poytaxtini talon-taroj qilgan. Yirik feodallar va vuani urushda qo'llab-quvvatlamaydilar, chunki xazina bo'sh bo'lgan. Dayvet mamlakatiga erkin va iqtisodiy bog'lanib qolgan ko'p minglik Vetnam aholisi borligi sababli Tyampa qiroli bosib olgan yerlarni to'la o'zlashtirib

bo'lmagan. Butun Dayvet bo'yicha dehqonlar feodallarga qarshi kurash olib borgan.

1171 yilda Dayvet mamlakatga Xo Kyui Li hukmronlik qilishni boshlaydi. U kichik va o'rta feodallarga tayanib, yirik va diniy feodallarga qarshi kurash olib borgan.

Yerlarni oldi-sotdi qilish va meros qoldirish man etilgan (qaram yerlar bundan mustasno). Jamoalar qayta tiklangan bu qayta qurilishlar o'rtasidagi Vetnamning qayta iqtisodiy rivojlanishiga omil bo'lgan. Xususiy yerlarni meros qoldirishni man etilishi mansabdor zodagonlarni xavf ostiga qolishini keltirib chiqargan va ularga yana bir zarba berilgan, ya'ni meros yerlari chegaralab qo'yilgan. Faqat Vua vaqni qarindoshlari yerlari qolgan xolos. Buning natijasida juda ko'p yerlar qaytarib olinib, dehqonlarga eng past qiymatga ijaraga berilgan.

Ushbu qayta tiklash jarayonida yirik feodallarning qarshiligiga uchragan. Lekin, Xo Kyui Li qaqqshatgich zarba bilan ularni yengib chiqqan. Aholini qayta ro'yxatdan o'tkazilganda erkaklarning yarmi ro'yxatga tushmaganligi aniqlangan.

1402-yil Dayvet yana Tyampa mamlakatiga qarshi urush boshlagan. Bu urush davomida Tyampa qiroli Xitoy bilan shartnoma tuzib, shimoldan ikkinchi front ochilishini kelishib olgan. Xitoy hukumati Dayvetdan shimoliy viloyatlardagi yerlarni talab qilgan. 1406-yil Xitoy hukumatiing ko'p minglik qo'shini ikkiga bo'linib, shimol va shimoli g'arbdan urush boshlagan. 1407-yilda Xo qo'shini to'la tor-mor etilib, Xo va uning safdoshlari asirga tushgan. Dayvet mamlakati bo'ylab minglab partizan guruhlar tuzilib, Xitoy bosqunchilariga qarshi davom etgan. 1418-yilda Vetnam fidokorlari Le Loi atrofida birlashib, 1428-yil Xitoy qo'shinini mamlakatdan qaytib chiqargan va 1428–1788-yillarda hukmronlik qilgan Le Loi sulolasini boshlab bergan.

Vetnamning XV asr ikkinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishi. Dayvetning ichki nizolarini barataraf etish natijasida mamlakatda iqtisodiy va madaniy o'sish jarayoni rivoj topgan. Jamoatchi dehqonlar yana yerga egalik qilishni boshlaydi.

Kichik va o'rta feodallar maosh ola boshlagan, ularning yerlarida to'la yuridik huquqqa ega bo'lmagan dehqonlar ish yuritishgan. Xo Kyui Li davrida mansabdor zodagonlarning bir qismi yo'q qilinib tashlangan, bu qismi esa Xitoyga qochib ketganligi sababli, vuaga

mansabdor zodagonlar deyarli xavf tug'dirmaganlar. Yirik monastir yerlari o'z yakunini topgan. Hamma narsa ustidan vua yakka hokimlik qilgan.

Le hukmronlik davrining boshida yerlarni qayta taqsimlash bilan birga bir necha soliq turlari bekor qilingan. Jamoachi dehqonlar mavqei ancha yaxshilangan, shu bilan birga ularning miqdori ko'payganligi sababli soliq hajmi ko'paygan.

Dayvetni 20–50-yillardagi iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini XV asr Vetnam feodalizmining «oltin asri» deb ataladi. Shaharlar juda tez o'sgan, aholi soni 4 milliondan oshib ketgan, ichki va tashqi savdo rivojlangan. Savdogarlardan olingan soliqlar davlat xazinasiga juda katta tayanch bo'lgan.

Shu sharoitda Xo Kyui Li yangi qo'shin to'plabgina qolmay, ikki marta g'alaba qozonishga ham erishgan. G'alaba qozongan Xo Kyui Li hukumat mansabdorlarini o'rta feodallarga almashtirib, o'z mavqeini tiklab olib, yana soliqni ko'paytirgan. Qayta tiklangan qo'shin Te Beng Nea qo'shinini tor-mor etib, o'z yerlarini qaytarib olganlar.

Iqtisodiy qayta qurishlar natijasida mis pullar o'rniga qog'oz pullar muomalaga kiritilgan.

Shunday qilib, XI asrlarda Vetnam yirik markazlashtirilgan davlatga aylangan. Vetnamning XV asrda siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi natijasida «feodal munosabatlarning oltin asri» degan nom olgan. Shaharlar juda tez o'sib, aholi soni ko'paygan, ichki va tashqi savdo rivojlangan, madaniyat, ma'rifat, me'morchilik yodgorliklari Vetnam tarixiga asos solgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Bu davrdagi Vetnamning asosiy savdo markazlari bo'lgan qaysi shaharlarni bilasiz?
2. Rivojlangan o'rta asrlarda Dayvet va Tyanpa davlatlari o'rtasidagi munosabatlar qanday kechdi?
3. Mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda Dayvet armiyasi g'alabalarini qanday izohlash mumkin?
4. Min imperiyasi va Dayvet munosabatlarini keskinlashtirgan asosiy nuqtalar qaysilar?
5. Nima sababdan XV asr «Vetnam oltin asri» sifatida e'tirof etilgan?

XVI BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA AFRIKA DAVLATLARI

Dehqonchilik va hunarmandchilik. Afrikaning Janubiy Sahara xalqlari tarixiy rivojlanishning uzoq va o'ziga xos yo'lini hisob o'tib, faqatgina Afrika tarixi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligimiz bizga ushbu qit'aning tropik qismida insoniyat jamiyatining taraqqiyoti haqida batafsil ma'lumot berishga imkon bermaydi. Shunga qaramay, mavjud ilmiy ma'lumotlar Afrika xalqlarining ko'p asrlik tarixini ochib beradi.

Afrikaning Janubiy Sahara xalqlari notekis rivojlangan¹. Ayrim xalqlar XV asrga qadar to'liq rivojlangan feodal munosabatlarga erishgan va yirik davlat birlashmalarini tashkil qilgan bo'lsa, boshqalarida esa urug'-qabila tizimi davom etgan. Shu ma'noda, G'arbiy Sudan, Sharqiy Afrika, G'arbiy Tropik Afrika va Janubiy Afrika hududlarida yashagan xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti rivojlanishi umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan.

Afrikadagi barcha jamoalarda asosiy ishlab chiqaruvchi kuch dehqonlar bo'lib, ular hech qachon qulga aylanmagan. Hatto o'zaro urushlarda mag'lub etilgan qabilalar ham qul hisoblanmagan. Gap shundaki, Afrikaning hamma joylarida yer ishlab chiqarish vositasi sifatida uning egasidan (xoh u xususiy shaxs bo'lsin, xoh butun jamoa bo'lsin) ajralib chiqarilgan. Shuning uchun bitta Afrikadagi butor qabila boshqa bir qabilani bosib olib, o'z egalaridan yerni tortib olmagan. Fath qilingan xalqlardan o'lpon va soliq yig'ilgan.

Afrikaning barcha xalqlari metallardan va ayniqsa temirdan foydalanishni bilgan. Butunlay o'ziga xos ko'rinishdagi Afrika temir eritish pechlarini qoldiqlarining topilishi Janubiy Saharaning barbar va tuareglari, fulbe (G'arbiy Afrika), masay, galla (Sharqiy Afrika) kabi qabilalarning temirchilik bilan shug'ullanganliklarini isbotlaydi. Tabiiy sharoitlarning hamda tuproqning o'ziga xos xususiyati nafaqat

¹ Boshqa joylarda bo'lgani kabi, Afrika jamiyatining tarixiy rivojlanishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, tabiiy muhit tufayli misga nisbatan temirga ishloq berish Janubiy Saxaraliklarda ertaroq boshlangan. "Bronza davri" Afrika jamiyatiga o'ziga xos tarixiy davr sifatida xarakter bermagan. Afrikaliklar misli davridan to'g'ridan to'g'ri temir asriga o'tganlar.

yetishtiriladigan ekinlar, balki qishloq xo'jalik mehnat qurollari ham o'ziga xos bo'lgan.

Ayniqsa tabiat sharoitining kelib chiqishiga qarab yerning tuzilishiga, ekiladigan ekin turiga emas, yerga ishlov beradigan mehnat quroliga alohida e'tibor berilgan. Tropik Afrika yerlarida hosildorlik qatlami juda yupqa bo'lganligi sababli yerga chuqur ishlov berish va yerni yuqori qatlamlarini shamollatib qo'yish natijasida hosildorlik past bo'lgan. Chunki yerning mikroflorasi faqatgina uning ustki qatlamlarida joylashgan. Afrika dehqonlari neolit davridan boshlab motigadan foydalanganlar.

O'rta asrlarda Afrika – Mandingo, Xausa, Bantu, Kongo, Sharqiy Afrikada ekinlar turi ko'p bo'lgan, ular almashlab ekishga amal qilganlar. Ayniqsa, ekinlarning vegetatsion davrini va hosildorlikni oshirishda kulning ahamiyatini yaxshi bo'lgan.

Jo'xorining har xil turlari, tariq va guruch kabi donli ekinlar yetishtirish Afrikaga xos xususiyatdir. Dukkakliklardan no'xat va loviya keng tarqalgan. Yog' ishlab chiqarishda – kunjut, yog'li va kokos palmasi, undan tashqari sanoat ekinlari – paxtachilik, nil bo'yog'i, shakarqamish yetishtirilgan. Har xil bog' ekinlari yetishtirish taraqqiy etgan, ayniqsa ildizmevali ekinlar – Afrika yamsi, XVI asrda Amerikadan olib kelingan manioka va batat¹ yetishtirish keng tarqalgan.

Afrikani iqtisodiyotini rivojlanishida hunarmandlarning ahamiyati katta. Temirchi, kulol, ko'nchi va to'quvchi singari qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandlar guruhi mavjud bo'lgan. Jamoa hunarmandchilik mahsulotlari bilan o'zini o'zi ta'minlagan.

Ichki savdoning rivojlanishi, shahar markazlarining taraqqiy etishi bilan saroy ahli, qo'shin va shahar aholisining ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shahar hunarmandlari vujudga kelgan.

O'rta asrlarda mintaqaviy bozorlar rivojlangan. XIV–XV asrlarda G'arbiy Sudanning eng rivojlangan davlatlarida hunarmandchilik uyushmalari – ustaxonalar paydo bo'lgan. Ular bir yoki bir nechta mutaxassislikdagi hunarmandlarni birlashtirgan. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi yuqori darajaga yetgan.

Metallsozlik (temir, mis, bronza, oltin), qurol ishlab chiqarish,

¹ Batat – janub o'simligining bir turi, kartoshka ta'mli shirin ildizmeva.

qishloq xo'jaligi asbob-uskunalari, to'qimachilik va kulolchilik, charmsozlik, shishasozlik (Yoruba) va badiiy kulolchilik (Yoruba, Benin, Nupe) hunarmandchilik eng muhim tarmoqlari bo'lgan.

Afrikaliklar o'ziga xos tuzilishdagi pechlarda metall xomashyoni eritishning maxsus usulini bilgan. Mis va temir eritish keng tarqalgan va rivojlangan. Almashinuv obyekti bo'lib xizmat qiladigan sof ma'dan va qum shaklidagi oltinni eritish kam tarqalgan. Temirchi va qurolsozlar ketmonning metall qismi, o'q va nayzalar uchi hamda qilich yasashgan.

To'qimachilik mahsulotlari G'arbiy va Markaziy Sudanda keng tarqalgan bo'lsa, Xausan, Yoruba, Songai davlatlarida rivojlangan edi. Xausan va Yorubada ko'ncilar, qalqon yasovchilar, kamon o'qi uchi, kamar, qin va xalta yasovchi ko'plab hunarmandlar bo'lgan. To'qimachilik, charmsozlik tanin kukuni va nil bo'yog'i ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan.

Kulolchilikning har xil ko'rinishlari mavjud bo'lgan. Gvineya ko'rfazi sohilida, Yorubada, Benin va Nupa hududlarida badiiy kulolchilik va terrakota haykaltaroshlik, bronza haykaltaroshlik va shisha idishlar yasash san'ati yuqori darajaga ko'tarilgan. Yog'och haykaltaroshlik va oltin, suyak, shisha, yog'och, to'qilgan matolardan turli xil marosimiy niqoblar yasaganlar.

O'rta asrlarning oxirlarida Xausan, Songai, Janubiy Nigeriya, Mali davlatlarida hunarmandchilikda manufaktura vujudga kela boshlagan. Hunarmandchilik uyushmalarining navbatdagi taraqqiyoti to'xtab qolgan, ko'plab hududlarda esa yevropalik savdogarlarning kirib kelishi natijasida hunarmandchilik inqirozga uchrab va qul savdosi boshlangan.

G'arbiy va markaziy Sudan tarixi. Qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullangan Sudanning G'arbiy va Markaziy hududlari aholisi, Saharaning janubiy chegarasida yashovchi ko'chmanchi chorvador qabilalar – barbarlar qo'shnichilik aloqalarini o'rnatgan. Ular bilan mahsulot ayirboshlash faol ko'rinishda bo'lgan. Aynan G'arbiy Sudanning shimolidagi Sahyel zonasida VII–VIII asrlarda yirik savdo markazlari tashkil topgan va tez orada butun g'arbiy Sudan xalqlari – Aukar, Mali, kechroq Timbuktu, Ulata, Gaoda siyosiy-markaziy birlashuvi sodir bo'lgan. Bu shaharlarning barchasi G'arbiy Sudanning ko'p qismini bog'laydigan karvon yo'llarining

tutashgan nuqtalarida bo'lgan. Niger, Senegal, Gambia, Gulbin, Sokoto, Kamadugu daryolari muhim savdo yo'llari bo'lgan.

Savdoning asosiy subyektlari dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari, tuz va oltin bo'lgan. G'arbiy Sudanning janubiy chizig'i uchun esa oltin va yong'oqlar bo'lgan. G'arbiy Sudanda kauri chig'anoqlari, mis va mato bo'laklari savdo-sotiqda pul vazifasini bajargan.

Niger daryosining yuqori va o'rta oqimlari havzasida, Niger va Senegal daryolari oralig'ida Gana, Mali, Songai singari o'rta asrlarning dastlabki davlatlari paydo bo'lgan. Senegal havzasida Voloflar, Sererlar, Tukulerlar va Fulbelar davlati paydo bo'lgan. Chad ko'lining shimoliy va g'arbiy sohillarida Bornu, Kanem o'rta asr davlatlari va Xaus shahar-davlati paydo bo'lgan. Atlantika qirg'oqlariga tutashgan G'arbiy Sudanning janubiy qismida va Gvineya ko'rfazi (hoz. Gvineya, Gana, Janubiy Nigeriya, Dagomeya) mintaqasida, Yoruba, Benin, Dagomeya, Ashanti kabi bir qator davlatlar ilk o'rta asrlarda shakllangan. Bu hududlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning etnik va til umumiyligi davlatchilik yaratish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan.

Gana davlati. Gana yoki Aukar ushbu mintaqaning eng qadimiy davlatlari hisoblangan. Ushbu davlat haqidagi ishonchli tarixiy ma'lumotlar Gana davlat sifatida tashkil topgan VIII asrga to'g'ri keladi. Uning etnik asosini *soninke* xalqi tashkil etgan. IX asrning o'rtalariga kelib Gana davlati tarkibiga Aukar, Bagan viloyati, Xoda va Tagant tumanlari, g'arbda Tekrur, sharqda Niger, janubda esa Senegal va uning irmog'i Baulaning yuqori qismigacha bo'lgan hududlar kirgan. Bundan tashqari Gana davlatini ayrim *Barbar* qabilalari ham tan olgan. Davlatning poytaxti Kumbisalen shahri bo'lgan.

IX asrda Gana hukmdorlari Gana va Ganadan Mag'rib mam-lakatlariga boruvchi savdo karvonlarini talagan jangovor Berber qabilalariga qarshi keskin kurashgan. Gananing eng xavfli dushmani Barbarlar ittifoqchisi *Lemtun* qabilasi bo'lib, uning sardori Tilutan G'arbiy Saharaning barcha Barbar qabilalarini o'ziga bo'ysundirgan edi. Keyinchalik, 919-yilga kelib *Lemtun* qabila ittifoqi parchalanib ketgach, barbarlar orasidagi yetakchilik *Zenaga* qabilalar ittifoqiga o'tgan. Zenagaga qarshi kurash 990-yilda ularning asosiy shahri va

muhim savdo markazi Audagostni zabt etgan Gananing g'alabasi bilan yakunlangan.

X asr boshlariga kelib Gana davlati ulkan siyosiy yutuqlarni qo'lga kiritgan. Marokashdagi Almoravidlar davlati qo'shinlari 1054-yilda Ganadan Audagostni tortib olishgan. Biroq Gana davlati ushbu holatdan tushkunlikka tushmagan. U G'arbiy Sudanning o'rta qismidagi hukmronlik mavqeini saqlab qolgan. Gana davlatining 40 ming kamonchi va ko'p sonli suvoriylardan iborat ikki yuz minglik qo'shini bo'lgan.

Gana davlati G'arbiy Sudanning Mag'rib mamlakatlari bilan savdo aloqalaridagi hukmronligini saqlab qolgan. Barcha mashhur savdo yo'llari uning hududidan o'tgan. Birorta ham barbar va arab savdogarlari Ganani cheklab o'ta olmas edi. Mis, kauri chig'anog'i, tuz, mato, anjir va xurmo savdodagi asosiy almashinuv mahsulotlari bo'lgan. Gana oltin qum qazib olish markazlari bo'lgan hozirgi Mavritaniyaning janubiy hududlari, Tekrur (hoz. Senegal), Falem daryo havzasi tumanlari va Niger daryosining yuqori qismi (Bambuk, Gangaran, Bure) hududlaridagi xalqaro savdoni nazorat qilgan. Tuz va oltin savdosidagi vositachilik tufayli Gana iqtisodiyoti gullab-yashnagan. Gana hukmdorlari davlat hududidan o'tgan barcha karvonlardan boj to'lovlarini undirgan. Arab sayohatchilari va savdogarlari Gana hukmdorlarining ajoyib boyliklari to'g'risidagi shov-shuvli xabarlarni tarqatgan. Mazkur xabarlar atrofdagi qabila va davlatlar, ayniqsa Almoravidlar imperiyasi va tukulerlarning Tekrur davlatini qiziqtira boshlagan.

Almoravidlar sultoni Abu Bakr ibn Umar o'z davlati chegaralariga yaqin bo'lgan G'arbiy Sudanning shimoliy qismini bo'ysundirishga va u yerda islom dinini yoyishga harakat qilgan. Chunki Ganada animistik qarashlar keng tarqalgan edi. 1076-yilda u Gana poytaxtini egallab, shaharni butunlay vayron va talon-taroj qilgan, ko'plab odamlar asirga olingan. Gana *tunkasi*, ya'ni qiroli Menen Almoravidlar davlatini tan olgan va har yilda o'lpon to'lashga va'da bergan. Mamlakat aholisi majburan islom dinini qabul qilgan. Marokashliklar Bambukning oltin bilan qoplangan hududini egallab olishgan.

Marokashning Ganadagi boshqaruvi qisqa bo'lgan. 1087-yilda Adrar mintaqasida bo'lgan xalq qo'zg'olonini bostirish vaqtida Abu

Bakr o'ldirilgan. Marokashliklar o'z qo'shinlarining katta qismini Ganadan olib chiqishga majbur bo'lishgan. Ammo ajnabiylarning qisqa muddatli boshqaruvi Ganaga og'ir zarba bergan. Marokashliklarni quvib chiqargandan so'ng Gana hududi faqat Aukar va Bassikunu viloyatlari bilan cheklanib qolgan. G'arbiy Sudaning keng hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo'lgan. Gana irmog'idagi kichik Kanyaga davlati mustaqil bo'lgan.

XII asrda Kanyaga hukmdorlari Gananing sobiq hududlari – Beledugu viloyatining shimoliy qismi, Bagananing janubiy qismi va Diag viloyatining bir qismini bosib olib, bir vaqtlar qudratli Gana uchun xavfli raqibga aylangan ulkan Soso davlatini tashkil qilib, tajovuzkor siyosat olib borgan. XII asrda Ganaga nisbatan Soso va Mali qirolligining siyosiy e'tibori kuchaygan. U Sudanning shimoliy savdo aloqalari markazi bo'lishni to'xtatgan.

1203-yilda Soso davlati qo'shinlari butun Ganani zabt etgan. Poytaxtda qolgan *soninke* zodagon oilalari, arablar va *barbar* savdogarlari shaharni tark etgan. 1230-yilda Soso sharqda Niger va janubda Senegal, g'arbda Galam va Tagant va shimolda Sahara orasidagi ko'p qismni qamrab olgan. Shunday qilib, Soso davlati G'arbiy Sudandagi barcha karvon yo'llarini qo'lga kiritgan. Ularning kesishmasida 1224-yilda Ualata shahri tashkil etilib, u mamlakatning eng muhim iqtisodiy markaziga aylangan.

Soso davlatining xavfli dushmanlaridan bir Mali podsholigi edi. Bu davlat ilgari Ganaga qarashli bo'lgan savdo markazlari va barcha oltin tashiluvchi yo'llarini qo'lga kiritgan edi. Bu davlatning birlashishiga uning etnik tarkibining bir xilligi, aholisining asosiy qismi bo'lgan *Malinke* qabilalari ham yordam bergan.

Mali davlati. Mali davlatining vujudga kelishi VIII asrga to'g'ri keladi. Mandingo an'anaviy og'zaki tarixi va IX asrga oid arab manbalari ham buni tasdiqlaydi. Malining dastlabki chegaralari sharqda Nigerning yuqori oqimi, shimolda Beledugu va g'arbda Bakoy daryosining yuqori oqimlarigacha bo'lgan. Davlatning asosini *Taraore*, *Konate* va undan keyin *Keyta* qabilalari joylashgan Malida shimoliy hududlar tashkil qilgan bo'lib, ushbu qabilalar Mali davlatida doimiy ravishda yetakchilik qilgan. XI asrda hukmron sulola islom dinini qabul qilgan, ammo aholining asosiy qismi o'zlarining qadimiy e'tiqodlarini saqlab qolgan. Arab va

barbarlarning musulmon savdogarlari Mali davlatiga tez-tez tashrif buyura boshlaganlar, ularning hukmdorlari esa ular bilan doimiy savdo aloqalarini o'rnatishga yordam berganlar.

Malidagi iqtisodiy hayot gullab-yashnagan va siyosiy ahamiyat olgan XII asrning ikkinchi yarmiga kelib hokimiyat *Keyta* urug'iga o'tgan. Yangi sulola asoschisi Sundiata (1230–1255) – taniqli qo'mondon va davlat arbobi bo'lgan. Uning qo'l ostida tashkil etilgan kuchli va intizomli qo'shin, ayniqsa suvoriylar qo'shnilarga qarshi kurashda harbiy ustunlikni ta'minlagan. Dastlabki harbiy yurishlar Sangaran va Futa Jallon viloyatlarining Mali tarkibiga qo'shilishi bilan yakunlangan. Keyin Sundiata sharqda tajovuzkor hujumlarni amalga oshirgan. U jangovor *bambara* qabilalarini Baule daryosining narigi tomoniga surib chiqarishga muvaffaq bo'lib, Niger va Baule o'rtasidagi barcha hududlarni egallab olgan. Sundiata Soso podshosiga qarshi urush e'lon qilib, uning janubiy yerlariga bostirib kirgan. U Beleduga va Kirinaning janubiy qismini hamda Nigerning o'ng sohilidagi Kenienko hududini egallab olgan. 1235-yildagi Kirin jangida Soso qo'shinlari mag'lub etilgan va ushbu davlat hududining katta qismi Mali tarkibiga qo'shilgan. 1240-yilga kelib Soso davlatining barcha yerlari Sundiata qo'l ostiga o'tgan.

Sundiata davrida Sankarani chap qirg'og'idagi o'rmon (hoz. Niore) hududida davlatning yangi poytaxti – Niani shahri barpo etilgan.

Mali qo'mondonlaridan biri Amari-Sonko, istilolarini davom ettirib, mashhur oltin konlari joylashgan Gangaran va Bambuk tumanlarini egallagan. Mali qo'shinlari Gambiyaning quyi qismiga, Jekrur va Voloflar davlatining chegaralarigacha yetib borgan. Sundiataning istilochilik siyosatining asosiy maqsadi Mali davlati hukmronligini G'arbiy Sudan karvon savdosining asosiy markazlari hamda oltin qazib olinadigan hududlargacha yetkazish edi.

Mali G'arbiy Sudandagi eng qudratli davlatga aylangan. XII asrning ikkinchi yarmidagi tajovuzkor yurishlar natijasida Mali hududi yanada kengaygan. Biroq, ko'plab qo'mondonlar vassalga aylanib, yangi bosib olingan hududlar hukmdoriga aylana boshlagan. Davlat poytaxti – Niani bu vaqtga kelib Nigerning yuqori oqimidagi eng yirik savdo markaziga aylangan, u orqali Mag'rib va Liviya karvonlari o'tgan. Mali davlati tarkibiga G'arbiy Sudanning eng yirik savdo va madaniy markazlari – Valat va Timbuktu ham kirgan.

Malining tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalari haddan tashqari kengaygan. Magʻrib va Misr bilan doimiy savdo aloqalari yoʻlga qoʻyilgan. Gana davlatida boʻlgani kabi, savdo-sotiqning asosiy mahsulotlari tuz, oltin va shisha buyumlar boʻlgan. Malining tashqi siyosiy aloqalari ham kengaygan. Marokashning Merinid sultonlari bilan ham diplomatik aloqalar oʻrnatilgan.

XIV asrning ikkinchi yarmi Mali tarixida davlat toʻntarishlari va tez-tez yuz beradigan nizolar bilan ajralib turgan. Bularning barchasi Mali davlatini zaiflashtirgan. Natijada qoʻshnilar uning hududlarini bosib olishga kirishgan. Shuningdek, u bosib olingan hududlardagi markazdan qochish tendensiyalarini kuchaytirgan.

Mali davlatining asosiy raqiblaridan biri Songai davlati va Mosi qabilasining Yatenga davlati boʻlib, ular XV asrda Malini alohida hududlarini bosib olgan.

Manding jamiyatining asosiy boʻgʻini qullar va qullikdan ozod boʻlganlarni oʻz ichiga olgan katta patriarxal oila boʻlgan. Shu kabi bir necha patriarxal oilalar qishloq jamoasi – «dugu»ga birlashgan. Patriarxal oilalardagi hukmdorlik ular orasidagi qariyalar, keyinchalik alohida oilalar qariyalariga oʻtgan. Jamoaning oddiy aʼzolari erkin dehqonlar va hunarmandlardan iborat boʻlgan.

Jamiyat iyerarxiyasining eng quyi boʻgʻini qullardan iborat boʻlgan. Qullar bir necha toifalarga boʻlingan. Qullarning aksariyati harbiy asirlardan iborat boʻlgan. Qullik abadiy boʻlmagan. Har bir qullar avlodi asta sekin ozodlar jamoasiga qoʻshilgan. Ammo amalda ozodlikka chiqqanlar ham jamiyatning teng huquqli aʼzosi boʻlmagan. Bu ozod qilinganlar va hattoki qullarning nafaqat jamiyatda, balki davlat ishlarida ham yuqori mansabdor mavqega ega boʻlish imkoniyatiga ega boʻlgan.

Jamiyatning oddiy aʼzolari, qullar va ozod boʻlgan qullar haftada besh kun patriarxal oilaning yerlarida ishlab bergan. Qolgan ikki kun davomida ular oʻz yerlarida ishlashgan, biroq olingan hosil jamoa foydasiga oʻtgan. Bunday holda qul bilan oddiy jamoa aʼzosining farqi qolmagan.

Yerni jamoa aʼzolari oʻrtasida taqsimlash huquqi patriarxal oila boshligʻiga tegishli boʻlgan. Hosil, ovdagi oʻlja, oʻrmonlarni kesish va boshqalar daromadlardan oila boshligʻi foydasiga ulush berilgan. Oqsoqollar qoʻlida yerlarni tasarruf etish huquqi, sud va ruhoniy

vazifalari to'planishi bu guruhning Mali ijtimoiy hayotidagi ustun mavqeiini belgilab bergan.

Iqtisodiy kuch va uning boshqa jamoalarga nisbatan tutgan o'rni jamoa tomonidan egallab olingan yerlarning sifati va hajmiga, qullar soniga va nihoyat karvon savdo yo'llarida joylashganligiga bog'liq edi. Jamoalar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik ba'zilarining o'sishiga va boshqalarning qaram holatiga olib kelgan.

Urug' oqsoqollarining siyosiy va shaxsiy kuchi harbiy qismlarga, soqchilar tarkibiga kirgan xizmatkorlar va qo'riqchilarga tayangan. Qul qo'riqchilarining harbiy boshliqlari ham qullardan tayinlangan. Asta-sekin ular oqsoqollarga nisbatan kuchayib borgan. Qullardan iborat tansoqchilar podsholar siyosatida katta rol o'ynagan.

Hunarmandlar aholining maxsus guruhini tashkil qilgan. Ularning ixtisoslashuviga ko'ra ular o'zlarining shaxsiy boshqaruvlari bilan ancha yopiq kastalarga birlashganlar. Malidagi hukmron tabaqa bir necha jamoa, urug' va qabila zodagonlarining guruhlaridan iborat bo'lgan.

Rivojlanayotgan feodal munosabatlar patriarxal urug' va qul munosabatlarining elementlari bilan chambarchas bog'liq edi. Hukmron tabaqaning kelib chiqishi bir xil bo'lmagan. Dastlab u urug'larning sardorlari va ularning yaqin qarindoshlaridan iborat bo'lgan. Mali davlatida birinchi o'rinni yerni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan hukmron *Keyta* qabilasi egallagan. Fath qilingan viloyatlarning hokimlari ushbu qabilaning a'zolaridan saylanganligi sababli, aslida u davlat yerlarining katta qismiga egalik qilgan. Mandingo zodagonlariga Keytaning siyosiy hokimiyatiga bo'ysungan sobiq mustaqil urug' *Konate*, *Taraore* va boshqalar ham kirgan.

Isonkor feodallar va xalqlarga qarshi kurashda qullardan tuzilgan soqchilarning boshliqlari muhim siyosiy rol o'ynagan. Soqchilar boshliqlari va askarlar hukmdordan nafaqat oltin mukofotlarini, balki turli xil vazifalarni bajarishlari kerak bo'lgan katta yer mukofotlarini ham olishgan. Katta yer maydonlarining berilishi markazdan qochish tendensiyalarining paydo bo'lishiga olib kelgan, natijada Mali davlati tanazzulga uchragan.

O'rta asrlardagi Mali iqtisodiyoti tabiiy xususiyatga ega edi. Mali qishloq jamoasida hunarmandlarning (temirchi, duradgor, zargar, to'quvchi) mavjudligi boshqa jamoalar bilan savdo almashinuvini

talab qilmas edi, chunki bu barcha jamoalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bir xil bo'lgan. Mavjud mahalliy ichki bozorlar esa kichik joylar bilan cheklangan.

Mali davlatida tashqi savdo rivojlangan bo'lib, ular oltin, baliq, tuz, qum savdosi va mis teri savdosi bilan shug'ullangan. Mali davlati Shimoliy Afrika mamlakatlari bilan oltin savdosida yetakchilikka erishgan. Oltin savdosida podshohlar, zodagonlar, shuningdek, xizmat qiluvchi zodagonlar va qul soqchilarining boshliqlari ham ishtirok etgan. Shisha buyumlar, matolar, qurollar va boshqa hunarmandchilik buyumlari evaziga oltin xarid qilingan. Ichki bozorda esa katta miqdordagi oltin tuzga almashtirilgan.

G'arbiy Sudanda tuz juda qadrlangan, uni faqat oltinga almashtirish mumkin bo'lgan va bu ayirboshlash ko'pincha 1/2 nisbatda bo'lgan. Qullar mehnatidan tuzni konlardan tashishda foydalanilgan. Tuz savdosining asosiy markazlari shaharlar bo'lgan.

Tashqi savdo bir necha yirik shaharlardagi bir guruh shaxslar qo'lida bo'lgan. Timbuktu va Jenna Mali davlatining eng muhim savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Hunarmandlar kulolchilik, ip yigirish va to'qimachilik, charm va qalqon yasash, qayiqalar yasash bilan shug'ullanishgan. Shaharlarda Shimoliy Afrikalik savdogarlar, voizlari va musulmon huquqshunoslarining mustamlaka manzilgohlari mavjud bo'lgan. Odatda ular alohida-alohida mahallalarda yashab, o'zini o'zi boshqargan.

Songai davlati yoki Gao imperiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi. Mali davlatining zaiflashishi bilan Songai davlati kuchaygan. Songai Mali davlatining sharqiy hududlarida joylashgan bo'lib, bir necha asrlar davomida Mali qirollariga xizmat qilgan. Bu holat XV asrning boshlariga kelib, Songai hukmdorlari Malidan mustaqil bo'lgandan keyin davom etgan. Qo'shni qabilalarni zabt etgan songailiklar Nigerning Jenna shahrigacha bo'lgan butun o'rta hududini o'zlariga bo'ysundirgan. Davlat hukmdorlari Barbarlar sulolasidan bo'lgan.

Savdo markazlarining sharqdan Timbuktu mintaqasiga ko'chishi, Malining siyosiy zaiflashishi natijasida Songai davlatining iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan. Bu voqea XV asrning o'rtalarida, Buyuk Ali Bera hukmronligi davriga (1465–1492) to'g'ri kelgan. 1468-yilda Ali Bera Timbuktni, yetti yil o'tgach

yirik savdo markazi – Jenneni egallab olgan. Shuningdek, u gʻarb va janubi-gʻarbda oʻz davlatining hududini kengaytirgan, chegara qabilalari va davlatlari bilan koʻplab qoʻshinlar olib kelgan. Uning qoʻshinlari Yatenga va Gurma davlatlarini, Dogon, Barbar va Fulbe qabilalarini magʻlub etishga muvaffaq boʻlgan.

Alining asosiy maqsadi faqat yer maydonlarini bosib olish emas, balki qullarni ham qoʻlga kiritish boʻlgan. Qullar mehnatidan qishloq xoʻjalik ishlarida, ayniqsa davlat hukmdorlari, zodagonlar, harbiylar va din peshvolarining katta yer-mulklarida foydalanish boʻlgan. Songai davlatining eng yuqori gullab-yashnashi davrida uning hududi Niger havzasini yuqori qismidan Bussa sharsharasiga qadar va shimolda Saharadan *bobo* mamlakatlarigacha va janubdagi mosilargacha boʻlgan yerlarni qamrab olgan.

Ali Bera 1492-yil noyabrda oʻtkazilgan harbiy yurishlardan birida halok boʻlgan. Uning oʻgʻli Bakari-Daaning qisqacha hukmronligi davrida Ali Beraning qoʻmondonlaridan biri, *soninke* qabilasi vakili Muhammad Ture qarshi boʻlgan. 1493-yildagi Ango jangida Muhammad Ture Songai qiroli qoʻshinlarini magʻlub etib, poytaxtni egallagan va oʻzini Muhammad I (1493–1528) nomi bilan Songai davlatining qiroli deb eʼlon qilgan.

Muhammad I davrida kuchli muntazam qoʻshin tuzilgan. Bunga qadar, urush boʻlgan taqdirda, barcha katta yoshdagi erkaklar qoʻshin safiga chaqirilgan va harbiy harakatlar tugashi bilan avvalgi kasblariga qaytarilgan. Muntazam qoʻshin tashkil etilishi bilan aholining katta qismini samarali mehnatdan ajratish zarurati pasaygan, bu esa oʻz navbatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va mustahkamlash uchun imkoniyatlar eshigini ochgan.

1494-yilda Diag qirolligi Songai tarkibiga qoʻshilgan. Mali podshohi qoʻshini va Massina davlati qoʻshinini magʻlubiyatga uchratgan Muhammad I oʻz mol-mulkiga Malining eng yirik viloyatlaridan biri Baganni qoʻshib olgan. 1506–1507-yillarda uning qoʻshinlari Mali hududiga bostirib kirib, Tekrur chegarasida joylashgan Galam podshohligiga yetib borishgan. 1512-yilda Muhammad I Bakunu viloyatida Fulbelarga qarshi yurish qilib, Nioro hududida uning qoʻshinlarini tor-mor etgan. Keyin Muhammad I xausalar yashaydigan hududga harbiy yurishlarni amalga oshirgan. 1513-yilda xausalarning Katsin davlati zabt etilib, boshqa bir xausan davlati

– Kebbi bilan harbiy ittifoq tuzilgan. 1515-yilda Agadez shahri va uning atroflari ishg'ol qilingan.

Fath qilingan hududlar aholisi har doim ham yangi hukmdorlar bilan kelisha olmagan. Qo'zg'olonlar bir qator joylarda bo'lib o'tgan. 1517-yilda Malining sobiq gubernatori Kama Keyta boshchiligida Bagan viloyatida ko'tarilgan qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Gaoning o'zida boshlangan fuqarolar urushi asta-sekinlik bilan Songai davlatini tanazzulga uchratib, qo'shnilar tomonidan egallanishiga sabab bo'lgan.

Songai davlatining ijtimoiy tizimi qullikdan feodal munosabatlar davriga o'tish bo'lgan. Songaining alohida amaldorlari va hukmdorlarning o'zlari ziroatchilikda 300, 500 va hatto 1000 tagacha bo'lgan qulni mehnatidan foydalanishgan. Songai hukmdorlari qo'mondonlar va yuqori martabali amaldorlarga yer-mulklarni ishchi kuchi bilan birgalikda tortiq qilganlar. Bu qullar asta-sekinlik bilan qaram dehqonlarga aylanib, o'z egalariga tabiiy ijara haqini mahsulot ko'rinishida to'laganlar. Bundan tashqari, ular jon solig'i ham to'laganlar. Qullarning ikkinchi avlodi, ota-onalaridan farqli o'laroq, hech kimga sovg'a sifatida sotilishi yoki berilishi mumkin bo'lmagan. Qullarning uchinchi va to'rtinchi avlodlari erkin hisoblangan bo'lsada, ammo avvalgi egasiga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lgan.

Songaida qullar va qaram dehqonlardan tashqari ozod dehqonlar ham bo'lib, ular jon solig'i to'lamaganlar. Biroq, ularning mulkiy holati, ular bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar shakllari to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar mavjud emas. Jamiyatning ozod a'zolari va shaxsan erkin odamlar ko'pchilik bo'lib, Songai aholisining asosiy qismini tashkil qilgan. Shaharlardagi aholining aksariyati erkin fuqarolardan iborat bo'lgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, Songai davlati poytaxti – Gao aholisi 75 ming kishidan iborat bo'lgan.

Songaida shahar hunarmandchiligi sezilarli darajada taraqqiy etib, hunarmandchilik mahsulotlari savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. «Tarix al-Fettash» yilnomasida qayd etilishicha, Timbukudagi 26 ta tikuvchilik ustaxonalarining har birida 50 tagacha ishchilari bo'lgan. Ishchilar soni ko'proq 70 dan 100 gacha bo'lgan ustaxonalar ham bo'lgan.

Songai tarixi qullarning bir necha bor qullar va yarimozod qullar

qo'zg'olon ko'tarishgan. Qo'zg'olonlarning birida isyonchilar hatto Timbuktuni ham qamal qilgan. O'z xo'jayinlariga qarshi kurashda ular ko'pincha Songaiga raqib bo'lgan Tuareg va Sanxaji qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzgan.

Mosi qabilalari asos solgan davlatlar. Milodiy I ming yillik oxirlarida Volta daryosi havzasida yashovchi *mosi* qabilalari o'rtasida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida sinf tabaqalanishi kuchaygan. Natijada XI asrga kelib *mosi* qabilalarining Vagadugu, Yatenga va Fadai Gurma kabi davlatlari vujudga kelgan. Yatenga va Fadai Gurma dastlab Vagadugu davlatiga vassal bo'lgan. Mosi davlati XIX asrga qadar, ya'ni Fransiya mustamlakasiga aylangunga qadar mavjud bo'lgan.

Vagadugu davlati qo'shni qabilalarni bo'ysundirish natijasida vujudga kelgan. Bu davlat 16 viloyatdan iborat bo'lgan. Viloyatlarning 5 tasi to'g'ridan-to'g'ri Vagaduga hukmdoriga bo'ysungan bo'lsa, qolgan 11 ta viloyat vassal hisoblangan mahalliy sardorlar tomonidan boshqarilgan. Shuningdek, ushbu davlatga alohida *dannik* qabilalari ham kirgan. Viloyat aholisi oliy hukmdorga qat'iy belgilangan soliq to'lash va urush vaqtida qo'shin uchun jangchi yetkazib berishga majbur bo'lgan.

Hukumatda 16 nafar amaldordan iborat kengash mavjud bo'lib, ularning lavozimlari merosiy bo'lgan. Ushbu yuqori martabali amaldorlarning barchasi, xuddi oliy hukmdor kabi, ulkan yer-mulk va asir qullarga ega bo'lgan. Vagadugu, Yatenga kabi yirik aholi manzilgohlarida qul bozorlari bo'lgan.

Vagadugu hukmdorlari yuqori ma'muriy lavozimlarga ham qullarni tayinlab, ularni urug' zodagonlari vakillari bilan solishtirgan. Saroy xo'jaligi va tashqi aloqalar bo'yicha eng muhim maslahatchilar, otxona boshliqlari, suvoriy qo'riqchilar va saroy qullari boshliqlari hukmdorga sodiq bo'lgan qullardan tayinlangan. Hukmdorlar ularning yordamida urug' zodagonlarining ayirmachilik va fitna uyushtirishlarining oldini olishga harakat qilgan.

Mosilarning ikkinchi yirik davlati Yatenga poytaxti Gursi tog'larida joylashgan. Yatenga XII asrda Vagaduganing vassali bo'lgan Zandoma knyazligidan kelib chiqqan. XIII–XIV asrlarda mazkur davlat Songai imperiyasi va Mali davlati hisobiga o'z hududlarini kengaytirgan.

Yatenganing siyosiy jihatdan tuzilishi Vagaduguniki singari boʻlib, maʼmuriy boshqaruv koʻpsonli xodimlardan iborat boʻlgan. Viloyat rahbarlari hukmdor tomonidan tayinlangan va ularning lavozimlari merosiy boʻlgan. Ular *mosi* qabilasi qishloqlaridan maxsus tayinlanganlar. Bosib olingan hududlardagi qishloq boshliqlaridan tashqari mahalliy zodagonlar vakillaridan tayinlangan «yer egalari» ham boʻlgan. «Yer egalari» nizolarni hal qilishda ruhoniylar va hakam vazifalarini bajargan.

Yatenga shahrida doimiy soliq tizimi mavjud boʻlib, ular asosan *nionose, samo, diula, fulbe* singari zabt etilgan qabilalardan olingan. Mosilar soliq toʻlamagan. Karvon savdosidan bojxona yigʻimi sifatida don, tuz va qoramol olingan.

Tekrur, Djolof, Futa-Toro davlatlari. Senegalning quyi va oʻrta oqimi hamda hozirgi Mavritaniyaning janubiy qismida uzoq vaqtlardan buyon *Volof* va *Serer* qabilalari istiqomat qilgan. Keyinchalik bu yerda *Fulbelar* va ularga qarindosh boʻlgan *Tukulerlar* paydo boʻlgan. VIII asrda ushbu hududda vujudga kelgan Tekrur davlati Futa Toro viloyati, Voloflar va Sererlar joylashgan hududlarda hukmronlik qilgan. VIII asr oxiriga qadar Tekrur davlatida *Sal* urugʻidan chiqqan sulola hukmronlik qilgan.

Oʻsha vaqtda Tekrur hududida bir qator shahar savdo markazlari paydo boʻlgan. Atlantika okeani sohilidagi Avlilda – tuz va anbar¹ bozori, Senegalda paxta matolari bozori boʻlgan.

VIII asr oʻrtalarida Tekurning sharqiy viloyatlari *Gidimak* va *Galam Soninke* qabilalari tomonidan mustamlaka qilinib, u yerda bir nechta aholi manzilgohlari tashkil etilgan. Gananing yuksalishi bilan ushbu hududlar unga qaram boʻlib qolgan.

IX asrning boshlarida Tekrurda hokimiyat tepasiga islom dinini qabul qilgan *Fulbelar*ning *Dyago* sulolasi kelgan. *Fulbelar*ning Tekrur ustidan hukmronligi XI asrga qadar davom etgan. Aftidan, *Tukulerlar* qoʻzgʻoloni natijasida *Manna* hokimiyat tepasiga kelgan,

¹ Anbar – oq va qoʻngʻir rangli mumsimon xushboʻy modda. Uvalanadigan moyli massa boʻlib, suyuqlanish temperaturasi 60°, suvda erimaydi, spirt, efir, hayvon moylarida yaxshi eriydi. Kashalot ichagidan olinadi; kashalotlar yashaydigan dengiz va okeanlar yuzidan ham yigʻib olinadi. Bu parfyumeriya sohasida juda mashhur va hidni nazorat qiluvchi vosita sifatida ishlatiladi.

uning birinchi shohi Uar Diadie (vafoti 1040-yilda) islomni qabul qilgan va Galam viloyatidagi Tukulerlar va Soninkalarni majburan ushbu dinga kirgizgan. Uning o'rinbosarlari Almoravidlar bilan ittifoq tuzishib, marokashliklarning Ganaga qarshi harbiy yurishlarida ishtirok etishgan.

XIII asrda Mali qirolı Sundiata mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, Soso davlati qo'shini 1250-yilda Tekrurga yurish qilgan. Ular hukmron sulolaga dushman bo'lgan Tukulerlar urug'i Deniankaning yordamiga tayanib, mavjud hokimiyatni ag'darib tashlaganlar va yuz yil davomida Tekrur ustidan hukmronlik qilgan.

Taxminan 1350-yillarda Tekrurda Ndyadyan Ndyaya boshchiligidagi voloflar qo'zg'oloni boshlangan. Voloflar mustaqil Jolof davlatini tuzgan. Zaiflashgan Tekrur bilan urush natijasida voloflar Futa Toroning butun hududini o'z mulklariga qo'shib olgan. Jolof davlati Senegalda XIV asrgacha hukmronlik qilgan.

Futa Toro fulbelari 1520-yilga kelib Jolof hukmronligiga qarshi isyon ko'tarishib, mustaqillikni qo'lga kiritgan. Hokimiyat tepasiga kelgan isyonchilar rahbari Koli Galadio Bambuk qirolligining oltinga boy hududlarini egallamoqchi bo'lgan, biroq mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng u serer qabilalarini Joloflarga qarshi bosh ko'tarishiga muvaffaq bo'lgan. Ushbu urush natijasida Jolof hududlari qisqarib ketgan. Galadio sulolasi Futa Toroda 1776-yilgacha hukmronlik qilgan.

O'rta asrlardagi Tekrur, Jolof va Futa Toro qabilaviy tuzum munosabatlarini saqlagan dastlabki feodal davlatlar edi. Jamiyatning asosini katta patriarxal oilalar tashkil qilgan. Bunday patriarxal oilalar hududiy jamoalarga birlashgan. O'rta asrlardagi Senegal davlatlarida ziroatkor volof va sererlarning ko'chmanchi chorvador fulbe va tukulerlar bilan o'zaro mahsulot almashinuviga asoslangan ichki bozor vujudga kelgan.

Senegalda davlat shakllanishining beqaror bo'lishiga turli etnik elementlar, ko'chmanchi va o'troqlar, ibtidoiy dinga e'tiqod qiluvchilar bilan musulmonlar o'rtasidagi doimiy kurash salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Xausa davlati. Songai davlatining sharqiy chegaralaridan to Chad ko'lining g'arbiy sohillarigacha bo'lgan ulkan hududda Xausa qabilalari yashagan. Xausa Markaziy Sudanning ushbu qismida uzoq

vaqt yashaganligi XIII asrga oid tarixiy manbalarda ham aks etgan. Ushbu hududga birinchilardan boʻlib kelgan arab sayyohlarining maʼlumotlariga koʻra xausalar madaniy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Xausalarga tegishli hududlarda tabaqaviy jamiyat allaqachon shakllanib boʻlgan. Hunarmandchilikning dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqarish jarayoni sodir boʻlayotgan edi. Savdo-sotiq keng rivojlangan. Xausa hunarmandchiligi ixtisoslashuvning yuqori dajasiga yetgan, ayniqsa toʻqimachilikda.

Xausan matolari va teri mahsulotlari butun markaziy va gʻarbiy Sudan boʻylab keng tarqalib, hattoki Gvineya qirgʻoqlaridagi chekka hududlarigacha yetib borgan.

Xausa davlatlarining ijtimoiy tuzilishida quldorlik katta ahamiyatga ega boʻlgan. Qul mehnatidan foydalanish nafaqat dehqonchilikda, balki hunarmandchilikda ham keng tarqalgan. Shu bilan birga, Xausa jamiyatida urugʻ-qabila tizimining qoldiqlari qayd etilgan.

Garchi arab manbalari bilan bir qatorda Xausa tarixiy yilnomalarining katta qismi saqlanib qolgan boʻlsada Xausa shahar-davlatlarining oʻziga xos tarixi yetarlicha aniq emas. Xausa yilnomalarida alohida shahar-davlatlarning vujudga kelishi VIII–X asrlar bilan belgilangan. Xausa tarixida Daura, Kano, Zariya, Gobir, Katsina, Kebbi, Vangara davlatlari alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Ularning barchasi Sharqiy Gʻarbiy Sudanning muhim madaniy va iqtisodiy markazlari boʻlgan.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Xausan davlatlaridan biri Kano boʻlgan. U Markaziy Sudanning eng muhim savdo yoʻllari chorrahasida joylashgan boʻlib, nafaqat Shimoliy Afrika (Tunis, Liviya), balki Gʻarbiy Afrikaning janubidagi mamlakatlar (hoz. Gana, Janubiy Nigeriya) bilan ham savdo aloqalarini oʻrnatgan. Ayniqsa Gonja davlati (hoz. Gana) bilan kola yongʻoqlari savdosi rivojlangan.

Xausan yilnomalariga koʻra, Kano davlatning shakllanishini XI asrga toʻgʻri keladi. XIV asrda Xausaning boshqa davlatlaridagi singari Kanoda ham manding savdogarlari taʼsiri ostida islom dini targʻib qilingan. Biroq, islom dini faqat hukmron tabaqa va shaharliklar orasida tarqalgan, qishloqlar aholisi esa ruhlarga eʼtiqod qilishgan.

XIV asrdagi Kano qirollari tajovuzkor siyosat olib borganlar. Shunday qilib, Yaji hukmronligi (1349–1385) davrida kororofga qarshi bir necha yurishlar amalga oshirilgan. Kanajeji hukmronligi davrida (1390–1410) Kano qo‘shinlari bir muncha vaqt xausaning Zariya davlatini egallab turgan.

XV asrning birinchi yarmida Kano Bornu Sultonligiga siyosiy jihatdan qaram bo‘lib qolgan, lekin o‘sha asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa Yakubu (1452–1463) va Rimfa (1463–1490) hukmronligi davrida Kano bu vassallikdan qutulishga muvaffaq bo‘lgan. Bu davrda Kano iqtisodiy va madaniy jihatdan gullab-yashnagan. Yangi poytaxt qurilib, unda katta binolar va masjidlar bunyod etilgan. Kano ulkan tosh devor bilan o‘ralgan.

Rimfa Katsin davlatini zabt etishga urinib ko‘rgan. Biroq, bu urush tanafuslar bilan 70 yil davom etgan. Zariyaga qarshi ham urush davom etgan, bundan foydalangan Songai qirolligi osonlik bilan nafaqat Katsino va Zariyani, balki Kanoni ham egallagan. Uchala davlat ham yarim asr davomida Songaiga har yilda boj to‘lash majburiyatini olgan. Katsina Nil vodiysidan Mali qirolligiga bo‘lgan karvon yo‘lidagi muhim savdo nuqtasi bo‘lgan. Davlatning paydo bo‘lishi XI asrga borib taqaladi. Katsinaning iqtisodiy holati yaxshiligi uchun Mali bir necha bor uning ustidan nazorat o‘rnatishga uringan. Ushbu urinishlar ayniqsa XIV asrda kuchaygan. Bu vaqtga kelib islom dinining mamlakatiga kirib kelishi tezlashgan. XV asrda Katsina Bornuning bosqinchilik siyosatiga duch kelgan. Shunday qilib, Katsina qiroli Saga Rana (1431–1480) Bornuni o‘z homiysi sifatida tan olishga va har yilda 100 nafar qulni boj tarzida to‘lashga majbur bo‘lgan.

Katsina Kano, Kebbi va Jukun bilan uzoq muddatli urushlar olib borgan. Savdo-sotiq sohasidagi eng asosiy raqib Kanoning zaiflashuvi Katsinaga Markaziy Sudandagi savdodagi barcha ustunlikni bergan. 1649-yilda Katsina qiroli Rana Xassan Kano ustidan qat‘iy g‘alaba qozongan va Jukun (Kororof) qirolligi bilan tinchlik shartnomasini tuzgan. Bu ittifoq XVII asrning oxirigacha, ya‘ni Jukunlar Katsinani bosib olgunga qadar davom etgan.

Aholisi Songai va Xausa qorishuvidan iborat bo‘lgan Kebbi qirolligi Nigerning chap sohilida Zamfara va Dandi oralig‘ida joylashgan. Bu Xausan shahar-davlatning ashaddiy raqibi bo‘lgan.

Kebbi Songai davlatiga qarshi kurash natijasida, ya'ni 1515-yilda sardorlardan biri Kante songai qo'shini bo'linmalarini mag'lubiyatga uchratganda paydo bo'lgan. Kebbi juda kuchli armiyaga ega bo'lgan, u XVI asrda Bornu sultonining armiyasini mag'lubiyatga uchratgach to 1805-yildagi fulbelar istilosiga qadar o'z mustaqilligini saqlab qolgan.

Xausan shahar-davlatlarining eng xavfli raqiblari Songai qirolligi bilan Bornu sultonligi edi. Bu ikki davlat Xausa shohlari o'rtasidagi savdo va siyosiy raqobatdan mohirona foydalanishgan. Ayniqsa Kebbi va Xausaning boshqa davlatlari o'rtasidagi raqobat kuchli bo'lgan. Shu bilan birga, Kebbi ko'pincha asosiy dushman – Songai qirolligi tomonida turib harakat qilgan. Faqat XVI asrda, ya'ni Songai qirolligi parchalanayotgan davrda, Xausa davlatlari o'zlarining mustaqilligini qayta tiklagan. Bunga turli xausa qabilalarining yagona xalq bo'lib shakllanishi jarayoni ham yordam bergan.

Kanem va Bornu davlatlari. Chad ko'li havzasi Afrikaning qadimiy tamadduni markazlaridan biri bo'lgan. Uni yaratishda Kanembu va Kanuri xalqlari asosiy rol ni o'ynagan. Kanembu xalqi ko'lining sharqida, Kanurilar esa g'arbiy qirg'og'ida yashagan. VIII asrda Kanembu xalqi asos solgan Kanem davlati haqidagi yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. Ushbu davlatning poytaxti Njimi shahri bo'lgan. Xum hukmdorligi davrida, ya'ni 1085–1097-yillarda Kanem xalqi islom dinini qabul qilgan. Kanem hukmlarining keng istilochilik siyosati mana shu davrga to'g'ri kelgan. Uning muvaffaqiyatiga Kanemning harbiy qo'shini yaqindan yordam bergan. Piyoda jangchilar bilan birga ilk marotaba suvoriylardan ham foydalanilgan. Chad ko'li atrofidagi etnik guruhlarning bo'ysundirilishi natijasida Kanem davlati hududi sezilarli darajada kengayib, Afrikadagi eng yirik davlatlardan biriga aylangan. XIII asr Kanemning siyosiy jihatdan qudratli bo'lgan davri hisoblanadi. O'ttiz minglik Kanem suvoriylari qo'shni qabilalarni vahimaga solgan. Kanem hududi shimolda Fetsian (Liviya), janubda – Dikoa, sharqda – Vaday, g'arbda esa Niger (vassal bo'lgan Xausa davlatlari hududi) daryosigacha kengaygan. 1257-yilda Kanem hukmdori Tunis bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan.

Kanemning istilochilik siyosati zabt etilgan qabilalar qarshiligiga

uchrangan. Natijada *kanuri* va *teda* qabilalari isyon koʻtarishgan. Shu bilan birga qoʻshni *hulla* qabilasi boshchiligida tuzilgan harbiy ittifoq Kanemning sharqiy chegaralariga hujum qilgan. XIV asr oxirida ular hatto Kanem poytaxti Njimi shahrini egallab olishgan. Natijada Kanem hukmdori Onar (1394–1398) mamlakat hududini tark etib, Chad koʻlining gʻarbiy sohiliga chekinishga majbur boʻlgan. XIV asrda vujudga kelgan yangi davlat Bornu deb nomlangan.

Yoruba davlati. Nigeriya va Dagomeyaning janubiy sohillari qadimiy Afrikaning madaniy markazlaridan boʻlgan. Yevropaliklarning paydo boʻlguniga qadar ushbu hudud tashqi olamdan deyarli uzilgan holda rivojlangan. Mahalliy va Yevropa tarixiy manbalarida ushbu hudud xalqlarining XV asrgacha boʻlgan tarixiga doir maʼlumotlar deyarli uchramaydi. Arxeologik qazishmalar natijasida qoʻlga kiritilgan moddiy manbalar ushbu hudud xalqlarining madaniy rivojlanish darajasi yuqori boʻlganligidan dalolat beradi. Benin, Nupe, Ile va Ifedan topilgan bronza va sopol haykallar buni tasdiqlaydi. Yoruba shaharlarida bir necha yuz ming kishi istiqomat qilgan. Haykallar bilan bezatilgan ibodatxona va katta binolar boʻlgan.

XI asrda Yoruba davlatlarining ijtimoiy hayotida feodal munosabatlar elementlari urugʻ-qabila va quldorlik tizimi bilan birga mavjud boʻlgan. Yoruba iqtisodiyotining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Hunarmandchilik yuqori darajada taraqqiy etgan. Yorubada ishlab chiqarilgan mahsulotlar butun Gvineya qirgʻoqlari boʻylab sotilgan. Ayniqsa toʻquvchilik, koʻnchilik va shishasozlik, metallsozlik, kulolchilik va badiiy kulolchilik rivojlangan. Sex koʻrinishidagi ixtisoslashtirilgan ustaxonalar mavjud boʻlgan. Yoruba davlatlarining eng yirigi Oyo IX–X asrlar oʻrtasida tashkil topgan. Xalq ogʻzaki ijodiga koʻra yoruba xalqi oʻz ajdodlari Odudvani dolovlashtirganlar va keyinchalik uni yer maʼbudi deb tan olganlar.

Yoruba qabilalari yetakchilaridan biri Odede «*alafin*» (uy xoʻjayini) unvonini olgan, keyinchalik bu nom Yoruba hukmdorlarining nomiga aylangan. Davlatning yangi poytaxti Oyo shahri boʻlgan. Natiqat Yoruba qabilalari, balki butun Nigeriya janubidagilar uchun Ile shahri diniy markaz vazifasini bajargan.

Oyo monarxiya davlati boʻlib, uni fuqarolik va harbiy rahbari *alufin* boshqargan. Uning hokimiyati zodagonlar kengashi bilan

cheklangan. Kengash rahbari lavozimi merosiy boʻlgan. Kengash maʼmuriy va oliy sud funksiyalarini birlashtirib, har qanday odamga, hatto hukmdorning oʻziga ham oʻlim jazosini tayinlashi mumkin boʻlgan.

Shaharlar ikki yil muddatga tayinlanadigan maxsus boshliqlar tomonidan boshqarilgan. Ular oʻz navbatida qishloq oqsoqollari orasidan tayinlangan. Shaharlarda amaldorlardan iborat maʼmuriy kengashlar mavjud boʻlgan. Maʼmuriyatda hukmdorning bosh maslahatchisi va qoʻshin qoʻmondoni muhim rol oʻynagan.

Oyo doimiy soliq tizimiga ega boʻlgan. Davlatning asosiy daromadini dehqon va hunarmandlardan olinadigan soliqlar hamda shahar bozorlarida sotiladigan tovarlardan undiriladigan yigʻimlar tashkil etgan.

Efiopiya. Efiopiya Afrikaning uzoq tarixga ega davlatlaridan biridir. Efiopiyaning shimolida qadimda shimoli-sharqiy Afrikadagi savdo yoʻllari chorrahasida joylashgan qudratli Aksum davlati boʻlgan.

Aksum aholisining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik va chorvachilik boʻlgan. Dehqonlar tariq, arpa, bugʻdoy, shakarqamish va yogʻ olinadigan ekinlar yetishtirgan, bogʻdorchilik sezilarli darajada rivojlangan. Qishloq xoʻjaligi mehnat qurollari juda sodda boʻlgan edi va ekin maydonlari ham koʻp boʻlmagan. Hududning katta qismini oʻrmonlar egallagan. Hunarmandlar turli matolar, charm buyumlar tayyorlaganlar, kulolchilik va temirchilik bilan shugʻullanishgan, novdalardan turli xil uy-roʻzgʻor buyumlarini toʻqishgan.

Aksumning asosiy savdo markazi sifatida mashhur boʻlgan. Aksumda yunon savdogarlarining katta manzilgohi boʻlgan. Aksumning yunon-rim dunyosi bilan aloqalari uni yunon madaniyati taʼsiriga tortgan.

Aksum IV asrda gullab yashnagan. Efiopiya qirollari – *neguslar* Janubiy Arabiston qirgʻoqlarigacha boʻlgan hududlarda hukmronlik qilgan. Xuddi shu davrda Aksum qadimgi Sudan qirolligi Meroni oʻziga boʻysundirgan. Aksumning Vizantiya imperiyasi bilan yaqin tijoriy va madaniy aloqalarning oʻrnatishi, keyinchalik milodiy 333-yilga kelib hukmdorlar bilan yuqori tabaqa vakillari tomonidan nasroniylikning qabul qilinishiga sabab boʻlgan.

VII asrda savdo yoʻllarining Arab savdogarlari tomonidan

egallanishi natijasida Aksum qulay boshlagan. Hududdagi siyosiy vaziyat ham o'zgargan. Arablarning siyosiy ekspansiyasi natijasida Aksum nafaqat yakkalanib qolgan, balki Arabiston janubidagi mulklarni qo'ldan chiqarib, arablar tomonidan hujumga uchragan. Negus Armax tomonidan islomning qabul qilinishi arablar istilosining oldini olgan. 630–640-yillarda arablar Adulis portini vayron qilib, Aksumni tashqi dunyodan uzib qo'yishgan. Bu esa mamlakatning uzoq vaqt davom etgan iqtisodiy va madaniy tanazzuliga olib kelgan.

Qizil dengiz sohillari va Somali xalqlarining islomlashtirilishi va u yerda arab amirliklarining vujudga kelishi Efiopiyaning janubiy hududlaridagi *galla* qabilalariga ta'sirini ko'rsatgan, Aksumning Sharqiy Afrika bozorlari bilan savdo aloqalarini deyarli to'xtatib qo'ygan.

VII–X asrlarda aksumliklar asta-sekin Abissin yassitog'larida tarqalgan. Bu jarayon bir necha asr davom etgan. Aksum qirollarining markaziy hokimiyati asta-sekin zaiflashgan. Aksum «*negus*»i taxti uchun bo'linib ketgan viloyatlar hokimlari – *rasalar* o'rtasidagi tanafussiz kurash boshlangan.

X asrda Efiopiyaning qadimiy poytaxti Aksum vayron qilinib, ushbu davlat barham topgan. Markaziy Efiopiyadagi hokimiyat vahudiylikni qabul qilgan yangi sulola qo'liga o'tgan. Ehtimol, bular hanuzgacha Efiopiyada yashayotgan yahudiylarning – *falash* qabilalari bo'lishi mumkin. Efiopiya yilnomalarida esa X–XII asrgacha bo'lgan davrga oid ma'lumotlar mavjud emas.

XII asrda mamlakatda hokimiyat Lasta viloyatining feodal zodagonlaridan kelib chiqqan nasroniy Zagve sulolasiga o'tgan. Davlat poytaxti ham u yerga ko'chirilgan. Bu sulola bir asr davomida hokimiyatni egallab turgan. Ushbu sulolaning eng mashhur hukmdori Lalibala o'rta asrlardagi Efiopiya me'morchiligining ajoyib yodgorligi – qoyaga o'yilgan mashhur xristian cherkovini bapo ettirgan.

XIII asrda Sulaymon sulolasi hokimiyatga kelgan. Ushbu sulolaning birinchi qiroli yekun-Amlak (1270–1285) davrida Efiopiya poytaxti mamlakat janubidagi Shoa viloyatidagi Ankober shahriga ko'chirilgan.

O'rta asrlardagi Efiopiyaning siyosiy tizimi feodal iyerarxiyasiga asoslangan edi. Viloyat «*rasa*»sidan tortib kichik ma'muriy hudud

rahbariga qadar boʻlgan har bir hukumat amaldori feodal xoʻjayin boʻlib, yigʻilgan soliqlarning bir qismini oʻzida olib qolgan. Shuningdek, dehqonlarning mehnatidan foydalangan va oʻz hududida cheksiz hokimiyatga ega boʻlgan. Har bir hukmdor oʻzida siyosiy, harbiy, sud, politsiya va soliq-budjet vazifalarini birlashtirgan. Viloyat hokimi boʻlgan «rasa»lar amalda harbiy va iqtisodiy hokimlikka ega boʻlgan.

Efiopiya davlatining chegaralari shimolda Debora (Asmara janubidan 25 janubda), janubda esa Avash daryosigacha, gʻarbda Tana koʻligacha, shimoli-gʻarbda Sudanning Mazon (bu davlat Efiopiyaning vassali boʻlgan) qirolligigacha boʻlgan. Janubi-gʻarbiy tomondan Abbai daryosining ortida Uollega, Znarya, Xadiya, Kaffa kabi «butparast» davlatlarga qoʻshni boʻlgan. Garchi ular Efiopiya «negus»iga oʻlpon toʻlagan boʻlsalar ham, aslida mustaqil boʻlganlar. Sharqda Efiopiya Somalining musulmon amirliklari bilan chegaradosh boʻlgan. XIV asrdan boshlab Efiopiya Somali musulmon amirliklari va *galla* amirligi Xararning qoʻshinlari tomonidan muntazam hujumlarga uchragan.

Dehqon yer egaligi va yerdan foydalanish jamoaviy xususiyatga ega boʻlgan. Efiopiya jamoasi – *addi* aʼzolari oʻrtasida yerlar vaqti-vaqti bilan qayta taqsimlab turilgan. Feodalizmning rivojlanishi davrida yerdan foydalanishning jamoaviy shakllari buzilganligi kuzatiladi. Shunga qaramay, jamoa aʼzolari uchun ajratilgan yerlardan tashqari, jamoa rahbarining qarori bilan jamoa aʼzosi boʻlmaganlarga ham foydalanish uchun yerlar berilgan.

Negus va yirik feodallar tomonidan belgilangan vazifalarni bajarganligi uchun ayrim shaxslarga merosiy yerlar – *gult* berilgan. Qoidaga koʻra *gult* shaxsiy emas, balki oilaga tegishli boʻlgan, ammo daromadning barcha yoki faqat bir qismiga nisbatan neguslar tomonidan taʼminlanadigan shaxsiy gultlar ham boʻlgan.

Negus barcha yerlarning egasi hisoblangan. Feodal parchalanishi davrida ayrim viloyat hokimlari – rasalar ham oʻziga tegishli hududdagi yerlar egasi hisoblangan. Efiopiya cherkovi eng yirik yer egalardan boʻlgan. Cherkov yerlariga egalik ham feodal iyerarxiyasi qoidalari asosida qurilgan. Cherkov yerlarining muhim qismida qullar mehnatidan foydalanilgan.

Feodallarning yerlarida ijarachi dehqonlar va tengsheriklar

ishlashgan. Qul mehnatidan asosan, feodal shaxsiy xo'jaligida foydalanilgan.

O'rta asrlarda Efiopiyada keng soliq tizimi mavjud bo'lgan. Davlat bojlari miqdori o'ndan bir qismga teng bo'lgan. Viloyatlarda mahalliy soliq shakli mavjud edi. Feodal vazifalarning maxsus turi *dergo* bo'lgan. Bu vazifa markaz va viloyatdagi amaldorlar hamda davlat choparlarini bepul oziq-ovqat bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan.

Mehnat majburiyati juda qiyin bo'lgan. Feodallar to'rt kunda bir marta dehqonlar mehnatidan foydalanishlari mumkin bo'lgan. Ular dehqonlarning mehnatidan yo'l qurishda va yuklarni tashishda foydalangan.

O'rta asrlar Efiopiyasida qul mehnatidan asosan uy ishlarida foydalanilgan. Tirikchilikning dastlabki usuli, kuchsiz mehnat taqsimoti va savdo aloqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi mamlakatning ayrim viloyatlarida ekspluatatsiyaning ushbu shaklini saqlanib qolishiga sabab bo'lgan.

Ushbu hayotiy shakldagi tirik qolish uchun ibtidoiy qishloq xo'jaligi, mehnatning zaif taqsimlanishi va mamlakatning ayrim mintaqalari o'rtasidagi savdo aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sabab bo'lgan edi.

Uy qullari mehnatidan asosan, hunarmandchilikda, feodal mulkining ehtiyojlari uchun mo'ljallangan to'quv, ip yigirish, temirchilik, donni maydalash kabi ishlarda foydalanilgan. Qul mehnatidan bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilmagan.

Qishloq xo'jaligida qullikdan qaram dehqonlikka o'tish davri shakllari yaratilgan. Bu qullarning yer, mehnat qurollari va chorva mollari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum qismini yetkazib berish majburiyati bilan bog'liq. Yer faqat ishlov berish uchun ajratilgan. Bunday vaziyatda, qul qaram dehqon holatida bo'lgan.

Quldorning qulga nisbatan egaligi Efiopiya qonunlari bilan cheklangan. Qulni xo'jayini tomonidan o'ldirish jinoyat hisoblanib, ozod kishining o'ldirilishi bilan tenglashtirilgan. Qul o'z egasi haqida sudga shikoyat qilishi mumkin bo'lgan. Nasroniy qulni sotish mumkin bo'lmagan.

Mamlakatning feodal parchalanishi, ko'plab ichki bojxona

to'siqlari va ichki savdo yo'llarida xavfsizlikning yo'qligi savdo rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Karvon savdosi keng tarqalgan. Savdogarlar davlat va feodallarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanmagan, chunki ularning aksariyati musulmonlar bo'lgan. Savdogarlar karvonlari ko'pincha mahalliy feodallar tomonidan talon-taroj qilingan, bu esa savdo aloqalarining kengayishiga xalaqit bergan.

Mavzuga doir savollar:

1. G'arbiy va markaziy Sudanda ijtimoiy munosabatlar qanday ko'rinishda bo'lgan?
2. Soninke xalqi va uning davlatchiligining o'ziga xos tomonlari qanday edi?
3. Gana davlati va barbar qabilalarining munosabatlari qanday bo'lgan?
4. Almoravidlar imperiyasining mintaqada tutgan o'rni qanday bo'lgan?
5. Mali davlati asosini qaysi qabilalar tashkil etgan?
6. Gao imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday darajada bo'lgan edi?
7. Mosi qabilalari asos solgan davlatning o'ziga xos tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Tekrur, Djolof, Futa-Toro davlatlarining o'zaro munosabatlari qay ko'rinishda bo'lgan?
9. Xausa davlati iqtisodiy ahvoli qay darajada edi?
10. Kanem va Bornu davlatlari aholisi qaysi dinga e'tiqod qilishgan?
11. Yoruba iqtisodiyotining asosini qanday xo'jalik tashkil etgan?
12. Aksumliklar VII–X asrlarda qaysi hududlarni egallashgan?

III BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA SO'NGGI O'RTA ASRLAR DAVRIDA

XVII BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA XITOIY

Min sulolasining zaiflashuvi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Min sulolasi to'la tushkunlikka yuz tutgan. Bu «dehqonlar» sulolasining dastlabki davrlarida mavjud bo'lgan ayrim demokratik g'oyalar allaqachonlar tugab ketgan edi. Min sulolasi vaziyat yomon tarafga o'zgarib, o'zidan oldingi sulolalar singari oddiy rasmiyatchilikka asoslangan tuzumga aylangan edi. XVI asr boshlaridan e'tiboran davlatni idora qilish ishlari tepasida davlat xazinasini talagan va shu tariqa juda katta boylik orttirgan imperator haramining xodimlari bo'lgan mahramlar turgan. Haddan tashqari o'sib ketgan ma'muriy-buyruqbozlik davlat boshqaruvi, dabdabali imperator saroyining nihoyatda katta chiqimlari va Yaponiya bilan bo'layotgan urush yangidan yangi soliq daromadlarini talab qilgan. Birgina XVII asrning ikkinchi o'n yilligida barcha davlat soliqlarining hajmi shundan oldingi o'n yillardagiga nisbatan 50% ko'paygan. Davlat soliqlari va buning ustiga mahalliy feodallar, sudxo'rlar va amaldorlar foydasiga olinadigan har xil og'ir to'lovlar tufayli dehqonlar va shahar hunarmandlarining tinkasi qurigan.

Xalq ommasi tabiiy ofatdan: suv toshqinidan, takrorlanib turadigan qahatchilikdan, ocharchilikdan, yuqumli kasalliklardan azob chekishgan. XVII asrning birinchi yarmida Xitoy xalq ommasining hayoti doimo to'yib ovqat yemaslik, odamxo'rlikkacha borib yetgan ochlik, aholi o'limining avj olishi bilan xarakterlanar edi. Shu bilan birga XVII asr boshlarida Xitoyning xalqaro ahvoli juda yomonlashgan. Shimolda, Sungari daryosi havzasida yashovchi manchjur qabilalari taxminan 1606-yilda birlashgan. 1625-yilda manchjurlar Mu'kdenni va deyarli butun Lyaodun yarim orolini bosib olganlar. 30-yillarda Koreya manchjurlarga vassal – qaram bo'lib qolgan. Manchjurlarning Xitoydagi shimoliy viloyatlarga hujum qilishlari odat bo'lib qolgan. Min hukumati varvarlarga zarba berishga qodir emasligini ko'rsatdi. Bu esa xalq ommasining boshiga yangi kulfatlar keltirar va ularning hayotini chidab bo'lmaydigan darajada juda tang qilib qo'ygan. Ommaning mavjud tuzumdan noroziligi

kuchaya borib, oqibat natijada dehqonlarning juda katta urushiga aylangan va bu urush Min sulolasini halokatga olib kelgan.

XVII asrning 30–40-yillarida Xitoydagi dehqonlar urushi. Dehqonlar harakatining boshlanishiga 1628-yildagi ochlik turtki bo'lgan. Shinsi bilan Shansi viloyatlarida bu ochlik, ayniqsa kuchli bo'lgan. Bu viloyatlarda boshlangan harakat 1632-yilda markaziy Xitoyning boshqa viloyatlariga tarqalgan. Qo'zg'olon Xuanxe bilan Yanszi daryolari oralig'idagi hamma yerlarga yoyilgan. **Xenan, Xubey, Anxoy, Shandun, Syoguan viloyatlarida bu qo'zg'olon ayniqsa kuchli bo'lgan.** Dehqonlarning qurolli guruhlarida bir necha o'n minglab qo'zg'olonchi bo'lgan.

Lekin, qo'zg'olon tarqoq bo'lganligidan hech qanday natija bermagan. 30-yillarning ikkinchi yarmida qo'zg'olon bir qadar pasayib ham ketgan. Qo'zg'olonchi guruhlardan bir qismini hukumat qo'shinlari tor-mor keltirgan.

Hukumat qo'shinlari manchjurlarning shimolidagi urushda band ekanida dehqonlar qo'zg'olonining yangi to'liqini 1641-yilda yana boshlanib ketgan. Dehqonlarning yo'lboshchisi oddiy qishloq temirchisi Li Szi Chen bo'lgan. 1639-yildayoq Li Szi Chen qo'zg'olonchilarning katta qo'shinini tashkil qila boshlagan, 1640–1643-yillarda u bir qancha yirik shaharlarni bosib olgan hamda Mo'g'ulistondan dengizgacha, Xuanxe daryosi vodiysidan Yanszi daryosi vodiysigacha bo'lgan juda katta hududni nazorat qilib turgan, qo'zg'olonchilarning poytaxti Sian (sobiq Chanan) shahri bo'lgan. Li Szi Chen o'zini imperator deb e'lon qilgan. 1644-yilda Li Szi Chen shimolga yurish tashkil qilib, Pekinni egallagan. Min sulolasining oxirgi imperatori o'zini o'zi o'ldirgan. Buyuk Shimoliy poytaxtni egallagan Li Szi Chen Min zodagonlari va yuqori amaldorlarning vakillaridan qattiq o'ch olgan. Ko'pgina feodallar, shu jumladan, imperator xonadonining bosh mahramlari qatl etilgan, ularning mol-mulklari esa musodara qilingan.

Yangi hukumat dehqonlardan soliq olmagan, qo'shin va davlat boshqaruvini saqlash uchun zarur mablag'lar, asosan feodal yer egalariga hamda eng badavlat shaharliklar – savdogarlar va sudxo'rlarga ko'plab soliq solish orqali undirib olingan. Biroq, Li Szi Chen Pekinda faqat 42 kun turgan. Shundan keyin u poytaxtni tark etishga majbur bo'lgan. Xitoy feodallari, Min sulolasi tarafdorlari,

qisman esa Min sulolasiga muxolifatda bo'lgan feodallar dehqonlar harakatining avj olishidan hamda hukumat tadbirlaridan qo'rqib ketib, tashqi dushmanlar – manchjurlar bilan til biriktirgan va ulardan qo'zg'olon ko'targan xalqqa qarshi yordam berishlarini so'ragan. Manchjurlar bilan muzokaralarda xoin Min generallaridan biri U Sang Guy faol rol o'ynagan. Shahzoda Durgan boshchiligidagi manchjurlarning juda katta qo'shini Xitoy yerlariga bostirib kirgan. Li Szi Chen ham ikki yuz mingga yaqin kishidan iborat katta qo'shini bilan manchjurlarning hamda ularga qo'shilgan U Sang Guyning qo'shinlariga qarshi otlangan.

Biroq, Li Szi Chen qo'shinlari Pekin yaqinida mag'lubiyatga uchragan. Li Szi Chen janubga qochishga majbur bo'lgan. Bu yerda u Shensi viloyatida bir oz vaqt kurashni davom ettirgan. Ammo, u 1645-yilda mahalliy feodallarning dehqonlar harakatini bostirish uchun tuzilgan guruhlardan biri tomonidan o'ldirilgan.

1644-yil 6 iyunda Manchjur qo'shinlari U San Guy qo'shinlari bilan birgalikda Pekinga kirib borgan. Shu tarzda Xitoyda yangi ajnabiy sulolasi hukmronlik qila boshlagan. Sin deb atalgan bu sulola Xitoyda 1911-yilgacha hukmronlik qilgan.

Manchjurlarning hokimiyat tepasiga kelishi. Xitoy xalqining manchjur bosqinchilariga qarshi kurashi. Manchjurlar sulolasi Xitoyda darhol mustahkamlana olmagan. 1645-yilda manchjurlar shiddatli jangdan keyin Yanchjou va Nankinni egallab, janubiy viloyatlarga qarab yo'lga chiqqanida ularning front orqasida manchjurlarga qarshi qo'zg'olon yangi kuch bilan ko'tarilgan. Xunan, Sichuan va Guansi, Chjetszyan, Funzyan, Shenensi va Gansu viloyatlarida manchjurlarga qarshi harakat avj olib, bu harakat XVIII asr 40-yillarining oxirigacha davom etgan. Manchjurlar shu paytga kelibgina qo'zg'olonni bostira olgan. Sharqiy viloyatlarda keng ko'lamdagi harakatlar bo'lgan, bu yerda manchjurlarga qarshi kurashda dengiz sohilidagi ana shu viloyatlarning savdo floti katta rol o'ynagan. Dengiz sohilida joylashgan sharqiy viloyatlardagi manchjurlarga qarshi harakat 1662-yildagina uzil-kesil bostirilgan.

Janubiy viloyatlarda manchjurlarga qarshi harakat yanada uzoq davom etgan. Tayvan orolida va Janubiy-sharqiy Xitoyning dengiz sohilidagi viloyatlarida manchjurlardan mustaqil bo'lgan Chjen-Chen Gun va uning o'g'li Chjen-Sen boshchiligida mustaqil davlat tashkil

topgan. Janubiy Xitoy portlaridagi savdogarlar orasida ijtimoiy tayanch topgan **bu janubiy davlat 30-yildan ko'proq (1650-1683) yashagan. Chjen Chen-Gun floti 50-yillarda Nankin shahrini ikki marta qamal qilgan. Oqibatda manchjurlar Chjen-Sen Gun vorislarini Gollandiya floti yordamida tor-mor keltirishga muvaffaq bo'lganlar.** Ana shu davlat mustaqilligi tugatilgandan keyingina Sin davlati o'zini butun Xitoyning xo'jayini deb hisoblay olgan. Ana shunday benihoya og'ir sharoitlarda, feodallar o'z vatanlariga xiyonat qilgan vaziyatda Xitoy xalqi bir necha o'n yilliklar mobaynida manchjur bosqinchilariga qarshi qahramonona kurash olib borgan.

Manchjurlar zulmi Xitoy xalq ommasi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushgan. Yangi hokimiyatning tobora dahshat bilan o'tkazgan muttasil jazo choralari natijasida mamlakat xonavayron bo'lgan. **Manchjurlar Xitoylarning milliy tuyg'ularini tahqirlagan. Jumladan, barcha xitoy erkaklari bo'ysunganlik ramzi sifatida uzun soch qo'yib, uni ayollarnikidek o'rib yurishga majbur qilingan.** Manchjurlar feodal dehqonchilik munosabatlarini mustahkamlaganlar va saqlab qolgan. O'zlari bosib olgan tumanlarda dehqonlar harakati qoldiqlarini shafqatsizlik bilan bostirganlar. Ayni vaqtda manchjurlar qo'shni xalqlarga nisbatan dushmanlik va ishonchsizlik siyosatlari bilan Xitoyni atayin yakkalab qo'yanlar, bu jihatdan uning muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit berganlar.

Xitoyga Yevropa mustamlakachilarining kirib kelishi va Sin sulolasining ularga qarshi kurashi. XVII asrda yevropalik savdogarlar va missionerlar Xitoy ichkarisiga kirishga harakat qilgan. Katolik (asosan Portugaliya va qisman Fransiya) missionerlari manchjurlar ishonchini qozonib, ularga, jumladan, to'p va qurol-yarog' ishining ustalari sifatida yordam ko'rsatgan.

Ayni vaqtda **XVII asrning ikkinchi yarmida Xitoyga ingliz, golland va fransuz Ost Indiya kompaniyalarining vakillari kirib kelishga astoydil harakat qilib, Xitoy hukumatidan turli yengilliklar va imtiyozlar olishga muvaffaq bo'lganlar.** Biroq, Yevropa mustamlakachilarining bu siyosati muvaffaqiyatli chiqmagan.

Yangi Sin sulolasi mustahkamlanib olgach Yevropa missionerlarining xizmatiga muhtoj bo'lmay qolgan va ular XVII asrning 60-yillarida mamlakatdan quvib chiqarilgan. XVII asrning oxirlarida ular Xitoyda o'z faoliyatlari uchun yana imkoniyatga ega

bo'lganlar. Biroq, XVIII asrning boshlarida ular yana bir marta haydab chiqarilgan. Ular Janubiy Xitoy sohilida joylashgan Makao orolidagi Portugaliya mustamlakasidagina yashay olganlar. 1757-yilda Xitoy hukumati birgina Kanton portidan tashqari boshqa portlarini ajnabiy savdogarlar uchun tamomila yopib qo'ygan.

Xitoyning ajnabiylar uchun mashhur «yopib qo'yilishi» shu tarzda ro'y bergan. Bu hol XIX asrning o'rtalarigacha davom etgan. Sin sulolasining Xitoyga chet el kapitalining suqilib kirishiga qarshi ana shunday kurashishi natijasida Xitoy xorijliklardan bir oz vaqt xoli bo'lib turgan. Ammo, bu siyosatning ikkinchi salbiy tomoni ham bo'lgan. Xitoy ana shu siyosat natijasida tashqi dunyodan tamomila ajralib qolgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar shu yo'l bilan qo'pol va sun'iy tarzda to'xtatilgan. Bu esa Xitoy hunarmandchiligi, manufakturasining, xitoy shahri va ichki savdosining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, bu tadbirlarning barchasi, Xitoyning orqada qolishiga hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi rivojlanmay qolishiga olib kelgan, natijada xalq ommasining ahvoli yomonlashib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti to'xtatib qo'yilgan.

Mavzuga doir savollar:

1. XVIII asr boshlaridan Min imperiyasi inqirozini keltirib chiqargan omillarni ayting.
2. Manjurlarning Xitoyni bosib olishini tezlashtirib yuborgan sabablar sifatida nimalarni ko'rsatish mumkin?
3. Xitoyga yevropaliklar qay tariqa kirib kela boshladilar?
4. Nima sababdan Sin hukumatini mamlakat portlarini yevropaliklar uchun yopib qo'ydi?
5. Mamlakatning yopib qo'yilishi xalq iqtisodiy hayotida qanday aks etdi?

Boburiylar davrida Hindistonning iqtisodiy taraqqiyoti.

1526-yilda tashkil topgan Hindistondagi Boburiylar davlati qisman XVI acrda va ayniqsa XVII acrda juda katta davlatga aylangan. Shimolda uning chegarasi Himolay tog'igacha, Kobul va Peshavor shaharlari bilan birgalikda Afg'onistonning katta qismi ham o'z ichiga olgan edi. Yarim orolning o'rtasida Boburiylar davlati Dekan davlatining katta qismini nazorat qilar hamda janubiy Hind davlatlari – Bidar, Golkondu va Bijapurga bir qadar ta'sir ko'rsatib turgan. Ammo Boburiylar davlatining asosiy hududi ilgari gidek uning shimoliy viloyatlari – Hind va Gang daryolari oralig'idan iborat bo'lib qolavergan. Boburiylar davlatining aholisi diniy belgi jihatidan ilgari giga qaraganda ham yanada ko'proq keskinlik bilan ikki guruhga – musulmonlar (turkiylarning o'zlari ham ushbu guruhga mansub edilar) hamda hindlar, ya'ni mahalliy hinduiylikning izdoshlariga bo'lingan edilar.

Qishloq xo'jaligi munosabatlari ilgari Dehli sultonligida qanday rivojlangan bo'lsa, boburiylar davrida ham xuddi shu yo'nalishda rivojlanavergan. Ammo, Hindistonning yangi yerlarni bosib olishi natijasida yerga davlatning feodal usulida egalik qilishi yanada kuchaygan. Davlat hukmdori barcha yerlarning oliy egasi deb hisoblangan. Aslida Boburiylar davlati yerlarning bir qismigagina egalik qilgan edi. Ammo bu qism ancha katta yerlarni tashkil etgan. Davlatga tegishli yerlar mamlakatdagi ekin ekiladigan hamma yerlarning taxminan sakkizdan bir qismiga teng edi. Ana shu yerlardan olinadigan daromad shoh saroyi va shoh qo'shinlari xarajatlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Qolgan yerlarni boburiylar asosan feodal zodagonlariga, ko'proq musulmonlarga «jogirlar» (harbiy xizmat o'talayotgan muddatga beriladigan va meros bo'lib qoladigan yer) sifatida bo'lib bergan. «Jogir» egasi – «jogirdor» rasman o'ziga qarashli yerlarda yashovchi aholidan feodal rentasi yig'ish huquqinagina olgan. Amalda esa jogirdor mehnatkash aholi ustidan muvaqqat bo'lsa ham cheksiz hokimiyatga ega bo'lar, aholiga o'zi xohlagancha turli soliqlar solar va har xil ishlarni bajarishga majbur qilardi. Jogirlarning hajmi har xil bo'lgan. Ularning ko'pchilik qismi juda katta bo'lib, bir yo'la o'n minglab

dehqonlar jopudorga qaram bo'lib qolgan. Feodal yer egaligining asosiy shakli bo'lgan *jagir* bilan bir qatorda mamlakatda yerga egalik qilishning ilgari tarkib topgan va yangidan rivojlanayotgan boshqa shakllari ham bo'lgan. Jumladan, Boburiy davlatida hind feodallari bo'sh oluvchilarga bo'ysunish va ularga muntazam boj to'lash sharti bilan yerga egalik qilishni saqlab qolgan edi. Mahalliy beklar va qabulalarning rahbarlari – zamindorlar kelgindi istilochilar uchun aholudan soliq to'plash huquqini olgan edi. Zamindorlar vazifasi meros bo'lib o'tadi deb e'lon qilinganligi sababli, zamindorlar vaqt o'tishi bilan soliq tortish yoki yig'iladigan ana shu yerlarni ham o'z yer mulklarining bir turi deb hisoblay boshlagan. Yer mulki, asosan, musulmonlar qo'liga o'tgan bo'lsa, savdo, sudxo'rlik faoliyati va ayniqsa hunarmandchilik mahalliy hindlar qo'lida qolgan. Musulmon savdogarlari qadimdan O'rta Osiyo va Yaqin Sharq bilan savdo aloqalari qilib kelayotganliklari sababli quruqlikda va qisman dengiz orqali tashqi savdodagina hindlardan ustun turgan.

Aholining asosiy qismini dehqonlar ommasi tashkil qilib, boburiylar davrida kuchaygan feodal zulmning butun og'irligi shular zimmasiga tushgan. Qisman natura tarzida, qisman pul rentasi tarzida soliq to'laydigan jamoachi dehqonlarning ahvoli asosan ilgari asrlardagidek qolavergan bo'lsa ham boburiylar davrida har holda Hindistonda muhim iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berib, ushbu o'zgarishlar eski jamoa tizimining buzila boshlaganidan dalolat berar edi. Buning asosiy sababi mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bo'lgan. Boburiylar davrida Hindistonning ayrim viloyatlari bir-birlari bilan muntazam aloqalar bog'lagan. Ho'kiz qo'shilgan aravalarning juda katta karvonlari ko'plab mahsulotlarni janubdan shimolga tashigan. Mahsulotlar orilgan juda ko'plab sollar darvo orqali g'arbiy va sharqiy tomonlarga yuborilgan.

Boburiylarning juda katta imperiyasi vujudga kelishi natijasida mamlakatda qaror topgan nisbatan tinch vaziyat o'z tabiati va xo'jaligi jihatdan xilma-xil bo'lgan g'oyat katta mamlakat ichidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayni vaqtda Hindistonda shaharlar rivojlangan, sanoat ishlab chiqarishi o'sgan; rivojlanayotgan shaharlar qishloq xo'jalik mahsulotlariga tobora ko'proq ehtiyoj sezganlar. Bularning hammasi mayda qishloqlarning biqirligini ko'p jihatdan yo'qotgan edi. Dehqon

jamoalari tobora ko'proq bozor munosabatlariga jalb qilingan. Shuning natijasida jamoalar ichida dehqonlarning turli guruhlari o'rtasida tengsizlik kelib chiqqan. Jamoa zodagonlari (oqsoqol, mirza, mahalliy do'konchi va boshqalar) jamoaning chek yerlarga ega bo'lgan a'zolari bilan birgalikda dehqon kambag'allariga qarshi turishgan. Kambag'allarning katta qismi past tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan. Ushbu kambag'allar batraklar sifatida ekspluatatsiya qilingan. Kambag'al dehqonlar odatda ip yigirish va gazlama to'qish bilan shug'ullanishgan. Ularning mahsuloti katta bozorlarga odatda olib sotarlar orqali chiqarilgan. Patriarxal-jamoa tartiblarining yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va feodal zulmning o'sishi sharoitida hind qishlog'ining qashshoqlashuvi keyinchalik ko'plab xalq harakatlarini keltirib chiqarganki, bu harakatlar oqibatida Boburiylar davlatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Akbarning idora qilishi. Boburiylar davlati shoh Akbar (1556–1605) hukmronligi davrda juda taraqqiy etgan. Shoh Akbar Zahiriddin Boburning nevarasi edi. Akbar idora qilgan davrda mamlakatning sharq va janub tomonidagi bir qancha viloyatlar: Bengaliya, Orissa, Gujarat va Kashmir viloyatlari hamda Xandeshi va Ahmadnagar sultonliklari qo'shib olinib, boburiylar davlatining chegaralari biroz kengaytirilgan. Shimolda Eronga qarashli muhim karvon savdosi maskani bo'lgan Qandahor shahri bosib olinib, Hindistonga qo'shilgan. Akbar o'zidan oldingi shohlardan boshqacha yo'l tutib, hind feodallarini o'z xizmatiga tortishga harakat qilgan. Shuningdek, u hind savdogarlariga doim homiylik qilib kelgan. Hinduiylikka e'tiqod qiluvchilarga nisbatan diniy ta'qiblar ham Akbar hukmronligi davrida to'xtatilgan. Hind aholisi juz'yadan, ya'ni hindlarni kamsituvchi, jon boshiga solinadigan og'ir soliqdan ozod qilingan. Bungacha esa ushbu soliqdan faqat musulmonlarga ozod bo'lishgan. 1593-yilda (Fransiyada Nant edikti qabul qilinishidan besh yil avval) Akbar din erkinligi to'g'risida farmon chiqarib, avvallari majburiy ravishda islom diniga kiritilgan hindlarga o'zlarining ilgarigi dinlariga bema'lol qaytishga ruxsat bergan.

Akbar podsholik qilgan davrda soliq ishlari tartibga solingan. Bir qancha viloyatlarda soliq asorati tufayli dehqonlar g'alayonlari tez-tez sodir bo'la boshlaganligi tufayli, soliq olishdagi suiste'molchiliklarni bartaraf etishni hukumatdan talab qilgan. Akbarning buyrug'i bilan

butun Hindiston uchun yagona yer o'lehoivi joriy qilinib, so'ngra hamma yerlarga yoppasiga tanob tortib chiqilgan. Soliq solinganda yerlarning sifati va tuproqning unumdorligi e'tiborga olingan. Davlat solig'i hosilning uchdan bir qismi miqdorida belgilangan bo'lib, keyingi yigirma yil mobaynida o'rtacha narx hisobida pulga aylantirilgan. Soliq to'plashda ijarachilik tizimi bekor qilinib, soliqlarni maxsus moliya amaldorlari vositasi bilan to'plash tizimi joriy qilingan.

Akbar podsholigi davrida Boburiylarning juda katta imperiyasi 15 viloyatga bo'linib, har bir viloyatga shoh noibi – hokim qilib qo'yilgan. Akbar ko'pgina yangi sug'orish tarmoqlarini qazdirib, eskilarini qayta tiklagan. Natijada Hindistonning irrigatsiya tizimini ancha kengaytirilgan. Akbar davrida Boburiylar poytaxti bo'lgan Dehli shahrida katta-katta saroylar va turli hukumat binolari qurilib, ushbu shahar «o'sha davrda jahondagi barcha shaharlarning eng kattasi va gullab yashnayotgan» shahriga aylangan. Boburiylar davrida Akbar va uning vorislarining sobiq bosh qarorgohi bo'lgan Agra shahri (Dehlidan keyin) Hindistonning ikkinchi poytaxti bo'lgan.

XVII asrda Boburiylar saltanati. Akbar podsholik qilgan davr musulmon va hind feodallarining muayyan darajada jipslashgan davri bo'lgan. Ayni vaqtda Akbarning bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlari ochiqdan-ochiq xalq, dehqonlar ommasi noroziligini bosib turish hamda boburiylarga qarshi xalq harakatlari vujudga kelishi xavfining oldini olishni ko'zda tutgan. Akbarning bu yo'ldagi siyosatini uning vorislari – o'g'li Jahongir (1605–1627) va nabirasi shoh Jahon (1627–1658) davom ettirishga harakat qilishgan. Shoh Jahon Hindiston janubidagi yerlarni ancha kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. 1632-yilda u Ahmadnagarni egallagan bo'lsa, 1636-yilda Golkonda va Bijapur Boburiylar imperiyasiga qaram ekanliklarini tan olishgan. Maratxlar o'lkasi – Maxarashtra muayyan davr ichida buyuk boburiylarga tegishli hududlar tarkibiga tamomila kirgan edi. Tashqaridan qaraganda shoh Jahon davrida Boburiylar imperiyasi eng gullab yashnagan darajaga yetgandek tuyulgan. Ammo Boburiylar imperiyasining ichki zaifligi uning davrida tobora aniq bo'la boshlagan. Feodallarining tez-tez bo'lib turgan g'alayonlari davlat markazlashuvini zaiflashtirgan. Eng yirik jogirdorlar mustaqil davlat

bo'lishga intilganlar. Dekanni egallash uchun olib borilgan og'ir janglar davlat juda katta kuch sarflagan hamda dushman qo'shinlari o'tgan hududlarda qishloq xo'jaligiga zarar yetgan. Akbar vorislari pulga tobora ko'proq muhtojlik sezib, ijara¹ tizimiga qaytgan. Vaholanki, bu tizimning yaramasligi hukumatga ma'lum bo'lgan. Ko'pincha jogirdorlarning o'zlari haq to'lab, soliq yig'uvchi bo'lib olgan. Bu esa amalda shunga olib kelardiki, jogirdorlar tobora boyib, ularning mahalliy aholi ustidan hukmronligi tobora to'laroq va mutlaqo nazoratsiz bo'lib qolgan.

Buyuk Boburiylar saroyidagi kanizaklarining, yirik musulmon jogirdorlar va mahalliy hind knyaz-feodallarining zeb-ziynati va isrofgarchiligi cheksiz bo'lib, ayni vaqtda butun XVII asr davomida mamlakatda umuman xo'jalik jonlanganiga qaramay, xalq ommasi qashshoqlashib borgan.

Birmuncha uddaburrolik bilan Boburiylar Hindistoniga hukmronlik qilgan imperatorlardan so'nggisi Avrangzeb (1658–1707) edi. U imperiya chegarasini janub tomonga qarab kengaytirishga hram muvaffaq bo'lgan. Bijapur va Golkondani tamomila egalagan. Shuningdek, u inglizlar Ost-Indiya kompaniyasining 1688–1689-yillardagi hujumiga qarshi zarba bera olgan. Kompaniya unga juda katta tovon to'lashga majbur bo'lgan edi. Ammo Avrangzebning olib borgan siyosati tor kastachilikka asoslangan bo'lib, Akbar siyosatidan butunlay boshqacha edi. Yevropa mustamlakachilarining ochiqdan-ochiq tahdid qilib turgan xavfiga qarshi Hindistonning milliy kuchlarini birlashtirish o'rniga Avrangzeb buning aksini qilib, bu kuchlarni parchalab yuborgan. U hindlarni yana diniy ta'qib ostiga olib, juzya solig'ini qaytadan tiklagan, doimiy ravishda hind ibodatxonalarini talab turgan, musulmon feodallarga hindlardan olgan qarzlarni to'lamaslikka yo'l qo'yib bergan. Avrangzeb Hindiston janubidagi istilolarini ham musulmon feodallarining manfaatlarini ko'zlab qilgan edi. Bu urushlar esa mamlakatdan ko'p kuch va mablag' talab qilgan. Urush xarajatlari ko'payib ketib, davlatning irrigatsiya sohasiga ajratiladigan sarflari kamaytirilgan. Avrangzeb davrida ayniqsa ko'p

¹ Ijara – aholidan biror turdagi yig'im yoki soliq undirish huquqini hukumatdan sotib olish.

va o'qir soliqlar to'lashga majbur etilgan aholi ommasi xonavayron bo'lib qashshoqlashgan.

Viloyatlardagi noiblar va istilo qilingan viloyatlarning rojalari mustaqil bo'lib olishga harakat qila boshlaganlar. Avrangzeb hukmronlik qilgan davrda feodallar isyoni va dehqonlar qo'zg'oloni juda ko'p bo'lgan edi.

Xalq harakatlari hamda ingliz va fransuzlarning istilolari. G'arbiy Dekan tog'larida yashovchi *maratx* qabilalaridan bo'lgan dehqonlarning harakati ayniqsa kuchli bo'lgan edi. Maratx hindlarining musulmonlar – Boburiylarga qarshi olib borgan urushi g'azovot tusini olgan. Qo'zg'olon ko'targan qabilalarga mashhur jasur yo'l boshchi Shivoji (1627–1680) rahbarlik qilgan. Shivoji 30 yil davomida, 1660–1680-yillarda boburiylarga qarshi kurashda xalq partizanlar urushi usulini keng qo'llab, muvaffaqiyat qozongan. Shivoji vaqtida Maxarashtra (maratxlar mamlakati shunday deb atalgan edi) boburiylardan ozod bo'lgan mustaqil davlat bo'lib qolgan edi.

Panjobda, Hindistonning shimoli-g'arbida XVII asrning ikkinchi yarmida va XVIII asrning boshlarida *sikxlar* diniy mazhabi bilan bog'liq keng dehqonlar harakati bo'lib o'tgan. Hinduiylikning so'l oqim ta'limotlaridan biri sifatida sikxchilik XVI asrning boshlaridayoq vujudga kelgan. Oqimning asoschisi va uning dastlabki ustози *guru* savdogar Nanak (1538-yilda vafot etgan) bo'lgan edi. Avvaliga oqim feodallar zo'ra vonligidan norozi bo'lgan shahar savdo doiralari ning manfaatlarini aks ettirgan. Oqim xudo oldida barcha kishilarning tengligini e'lon qilgan va tabaqalarga berilgan imtiyozlarini rad etgan. Ikkinchi tomondan, oqim zulmga qarshilik ko'rsatmaslik haqidagi ta'limotga amal qilib, boburiylar hukumatiga itoat qilgan. Huning oqibatida dastlabki paytlarda Boburiylar sikxlarga yaxshi munosabatda bo'lganlar. Ularning tashkiloti Lahorda va Panjobning boshqa shaharlarida mustahkamlangan. Ammo XVII asrning o'rtalarida oqim safiga minglarcha xonavayron bo'lgan hunarmandlar va mahalliy dehqonlar – *jatlarning* qo'shilishi natijasida u kuchli darajada demokratlashgan. Hatto sikxlarda ham rahbarlik rolini o'ynab kelgan savdo va savdo-sudxo'rlik elementlari endi orqaga surilib, qisman oqimdan chiqib ketishgan. Yangi sikxchilik musulmon va hind feodallariga qarshi qurolli kurash dasturni maydonga

tashlagan. Sikxlar yer yuzida jabr-zulm bo'lmaydigan mukammal, «chinakam podsholik» o'rnatishni istaganlar. XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshlarida – 1669-yilda va so'ngra 1671–1672, 1686 va 1705-yillarda poytaxt tumanida (Agra-Dehli) jat-sikxlarning eng qudratli harakatlari boshlangan.

1671–1672-yillarda jatlar Dehliga yurish qilganlar va Boburiylar poytaxtini egallashlariga oz qolgan. Boburiylar ushbu xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin yuborishga majbur bo'lgan.

Avrangzeb vafotidan so'ng Boburiylar imperiyasi ayrim bo'laklarga bo'linib ketgan. Boburiylar hokimiyati hatto Dehlining o'zida ham nomigagina saqlanib qolgan. Hindistonda yana feodal tarqoqlik vujudga kelgan. Yevropa mustamlakachilari bu fursatdan foydalanib, hind rojalari va knyazliklarining o'zaro urushlariga aralashganlar va o'zlarining Hindistondagi mustamlaka yerlarini sekin-asta kengaytira boshlagan.

XV–XVI asrlarda Hindistondagi asosiy yevropalik mustamlakachilar Hindistonning Malabar deb ataluvchi janubi-g'arbiy sohilida mustahkamlanib olgan portugallar edi. Bu tumandagi bir qancha hind portlari – Diu, Daman, Gra, Kochin va boshqalar ularga tegishli bo'lgan. XVII asrning boshlaridan Hindistonga golland mustamlakachilari bostirib kirib, Koromandel sohilida, Bengaliya va Bixarda, shuningdek Seylon orolida mustahkamlanib olganlar. XVII va XVIII asrlarda ikki guruh mustamlakachilar – inglizlar bilan fransuzlar Hindistonni egallash uchun bir-birlariga qarshi shiddatli kurash olib borgan. 1639-yilda inglizlar o'zlariga tayanch maskan sifatida Madras shahrini qo'lga olganlar. 1668-yilda Bombay shahri inglizlarning Ost-Indiya kompaniyasi qo'lga o'tgan. 1690-yilda inglizlar Kalkutta shahriga asos solganlar. Shu paytda fransuzlar 1674-yilda Pondisher shahrini bosib olganlar. Ingliz mustamlakachilari bilan fransuz mustamlakachilari o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, o'nlarcha yilga cho'zilib ketgan. Inglizlar oqibat natijada yuz yildan keyin, XVIII asrning 60-yillarida, yetti yillik Yevropa urushi (1756–1763) vaqtida fransuzlarni Hindistondan quvib chiqarilishiga erishganlar.

Shu tarzda juda katta va ko'p millionli Hindiston o'zining feodal tarqoqligi, hukmron tabaqa bo'lgan feodallar o'rtasidagi tinimsiz

nizolar hamda ularning mehnatkash aholi ommasini shafqatsiz ezishi tufayli, nihoyat juda jiddiy milliy, diniy va kasta tafovutlari tufayli o'z mustaqilligini yo'qotgan va ancha vaqtgacha ingliz mustamlakasiga aylanib qolgan. Shu davrdan boshlab u Yevropadagi eng rivojlangan kapitalistik mamlakat tomonidan juda qattiq mustamlaka zulmiga duchor qilingan.

XVI–XVII asrlarda Hindiston madaniyati. Hindiston madaniyati Boburiylar davlati davrida rivojlanishda davom etib, o'zining turli sohalarida ancha yuksak ko'rsatkichlarga erishgan. G'oyat rivojlangan adabiyot va me'morchilikning ravnaq topishi XVI–XVII asrlardagi Hindiston madaniyati uchun xos bo'lgan. Shoh Akbar va shoh Jahon singari Boburiylar tomonidan yozuvchilarga va san'at vakillariga homiylik qilish siyosati bunda kattagina ahamiyat kasb etgan.

Abul Fazl Akbar davridagi eng atoqli yozuvchilardan hisoblangan. U fors tilida ijod qilgan. Abul Fazl Akbarning saroyidagi o'ziga xos tarixnavisi bo'lgan. Uning bir necha asarlarida Akbar podsholigining ichki va harbiy tarixi dabdabali uslubda yozilgan. Ularda Akbar ko'klarga ko'tarib maqtalgan. Ammo shunga qaramay ushbu asarlar tarixiy hujjatli materiallar asosida yozilgan bo'lib, boburiylar davri tarixining ana shu katta va muhim davridagi voqealarni ishonchli tarzda bayon qilib beradi. Akbar zamonida fors tilida ijod qilgan shoirlardan eng mashhuri Fayzl edi. Abul Fazlning ukasi bo'lgan Fayzl Hindistonda forscha she'r tuzilish uslubini targ'ib qilgan.

Ayni vaqtda Boburiylar davrida Hindistonda hind tilidagi adabiyot ham rivojlangan. Bu tilda ijod qilgan buyuk hind shoiri banoraslik Tulsi Das (1532–1623) bo'lgan edi. Tulsi Das «*Ramacharitamanasa*» degan umumiy sarlavha ostida o'ndan ortiq asarlar yozgan. Ushbu asarlarda eski xalq qahramonlik va mifologik ertaklarini erkin tarzda qayta bayon qilingan. Das asarlari yuqori va o'rta tabaqalar orasidagina emas, balki xalq ommasi orasida ham keng mashhur bo'lib ketgan.

Akbar va uning vorislari davrida Hindistonda masjidlar, saroylar, maqbaralar, shahar darvozalari singari muhtasham va juda katta monumental inshootlar barpo etilgan. Dehlidagi Akbar qal'a saroyi o'ziga xos juda katta muhtasham inshoot bo'lgan. Qal'a devorlarining balandligi 20 metrga yetgan. Bu esa me'morlar

uchun yoʻnilgan toshdan katta hajmdagi inshoot qurishdan iborat katta va murakkab vazifa boʻlgan. Akbarning yana bir qalʼa saroyi Agra shahriga yaqin joyda boʻlgan. Deyarli sahro joyda nihoyatda qisqa muddatda qurilgan mazkur saroy bir qancha binolar, parklar, hovuzlar, nafis qilib yasalgan yoʻllar va yoʻlkalardan iborat butun bir shaharni tashkil qilgan.

Shoh Jahonning buyrugʻiga binoan, uning marhuma rafiqasi xotirasiga qurilgan Agradagi Tojmahal deb ataladigan mashhur masjid-maqbara boburiylar meʼmorchilik uslubining noyob durdonasidir. Masjid ajoyib oq marmardan qurilgan boʻlib, uning oq gumbazlari va minoralari shu yerdagi marmar hovuzda aks etib turgan. Shoh Jahon davrida oq marmardan ishlangan, minoralari qizil marmarlar bilan qoplangan yana bir muhtasham masjid – Dehlidagi Jome masjidi barpo etilgan boʻlib, oʻzining badiiy meʼmorchilik shakli va boy bezaklari bilangina emas, balki oʻzining juda katta hajmi bilan ajralib turgan. Jome masjidga tutash binolarni qoʻshib hisoblaganda bir vaqtning oʻzida yuz ming kishi sigʻar edi.

Shoh Jahon hukmronligi davrida, shuningdek, maxsus hukumat binolari, maʼmuriy-sud, moliyaviy va harbiy binolar ham koʻplab qurilgan boʻlib, ular oʻz hajmi bilan va ayni vaqtda nafis bezaklari bilan hamda qimmatbaho binokorlik xomashyolari bilan ajralib turgan. Agra shahridagi qisman hozirgacha saqlanib qolgan Devoni avom, Devoni xos va boshqa inshootlar shular jumlasidandir.

Mavzuga doir savollar:

1. Yerga egalik qilishning «jogir» shakli haqida nimalar bilasiz?
2. Akbarshoh faoliyatining yorqinligi siri nimada deb oʻylaysiz?
3. Avrangzebning harbiy istilolari mamlakatga nima berdi?
4. Boburiylar va maratxlar orasidagi nizolarning asosiy sabablarini nimalarda koʻrish mumkin?
5. Nega boburiylar sulolasi mamlakat aholisini umumiy dushman – Yevropalik mustamlakachilarga qarshi birlashtira olmadi?

XIX BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA YAPONIYA

XVI–XVII asrlarda Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi.

XVI asrda mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlangan. Biroq bu bir tomonlama bo'lgan, ya'ni qishloq xo'jaligi sanoatdan ortda qolgan. Ip yigirish, to'quvchilik va kulolchilik tog'-kon va qurol ishlab chiqarishga qaraganda sekin rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida bir qator yangi jihozlarning paydo bo'lishi yerga ishlov berishni kuchaytirgan. Ilgari noma'lum bo'lgan tut, qog'oz va lak daraxtlari hamda choy va sitrus mevalarni yetishtirish kengaygan. Xorijdan shirin kartoshka, tarvuz, tamaki va paxta ekinlari keltirilgan. Bularning barchasi aholi sonining o'sishiga ujobiy ta'sir ko'rsatgan. Yaponiya aholisi XVI asr oxirida 16–17 million bo'lsa XVII asr oxiriga kelib 25 millionga yetgan.

Ayrim ishlab chiqarish tarmoqlari feodallar tomonidan monopolashtirilgan. Asosan tog'-kon ishlari, kemasozlik, qurolsozlik kabi ishlab chiqarish turlari ularning qo'lida bo'lgan. Xonsyu orolidagi Sakay kabi eski shaharlar o'sgan, ayniqsa, Kyusyu orolidagi Xirado va Nagasaki singari yangi shaharlar paydo bo'lgan.

Yapon savdogarlari o'z mollari bilan Tayvan, Filippin va Indoneziya sohillarigacha sayohat qilishgan. XVI asrning oxirlariga kelib bu yerlarda yaponlarning ko'plab savdo manzilgohlari paydo bo'lgan. Ushbu davrda yaponlarning geografik tasavvurlari kengayib, kemasozlik san'ati, kemasozlik, ayniqsa konlarni qidirib topish va eksport uchun oltin, kumush va mis qazib olish rivojlangan. Ushbu sohalarning rivojlanishi tashqi savdoning holati (xitoy va yevropaliklar bilan) va mamlakatdagi siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq edi. Yirik feodallar ko'p miqdordagi qurollarga ehtiyoj sezganlar. Urushlar va feodallarning dabdabaga intilishi oltin va kumushga bo'lgan talabni ko'payishiga olib kelgan. Yapon bozorlaridagi yagona pul birligi bo'lgan Xitoy mis tangasi evaziga xitoylarga mis eksport qilingan. XVI asrning oxirlariga kelib esa yaponlar o'zlarining oltin tangalarini zarb qildirishgan. Mis, qilich, yelpig'ichlar Xitoyga eksport qilingan. Yevropaliklar yaponlarning oltin va kumushlariga qiziqqanlar. Tashqi savdoning rivojlanishi kemasozlikning o'sishiga sabab bo'lgan.

Tashqi savdo katta foyda keltirgan. Masalan, XVI asrning ikkin-

chi yarmida savdogar Kamigaya Sodzin Koreya, Xitoy, Siam va Luson oroli (Filippin) bilan yirik savdo aloqalarini yoʻlga qoʻygan. U oʻz vatani Kyusyu orolida boʻyoq xomashyo qazib olish, mashhur «Hakata matolari»ni ishlab chiqarish, Xonsyu orolining janubida kumush qazib olish hamda qurilish ishlari bilan shugʻullangan. Oʻsha davrda eng yirik feodallardan biri uchun qalʼa va Nagoyada esa Xideyosi uchun lager qurib bergan. Xideyosi haqiqiy homiy sifatida oʻsha davr siyosiy jarayonlarida ishtirok etgan.

Koreya, Siam, Lusonda oʻzining qator savdo agentliklariga ega boʻlgan savdogar Simay Sositsu oʻzining ulkan boyligi tufayli Kyusyu orolining daymesini oʻz qoʻlida ushlab turgan. 1592-yilda Xideyosining Koreya va Xitoyga qarshi harakatlarini tayyorlashda ham faol ishtirok etgan.

XVI asr oʻrtalaridan boshlab yevropaliklar bilan savdo aloqalari yoʻlga qoʻyilgan. Yaponiya qirgʻoqlarida 1542-yilda portugallar, 1580-yilda esa ispanlar paydo boʻlgan. Yevropalik savdogarlar, dengizlardagi qaroqchilar va missionerlar Xitoydan Yaponiyaga turli mahsulotlar, ayniqsa ipak matolar olib kelishni boshlaganlar. Ular Yaponiyaga oʻq otar qurollarni ham olib kirganlar. Yevropaliklar Yaponiyadan oltin, kumush va qullarni olib ketishgan. Feodallar ichki urushlarda asir olingan dehqon va samuraylar oʻzlari yoki qaroqchilar orqali sotib yuborgan. Talab katta boʻlgan oʻtochar qurollarni asosan portugaliyaliklar olib kelishgan. Tez orada, bu kabi qurollarni Yaponiyaning oʻzida ishlab chiqarila boshlangan.

Oʻqotar qurollarning keng tarqalishi harbiy sohadagi islohotlarga sabab boʻlgan. Avvalo, jang taktikasi oʻzgarib, suvoriy samuraylar oʻrniga piyoda askarlar birinchi oʻringa chiqishgan. Ushbu piyoda askarlar, yaʼni «asigaru»lar, ilgari feodal xoʻjayinlariga hamroh yoki otliq samuraylarning yordamchilari boʻlgan dehqonlardan iborat edi. Endilikda ular jangda asosiy kuchga aylangan. Oʻtochar qurollar ushbu qurollardan foydalanishni yaxshi oʻzlashtirishgan professional askarlarni xizmatga qaytarilishiga sabab boʻlgan.

Koʻplab qalʼalar siyosiy va maʼmuriy markazlar vazifasini bajarib, ularning atrofida shaharlar vujudga kela boshlagan. Daymellar oʻzlarining qasrlarida yer-mulksiz samuraylarning katta qismi toʻplangan boʻlib, ularga dehqonlardan mahsulot koʻrinishida olingan soliqlar evaziga bir kunlik miqdorda guruch berilgan.

Portugaliyalik va ispan savdogarlari bilan birga kelgan iyezutlar Yaponiyada xristianlikni targ'ib qila boshlaganlar. Bu din dastlab muvaffaqiyatga erishgan. Kyusyu oroli daymesi iezuitlarni qabul qilib, ularga xristianlikni targ'ib qilishga, xristianlik maktablari hamda ibodatxonalarni ochishga ruxsat bergan. Shuningdek, xorijlik savdogarlardan o'q otar qurollar xarid qilish va ichki nizolarda Yevropaliklardan ko'mak olishga harakat qilgan daymelar xristianlikni qabul qilganlar va o'z vassallarini ham bunga majburlaganlar.

Yaponiya orollarida yevropaliklarning paydo bo'lishi savdo-sotiq va harbiy sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchi tomondan bu o'zaro urushlarni keskinlashtirib, Yaponiyaning bo'linib ketish va yevropaliklarga tobe bo'lib qolish xavfini ham keltirib chiqargan. Shuning uchun yevropaliklarning Yaponiyaga kirishi taqiqlangan.

XVII asrning 30-yillarida mamlakat yopilib, savdogarlar o'zining asosiy daromad manbalari tashqi savdodan mahrum qilgandan so'ng, Yaponiya qishloqlariga tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi kuchaygan. Bu esa iqtisodiyotining tez parchalanishiga sabab bo'lgan. Kapitalistik sanoatning dastlabki shakllari vujudga kelgan.

Ip yigirish va to'quvchilik taraqqiy etgan, mamlakatning ayrim hududlari turli xil ipak va qog'oz matolarini ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshlagan. Ushbu mahsulotlar Edo, Osaka, Kito kabi shaharlarning savdogarlari tomonidan sotib olingan. Ulgurji sotuvchilar dehqonlarga mahsulotlari uchun oldindan to'lov qilganlar va asta-sekin ularni o'zlarining buyurtmalariga binoan ishlashga majbur qilib, bo'ysundirganlar.

Dehqonlar harakati. Dehqonlarning qo'zg'olonlari diniy shiorlar ostida boshlangan bo'lib, ularga turli buddaviylikning turli oqimlari rahbarlik qilgan. Eng katta yerlarga, ulkan boylik va hatto katta harbiy kuchlarga ham ega bo'lgan buddaviylik rohiblari hashamatli va axloqsizlikka berilganidan bo'lsa kerak, buddaviylikda «ikko», «ntiren» kabi yangi oqimlar vujudga kelgan.

XV asr oxiri va XVI asr davomida ushbu yangi diniy oqimlar mamlakatning katta qismini qamrab olgan yirik dehqon qo'zg'olonlarini uyushtirgan. Albatta, keng dehqonlarning bu chiqishlari Buddaviylik cherkoviga qarshi kurash bilan cheklanib qolmasdan, balki butun hukmron tabaqaga qarshi bo'lgan.

Isyonkor dehqonlar ba'zan shahar plebslari – shaharning oddiy

aholisi bilan aloqa qilganlar. Shahar pleblari va samuraylarning past toifasi dehqonlarga o'xshab sudxo'rlarga qaram edilar; hunarmandlar ham feodallarning doimiy ehtiyojlaridan juda qiynalganlar. **Shunday qo'zg'olonlardan biri 1532-yilda Kitoda bo'lgan. Qo'zg'olonda roninlar (erkin samuray) yetakchiligidagi Kioto aholisi faol ishtirok etishgan.** Ko'pincha Nara, Kioto va boshqa shaharlarda bo'lgan qo'zg'olonlarning asosiy ishtirokchilari shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar bo'lgan, ba'zan roninlar isyonchilarning yetakchisiga aylangan. O'sha davrda mamlakat bo'ylab yuz bergan ko'p sonli qo'zg'olonlar feodal tuzumga putur yetkazib, uning parchalanishiga sabab bo'lgan.

XVI asrning o'rtalariga kelib Yaponiya yevropaliklar qirollar nomi bilan atashgan bir necha mustaqil yirik feodal knyazliklariga bo'linib ketgan. Kitodagi syogun hukumati (imperatorni aytmasa) o'z ahamiyatini yo'qotgan. Feodallarning ichki urushlari to'xtamagan. Dehqonlarning qo'zg'olonlari butun mamlakat bo'ylab tarqalgan.

Natijada hukmron toifa orasida mamlakatni birlashtirish, kuchli markaziy hokimiyatni yaratish istagini uyg'otgan.

Mazkur uyushma Xonsyu orolining markaziy tumanlaridagi o'rta va kichik feodallari tomonidan tuzilgan bo'lib, ular Yevropaliklar bilan nisbatan kam aloqada bo'lganlar hamda janubdagi yirik daymening kuchayishidan cho'chiganlar. Shuningdek, ular umumiy bozor yaratishga qiziqqanlar.

1568–1582-yillarda nisbatan kichik feodal bo'lgan Oda Nobunaga mamlakatning birinchi birlashtiruvchisi sifatida ishtirok etdi. Oda qo'shini o'qotar qurollar bilan qurollanganligi uchun harbiy muvaffaqiyatlarga erishgan. **U qisqa vaqt ichida u Xonsyu markazidagi ko'pgina daymelarni bo'ysundirgan. 1573-yilga kelib u Asikaga xonadonidan bo'lgan, ayni vaqtda siyosiy ta'sirini butunlay yo'qotgan, oxirgi syogunni taxtdan qulatgan.** O'zaro urushlarda faol ishtirok etgan bir necha Buddaviylik monastirlarini ham mag'lubiyatga uchratgan. Oda Nobunaga hukmronligining oxiriga kelib, uning hokimiyati Yaponiyaning yarmiga tarqalgan. Fath qilingan joylarda u ichki bojxonalarini qo'q qilib, yangi yo'llarni qurdirgan. Shu bilan birga, **Oda Nobunaga XV–XVI asrlarda feodallardan mustaqil bo'lgan, Yaponiyaning eng gullab-yashnagan shahri Sakaini (Osaka yaqinida) bo'ysundirgan.** O'z yerlarini har xil

yo'llar bilan kengaytirib, dehqonlar qo'zg'olonlarini ayovsiz tarzda bostirgan Oda Nobunaga «syogun-knyazlik» (bakuxan) davlatiga asos solgan.

Natijada o'zaro raqobatlashib yurgan ko'plab feodallar Nobunagaga qarshi birlashishga majbur bo'lgan. Oda qarorgohida ham o'zaro nizolar boshlangan. 1582-yili Kiotodagi Xonno-dzi ibodatxonasida raqib qo'shinlari tomonidan qurshab olingan Oda o'zining eng yaqin harbiy qo'mondoni Aketi Mitsuxito qo'lida jon bergan.

Oda Nobunaganing o'g'li 1583-yilda hokimiyatdan chetlashtirilgandan so'ng mamlakatni birlashtirish ishini, dehqonlardan chiqqan va Odaning xizmatida o'zini ko'rsatgan Toyotami Xideyosi davom ettirgan.

Xideyosi dehqonlardan chiqqan bo'lsa-da, dehqonlar qo'zg'olonlarini ayovsiz ravishda bostirgan. Dehqonlar o'rtasidagi norozilikning har qanday ko'rinishi qat'iyat bilan bostirilib, ularning paydo bo'lishini oldini olish uchun 1588-yildagi «qilichlarni izlash» deb atalgan farmonga binoan dehqonlarning qilich, xanjar, miltiq kabi qurollarga ega bo'lishi taqiqlangan. Uch yildan keyin chiqqan yangi farmonga ko'ra ijtimoiy tabaqalanish rasman mustahkamlangan. Jamiyatni samuraylar – «si», dehqonlar – «no» va shaharliklar – «simin»dan iborat uchta toifaga ajratilgan. Shaharliklar esa xali tabaqalashtirilmagan savdogar va hunarmandlardan iborat.

Yer uchastkasidan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun dehqonlar hosilning uchdan ikki qismini daymaga berishga majbur bo'lishgan. Xideyosi tan maydonini 1/10 qismga kamaytirgan, ammo bu kamaytirilgan maydondan olinadigan soliq miqdori o'zgarishsiz qolgan. Shunday qilib, u dehqonlarga soliq solishning sezilarli darajada ko'payishini qonuniylashtirgan.

Xideyosi tashqi siyosatda tajovuzkor bo'lgan. Xideyosi janubiy feodallarga qarshi harbiy yurishlar evaziga hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilgan. Ushbu tajovuzkor siyosatni Koreya, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini olib borgan Yaponiyaning dengiz bo'yidagi shaharlari savdogarlari qo'llab-quvvatlaganlar. 1592 va 1597-yillarda Xideyosi ikkita katta bosqinchilik harakatlarini amalga oshirgan.

Uning tajovuzkor rejaları nafaqat Koreya, balki Chi-Tay, Tayvan

va Filippinga ham ta'sir qilgan. Xideyosi tomonidan to'planib Koreyaga yo'naltirilgan ulkan armiya va flot dastlab Yaponiya qurolli kuchlariga muvaffaqiyat keltirgan. Yaponlar 1592–1593-yillarda olov va qilich kuchi bilan Koreyaning janubidan shimoliga qarab yurish qilganlar. Ammo Koreyada boshlangan xalq urushi va Xitoyning yordami bilan yaponlar mag'lub etilgan.

Ushbu muvaffaqiyatsizlikdan so'ng, dengiz savdosi va qaroqchilikka asoslanib katta foyda olayotgan, Xideyosining keng mustamlakachilik siyosati tarafdori bo'lgan yapon savdogarlari o'zlarining iqtisodiy va siyosiy nufuzini yo'qotgan. Shu bilan birga, feodal nizolarining tugashi va mamlakatning birlashishi natijasida ichki savdo taraqqiy eta boshlagan. Ichki bozorda faoliyat olib borayotgan savdogarlar ham katta foyda ko'ra boshlagan.

1598-yilda Xideyosining vafotidan so'ng, uning qo'mondonlaridan biri, Kanto okrugi daymesi Tokugava Ieyasu uchinchi bo'lib mamlakatni birlashtirishga kirishgan. Ieyasu 1600-yildagi Sekigaxara jangida Xideyosi o'g'lining tarafdorlarini mag'lubiyatga uchratgan. Ushbu jangda Ieyasu birinchi marta «ninza» – «sharpa jangchi»lardan foydalangan. 1603-yilga kelib syogun unvoni olgan va butun davlat ustidan o'z hokimiyatini o'rnatgan.

Yaponiya Tokuga sulolasi syogunligi davrida. Tokugava sulolasidan chiqqan syogunlar Yaponiyani ikki yarim asr davomida boshqargan. Tokugava feodal tizimi dastlabki uchta syogunlar (XVII asrning birinchi yarmi) davrida barqarorlashgan.

Uchinchi syogun Iemitsuning 1633, 1636, 1639-yillarda ketma-ket chiqqan uchta farmoniga ko'ra yaponlarga o'z mamlakatlari chegaralarini tark etishi, uzoq masofaga suzuvchi yirik kemalarni qurishni taqiqlagan. Shuningdek, mamlakat chet elliklar uchun ham yopiq bo'lgan. Faqatgina Gollandiya va Xitoyning savdo kemalariga cheklangan miqdorda Nagasakiga kirishiga ruxsat berilgan. Ular bilan savdo-sotiq aloqalari Desima orolida bo'lgan.

XVI asrda yaponlar Koreya, Xitoy, Siam, Filippindan tashqari Yevropaga ham o'z elchilarini yuborishgan. Masalan, Kyusyu orolining knyazlari 1582–1590-yillarda Rimga o'z elchilarini yuborishgan.

1587-yilda missionerlik targ'ibotining dastlabki taqiqlanishidan keyin ham Yevropaliklar bilan munosabatlar to'xtamagan. Xideyosi

yevropaliklarning kemalari va qurollaridan foydalangan holda Koreyaga qilingan harbiy yurishda muvaffaqiyat qozonishga umid qilgan. Ieyasu ingliz va gollandlarni qo'llab-quvvatlashi orqali ispan bilan portugallarning ta'sirini zaiflashtirishga harakat qilgan. Shuningdek, missionerlik faoliyatini taqiqlovchi farmonlar chiqargan.

Ieyasu 1610-yilda Meksikaga, 1613–1620-yillarda Yevropaga o'z elchilarini yuborgan bo'lsa ham, ammo uning hukmronligining oxirlarida va o'g'li bilan yevropaliklarning faoliyati tobora cheklanib borgan.

Ikki yarim asr davomida Yaponiyani tashqi dunyodan sun'iy ravishda ajratib turish siyosati olib borilgan. Ushbu siyosatning zahirida feodal munosabatlarni barqarorlashtirish yotgan. XV–XVI asrlarda tashqi savdning sezilarli rivojlanishi dengiz portlarida badavlat fuqarolar qatlamining tez o'sishiga olib kelgan. Ulkan boylikka ega bo'lgan savdogarlar feodal tuzumining poydevoriga putur yetkazish bilan tahdid qilishgan. Shuning uchun yapon hukmdorlari savdogarlarni zaiflashtirishga qaror qilib, tashqi savdoni taqiqlaganlar. Bundan tashqari, Xitoy va Koreyani o'ziga bo'y-sundirgan manchjurlar yapon feodallariga xavf tug'dira boshlagan.

Biroq, mamlakat yopilishining asosiy sababi ichki vaziyat bo'lgan. Feodallar dehqonlar harakatini bostirish uchun harbiy kuch to'plaganlar. O'sha davrdagi dehqonlar qo'zg'olonlarining ko'pchiligi xristian dini bayrog'i ostida bo'lgan. Shu sababli xristian missionerlarining faoliyati ham yapon feodallariga muammo tug'dirgan. 1630-yildan Yevropadan kitoblarni olib kirish taqiqlangan. Hatto xristianlik to'g'risida ma'lumot berilgan xitoycha kitoblarni olib kirish ham taqiqlangan.

Va 1637-yilda Shimabara (Kyusyu) shahrida kuchli qo'zg'olonlardan biri ko'tarilgan. Bu «xristian» harakati sifatida tanilgan, chunki harakat ishtirokchilarining aksariyati xristian bo'lgan. Bu qo'zg'olon dehqonlar harakati bo'lsa-da, biroq unda quyi samuraylar ham ishtirok etishgan.

Qo'zg'olonda 30 mingdan ortiq kishi qatnashgan. Ushbu qo'zg'olonga samuray, Xideyosining sobiq vassal safdoshlaridan biri, koreyaga xujum hishtirokchisi, «nasroniy qo'mondoni» Konishi Yukinaga rahbarlik qilgan. Tokugava hukumati bu qo'zg'olonni shafqatsizlarcha yo'q qildi: uning deyarli barcha a'zolari o'ldirildi

yoki qatl qilindi. Shundan so'ng, nasroniylik qat'iy qat'iy taqiqlandi.

Mamlakatni tashqi dunyodan, tashqi ta'sirlardan izolyatsiya qilish ijtimoiy munosabatlarni qat'iy tartibga solishga, har bir mulkning iqtisodiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq tartibga solishga, feodal tuzilmasining daxlsizligini saqlashga qaratilgan Tokugava ichki chora-tadbirlarining butun tizimini qamrab olgan.

Asosiy yerlar daymelarga egalik qilish uchun berilgan. Bunday egalikni feodalga berish kelajakdagi yer egasining daromadlarini to'g'ri hisobga olishga asoslangan. Ushbu daromadlar guruch bilan hisoblangan. Mamlakatdagi barcha moliyaviy hisob-kitoblar guruch bilan belgilanib, guruch asosiy o'lchov birligiga aylangan.

Dayme o'zining barcha fuqarolari ustidan sud va ma'muriy hokimiyat huquqiga ega bo'lib, u o'z samuraylariga maoshni belgilangan miqdordagi guruchda bergan. Mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish oxiriga yetmagan. Mamlakat 200 dan ortiq knyazliklarga bo'linib, ularning hukmdorlari esa o'z hududlarida to'liq xo'jayinlar bo'lishgan. Biroq markaziy hukumat feodallarni boshqarish huquqini saqlab qolgan. Ular syogunlikning umumiy qonun hujjatlariga bo'ysunishlari kerak bo'lgan. Hukumat feodallarni o'zaro ichki urushlar olib borish va markaziy hukumatga qarshi chiqish imkoniyatidan mahrum qilgan. 1614–1615-yillarda Tokugava Ieyasu Osaka shahrini egallab olgan Xideyosining o'g'li tarafdorlarining qarshiliklarini bostirgan.

O'shandan keyin 200-yildan ortiq vaqt mobaynida yapon feodallarining o'zaro ichki urushlari kuzatilmagan. Tokugavaga qarshi bo'lgan feodallar o'z mulklaridan to'la yoki qisman mahrum bo'lishgan, boshqa hududlarga ko'chib ketishgan. Qo'zg'olonchi feodallar o'rniga Tokugava tarafdorlari yoki vassallari tayinlangan. Keyinchalik, yerni to'liq yoki qisman musodara qilish shaklidagi jazolar juda kam qo'llanilgan.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi shaharlar aholisi ko'payib, yanada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Har birida 300 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan Edo, Kito, Osaka kabi shaharlardan tashqari, Nagoya, Nagasaki, Sakai, Kanazava kabi ko'plab port, shahar va savdo markazlarining aholisi 60 mingdan ortgan. Xirosima, Okayama, Xakata, Kumamoto, Akita shaharlarining har birida 20 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan. Xyogo, Fukuoka, Takata

kabi shaharlarda esa 10 mingdan 20 mingga bo'lgan odamlar taqomat qilishgan.

U n vettita yirik shahardagi savdo va hunarmandchilik feodallar boshqaruvidan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri markaziy hukumatga bo'yangan. Shunday qilib, barcha muhim shaharlar boshqaruvi feodal knyazliklardan olinib, syogunning maxsus amaldorlari tomonidan nazorat qilingan. Ushbu shaharlar orasida birinchi o'rindagisi Osaka Xideyosi boshchiligidagi birlashtirish jarayonidagi markaziy shahar edi. Qadimiy madaniy shahar Kiotoda savdo va hunarmandchilik rivojlangan. Iyeyasu tomonidan qurilgan, yangi rivojlanayotgan shahar, mamlakatning yangi poytaxti esa – Edo (hoz. Tokio) shahri bo'lgan.

Hunarmandchilikning merosiyligi va ustoz–shogird an'alarining tamoyillariga asoslangan o'zlarining sex ko'rinishidagi ustaxonalari *dzalar* tashkil etilgan. Hukumat ustaxonalar faoliyatini qat'iy tartibga solib, hunarmandlarga katta soliqlar solgan. Savdogarlar ham hunarmandlar singari o'zlarining uyushmalari bo'lgan gildiyalar *nakamalar*ni tashkil qilganlar.

Ijtimoiy aloqalar samuray dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarga kabi bo'linishga asoslangan. Har bir mulkning huquqlari va majburiyatlari qat'iy tartibga solingan. Ayniqsa, dehqonlarning vazifalari qattiq tartibga solingan. Tokugava Ieyasu so'zlari bilan aytilganda: «Dehqon – sesame urug'iga o'xshash, qancha ko'p hosil olsangiz, shuncha siqasiz». Shuningdek: «Dehqonlar ustidan nazoratni amalga oshirishning eng yaxshi usuli bu – ularga bir yilga yetadigan oziq-ovqat qoldiring va qolganlarini soliq sifatida oling», degan gapni ko'p ta'kidlagan.

Dehqon hayotining barcha jabhalari tartibga solingan. Ularga guruch iste'mol qilish, ipak matodan tikilgan kiyim kiyish taqiqlangan, faqat paxta kiyimlariga ruxsat berilgan. Qulay va keng uylarni qurish va uylarini biron bir narsa bilan bezash, ko'ngilochar tadbirlar, teatr tomoshalari kabilarni o'tkazish ham taqiqlangan.

Qishloqlar beshta hovliga bo'lingan, har beshta xonadonga hukimiyat tomonidan tayinlangan boy dehqonlar boshchilik qilgan; ular boshqa dehqonlar tomonidan hukumat tartiblariga rioya etilishini politsiya singari nazorat qilib turgan. Dehqonlar yerga bog'lanib, uni tark etish huquqidan mahrum bo'lganlar. Mabodo shunday hol

yuz bersa jamoa aʼzolari qochoq dehqon uchun barcha soliq va toʻlovlarni toʻlagan, qochoq dehqonlar qattiq jazolangan.

Savdogarlar va hunarmandlarning turmush sharoiti ham tartibga solingan, ammo dehqonlarga nisbatan ancha qatʼiyatli boʻlgan va amalda bu qoidalar koʻpincha buzilgan. Savdogarlar va hunarmandlarning alohida tabaqalarga boʻlinishi, bu ularning kuchayganligidan dalolat beradi, ayniqsa Yaponiya qonunlari savdogar va hunarmandlar guruhining mustaqilligini ilgari hech qachon tan olmagan – faqat «jangchilar» (samuraylar) va «xalq» mavjud edi.

Nisbatan kamroq imtiyozga ega boʻlgan syogun samuraylaridan qoʻshin tashkil qilingan. Har bir dayme oʻz samuraylaridan dehqonlar qoʻzgʻolonlarini bostirishda foydalangan.

Barcha maʼmuriy boshqaruv tizimini maxsus nazorat qiluvchi instituti – *mesuke* («koʻz») tashkil qilingan boʻlib, unga syogunning maxsus amaldorlari, feodallar, amaldorlar va turli muassasalarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Tokugavadagi «barqarorlashuv» siyosati XVI asr oʻrtalarida boshlangan feodal munosabatlarning parchalanishini bir muncha vaqt ortga surgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Tokugava syogunligi qay tariqa hokimiyat tepasiga keldi?
2. XVIII asrda Yaponiya xalqi hayotini umumiy manzarasini tasvirlab bering.
3. Nima sababdan bu davrda Yaponiyada yevropaliklarga nisbatan qarshi kayfiyat shakllandi?
4. Yevropaliklardan faqat gollandlarga qator imtiyozlar berilishini qanday izohlash mumkin?
5. Yaponiyaning dunyo uchun yopilishidan koʻzlangan maqsadlar nima edi?

XX BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA KOREYA

Choson davlatining tuzilishi. Li Son Ge hokimiyatga kelgandan so'ng, koreys davlatiga Choson nomini bergan va mamlakat poytaxtini Kepyondan Xanan (Seul)ga ko'chirgan. Li Son Ge hokimiyatga kelgan vaqtda keksayib qolgan edi. Shu bois uning o'g'illari orasida ~~taxt~~ uchun kelishmovchiliklar bo'lib turgan. Uning katta o'g'li Li Bm Von yoki van Txejon (1401–1418) Choson hukmdori bo'lgan.

Yangi sulolaga asos solinishi bilan Koryoning zaiflashib qolgan markazlashgan hokimiyat boshqaruvini mustahkamlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Muxolifatni bostirish maqsadida avval van Konyan va uning o'g'illari hamda eski sulola tarafdorlari qatl etilgan. Amaldorlarning avvalgi mansablari bekor qilingan. Faqatgina vanning eng yaqin qarindoshlarigina mansabga erishish huquqiga ega bo'lganlar. Qolganlar, xususan «ta'sirli oilalar» umumdavlat miqyosida 18- darajadagi lavozimlarinigina egallashi mumkin edi.

Davlat boshqaruvi faoliyatini yaxshilash uchun bir qator hukumat tashkilotlari tarqatib yuborilib, ayrim davlat tuzilmalari qisqartirilgan. Van tasarrufida bosh vazir va uning ikki o'rinbosaridan iborat oliy hukumat organi, Davlat yig'ini – Iychjonbu tashkil qilingan. Barcha davlat tashkilotlari oltita vazirlik bo'yicha taqsimlangan: 1) amaldorlar bo'yicha; 2) moliya; 3) mudofaa; 4) tantanalar; 5) adliya; 6) hunarmandchilik va jamoat ishlari.

Vazirliklar bilan birga davlat boshqaruvida uchta nazorat devonxona «sam sa» (nazorat) tuzilgan. Birinchi devonxona vanning noto'g'ri harakatlari va qarorlarini tanqid qilgan, ikkinchisi amaldorlar faoliyatini nazorat qilgan, uchinchisi esa vanning ilmiy faoliyatiga javob bergan va konfutsiylik ruhida rasmiy tarixni yozish uchun materiallar yig'ish bilan shug'ullangan. Islohotlar tufayli samarali davlat boshqaruv devonxonasi shakllangan. Bu borada shuni aytish kerakki, mamlakat poytaxtida amaldorlar 500–600 kishini tashkil qilgan. Li sulolasi davrida mamlakat aholisi 3 milliondan 11 millionga ko'paygan.

Markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha shaxsiy harbiy guruhlar tarqatib yuborilgan. Umumiy harbiy majburiyat asosiga qurilgan doimiy armiya markaziy va viloyat qo'shinlariga

bo'lingan. Qo'shirlarni saqlash zaxiradagilar zimmasiga tushgan bo'lib, ularning asosini dehqonlar tashkil etgan. Davlat hududini himoya qilish maqsadida mamlakat bo'ylab gulxanli signallar va pochta xizmati tizimi joriy etilgan.

Mamlakat 8 ta ma'muriy bo'linmaga bo'lingan bo'lib, ushbu bo'linmalar, o'z navbatida, okruglar, volostlar, uyezdlar va prefekturalarga bo'lingan. Barcha rahbar amaldorlar poytaxtdan tayinlangan. Rahbar va mahalliy amaldorlar orasida poraxo'rlikning hamda ajralib ketishlarning oldini olish maqsadida almashtirish tizimi joriy etilgan: ya'ni amaldorlar vaqt-vaqti bilan boshqarayotgan hududlardan boshqasiga o'tkazib turilgan. Mansabdor shaxslar doimiy nazoratda bo'lib, ularning faoliyati rasmiy va yashirin taftishdan o'tkazilgan. Poytaxtda maxsus do'mbira o'rnatilgan. Uni chalish orqali amaldorlarning faoliyatini suis'temol qilishi yoki ularning nojo'ya ishlari haqida ma'lumot berilgan.

Eng quyi darajadagi qishloq uyushmalari *xanyak* – mahalliy boshqaruv shakli bo'lgan. Uning faoliyatiga konfutsiylik ta'limoti asosidagi tartib-intizomni saqlash, mayda o'g'riliklar uchun jazo belgilash, mablag' ajratish, maktablar tashkil qilish, jamoat ishlari va marosimlarning bajarilishini nazorat qilish kirgan.

Tabaqalanish tizimi. Chosonni boshqarganlar sulolaviy oqsuyaklardan iborat bo'lgan yanbanlardan tashkil topgan bo'lib, ular fuqaroviy va harbiy zodagonlarga bo'lingan. Yanbanlar lavozim uchun davlat imtihoni topshirishgan. Unga ko'p bo'lmagan yuqori martabalilar avlodigina «ajdodlarga xizmati» yoki «ezgu xizmatlari» uchun imtihonsiz lavozimni egallashi mumkin bo'lgan. Fuqarolik lavozimlari uchun imtihonga faqatgina yanbanlar oilasiga mansub kishilargina (bu konfutsiylik davlatchiligi me'yorlariga zid bo'lgan, lekin XVI asrdan boshlab an'ana tarzida yozila boshlagan) qo'yilgan bo'lsa, harbiy mansablar uchun o'rta tabaqaga mansub va viloyatlardan kelgan kishilar qo'yilgan. Yanbanlar darajasiga ko'ra farqlangan. Ular barcha majburiyatlardan ozod qilingan. Yanbanlar o'zaro ichki nikohni qayd etish orqali yopiq tabaqaga aylangan.

Davlat lavozimlari chegaralangan bir davrda yanbanlar tabaqasining o'sishi hukumatni ularga nisbatan qator cheklolvar joriy qilishga majbur qilgan. Birinchidan, ikkinchi nikohdan yoki yanban bo'lmagan onadan tug'ilgan farzand amaldor bo'la olmagan, yoki

viloyatlardagi yuqori lavozimlarga tayinlanmagan. Ikkinchidan, yer va oylik maoshsiz, lekin yanban maqomini saqlab qoluvchi qator soxta lavozimlar joriy etilgan.

Yanbanlardan keyingi tabaqadada *chuninlar* («oʻrta kishilar») – tabiblar, tarjimonlar, xattotlar, hisobchilar, huquqshunoslar, rassomlar, munajjimlar kabi mutaxassislar va kichik amaldorlar turgan. Ular huddi yanbanlar kabi jismoniy va mehnat majburiyatlaridan ozod qilingan. Koʻpincha, ular yanbanlarning joriyalaridan tugʻilgan tarzandlari boʻlib, bu daraja ularning xizmat sohasidagi yuqori martabasi boʻlgan. Chuninlarga sulolaviy kichik amaldorlar (son, *vvanri, txogvan*) – devonxona xodimlari ham kirgan. Ular ham mehnat va jismoniy majburiyatlardan ozod qilingan.

Keyingi oʻrinda soliq toʻlovchilar turgan. Bu qatlam *saninlar* («oddiy odamlar») yoki *yaninlar* («erkin odamlar») deb nomlangan. Ular erkin dehqonlar, hunarmand va savdogarlardan tashkil topgan. Bu qatlamning yuqorisida badavlat dehqonlar yoki *xallyan* («bekorchi oddiy odamlar») turgan boʻlib, ular oʻzlarini yanbanlar deb atashgan. Undan quyida *sinyan yokchxon* – kon va davlatga qarashli ustaxonalar ishchilari, daraxt kesuvchilar, baliqchilar, tuz qazuvchilar kirgan. Keyingi oʻrinlarda qaram dehqon-nobilar va «jirkanch kasb egalari» qassoblar, moʻynadoʻzlar, koʻcha artistlari, qomlar va *xoninlar* («qabih odamlar») kirgan. Aholi orasida soliq toʻlovchilar va harbiy majburiyatga aloqador kishilarning sonini oshirish maqsadida hukumat doimiy ravishda nobilar sonini kamaytirib, ularni davlatga qarashli dehqonlarga aylantirgan.

Soliq toʻlashdan boʻyin tovlaganlarni roʻyxatdan chiqarish maqsadida zamonaviy pasportlar koʻrinishidagi maxsus taxtacha joriy etilgan.

Konfutsiylikning yangi oqimi davlat mafkurasi sifatida. Hokimiyatga Li sulolasi kelishi bilan neokonfutsiylik yangi davlat gʻoyasiga aylangan. Jamiyat taraqqiyoti uchun boʻlgan ehtiyoj «nirvana»ga boʻlgan buddaviylik yoʻnalishi va hayotga boʻlgan munosabat kabi yechilmagan muammolarni faol va amaliy tarzda yechishni talab qilgan. Buddaviylik barcha falokatlarining sababchisi deb eʼlon qilingan. Buddaviylik ibodatxonalari qaram dehqonlaridan mahrum boʻlib, ularga tegishli yerlar bir necha barobar qisqartirilgan. Aynan mana shunday sababga koʻra daosiylik ham oʻzining

tarafdorlaridan mahrum boʻlgan. 1518-yil Seulda markaziy daosiylik ibodatxonasi yopilgan.

Seul va viloyatlarda konfutsiylik maktablari ochilgan. Davlat Kengashi bilan birga davlat maslahatchilari Palatasi ham joriy etilgan boʻlib, unga konfutsiy olimlari kirgan. XVI asrda konfutsiy olimlar sharafiga bagʻishlangan konfutsiylik ibodatxonalari *sovonlar* tashkil qilingan boʻlib, vaqt oʻtishi bilan ular mahalliy siyosiy markazlarga aylangan.

Konfutsiylikning mavqei kuchayishi natijasida Koreyada ijobiy oʻzgarishlar yuz bergan. Avvalo, qirolga barcha itoat qilishi bilan bogʻliq konfutsiylik meʼyorlari mustahkamlanib, bu markazlashgan davlatning muhim sharti edi. Boshqa tomondan, xatolarni eʼtirof etib, ularni tuzatish yoʻli bilan kamolotga erishish qirollik oilasiga ham joriy qilinishi, davlat boshligʻi tomonidan yaqinlari va olimlarni roʻyxatga kiritib, boshqaruvda yangiliklar joriy etilishiga sabab boʻlgan. Koreya qirollari xalqqa qilgan murojaatlarida oʻz xatolarini bir necha marta tan olib, ularni tuzatishga vaʼda bergan. Koreya tarixida qirollik boshqaruvini takomillashtirish borasida olimlar va amaldorlar oʻzlarining takliflarini bildirganlar.

Neokonfutsiylik davlat gʻoyasi tarzida shakllanishida siyosiy kuchlar bir xil boʻlmagan. Choson davrining dastlabki oʻn yilliklarida eʼtiqodli konfutsiylik, «xizmat koʻrsatgan amaldorlar» – *xungular* koʻproq taʼsir doirasiga ega boʻlib, hokimiyatga egalik qilganlar. Biroq, vaqt oʻtishi bilan jamiyat hayotida islohotlar gʻoyasini ilgari surgan neokonfutsiylik yoki *sarimlar* («olimlar oʻrmoni») yetakchilik qilgan. Shu bois Van Sonchjon (1469–1494) davrida ular yuqori lavozimlarni egallaganlar. Biroq, 1498-yilda regent Yonsan Gun (1494–1506) davrida xungular tavsiyasiga koʻra koʻplab yuqori martabali sarimlar oʻldirilgan yoki surgun qilingan. Buning sababi van Sejo (1455–1468) davrida voyaga yetmagan van Tanjon (1452–1455)ning amakisi noqonuniy taxtni egallab, uni viloyatga yuborgan. 1457-yili esa unga oʻzini oʻzi oʻldirishi toʻgʻrisidagi buyruqni yuborgan. Buddaviylikning mavqeini qayta tiklashga qaratilgan harakati uchun u *uzurpat* nomini olgan van Chunjon (1506–1544) davrida sarimlar islohotlar oʻtkazishga harakat qilganlar. Aynan mazkur islohotlar «xizmat koʻrsatgan amaldorlar»ning tinchligiga birmuncha xavf solgan, jumladan, davlat imtihonlari orqali

amaldorlarni tayinlash iqtidorli odamlarning kashf etilishiga sabab boʻlgan. Biroq, 1519-yilda xungular kurashning yangi koʻrinishini boshlagan va mazkur kurashlarda koʻplab islohotchilar jon bergan. Van Sonchjo (1567–1608) davrida sarimlar gʻalaba qozonganlar. Biroq, ikki oʻrtada neokonfutsiyilarga raqobatchi partiya («pundan») paydo boʻlib, dastlab sharqiy va gʻarbiy, keyinchalik sharqiy partiya janubiy va shimoliy guruhlariga boʻlingan.

Shunday qilib, koreys neokonfutsiyiligida qator maktab va yoʻnalishlar rivojlangan.

Chon Gvan Cho (1482–1519) qonun asosida markazlashgan davlat qurishga qaratilgan *legistlar* maktabiga asos solgan. Chon Gvan Cho oʻqimishli boʻlishga eʼtibor qaratgan. Uning fikricha, dunyoni bilish asosida insonda tafakkur rivojlangan. Aynan bu gʻoyadan kelib chiqib, u lavozimlar berilishi boʻyicha davlat imtihonlari rasmiyatchilik koʻrinishini olishiga qarshi chiqqan va uning oʻrniga ijtimoiy mavqeidan qatʼiy nazar, iqtidorli shaxslarni davlat lavozimlariga jalb etish masalasini ilgari surgan. Har bir kishi uchun kamolotga erishish imkoni mavjud boʻlgan. Aynan axloq va odob, oʻzaro yordam meʼyorlari bajarilishini nazorat qilish orqali qishloq konfutsiylik jamoasiga yordam berish mumkin. Chon Gvan Cho «kuch va qoʻrquv»ga asoslangan gʻoyalarga qarshi «xalqqa muhabbat» va «odilona boshqaruv»ga asoslangan «qirollik yoʻli» nomli konsepsiyani ilgari surgan. Biroq keyinchalik sarimlar quvgʻin qilingan vaqtda olim ham oʻldirilgan.

XV–XVI asrlarda Kim Si Sip (1435–1493) va So Kyon Dok (Xva–dam, 1489–1546) yetakchiligida falsafiy materializmga asoslangan maktab paydo boʻlgan. Kim Si Sip – ateizm yoʻliga kirgan birinchi koreys faylasufi hisoblanadi. U ruhning abadiyligi va jannat yoki doʻzax haqidagi qarashlarni, shomonlar faoliyatini yolgʻon deb talqin qiladi. Omad va omadsizlik odamning oʻziga bogʻliq. Ruhlar toʻgʻrisidagi tushunchalar odamlar ongidagi fantaziya mahsulidir. Kim Si Sip xalqni «gumanistik boshqarish» tarafdori boʻlgan. Alloma oʻzining asarlarida oddiy xalq hayotining azob-uqubatlari haqida yozib, hukmdorlarning hashamatli hayotini tanqid qilgan. Aynan xalqni shafqatsiz boshqarish usuli qoʻzgʻolonlarga sabab boʻladi, degan.

Aynan bu davrning mashhur allomalaridan biri So Kyon Dokdir.

Uning qarashlariga ko'ra, insonga tug'ilishidan boshlab insoniylik va adolat tushunchalari hamrohdir. Biroq, havoyi istaklari va ta'magirliklar ularni yo'ldan ozdiradi. Shuning uchun inson doimiy ravishda o'zini axloqiy tarbiyalab borishi zarur. Xvadam oilaviy sag'analar uchun dehqonlar yerlarini bosib olgani sababli nafaqat zodagonlarni, balki hukmdorni ham tanqid qiladi. Faylasuf yana maqsadsiz an'anaga aylangan qator marosimlar borasida ham fikr bildirgan.

Chjusianlikning yana bir yirik namoyandasi Li Xvan (Txvege, 1501–1570) bo'lgan. Txvege chjusianlikning qayta tiklanishi tarafdori bo'lib, u muxolifatdagi barcha ta'limotlarni tanqid qilgan. Li Xvan konfutsiylik asketizmining yetakchisi bo'lgan. U nafaqat hashamatli hayot tarzini, balki oddiy uylarni ham tanqid qilgan, hatto yemakni ham «yomonlik» deb hisoblagan.

Li Xvan fikricha, konfutsiylik qonun-qoidalariga mamlakatning barcha hududlarida birday amal qilinishi lozim. Uning qishloq jamoasi loyihasi quloqsiz ota-onalar, aka so'ziga quloq solmagan ukalarga hamda nikoh va motam marosimlari buzilganda jazo berishga qaratilgan. Shuningdek, kimki jamoa tartiblari va an'alarini buzsa, qachonki muammo amaldagi hokimiyat bilan bog'liq bo'lib, o'rnatilgan qonunlarga qarshi chiqilsa yoki buzg'unchilik ishlari olib borilib, hokimiyat tanqid qilinsa yoki ular bilan tortishilsa, olimlarga hurmatsizliklarcha munosabat uchun ham jazo belgilanishi lozim bo'lgan.

Ilk Choson davrida neokonfutsiylikning yana bir yirik namoyandasi Li I (Yulgok, 1536–1584) bo'lgan. U Li Xvanning o'quvchisi bo'lishiga qaramasdan, keyinchalik ustozlari g'oyalari bilan voz kechgan. Uni Txvegening Chju Si matnlariga bog'lanib qolganligi qanoatlantirmagan. Bu borada Li I yanada ilgari ketgan bo'lib, Chju Sining o'ziga qarshi chiqqan. U neokonfutsiylikni haqiqiy hayotdan yiroqlashib, faqatgina kitobga bog'lanib qolganlikda ayblaydi. Uning fikricha, olingan bilimlarning haqiqiylikini insonlar misolida sinash lozim, jannat va do'zax mavjudligi, «ajr» mukofoti konsepsiyasi to'g'risidagi tasavvurlar umuman ishonchsizdir.

Yulgokning ijtimoiy doktrinasi konfutsiylik axloqi, «insonparvar boshqaruv» va «xalqni sevish»ga asoslangan. Li Ining fikricha, jamiyatning asosiy kamchiligi: 1) qaytariluvchi kafolat tizimi bo'lib,

unda to'lanmagan o'lpon, soliq yoki majburiyatlar qarindoshlar va qo'shnilar zimmasiga tushgan; 2) hisobsiz soliq va o'lponlar; 3) hadya, sovg'a berish amaliyoti; 4) jamoaviy ishlab berish; 5) amaldorlarning pora olishi. Aynan mazkur og'irliklarning barchasi xalq zimmasiga tushadi. Aynan xalqning qashshoqlashishi qo'zg'olon va jinoyatlarga sabab bo'ladi. Islohotlar – davr talabi. Davlat boshqaruvini almashtirish yoki yakun toptirish «ajdodlar qonuni» hisoblanadi.

Ilmiy-texnik va madaniy yutuqlar. XV–XVI asrlar – islohotlar davri bo'lib, fan va madaniyat sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Ilmiy-texnikaviy yo'nalishdagi yutuqlar avvalo amaliy ahamiyat kasb etgan. Bu davrda ob-havo va bulutlarni kuzatish rivojlangan, yulduzlar xaritasi, yomg'ir miqdorini o'lchovchi asbob, topografik asboblardan, aniq taqvim, notali yozuv, quyosh va suv soatlari yaratilgan. Shu bilan birga qurolsozlik, kemasozlik va matbaachilik sohasida ham katta yutuqlarga erishilgan.

Tibbiyot sohasida 1445-yili 365 kitobdan iborat «Davolash yo'llari majmuasi» (1445-y.) va 85 kitobdan iborat «Mahalliy dorilar haqida ma'lumotlar majmuasi» (1456-y.) nomli fundamental ishlar chop etilgan. Aynan mazkur ishlar orasida oxirgi kitobda kasalliklarni davolash bo'yicha 955 ta maqola, 10706 retseptlar va 1477 ta igna sanchib davolashga oid tavsiyalar berilgan. 1610-yilda «Sharq tabobati xazinasini» nomli kitob nashr qilingan. Unda Xitoy va koreys tabobatiga oid 500 dan ortiq risolalar o'rin olgan.

Qirol Sejon (1418–1450) davrida qishloq xo'jaligiga oid asarlar yaratilgan bo'lib, ularda malakali ziroatchilarning tajribalari umumlashtirilgan. Seleksiya ishlari ham rivojlangan bo'lib, turli iqlim va tuproqlarga moslashtirilgan, o'simliklar (sholi, arpa, bug'doy)ning yangi navlari yaratilgan.

Tarixiy tadqiqotlar tizimli ko'rinish olgan. 1450-yili «Koreyaning harbiy sharhi» nomli kitob chop etilgan. 1485-yilda – «Koreyaning umumiy sharhi» e'lon qilingan. Maxsus olimlardan tashkil topgan guruh 1451-yili 139 kitobdan iborat «Koryo sa» («Koryo tarixi»)ni yozgan. 1454-yili van Tanjon davrida «Yilnoma yoki Sejon davrining asl yozuvlari» chop etilgan bo'lib, bu kitobga van buyruqlari, rasmiy ma'ruzalar, tekshiruvchilar hisobotlari kabi rasmiy hujjatlar kiritilgan. Chosonning keyingi barcha tarixi davomida aynan shunga

o'xshash yilnomalar tuzish an'anaga aylangan.

1485-yil «Kyonguk tejon» («Davlat boshqaruvi uchun buyuk tuzuklar») – mamlakatning birinchi yuridik kodeksi chop etilgan.

Kartografiya ishlari ham keng yoyilgan bo'lib, ko'plab yangi geografiyaga oid ishlar chop etilgan. 1432-yili «Sakkiz viloyatning geografik tavsifi», 1455-yili «Geografik tavsiflar va xaritalar», 1463-yili «Koreya xaritasi», 1481-yili «Koreya yerlari va uning diqqatga sazovor yodgorliklari», 1530-yilda 55 kitobdan iborat «Koreya yerlari va uning diqqatga sazovor yodgorliklariga qo'shimcha tavsif» nomli geografik kitoblar chop etilgan bo'lib, uning yangi nashri 1609-yili e'lon qilingan.

1493-yili 9 jilddan iborat «Musiqqa haqidagi fan asoslari» nomli musiqiy ensiklopediya e'lon qilingan.

Aynan bu davrdagi muhim yutuqlardan biri 1443-yil qirol Sejon tomonidan amalga kiritilgan koreys alifbosi («xunmin chonim») ga bag'ishlangan «To'g'ri tovushlar haqida xalqqa nasihat» nomli kitobning chop etilishi bo'lgan. Xitoy iyerogliflaridan farqli tarzda yangi alifbo harflardan tuzilgan bo'lib, bu iyerogliflar qo'llanishda oson bo'lgan. Bu esa, shubhasiz oddiy avom xalqning savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, yuqori martabali shaxslar va amaldorlar uzoq muddat Xitoy yozuvidan foydalanishgan.

She'riyatda *kasa* (katta she'r) va *sichj* (Koryo davrida paydo bo'lgan uchbo'g'inlilik) janrlari rivojlangan. Unda tarixiy voqealar tasviri, taqdir haqidagi falsafiy tasavvurlar, fuqarolar lirikasi aks etgan. Folklor, novellalar va satirik proza hamda povestlarning badiiy ishloviga asoslangan nasr paydo bo'lgan. Sahna san'atida niqob teatri va qo'g'irchoq teatri paydo bo'lib, unda o'tkir satira namoyish qilingan. Rassomchilik dekorativ rassomchilik, peyzaj, portret va animalistik rassomchilikka bo'lingan.

Agar avvallari me'morchilikda ibodatxona qurilishiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XV asrdan boshlab ularning o'rnini xalq arxitekturasini, o'zining hashamati bilan ajralib turadigan vanlar saroylari egallay boshlagan.

Imjin urushi. Li sulolasining tashqi siyosati – Xitoyning Min sulolasi, Yaponiya va manchjurlar bilan bo'lgan. Garchi, rasmiy Xitoy bilan munosabatlar vassallik ko'rinishiga ega bo'lgan bo'lsa-da, Xitoy Chosonning ichki ishlariga aralashmagan. Ikki mamlakat

doimiy ravishda o'zlarining do'stona va rasman mustaqil munosabatlari tarzida elchilar va sovg'a-salomlar almashib turishgan. XVI asr davomida Choson hududiga doimiy ravishda chjurchjenlar va yapon qaroqchilari hujum qilib turganlar, lekin ular har safar keskin qarshiliklarga uchranganlar.

XVI asrning 80-yillari oxirlarida bo'linib ketgan Yaponiya Toyotomi Xideyosi tomonidan birlashtirilgandan so'ng, u o'z oldiga Xitoyni bosib olishni maqsad qilib qo'ygan. Xideyosi katta armiya yig'ib, Choson hukumatiga Xitoydagi Min sulolasi bilan bo'ladigan jang uchun askarlarini Choson hududidan o'tkazishni va koreyslarni bo'lajak jangda yordam berishini so'rab murojaat qilgan. Seul esa, o'z navbatida, bu taklifni rad etgan va Xitoyga Yaponiyaning rejalari haqida xabar bergan. **1592-yilning mayida yaponlar 200 ming qo'shini bilan Koreyaga bostirib kirgan va Imjin urushi (1592–1598) boshlangan.** Garchi, urushgacha ko'plab davlat arboblari armiyani tiklash to'g'risida ta'kidlashlariga qaramay, Koreya urushga tayyor emas edi.

Yapon qo'shinlarida o'qotar qurollar bo'lgan. Shu bois tez orada Pusan shahri qo'lga kiritilgan. Jiddiy qarshilikka uchramagan yaponlar Seul tomonga harakatlanishgan. Bu davrda Seul Min sulolasiga yordam so'rab murojaat qilgan. Van Sonjo saroy a'yonlari bilan poytaxtni tashlab ketgan. Keson shahriga kelgan hukmdor va uning a'yonlarini g'azablangan olomon toshlar va balchiqli kesaklar bilan qarshi olgan. Yapon qo'shinlari Seulga jangsiz kirib kelgan. Tez orada Keson va Pxenyen egallangan. Van o'zining yaqin odamlari bilan chegaradagi kichik shaharcha bo'lgan Iydjuga yashiringan.

Saroy a'yonlarining qochib ketishi va koreys armiyasining mag'lubiyatiga qaramay, yaponlar tomonidan bosib olingan hududlarda hukumat qo'shinlari qarshilik harakatlarini davom ettirgan. Qolaversa, barcha viloyatlarda **«Iybyon» («Adolat armiyasi») nomli xalq harakatlari yuzaga kelgan.**

Koreys qo'shinlari quruqlikda mag'lubiyatga uchragan bir vaqtda, sarkarda **Li Sun Sin** boshchiligidagi koreys floti dengizda muvaffaqiyatga erishgan. Seul mag'lubiyatga uchragandan so'ng, **1592-yil yozida kuchli zambaraklar bilan qurollangan 85 kemadan iborat Li Sun Sin boshchiligidagi flotda** dunyoda birinchi marta **«toshbaqa-kemalar» («kobuksonlar»)** ishlatilgan bo'lib, ularning

borti va yuqori palubasi o'q o'tmaydigan qatlam bilan qoplangan. Li Sun Sin o'z flotidan unumli foydalanib, yonma-yon jang qilish taktikasi o'rniga masofaviy jang taktikasini qo'llagan. Koreys artilleriyasi yapon kemalarini o'qqa tutib mag'lubiyatga uchratgan. «Toshbaqa-kemalar»ni yaponlar qo'lga tushira olishmagan. **Koreys floti qisqa muddatda 300 dan ortiq yapon kemalarini yo'q qilgan.**

Aynan koreyslarning dengizdagi muvaffaqiyati quruqlikdagi voqealarga ham ta'sir qilgan. G'alabalar odamlarni kurashga undagan. Bundan tashqari, suvdagi janglar davomida koreys floti dengiz yo'li orqali ta'minot bilan shug'ullanuvchi yaponlarning transport kemalarini yo'q qilganligi bois yaponlar o'zlarining bazasi va oziq-ovqat zaxirasidan uzilib, o'ta qiyin holatda qolgan.

Yaponlarning Koreyani bosib olishi Xitoyga qaratilgan urush uchun harbiy baza vazifasini bajarishi mumkinligini anglagan Min qo'shinlari 1593-yili yaponlarga qarshi jangga kirishgan. Birlashgan Xitoy-koreys qo'shinlari Pxenyanni ozod qilgan. Yapon qo'shinlari Seulga chekinishgan, lekin uni ham tez orada topshirib, koreys armiyasi va Iybyon otryadi ta'qibida janubga chekinishgan. Biroq **Xitoy armiyasi sarkardasi Li Ju-sun hujumni davom ettirishni istamay sulh tuzgan.** Bu davrda esa yaponlar janubda mustahkamlanib olishgan. Garchi, yapon qo'shinlari Koreya hududidan butkul chiqib ketmagan bo'lsa-da, Xitoy armiyasi mamlakatni tark etgan.

Tinchlik sulhi tuzilganiga qaramay, yaponlar janubda harbiy harakatlarni to'xtatmagan va qattiq janglardan so'ng **Chinju shahrini bosib olgan. Xitoy-yapon muzokaralari 4 yilga cho'zilgan.**

1596-yilga kelib yapon qo'shini Koreyani tark etgan. Biroq 1597-yilning bahorida 140 minglik yapon qo'shini Koreyaga yana bostirib kirgan. Yaponlar dengizdagi avvalgi mag'lubiyatni hisobga olgan holda metall qoplamalar bilan yasalgan katta kemalarda jang qilganlar. Ular Li Sun Sindan qutulish maqsadida o'zlarining ayg'oqchisi Yosir ko'magida koreys shtabida yapon flotining joylashgan o'rnini haqida yolg'on ma'lumotni tarqatgan. Li Sun Sin yapon flotini yo'q qilish haqida buyruq olgandan so'ng, pistirma uyushtirgan yaponlarning hiylasini tushungan va buyruqni bajarishdan bosh tortgan. Aynan buyruqni bajarishdan bo'yin tovlagani uchun u o'lim jazosiga hukm qilingan. Lekin mashhur qo'mondonning himoyasi uchun qilingan ko'plab murojaatlar natijasida afv etilib,

oddiy askarga aylantirilgan.

Koreys flotini Von Gyun boshqargan, unga Li Sun Sinning shuhrati tinchlik bermaganligi bois u ham mashhur qo'mondonni lavozimidan chetlatishga ko'maklashib yuborgan. Aynan ayg'oqchi **Yosir yana bir bora dushman kemalarining katta kechuvni suzib o'tganligi borasida yolg'on ma'lumotni tarqatgan**. Li Sun Sindan farqli ravishda **yangi bosh qo'mondon bunga ishongan va koreys floti tuzoqqa tushib, katta yo'qotishlarga uchragan**. Shundan keyingina Li Sun Sin avvalgi lavozimiga tiklangan, lekin uning qaramog'ida atiga 12 ta kema va 100 ga yaqin dengizchilar qolgan edi. Yangi kemalar va ularga ekipajni tayyorlash ma'lum vaqt talab qilgan. **1597-yil oktyabr oyida Li Sun Sin boshchiligidagi jangda dushmanning 330 ta kemasi bo'lishiga qaramay u g'alaba qozongan**.

Koreys hukumati avvalgi quruqlikdagi muvaffaqiyatsizliklardan o'ziga xulosa chiqargan. Yapon armiyasi bu gal yaxshi tayyorlangan koreys va Xitoy qo'shinlari (Xitoyning Min imperiyasi 140 ming askar va flot yuborgan)ni yenga olmagan. Aynan ular dushmanni janubga surib chiqargan. **1598-yil sentyabrda Toyotomi Xideyosi vafot etgan**. Natijada yapon qo'shinlari Koreyani tark eta boshlagan. Ikki tomon o'rtasidagi to'qnashuvning oxirgi nuqtasi **Noryanjin buxtasida bo'lgan**, bu yerda Koreys–Xitoy floti 500 kemadan iborat yapon flotiliyasini butkul mag'lub etgan. **Lekin aynan shu jangda Li Sun Sin ham vafot etgan**. Dushman taraflar o'rtasida o'zaro sulh tuzilgan. Yaponlar butkul Koreyani tark etishi bilan yetti yillik Imjin jangi yakuniga yetgan.

XVII asrning birinchi yarmida Koreyaga manchjurlar bosqini. **XVI asr oxirida Manchjuriyada Nurxachi boshchiligidagi chjurchjen qabilalari birlashgan**. 1616-yili ular **So'nggi Sin davlati tuzilganligini e'lon qilgan**. Mazkur davrdan boshlab chjurchjenlar manchjurlar deb atala boshlangan. **1618-yilda esa yangi tashkil etilgan mamlakat Min imperiyasiga qarshi urush boshlagan**.

Van Sonjo vafotidan keyin, 1608-yilda taxtga o'tirgan uning o'g'li Kvanxegun betaraflik siyosatini olib borib, urushayotgan har ikki tomonga chap berishga harakat qilgan. **Minlar 1619-yil Koreyaga qarshi harbiy harakatlarini boshlagan**. **Ularga 13 ming askar yordamga kelgan**. Shunga qaramasdan, ularga qarshilik ko'rsatmaslik haqida ko'rsatma berilib, mabodo manchjurlar taslim bo'lsa,

ularni asirga olishni rejalashtirgan edi, lekin Fuche uchun bo'lgan jangda Min qo'shinlari mag'lub etilgan.

Biroq, 1623-yil «g'arb» tarafdorlari guruhi tomonidan Kvanxegunning o'rniga taxtga van Injo (1623–1649) kelgan. G'arbliklarning tashqi siyosati Min tomonida bo'lgan. Manchjurlar orqasida Min davlati kabi ittifoqchisi bo'lgan mamlakat hududiga yurish boshlashga botinmagan. Shuning uchun 1627-yilning boshida ularning 30 minglik armiyasi Koreyaga bostirib kirgan. Van Injo saroy ahli bilan Kanxvado oroliga yashiringan. Mamlakat bo'ylab harakatlanayotgan manchjurlar xalq qarshiligiga duch kelgan. O'sha yilning bahorida mamlakatlar o'rtasida imzolangan «do'stlik» bitimiga ko'ra Koreya vassalga aylangan. Bu holat mamlakatda jiddiy noroziliklarga sabab bo'lgan.

1636-yil Nurxachining o'g'li Abaxay yangi Sin imperiyasi tuzilganligini e'lon qilgan va Koreyadan vassal sifatidagi tobelikni talab qilgan. Mamlakatda «g'arbliklar»ning tashqi siyosatiga qarshi noroziliklar kuchayib, van Injo ulardan ajralganliklarini e'lon qilgan va manchjurlar elchisini qabul qilishdan bosh tortgan. Shu yilning o'zida manchjurlarning 100 minglik qo'shini Koreyaga bostirib kirib, Seul egallanganidan so'ng ular van Injo yashiringan tog'dagi Namxan qal'asini qurshab olishgan. 1637-yilning boshida van taslim bo'lib, Sin davlatiga tobeligini tan olgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Yaponlar bilan bo'lgan Imjin urushi va manchjurlar bosqini Koreyani halokat yoqasiga olib kelgan. Ishlab chiqarish va iqtisodiyotda inqiroz ro'y bergan. Foydalaniladigan yer maydonlari 2/3 qismga qisqarganligi natijasida hosil miqdori ham kamayib ketgan. Xususan, 1670–1671-yillarda mamlakatda 1 mln.dan ziyod aholi ochlik natijasida qirilib ketgan. 1699, 1708, 1718-yillarda mamlakatda tarqalgan o'lat ham anchagina odamni o'limiga sabab bo'lgan.

Hokimiyatning zaifligi yerlarga o'zboshimchalik bilan egalik qilinishiga olib kelgan. Yerga shaxsiy egalik qilish o'sgan. Amaldorlarga in'om etilgan yerlar soliqlardan ozod qilingan. Mamlakat g'aznasini to'ldirish maqsadida hukumat zodagonlik unvonlari va quyi tabaqa lavozimlarini sota boshlagan. Shu tufayli saroy amaldorligiga o'tkaziladigan imtihonlargacha amaldorlarning nomlari ma'lum bo'lib ulgurgan. Ularni harbiy xizmatga ola boshlashgan. Shu bilan

birga konfutsiylikning tabaqalashuviga asoslangan jamiyat yemirila boshlagan.

Urushlar bo'lmaganligi tufayli iqtisodiyot, ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlari jonlangan. Hukumat yana «Dehqonchilikni rag'batlantirish» siyosatiga qaytgan. 1608-yilda turli xildagi to'lov-larning o'miga yagona soliq tizimi joriy etilgan. Soliqlar faqat yer egalariidan olina boshlagan. Mazkur holat dastlab Kyongi viloyatida joriy etilgan, ammo bundan manfaatdor bo'lmagan mansabdorlar va yer egalari norozilik bildira boshlagan. Mamlakatda foydalaniladigan yer maydonlarining kengayishi sug'orish tizimining takomillashuviga olib kelgan. An'anaviy madaniyatning bir bo'lagi sifatida mamlakatda jenshen yetishtirila boshlangan. Shuningdek, Yaponiya va Xitoydan tamaki, qalampir, qovoq, pomidor va batat yetishtirish o'zlashtirilgan. Paxta yetishtirish va bog'dorchilik rivojlana boshlagan.

Yersiz dehqonlar o'ziga xos «olovli maydon»ni tashkil qilib, tog'lardagi o'simliklarni yoqib, daraxtlarni kesib, o'rmonlarni o'zlashtirish bilan shug'ullanishgan.

Harbiy jihatdan qurollanishga alohida e'tibor berilgan. Zamonaviy o'qotar qurollar kamon va nayzalarni siqib chiqara boshlagan. To'p va fugaslar, shuningdek, bir vaqtning o'zida 50 ta miltiq o'rnatilgan (10 ta miltiqdan bir vaqtning o'zida o'q uzilgan) *xvachxa* («olovli arava») – arava tayyorlangan. Buni o'sha davrning birdaniga o'q uzadigan zamonaviy tizimi deyish mumkin edi. Shuningdek, «Toshbaqa-kema» va yengil kemalar yasala boshlangan.

Yaponlar bosqini natijasida bir qator bosmaxonalar vayron qilingan. Keyinchalik Yaponiyada kitob bosishning asosini tashkil etgan metallardan yasalgan harflar olib ketilgan bo'lsa-da, XVII asrning o'rtalariga kelib bir necha yuz minglab bosma belgilar ishlab chiqarilgan. Natijada kitoblar Imjin urushidan oldingi davrdagidan ko'proq nashr etila boshlagan.

Metallardan foydalanish nafaqat qo'shin uchun, balki urushgacha taraqqiy etmagan iqtisodiyotda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, kumush qazib olish rivojlangan. Qo'rg'oshin, oltin konlarini izlash, mis va temir qazib ochish ishlari yanada jadallashgan. Hukumat konchilik ishlariga e'tibor qarata boshlagan. Kon ishi bilan shug'ullanish odamlarning dehqonchilikdan chekinish xavfini paydo qilgan. Shuning uchun XVIII asr o'rtalarida ko'plab konchi

va qazuvchilar o'zlarining topgan metallarini yashirishgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi savdo-sotiqning jonlanishiga olib kelgan. Seul va Keson kabi shaharlarda yashovchilar dehqonchilikdan savdo-sotiq bilan shug'ullanishga o'tganlar. Savdogarlar qatlami shakllanib, mamlakat miqyosidagi savdo munosabatlarida keskin raqobat vujudga kelgan. Savdo aylanmasi yerlarga ham kirib kelgan. Savdogarlar Xitoy va Yaponiya bilan faol savdo aloqalarini olib bora boshlaganlar. Agar XVII asr o'rtalarida savdoda asosiy rolni davlat o'ynagan bo'lsa, endilikda, uning o'rnini xususiy tadbirkorlar va noqonuniy savdo aloqalari egallagan.

Savdo-sotiq munosabatlari o'sib borishi pul muomalasi rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ommaviy ravishda pul zarb qilina boshlagan. Ma'lum miqdordagi mablag' evaziga yollanib ishlovchilarning paydo bo'lishi esa sudxo'rlikning kengayishiga olib kelgan.

Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi hamda yirik yer egaligining o'sib borishi, dehqonlar va mayda ishlab chiqaruvchilarning ommaviy noroziligini keltirib chiqargan. Shuningdek, ular Manchjuriyaning qator shaharlariga ko'chib ketib, u yerda yollanma mehnat bilan shug'ullana boshlashgan.

Koreyaga Yevropa yutuqlari kirib kela boshlagan. Koreyslar Yevropa xaritasi bilan tanishib, kemalar qatnovi, to'p va miltiqlar, astronomiyaga oid kitoblarni, soatlar, kuzatish durbinlari, katolik mazhabiga oid yangi ma'lumotlarni o'rgandilar. Yashirin holda cherkovlar tashkil qilinib, unda oddiy aholiga barchaning Xudo oldida tengligi g'oyasi ilgari surila boshlangan. Shuning uchun mamlakat konfutsiylik mamlakati deb e'lon qilinib, bu borada xorijliklar bilan aloqalar olib borish taqiqlangan.

Ijtimoiy-siyosiy sohalardagi yangi yo'nalishlar. Turli taqiqlarga qaramasdan, muxolifat ham o'sib borgan. Ushbu davrda Xo Gyun (1569–1618)ning «Xon Gil Don haqida qissa» nomli asari paydo bo'lgan. Unda xuddi Robin Gudni esga soladigan oliyjanob qaroqchi qahramon Yuldo ertaklar oroliga tushib qoladi va u yerda o'z podsholigiga asos soladi. Bu davrda hattoki neokonfutsiychilik ichida ham g'alayonlar bo'lib turgan.

Chjusianlikka qarshi yangi oqimlar paydo bo'lgan. Masalan, Xan ta'limi maktabi vakillari Yun Xyu (1617–1680) va Rak Se Dan (1629–1703)lar rad etib bo'lmaydigan nufuzli Chju Sini mumtoz

matnlar izohlovchisi deb, uning matnlari to'g'ridan-to'g'ri Xan sulolasi davriga borib taqalishi haqida fikr bildirishgan. O'zining bu fikrdan iborat qarashlari orqali Yun Xyu joniga qasd qilgan bo'lsa, Rak Se Dan esa Chju Siga qilgan tuhmati uchun uning asarlari yoqilib, o'zi surgun qilingan.

Chjusianlikka ancha katta zarba bergan «aniq ilm» tarafdori – *Suxak* maktabidir. «Haqiqatga yetish uchun aniq dalillar asosida harakat» nomli shiorga ega bo'lgan sirxakchilar sxolastik chjusianlik va boshqa xildagi bid'atlarga, irim-sirimlarga ishonishni tanqid qilishadi. Tanqidiy tahlil asosida mamlakatning bu davrdagi g'oyasi uning zamonaviylashtirish bo'lgan.

«Suxak» g'oyasining yetakchilari Li Su Gvan (1563–1627), Xan Rek Kyom (1552–1615) va Kim Yuk (1580–1658)lar edi. Li Su Gvan Koreyaning xalqaro aloqalari tarafdori bo'lgan bo'lsa, Kim Yuk Xan Rek Kyom bilan birgalikda guruch solig'i haqidagi qonunning mualliflari hisoblanadi.

Lyu Xen Von (Pange, 1622–1673) esa *Sirxak* maktabining asoschisidir. Uning fikricha, barcha narsada isbot va dalillarga asoslanish lozim. Mazkur talablarni mistika va din qondira olmaydi. Chjusianlardan farqli ravishda ular jamiyatdagi muammolar yechimini o'z urug'doshlari manfaati yo'lida hal qilishga uringanlar. Lyu Xen Von boshchiligidagi harakat uchun ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish masalasi turar edi. Pange islohotlari loyihasi quyidagilarni o'z ichiga olgan: 1) yerlarni umumlashtirish va ularni shomonlar, buddaviy rohiblar va geyshalardan istisno holda teng taqsimlash; 2) «kvano» imtihonlar almashinuvi tizimini tavsiyalar asosida yo'lga qo'yish; 3) barcha uchun bir xil sharoit yaratish, tabaqalarga bo'lish va qulchilikni tugatish; 4) hukumat tuzilishi borasidagi islohotlarni o'tkazish va qirollik oilasi budjetini qayd etib borish; 5) hayotga fan yutuqlarini joriy etish; 6) inson huquqlarini hurmat qilish, jazolarni otkmlashtirish, qiynoqlarni taqiqlash; 7) tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish (erkin savdo-sotiq, soliqlarni to'lash va e'tirozlar uchun mablag'lar); 8) yagona soliq tizimiga kirish va h.k.

Mavzuga doir savollar:

1. Choson davlati kimning davrida gullab-yashnagan?
2. Tabaqalanish tizimi qanday oqibatlarga olib kelgan?
3. Nima sababdan neokonfutsiylik davlat mafkurasi vazifasini bajara boshlagan?
4. Ilmiy-texnik va madaniy sohada qanday yutuqlarga erishilgan?
5. Imjin urushi qanday natija bilan tugagan?
6. XVII asrning birinchi yarmida manchjurlarning Koreyaga bosqini qanday oqibatlarga olib kelgan?
7. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning holati qay darajada bo'lgan?
8. Ijtimoiy-siyosiy sohalarda qanday yo'nalishlar paydo bo'lgan?

XXI BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA ERON

XVI asrning boshlarida Eron. XVI asr boshlariga kelib Eron bir qancha mustaqil feodal yerlariga bo'linib ketgan edi. Eronning Sharqiy qismi, poytaxti Hirotda bo'lgan Xuroson temuriylar hokimiyati ostida bo'lgan. Sharqiy qismida bir-biri bilan dushman bo'lgan turli turkman sulolalari hukmronlik qilishgan. Markaziy, G'arbiy va Janubiy Eronning ayrim viloyatlari aslida mustaqil davlatlar bo'lib, mahalliy xonlar tomonidan boshqarilgan, xonlarning bir qismi ko'chmanchi qabilalarning boshliqlari bo'lgan. Eronning G'arbiy qismida hukmronlik qiluvchi ana shunday xonlar o'n ikkitaga yetgan edi. Shimoli-G'arbiy Eron va Janubiy Ozarbayjon savdo-sanoat jihatidan eng rivojlangan viloyatlar hisoblangan. Tabriz, Xamadon va bu o'lkaning boshqa bir qancha shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Ularda ip-gazlama va jun gazlama, gilam, ipaklik va charm buyumlar ishlab chiqarish to'plangan. Eronning ana shu shimoliy qismidan muhim karvon yo'llari o'tgan. Bu yo'llardan O'rta Osiyo ipagi Yevropaga yetkazib berilgan. Eron Kavkazorti bilan katta savdo munosabatlari olib borgan bo'lib, unda eronlik va arman savdogarlari ham bab-baravar keng ko'lamda ishtirok etishgan. O'rta va janubiy Eronning qolgan dehqonchilik-bog'dorchilik hamda tog'lik yoki tog' yaylovlari joylashgan tumanlariga nisbatan biz tilga olib o'tgan shimoliy viloyatlar o'z iqtisodiy hayotining jonlanganligi bilan ajralib turgan. Shu sababli ular g'oyat katta, ammo o'z iqtisodiy va ijtimoiy darajasi jihatidan bir-biriga o'xshamaydigan, xilma-xil bo'lgan mamlakatni siyosiy jihatdan yangitdan birlashtirish uchun muayyan darajada asos bo'la olgan. Eronning ko'proq rivojlangan shimoliy qismida sanoat va dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholi orasida turkman xonlariga qarshi kayfiyat sezilib turgan. Bu xonlar o'zaro urushlari bilan, shuningdek, muttasil talonchiliklari bilan mamlakatning xo'jalik va ijtimoiy hayoti rivojlanishiga xalaqit bergan. XVI asrning boshlarida Usmoniylarning tajovuzi xavfining ortib borayotganligi ham yangitdan siyosiy birlashishga salbiy ta'sir etgan.

Safaviylarning yuksalishi va o'ziga xos xususiyatlari. Yangi sulola o'z nomini shayx Sayfiddindan olgan (1254–1334). Bu shayx

XVI asrda Ozarbayjonda «Safaviyyo» nomli musulmonlar jamoasiga boshchilik qilgan. Safaviylar xalfalar davridayoq Eronda keng tarqalgan shia mazhabiga mansub boʻlganlar. XV asrning ikkinchi yarmida ardabil shayxlari shu qadar mustahkamlanib olganlarki, ular Ozarbayjonda mahalliy turkman xonlariga qarshi hokimiyat uchun kurash boshlaganlar. Safaviylar oʻz atroflariga Eronning oʻrta va mayda oʻtroq feodallarini jipslashtirib, savdogarlardan madad olib hamda dehqon va hunarmandlarning noroziligidan foydalanib, ayni vaqtda ayrim turk koʻchmanchi qabilalarini oʻz tomonlariga ogʻdirishga muvaffaq boʻlganlar va ular orasidan oʻz otliq askarlari safiga chavandozlarni yollaganlar. 1499-yilda Ardabilning hamda boʻysundirilgan qoʻshni turk qabilalarining shayxi boʻlgan Ismoil Safaviy XVI asrning boshlaridayoq butun Janubiy Ozaobayjonnig egallab, 1502-yilda Tabriz shahrini ishgʻol qilgan. Shu davrdan boshlab Ismoil Eron shohi sifatidad 1502-yildan 1524-yilgacha hukmronlik qilgan. Tabriz safaviylar Eronining poytaxti boʻlgan. Armaniston va Kurdiston, soʻngra Bagʻdod va Mesopotamiya (hoz. Iroq) boʻysundirilgan. Ismoil davrida yuz yildan koʻproq davom etgan Eron-Turkiya urushi boshlanib ketgan. Bu urush XVII asr 30-yillarining oxirigacha davom etgan. Sulton Salim I tomonidan Kavkazorti, Kurdiston va Mesopotamiyaga daʼvogarlik qilgan. Turklarning 1514-yilgi harbiy yurishi avvaliga ular uchun muvaffaqiyatli boʻlgan. Turk qoʻshinlari safaviylar Eronining poytaxti Tabrizni egallaganlar. Ammo oziq-ovqatning yetishmasligi hamda yanicharlar orasidagi gʻalayon tufayli ular Eron viloyatlarini tashlab chiqishga majbur boʻlishgan. Bu ikki musulmon davlati oʻrtasidagi bu urush mafkuraviy ziddiyat ostida olib borilgan. Eronlar shia mazhabiga, turklar sunniylar mazhabiga mansub boʻlganlar. Oʻz hukmronligining oxirida Ismoil Gruzianini, soʻngra butun Shirvon xonligini (Shimoliy Ozarbayjonda) boʻysundirgan. Shu tarzda Ozarbayjon va faqat forslardan tashqari turli turk, tojik, kurd, arab va boshqa elatlarni oʻz tarkibiga birlashtirgan, markazi Ozarbayjonda boʻlgan katta davlat barpo etilgan. Safaviylar davlati aholisining uchdan bir qismiga yaqinini koʻchmanchilar tashkil qilgan. Ozarbayjon, turkman va fors qabilalarining juda koʻpchiligida patriarxal-feodal munosabatlar hukmronlik qilar, ayrim qabilalar esa qabilachilik tuzumidan endigina ilk feodal munosabatlariga

o'tayotgan edi. Safaviylarning ancha keng «yamoq yostiqlar», ya'ni o'z etnik tarkibi jihatidan juda xilma-xil bo'lgan davlati yuqorida aytib o'tilganidek, Eronga turklar tajovuzi tahdid qilib turgan vaziyatda vujudga kelgan. Keyinchalik bu feodal mustabid davlatning o'zi nihoyatda tajovuzkor davlatga aylanib, Kavkazorti va O'rta Osiyo xalqlarini o'z hokimiyatiga bo'ysundirishga intila boshlagan.

Til, din, turmush va tarixiy an'analar jihatidan Eronga yot bo'lgan bir qancha xalqlar safaviylarning og'ir milliy zulmini o'z boshlaridan kechirdilar.

Abbos I ning harbiy yurishlari. Safaviylar davlati shoh Abbas I davrida (1587–1629) kuch-qudratga to'lgan. Abbas I ning hukmdorlik davri, markaziy shoh davlatining eng yirik mustaqil feodallarni tugatish hisobiga so'zsiz o'sishi bilan xarakterlanadi. Bu feodallar bir vaqtlar yangi sulolaning yuksalishiga yordam bergan Ozarbayjondagi turkman qabilalarining boshliqlaridan tashkil topgan edi. Safaviylar hokimiyat tepasiga kelgan davrdan to' Abbas I podsholik qilayotgan paytgacha o'tgan sakson yillik davr mobaynida ular ko'chmanchi qabila zodagonlarining eng yirik vakillaridan qudratli o'troq feodal yer egalariga aylanib, shohning oliy hokimiyati ostida amalda ko'p jihatdan mustaqil bo'lgan juda katta hududlarni nazorat ostida saqlaganlar. Ana shu mustaqil xonlarga qarshi kurash – Abbas I hukmronlik qilgan dastlabki davrning katta qismini tashkil etgan. O'ndan ortiq xon davlatlari Abbas I tomonidan tamomila tugatilib, ko'pgina xonlar qatl etilgan, ularning yer va mol-mulklari esa musodara qilingan. Natijada shohning obro'si ancha oshib, markaziy hokimiyat ahamiyatining o'sishidagi sabablardan biri bo'lib xizmat qilgan. Abbas I davriga kelib safaviylar Eronning o'z feodallari va Eron savdogarlari bilan juda yaqinlashib ketganlar. Bu narsa poytaxtning shimoldan janubga Tabrizdan Isfaxon shahriga ko'chirilishida o'z ifodasini topgan.

Abbos I harbiy ishga katta e'tibor bergan. U Turkiya bilan hal qiluvchi urushga tayyorgarlik ko'rib, 12 ming kishilik piyoda va g'ulomlar deb ataluvchi 10 ming kishilik otliqlardan iborat muntazam armiya barpo etgan. G'ulomlar o'z tuzilishlari jihatdan turk yanicharlariga o'xshagan. Chunki, ular ham xristian aholidan, asosan Kavkazortining gruzin va arman aholisidan zo'rlik bilan tortib olingan bolalardan tashkil topgan edi. Ushbu bolalar musulmonga

aylantirilar va Eronda o'ta mutaassib ruhda tarbiyalanganlar. Abbos ingliz muhandislari yordami bilan o'z armiyasida o'q otuvchi qurol va to'plarni joriy qilgan. Muntazam doimiy qismlar tashkil qilish bilan bir vaqtda Abbos I feodal lashkarlaridan ham foydalangan. Bu lashkarlar turli qabilalar va ayniqsa ko'chmanchi qabilalar orasidan to'planib, shohlar qo'shinida eng asosiy rolni o'ynagan. Umuman olganda Abbos I ning 120 ming kishidan iborat juda katta armiyasi bo'lib, shoh ana shu armiyasi bilan 1602-yilda turk sultoniga qarshi urush boshlagan.

Turkiya–Eron urushi o'n yil davom etib, 1612-yilgi sulhga binoan, Eron XVI asr 90-yillarining boshlarida Turkiyaga berishga majbur bo'lgan deyarli barcha viloyatlarini o'ziga qaytarib olgan. Bu yerlar tarkibiga Gruziya, Armaniston, Shirvon, Ozarbayjonning Janubiy viloyatlari, Kurdiston, Bag'dod va Mesopotamiya kirar edi. Turkiya sultoni va Eron shohi o'rtasidagi navbatdagi kurash Eronning g'alabasi bilan tugagan. Natijada yuqorida sanab o'tilgan ko'pchilik mamlakatlar aholisining ahvoli yaxshilanishi o'rniga yomonlashgan. Xususan, Abbos I ning alohida chegara dasht zonalarini (turklar bilan yangi urush ehtimoliga qarshi) yaratish sohasidagi tadbirlari Gruziya bilan Armaniston aholisi uchun ayniqsa og'ir bo'lgan. Buning natijasida juda ko'plab aholi o'zi tug'ilib o'sgan joylarni tashlab ketishga majbur bo'lgan.

Turkiya bilan urush tamom bo'lgandan so'ng ko'p o'tmasdan Abbos I uning davriga kelib yana ajralib ketgan Xurosonni, shuningdek Afg'onistonning kattagina qismini o'z yerlariga qo'shib olgan.

1622-yilda Abbos I qo'shinlari Fors qo'ltig'idagi Ormuz portidan portugaliyaliklarni haydab chiqargan. Eron qo'shinlarining Ormuzni qo'lga olish jarayoni ingliz flotining harakatlari bilan qo'shib olib borilgan. Ammo inglizlarning yordami beg'araz emas edi. Abbos I Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasiga o'z davlatida savdo qilish huquqini berishga majbur bo'lgan. Isfaxonda va boshqa shaharlarda ingliz idoralari va savdo uylari ochilgan. Keyinchalik hukumat inglizlar bilan raqobat qiluvchi Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasiga ham ko'pgina savdo imtiyozlarini bergan.

Eronning iqtisodiy taraqqiyoti. XVI asrning oxiri – XVII asrning boshlari Eronning iqtisodiy jihatdan yuksalgan davri

bo'lgan. Safaviylarning muayyan vaqt davomida mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlaganligi ijobiy oqibatlariga olib kelgan. Eron Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar: Portugaliya, Gollandiya, Angliya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Hindi-Xitoy bilan keng ko'lamda tashqi savdo aloqalari o'rnatgan. Abbas I savdo aloqalarni kengaytirish maqsadida Rossiya, Gollandiya, Ispaniya, German imperatori va Rim papasi huzuriga ko'plab elchilarni yuborib turgan. Isfaxonning o'zida Yevropa va Osiyoning turli mamlakatlaridan kelgan elchilar qabul qilingan. Shohning o'zi tashqi savdoda faol qatnashib, ipak, sovun, gilam, tuz kabi mahsulotlarni o'z monopoliyasi deb e'lon qilgan. Abbas I davrida ichki savdoni ham kengaytirish yuzasidan tadbirlar ko'rilgan. Shohning farmoyishiga binoan, eski karvon yo'llari ta'mirlanib, yangilari ochilgan, karvonsaroylar qurilgan, sayyohlarni suv bilan ta'minlash choralari ko'rilgan. Yo'llar qaroqchilar va ko'chmanchi qabilalarning hujumlaridan qo'riqlab turilgan. Isfaxonning o'zi Abbas I davrida 500 ming aholi yashaydigan juda katta shaharga aylangan. Shoh poytaxtini bir qancha muhtasham saroylar, masjidlar, g'isht ko'priklar kabi yirik inshootlar bezab turgan. Isfaxon, Tabriz va boshqa shaharlarning minglab hunarmandlari tashqi va ichki bozorda sotiladigan yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarganlar. Eron ustalari tomonidan tayyorlagan ipak, jun va ip gazlamalar, gilam, charm va kulolchilik va metall buyumlar o'sha davrda Erondan tashqarida ayniqsa mashhur bo'lib ketgan. Hunarmandlar alohida sexlarga uyushib, ularni saylab qo'yilgan oqsoqollar boshqargan. Shohga tegishli maxsus yirik ustaxonalar («korxonalar») bo'lib, ularda 150 va undan ko'proq hunarmand ishchilar mehnat qilishgan. Bular qisman bo'sh va qisman band bo'lgan mehnatdan qo'shib foydalaniladigan manufaktura ko'rinishidagi o'ziga xos yirik korxonalar bo'lgan.

Safaviylar davlatidagi ichki ziddiyatlar. Hududning kengayishida, shuningdek, savdo-sanoat ishlarining g'oyat yuksalishida namoyon bo'lgan safaviylar davlatining muvaffaqiyatlari sinfiy zulmning kuchayishiga va sinfiy kurashning g'oyat keskinlashuviga ham olib kelgan. XVI–XVII asrlarda Eronda xalq ommasini uchun juda og'ir bo'lgan shakldagi feodal tuzumi hukmronlik qilgan. Mamlakatda har xil feodallar: xonlar, amirlar, beklar, shuningdek,

shia musulmon ruhoniylarining juda ko'payib ketganligi mehnatkash aholidan juda katta mablag' berishni talab qilgan. Markazlashtirilgan safaviylar davlatining g'oyat ko'p markaziy va mahalliy amaldorlari, ulkan doimiy qo'shiniga ko'p mablag' ajratilgan edi. Shohning harami, shoh tansoqchilari, saroydagi minglarcha xizmatkorlar hamda boshqa ko'plab oqsochlar va kanizaklarga ega bo'lgan shoh saroyi juda katta va mutlaqo unumsiz xarajatlarni talab qilgan. Shoh va uning o'g'illariga tegishli saroylardagi zebu ziyinatga xonlar, amirlar va beklar taqlid qilishar edi. Eron savdogarlari tashqi va ichki savdo tufayli katta boylik orttirgan edilar. Ammo hunarmandlar o'z mehnatlari evaziga arzimagan ish haqi olganlar. Ular o'z mahsulotlarining bir qismini shoh vakillariga mutlaqo tekinga yoki juda arzon bahoga topshirganlar.

Dehqonlardan yoki bog'dorlardan juda katta yer solig'i olingan. Shoh xonadoniga qarashli yerlar tarkibiga kiruvchi chek yerda yoki chek yeri tiul yoki mulk deb ataladigan yerning bir qismi bo'lishidan yoki dehqon vaqf yerlarining bir qismiga ega bo'lishidan qat'iy nazar – ishlab chiqaruvchi dehqon yerga biriktirib qo'yilgan bo'lsa, hamma joyda o'z hosilining deyarli hammasini yer egasiga topshirishi kerak bo'lgan. Ishlab chiqaruvchining o'zida esa yalpi hosilning ko'pi bilan beshdan bir yoki to'rttdan bir qismi qolgan. Dehqon yer, suv va agar unda yetarli miqdorda ot-ulov bo'lmasa ish hayvoni uchun ham haq to'laganlar. Chek yerlariga ega bo'lgan jamoa dehqonlardan tashqari safaviylar davrida ko'plab yersiz dehqonlar bo'lib, ular bir parcha yerni korandalik sharti bilan ijaraga olganlar. Bunday hollarda ijaraga yer olgan kishida mahsulotning yanada kamroq qismi qolgan. Eronning ayrim tumanlarida XVI– XVII asrlarda ham o'z yeriga ega bo'lgan dehqonlarning bir qismi saqlanib qolgan. Ammo ularning yerlarini feodallar bosib olishi yoki boyib ketgan savdogarlar va sudxo'rlar tomonidan sotib olinishi natijasida tez kamayib borgan. Ocharchiliklar, yuqumli kasalliklarning tarqalishi natijasida butun-butun dehqon qishloqlarining qirilib ketishi safaviylar qishlog'idagi tez-tez bo'lib turadigan oddiy voqea edi.

Shuni aytish kerakki, bu vaqtga kelib ko'chmanchi qabilalar orasidagi tabaqalashuv natijasida o'n minglarcha chorva mollariga ega bo'lgan, urush natijasida ko'plab o'lja olgan va shohning qimmatbaho sovg'alarini olib turgan boy ko'chmanchi zodagonlar

bilan bir qatorda chorva mollari tez-tez qirilib turadigan, ocharchilikka va hatto ochlikdan o'lishga mahkum etilgan oddiy ko'chmanchi qo'yboqarlar juda og'ir hayot kechirishgan. Bularning ustiga safaviylar davrida bo'ysundirilgan viloyatlarda hukm surgan og'ir milliy zulm mazlum xalqlarning o'z mustaqilliklarini qayta tiklashi uchun doimiy ravishda intilganlar. Xususan, Gruziya va Armaniston xalqi safaviylar hukmronlik qilgan butun davr mobaynida shoh hukumatiga qarshi tinimsiz partizanlik kurashini olib borganlar.

Eronning o'zida feodallar va shohning zulmiga qarshi qaratilgan ichki harakatlar orasida 1629-yilgi qo'zg'olon alohida ajralib turgan. Bu qo'zg'olon Eronning shimoli-sharqidagi G'ilonida, Lixijon va Resht shaharlari tumanlarida ro'y bergan. Bu tumanlar ipakchilikning yirik markazlari bo'lgan. Shoh amaldorlarining pillakor dehqonlarga nisbatan zulmlari va tamagirliklari ana shu qo'zg'olonlarga sabab bo'lgan. Qo'zg'olonida dehqonlar, hunarmandlar, shahar kambag'allari faol ishtirok etishgan. Qo'zg'olonchilar shohning ko'pgina amaldorlarini o'ldirib, turli zodagonlarning saroylari va mulklarini bosib olganlar. Markazlashtirish siyosatidan norozi bo'lgan mahalliy feodallarning bir qismi ham harakatga qo'shilgan. Qo'zg'olonchilar Resht shahrida kambag'allashib qolgan mahalliy bek xonadoni ajdodlaridan biri boshchiligida o'z hukumatlarini tuzganlar. Bu kishi Odilshoh (ya'ni «adolatli shoh») nomini olgan. Shohga tegishli ipak omborlarini bosib olgan qo'zg'olonchilar ipak zaxiralarini o'zaro bo'lishib olishgan. Qo'zg'olon ommaviy tus olgan. Ammo dastlab harakatga qo'shilgan mahalliy feodallar tezda undan yiroqlashganlar. Abbas I ning vorisi yangi shoh Safiy I G'iloniga katta qo'shin yuborgan. Odilshoh va qo'zg'olonning boshqa rahbarlari qo'lga olinib qatl etilgan. Aholiga jazo tariqasida juda katta to'lov solingan. Safaviylar davlatining tanazzuli Safaviylarning juda ko'p qabilalaridan to'plangan davlati o'zining ulkan chegaralarini uzoq saqlab qola olmagan. Chekkalardagi ko'pgina yerlar Abbas I davrida faqat harbiy kuch yordamidagina saqlab turilgan. Feodal Eronida ichki ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi shoh hukumatini chekka o'lkalarga e'tibor berishga majbur qilgan. Ayni vaqtda O'rta Sharqda Eron uchun xalqaro ahvol murakkablashib borgan. Usmoniylar davlati Kavkazorti va Mesopotamiya yerlarini o'z hokimiyati ostiga qaytarish maqsadida o'ch olishga intilishgan. Shoh Safiy I

davridayoq (1629–1642) Eron oʻz yerlarining kattagina qismidan mahrum boʻlgan. Gʻarbda turklar oʻz hujumlarini qayta boshlab bir qancha viloyatlarni egallab olganlar. 1639-yilda Eron hukumati butun Mesopotamiyaning Turkiyaga oʻtganligini rasman tan olgan. Armanistonning bir qismi – Turkiya yoki Gʻarbiy Armaniston deb nomalanuvchi qismi ham Turkiya qoʻliga oʻtgan. Sharqda Eronga qarshi oʻzbek xonlari urush boshlaganlar. Afgʻoniston safaviylar hokimiyatidan tamomila ozod boʻlgan. XVII asrning ikkinchi yarmida Eronning tashqi savdosi sezilarli darajada qisqara boshlagan. Ayni vaqtda mamlakatda hukmron feodal zodagonlari ichidagi turli guruhlar oʻrtasida, xususan shoh mahramlari boshchiligidagi saroy zodagonlari bilan shia ruhoniylarining yetakchilari oʻrtasidagi munosabatlar keskinlashgan. Ular bir-biri bilan raqobat qilayotgan feodal toʻdalarining itoatkor qoʻgʻirchoqlariga aylanib qolgan soʻnggi safaviy hukmdorlari bilan deyarli hisoblashmay qoʻyishgan. Hokimiyat uchun oʻzaro kurashlar avj olgan edi.

Mavzuga doir savollar:

1. «Safaviy» atamasi qanday maʼnoni bildiradi?
2. Safaviylar sulolasi davrida xalq hayotida qanday oʻzgarishlar boʻlgan?
3. Safaviy «gʻulom»lari va Usmoniy «yanichar»lari orasida qanday oʻxshashliklar bor?
4. Shoh Abbos I muvaffaqiyatlarining siri nimada edi?
5. Safaviylar va Usmoniylar oʻrtasidagi urushlarning asosiy omillari nima boʻlgan?

XV asr oxiri – XVI asrda Usmoniylar imperiyasining kengayishi. Turkiya imperiyasi 1453-yilda Konstantinopol shahrini bosib olgandan keyin yana kengaya boshlagan. Muhammad II 1450–60-yillarda Bolqon yarim orolida Dunay bo'yidagi Serbiya, Bosniya, Gersegoviniya va Albaniyani ishg'ol qilgan. Bolqon yarim oroli bilan qo'shni bo'lgan Valaxiya vassal yoki qaram qilib qo'yilgan. XV asrning 70-yillari o'rtalarida turklar Qrim va Tanu (Azov) shahrini bosib olganlar. Taxminan shu vaqtlarda turklar Kichik Osiyoda Trapezund shahrini, deyarli butun Anatoliyani to'g'riqat daryosigacha istilo qilishgan edi. Ammo Muhammad II ikki marta katta muvaffaqiyatsizlikka ham uchragan. U Belgradni ishg'ol qila olmagan, turklar uni 1456-yilda qamal qilgan bo'lsalarda, maqsadlariga erisha olmaganlar. Shuningdek, 1480-yilda Rodos oroliga qilingan qamal ham muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Muhammad II ning nabirasi Salim I zamonida (1512–1520) turklarning istilolari qaytadan boshlangan. Salim I Eronga qarshi qilgan g'olibona harbiy yurishlarida Kavkazorti mamlakatlaridan Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyaning bir qismini, Dog'iston va Kurdistonni ham istilo qilgan. So'ngra Salim I Suriya bilan Misrni bosib olib, butun islom dunyosining boshlig'i sifatida o'ziga xalifa unvonini olgan. Krit, Kipr va O'rta dengizdagi boshqa yerlarini o'z qo'lida saqlab qolish uchun Venetsiya Turkiya sultoniga har yili katta xiroj to'lab turishga majbur bo'lgan.

Sulaymon I ning harbiy yurishlari. **Sulton Sulaymon I Qonuniy davrida (1520–1566)** Usmoniylar imperiyasi g'oyat katta qudratga erishgan edi. Sulaymon I podsholik qila boshlashi bilan oq **Belgrad va Rodos bosib olgan.** Shundan keyin u **1526-yilda Moxach yonida katta g'alaba qozonib, bu yerda chex va vengerlarning birlashgan armiyasini mag'lubiyatga uchratgan.** Vengeriyaning kattagina qismi Turkiyaga tobe bo'lgan. Valaxiya bilan Moldaviya har yili xiroj to'laydigan, mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum etilgan vassal knyazliklarga aylantirilgan.

1529-yilda Sulaymon I Venani qamal qilgan bo'lsa-da, uni egallay olmagan. Eronga qarshi boshlanib ketgan urushda Sulaymon **Bag'dod bilan birga Mesopotamiyani ham istilo qilgan.** Shu bilan bir vaqtda

turklar **Shimoliy Afrika bo'ylab g'arbga tomon siljib borganlar**. Ular **Tripoli bilan Jazoirni ham ishg'ol qilishgan**. Sulaymon I zamonida turklar butun **Arabistonni zabt etganlar**. Uch qit'ada joylashgan XVI asr Usmoniylar imperiyasi ilgari Vizantiya imperiyasi bilan Arab xalifaligiga qarashli bo'lgan yerlarning barchasini o'z qo'l ostida birlashtirgan. **O'rta dengizning kattagina qismi, Qizil dengiz, Fors qo'ltig'i ham sulton qo'liga o'tgan**. Sulton har xil hind rojalarining portugal mustamlakachilarga qarshi olib borgan kurashlariga xomiylik qilgan.

Sulaymon I davrida Turkiya Yevropa siyosatida katta ahamiyat kasb etgan. Fransuz qiroli **Fransisk I Gabsburglarga qarshi Sulaymon bilan rasmiy suratda ittifoq tuzgan**. **1529-yilda Sulaymon I ning Avstriyaga qilgan yurishi Gabsburglarning Valuaga qarshi olib borgan «katta urush»ning bir halqasi bo'lgan**. **Sulaymon I xorijlik savdogarlarga imtiyozli savdo yorliqlari bera boshlagan birinchi sulton edi**. **1535-yilda u fransuz savdogarlariga turklarga qarashli suv yo'llarida bemaol qatnash**, Turkiyaning hamma portlarida, ozgina (5%) boj to'lash sharti bilan bemaol savdo qilish huquqini bergan.

Sulaymon I ning ichki siyosati. Sulaymon I o'zining qonunlar to'plami — **«Qonunnomai Sulaymoniy»ni meros sifatida qoldirgan**. Ushbu to'plam XVI asrda Turkiyaning ichki tuzilishi qanday bo'lganligi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Turk sultonlari istilo qilgan ulkan hududlarning ma'muriy jihatdan tuzilishi Sulaymon I vaqtida bir xil shaklga keltirilgan. **Butun imperiya 21 viloyatga bo'linib, ular o'z navbatida 250 sanjaqqa taqsimlangan**. Har bir viloyatning tepasida **«beylarbey»**, ya'ni gubernator turgan, **sanjaq boshlig'i esa «sanjaqbey» deb yuritilgan**. Yangi tashkil topgan harbiy feodal-imperiya harbiy sohaga katta e'tibor bergan. Sulaymon I turk qo'shinlarining «yanichar»lar deb atalgan imtiyozli qismini tartibga solgan maxsus dastur tuzgan. **Yanicharlarning soni 12 mingdan 20 mingga yetkazilgan**. Ular muntazam ravishda katta maosh olib turgan. **Yanicharlarga urushdan bo'sh vaqtlarida hunar va savdo bilan mashg'ul bo'lish uchun har xil imtiyozlar berilgan** bo'lsa-da, lekin bu narsa amalda ularni harbiy ishdan chalg'itib, jangovarlik qobiliyatlarining pasayishiga sabab bo'lgan. Ammo yanicharlar turk qo'shinining ozgina qismini tashkil qilgan xolos. **Turkiyaning**

asosiy harbiy kuchini feodallarning lashkari tashkil etgan. Har xil yer egalari, chunonchi, sultonning vassallari yirikroq yer egalari va beylar, ulardan maydaroq yer egalari bo'lgan timarroklar va sipohiyar sulton chaqirgan hamono yerlariga yarasha miqdordagi qurollangan dehqonlari bilan birgalikda yurishlarda ishtirok etish uchun yetib kelishlari lozim bo'lgan. Shu tariqa to'planadigan lashkarning soni 250 ming kishiga yetgan. Vassallarga beriladigan yer-mulklarni Sulaymon I ning shaxsan o'zi ulashgan va vafot etgan vassallarning merosxo'rlarini ham o'zi tasdiqlagan.

Sulaymon dehqonlarning feodal majburiyatlarini o'zi chiqargan qonunlarda belgilab berishga uringan. Turk dehqonlari davlatga soliq to'lash bilan birga o'z pomeschiklariga ham yer va suv haqi, imorat, chorva, tegirmon haqi va boshqa shu singari soliqlar to'lashlari lozim edi. Feodal o'z yeridan qochib ketgan dehqonni ma'lum muddat ichida qidirishga haqli bo'lgan. Mehnatkash aholidan ko'plab turdagi soliqlarni talab qilgan feodallashish jarayoni va Turkiyani markazlashtirishning kuchayishi munosabati bilan XVI asrda turk dehqonlarining ahvoli ancha yomonlashgan.

Bo'ysundirilgan aholining ahvoli. Turk dehqonlarining ahvoli qanchalik og'ir bo'lsa, istilo qilingan hududlardagi xristian diniga e'tiqod qiluvchi mahalliy aholining ahvoli undan ham og'ir bo'lgan. Serb, yunon, bolgar, valax (rumin) va boshqa riyolar (musulmon bo'lmaganlarning hammasi turk davlat tilida shunday nomlangan) musulmonlarga qaraganda davlatga ikki baravar ko'proq soliq to'lashga majbur edilar. Ular mol-mulkining dahlsizligi butunlay ta'minlanmagan edi. O'zlari ham doim turk ma'murlari va harbiylarining o'zboshimchaligidan va tahqirlashidan azob chekar edilar. Diniy odatlarning ijro qilinishiga ijozat berilar ekan, buning uchun xristian aholisidan yana qo'shimcha ravishda soliqlar olingan. Qarshi chiqqanlar jazolangan.

Bolqon yarim orolidagi xalqlar turklar istilosi natijasida qandaydir sun'iy bir to'siq bilan butun Yevropadan ajratilganidan turklar zulmi sharoitida juda sekin rivojlanganlar. Savdo-sotiq ishlari tor doirada va faqat mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda olib borilgan. Sanoat juda sekin rivojlangan. Bolqon yarim oroli xalqlari (juda ko'pchiligi slavyan xalqlari) boshiga g'oyat zo'r ofat bo'lib tushgan turklar istilosi natijasida bu xalqlar yuz yillar

mobaynida qishloq xo'jaligi texnikasi pastligicha qolavergan. Bir qator viloyatlarda natural xo'jalik hukmron bo'lgan, dehqonlarning qaramlik munosabatlari saqlanib qolgan, madaniyat turg'unlikka uchragan.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmidagi milliy-ozodlik harakati. Turklar tomonidan bo'ysundirilgan **Bolqon xalqlari turklar zulmiga** indamasdan bo'ysunavermaganlar. **XV–XVI** asr boshlarida Bolqon yarim orolidagi mamlakatlarning turklar tomonidan zabt etilgan davrdan boshlab keyingi asrlar mobaynida Bolqon yarim orolidagi mazlum millatlarning kurashi ularning butun tarixi davomida to'xtovsiz davom etgan. Juda katta armiya, ko'pdan-ko'p amaldorlar, turk istilochi feodallarining zulmini ag'darib tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan tobe aholi partizanlar urushini olib borgan. Ushbu urush aslida **XVI–XVII asrlarda** va undan keyingi davrlarda ham mustaqil davom etgan. Partizanlar mahalliy joylar sharoitidan foydalanib va dehqon jamoalari madadiga tayanib, yarim orolda turk hukmronligining asoslariga putur yetkazganlar. Istilochi turklar obro'sini tushirib, turk ma'muriyati va turk mahalliy feodallariga qarshi kurashganlar. **Partizanlar – bolgar va serblarda «gayduklar», yunonlarda «kleftlar», Dalmatsiyada «uskaklar» deb atalganlar.** Partizanlarning qahramonona kurashi Bolqondagi barcha xalqlarning turklar hukmronligi davridagi xalq qo'shiqlarida yaqqol aks etgan. Ammo partizanlik tarqoq va parokanda bo'lgan. Turkiya ma'murlari partizanlarning chiqishlariga qarshi kurashning o'zlariga xos terroristik usullarini qidirganlar. Har holda partizanlar Bolqon yarim orolidagi turklar hokimiyatini o'z kuchlari bilan tugata olmaganlar. **Turklar zulmiga qarshi mazlum xalqlar tomonidan olib borilgan kurashning yana bir ko'rinishi ayrim joylarda, ko'pincha yirik shaharlarda tez-tez fitna va qo'zg'olon ko'tarishga urinishlardan iborat bo'lgan. Odatda bu fitnalar va qo'zg'olonlar chetdan bo'ladigan madadga, ya'ni Yevropadagi biror davlatning madadiga bog'liq bo'lgan. Avstriya qo'shinlarining madadidan umidvor bo'lgan 1594-yilgi Banata serblarining qo'zg'oloni ana shunday eng dastlabki qo'zg'olon-fitnalardan biri edi. 1598-yilda Ikkinchi Bolqon saltanatining poytaxti Tirnovoda turklarga qarshi katta qo'zg'olon bo'lgan. Bu qo'zg'olonga Tirnovo mitropoliti**

Dionisiy va boshqa ayrim mashhur bo'lgar boyarlari boshchilik qilganlar. Qo'zg'olon qo'shni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni mo'ljallab ko'tarilgan. Ammo 1594-yilgi Banata qo'zg'oloni ham, 1598-yilgi Tirnovo qo'zg'oloni ham yetarli darajada tayyorlanmagan bo'lib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

XVII asrning boshlarida ayrim turk qo'shinlariga talafot yetkazgan serblar va chernogoriyaliklar (1603-yildagi Kris shahri tumanidagi serblar qo'zg'oloni, 1604-yilgi chernogoriyaliklar harakati) bir qator muvaffaqiyatlarni ham qo'lga kiritishgan.

Turklarga qarshi kurash jarayonida slavyan davlati, kuchayib borayotgan Rossiya o'z manfaatlarini ko'zlagan holda yordam berishi mumkin edi.

Usmoniyar imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi. Milliy zulm, mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanini va beqarorligini ko'rsatgan. Turkiya imperiyasining siyosiy tuzumi, idora qilish tizimining o'zi ham uning ziddiyatlar va ichidan zaifligini XVI asrdayoq namoyon etgan. Fuqarolarining butun hayot-mamotini o'z qo'lida tutib turgan sulton mustabid hokimiyati Sulaymon I davridayoq malika Roksolana (Anastasiya Lisovskaya) saroy fitnalarini uyushtirib, sultonning boshqa xotinlaridan bo'lgan shaxzodalarni qatl ettirib, taxtga o'z o'g'illari chiqishiga harakat qilgan. Oqibatda o'zining farzandlari taxt talashib, Salim I ukasini o'ldirib hokimiyatni egallagan. Ushbu jarayon keyinchalik avj olib, taxt vorislari saroydagi har xil feodal guruhlarining fitnachilik quroliga aylangan. Yangi sulton taxtga o'tirar ekan, toji-taxtga da'vo qiluvchi raqiblari qolmasligi uchun o'zining barcha aka-ukalarini qirib tashlar edi. Saroy hayotida fitna ustiga fitna avjiga chiqib ketar va odatda bu fitnalarda yanicharlar ham ishtirok etishgan.

Tinmay davom etgan urushlar juda katta xarajatlarni talab etgan. Juda ko'p haramxonalar, mahramlari, behisob xizmatkorlar, juda katta soqchi bo'linmalari bo'lgan sulton saroyiga ham anchagina mablag' sarflangan. Turkiya imperiyasidagi mamlakatlarda soliqlar hamisha ortib borar, ammo aholining ishlab chiqaruvchi kuchlari esa juda sekin rivojlangan. Turkiyadagi savdo va sanoat ishlari bilan turklarning o'zlari emas, balki sultondan imtiyozli yorliqlar olgan g'arbiy ajnabiylar (asosan fransuz savdogarlari, XVI asr oxirlaridan

boshlab ingliz savdogarlari ham) mashg'ul bo'lar yoki turklar istilosigacha sanoati taraqqiy etgan va xalqaro savdo-sotiq ishlarida qatnashgan, savdo ishlariga mohir bo'lgan **Yaqin Osiyo xalqlari – grek, arman va suriyaliklar shug'ullanishgan.**

Ko'proq urushlar bilan, aholini siqib, undan soliq to'latish bilan band bo'lgan turk hukumati savdo va sanoatning rivojlanishiga hamda qishloq xo'jaligining yuksalishiga mutlaqo yordam bermagan. Turklarning hukmron tabaqasi urushni yuz bergan mushkul ahvoldan qutulishning birdan-bir yo'li deb bilishgan. Ularning fikricha, yangi urushlar yangi xiroj va yangi soliqlar olinadigan yangi hududlarni ko'paytirib berishi lozim edi. Ammo Turkiyaning iqtisodiy jihatdan qoloqligi, uning ijtimoiy va siyosiy tuzumidagi ziddiyatlar zamon o'tishi bilan urushlarni uning o'zi uchun xavfli va natijasiz bir narsa qilib qo'ygan. Turklar XV va XVI asrning birinchi yarmida bir qancha g'alabalarga erishgandan keyin, XVI asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XVII asrda o'zlari mag'lubiyatlarga uchray boshlaganlar. Ushbu mag'lubiyatlar **XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Turkiya imperiyasi hududining anchagina torayib qolishiga sabab bo'lgan.**

Lepanto yonida turk flotining mag'lubiyati. Yevropaliklar bilan bo'lgan urushlarda turklar birinchi marta 1571-yilda Lepanto yonida katta mag'lubiyatga uchraganlar. Bu yerda turklarning juda katta flotini Ispaniya, Venetsiya va Rim papasining birlashgan floti tor-mor qilgan. Birlashgan flotning boshlig'i **Filipp II ning ukasi shahzoda Don-Xuan Avstriyskiy bo'lgan.** Bundan keyin Turkiya venetsiyaliklardan **Kipr orolini tortib olgan.** Ammo shunday bo'lsa ham, bu mag'lubiyat mamlakatning ichki ahvoriga qattiq ta'sir qilgan. **XVI asrning 70, 80 va 90-yillarida Turkiya keskin ijtimoiy-siyosiy inqirozni boshidan kechirgan.** Mamlakatda davlat soliqlarining ortishi va feodal to'lovlarining ko'paytirilishi munosabati bilan dehqonlarning bir necha qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. **1591-yili ko'pchilik viloyatlar sulton Murod III ga (1574–1595) qarshi bosh ko'targanlar.** Muhammad III podsholik qilgan davrda (1595–1603) doim xalq qo'zg'olonlari, sipohiyalar va yanicharlarning g'alayonlari bo'lib turgan. Pirovard natijada saroyda bo'lib o'tgan to'ntarish oqibatida sultonning o'zi ham o'ldirilgan.

Turklarning Sharqdagi talafotlari. XVII asr boshlarida Turkiya Eronga qarshi kurashda bir qator talafotlar ko'rgan. Eron shohi

Abbo, I Ozarbayjon, Armaniston, Sharqiy Gruziya, Kurdiston, jumhuridek, Mosul va Bagʻdod shaharlari bilan Mesopotamiyani boʻlib olgan 1619-yildagi Istanbul sulhiga binoan, Turk sultoni Kavkazotni va Mesopotamiyadagi deyarli barcha yerlarining qoʻldan ketganligini tan olishga majbur boʻlgan. Bu yerlarning bir qismi 1639-yilda qaytarib olingan. Ammo bunga Turkiyaning oʻzi kuchayganligi bilan emas, balki koʻproq Eronning zaiflashganligi sabab boʻlgan.

Rus-turk munosabatlari. Rossiya bilan Turkiya oʻrtasida birinchi marta toʻqnashuv XVI asrning ikkinchi yarmidayoq boʻlgan edi. Sulton hukumati Tanu – Azovni bosib olganidan keyin Astraxanni ham egallamoqchi boʻlgan. Sulton hukumati bu yerdan Kaspiy dengizi boʻylab Eronga qarshi qoʻshin tortib borishni moʻljallagan. Ammo 1568-yilda hujum qilib kelgan turklarning qanalgiga Astraxan bardosh bera olgan. Turklar katta talafotlar berib chekinishga majbur boʻlishgan.

Turklar bilan ruslar oʻrtasida ikkinchi jiddiy toʻqnashuv XVII asrning 30-yillari oxiri va 40-yillari boshida boʻlgan. Bu vaqtda Zaporozhe kazaklari Azovni (1637-yil) egallab, uni bir necha yilgacha oʻz qoʻllarida tutib turganlar. Kazaklar yordam soʻrab Moskva podshosiga murojaat qilganlar. Biroq, Moskva davlati moliyaviy inqirozni boshidan kechirayotgani va Polsha qiroli bilan ham kurash davom etayotganidan, turklarga qarshi katta urush boshlash rejasidan voz kechib turishga majbur boʻlgan. Podsho Mixail Fyodorovich 1643-yilda kazaklarga Azovni boʻshatishni buyurgan. Shunday boʻlsa-da, kazaklarning Qrim va Turkiyaga qarshi kurashi XVII asr oxirigacha davom etgan.

XVII asrning ikkinchi yarmida Turkiyaning Avstriya, Venetsiya va Rossiyaga qarshi olib borgan urushlarida magʻlubiyatga uchrashi Usmoniylar imperiyasining ichidan zaifligi va harbiy jihatdan qoʻlloqligini butun Yevropaga namoyon qilgan. Yevropa davlatlari orasidagi raqobat, ularning sulton bilan separat bitim tuzishga intilishlari tufayligina Turkiya oʻzining haqiqiy siyosiy qudratiga, mutlaqo mos kelmaydigan keng hududda uzoq vaqtlargacha hukmronlik qilgan. Yevropaning «buyuk davlatlari» (birinchi navbatda Angliya bilan Fransiya) Turkiya imperiyasining chirib ketgan rejimini tugatish va turklar zulmi ostida ezilib yotgan slavyan

xalqlari va Bolqon yarim oroli bilan Old Osiyodagi boshqa xalqlarni ozod qilish o'rniga, Turkiyani asoratga solishni, o'zlarining yarim mustamlakalariga va siyosatlarining quroliga aylantirishni nazarda tutib, iqtisodiy jihatdan qoloq, siyosiy jihatdan zaif Usmoniylar imperiyasini saqlab qolishni afzal ko'rganlar.

Mavzuga doir savollar:

1. Usmonililar davlatining tashkil topish sabablari?
2. Yanicharlar kimlar edi?
3. Turklarni kuchi nimada edi?
4. Qay tariqa turk sultonlari Islom olami xalifasi unvonini ham olganlar?
5. Konstantinopolni olinishining strategik ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
6. Sulon Sulaymon muvaffaqiyatlarining siri nimada edi?
7. «Gayduk»lar, «klift»lar va «uskak»lar kimlar bo'lishgan?
8. «Lepanto» dengiz jangining yevropa uchun ahamiyatini baholang?

XXIII BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA JANUBI-SHARQIY OSIYO

Vetnam. Zamonaviy Vetnamning shimolida XI asr o'rtalarida Dayvet davlati vujudga kelgan edi. Ushbu davlatda 1428-yilda hokimiyatni egallagan vua – oliy hukmdor Le sulolasi vakili Le Txan long davrida mamlakatda absolyut monarxiya o'rnatilgan. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti tufayli XV asrda Dayvetda hosildorlik yuqori bo'lgan. Jamoa yerlarida ishlovchi dehqonlar har olti yilda bir marta yerlarni qaytadan taqsimlashgan. Dehqonlar soliqni davlatga to'lashgan. Shuningdek, mavjud bo'lgan xususiy yer egaligi o'z hududini jamoa yerlari hisobiga kengaytirishi mumkin bo'lgan. Mazkur holat Dayvetning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Hunarmandchilik va konchilik ishlari taraqqiy etgan. Tashqi savdo vua nazoratida turgan. Vetnam hududida ziravorlar va xorij kemalari uchun qulay portlarning yo'qligi tashqi savdoga salbiy ta'sir etgan. Ushbu davrda vualarning oliy hokimiyatini mustahkamlovchi qonunlar to'plami tuzilgan.

1471-yilda Dayvetga hozirgi Vetnamning Markaziy va Janubiy qismlarida joylashgan Tyampa davlati qo'shib olingan. Janubda shaharsozlik, qishloq xo'jaligi va savdo tez rivojlanib, yerga davlat egaligi mustahkamlangan, sug'orish tizimi va inshootlari yaxshilangan, ichki va tashqi savdo rivojlangan. Konfutsiylik davlat mafkurasi bo'lib qolgan.

XVI–XVII asrlarda Dayvet. XVI asr boshlarida davlat va feodallar o'rtasida ziddiyat vujudga kelgan. XVI–XVII asr o'rtalarida Vetnam zodagonlarining uchta eng kuchli urug'lari – Mak, Chin va Nguenlar to'xtovsiz ravishda o'zaro urushlar olib borishgan. Ular o'rtasidagi kurash 1510-yili boshlangan. 1516-yili Dayvetda budda ruhoniysi Chan Kao boshchiligida dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan. 1517-yili qo'zg'olonchilar mamlakat poytaxtini egallab, o'z rahbarlarini taxtga o'tqazganlar. Ammo rohib Chan Kao o'g'li Chan Txang foydasiga taxtdan voz kechgan. Biroq, Chan Txang shimoliy vetnamlik sarkarda Mak Dang Zung tomonidan mag'lub etilgan. Natijada Mak Dang Zung yangi hukmron sulolaga asos solgan. Bu sulola 1592-yilgacha xitoyliklarga tobe bo'lib, ular yordamida hokimiyatni boshqargan. 1592-yili hokimiyatga yana Le

sulolasi vakillari kelib, keyingi o'n yillar davomida shimoliy (Bakbo) va janubiy (Nambo) hududni qaytadan birlashtirgan. Le sulolasi vakillari qo'g'irchoq hukmdor bo'lib, amalda hokimiyat Chinlar qo'lida bo'lgan. Vetnamning janubiy qismi Nguenlar nazoratida bo'lib, XVII asr boshlarida ular o'z davlatini tuzganlar. Lekin ular ham Le sulolasining hokimiyatini tan olib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qilmaganlar.

Nguenlar o'z pullarini chiqarganlar va qo'shni davlatlar hamda Gollandiya, Portugaliya singari mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yanlar. Dayvetning janubidagi Nguenlar davlati Dangchaun deb, mamlakat shimolidagi Chinlarga qarashli yerlar esa Dangngoay deb nomlangan.

XVI–XVII asrlarda qishloq xo'jaligida o'zgarishlar yuz bergan. An'anaviy qishloq jamoasi – «sa» tabaqalana boshlagan. Dayvet dehqonchilik yetakchilik qiluvchi mamlakat bo'lib, aholisi asosan sholi yetishtirish bilan shug'ullangan. Mamlakat aholisini asosan vetlar tashkil qilgan, boshqa millatlar vakillari juda kam bo'lgan. Hindixitoyning boshqa mamlakatlaridan farqli tarzda Dayvetda muntazam haydaladigan yerlarning yetishmasligi sezilgan. Dehqonlar shaxsan ozod bo'lib, baliqchilik, chorvachilik va parrandachilik bilan ham shug'ullanishgan.

Kambodja. XVI asr boshlarida Kambodjada buddaviylik hukmron bo'lgan. Kambodjada hukmdori «Sdat» barcha yerlarning egasi bo'lgan. Hukmdor sulolasi ilohiylashtirilgan. Hukmdorga murojaat qilinganda «Preax» (Muqaddas) iborasi qo'shib aytilgan. Mamlakatdagi hukmron guruh amaldorlar, sdatning qarindoshlari, buddaviy monaxlik jamoasining rahbarlari – sangxilardan tashkil topgan. Kambodja ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan. Shaharlar qirol tomonidan tayinlangan amaldor tomonidan boshqarilgan. Shaharlar aholisini hunarmandlar, amaldorlar, harbiy xizmatchilar, savdogarlar va xizmatkorlar tashkil qilgan. Pnompen – mamlakatning poytaxti, iqtisodiy va madaniy markazi hisoblangan. Qishloqlarda dehqonlar asosan sholi yetishtirish, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonlar shaxsan ozod bo'lib, ishlov berish sharti bilan yerga egalik qilishgan.

XVI asr boshlarida Kambodja birmuncha rivojlangan bo'lib, kuchli armiya va floti bo'lgan. Mamlakat oliy navli guruch, baliq,

fil suyagi, oltin eksport qilingan bo'lsa, turli shirinliklar, simob kabi mahsulotlar import qilingan.

Kxmer zodagonlarining o'zaro raqobati tufayli XVI asr boshlaridan Kambodja davlati inqirozga uchray boshlagan. Natijada Nay Kan rahbarligida dehqonlar qo'zg'olon ko'tarishgan. Qo'zg'olonchilar Pnompenni egallab, 1502-yili qirolni taxtdan tushirib, qatl qilganlar. Biroq, qirolning ukasi Ang Tyan qo'zg'olonchilarni mag'lubiyatga uchratib, yetakchilarini qatl ettirgan. Shundan so'ng taxtga kelgan Ang Tyan 1510-yildan Ayutiya (hoz. Tayland hududida) qarshi urush boshlagan. Bu urush ancha uzoq davom etgan. Kxmerlar 1531- va 1549-yillari Ayutiya hududiga bostirib kirib, Prachin viloyatini talaganlar. 1556-yili Ayutiya Kambodjaga ilgari olib qo'yilgan Chantabun yerlarini qaytarib berishga majbur bo'lgan. Kambodja hududi o'zining XIV asrdagi chegaralarini tiklagan. Ayutiya qarshi yurishlar Barom Reateaning vorisi Satxe I davrida ham davom ettirilgan.

Dastlabki xristian missionerlar Kambodjaga XVI asr o'rtalarida kirib kelganlar. Ularga missionerlik uchun ruxsat berilgan. Biroq, mahalliy aholining ko'pchiligi bu dinga qiziqish bildirmaganligi sababli missionerlar tezda qaytib ketishgan.

XVI asr oxirlarida Kambodja yana yuksala boshlagan. Mamlakatning yangi poytaxti – Lovek shahri barpo etilib, ko'plab monastirlar va boshqa me'moriy inshootlar qurilgan. Ayutiya bilan davom etayotgan urush mamlakatga katta zarar keltirgan. Tay qo'shinlari Poytaxt Lovekni vayron qilishgan.

Natijada xalq qo'zg'olonni vujudga kelib, qirol o'ldirilgan. Hukumat qo'zg'olonni bostirib, poytaxtni Udong shahriga ko'chirgan, ma'muriy boshqaruv tizimida islohotlar o'tkazilgan.

XVI asr boshlarida Kambodja bilan Ayutiya kuchayib borayotgan Dayvetga qarshi birlashishga harakat qilishgan. Ammo tez orada Kambodja qiroli Chey Chetta II ning rejasi o'zgarib, u Nguenlarning qizlaridan biriga uylangan. Natijada Kambodjaning mintaqadagi mavqei anchagina mustahkamlangan.

XVI asr o'rtalariga kelib Kambodjada musulmonlar va buddaviylar o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lgan. Bunga qirol Channing islom dinini qabul qilishidan norozi bo'lgan zodagonlar sababchi edi. Natijada vetnamliklar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan

Preax Batom Reatea boshchiligidagi buddaviylik tarafdorlari g'alaba qilishgan. Chan taxtdan ag'darilib, uning o'rniga Batom Reatea hokimiyat tepasiga kelgan.

XVI asr oxirlariga kelib Kambodjaning Vetnam bilan munosabatlari yomonlashgan. Mamlakatning Janubiy Vetnam bilan chegaradosh yerlarida vet qishloqlari paydo bo'lgan. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanib, Kambodja qiroliga soliq to'lashgan. Biroq jiddiy siyosiy kuchga aylangan vetlar kxmer zodagonlariga ta'sir o'tkaza boshlaganlar. Ular kxmerlarning taxt uchun kurashlarida ham faol ishtirok etganlar va o'zlariga ma'qul talabgorni taxtga chiqarish uchun kurashganlar.

Vetnamning ta'siri kuchayib borayotganligidan xavotirlangan Kambodja hukmdorlari mamlakat ichkarisida Dayvet bilan til birliktirayotgan kuchlarga qarshi kurashganlar.

Laos. So'nggi o'rta asrlarda Laos hududida Lang Sang davlati mavjud bo'lgan. Bu davlat yarim mustaqil viloyatlarning konfederatsiyasidan iborat bo'lib, ular markaziy hokimiyatga vassal sifatida bo'ysunishgan. Oliy hukmdor «tyausivit», mahalliy hukmdorlar esa «tyaumnang»lar deb nomlangan. Tyaumnanglar hokimiyatga kelish vaqtida tyausivitga sodiqlik haqida qasamyod qabul qilishgan.

XV asr oxirlarida vetnamliklar tomonidan Miyang Puen knyazligiga bostirib kirib, Lang Sangning poytaxtini egallashi Laosning kuchsizlanishiga sabab bo'lgan. Potisarat hukmronligi davriga (1530–1559) kelib Siamga qarshi urush olib borilgan va Vetnam bilan tinchlik munosabatlari o'rnatilib, davlat mustaqilligi mustahkamlangan. Potisaratdan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan Txao Sai Setxatirat 1560-yili Ayutiya bilan ittifoqchilik shartnomasini imzolagan. 1563-yili mamlakat poytaxti Luang Prabang – «Oltin Budda» shahridan Ventyanga ko'chirilgan. O'sha davrda hozirgi Birma hududida joylashgan Ava davlati bilan ham urushlar olib borilgan. Unda laosliklar mag'lubiyatga uchrab, XVI asr oxirlarigacha birmaliklarga tobe bo'lib qolishgan.

1637-yilda Sumin Vongsning hokimiyat tepasiga kelishi Lang Sangning yana kuchli davlatga aylanishiga sabab bo'lgan. Uning davrida o'tkazilgan islohotlar tufayli Lang Sang markazlashgan davlatga aylanib, mintaqadagi boshqa davlatlar bilan raqobatlasha oladigan darajada kuchaygan. Sumin Vongs hukmronligi davrida

Siam va Dayvet bilan hamkorlik aloqalari oʻrnatilgan.

Ushbu davrda Laosga dastlabki yevropalik missionerlar – gollandlar kirib kela boshlagan. Biroq ularning missiyasi muvaffaqiyatsiz yakunlangan.

1694-yili Suming Vongs vafotidan soʻng merosxoʻr boʻlmaganligi tufayli zodagonlar oʻrtasida hokimiyat uchun kurash boshlangan. Bu esa Lang Sangni inqirozga uchrashiga sabab boʻlgan.

Myanma (Birma). XVI asr boshlarida hozirgi Myanma (Birma) hududida yagona markazlashgan davlat boʻlmagan. Birmaning markaziy qismidagi Ava davlatining birmaliklardan iborat aholisi shan, mon va karenlar davlatlari bilan muntazam urushib turganlar. 1507-yili Ava hukmdori yerlarining bir qismini shanlarga berishga majbur boʻlgan. Biroq shanlar chorak asrdan soʻng Avani magʻlub etib, uning hukmdorini oʻldirishgan, aholining ancha qismi qul qilib olib ketilgan, qolganlari esa togʻli hududdagi Taunga knyazligiga qochib ketishgan.

Birmaning shimoliy va markaziy qismi shanlar, janubi monlar, gʻarbi esa Arakon nazorat ostiga oʻtgan. Bunday holat birmaliklarni qanoatlantirmagan. Shu bois Taungu hukmdori Minjino Shimoliy Birmada oʻz nazoratini oʻrnatish uchun kurashgan. Natijada shan va monlarga tegishli bir qator hududlar egallangan. 1548-yili birmaliklarning Ayutiyaga qarshi boshlagan urushi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, mamlakatda monlar qoʻzgʻoloni boshlangan. Ushbu qoʻzgʻolon 1555-yilga kelib monlarning qoʻzgʻoloni bostirilgach birmaliklar Avani egallashgan, keyin esa shanlar knyazliklari bilan laosliklarning Chiengma knyazligi joylashgan Yuqori Birma egallangan. Natijada Birma Bayinnaun hukmronligi ostida yagona davlatga birlashib, Ayutiyaga qarshi urushga tayyorlangan. 1563, 1565-yillardagi yurishlar natijasida Ayutiya zabt etilib, Laos yerlarini egallash uchun urush boshlangan.

Bayinnaun 1580-yilda vafot etgan. Uning oʻrnini egallagan oʻgʻli Nandanbayin davrida mamlakat yana boʻlinib ketgan va portugalialik de Britu Quyi Birmaning qiroli deb eʼlon qilingan.

XVII asr boshlarida Ava knyazligi yana kuchayib, uning hukmdori Anapxelun Prom, Taungu knyazliklarini va 1613-yili Markaziy Birmani egallagan. 1615-yili Chiengmay bosib olingach, Pegu shahri yana Birmaning poytaxti boʻlib qolgan. Biroq uyushtirilgan

fitna tufayli Anapxelun o'ldirilgan va hokimiyatni egallagan Talun poytaxtni yana Avaga ko'chirgan. Talun biqizlik siyosatini olib borgan. Buddaviylarning monastirlariga boyliklarni yig'ish, asirlarni mulk qilib sotib olish taqiqlangan. Asirlarga mamlakatning markaziy qismidan yer berilib, ular yerga ishlov berishdan tashqari irrigatsiya inshootlarini qurishda ishtirok etishgan va harbiy xizmatni ham bajarganlar. Bundan tashqari aholini ro'yxatga olish, yerlarning kadastrini tuzish kabi muhim tadbirlar amalga oshirilgan.

Indoneziya. XVI asrda Indoneziya arxipelagidagi orollar aholisi uch million kishiga yaqin bo'lib, ular taraqqiyotning turli bosqichida bo'lishgan. Masalan, Borneo, Selebes orollarida matriarxat ko'rinishlari saqlangan bo'lsa, Yava, Sumatra kabi orollarda esa davlat tuzilmalari mavjud bo'lgan.

1520-yili islomiy vassallar va noiblar tomonidan Madjapaxit imperiyasi ag'darilib, Yava orolida bir nechta musulmon knyazliklari paydo bo'lgan. Sharqiy hududni Madjapaxit avlodlari boshqargan. Madjapaxitning yiqilishi bilan Yava aholisi musulmon diniga e'tiqod qila boshlagan.

Madjapaxit davlatining ag'darilishi Sumatra qirg'og'ida ko'pgina sobiq vassal davlatlarini mustaqil qilib qo'ygan. Ularni rivojlanishi turlicha bo'lgan. Masalan, Sharqiy Sumatrada joylashgan Malayya yo'q bo'lib ketgan. Shu vaqtda Xalmaxeyra oroli yaqinida Tidor va Ternata musulmon sultonligi vujudga kelgan. Bu sultonliklar sharq va g'arb bilan ziravor savdo qiluvchi sharqiy Indoneziya orollarini bosib olishgan. Bu Tidorga ayniqsa Ternataga tashqi dunyo bilan aloqa o'rnatishda muhim rol o'ynagan. Ko'pgina feodal knyazliklarni paydo bo'lishi hokimiyat uchun kurashlarni keltirib chiqargan. Faqatgina XVI asrda Mataram knyazligi hokimi Sutuviljaya bunga chek qo'ygan, deyarli Yava orollarini o'ziga bo'ysundirgan. Sharqda Balambagon va g'arbda Bantom o'z erkinliklarini saqlab qolishgan.

Bantomning Yavada tiklanishi Ache davlatini Sumatrada mustahkamlanishi nisbatan portugallarning 1511-yil Malakkani bosib olishi, savdo yo'llariga bog'liq bo'lgan. Portugallar bu yerda mustamlaka boshqaruvini joriy qilib, mintaqadagi knyazliklar, inglizlar va ispanlarga kuchli raqobatchi bo'lib qolgan.

Asta-sekin Zond bo'g'ozini hududida yangi davlat birikmalari

paydo boʻlib, ular 1568-yili Bantom sultonligiga birlashgan. XVI asr oxirlarida bu davlatning poytaxti Bantom shahri faqat Janubi-Sharqiy Osiyoda emas, balki butun Osiyo-Afrika dunyosidagi eng yirik savdo markazlaridan biriga aylangan. Soliqlardan tushadigan daromadlar evaziga Bantom sultonlari portugaliyaliklarga bas kela oladigan kuchli armiya tashkil qilinganlar.

XVI asrda Indoneziya hududida tashkil topgan ikkinchi yirik davlat Ache sultonligi edi. Bu sultonlik Sumatra orolining shimoliy qismidagi yerlarda joylashgan. Orolning janubida Joxor sultonligi joylashgan boʻlib, uning hukmdorlari orolda gegemonlik uchun Ache sultonlari bilan raqobatlashganlar. Ular oʻrtasida butun XVI asrda boʻlib oʻtgan toʻqnashuvlar ikkala sultonlikni ham kuchsizlantirar va bu faqat portugallar uchungina foydali boʻlgan.

1602-yili Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasi paydo boʻlib, u Yaxshi Umid burnidan to Magellan boʻgʻozigacha boʻlgan hududda dengiz qatnovi va savdo qilishning monopol huquqini qoʻlga kiritgan. Gollandlar 1609-yili Malaka orolidan oʻz raqiblari portugallar va ispanlarni siqib chiqirishgan. 1619-yili Yava orolidagi Jakarta shahrini bosib olib, uni keyinchalik oʻzlarining bosh maʼmuriy markaziga aylantirganlar.

Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi Molukk, Sulavesi, Yava, Sumatra va Siam orollarida faktoriyalar qurish bilan cheklangan.

1619-yili gollandlarning floti Siam va Zond boʻgʻozlarida inglizlar floti ustidan qator gʻalabalarni qoʻlga kiritib, 20-yillarda inglizlarni Molukkdan quvib chiqargan. Shundan soʻng inglizlar butun eʼtiborini Hindistonga qaratishgan.

Bantom davlati. Malakka boʻgʻizini muhim strategik nuqtaligi portugallarga shu yerdan oʻtadigan kemalarni ogʻir soliqlar toʻlashga majbur etgan. Xitoy va hind savdogarlari bu soliqlardan qochib, boshqa yoʻllar ochishgan: Zond boʻgʻizidan va Sumatra yon bagʻirlari boʻylab oʻtgan yoʻllar. Shu hodisa Bantomning dastlab muhim savdo portiga aylanishiga, keyinchalik esa davlat markaziga aylanishiga olib kelgan. Bantom feodal qatlami oʻrtakashlik orqali boyib ketib, Sundanez qabilalarini oʻziga boʻysundirgan, bu qabilalar esa Gʻarbiy Yavani ichki qismida yashagan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Bantom davlatida qishloq xoʻjaligi rivojlangan, irrigatsiyadan keng foydalanilgan. Kanallar qurishga

aholi jalb etilgan. Tashqi savdoni rivojlanishi natijasida yangi ekin qalampir ekila boshlangan. Qalampir ekiladigan joylarda soliq mahsulot tarzida olingan. Xitoy ma'lumotlariga qaraganda, qalampir hosili bir yilda uch million tonnaga yetgan.

Yavanning boshqa qismlaridan ko'ra, Bantomda jamoa yerlari yo'qolib ketgan. Kambag'al dehqonlar inqirozga uchrab, qulga aylana boshlagan. Ota-onalarning o'z bolalarini sotishga qonunan ruxsat berilgan. Qattiq ekspluatatsiya natijasida feodallar boyib borishgan. Portugal ma'lumotlariga ko'ra, Bantom port shahar bo'lib, u sharq savdo shaharlaridan qolishmagan. Bu yerga sharqdan ko'plab savdogarlar kelishgan.

Xurosondan qimmatbaxo toshlar (*dur, olmos*) va dorivor o'simliklar, hatto Birmadan tirik fillar bilan savdo qilishgani kelishgan. Malayyaliklar va xitoyliklar qo'lida o'rtakashlik ishlari jamlangan. Xitoy savdogarlari boshqa Indoneziya tumanlaridagi kabi Bantomda ham katta rol o'ynaganlar.

Filippin. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Portugaliya bilan Ispaniya Janubi-Sharqiy Osiyoning dengiz savdo yo'llarini nazorat qilish uchun kurashganlar. 1493-yili Rim Papasi bullasiga ko'ra Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi Ispaniyaga tegishli bo'lgan. Bir yildan keyin bu hol ikki tomonlama ispan-portugal shartnomasida aks etgan. Biroq ushbu shartnoma ham ikki davlatning mintaqadagi raqobatchiligini susaytiramagan.

Filippin orollari yevropaliklar uchun 1521-yili Magellan ekspeditsiyasi tomonidan kashf etilganidan so'ng orollarni xristianlashtirish va Ispaniyaga bo'ysundirish boshlangan. Ekspeditsiya a'zolari Sebu orolida joylashib, mahalliy hukmdor bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra qo'shni orollar o'lpon to'lashga majbur qilingan. Maktan orolining hukmdori Lapulapu ispanlarga bo'ysunmagan. Bu Filippin tarixida birinchi marta xorijliklarga qarshilik ko'rsatilishi bo'lgan. 1521-yil Lapulapu qo'shinlari tomonidan Magellanning o'ldirilishi Sebu orolida ham ispanlarga qarshi harakatlarga turtki bo'lgan. Natijada ispanlar Filippinni tark etishga majbur bo'lganlar. XVI asr 20-yillarida ispanlarning Filippinga qaytish uchun qilgan harakatlari portugallarning qattiq qarshiligiga uchragan. 1629-yili imzolangan Saragosa shartnomasiga ko'ra orollar Portugaliya nazoratiga o'tgan.

XVI asr 60-yillarida ispanlar Amerika qit'asini zabt etishganidan so'ng yana Filippinni bosib olishga kirishganlar va orollarga ispan qiroli Filipp II nomi berilgan.

1565-yili Migel Lopes de Lagaspi boshchiligidagi ispan ekspeditsiyasi Sebu orolini zabt etgan. Bir necha yildan so'ng ular Visay orollari va Shimoliy Mindanaoni ham egallashgan. Mahalliy aholining qarshiligini yengish Visay orolining harbiy otryadlari yordamida amalga oshirilgan va faqat XIX asr oxirlariga kelibgina yakunlangan. Bu paytda ispanlar nazoratidan tashqarida tog'li Luson hududlari qolgan edi. Filippin arxipelagining janubida yashaydigan musulmonlar ispanlarga qarshilik ko'rsatishgan.

1570-yildan Luson orolini zabt etish boshlangan. Ispanlar tomonidan barpo etilgan shahar dastlabki Manila bo'lgan. Bu shahar keyinchalik Filippinning poytaxtiga aylangan. Ispanlar keyinchalik Filippinning aholi zich joylashgan va iqtisodiy rivojlangan qismi – Lusonning markaziy qismini bosib olganlar. XVI asr oxiriga kelib Luson, Visay orollari, Mindanaoning shimoliy qismi va Palavan orollari ispanlar tomonidan bosib olingan. Filippinning janubiy hududlaridagi musulmonlar mustamlakachilarga qattiq qarshilik ko'rsatishgan. «Moro urushlari» nomi bilan bo'lgan ushbu kurash diniy tus olgan.

Filippinda ispanlar o'zlarining mustamlaka boshqaruv tizimini yaratganlar. Ispan gubernatori boshchiligidagi markaziy hokimiyatga bo'ysinuvchi amaldorlar hududlarda faoliyat yuritishgan. Katolik cherkoviga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, XVII asr o'rtalariga kelganda cherkovning missionerlik faoliyati tufayli mahalliy aholi xristianlikni qabul qilishgan.

Malayziya, Singapur, Bruney. Malayziyada XVI asr boshlarigacha savdo-sotiq, madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan. Islom asosiy din bo'lgan.

XVI asr boshlaridan Malayziyaga yevropa davlatlarining mustamlakachilik ekspansiyasi boshlangan. Indoneziya arxipelagi orollari bilan Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarining kesishgan joyidagi muhim port hisoblangan Malakka 1511-yili portugallar tomonidan egallangan. Malakka 40 mingdan ziyod aholiga ega bo'lgan shahar-davlat bo'lib, daromadining asosiy qismi Hindiston, Xitoy, Siam, Birma va boshqa davlatlar bilan olib boriladigan savdodan tushgan.

Barcha yerlar sultonga tegishli bo'lib, u dehqonlardan yer solig'i olgan. Qullar mehnatidan asosan uy-xo'jalik ishlarida foydalanilgan.

Shahar portugallar tomonidan zabt etilgach harbiy qal'aga aylantirilgan va mustamlakachilarning Janubi-Sharqiy Osiyodagi asosiy tayanch punkti bo'lib qolgan. Shahar boshqaruvi komendant qo'liga o'tgan va u 1571-yili Portugaliya qiroli tomonidan tayinlanadigan gubernator darajasini olgan.

Malakkaning atrofida joylashgan mayda knyazliklar o'z mustaqilliklarini saqlab qolib, portugallarga dushmanlik kayfiyatida bo'lishgan.

Malakka zabt etilgach sulton janubga qochgan va u yerda yangi Joxor sultonligini tashkil qilgan. Yarim oroldagi davlatlarning ko'pchiligi unga tobelikni tan olishgan. Joxor sultonligi Malakkani, u bilan birga yo'qotilgan savdo yo'llarini qaytarish maqsadida portugallarga qarshi uzoq vaqt urush olib borgan.

Malakka zabt etilgandan so'ng yarim orolning shimolida joylashgan Ache sultonligi kuchaygan va Malakka bo'g'ozida hukmronlik uchun portugallar hamda Joxor sultonligi bilan raqobatlashgan. XVI asr oxirlari kelib inglizlar bilan gollandlar ham ushbu hududda portugal va ispanlar bilan raqobatlasha boshlagan. 1606-yil gollandlar Joxor bilan ittifoq tuzib, Malakkani qamal qilishgan va bu yerdagi Portugaliya flotini mag'lubiyatga uchratishgan.

O'rta asrlarda hozirgi Singapur hududida malaylarning Tumasik qishlog'i joylashgan bo'lib, u 1299-yildan Singapur («Sher shahri») deb atala boshlagan. XIII asrdan Xitoy va Sianga qaram bo'lgan. XIV asrning 30-yillarida Singapurga Majapaxit knyazligi bostirib kirib, shaharni vayron qilgan. Shundan to XIX asr boshlarigacha bu yerda doimiy aholi punktlari bo'lmagan, joy esa 1823-yilgacha rasman Joxor sultonligiga qaragan.

Bruney Kalimantan orolining shimoliga ko'chib kelgan va o'zlarining tarixiy vatanlaridan o'ziga xos sivilizatsiya olib kelgan malaylarning bu yerda tashkil qilgan dastlabki knyazligi bo'lgan. XIV asrdan islom dini bu yerda hukmron dinga aylangan. O'shandan to hozirgacha hokimiyat Bruney sultonlari sulolasi qo'lida bo'lgan. Bruney hukmdori Malakka sultonining vassali hisoblangan.

XVI asr birinchi yarmidayoq Bruney rivojlangan hudud bo'lib, unda 100 mingga yaqin aholi yashagan, sulton hokimiyatini butun

Shimoliy Kalimantan va Filippin arxipelagining janubi tan olgan. Bruney portugaliyaliklar bilan savdo aloqalari olib borgan.

Gollandlarning kirib kelishi. Karnelus Xutman boshchiligida 1596-yil 23 iyunda Bantomga birinchi golland savdo kemasi kirib kelgan. Shundan soʻng ularning kirib kelishi koʻpaygan. Gollandiya va Angliya birlashib, portugal mustamlakalariga qarshi kurashgan. Oʻzlarini doʻst sifatida tutisha ham, aslida portugallarga qarshi kurashganlar. Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasi Ternata Aiboina va Banda orolarida jonlanib borgan.

Portugallarga qarashli yerlar faqat Timor orollari boʻlib qolgan. Yavaga joylashish Ost-Indiya kompaniyasiga juda qiyin boʻlgan. Manterom va Bantom hokimlari bu orollarda korxonalar qurish taklifini qatʼiy rad etgan. 1619-yil Molukka orollaridan oʻtib kelgan flot bantomliklarni magʻlubiyatga uchratgan. Jakartaliklar qoldiqlari ustida Yavadagi birinchi golland mustamlakasi vujudga kelgan. Qurshov paytidayoq unga Bataviya deb nom berilgan. Tez orada xitoy savdogar va hunarmandlari qishloqlari vujudga kelib, asta-sekin shaharga aylana boshlagan. Bataviya gollandlarning Yavani bosib olishlarida tayanch nuqtasiga aylangan. Gollandlarning mustamlaka yerlari Afrikadan Yaponiyagacha yetib borgan.

Gollandlar mustaqil boʻlgan knyazlik va sultonliklarni savdo tizimida ushlab turishga harakat qilgan. Gollandlar Ost-Indiya kompaniyasini 1641-yilda egallab olishgan. Indoneziyada portugallar egaligidan butunlay maxrum qilingan. Timorda saqlanib qolgan portugal hukmronligi endilikda Gollandiya monopoliyasini kengaytirishga xalaqit bermagan.

Gollandiya mustamlakalari ekspluatatsiyasi XVII asrda Molukka orollarida ogʻir sezilar edi. Portugallarni siqib chiqargandan soʻng gollandlar bu yerda yanada qattiq nazorat oʻrnatganlar.

Ziravorlarni arzon bahoga sotishga majburlash ocharchilikka olib kelgan. Qoʻzgʻolonlar mustamlakachilar tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan. 1621-yili Banda orollari aholisi qoʻzgʻolon koʻtargan, biroq qurol aslahalar bilan qurollangan harbiylar tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan. Koʻpchiligi ularni urib oʻldirgan va bir qismi quvgʻin qilingan va ochlikdan oʻlgan, orolda odam qolmagan. Gollandlar odamlar «plantatsiyasi»ni toʻplashga harakat qilgan. Boshqa orollardan odamlarni ushlab kelib, ishlatishga huquqlari

bo'lgan. Sharqiy bozorlarda qullar ko'proq sotilgan. Selebasidan odamlarni ushlab kelib, Yavani rivojlantirishga harakat qilganlar. Bu usul uchun maxsus o'g'rilar tayyorlangan. Yoshlarni o'g'irlab kelgach, Selebasi qamoqxonasida saqlab voyaga yetgach ishga yo'naltirishgan. Ammo, XVII asrning o'rtalarida mustamlakachilik tugallanmagan edi. Hatto Yava bo'ysunmagan. Bataviya muntazam Mataram va Bantom kuchlari tazyiqi ostida bo'lgan. Golland kompaniyasi Mataram saroyida turli hiylalar bilan ish olib borgan. Chunki, mustamlakachilarning arxipelagdagi oziq-ovqat bilan Matarama ta'minlagan. XVII asrda gollandlar Bataviyadagi bosib olgan yerlarini Matarama tomonidan tan olinishiga erishgan. Yavani to'la bosib olish uchun hali ko'p vaqt kerak edi.

Mavzuga doir savollar:

1. So'nggi o'rta asrlar davriga kelib Vetnamda qaysi sulolalar hukmronlik qilgan?
2. Kambodjada yer egaligi munosabatlari qanday ko'rinishda bo'lgan?
3. Lang Sang tuzilishiga ko'ra qanday davlat bo'lgan?
4. Birma – Siam urushlari monlarning taqdirida qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
5. Joxor va Ache sulnonligi o'rtasidagi raqobat qanday natija bilan yakunlangan?
6. XVI asrning ikkinchi yarmida Bantom davlatida qaysi sohalar taraqqiy etgan?
7. Filippinda olib borilgan «Moro urushlari» nima uchun diniy tus olgan?
8. 1571-yildan boshlab Malakka boshqaruv tizimi qanday ko'rinishda bo'lgan?
9. «Sher shahri» XIII asrdan boshlab qaysi davlatga qaram bo'lib qolgan?
10. Malaylarning Kalimantan shimolida tashkil qilgan dastlabki knyazligi qanday nom bilan yuritilgan?

XXIV BOB. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA AFRIKA DAVLATLARI

G'arbiy Afrikadagi qul savdosi va Yevropa davlatlarining istilochilik yurishlari. XV asr ikkinchi choragidan boshlab G'arbiy Afrikada qirg'oq bo'yi hududlariga portugallar va ispanlarning kirib kelishi boshlangan. 1434–1482-yillar oralig'ida portugallar va ispanlar Bahodor orolidan Kongo daryosigacha bo'lgan barcha hududlarga o'rtnashib olishgan.

Yashil burun orollari portugallar tomonidan 1450–1462-yillarda qul savdosining birinchi markaziga aylantirilgan. Ayniqsa, 1475-yilda ularning G'arbiy Afrika qirg'oqlariga suqilib kirib kelishi kuchaygan. Bunga sabab, lissabonlik savdogar Fernando Gomesning Ankobra va Vol'ta daryolari oralig'idan oltinga boy bo'lgan hududni topib olganligi bo'lgan. Bu hududda yashovchi *fanti* qabilasi Afrika xalqlari ichida portugallarning birinchi qurboni bo'lgan.

Portugallar Oltin Qirg'oqda 1482-yilda San Xorxada Mina (Ellina) tosh portini bunyod qilishgan. Dastlabki vaqtlarda qul savdosi uncha muhim bo'lmagan, sababi Yevropada bunga ehtiyoj bo'lmagan.

XVI asrning oxirlariga qadar Portugaliya G'arbiy Afrikada mavjud bo'lgan yagona davlat bo'lgan. Portugallar Senegal va Gambiya daryolari orqali qit'aning ichiga kirib borishgan va ular 1534-yilda Mali, 1565-yilda esa Tombuktu hududlariga yetib kelgan. Portugallarning asosiy e'tibori quyi Gvineyaga qaratilgan. Ular bu hududni to'rt qismga bo'lishgan va ularni ana shu yerda mavjud bo'lgan mahsulotlarning nomi bilan aytishgan: Ziravorlar qirg'og'i, Fil suyagi qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Tutqunlar qirg'og'i. Portugaliyalik savdogarlar asosan Oltin qirg'oq va Fil suyagi qirg'og'ida faolroq harakat qilgan. Ular Elminadan tashqari Aksum, Shame kabi fortlarni barpo etgan.

Janubiy Nigeriya qirg'oqlari portugaliyaliklarni nihoyatda qiziqtirib qo'ygan. Kuchli Yoruba davlatlari portugaliyaliklarni ichkariga kirib borishga to'sqinlik qilgan. Benin davlati portugal mahsulotlari evaziga oz miqdorda ziravor berishgan. Bu portugallarni 1486-yilda Gvato portida savdo punkti qurishga undagan, Lekin, bu port 1506-yilda tashlab ketilgan, chunki u ko'p foyda bermagan.

Bundan tashqari, portugal mahsulotlari beninliklarni qiziqitirmagan. Fernando Po va San Tome orollariga oʻr mashgan portugallar orollarda plantatsiya xoʻjaligini yoʻlga qoʻyishgan. Benin, Niger va Janubiy Nigeriya bilan boʻlgan urushlarda asir tushganlarni portugallarga sotganlar. Ular esa qullarni shakarqamish plantatsiyalarida ishlatishgan va Oltin qirgʻoqda sotgan. Portugallarning asosiy foyda olishlari Braziliyani mustamlaka qilinishidan boshlangan.

Bu davrda Ispaniya, Angliya, Fransiya tomonidan egallangan Amerika yerlarida plantatsiya xoʻjaligi rivojlangan. Qullarga talab kuchli boʻlgan. Bu Yevropa istilochilari oʻrtasida qul savdosini kuchaytirgan. Faqatgina portugallarning oʻzi 1530–1600-yillarda 900 ming afrikalikni Amerikaga olib kelganlar.

1610-yilda portugaliya monopoliyasi tugatilgan. Bunga gollandlarning Vest–Indiya kompaniyasining gʻarbiy Afrikadagi fortlarni istilo qilishlari sabab boʻlgan. XVII asr birinchi yarmida gollandlar afrikaliklarni ispan mustamlakalariga joʻnatish boʻyicha birinchi oʻrinda turganlar. Gʻarbiy va Markaziy Afrikadagi Gollandiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Daniya, Brendenburg oʻrtasida qul savdosidagi monopoliyani qoʻlga kiritish uchun kurash qizib ketgan.

Angliya va Fransiya yirik savdo kompaniyalarini tuzishda va ularga koʻp huquqlar berib qul savdosidagi monopoliyaga aylantirganlar. 1664-yilda fransuzlar va 1672-yil inglizlar tashkil etgan «Qirollikning Afrika kompaniyasi» shular jumlasidandir.

Fransuzlarning tayanch nuqtasi Senegal havzasi boʻlgan. Fransuzlarning birinchi nazorat nuqtalari 1630-yil Senegalda qurilgan. Soʻngra Sen Luida, gollandlardan tortib olingan Arguln va Gorida ham qurilgan. Gori tezda fransuzlarning Gʻarbiy Afrikadagi asosiy tayanch nuqtasiga aylangan.

Ishchi kuchiga boʻlgan ehtiyoj qul savdosini oʻsishiga olib kelgan. XVII asrda Amerikaga ikki million 750 ming qul keltirilgan. Bu Afrika xalqlari uchun fojiaga aylangan. Zamondoshlarning guvohlik berishicha, har oltita afrikalik yoʻlda halok boʻlgan.

Qul savdosi natijasida Gʻarbiy Afrikada ishlab chiqarish va mudofaa sohasi inqirozga uchragan hamda urf-odatlarini salbiy tomonga oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatgan.

XVI–XVII asr oʻrtalarida Mali davlati. XVI asr Mali davlatlari inqirozi bilan boshlangan. Eng asosiy raqibi Songai podsholigi

bo'lgan. 1498-1499-yillarda songailiklar yirik Baganu viloyatini bosib olishgan. 1501-yil Diara, 1506–1507-yillarda Galam davlatini qo'shib olishgan. Songai chegaralari Tekrurgacha yetib borgan. Mali podshosi Mamud II 1434-yilda portugallardan yordam so'rashga majbur bo'lgan. Portugaliyalik elchi Peres Fernandes o'rtacha darajada harakat qilgan. Lekin, tukuler va fulbelar 1535-yil Faleme daryosining ortiga o'tib ketsa ham Bambuk butunlay qo'ldan chiqib, vassallikdan ozod bo'lgan.

Maliliklar Janubiy hududlarni saqlab qolgan bo'lsalarda, uning roli kuchsizlanib, Songai Maliga ta'sir o'tkaza boshlagan.

Marokashliklarning Songai shimoliga hujumi Maliga bo'layotgan songailiklarning hujumini to'xtatgan. XVII asr boshida Malining boshqa dushmani paydo bo'lgan, bular barbarlar bo'lgan. Ular 1600-yil Segu viloyati bilan hamkorlikda o'z davlatlarini tuzganlar. Ular animizm dinida bo'lgani uchun 1645-yil musulmonlarga qarshi urush e'lon qilgan.

1670-yil bambarlarning kuchli Segu davlati paydo bo'lgan. Segu hukmdori Biton Kulubali davrida Malidan Sansading, Massin va Bagana hududlari tortib olingan. Marokashliklar bilan jangga chiqqan Kulubali Jeni va Tombuktuni egallagan. Mana shu davrda Mali uch yil davomida barbarlarga qarshi kurashgan.

XVI–XVII asr o'rtalarida Songai davlati. Muhammad I hukmronligi davrida Songai davlatining barcha yerlarida markaziy hokimiyatga qarshi kurashlar juda ko'payib ketgan. Uning siyosatidan norozi bo'lgan mahalliy hukmdorlar va feodallar o'zlarining manfaatlari yo'lida podshoning o'g'illaridan, ya'ni taxt vorislaridan foydalangan.

1528-yilda Songai podshosi Muhammad I ga qarshi bosh ko'tarilgan. 1528-yil 26 avgustida isyonchilar Gaoni egallagan va Muhammad I ni taxtdan ag'darib tashlagan. Muso taxtga da'vogarlarini yo'q qilishga qaror qilgan va natijada o'zaro urushlar kelib chiqqan. 1531-yil aprelda Muso o'ldirilgan.

Uning ukasi Muhammad II (Bengan Korey, 1531–1537-yy.) Songai davlatining podshosi bo'lib olgan. Uning hukmronligi davrida Songai inqirozga uchragan. Qul va asirlarni ko'pligi oqibatida qo'zg'olonlar ko'paygan. Gubernatorlardan biri Dendi Mar Tamzu 1537-yil aprelda isyon ko'tarib Muhammad II o'rniga ukasi

Muhammad I ning o'g'li Ismoilni (1537–1539) taxtga o'tqazgan. Ismoil urushlarni davom ettirish natijasida qullar soni o'sib, ularning narxi tushib ketgan va Gaoda qul 300 kauri chig'anoqqa baholangan.

Shu bilan bir vaqtda harbiylarning mavqei ortgan va ular siyosatga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishgan. Bu ta'sirdan qutulish uchun birinchi bo'lib Issixak I (1539–1542) harakat qilgan. U uyushtirgan ko'plab harbiy yurishlar harbiylarning rolini pasaytirmagan. 1545–1546-yillarda Songai qo'shinlari Daud boshchiligida Maliga qarshi urush boshlagan va poytaxtni bosib olgan.

Bu vaqtga kelib Tekkazdagi tuz konlari masalasida Songai va Marokash o'rtasida ziddiyat paydo bo'lgan. Ziddiyatni chuqurlashuvi Daud (1549–1582) davriga to'g'ri kelgan. Daudning ful'be qabilasiga, Kebbi davlatiga, Maliga qarshi urushlaridan foydalangan marokashliklar 1556-yil Songai qo'shinini mag'lub etib, Tekkazni bosib olgan. 1578-yil marokashliklar Dauddan bir yilga tuz konini ijaraga olishgan va evaziga o'n ming oltin tanga berishgan.

Marokashliklar maxfiy ravishda urushga tayyorgarlik ko'rishgan. Razvedka maqsadida Sulton Ahmad 1584-yil Gaoga elchi jo'natgan, u qimmatbaho sovg'alar bilan taxt vorisi Muhammad III (1582–1586) bilan uchrashgan. Oz vaqt o'tib 20 ming kishilik Marokash qo'shini Tombuktuga yurish qilgan, biroq qo'shin yo'lda ochlik va suvsizlikdan qirilib ketgan.

1586-yil Muhammad III taxtdan ag'darilib, o'rniga ukasi Muhammad Boni shoh deb e'lon qilingan. Ammo, ikki yildan so'ng uning boshqa ukasi Muhammad Sodiq bosh ko'targan va Gaoga hujum qilgan. Songai shohi Issixak II (1588–1591) Sodiqni quvib chiqargan.

Marokashliklar 1589-yilda sulton Ahmad Isixakdan Tekkaz va Taodendan voz kechishni talab qilgan, ammo u rad qilgan va urushga tayyorlangan.

1590-yil noyabrda Jo'dera boshchiligidagi uch ming kishilik qo'shin Gaoga hujum qilgan. 1519-yil 12 aprelda Gaodan 50 km. shimolda jang bo'lib o'tgan. Bu jangda Issixak II ning 30 ming piyoda o'n ikki yarim ming otliqlari marokashliklardan mag'lub bo'lgan.

Issixak II filot bilan Tondibiga yetib kelib, Gao va Tombuktu aholisiga shaharni tashlab chiqish haqida buyruq bergan. Jo'dera

poytaxtni egallagach, Isixakdan maktub olgan. Maktubda 100 ming oltin va mingta qul berish va'da qilingan edi. Lekin, Jo'dera 1519-yil 30 mayda Tombuktuni egallagan va Songai o'z mustaqilligini yo'qotgan. Barcha markazlar «qo'g'irchoq» hokimiyati o'rnatilgan. Janubda kichik bir hudud Issixak II tomonidan mustaqil boshqarilgan va Dendi podsholigi deb atalgan.

Songai davlatining mag'lub bo'lishiga ichki nizolar sabab bo'lgan. Songaida qullar nihoyatga ko'p bo'lgan. Ba'zi bir feodallarning yuz minglab qullari bo'lgan. Bu yerda qullarning hech qanday huquqi bo'lmagan. Qullar, asosan katta yerlarda ishlatilgan podshohlar ko'pincha yerlarni qullar bilan birga in'om qilganlar. Songaida sekin-asta qullar toifalari paydo bo'lgan. Qullarning ikkinchi avlodi korsolar o'z ota-onalariga ban'yalardan farqli o'laroq, to'la qul bo'lmaganlar, ular sotilmagan, in'om etilmagan. Uchinchi avlod sule, to'rtinchi avlod sule-gule deb atalgan, ularning farzandlari ozod bo'lishgan.

Gaoda aholi soni 75 mingga yetgan. Bu esa hunarmandchilikning rivojlanganidan dalolat beradi. Songai tarixining «Tarix al-Fettash» asarida 26ta port ustaxonalari bo'lib, ularda 50 tadan 100 tagacha odam ishlagani haqida ma'lumot berilgan.

Songai portida bir necha marta qo'zg'olonlar bo'lgan. Qullar bir necha hududlarni egallaganlar. Hatto dyugoranlar Tombuktuni qamal qilgan.

Kanem–Bornu davlati. Kanem davlati tashqi siyosatda oz muddat omadsizlikka uchragan. Katakarmabi (1504–1526) davriga kelib tashqi dushmanlarga qarshi kurash boshlangan. Dunam (1546–1563) davrida esa bulala qabilasi tobe etilgan va Kanem–Bornuning yuksalish davri boshlangan.

Bornu davlati Idris Apum (1571–1603) davriga kelib gullab yashnagan. Tunis bilan aloqa o'rnatilishi evaziga Idris o'q otar qurollar, turklar tayyorlagan jangchilarga erishgan va bular unga g'alaba hadya qilgan. Tez orada *gamergu*, *musgu-kotoka*, *hudima* qabilalari bo'ysundirilgan va Airga hujum qilinib, bir necha barbar qabilalari tobe etilgan.

XVII asrlardan boshlab Bornu davlati *tuareg* va *kororoflar* hujumiga duchor bo'lgan, hatto poytaxt Qasr Egmo qamal qilingan. Ammo, bornuliklar zo'rg'a qamaldan chiqib ketganlar.

Kanem va Bornu davlati feodal tuzumiga yetib kelgunga qadar qabilachilik va quldorlik davrini boshidan o'tkazganlar. Hatto matriarxat saqlanib qolib, *magira* (podsho ona) va *gumsa* (mamlakatdagi birinchi ayol) siyosiy hayotga katta ta'sir o'tkazgan. Shoh hokimiyati *kaigama* (qo'shin qo'mondoni), *galadima* (bosh vazir), *yerima* (shoh otasi yoki o'g'li), *chiroma* (poytaxt gubernatori) tomonidan nazorat qilingan.

Kanem–Bornu madaniyati yon atrofdagi xalqlarga ham ta'sir o'tkazgan. U nafaqat Xausa shahar-davlatlariga, balki shimoliy Nigeriya sultonligi madaniy-siyosiy hayotiga ham ta'sir o'tkazgan.

Janubiy Nigeriya davlatlari (Oyo, Benin). Janubiy Nigeriya davlati Yevropa savdosiga tortilgan birinchi hudud bo'lgan. Bu esa iqtisod va siyosatda bir qancha o'zgarishlarga olib kelgan.

XVIII asr o'rtalarida Oyo davlati butun Janubiy Nigeriyada, Gvineya qo'ltig'idan to Anehogacha bo'lgan hududda hukmronlik qilgan.

Oyo davlatining qul savdosi bilan shug'ullanishi katta qo'shin saqlab turishiga va doimiy ravishda qo'shni davlatlar bilan urushishga majbur bo'lgan. Bu esa Oyo va unga qo'shni davlatlarga ham iqtisodiy zarar yetkazgan. Urushlar davrida dehqonchilik va savdo to'xtab qolgan.

Benin davlati ham Janubiy Nigeriyadagi qadimiy davlatlardan biridir. Dastlabki vaqtlarda bu davlatda Oyoning ta'siri bo'lgan. XII asr o'rtalariga kelib hokimiyat mahalliy sulolalar qo'liga o'tgan. Podshoh Aefa o'limidan so'ng hokimiyat yangi sulola Eveka qo'liga o'tgan.

Benin boshqalarga nisbatan ilgariroq yevropaliklar bilan to'qnashgan. 1484-yilda Shoh Okpama davrida Beninga portugal Don Aveyro o'tochar qurol olib kelgan. Okpamaning o'g'li Ezige portugal tilini o'rgangan va katolik dinini o'rganish uchun Portugaliyaga borgan. Shoh Orxogba davrida portugal monaxlari katolik dinini kengroq targ'ib qilgan.

Oltin qirg'oq va Fil suyagi qirg'og'i davlatlari. Oltin qirg'oq va Fil suyagi qirg'og'i hududlari qadimdan g'arbiy Sudan bozorlarida yong'oq va oltin bilan savdo qilishgan. Bu hududlarda ko'hna tamaddundan darak beruvchi moddiy madaniyat qoldiqlari saqlangan. XIII asrda Bono va Banna yirik davlatlar hisoblangan.

Hono Mansu poytaxti iqtisodiy va madaniy jihatdan nihoyatda rivojlangan edi.

Bu hududda asosiy rolni Guanalar davlati Gonja o'ynagan, chunki asosiy kola yong'og'i shu yerdan olib ketilgan. XV asrda Gonja Dapomba xalqi tomonidan bosib olinib, bir necha o'n yildan so'ng dapombalar quvib chiqarilgan. Mandingo xalqidan chiqqan Sumeyla Ndevura Yakpa, Gonja mustaqilligi uchun bo'lgan kurashga boshchilik qilgan. Davlat hududlari kengaytirilgan va Nianga shahri poytaxtga aylantirilgan. Salagu esa Oltin qirg'oqdagi kola yong'og'i bilan savdo qiluvchi eng katta bozorga aylangan.

Ashanti ittifoqi. Oltin qirg'oqdagi eng yirik davlatlardan biri Ashanti bo'lgan. U XVII asrda poytaxti Kumasi bo'lgan bir necha davlatlardan iborat ittifoqchi davlat bo'lgan. Bu davlatlar akan til oilasiga kiruvchi xalqlardan iborat bo'lgan.

O'rimon hududlari markazida Denkira davlati bo'lib, unga o'sha atrofda mayda davlatchalar tobe bo'lgan. Ashanti qabilasi ham o'lpon to'lagan. Ashanti qabilasini yana bir dushmani bu doma qabilasi bo'lib, unga qarshi mayda knyazliklar ashanti atrofida birlashganlar. Domaga qarshi urushning muvaffaqiyatli tugashi natijasida akan til oilasiga kiruvchi xalqlar ittifoq tuzishib, feodal davlatga asos solgan.

Ashanti davlati g'arbiy Afrika qirg'og'idagi rivojlangan davlatlardan biriga aylangan. Davlat tepasida podsho «ashantexen» turgan. Sulola rahbarini podsho ona tayinlagan, nomzod qabila boshliqlari va oqsoqollar tomonidan tasdiqlangan.

Ashanti boshqaruvida vazirlar va kengash muhim o'rin tutgan. Ular ikkiga bo'lingan: Gyase – mamlakatning ichki ishlari bilan shug'ullangan; Abontendom – harbiy ishlar bilan shug'ullangan. Siyosiy hayotda podsho–ona katta rol o'ynagan, kengash esa «ashantexen»ga yordam bergan.

Efiopiya. XVI asr boshlarida Efiopiyada feodallar o'rtasida ziddiyatlar kuchaygan. Qo'shni qabilalar va Somali qirg'og'idagi arab amirligi jangchilari davlatning ichki holatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Usmon imperiyasiga tobe arab amirlari turk feodallari diqqatini Efiopiyaga qaratishga harakat qilishgan. Tashqi xavfdan himoyalaniş uchun Efiopiya hukmdorlari 1510-yilda portugallardan yordam so'ragan. 1520-yilga kelibgina uncha katta bo'lmagan ekspeditsiya Massauaga yetib kelgan. Bu vaqt orasida 1516-yil

negus Lebna Dengal yirik Somali amirligi Adalyaga yurish qilib, Zeylu oralini bosib olgan. Bunga Efiopiyaning birlashuvi sabab bo'lgan. 1527-yilda Lebna Dengal yana yangi hujum uyushtirib unga jiddiy tayyorgarlik ko'rgan va ancha talofat yetkazgan.

Qizil dengizda holat o'zgaragan. Xarrara hukmdori Ahmad Gran mayda amirliklarni birlashtirib, Efiopiyaga yurish qilgan va g'alaba qozongan. 1529-yil ikkinchi yurish uyushtirgan va Shoyu hamda Amxara hududlarini egallagan. Gran qo'shini Abbaining chap qirg'og'idagi shaharlarini egallagan. 1534-yil esa qadimiy poytaxt Aksum egallangan va vayron qilingan. Lebna Dengal qolgan qo'shini bilan Daraga (Tan ko'lining janubi-sharqiy qirg'og'i) qochgan. 1535-yil Gran yana harbiy yurishlar uyushtirgan.

Efiopiya negusi qo'lida ozgina hudud qolgan. Lebna Dengal Portugaliyaga yordam so'rab ikkinchi marta elchi jo'natgan. Elchi etib Efiopiya cherkovining o'sha paytdagi «abunoyi» (mitropolit) Bermuses tayinlangan. Yordamga portugal mustamlakasi bo'lgan Gaodan besh yuz askar yuborilgan. Ular 1541-yil iyunda yetib kelgan. Kristof da Gama boshchiligida Efiopiya va portugal qo'shini dastlabki g'alabalardan so'ng 1542-yil avgustda mag'lub bo'lishgan. Kristof da Gama asirga tushgan va qatl etilgan.

1534-yilda Efoipiya qo'shini portugaliyaning o'q otar qurollari bilan qurollangan qo'shini bilan birlashib, Granning o'n minglik qo'shini mag'lub etilgan. Ahmad Gran o'ldirilgan. Efiopiya tez orada qo'ldan ketgan hududlarni qaytirib olib, hatto janubdagi Xadiya va Damot viloyatlarini egallagan. Ushbu g'alabalar turklar xavfini biroz pasaytirgan.

XVI asming birinchi yarmida ko'chmanchi gallar qabilasi Abissin hududlarini egallagan. Bunga Efiopiya va Ahmad Gran o'rtasidagi urush sabab bo'lgan. Gallar ba'zan tinch yo'llar bilan ham kirib kelgan. Bunday hollarda ular feodallar ta'siriga tushib qolar edi. Ular sekin-asta mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Feodal va neguslar ulardan yollanma qo'shin tuzgan. XVI–XVII asrlarga kelib gallar Shoa va Amkaraning asosiy aholisini tashkil qilgan.

Granga qarshi kurashda neguslarga yordam bergan portugallar va hududda siyosiy ta'sirini xristian dini orqali o'rnatishga harakat qilgan. Efiopiya cherkovi yirik yer egasi bo'lgan. Portugallar katolik targ'ibotchilari faoliyati uchun ruxsat olgan.

XVI asr o'rtalarida markaziy hokimiyatga qarshi feodallar bosh ko'targan. Bunday isyonlardan biri 1561-yilda sodir bo'lgan. Isyon bosilgach, qo'zg'olonchilar turklardan yordam so'ragan. Isyonni portugal missionerlari yepiskopi ham qo'llagan. Bunga qarshi negus katolik cherkovi tashviqoti va portugallarning efiopiyaliklarga uylanishini man qilgan. Portugal va isyonchilar birlashgan. 1562-yil isyon bostirilgan, yordamga kelgan turklar qirib tashlangan.

Keyinroq portugallarning Efiopiyaga ta'siri kuchaygan. Bazi feodallar neguslar boshchiligida katolik dinini qabul qilishgan. Bu o'z navbatida diniy chiqishlarga sabab bo'lgan. Diniy urush portugal missionerlarining quvilishi bilan tugagan.

Tashqi xavf yo'qolgach, feodallar markaziy hokimiyatdan qutulishga harakat qilishgan va Efiopiya inqirozga uchrashini tezlash-tirgan.

XVII asr boshlarida yirik feodallarning ayirmachilik harakati kuchaygan. Neguslar feodallarning huquqlarini cheklashga harakat qilishgan. Natijada, feodallar qarshiligi kuchaygan. Gallar feodallar tomonida bo'lishgan. Gallar ko'plab hududlarga egalik qilgan.

Kongo. XVI asrda G'arbiy tropik Afrikaning ko'pgina xalqlari rivojlanishini turli bosqichlarida edi, ba'zi qabilalargina o'z davlatlariga ega bo'lgan.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida etnik asosini bakongo xalqi tashkil qilgan Kongo davlati tashkil topgan. Mbazna bu davlatning poytaxti bo'lgan. Harbiy yurishlar natijasida Kongo hududi kengayib borgan. Davlat olti hududga bo'lingan. Qo'shni davlatlar unga vassal bo'lib, o'lpon to'laganlar.

Kongo xalqining asosini mustaqil feodallar tashkil qilgan. Yer ommaniki hisoblansa-da, u qishloq oqsoqollari Nkuluntu va Mani-Kongo shohiga tegishli bo'lgan. Dehqonlar nkuluntu yerida ham ishlab berishgan, hosil va ovdan tushgan o'ljalar bir qismini unga berishgan. Ov va baliqchilik ikkinchi darajada bo'lgan. Turli hunarlar rivojlangan. Temirchilar ayni vaqtda sehrgar ham bo'lishi mumkin. Valiahdlar temirchilikni bilishlari shart bo'lgan. Mamlakatda savdo rivojlangan bo'lib, bozor kunlari bo'lgan. Karvonlar qirg'oq bo'ylaridan ichkariga tuz olib kirsam, tashqariga fil suyagi, charm mahsulotlari, tilla buyumlar olib chiqishgan. Tashqi savdo davlat nazoratida bo'lgan. Qullar ham turlicha bo'lgan. Harbiy asirlar

va jinoyatchi qullar asilzodalarga tegishli bo'lib, xo'jayin ularni o'ldirishi ham mumkin bo'lgan. Qul savdosi katta mablag' keltirgan. Majburiy qullar yoki qul bo'lib tug'ilganlar «uy quli» yoki «ochag quli» deb atalganlar. Ularning ahvoli ancha yengil bo'lgan. Qullar yevropalik quldorlarni yomon ko'rgan.

Davlat boshlig'i – Kongo shohi feodallar orasidan saylanib, u mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan. Uni oliy amaldorlar nazorat qilishgan ular «asosiy ona» unvoniga ega bo'lishgan. Viloyat va tumanlarga qirol yaqinlari hukmronlik qilgan. Merosxo'rlik dastlab ona urug'i tomonidan, so'ngra ota urug'i tomonidan belgilangan.

1482-yil Kongoda portugal Diego Kago eskpeditsiyasi paydo bo'lgan. Portugallar o'zlari bilan portugal tilini o'rgangan va keyinchalik xristianlikni qabul qilgan bir necha mahalliy aholini olib ketgan. 1491-yil Kongoda xristianlikni qabul qilish uchun katolik missionerlarning katta guruhi kelgan. Ular yaxshi kutib olingan.

Kongo hukmdorlari o'z vassallarini ushlab turish, chegaradosh qabilalardan himoyalaniish uchun o't ochar quroli bo'lgan portugallar bilan aloqani yaxshilashga harakat qilishgan. Kongo shohi Nzinga a Nkuve xristianlikni qabul qilib, Joao da Silva nomi bilan cho'qintirilgan. Poytaxt shahar esa San Salvador nomini olgan. Qirolning o'g'li Enrike 11 yoshida Lissabonda tahsil olib birinchi Afrikalik yepiskop bo'lgan (1518).

Kongo rahbarlari San Tomedagi qul savdosida faol ishtirok eta boshlagan. Ular qul uchun qo'shni hududlarga hujum qilishgan. Qo'shnilar ham bunga javob qaytarishgan. 1566-yilda Kongo qo'shinlari o'z vassali bo'lgan Ndango qo'shinidan mag'lub bo'lgan. So'ngra Kongo shimolidagi bateklar bilan harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. 1569-yilda sharqdan jangari yaga va bangala qabilalari kela boshlagan. Ular poytaxtni egallab, vayron qilganlar. Kongo shohi Alvaro I portugaliyaliklardan yordam so'ragan. Bir necha yildan so'ng yagalar mag'lub etilgan, biroq portugallar Kongoda o'zlarini xo'jayin kabi tuta boshlagan. Natijada, Mbula Matadi (Tosh maydalovchi) boshchiligida norozilik harakatlari boshlangan. Shundan so'ng portugallar huquqi cheklab qo'yilgan.

1641-yil portugallar asos solgan Loanduni gollandlar egallab olishgan. Kongoliklar o'z ittifoqchilari Oran shahzodasidan yordam so'rashgan va 1665-yilda ozodlik to'g'risida manifest chiqargan.

Angola. XIV–XV asrlarda Kvanza daryosi havzasida asosini ambundo qabilasi tashkil qilgan davlat vujudga kelgan. U uzoq vaqt Kongo vassali boʻlgan. Poytaxti va siyosiy markazi Gola in Dongo shahri boʻlgan. Davlat rahbari Kongoga qarshi urushish uchun 1556-yilda portugallarni yordamga chaqirgan. 1575-yildagi Kongo qoʻzgʻolonidan soʻng aynan shu yerga portugal qoʻshinlari yetib kelgan. Ular bilan birga missionerlar va qul savdogarlari ham yetib kelishgan. Ozodlik harakatlari 1580-yildan 1625-yilgacha davom etgan. Qoʻzgʻolonga shoh singlisi Anna Zinchi Mbandi Nʼola boshchilik qilgan va gʻalabadan soʻng 1625–1655-yillarda davlatni boshqargan. Portugallarga qarshi kurash avj olib ketib, ular quvib chiqarilgan.

Ushbu davlatda hokimiyat, unvon va meros ona urugʻi tomonidan olingan. Davlat boshqaruvida ayollar muhim oʻrin tutgan.

Luba. XVI asrning birinchi yarmida hozirgi Katanga hududida Luba davlati vujudga kelgan. 1659-yilgi Kisale koʻli boʻyida boʻlgan qazishmalarda shu narsa aniqlandiki, odamlar bu yerda XII–XIII asrlardan boshlab yashay boshlagan.

Lube davlati gullab yashnagan paytda uning chegaralari Tanganika koʻlidan Bushimai daryosigacha, shimolda Manemadan janubda Zambiyagacha yetib borgan.

Davlat tepasida «*yer oʻgʻli*» boʻlgan shoh oʻtirgan. U ham diniy, ham siyosiy hukmdor boʻlgan. Podshohga qoʻshin boshliqlari va maslahatchilaridan iborat feodallar kengashi yordam bergan. Davlat boshqarmasi, oʻrinbosarlar, viloyat va tuman rahbarlari aslzodalardan tayinlangan.

Aholi, asosan dehqonchilik bilan shugʻullangan. Aholi qarzlari mahsulot tarzida toʻlashi va turli majburiyatlar oʻtashi lozim boʻlgan. Yuqori tabaqa, asosan tuz va asaldan daromad olgan. Dehqonlar, ovchilar, baliqchilar, metallsozlar oʻz mahsulotlarini Katangi bozorida ayirboshlagan. Pullik aloqalar paydo boʻla boshlagan. Pul boʻlakchalari har xil koʻrinishda boʻlgan.

Mavzuga doir savollar:

1. Ayyubiylar davlatining tashkil topishiga nima sabab boʻlgan?
2. Nima uchun Afrikada qudratli davlatlar kam boʻlgan?
3. Yevropaliklarning Afrikaga kirib kelishiga sabab nima?

bo'lgan?

4. Afrika qirg'oqlari qay tariqa yevropaliklar mustamlakasiga aylana boshlagan?

5. Afrikaliklardan qul sifatida foydalanilishi mahalliy xalqlar hayotida qanday salbiy holatlarni keltirib chiqargan?

6. Mali-Songai urushlari nima sababdan bo'lgan?

7. Marokash va Songai munosabatlarining nizoli nuqtalari nimalarda ko'rinadi?

8. Mahalliy xalqlarning yevropalik mustamlakachilarga qarshi kurashlari qanday kechgan?

XRONOLOGIYA

Xitoy

- 220-y. «Uch qirollik»ning shakllanishi (Vey, Shu, U)
- 280-y. Szin imperiyasining mamlakatni birlashtirishi
- 280-y. Sima Yanning agrar islohotlarni amalga oshirishga urinishlari
- 311–450-yy. Xitoyga ko'chmanchilar bosqini
- 317–420–588-yy. Sharqiy Szin va boshqa janubiy sulolalar
- 383-y. Feyshuy daryosidagi jang
- 386–535-yy. Shimoliy Vey davlati (Toby sulolasi)
- 485-y. Shimoliy Vey davlatidagi ajratish tizimi to'g'risidagi qaror
- 589-y. Suy imperatori Yan Szyan boshchiligida Xitoyning birlashishi
- 605-y. Buyuk kanal qurilishi boshlanishi
- 610-y. Dou Sziande boshchiligida Shandunda dehqonlar qo'zg'olonining boshlanishi
- 618–906-yy. Tan sulolasi hukmronligining an'anaviy sanalari
- 629–645-yy. Syuan Szyanning Hindistonga sayohati
- 630-y. Turk xoqonligiga qarshi harbiy yurishlarning boshlanishi
- 641-y. Hindistonga tranzit huquqini olish uchun Xitoy va Tibet kelishuvi
- 780-y. Yan Yan islohotlari
- 874–884–901-yy. Van Syanchzi, Xuan Chao boshchiligidagi dehqonlar urushi.
- 881–883-y. Chan'anning isyonkorlar tomonidan bosib olinishi
- 916-y. Apoki boshchiligidagi Kidan davlatining tashkil topishi
- 960–980-y. Xitoyning birlashuvi va Sun davlatining tuzilishi
- 1032–1227-yy. G'arbiy Siyadagi Tangut davlati
- 993–995-yy. Sichuan shahridagi dehqonlar qo'zg'oloni
- 1004–1042-yy. Xitoyning kidanlarnin Lyao davlati bilan tinchlik shartnomalari
- 1043-y. G'arbiy Siyadagi Tangug davlati bilan Xitoy tinchlik shartnomasi
- 1043–1044-yy. Fan Chjuyang islohot loyihasi
- 1069–1076-yy. Van Anshi islohotlari
- 1115-y. Chjurchjenlarning Szin davlatining shakllanishi

1127-y.	Chjuchjen bosqini va poytaxt Kaifin shahrining bosib olinishi
1134–1141-yy.	Chjurchjen bosqiniga qarshi kurash va Yue Feyning yurishlari
1142-y.	Szin davlati bilan Janubiy Sun shartnomasi
1211–1280-yy.	Mo‘g‘ullarning Xitoyga bostirib kirishi va mo‘g‘ullarga qarshi urush
1274–1291-yy.	Marko Poloning Xitoyda qolishi
1340–1368-yy.	Xitoy xalqining mo‘g‘ullarga qarshi «Oq nilufar» va boshqa qo‘zg‘olonlari
1368-y.	Mo‘g‘ullarning quvg‘in qilinishi
1405–1430-yy.	Chjen Hening dengiz ekspeditsiyalari
1496-y.	Islahotlarning boshlanishi
1516–1517-yy.	Xitoyda portugallarning paydo bo‘lishi
1534–1537-yy.	Portugallar tomonidan Makaoni bosib olinishi va u yerda savdo bazasining yaratilishi
1549–1563-yy.	Xitoyning sharqiy sohiliga yaponlar hujumi
1567–1582-yy.	Chjang Szuychjen islohotlari
1595–1623-yy.	Dunlin siyosiy guruhining faoliyati
1598-y.	Manchjur qabilalarining Nurxatsi rahbarligida birlashishi
1618-y.	Xitoyga Manchjurlar istilosi
1628–1645-yy.	Buyuk dehqon urushi
1644-y.	Min imperiyasi poytaxti Pekinning Li Szichen boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar tomonidan bosib olinishi
166-y.	Manchjur armiyasining Pekingga kirishi
Hindiston	
320–340-yy.	Guptalar imperiya asoschisi Chandragupta I hukmronligi
515–533-yy.	Eftaltilar yetakchisi Mihirakula hukmronligi
606–647-yy.	Xarsha-Vardhana davlati
712–713-yy.	Musulmonlarning Sind va Multoni fath etishi
VII asr o‘rtasi	Rastrakut, Palov va Gurjar – Pratixarov davlatlarining shakllanishi
1000–1027-yy.	Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlari
1014–1044-yy.	Rajendra I Chola kengashi
XII asr	Dekanda lingayat harakati

1192-y.	Muhammad Guriyning Tarainda Prithviraja III Chauhan ustidan gʻalabasi
1206-y.	Dehli Sultonligining tashkil topishi
1222-y.	Hindistonda moʻgʻullarning birinchi bosqini
1242–1260-yy.	Dehli sultonlarining Jamna–Gana Doaba va Dehli viloyatidagi ziroatkor qabilalari bilan olib borgan urushlari
1296–1316-yy.	Alovuddin Xiljiy hukmronligi. Soliq, harbiy, bozor islohotlari. Din va Janubiy Hindistonni bosib olish
1301-y.	Dehli shahrining quyi tabaqa aholisi qoʻzgʻ olishi
1325–1351-yy.	Muhammad Tugʻlaq hukmronligi
1336-y.	Vijayanagar davlatining shakllanishi
1347-y.	Baxmaniya davlatining shakllanishi
1351–1388-yy.	Firoz Shoh Tuglaq hukmronligi
1398–1399-yy.	Temurning Hindistonga bostirib kirishi
1498-y.	Vasko da Gama ekspeditsiyasi tomonidan Yevropadan Hindistonga dengiz yoʻlining kashf qilinishi
XVI asr boshlari	Sikxizmning yuksalishi
1526-y.	Panipat jangida Boburning Ibrohim Lodi ustidan gʻalabasi
1539–1545-yy.	Sher Shah Surning hukmronligi va islohoti
1548–1549-yy.	Mahdistik harakatni bostirish
XVI asr oʻrtasi	Roshaniylar harakati
XVII asr boshlari	
1556–1605-yy.	Akbar hukmronligi
1565-y.	Vijayanagarning magʻlubiyati
1574–1582-yy.	Akbar islohotlari
1600-y.	Ost-Indiya kompaniyasining tashkil etilishi
1615–1618-yy.	Jahongir saroyiga Tomas Rouening elchilik tashrifi
Yaponiya	
604-y.	Syotoku Taysining «17 ta modda qonuni»
645–646-yy.	Yaponiya davlatining shakllanishi (Tayka islohotlari)
701-y.	Yer ajratish tizimini, «Tayxoryo» qonunlarini joriy etish
710-y.	Nara shahri poytaxtga aylanishi
VIII asr birinchi choragi	«Kodziki» yilnomasining yozilishi
720-y.	«Nixongi» yilnomasining yozilishi
794-y.	Poytaxtni Xeyyanga koʻchirish (zamonaviy Kioto)

1069–1167-y.	Sobiq imperator-rohiblar hukmronligi (Insey tizimi)
1185-y.	Shimoli-sharqiy va janubi-gʻarbiy feodallarning Dannourdagı jangi, Tayra xonadonining magʻlubiyati
1192–1333-y.	Minamoto Syogunligi
1260–1285-yy.	Moʻgʻullar istilosiga qarshi tayyorgarlik
1336–1573-yy.	Asikaga Syogunligi
1428–1580-yy.	Mikava provinsiyasidagi dehqonlar qoʻzgʻoloni
1485–1492-yy.	Yamasiro viloyatidagi dehqonlar qoʻzgʻoloni
1543-y.	Yevropaliklarning Yaponiyada paydo boʻlishi
1573–1582-yy.	Mamlakatning birinchi birlashtiruvchisi Oda Nobunaga faoliyati
1582–1598-yy.	Toyotomi Xideyosi
1588-y.	Xideyosining dehqonlardan qurolni tortib olish toʻgʻrisidagi farmoni
1592–1593-yy.	Xideyosining Koreyani bosib olishi
1600-y.	Sekigaxara jangi. Tokugava gʻalabasi
1603–1868-yy.	Tokugava Syogunligi
1614–1615-yy.	Osaka kompaniyalari. Xideyosi oʻgʻli tarafdorlarining magʻlubiyati
VII asrning 30- yy.	Tokugavaning mamlakatni yopish toʻgʻrisidagi qarori
1637–1638-yy.	Simabaradagi isyon

Koreya

III asr oxiri	«Sangoji»da Goguryo, Pekche, Silla davlatlari hududidagi koreys aholisining holati toʻgʻrisida maʼlumot
IV asr oxirgi choragi	Goguryo va Pekchega Buddizmning kirib kelishi
528 y.	Buddizmning Sillada rasmiy din sifatida tan olinishi
612–613-yy.	Yan Guanning Goguryoni zabt etishga urinishlaridagi muvaffaqiyatsizlik
660-y.	Pekche davlatining qulashi
668-y.	Goguryo davlatining qulashi
670–676-yy.	Tang imperiyasi tomonidan bosib olingan Koguryo va Pekche hududlarida xalq kurashlari
IX asr oxiri	Silla davlati hududida feodal yerlarning birlashtirilishi, oʻzaro urushlar
936-y.	Koryo davlati tomonidan mamlakatning siyosiy jihatdan birlashuvi

976-y.	Dalalar va bo'sh yerlarni rasman taqsimlash to'g'risidagi qonun
X asr oxiri – XI asr boshlari	Koryoning kidanlar tomonidan istilo etilishi
1176-y.	Man Yi boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni
1231–1273-yy.	Koreya xalqlarining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashi
1392-y.	Li sulolasining tashkil topishi (Choson davlati)
1443-y.	«Xunmim chonim « Koreys milliy alifbosining yaratilishi
1467-y.	Shimoliy Koreyadagi dehqonlar qo'zg'oloni
1592–1598-yy.	Koreys xalqining Yapon istilosiga qarshi kurashi
1545–1598-yy.	Qo'mondon Li Sun Sinning hayoti va faoliyati
1627 y., 1636-y.	Manchjur bosqinchilarining Koreyaga bostirib kirishi
Eron	
224–651-yy.	Sosoniylar davlati. Moni va moniylikning paydo bo'lishi
488–529-yy.	Eronda Mazdak harakati
636–651-yy.	Arablarining Eronni zabt etishi
636-y.	Kadisiya jangi
642-y.	Nehavend jangi
747–750-yy.	Abu Muslimning harakati
755-y.	Mag Sumbad harakati
816–837-yy.	Bobekning harakati
821–873-yy.	Tohiriylar amirligi
861–900-yy.	Safforiylar amirligi
900–999-yy.	Somoniylar amirligidagi Sharqiy Eron
935–1055-yy.	G'arbiy Eronda Buhdaviylar amirligi
999–1030-yy.	Mahmud G'aznaviy boshqaruvidagi Sharqiy Eron
1040–1050-yy.	Saljuqiylar tomonidan Eronning zabt etilishi
1090–1256-yy.	Ismoiliylar-Hashhoshiylar davlati
1194-y.	G'arbiy Eronning Xorazmshoh Tekesh tomonidan bosib olinishi
1220-y.	Mo'g'ullarning Eronga bostirib kirishi
1253–1256-yy.	Xulagu xon boshchiligidagi mo'g'ullar tomonidan Eronni bosib olishi
1295–1334-yy.	G'azon xon
1337–1381-yy.	Sarbadorlar davlati

1380–1393-yy.	Eronning Temur tomonidan bosib olinishi
1405-y.	Temur davlatining qulashi
1502–1736-yy.	Safaviylar davlati
1506-y.	Arabiston yarim oroli va Fors koʻrfazi portlarini portugallar tomonidan egallanishi
1587–1629-yy.	Shoh Abbos I hukmronligi
1623-y.	Golland savdogarlariga imtiyozlar berish toʻgʻrisida Shah Abbos I farmoni

Arablar

V asr	Kinda qabilasi yetakchiligida arab qabilalari ittifoqining shakllanishi
570–623-yy.	Muhammad (s.a.v.)ning hayoti va faoliyati
622-y.	Muhammad (s.a.v.) izdoshlarining Madinaga koʻchirilishi va musulmon taqvimining boshlanishi
633–750-yy.	Arablar Suriyani, Falastinni, Eronni, Oʻrta Osiyo va Kavkazning bir qismini, Misrni, Magʻrib va Ispaniyani zabt etishi
661–750-yy.	Ummaviylar davlati (Damashq xalifati)
685–687-yy.	Shialik shiorlari ostida Kufadagi xalq qoʻzgʻoloni
717–718-yy.	Arab qoʻshinlari tomonidan Konstantinopolni qamal qilinishi
739–742-yy.	Shimoliy Afrikadagi Barbar qabilalarining koʻtarilishi
747–750-yy.	Abu Muslim boshchiligidagi qoʻzgʻolon, Ummaviylar sulolasining agʻdarilishi
750–1258-yy.	Abbosiyalar sulolasi hukmronligi (Bagʻdod xalifaligi)
756 y.	Ispaniyada mustaqil Qurdoba amirligining tashkil topishi
762–766-yy.	Bagʻdod shahrining tashkil topishi
776–783-yy.	Markaziy Osiyoda Muqanna qoʻzgʻoloni
788–794-yy.	Shimoliy Afrikadagi Idrisidlar amirligi
800–909-yy.	Shimoliy Afrikadagi Agʻlabidlar amirligi
815–838-yy.	Ozarbayjonda Bobekning qoʻzgʻoloni
833-y.	Abbosiyalar xalifaligidagi harbiy islohotlar, gʻulom soqchilarining tuzilishi
869–883-yy.	Zinjlar qoʻzgʻoloni
910–1171-yy.	Fotimidlar davlati
1039–1129-yy.	Shimoliy Afrikadagi Almoravidlar davlati
1055-y.	Bagʻdodni Saljuqiylar tomonidan bosib olinishi

1199-1269 yy	Shimoliy Afrikadagi Almohadlar davlati
1171-1198 yy	Markazi Misr bo'lgan Ayyubiylar davlati
1171-1193 yy	Salohiddin Ayyubiy hukmronligi
1187-y.	Salibchilarning Salohiddin qo'shinlari tomonidan Quddusning uloqtirilishi
1250-1517 yy.	Misr va Suriyadagi Mameluk sultonlarining hukmronligi
1258-y.	Bog'dodni mo'g'ullar bosib olishi
1260-y.	Mo'g'ul qo'shinining Misr mamluki tomonidan mag'lubiyati
1516-1517-yy.	Suriya va Misrning turk qo'shinlari tomonidan bosib olinishi

Turkiya

1299-y.	Mustaqil Usmoniylar davlatining vujudga kelishi
1326-y.	Usmonli davlatining birinchi poytaxti bo'lgan Bursa shahrini turklar tomonidan egallanishi
1357-y.	Bolqonda Usmonlilar istilolarining boshlanishi
1396-y.	Salibchilarni Nikopolis yaqinidagi turk qo'shinlari tomonidan mag'lub etilishi
1402-y.	Anqara jangi. Temuriylar qo'shinlari tomonidan Boyazid qo'shinining tor-mor qilinishi
1416-y.	Shayx Badriddin Simavi va uning shogirdlari Mustafo Berkluje va Torlaq Kamol boshchiligidagi dehqonlarning namoyishlari.
1458-y.	Turklar tomonidan Konstantinopolni egallanishi
1514-1517-yy.	Armaniston, Kurdiston, Shimoliy Mesopotamiya, Hijoz, Suriya va Misrni turklari tomonidan bosib olinishi
1535-y.	Usmonlilar imperiyasi va Fransiya o'rtasidagi tinchlik, do'stlik va savdo shartnomasining tuzilishi
1569-y.	Birinchi rus-turk urushi
1571-y.	Lepantoda turk flotining mag'lubiyati
XVI asr oxiri	Jaloliyadagi g'alayon
1656-1661-yy.	Vazir Mahmud Poshsho Ko'prulu kengashi
Mo'g'uliston	
XII asrning	Temuchinning Merkit, Taiout, Tatarlarga qarshi harakati,
90-yillari	Mo'g'ulistonning birlashuvi
1206-y.	Temuchinning Chingizxon deb e'lon qilinishi
1205-1227-yy.	G'arbiy Siyadagi Tangut davlatiga mo'g'ul qo'shinlarining yurishlari

1218-y.	Mo'g'ul qurultoyining g'arb tomon yurish to'g'risidagi qarori
1220-y.	Buxoroning mo'g'ullari tomonidan bosib olinishi
1221-y.	Marvning mo'g'ullari tomonidan bosib olinishi
1221–1223-yy.	Ozarbayjon, Gruziya, Shimoliy Kavkaz va Rossiya yerlarida mo'g'ullar yurishi
1222-y.	Hindistonga harbiy yurishlarning boshlanishi
1234-y.	Szin (Shimoliy Xitoy) davlatini bo'ysundirish
1237–1238-yy.	Batu va Subete qo'shinlarining Rus yerlariga bostirib kirishi
1243–1245-yy.	Fransisk Djon de Plano Karpini elchixonasi Mo'g'ulistonda
1253-y.	Rubrukvisning Mo'g'ullarga elchiligi
1271-y.	Mo'g'ullar Yuan sulolasi. Poytaxtining Pekinga ko'chirilishi
1274, 1281-yy.	Yaponiyaga 1 va 2-chi harbiy ekspeditsiyalar
1282-y.	Hindistonda mo'g'ul qo'shinlarining yurishi
1368-y.	Xitoyda mo'g'ullar hukmronligining qulashi
1479-y.	Dayan Xon boshqaruvi ostida birlashgan mo'g'ullar davlatining shakllanishi
541–603-yy.	Xalqning Vetnam mustaqilligi uchun kurashi
906-y.	Vetnamdan Xitoy qo'shinlarining chiqarib yuborilishi
939-y.	Vetnamning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi
968–974-yy.	Din Bo Linni islohoti
1075-y.	Vetnam feodallarining Sun imperiyasiga qarshi yurishlari
1080–1104-yy.	Vetnamning Tyampa bilan urushi
1257, 1282,	Vetnam va Tyampaga mo'g'ul qo'shinlarining bostirib
1284-yy.	kirishi
1288-y.	Vetnam armiyasi tomonidan mo'g'ul qo'shinlarining mag'lub etilishi
XIV asrning 80–90-yy.	Xo Ki Li islohotlari
1471-y.	Vetnamning Tiampani bosib olishi
1516–1520-yy.	Chiang Kao boshchiligidagi dehqonlar urushi
	Vetnam
541–603-yy.	Xalqning Vetnam mustaqilligi uchun kurashi
906-y.	Vetnamdan Xitoy qo'shinlarining chiqarib yuborilishi

949 y.	Vetnamning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi
968-974-yy.	Din Bo Linni islohoti
1078 y.	Vetnam feodallarining Sun imperiyasiga qarshi yurishlari
1080-1104-yy.	Vetnamning Tyampa bilan urushi
1257, 1282, 1284-yy.	Vetnam va Tyampaga mo'g'ul qo'shinlarining bostirib kirishi
1788 y.	Vetnam armiyasi tomonidan mo'g'ul qo'shinlarining mag'lub etilishi
XIV asrning 80-90 yy.	Xo Ki Li islohotlari
1471-y.	Vetnamning Tiampani bosib olishi
1516-1520-yy.	Chiang Kao boshchiligidagi dehqonlar urushi
Indoneziya	
VI-VII asrlar	Kalinga davlati (Markaziy Java)
647-y.	Kalindan Xitoyga elchi yuborilishi
VII asr	Sumatrada Shri Vijaya davlatining ko'tarilishi
X asr oxiri	Mataram davlatining birinchi qonunlar to'plami (Markaziy va Sharqiy Java)
1006-y.	Javada urush va Mataram davlatining qulashi
1293-y.	Mo'g'ul qo'shinlarining Javaga qo'nishi va ularning mag'lubiyati
1293-1520-yy.	Malay arxipelagidagi Majapahit davlati
1350-1389-yy.	Majapaxit davlatida yerlarni ro'yxatga olish va qishloq jamoalariga soliq solish
1511 y.	Portugaliyaliklar Makkani bosib olishi
1519-y.	Musulmon davlatlari tomonidan poytaxt Majapaxitni bosib olinishi
XVI asr	Java uyushmasi
1596-y.	Bantomga birinchi Gollandiya savdo ekspeditsiyasi
1602 y.	Gollandiyaning East Indies kompaniyasining tashkil etilishi
1641-y.	Gollandiyaning Sharqiy Hindiston kompaniyasining Malakka tomonidan qo'lga olinishi
Afrika	
Iahm. 786-y.	Arab adabiyotida Gananing birinchi bor tilga olinishi
Iahm. 872-y.	Arab adabiyotida Mali va Kanem haqidagi ilk ma'lumotlar

VIII–X asr	Xausan shahar-davlatlarining paydo boʻlishi (Daura, Zaria, Kano)
XI–XII asr	Volta daryosi havzasida birinchi davlatlarning paydo boʻlishi (Moy, Yatenga)
1076-y.	Almoravidlar qoʻshinlari tomonidan Gananing magʻlub etilishi
1203-y.	Gana tomonidan Soso davlatini bosib olinishi
1085–1097-y.	Kanemda Umma Jilmi hukmronligi. Islom dinining davlat dini deb eʼlon qilinishi
1235-y.	Mali hukmdori Sundiata tomonidan Soso davlatining bosib olinishi
1400-y.	Songai davlati istilolarining boshlanishi
XIV–XV asrlar	Angola davlatining paydo boʻlishi
1433-y.	Timbuktu, Arauna va Oulatiga Tuareglarga boʻysunishi
1460–1469 yy.	Portugallar tomonidan Kabo Verde orollarini egallanishi
1472-y.	Portugaliyaliklar Beninga birinchi tashrifi (Ruy de Sequire)
1481-y.	Malidagi birinchi Portugaliya elchixonasi
1482-y.	Kongoga Diego Cao boshchiligidagi Portugaliya ekspeditsiyasining kelishi
1498–1499-yy.	Songai davlatining Mali davlatiga harbiy yurishlari
1501–1509-yy.	Songai askini Muhammad I ning Maliʼga qarshi yurishlari
1517-y.	Bagan (Mali) viloyatida Songai bosqinchilariga qarshi kurash
1530-y.	Songai tomonidan Bambuk davlatni egallanishining boshlanishi
1534-y.	Malidagi ikkinchi Portugaliya elchixonasi
1540-y.	Muhammad Gran boshchiligida Gall qabilasining Efiopiyaga hujumi
1545–1546-y.	Maliga qarshi Songai harbiy yurishlari
1546; 1556-y.	Sahara tuz-konlari uchun birinchi Songai-Marokash toʻqnashuvi
1565-y.	Tombuktuga portugallarning kirib kelishi
Tahm. 1587-y.	Kongo davlatida Mbula Matadi boshchiligidagi portugallarga qarshi isyon
1591-y.	Marokash qoʻshinlarining Tombuktuni egallashi. Songai davlat mustaqilligining tugashi

XVI asr oxiri XVII asr boshlari	Kanem-Bornu davlatining mustahkamlanishi
XVII asr boshlari 1630-y.	Ashanti qabilasi «Konfederatsiyasi»ning paydo bo'lishi Senegalda birinchi fransuz savdo manzilgohlarining paydo bo'lishi
Iahm, 1670-y.	Seguda bambara qabilalari davlat birlashmasining tashkil topishi

1. Акимушкин О. Ф. Средневековый Иран: культура, история, филология. – СПб., 2004.
2. Алаев Л. Б. Средневековая Индия. – СПб., 2003.
3. Алаев Л. Б. Формационные черты феодализма и Восток // Народы Азии и Африки. История, экономика, культура. – М., 1987. № 3.
4. Алимов И. А., Ермаков М. Е., Мартынов А. С. Срединное государство. Введение в традиционную культуру Китая. – М., 1998.
5. Баранов И. Г. Верования и обычаи китайцев. – М., 1999.
6. Берзин Э. О. Юго-Восточная Азия в XIII-XVI вв. – М., 1982.
7. Берзин Э.О. Юго-Восточная Азия с древнейших времен до XIII в. – М., 1995. Васильев Л.С. История Востока. в 2-х т. – М., 1998.
8. Большаков О. Г. История Халифата. Ч. 1. Ислам в Аравии (570-633). – М., 1989.
9. Большаков О. Г. История Халифата. Ч. 2. Эпоха завоеваний (633–656). – М., 1993.
10. Васильев Л. С. История Востока. Текст. Т. 2 учеб.: в 2-х т. Л. С. Васильев. – М.: Высшая школа, 1998.
11. Воробьев М.В. Японский кодекс «Тайхо ёро рё» (VIII в.) и право раннего Средневековья. – М., 1990.
12. Елисеефф В., Елисеефф Д. Японская цивилизация / Пер. с франц. И. Я. Эльфонд. – Екатеринбург, 2005.
13. Елисеефф В.И Д. Цивилизация классического Китая. – М., 2007.
14. Еремеев Д. Е. Ислам: образ жизни и стиль мышления. – М., 1990.
15. Еремеев Д. Е., Мейер М. С. История Турции в средние века и в новое время. – М., 1992.
16. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
17. Зеленев И. Е. Государственное управление, судебная система и армия в Египте и Сирии. – СПб., 2003.
18. Изучение истории Кореи через всемирное наследие. –

- Бунданг: Изд-ва Центральной Академии корееведения. 2012.
19. История Востока. Т. 1. Восток в древности. В 6 т. Рос. акад. наук, Ин-т востоковедения; Отв. ред. В. А. Якобсон. – М.: Восточная литература, 2000.
 20. История Востока. Т. 2. Восток в средние века / Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян. – М., 2000.
 21. История и культура Японии / Отв. ред. В. М. Алпатов. – М., 2001.
 22. История Китая / Под ред. А.В. Меликсетова. – М., 2002.
 23. История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-х томах. – М.: Наука, 1974.
 24. История Османского государства, общества и цивилизации. – М., 2006. Т. 1-2.
 25. История средних веков Под ред. З.В.Удальцовой и С.П.Карпова. 1-2 ч. – М.: Высшая школа, 1991.
 26. История средних веков. Под ред. С.П.Карпова, часть II. – М.: МГУ, 2001.
 27. История стран Азии и Африки в средние века. М., 1988.
 28. История стран Азии и Африки в средние века. – М.: МГУ, 1968.
 29. Кардини Ф. Европа и ислам: история непонимания. – СПб., 2007.
 30. Киддер Дж. Э. Япония до буддизма. Острова, заселенные богами. – М., 2003.
 31. Классическое конфуцианство: переводы, статьи, комментарии. – СПб., Т. 1. 2000.
 32. Кожевников В. В. Очерки истории Японии. – Владивосток, 1999.
 33. Колыбель Японской цивилизации. – М., 1994.
 34. Коротаев А. В., Клименко В. В., Прусаков Л. Б. Возникновение ислама: социально-экологический и политико-антропологический контекст. – М., 2007.
 35. Кудрявцев М. К. Кастовая система в Индии. – М., 1992.
 36. Курбангалиева Р.Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув методик кўлланма. – Т.: Учпедгиз, 1991.
 37. Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начала

- XXI века. – СПб.: С.–Петербург. ун-ва. 2009.
38. Ломбар Д. Императорский Китай. – М., 2004.
39. Лорд Кинросс. Расцвет и упадок Османской империи / Под ред. д.и.н. М.С. Мейера. – М., 1999.
40. Лучицкая С. И. Образ другого: Мусульмане в хрониках крестовых походов / Отв. ред. А. Я. Гуревич. – СПб., 2001.
41. Малявин В. В. Китайская цивилизация. – М., 2001.
42. Манъёсю. Японская поэзия / Пер. с яп., вступит. ст. и коммент. А.Е. Глускиной. – М., 2001. Т. 1-3.
43. Медведев Е. М. Очерки истории Индии до XIII века. – М., 1990.
44. Михайлова И. Б. Средневековый Багдад: некоторые аспекты социальной и политической истории города в середине X – середине XIII вв. – М., 1990.
45. Новая история стран Азии и Африки XVI–XIX века. – М.: ВЛАДОС, 2004.
46. Новая история стран Азии и Африки. XVI–XIX вв.: Учебник для студ. высш. учеб. заведений / (А.М. Родригес и др.); под ред. А.М. Родригеса: в 3 ч. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2008.
47. Овчинников, А.В. История Ближнего и Среднего Востока с середины I тысячелетия до н.э. до XVIII в. – Казань: КНИГУ, 2014.
48. Ольденбург С. Ф. Культура Индии. – М., 1991.
49. Османская империя: государственная власть и социально-политическая структура. – М., 1990.
50. Очерки распространения исламской цивилизации. – М., 2002. Т. 1-2.
51. Переломов Л. С. Слово Конфуция. – М., 1992.
52. Петросян Ю. А. Османская империя: могущество и гибель. Исторические очерки. – М., 1990.
53. Плетнева С. А. Кочевники средневековья: Поиски закономерностей. – М., 1982.
54. Резван Е. А. Коран и его мир. – СПб., 2001.
55. Религии Китая. Хрестоматия / Сост. Е.А. Торчинов. – СПб., 2001.
56. Родионов М. А. Ислам классический. – СПб., 2004.

57. Самбуrowa E. H., Медведова A. A. Китай. – M., 1991.
58. Свет Я. М. Последам путешественников и мореплавателей Востока. – M., 1995.
59. Семёнов В. П. Ўрта асрлар тарихи. – Т.: «Ўқитувчи», 1973.
60. Семенова Л. А. Из истории средневековой Сирии. Сельджукский период. – M., 1990.
61. Сила-Новицкая Т. Г. Культ императора в Японии: мифы, история, доктрины, политика. – M., 1990.
62. Симбирцева Т. М. Владыки старой Кореи / Труды Института восточных культур и античности. Вып. XXXV. – M.: ИВКИ, РГГУ. 2012.
63. Сурдель Д., Сурдель Ж. Цивилизация классического ислама / Пер. с франц. – Екатеринбург, 2006.
64. Сэнсом Дж. Б. Япония. Краткая история культуры. СПб., 1999.
65. Толстогузов А. А. Очерки истории Японии. VII–XIV вв. – M., 1995.
66. Тысяча журавлей. Антология японской классической литературы VIII–XIX вв. / Сост. Т. П. Редько. – СПб., 2004.
67. Успенская Е. Н. Раджпуты: рыцари средневековой Индии. – СПб., 2000.
68. Фадеева И. Л. Концепция власти на Ближнем Востоке: Средневековье и Новое время. – M., 2001.
69. Фильштинский И. М. История арабов и Халифата (750–1517). – M., 2001.
70. Фильштинский И. М. История арабов и Халифата (750–1517 гг.). Изд. 3-е. – M.: АСТ: Восток-Запад, 2006.
71. Финджералд Ч. П. История Китая / Пер. с англ. Л. А. Калашишниковой. – M., 2005.
72. Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1- qism. XVI–XVIII asrlar). O'quv qo'llanma. – T.: «O'ZBEKISTON», 2013.
73. Andrea L. Stanton. Cultural Sociology of the Middle East Asia and Africa Editor, Volume I: Middle East. University of Denver. 2012.
74. Chandler D. P. A History of Cambodia. – Boulder: Westview Press, 1992.

75. Dumper, Michael, and Stanley, Bruce E., *Cities of the Middle East and North Africa: A Historical Encyclopaedia*, 2007.

76. Lieberman V.B. *Strange Parallels: South-East Asia in Global Context, c. 800-1830. Vol. 1: Integration on the Mainland.* – Cambridge, 2003.

77. Maspero G. *The Champa Kingdom: The History of an Extinct Vietnamese Culture.* – Bangkok, 2002.

78. Roger B. Beck, Linda Black. Larry S. krieger. Philip C. Naylor. *Dahia Ibo Shabaka «World history: patterns of interaction».* McDougle Little, USA, 2009.

79. Xan V. S. *Koreya raixi.* – T.: «Baktria press», 2013.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BO'LIM. FEODAL MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI DAVRI.....	9
I BOB. Ilk o'rta asrlarda Xitoy.....	9
II BOB. Ilk o'rta asrlarda Hindiston.....	25
III BOB. Ilk o'rta asrlarda Yaponiya.....	33
IV BOB. Ilk o'rta asrlarda Koreya.....	41
V BOB. Ilk o'rta asrlarda Eron.....	47
VI BOB. Arab musulmon davlatlarining vujudga kelishi va yuksalishi.....	59
VII BOB. Ilk o'rta asrlarda Janubiy-Sharqiy Osiyo.....	77
II BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR DAVRIDA.....	89
VIII BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Xitoy.....	89
IX BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Hindiston.....	94
X BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Yaponiya.....	99
XI BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Koreya.....	116
XII BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Eron.....	125
XIII BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Turkiya (Usmoniylar sultanatining vujudga kelishi).....	148
XIV BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Mo'g'ullar imperiyasi.....	166
XV BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Janubi-Sharqiy Osiyo.....	173
XVI BOB. Rivojlangan o'rta asrlarda Afrika davlatlari.....	181
III BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA SO'NGGI O'RTA ASRLAR DAVRIDA.....	205
XVII BOB. So'nggi o'rta asrlarda Xitoy.....	205
XVIII BOB. Xvi-xvii asrlarda Hindiston.....	210
XIX BOB. So'nggi o'rta asrlarda Yaponiya.....	219
XX BOB. So'nggi o'rta asrlarda Koreya.....	229
XXI BOB. So'nggi o'rta asrlarda Eron.....	245
XXII BOB. So'nggi o'rta asrlarda Turkiya.....	253
XXIII BOB. So'nggi o'rta asrlarda Janubi-Sharqiy Osiyo.....	261
XXIV BOB. So'nggi o'rta asrlarda Afrika davlatlari.....	273
XRONOLOGIYA.....	285
TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR.....	296

**SARIMSOKOV ABDILATIP ABDIRAXIMOVICH,
DEXKANOV NARIMON BURXONJONOVICH**

JAHON TARIXI

(Osiyo va Afrika mamlakatlarining oʻrta asrlar tarixi)

Muharrir: S. Abdunabiyeva
Badiiy muharrir: K. Boyxoʻjayev
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 0038.

Bosishga ruxsat etildi 26.05.2021 y.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qogʻozi. «Times New Roman»
garniturasida. Hisob-nashr tabogʻi. 15,0.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 22.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qoʻyliq 4 mavze, 46.

ISBN 978-9943-7250-6-5



9 789943 725065